" ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI "

mavzusidagi Respublika ko`p tarmoqli, ilmiy konferensiya

№ 1
sentabr
2022 yil

www.ojs.rmasav.com

Tahririyat a'zolari

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Мадумаров Т.Т. yur.f.d., prof.
Мирзаева С.Р. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: ***M.Yusupov***

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN 2181-3558

ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI

№ 1 SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
24-SENTABR 2022-YIL

RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION, THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES

1ST REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
SEPTEMBER 24, 2022

MUNDARIJA

Акбарова З. Роль наглядных пособий в познавательных процессах у детей дошкольного возраста и психологические основы 7
Umarova D. Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirish 10
Xamdamova X.Sh. Paremiologik birliklar va ularning stilistik imkoniyatlari 13
Xamdamova X.Sh. "Rustamxon" dostonida paremalarning qo'llanilishi 15
Alibekova M.A. Clil usuli: u chet tilini o'rganish manzarasini qanday o'zgartirmoqda....18
Abdalova G., Tajiyev J., Odinayev Sh., Islomov T. Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlarida organik usulda takroriy ekin sifatida loviyaning mahsuldor va rovot navlarini yetishtirish hamda ularning tuproq unumdorligiga ta'siri....23
Abdalova G., Tajiyev J., Odinayev Sh., Islomov T. Tuproq unumdorligining kamayishi va uning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri 26
Ашурова Д.Х. Ўқитишнинг кредит-модуль тизимида талабалар билимини баҳолаш....29
Ахмедов Э.Т. Ошловчи тотим (rhus coriária l.) ўсимлигининг биоэкологик хусусиятлари тўғрисида 32
H.Nurfayziev Bankning mijozlar bilan ishlash samaraligini oshirish....35
Hamdamova M. Arab, fors, o'zbek adabiyotida aruz va aruzshunoslar 46
Джамалидинова М.Б. Техническое обеспечение в проектировании автоматизированной рабочей место шитья с использованием искусственного интеллекта 48
Abdiraimov Sh.S. O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish va baholashga doir 51
Давлетбаева Н.К. Қорақалпоқ халқи ўтовидаги асосий безак – ақбасқур ҳақида баъзи маълумотлар 54
Xusainova M. … Funksiyalar sinfi 57
Sh.Karimova Farid edgu asarlarida modern uslubning namoyon bo'lishi 59
Умаралиев Дж.А. Ширкатлар тарихига назар 63
Saidov S.F. Jamiyat huquqiy tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari....72
Abraxmatov H.U. O'rmon xo'jaligi yerlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha mamlakat miqyosidagi qaror va buyruqlar 73
Тахирова Н.Б., Набиев А.А., Худойбердиев Ф.И. Технология получении известково-аммиачной селитры с новыми добавками 77
Tukhtaeva D.Z. The semantic features of phraseological units denoting human intellectual abilities in the uzbek language....80
Давлетбаева Н.К. Қорақалпоқ халқи ўтовидаги асосий безак – ақбасқур ҳақида баъзи маълумотлар 82
Aslonova F.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim olishi va intellektual rivojlantirishda didaktikaning mazmuni....84
Sayidyusupov M. Assessment of quality parameters of transport service of urban passenger transport...86
Sarvar S.F. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish....91
Ураков Н.А. Тоштемиров С.Т. Совершенствование конструкции питающего цилиндра пневмомеханических прядильных машин....94
Алкарова Ф.Н. Амалий кўникмаларни ривожлантиришда технология дарсларининг аҳамияти ...98
Nargiza K.Q. Boshlang'ich sinflarda o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini rivojlantirish haqida ..101
Z.Hakimova Boshlang'ich sinflarda olmosh so'z turkumining o'rganilishida e'tbor berilishi lozim bo'lgan elementlar....103
Sarabayeva I.Sh., A.K.Qayimov Manzarali daraxt va butalarning chang ushlab qolish xususiyati.....104
Бокижонов М.М., З.С.Искандаров Научное обоснование применения «мгновенной заморозки» при хранении ягоды 108
Sarabayeva I.Sh. A.K.Qayimov "Manzarali daraxtlarning estetk va sanitar-gigienik hususiyatlarini baholash" bo'yicha ilmiy ishi bo'yicha ma'lumotlar....113
Қ.Ўразметов, А.Хорунова Шоли навларини поя баландлиги ва вегетация даврини давомийлигига азотли ўғитлар меъёрларини таъсири 118
L.Xalilova, N.Ibragimova Jo'xori hosildorligiga ekish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari va ularning tahlili 122
Тиллашайхова М.А. Янги авлод фан дастуриларини яратишда ўқув жараёнини лоиҳалаб ўқитишнинг аҳамияти....124

Самигова Г. Янги очилган таълим йўналишлари учун ўқув адабиётларини янги авлодини яратиш услубиёти ва уни таълим жараёнларига тадбиқ этиш методикаси 129
Юлдашева З.К., Чориев Э.О. Кузги рапснинг ўсиши ва ривожланишига экиш меъёрининг таъсири 132
Mamanazarova G. Boshlang‘ich ta’limga integratsion yondashuv 137
Alimova S.S. “Bosh” somatizmining polisematizm birligi sifatida o`rganilishi 140
M.Berdibaev, Yuldashev M. Matematika o’qitish metodikasi 143
Mamatqulov R.Z. Go‘za yetishtirishda begona o‘tlarga qarshi abone super gerbitsidning ta’sirini ilmiy asoslash haqida ilmiy ish haqida ma’lumot.....147
Ахмедова А.Н. Бадиий асарлар параллел корпусини яратишда лексикографик тадқиқотлар талқини.....151
Z.Hakimova Olmosh so‘z turkumining xususiyatlari 154
D.U.Matniyozova SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf –hazratlarining «baxtiyor oila» asarida diniy terminlarning qo‘llanilishi.....156
Saidov S.F. Yangi O’zbekiston bunyodkori — yoshlardir.....157
Eshmirzayeva G.E. O‘qituvchining nutqiy madaniyati.....160
Мухтор Собиров O‘zbekistondagi cho‘l hududlar suv tanqisligining oldini olish uchun olib borilgan tadqiqotlar 163
Mirzayeva S. Fe’l so’z turkumi va uning leksik – semantik tasnifi 165
Djurayeva F.T. Yangi o‘zbekistonning yangi siyosati – mamlakat, mintaqa va dunyo taraqqiyotidagi o`rni 167
Maxanov Sh.I. Xalq cholg’u asboblari ahamiyati.....170
Исмаилов Конысбаи Куатбаевич Нызам дөретиўшилигинде пуқаралық жәмийети институтлары орны 172
Ergasheva N.S. Bo'g'imoyoqlilarning tuzulishi va tabiatdagi funktsiyasi 175
Muydinov E.A. Elektron hukumatning jamiyatimizdagi o`rni 177
M.R. Turg'unov Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xavfni hisobga olish 178
Давлетбаева Н.К. Қорақалпоқ халқи ўтовидаги асосий безак – ақбасқур ҳақида баъзи маълумотлар 179
Iskandarova I. Kraudsorsing nima? yoxud zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida kraudsorsingni tutgan o’rni 182
Sattorov.O.F Oliy ta’lim muassasalaridagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari va o‘ziga xos xususiyatlari 184
N.B. Djumaniyazova, N.K.Abdullayeva Qadring baland bo`lsin, ona tilim! 189
Turg'unov M.R., **Maxammadiyeva S.Sh.** Tashqi bozorga kirish strategiyalari 190
Boltayeva M.J. Tarix darslarini tashkil etishda innovatsion yondashuv.....193
Ш.К.Каримова Таълим муассасаларида учрайдиган муаммоларнинг педагогик-психологик жиҳатлари 195
O’lmasov Q.N. Buxoro viloyati hududining quyosh energiyasi resurslar salohiyatini baholash.....199
S.E.Amirov Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darsliklarida astronomiya elementlarini o‘qitish asoslari 203
S.E.Amirov Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darsliklarida fizika elementlarini o‘qitish 204
D.Fatidinova Bola psixik taraqqiyotida oilaning roli.....206
D.T.Sobirov Benchmarking beradigan imkoniyatlar 209
D.T. Sobirov Ta’lim tizimida benchmarkingning qo‘llanilishiga sabablar.....210
Turg̕unova D.M. Boshlang`ich ta'lim o`quvchilarda chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi 211
**To`raqulova F.S.** Yosh qizlarda jismoniy sifatlar orqali sog`lomlashtirish.....214
Qilichova K.L. Dunyo mamlakatlarida ozodlikdan mahrum qilingan ayollarni jazoni o’tashi 219
Qilichova K.L. Ayollar jinoyatchiligi va ularning o’ziga xos jihatlari 221
Ganieva M.G. Comparative analysis of isomorphic features of "wedding ceremony" in english and uzbek languages.....222
Ganieva M.G. Comparative analysis of allomorphic features of "wedding ceremony" in english and uzbek 225
Юлдашева С.Б. Ўзбек тилидаги феълларнинг ўзига хос жиҳатлари 229
Юлдашева С.Б. Феълнинг айрим грамматик жиҳатларига доир.....233

N.K.Qaytarova Mamlakat ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyotning egallayotgan o‘rni 238
М.Собиров Состояние и возможности информационного обеспечения для изучения проблемы засух в центральной азии.....239
Абдураҳманова М.Т. Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан фойдаланишнинг назарий асослари 242
M.B.Azizova Translation problems in the field of tourism 248
Раупов Ж.Р. Цифровая трансформация медицинского страхования.....249
Худаяров И.И. Миграция жараёни ва этно-маданий трансформация 252
Sobirov S.J. Ikkita perpendikulyar buzilish chizig’iga ega elliptik tipdagi tenglama uchun chegaraviy masala haqida 257
Uralov O.M., Nasimov A. Raqamli iqtisodiyot - iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida 260
Karimov Abdusamad Cholpon's world of literature 263
Xakkulov K.B. Shaharlardagi parkovkalarni boshqarish tizimlarini shakllantirish xususiyatlari 265
Махсумов С.А., Саидова М.А. Мураккаб шакллардаги либосларни лойиҳалаштириш усул ва воситаларининг таҳлили.....270
Ибрагимов А.А., Маматов З.М. Изучение химического состава мяса и другой продукции, получаемой из кролика 275
Maxmarizayeva Y. Tabiat kuychisi va rangtasvir ustasi (O‘rol Tansiqboyev asarlari misolida) 278
Тошматов Б., Бозоров Б. Чорвачилик биноларида мўътадил иқлим яратиш ва иссиқлик таъминоти тизимлари 283
O.Mansurova Teroristik faoliyatlarda o‘z joniga qasd qilish sindromining ijtimoiy-psixologik hususiyatlari 287
Гаффаров Л.Х. Мутахассисда касбий компетентлигини ривожлантиришнинг фундаментал элементлари 293
Abdusaidov S.J. Buxgalteriya hisobida ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari 296
Мадартов Б.К., Халилов Ш.Х., Хашимова М.Р., Борасулов А.М. Бодринг селекциясида янги гермоплазманинг генетик-селекцион аҳамияти 300
Махсудова М.Х. Бошланғич синф ўқувчиларининг жисмоний тайёргарлигини айрим сифатларини тавсифлаш 304
Махсудова М.Х. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг функционал кўрсаткичлари.....306
Маматов З.М. Ўзбекистонда қўёнчиликни ривожлантиришнинг истиқболлари 308
М.Ф.Давлетмухаметова Преимущества использования методик изучения словарного запаса на уроках русского языка 310
Matyakupov M.G'. Arxeologiyaning bugungi kundagi vazifasi va arxeologik yodgorliklarni o`rganish 313
Toxirova M.Sh. Innovatsion ta'lim sharoitida pedagogik hamkorlikni rivojlantirishning afzalliklari.....315
G'oibova N.Z. Texnik fikrlashni rivojlantirish va dars jarayonida innovatsion pedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati 318
К.Дж.Шомақсудова, Н.З.Файзуллаева, Ш.Э.АсанбАев, Д.П.Рахимов Оптимальные технологические параметры для извлечения масла кунжута 321
Шарипов С.С. Иқтисодиётни ривожлантиришда реал сектор корхоналарининг ўрни 324
Шарипов С.С. Миллий иқтисодиётни рақобатбардошлигини оширишда инвестицияларнинг ўрни 327
Zokirovich Z.Z. Fitovak stimulyatorining hamda karbamid o`g`iti asosida tayyorlangan suspenziyaning paxta hosiliga ta’siri 329
Zokirovich Z.Z. Karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya va fitovak stimulyatorlarining g’o’zaning quruq massasiga ta’siri.....332
Raxmonova Z.A. Ingliz tilida baxtlilik konseptining slenglar orqali ifodalanishi.....336
Yulamanova Sh.N. O’zbekiston respublikasining davlat tili - o’zbek tilidir.....339
Fayzullokh Sattoriy Davlat qarzi va iqtisodiy o’sish tahlili 344
Ibragimova N.Q. Yengil atletika darslarini tashkil qilishda xarakatli o`yinlarni ahamiyati.....347
Ibragimova N.Q. Gimnastika mashg`ulotlarida sportchilarga beriladigan umumiy yuklamalar .349
Шодмонов Ф.А. О посещении мух-журчалок (diptera, syrphidae) цветковых растений в зарафшанском хребте 352

Раупов Б.К., Мавланов Б.А., Фозилов С.Ф. Приготовление дорожных смесей на основе серобитумных вяжущих композиционных материалов 355
Қўчқаров Б.Р. Жомбой тумани суғориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқларининг механик ва микроагрегат таркиби 358
Султанов Х.Э. Буюк мутаффаккир сиймоси рассом нигоҳида 361
Зияева М. Олий таълим тизимида педагогик неонология 364
Есемуратов Б.А. Методика обучения иностранному языку студентов на основе мобильных технологий 367
Зияева М. Талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш 371
M.I.Quvondiqova Oliy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etishning afzalliklari 373
M.I.Quvondiqova Mustaqil ta’limni tashkil etishda ilg’or xorijiy tajribalarning ahamiyati 375
Мухамедов А. “Қутадғу билиг” асарида маънавий юксалиш масалалари 377

РОЛЬ НАГЛЯДНЫХ ПОСОБИЙ В ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Акбарова Зухрахон
Студентка Андижанского государственного унверситет

Аннотация. В данной статье представлена информация о роли наглядных пособий в познавательных процессах детей дошкольного возраста и их психологическом значении. Поскольку все умственное развитие человека в основном состоит из развития памяти, память начинает развиваться с первых дней жизни ребенка. Следует отметить, что первые признаки памяти у ребенка начинают проявляться при знакомстве с людьми и предметами, находящимися поблизости. Мы можем узнать это по действиям, которые совершает ребенок, когда видит что-то знакомое.

Ключевые слова: Ребенок, мышление, память, наглядность, психика, восприятие, явление, восприятие, предмет, форма.

Abstract. This article provides information on the role of visual aids in cognitive processes in children of preschool age and their psychological significance. Since the entire mental development of a person consists mainly of the development of memory, memory begins to develop from the first days of a child's life. It is worth noting that the first signs of memory in a child begin to be seen in the acquaintance of people and things from his immediate environment. We can know this from actions that the child does when he sees something familiar to him.

Keywords: Child, thinking, memory, visual, psychic, perception, phenomenon, perception, Subject, form.

Annotatsiya. Mazkur maqola maktabgacha yoshi bolalarda bilish jarayonlarida ko’rgazmali qurollarni o’rni va ularning psixologik ahamyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Odamning butun aqliy taraqqiyoti asosan xotiraning taraqqiyotidan iborat ekan, xotira bola hayotining dastlabki kunlaridan boshlaboq rivojlana boshlaydi. Shuni ta’kidlashimiz keraki bolada xotiraning dastlabki alomatlari yaqin atrofidagi odamlarni va narsalarni tanishida ko‘rina boshlaydi. Buni biz bola o‘ziga tanish bo‘lgan narsani ko‘rganida qiladigan harakatlardan bilishimiz mumkin.

Kalit so’zlar: Bola, tafakkur, xotira, ko’rgazmali, psixik, idrok, hodisa, idrok, predment, shakl.

Экономическая мощь каждой страны, повышение уровня социально-духовной жизни определяются конкурентоспособностью системы образования, развитием науки.

Дошкольники чувствуют необходимость различать формы, с которыми они сталкиваются. Они часто пытаются выяснить, как выглядит предмет и чем он отличается от других различных форм среди имеющихся у них понятий, часто восприятие времени вызывает у детей значительные трудности, а также проблемы с его пониманием. Специальные исследования показывают, что общность понятий отражает способность ребенка отражать мир в едином пространственно-временном комплексе. Российские психологи указывают на развитие художественного восприятия детей как на результат развития личности. Он не дается человеку врожденно. Л. С. Выготский экспериментально высказал мнение, что перцептивные ветви, выдвинутые В. Штерном, объясняют не восприятие, а взаимодействие на определенном этапе развития восприятия и речи. В художественном восприятии - в понимании содержания образа, композиции произведения большое значение имеет степень соответствия содержания и структурной сущности картины Эстетическое восприятие развивается в процессе различной художественной и повседневной деятельности ребенка. Правильное руководство детьми взрослыми приводит к повышению эстетического восприятия на гораздо более высокий уровень уже в детском саду. В конце первого месяца жизни, в начале второго месяца с начальной улыбкой, а затем с комплексом оживления ребенок отделяется от среды, отделяющей взрослых. Этот социализационно-перцептивный процесс активно развивается младенчествеи раннем детстве

В целом припоминание и припоминание ребенком материала всегда должно находиться под руководством воспитателя. Потому что все виды памяти у ребенка детсадовского возраста начинают расти. Однако характерно, что среди основных видов памяти (например, образной, механической, текстовой) память действия развивается сравнительно сильнее. Именно поэтому дети этого возраста легко разучивают различные движения и играют под музыку. Механически усваиваемый речевой материал также частично включается в рабочую память. По этой причине дети детсадовского возраста заучивают стихотворения с разным ритмом, которые произносятся быстро после пары повторений. Например, «счет»,который произносится перед игрой в прятки. Смысла в игре в прятки нет, но есть очень выразительный и звонкий ритм Мышление, как и другие психические процессы, начинает развиваться у детей с раннего возраста Дети усваивают знания и понятия, созданные с помощью человечества с помощью взрослых. Мышление у детей начинает появляться после 1 года. После 1 года, когда у него высовывается язык, он понимает, зачем ему нужны

близкие вещи. Наиболее заметной особенностью мышления 2-летнего ребенка является его способность к анализу и обобщению Мышление начинает очень быстро развиваться в период детсадовского возраста.Причина этого в том, что жизненный опыт детей в возрасте от 1 до детсадовского возраста значительно увеличился, речь в этот период от 2 до 3 лет хорошо развилась, дети детсадовского возраста имеют много возможностей быть свободными и самостоятельными. Роль речи в развитии мышления детей очень велика. Потому что мышление осуществляется посредством речи. Человек, у которого есть речь, не имеет средств мышления. Реальность мышления видна в речи. После того, как дети узнают названия различных предметов и явлений вокруг них, они постепенно обобщают их. В семье через взаимодействие взрослых в детском саду с детьми дети быстро усваивают не только отдельные понятия, но и готовые логические речевые формы. Словарный запас ребенка, достигшего детсадовского возраста, начинает быстро увеличиваться, ребенок усваивает существительные, глаголы, прилагательные и местоимения из словосочетаний. Это, в свою очередь, влияет на мышление ребенка. Например: показывать 3-летнему ребенку куклу и карандаш, что это? - на вопрос ребенок говорит название "это кукла, это карандаш", ребенок 5 лет играет с куклой "это карандаш, он черный, красный" - говорит: а 6-годовалого ребенка и тот отвечает, что «пишет пером, он высокий, черного цвета», «он играет с куклой, у него есть голова, руки, ноги и волосы». В возрасте большой группы поле свободного движения гораздо шире, чем в юношеском возрасте.

Книги

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta'lim to`g`risida” gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1997 yil. 2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. –М.: Изд-во Питер, 2000. –512 С.
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I, Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. Toshkent-2000.
3. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
4. Nishonova Bolalar psixologiyasi. Toshkent 2020y. Ермолаева, М. В. Психология развития : метод. пособие для студентов заочной и дистанц. форм обучения / М. В. Ермолаева. – 2-е изд. – М. : Московский психолого-социальный институт ; Воронеж : МОДЭК, 2003. –376 с. – (Библиотека психолога).

5. Житко, И. В. Бубик и Пики: Форма. Величина : пособие для детей старшего дошкольного возраста / И. В. Житко. – Минск : Сэр-Вит, 1999. – 24 с.
6. Коломинский, Я. Л. Психическое развитие детей в норме и патологии: психологическая диагностика, профилактика и коррекция / Я. П.

OILA VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI HAMKORLIGIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI REJALASHTIRISH

Umarova Dilshoda
Andijon Davlat Unversiteti Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga oilaning ta’siri aks etgan. Oilani bola bilan munosabati ko’p jihatdan uning kelajakdagi xulq-atvorini, muloqot va muvaffaqiyati xarakterini belgilaydi. Chunki bolalar, birinchi navbatda, oiladagi yaxshi va yomon munosabatlarni tan oladilar.

Kalit so’zlar: Oila,bola, tarbiya, ota-onalar, ruhiy, psixik, xarakter, shaxsiyat, kelajak, xulq-atvor.

Аннотация. В данной статье отражено влияние семыи на развитие детей дошколыного возраста.Потому что дети в перевую очереды распознают хорошие и плохие отношения в семье.

Ключевые слова: Семыя, ребенок, воспитание, родители, психическое, характер, личносты ,будщее, поведение.

Abstract. The article reflects the family’s impact on the development of preschool children. The family’s relationship with the child largely determines the nature of his or her future behavioral communication and success. Because children firs and foremost acknowledge the good and bad relationships in the family.

Keyswords: Family, child, upbringing, parents, mental, psychis, character, personality, future, behavior.

Bolalar ruhiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini o’rganish turli yosh davrlarda (chaqaloqlik, go’daklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh davri, kichik maktab yosh davri) psixik rivojlanish xususiyatlari, shuningdek bog’cha yosh davrlardagi bog’cha faoliyati xususiyatlari haqidagi bilimlarni egallash, tarixan shakllanishga olib keladi. Oiladagi bola bilan munosabatga ko’p jihatdan uning kelajakdagi xulqatvorini , muloqot va muvaffaqiyat xarkterini belgilaydi, chunki bolalar, birinchi navbatda, oiladagi yaxshi va yomon munosabatlarni tan oladilar. Ota-onalar bolaning shaxsiyatiga ta’siri psixologlar tomonidan yetarlicha batafsil

tavsiflangan va o’rganilgan. Ular oilada ota-ona va bola munosabatining 4 ta umumiy turini aniqlay olishdi.

1. Befarq
2. Vakolatli
3. Avtoritar
4. Liberal

Bu yoki boshqa yo’l, lekin bolalik davridagi bolalar va kattalar o’rtasidagi munosabatlar kattalar bolalari bilan munosabatida namoyon bo’ladi. Oiladagi tarbiya tizimi har doim ham ota-onalar tomonidan tushunilmaydi. Bolaga nisbatan maqbul yoki qabul qilinishi mumkin bo’lmagan narsalar maqsadli usullar va maqsadlarga rioya qilish kerak. Bola bilan oilaviy munosabatlarning zaruriy sharti bo’lishi mumkin.

- Hamkorlik
- Aralashmaslik
- Giper parvarish
- Diktatsiya qilish

Haddan tashqari bolani himoya qilish bolalar va kattalar o’rtasidagi munosabatlar bolalarning kattalar mustaqil hayotiga yetarli darajada yoki umuman tayyor emasligini olib keladi. Agar bolalikda buning namoyon bo’lishi minimal bo’lishi mumkin bo’lsa, unda o’smirlik davrida ushbu toifadagi bolalarda buzilishning chastatasi yuqori bo’ladi. Aralashmaslik, tarbiya taktikasida kattalar va bolalarning mustaqil yashashining joizligi va zarurligi tan olinadi. Mutaxassislarning fikricha, oiladagi bu o’zaro munosabatlar ota-onalarning tarbiyachi sifatidagi passivligiga asoslanadi. O’zaro munosabatlardagi hamkorlik ota-onalar va bolalarning umumiy maqsad va vazifalariga, umumiy manfaatlar va ular bilan bog’liq faoliyatlar mavjud bo’lganda amalga oshiriladi. Faqatgina bunday sharoitda ona va boshqa qarindoshlar bilan munosabatga bolaning egoizmlarini yengish mumkin.Ota-onalar doimo tanbeh beradigon va ayblanadigon, o’z oldiga juda yuqori vazifa va maqsadlar qo’yadigon va oilada bolalarda o’zini past baholaydi, buning natijasida ishonchsizlik va yomon kayfiyat paydo bo’ladi. Ya’ni, bolaning xatti-harakati obyektiv muhitga mos kelmaydi. Agar bola doimo maqtalsa va unga qo’yiladigon talablar juda yumshoq bo’ladi. Natijada, bola ota-onasiga uni bolaligida qanday tarbiyalagan bo’lsa, shunday bo’ladi. Har bir oilada ma’lum bir tarbiya tizimi obyektiv shakllantiriladi, bu hech qachon buni har doim ham anglamaydi. Bu tarbiya maqsadlarini tushunish va uning vazifalarini shakllantirsh, bolaga nisbatan nimaga yo’l qo’yish mumkin va nimaga mumkin emas ligini hisobga olgan holda tarbiya usullari va usullarini ko’proq yoki kamroq qo’lash tavsiya etiladi. Maktabdagi muvaffaqiyatlar kattalar

va tengdoshlar tomonidan bolani shaxs sifatida baholashning muhim mezonidir. Bolaning ota-onasi haqida ko'proq tashvishlanadigon fazilatlari birinchi o'ringa chiqadi. Xavotirning o'sishi va u bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini hurmat qilishning pastligi tufayli ta'lim yutuqlari pasaydi, muvaffaqiyatsizliklar tuzatildi. Noaniqliklar bir qator boshqa xususiyatlarga olib keladi-kattalarning ko'rsatmalariga o'ylamasdan amal qilish istagi, faqat naqsh va shablonlarga muvofiq harakat qilish, tashabbuskor ko'rsatishdan qo'rqish, bilim va harakat usullarin rasmiy ravishda o'zlashtirish. Bola psixikasini o'rganishda tadqiqotchi bir qator pritnsiplar- qoidalarga tayanishi, ularga rioya etishi lozim bo;ladi. Bu printsiplar quyidagilardan iborat:

Ob'ektivlik prinsipi tadqiqotchilardan ma'lumotlar bilan ularning talqinini aralashtirib yubormaslik talab qilinadi. Masalan, mahg'ulot davomida bola oynadan tashqariga qarayotgan edi deb aytilsa, bu muayyan hodisa haqida ma'lumot bo'lib hisoblanadi. Oila bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Uning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigon ta'siri benihoya kattadir. Bolaning mustaqilligi nisbiy bo'lib, u ko'p jihatdan kattalar qaramog'I va yordamiga muhtoj bo'ladi. Ota-onaning fikri va munosabati bu davrda shunchalik undovchi kuchga ega bo'ladiki, u xulq-atvorning regulyatori va psixik rivojlanishning stimulyatori bo;lib xizmat qiladi. Psixiatrlarning ta'kidlashicha, bolani haddan tashqari qattiqqo'llik bilan tarbiyalash unda nevrozlarni va psixosteniyani keltirib chiqaruvchi omillardan biridir. Albatta, har bir oiladagi munosabatlar o'ziga xos hamda takrorlanmasdir. Biroq ota-onalar bolalar xulqatvorini boshqarishda qanday usullardan foydalanishlariga ko'ra o'rtadagi munosabatlar ko'pincha ‘’demokratik’’ va ‘’avtoritar’’ kabilarga ajratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishonova Bolalar psixologiyasi. Toshkent 2020y.
2. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta`lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan Davlat talablari. T2008
6. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta`lim-tarbiya haqida. –T., 1992.
7. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 2001.

PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING STILISTIK IMKONIYATLARI

Xamdamova Xanifaxon Shukurillayevna, JizPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon tilshunosligidagi paremiologik birliklari, ularning stilistik imkoniyatlari va inson tafakkuridagi durdonalari to‘g‘risida tushunchalar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” va “Rustamxon” dostonlari tilidagi paremiologik birliklarning ba’zi namunalarining qo‘llanishi va semantik xususiyatlarini qisqacha tahlili keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Paremiologik birliklar, maqol, matal, jahon tilshunosligi, tilshunoslik aspekti, lisoniy mavqei, O‘TPL, prema.

Maqol, matal va aforizm kabi hikmatli iboralar tizimi jahon tilshunosligida paremiologik birliklar (bundan keyin: PB) sifatida qaraladi, ular inson tafakkurining eng sara durdonalari sanaladi. PB tizimidagi bunday birliklar “koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan-avlodga og‘zaki formada ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan...”.

Jahon tilshunosligida ko‘pgina olimlar frazeologizmning obyektini ikki xil (tor va keng) ma’noda talqin qilishgan. Tor ma’noda talqin qiluvchilarning fikricha, frazeologizmlar tarkibida faqat iboralar kiradi deyishsa, ikkinchi guruhdagilar esa iboradan tashqari yana maqol, matal, hikmatli so‘z, aforizmlar, metaforik ifoda singari barqaror so‘z birikmalarini kiritishni taklif etadilar. Eng so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda frazeologik va paremiologik birliklarning xilma-xil aspektlari, strukturaviy jihatlari, lingvokulturologik xususiyatlari o‘rganilganligidan soha olimlari xabardor.

Eng muhimi, maqollarning yondosh hodisalarga munosabati va lisoniy mavqei masalalari bilan bog‘liq mazkur olimaning ilmiy-nazariy mulohazalari, xususan, maqolning idiomaga munosabati, maqol va ibora, maqol va matal orasidagi munosabatlar, maqol-matal tipidagi paremalar tahlillari bizning tadqiqotimizdagi ushbu fasl uchun nazariy asos bo‘ladi, deb hisobladik. Folklor matnlarida bunday til birliklarining juda ko‘plab namunalari uchraydi, tadqiqotchilar tomonidan ular muyayan tarzda maqol-matal-aforizmlar tizimida o‘rganildi. “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” (bundan keyin: O‘TPL)da maqol-matal tipidagi paremalar tuzilishiga va semantik xususiyatiga ko‘ra tasnif etilgan va “Paremalar badiiy tasvirlash vositalariga ham klassifikatsiya qilinsa ham bo‘ladi, ya’ni qofiyasiga, evfonik vositalariga ko‘ra, o‘xshatishni (metafora),

taqqoslashni (antiteza), paralelizm, anafora, kinoya, piching, kesatiqni ifodalashiga ko‘ra ham turlarga ajratish mumkin”, - degan mulohaza ham berilgan.

A.Holiqovning dissertatsiyasida “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, unda doston tilidagi barqaror birikmalarning mavzuiy guruhlari alohida tadqiq etilgan. Muallif mazkur dostonda o‘z ifodasini topgan iboralarni ham guruhlar (umumtil iboralari va lahjaviy, ya’niy dialektal iboralar)ga bo‘lib tadqiq qilgan. Bulardan tashqari, A.Holiqov “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida uchragan maqollarni uch guruhga: 1) adabiy tilda, shuningdek, o‘zbek xalq shevalarining aksariyatida ishlatiladigan maqollar; 2) maqollarning doston tilidagi variantlari va ularning ma’noviy xususiyatlari; 3) dostonning o‘zidagina uchraydigan, og‘zaki nutqqa xos maqollar tarzida tasnif qiladi.

Yuqoridagi barcha fikr-mulohazalarga suyangan holda “Rustamxon” dostoni tilidagi PBlarning ba’zi namunalarining qo‘llanishi va semantik xususiyatlarini qisqacha tahlil qilishda nazariy asos bo‘ladi, deb hisobladik.

“Ko‘zi yo‘qning yuzi yo‘q” paremasi xalqimiz orasida qadimdan qo‘llanib kelingan. Uning *“ko‘zi yo‘qning o‘zi yo‘q”* varianti ham ancha qadimiy namuna sifatida xalq orasida keng qamrovda tarqalgan va umumiste’molda juda faol ishlatilgan. Buni maxsus to‘plamlardan joy olganlik dalili tasdiqlaydi (O‘TPL. 131; O‘XM. II, 288). *“Ko‘zi yo‘qning - yuzi yo‘q”* paremasi doston matnida “qo‘lidan ish kelmas, imkoniyati tor” semasini ifodalab kelgan. Epik qahramonlardan biri ayyor kampirning muayyan hatti-harakatlarida va devga qarata aytgan nutqi orqali kuzatamiz: *“Kampir bir qisim tuproqqni olib, dam solib, Rustamning ko‘ziga otdi. Rustamning ko‘zi hech yerni ko‘rmay chippa bitdi. Devga aytdi: “Ko‘zi yo‘qning yuzi yo‘q” degan, endi qo‘rqmay uraber” (426).*

“Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi”. Bu parema ham shaklan dostonlar tilida uchraydigan, lekin, hozirgi PBlarga teng keladigan lisoniy birliklar namunasiga kiradi. Uning *“Mard so‘zidan qaytmas, yo‘lbars – izidan”* kabi xalqona varianti O‘TPLda ham qayd etilgan (139-b.). Mazmun-mohiyati jihatidan bir xil ma’noni anglatadigan *“Yigit so‘zidan qaytmas, yo‘lbars - izidan”* yoki “*Yigit so‘zidan qaytmas, arslon izidan qaytmas”* kabi variantlari ham xalq orasida keng tarqalgan. Shuning uchun ularning har bir namunalari maxsus lug‘atlarda va to‘plamlarda ham qayd etilgan.

Xulosa tariqasida qisqacha quyidagilarni ta’kidlash lozimki, Rustamxon” dostoni tilida PBlarning ikki xil namunalari uchraydi: a) adabiy til doirasida va shevalarida faol qo‘llanadigan namunalar; b) dostonlar tilida uchraydigan, lekin mantiqan hozirgi PBlarga teng keladigan namunalar. Har ikkala namunalar mazkur doston tilining xilma-xil, o‘ziga xos va mos imkoniyatlarini ochib berishda

birlamchi manba sanaladi. “Rustamxon” dostoni tilidagi PBlar tuzilishiga ko‘ra sodda va murakab komponetlardan iborat. Bunday paremalarni semantik xususiyatiga ko‘ra, faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan, o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham qo‘llanadigan, shuningdek, faqat o‘z ma’nosida qo‘llanadigan namunalarga ajratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyorov X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. –288 b;
2. O‘rinboev B. O‘zbek xalq maqollarida transformatsiyalash // O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand, 2001, 38-42 b.;
3. Abdurahmonov X. Maqol va matallarda takror komponentlarning qo‘llanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1974. - №3. - B. 60-63;
4. Xalikov A.A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida maqollarning o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2002. - №4. – 76-77-b.

“RUSTAMXON” DOSTONIDA PAREMALARNING QO‘LLANILISHI

Xamdamova Xanifaxon Shukurillayevna, JizPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Rustamxon” dostonida qo‘llanilgan bir qancha paremalarning tahlili, maqol, matal, aforizm tizimidagi paremiologik birliklarning semantik xususiyatiga ko‘ra tasniflanishi borasida so‘z boradi. Bundan tashqari maqolada dostonlar tilida qo‘llanilgan paremalardagi variantlilik masalasida bir qancha professor olimlarning tahlil va fikrlari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: “Rustamxon” dostoni, parema, lingvopoetik xususiyat, semantik xususiyat, O‘TPL, paremalardagi variantlilik.

Xalqimizning o‘tmishidan hikoya qiluvchi dostonlarning jamiyat va millat tarixidagi o‘rnini belgilashga, ko‘p jildlik namunalarini tayyorlash va nashr etishga, ularning ilmiy va badiiy-estetik qimmatini yoritishga muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Natijada, dostonlar tilidagi lingvomadaniy birliklarning badiiy-estetik tabiati va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, xalqlarning yashash hududi va sharoiti, turmush tarzi, mental xususiyatlari, milliy xarakter kabi tushunchalarni tahlil qilish, og‘zaki manbalardagi madaniyat ifodalovchi belgilarni ajratish, ijtimoiy munosabatlar, xalqlar orasidagi muloqot ko‘rinishlari hamda muomalaning axloqiy-madaniy me’yorlarini atroflicha tahlil qilish hozirgi tilshunosligimizning asosiy vazifalaridan sanaladi.

PBning xalq orasida keng qamrovda tarqalishi va qo‘llanilishi “Rustamxon” dostonida ayrim juz’iy o‘zgarishlarga uchragan holda ishtirok etishiga sabab

bo‘lgan. Buni dostondagi epik qahramonlardan Rustamning Oftoboyga “Mard yo‘lbars izidan burilmaydi” paremasi orqali murojaatida qo‘llanilganligida kuzatamiz: Shunda ham Rustam: - «Mard yo‘lbars izidan burilmaydi», degan gap bor, ajdahar damiga tortadi, meni yutadi deb vahm qilmayman; qayishmay ajdaharning yo‘lini aytgin, - dedi” (399). Mazkur dostonning yana bir o‘rnida boshqa epik qahramonlardan Tog‘ayning ajdahor ilonini axtarib yurgan paytidagi mahramlarga qilgan murojaatida “Mard so‘zidan, yo‘lbar izidan burilmaydi” kabi an’anaviy dostonlar tiliga xos PB qo‘llanilganligi kuzatildi: “Tog‘ay aytdi: - Sizlarda bir gap bor. «Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi», degan gap bor. O‘zim talab qildim. Hechkim mening bo‘ynimga zavlim solgani yo‘q. So‘zidan qaytmaydigan kambag‘aldan chiqadi, - deb o‘rnidan tura berdi” (409). Misol sifatida keltirilgan har ikkala matnda dostondagi epik qahramonlar (Rustam, Tog‘ay)ning mardligi, bir so‘zligi, har qanday xavf-xatardan cho‘chimasligi va eng muhimi, oldiga qo‘yilgan oliyjanob maqsadlarga erishish yo‘lidagi fidoyiliklarining bayon qilishi orqali so‘z zargari dostonlar tiliga xos paremalarni mustaqil ravishda ijod qilgan. Bunday namunalarni ijro jarayonida o‘rinli, samarali qo‘llay olganligi baxshining yuksak mahoratga ega ekanligidan dalolat bera oladi.

Maqol, matal, aforizm tizimidagi PBlarni semantik xususiyatiga ko‘ra tasnif qilishda, eng avvalo, ulardagi ma’noning ko‘chma ma’noga ega bo‘lish – bo‘lmasligi, ya’ni ma’nolarning qanday ifodalanishi asos sifatida mezon qilib olinadi. Ana shu xususiyatiga ko‘ra, tahlilga jalb etilgan “Rustamxon” dostonida faol qo‘llanilgan PBlarning ayrim namunalarini o‘rganish aslo foydadan holi emas. Bu o‘rinda faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan PBlarning ayrim namunalarini tahlil qilishga urinib ko‘ramiz. Bunday lisoniy birliklar sintaktik jihatdan gap bo‘laklariga ajratilmaydi. Agarda bordi-yu, ular gap bo‘laklariga ajratilsa, matnda ifodalangan ko‘chma ma’no butunlay yo‘qoladi, oqibatda ular oddiy gapga – erkin birikmaga aylanib qoladi. Masalan: “Egilgan bo‘yinni kesmaydi xanjar” namunasini olaylik.

“Egilgan bo‘yinni kesmaydi xanjar” paremasining “Egilgan boshni qilich kesmas”, “Egilgan bo‘yinni qilich kesmas” kabi xalq variantlari ham bor (O‘TPL, 229; O‘XM, II, 159). Ta’kidlanayotgan variantlarning keyingi namunasi Gulxaniyning “Zarbulmasal”ida ham qo‘llanilgan (O‘TPL, 23). “Egilgan boshni qilich kesmas” maqolida “kishi mag‘rurlik, takabburlik bilan kekkayib, “aytganim – aytgan, deganim - degan” deb, o‘jarlik qilmasdan sal “pastroqqa tushsa”, ya’ni o‘zini nechog‘liq kamtar tutsa, shirin so‘zli va xushmuomilali bo‘lsa, birovning aytganini bajarsa, har qanday qahri qattiq insonning ham ko‘nglini o‘ziga jalb qila oladi va har qanday vaziyatda tug‘ilgan xavfli holat yoki hatti-harakatdan eson-omon qutulib oladi”, - degan ma’joziy ma’no ifodangan. Bu ma’no bilan “Sungan

bo‘yinni sug‘urilgan qilich kesmas” varianti ham yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan (O‘XMIL, 436).

Xullas, Fozil shoirning “Rustamxon” dostonida an’anaviy dostonlarida qo‘llanilgan va tahlilga jalb etilgan paremalarning xilma-xil variantlardagi namunalari adabiy til doirasida ham, shevalarda ham, kundalik jonli so‘zlashuv nutqida ham faol. So‘z zargarining dostonlari tilida qo‘llanilgan paremalardagi variantlilik masalasida prof. G.Jumanazarova quyidagi mulohazalarni bergan: “Shu o‘rinda ta’kidlamoqchimizki, xalq baxshisi dostonlarning ijrosi jarayonida qo‘llamoqchi bo‘lgan muayyan paremadagi biror so‘zning o‘rniga o‘shanga o‘xshash boshqa bir so‘z bilan yoki ulardagi grammatik ko‘rsatkichlarni variantlari bilan almashtirish orqali yangi-yangi variantlarini yarata olganligini kuzatdik. Bunday usul orqali paremalarning xilma-xil variantlari tahlilga jalb etilgan dostonlar matnida o‘z-o‘zidan hosil bo‘lgan.

Paremalarning har ikkala namunalari qay tarzda bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir parema dastlab muayyan shaxs tomonidan yaratiladi va muayyan davr mahsuli hisobdanadi. Xalq og‘zaki poetik ijodi namunalarining yaratilishi va ommalashishi qonuniyatlariga ko‘ra, biz nazarda tutayotgan paremalarning har bir namunasi xalq orasida dastlab ommalashadi, davrlar o‘tishi bilan silliqlanadi, so‘ngra sayqal topadi, muayyan barqaror birikma sifatida “quyma” holatga kelib yana xalq orasida qo‘llana boshlaydi. Bunday jarayondan doston kuylovchisi ham bahramand bo‘lib, “asl holi”da yoki ulardan ijodiy foydalangan holda ijroda qo‘llash mumkin.

G‘oyaviy mazmuni, ma’naviy-axloqiy xulosasiga ko‘ra xilma-xil, rang-barang bo‘lgan APlar uslubiy vazifasi jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Ulardagi keng va teran ma’rifiy g‘oyani qisqa, ixcham shakllarda ifodalash har bir insonni nutqqa alohida e’tibor berish va talabchan bo‘lishga o‘rgatadi, to‘g‘ri va mantiqiy fikrlashiga yordam beradi. Eng muhimi, har bir ijodkorning so‘z boyligini orttirishga, uning nutqini o‘tkir va ta’sirli qilishga, unga badiiy jihatdan sayqal berishga xizmat qiladi.

Xulosa tariqasida qisqacha quyidagilarni ta’kidlash lozimki, umuman, kelgusi yillarda o‘zbek xalq dostonlari tilidagi PBlarni to‘plash, ularning leksik-semantik va pragmatik ma’nolarini izohlash, matndagi kontekstual va situativ uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib beruvchi qator ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratish, PBlarning har xil variantlarini, sinonim va antonimlarini ko‘rsatuvchi, diaxronik va sinxronik yo‘nalishdagi ma’nolarini izohlab beruvchi maxsus lug‘atlar tuzish, ularni nashr qilish ishlarini amalga oshirish tilshunoslarimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalar sanalmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiyorov X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. –288 b;
2. O‘rinboev B. O‘zbek xalq maqollarida transformatsiyalash // O‘zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand, 2001, 38-42 b.;
3. Abdurahmonov X. Maqol va matallarda takror komponentlarning qo‘llanishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1974. - №3. - B. 60-63;
4. Xalikov A.A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida maqollarning o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2002. - №4. – 76-77-b.
5. Berdiyorov X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1984. – 22-b.
6. Toshpo‘latov Z.D. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati: NDA – T., 2006. - 10-b.

CLIL USULI: U CHET TILINI O'RGANISH MANZARASINI QANDAY O'ZGARTIRMOQDA

Alibekova Mahzuna Alisher qizi
Guliston Davlat Universiteti Filologiya yo’nalishi
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi
stajor-o’qituvchisi

Global ingliz tili ta'limi jadal rivojlanmoqda. Natijada tillarni o‘rgatish va o‘rganish usullarini takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab yondashuv va strategiyalar ishlab chiqildi. Ushbu maqolaning maqsadi so'nggi paytlarda mashhur bo'lib borayotgan usul, ya'ni Kontent va tilni integratsiyalashgan o'rganish (CLIL) haqida qisqacha adabiyotlarni ko'rib chiqishdir. CLIL - til darslariga tildan tashqari mazmunlarni integratsiyalash orqali tilni o'rgatish usuli. Til bo'lmagan mazmun fandan, ijtimoiy fanlardan tortib adabiyotgacha bo'lgan har qanday narsa bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, CLIL boshlang'ich maktabdan universitet darajasiga qadar amalga oshirilishi mumkin. CLIL talabalar uchun yangi tilni o'rganishda samarali ekanligi isbotlangan. Shu bilan birga, u kognitiv, madaniy xabardorlik va umumiy akademik bilim kabi boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Adabiyotda, shuningdek, CLIL usulini keng tatbiq etishda bir qancha to'siqlar ,xususan,malakali o'qituvchilar va tegishli resurslarning yetishmasligi kabi to’siqlar ko'rsatilgan. Bunda e’tiborni o'qituvchilar va resurslarni rivojlantirishga qaratish tavsiya etiladi.

Globallashuv tendensiyasi ingliz tilining ahamiyatini kuchaytirdi. Ingliz tilini o'rganish dunyoda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, chunki u xalqaro muloqot uchun keng tarqalgan tildir. 2019-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘ylab ingliz tilini o‘rganuvchilar soni 1,5 milliardga yetdi va ularning soni yanada oshishi kutilmoqda . Ingliz tilini chet tili sifatida (EFL) va ikkinchi til sifatida ingliz tilini

(ESL) ikki xil o'rganuvchilar mavjud. Ikkalasini farqlash uchun, EFL foydalanuchilari odatda ingliz tilidan biznes yoki zavqlanish uchun foydalanadilar, ESL talabalari esa har kuni ingliz tilidan foydalanadilar. Ingliz tilidagi ta'lim sifatini oshirish uchun turli xil ta'lim modellari ishlab chiqilgan: Kontentga asoslangan ta'lim (CBI), maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), ingliz tili o'qitish vositasi sifatida (EMI) va CLIL. Ushbu modellardan CLIL so'nggi paytlarda mashhurlikka erishdi va tilni o'rgatish va o'rganishning eng samarali usullaridan biri bo'lib chiqdi. CLIL ikki yo‘naltirilgan ta’lim usuli bo‘lib, unda talabalar bir vaqtning o‘zida tilni ham, mavzu mazmunini ham o‘rganadilar. Ushbu maqolaning maqsadi CLILni ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha joriy adabiyotlarning qisqacha mazmunini taqdim etishdir. Ushbu maqola til o'qituvchilarining til ta'limi sifatini oshirish uchun ushbu usulni qo'llashni ko'rib chiqish uchun asosiy yo'l-yo'riq beradi.

Fan va tilni integratsiyalashgan o‘rganish bo‘yicha adabiyotlar sharhi

Koch, Yüksel va Altun (2021) fikriga ko'ra, CLIL tilni o'rganish maqsadida tarkibni birlashtirish usulidir. Tarkib fan, tarix, adabiyot va boshqalar kabi har qanday tildan tashqari fanlar bo'lishi mumkin. Ushbu o'qitish usuli 1960-yillarda Kanadada amaliyotga tatbiq etilgan va Yevropada so‘nggi 20 yil ichida ommalashib bormoqda. CLIL til o‘rgatishning innovatsion usuli hisoblanadi. Ushbu ta'lim usuli bir vaqtning o'zida o'quvchilarning til ko'nikmalarini va aniq bilimlarini rivojlantirish uchun til va mazmunni birlashtiradi. CLIL usulining o'zagida 4Cs ya’ni tarkib, bilish, aloqa va madaniyatni o’zida birlashtiruvchi ramkalardan iborat.

Birinchidan, talabalar til darsining mazmunini o'rganadilar.

Ikkinchidan, CLIL kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: "O'quvchilarga tarkibni o'z talqinini yaratishga imkon berish uchun uni lingvistik talablar uchun tahlil qilish kerak".

Uchinchidan, muloqot tilni boshqa kontekstda o‘rganishdir.

Nihoyat, yuqorida aytib o'tilganidek, madaniyatni bilish xorijiy tilda rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir.

Diab, Abdel-Haq, and Aly (2018) CLIL ning chet tillarini o‘rganishdagi samaradorligini o‘rganishdi. Ularning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, til o'rganish va madaniyatni o'rganish yonma-yon boradi. O'sha tilni o'rab turgan madaniyatni o'rganmasdan til o'rganish deyarli mumkin emas. Darhaqiqat, madaniy xabardorlik odamlarning nutqiga ta'sir qilishiga yordam beradi. Tadqiqotda mualliflar ishtirokchilarning madaniyatni anglash darajasini aniqlash uchun oldingi va keyingi testlarni o'tkazdilar. Tadqiqot natijalari CLIL usulini qo'llash orqali talabalarning madaniy ongini sezilarli darajada yaxshilaganligini ko'rsatdi.

Sakellariou va Papadopulos (2020) ta'kidlashicha, Yevropaning deyarli barcha mamlakatlari CLIL kurslarining ayrim turlarini taklif qilishadi. CLIL boshlang'ich maktabdan universitet darajasiga qadar amalga oshirilishi mumkin. CLIL ning afzalligi shundaki, u tilni o'rgatish va o'rganish uchun qo'shimcha soatlarni talab qilmaydi. Sakellariu va Papadopulosning tadqiqoti CLIL ning talabalar tili va kognitiv rivojlanishidagi foydasini ko'rsatadigan boshqa tadqiqotlar bilan mos keladi. Bundan tashqari, CLIL usuli talabalarga o'z ona tillarini yo'qotmasdan yangi til qo'shish imkonini beradi. Bu usul o‘quvchilarda ko‘p tillilikga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Harrop (2012) CLIL talabalari CLIL bo'lmagan talabalarga nisbatan ko'proq malakali va muloqot qilish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Darhaqiqat, CLIL ko'proq til bilimiga olib keladi, u motivatsiyani oshiradi, u barcha qobiliyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun mos keladi va madaniyatlararo xabardorlikka olib keladi. Boshqa tadqiqotlarga mos ravishda, CLIL madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga yordam beradigan samarali vositadir. Bundan tashqari, CLIL tilni o'rganishning iqtisodiy usulini taqdim etadi. Ushbu o'rganish usuli kelajakdagi ishchi kuchini bizning bilimlar iqtisodimiz uchun tayyorlashga yordam beradi, chunki o'quvchilar bir vaqtning o'zida ham tilni, ham maxsus bilimlarni olishlari mumkin.

CLILning ko'plab afzalliklariga qaramay, ushbu usulni amalga oshirishda ba'zi muammolar mavjud. Harrop (2020) shuningdek, til va fanlar bo'yicha tajribaga ega malakali o'qituvchilarning va o'qitish resurslarining yetishmasligi bilan bog'liq muammoni ta'kidladi. Darhaqiqat, o'quv dasturlarini ishlab chiqish yuqori sifatli til o'rganish dasturiga ega bo'lishning kalitidir. Uning tadqiqotining asosiy g'oyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) CLIL bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish transdisipliner bo'lishi kerak, ham tilni, ham mazmunini o'z ichiga olishi kerak; 2) ishlab chiqish jarayoni barcha manfaatdor tomonlarni qamrab olishi kerak, 3) o'quv dasturini ishlab chiqishning barcha bosqichlari o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Nihoyat, CLIL bilan birgalikda ta'lim texnologiyasi juda foydali bo'lishi mumkin. Lavrysh, Saienko va Kyrychok (2021) texnologiyaning CLIL kurslarining haqiqiyligiga ta'sirini o'rganish uchun tadqiqot o'tkazdilar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, texnologiyani tatbiq etish talabalarga nafaqat til ko'nikmalarini yaxshilashga, balki ularning mazmunan bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, texnologiyalar CLIL ta'lim modelining to'rtta ustuni (mazmun, bilish, aloqa va madaniyat)ga ijobiy hissa qo'shadi.

Hussain (2019) ta’kidlaganidek, CLIL jurnalistika sifatini oshirish uchun birlashtirilishi mumkin. Muallifning fikriga ko'ra, CLIL dan foydalanish o'quv

dasturlarini yaxshiroq ishlab chiqishga va materiallarni yaxshilashga olib kelishi mumkin.

Pancheva va Antov (2017) tomonidan olib borilgan yana bir tadqiqot muhandislik ta'limi doirasida CLILning afzalliklarini ko'rsatdi. O'qitish va o'rganishning ushbu usuli o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonch darajasini oshirishga yordam beradi va akademik kognitiv jarayonlar va muloqot qobiliyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, talabalar ko'proq so'z boyligini o'rganishlari mumkin.

Harrop (2012) fikriga ko'ra, CLIL talabalari an'anaviy til o'rganuvchilarga qaraganda yaxshiroq chet tilini bilish qobiliyatiga ega. CLIL ning yana bir tatbiq qilinishi jismoniy tarbiya sohasida bo'lib, CLIL usulini qo'llash orqali u o'quvchilarning og'zaki tushunish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Darhaqiqat, talabalar g'oyalarni tushuntirish, faoliyat uchun ko'rsatmalar berish va tengdoshlari bilan muloqot qilish uchun ingliz tilidan foydalanishlari kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, CLIL - bu darslarga mazmunni integratsiyalash orqali tilni o'rgatish usuli. Talabalar bir vaqtning o'zida nafaqat tilni, balki boshqa fan bilimlarini ham o'rganishadi. Bu usul samarali va vaqtni tejaydi, chunki u talabalarga til va fan sohasidagi bilimlarni olish imkonini beradi. Bundan tashqari, CLIL yangi tilni o'rganishning yanada tabiiy usulini taqdim etadi. CLIL dasturini o'z zimmasiga olgan talabalar tilni o'rganishning an'anaviy usuliga qaraganda tilni yaxshi bilishadi. CLIL shuningdek, mazmun, idrok, muloqot va madaniyat bo'lgan to'rtta kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu ta'lim usulini amalga oshirishda malakali o'qituvchilar va o'quv resurslarining yetishmasligi kabi ba'zi to'siqlar mavjud. Darhaqiqat, akademik fan bo'yicha tajribaga ega bo'lgan til o'qituvchilarini topish qiyinroq. Bundan tashqari, til o'rgatish va fan mazmunini uyg'unlashtirgan o'quv materiallarini ishlab chiqish asosiy vazifa bo'ladi. Biroq, uzoq muddatda CLILning keng tarqalishi butun dunyo bo'ylab til o'rgatish va o'rganishni yaxshilashga yordam berishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Diab, A.A.M., Abdel-Haq, E.M. and Aly, M.A.S. (2018) The Effectiveness of Using Content and Language Integrated Learning (CLIL) Approach to Enhance EFL Stu-dent Teachers' Cultural Awareness.
2. Beare, K. (2020) How Many People Learn English?
3. Zemach, D. (2021) What Is CLIL? The Global Trend in Bilingual Education Explained.
4. Li, L., Huang, F., Chen, S., Pan, L., Zeng, W. and Wu, X. (2020) Exploring the Cur-riculum Development in Content and Language Integrated Learning: A

Systematic Review. International Journal of Evaluation and Research in Education

5. Sakellariou, G. and Papadopoulos, I. (2020) Interculturalism in Content and Lan-guage Integrated Learning Classes: Research Perspectives from European Policy to Greek Reality.
6. Hussain, S. (2019) It's Never Too Late to Mend: Potentials of CLIL Pedagogical Ap-proach to Internationalize Ethiopian Journalism Education. Creative Education
7. Koç, Ö., Yüksel, G. and Altun, E. (2021) Technology Acceptance and Usage Beha-viour of Content and Language Integrated Learning Teachers in Turkey. English Language Teaching Educational Journal, 4, 113-124.
8. Harrop, E. (2012) Content and Language Integrated Learning (CLIL): Limitations and Possibilities. Encuentro, 21, 57-70.
9. Lavrysh, Y., Saienko, N. and Kyrychok, A. (2021) Issues of Educational Technolo-gies and Authenticity Synergy in a Content and Language Integrated Learning Course at Technical University. International Journal of Emerging Technologies in Learning (IJET), 16, 113-128.
10. Pancheva, T. and Antov, P. (2017) Application of Content and Language Integrated Learning (CLIL) in Engineering Education. Management and Sustainable Develop-ment, 63, 36-40.
11. Coral, J. and Lleixà, T. (2016) Physical Education in Content and Language Inte-grated Learning: Successful Interaction between Physical Education and English as a Foreign Language. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism , 19, 108-126.

TOSHKENT VILOYATINING TIPIK BO‘Z TUPROQLARIDA ORGANIK USULDA TAKRORIY EKIN SIFATIDA LOVIYANING MAHSULDOR VA ROVOT NAVLARINI YETISHTIRISH HAMDA ULARNING TUPROQ UNUMDORLIGIGA TA’SIRI

Abdalova Guliston
ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasi dotsenti

Tajiyev Jasurbek
tajiyevjasur@gmail.com

Odinayev Sherali

Islomov Toyirxuja
ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasi magistrlari

Annotatsiya. Toshkent viloyati tipik bo‘z tuproqlarida organik usulda ang‘izga ekilgan loviyaning yangi Mahsuldor va Rovot navlarini etishtirish tuproqning suv-fizik xossalariga ijobiy ta’sir etadi, bug‘doyzorni begona o‘tlardan tozalashga, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanish darajasining pasayishiga imkoniyat yaratadi. O‘zbekistonda paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarida loviyani almashlab ekishga kiritish ekinlar hosildorligi, tuproq unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bioazot, organik, g‘o‘ng, biogumus, loviya, tuproq unumdorligi.

Аннотация. Выращивание новых сортов фасоли Махсулдор и Ровот, органически высаженных на типичных сероземах Ташкентской области, положительно влияет на водно-физические свойства почвы, дает возможность очистить пшеничное поле от сорняков, снизить уровень поражения болезнями и вредителями. В Узбекистане включение фасоли в севооборот положительно сказывается на урожайности культур и плодородии почв в хозяйствах, специализирующихся на хлопководстве, зерноводстве, овощеводстве, животноводстве.

Ключевые слова: биоазот, органика, навоз, биогумус, бобы, плодородие почвы.

Abstract. Growing new varieties of beans Makhsuldor and Rovot, organically planted on typical gray soils of the Tashkent region, has a positive effect on the water-physical properties of the soil, makes it possible to clear the wheat field from weeds, reduce the level of damage by diseases and pests. In Uzbekistan, the inclusion of beans in the crop rotation has a positive effect on crop

yields and soil fertility in farms specializing in cotton growing, grain growing, vegetable growing, and animal husbandry.

Key words: bionitrogen, organic, manure, biohumus, beans, soil fertility.

Kirish. Respublikamizda aholi sonining oshib borishi mavjud ekin maydonlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Mamlakatimizda o‘simlikshunoslik mahsulotlari asosan sug‘oriladigan yerlarda yetishtiriladi. Shuning uchun aholini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashda sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish, bir yilda ikki hosil olib tuproq unumdorligini oshirish, tuproqda biologik azot fiksasiyasini oshirib, kam energiya va resurslar sarflab, tannarxi arzon biologik toza mahsulot olish hozirgi kunda dehqonchilikdagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Tuproqni ishlash. Ang‘izga ekkanda oldingi ekinni yig‘ib olgandan yer sug‘oriladi, yer yetilgandan keyin 22-25 sm chuqurlikda haydaladi va baronalanadi. Ekish oldidan kultivatsiya qilinib, mola bosiladi. Dukkakli-don ekinlari yetishtirishda agrotexnik tadbirlar ahamiyatini yanada yorqinroq ifodalash uchun ildizida yashab havodagi erkin azotni o‘zlashtiruvchi tuganak bakteriyalar faoliyatini tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ekish. Urug‘larni bir tekis qiyg‘os unib chiqishi uchun tuproq urug‘ ko‘miladigan chuqurlikda 12-140S qiziganda ekib boshlanadi. Qizimagan tuproqlarga ekilganda ekish-unib chiqish davri cho‘zilib ketadi, ko‘pincha maysa hosil qilmay chirib ketadi. Loviya qator oralig‘i 45-70 sm qilib ekiladi. Ekish me’yori urug‘larni yirikligiga qarab gektariga 70 kg dan 90 kg ekiladi. Ekish chigit, makkajo‘xori, er-yong‘oq ekadigan STVX-4 yoki SON-2,8 seyalkalarida o‘tkaziladi. Ekish chuqurligi 5-6 sm dan 8 sm o‘zgarishi mumkin.

Qator oralariga ishlov berish. Urug‘lar to‘liq unib chiqqandan keyin birinchi kultivatsiya o‘tkaziladi. O‘suv davrida 3 marta kultivatsiya kilinadi. Qator oralarini ishlash odatda har 10-15 kunda o‘tkaziladi, ularning soni ekinzor holatiga qarab belgilanadi. Birinchi kultivasiya 6-8 sm chuqurlikda, keyingilari 10-15 sm chuqurlikda o‘tkaziladi. Loviya parvarishida ekinzor begona o‘tlardan toza, tuproq g‘ovak, yumshoq holda saqlanishi talab etiladi.

O‘g‘itlash. Organik usulda mineral o‘g‘it qo‘llanilmaydi. Organik o‘g‘itlardan chirigan go‘ng gektariga 20-30 tonna yerni haydash oldidan berish urug‘ hosilini oshishini ta’minlaydi. Usuv davrida tandem, organik, baktamin, fosfomaks, gumimaks, biogumus va kompost kabi organik o‘g‘itlarni qo‘llash mumkin. Loviya o‘simligi gektariga mavsum davomida 150-250 kg biologik azot to‘playdi.

Sug‘orish. Ekinzorni sug‘orish tuproq mexanik tarkibi, sizot suvlar sathiga bog‘liq holda o’zgaradi. O‘sib rivojlanishi va hosil berishi uchun bir o‘suv davrida 3000-3400 m3 suv talab qiladi. Takroriy ekilgan albatta ekishdan keyin urug‘ suvi

berilishi mumkin. Ikkinchi sug‘orish g‘unchalash, uchinchisi gullash davrida o‘tkaziladi.

Hosilni yig‘ishtirish. Ma’lumki, hosildorili ekinlari asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, jami qilinadigan agrotexnik tadbirlar har bir o‘simlikning hosildorligini oshirishga qaratilgan. Hosildorlik o‘simlikning nav xususiyatlariga, tuproq-iqlim sharoitlariga, o‘tkaziladigan agrotexnik tadbirlarga bog‘liq bo‘ladi. Serhosil, kechpishar navlarni ekish, qulay agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida qo’llash natijasida hosildarlik oshishiga olib keladi. Hosildorlikka ta’sir ko‘rsatadigan asosiy agrotexnik tadbirlardan biri bu ekish usullari va me’yorlari hisoblanadi. Loviya hosili urug‘lardagi namlik 14-16 % ga yetganda, SK-5 «Niva», SKD-6 «Sibiryak», Keys kombaynlari bilan o‘rib yanchib olinadi. Hosil olingandan keyin qolgan poya va barglar oziqa uchun ishlatiladi yoki yashil o‘g‘it sifatida tuproqqa haydab tashlanadi.

Xulosa. Organik dehqonchilikda takroriy ekin sifatida loviyaning Mahsuldor va Rovot navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, loviya ekini don hosili berishi bilan birga tuproqni biologik azot va boshqa organik qoldiqlar bilan boyitib, o‘zidan keyingi ekinning o‘sishi rivojlanishi va hosildoligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Loviya o‘simligi almashlab ekishni tashkil etishda yerning unumdorligini oshiruvchi o‘simlik hisoblanadi. Kuzgi bug‘doy hosilidan bo‘shagan ang‘izga ekish uchun yaroqli, o‘suv davri 70-90 kun bo‘lgan, dukkaklari pishib etilganda yorilib, donlari to‘kilib kemaydigan, hosilni mexanizatsiya yordamida yig‘ishtirib olishga imkon beradigan loviyaning yangi navlarini yaratilishi va etishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish kuzgi bug‘doy don hosili va uning sifatiga, ildizlarida tuganak bakteriyalar yordamida atmosfera azotini o‘zlashtirib, biologik azot to‘playdi, azotli o‘g‘itlar, energiya, resurslar tejalishiga, o‘tmishdosh ekin sifatida tuproqni suv-fizik xossalariga ijobiy ta’sir etadi, kasallik va zararkunandalar bilan zararlanish darajasining pasayishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. H.Atabayeva, J.Xudoyqulov “O‘simlikshunoslik” Toshkent, 2018. 196 bet
2. N.Xalilov, P.Boymirzayev, S.G‘aybullayev, G‘.G‘aybullayev “Ang‘izga yaroqli loviya yangi navlari va ularning agrotexnikasi” Samarqand, 2014 y. 8 bet.
3. R.Oripov, N.Xalilov “O‘simlikshunoslik” Toshkent, 2007 y. 228-229 bet
4. D.Yormatova, H. Xushvaqtov, H.Ergasheva “O‘simlikshunoslik” Toshkent, 2014 y. 143-146 bet.

5. N.Xalilov, P.Boymirzayev, S.G‘aybullayev, G‘.G‘aybullayev “Ang‘izga yaroqli loviya yangi navlari va ularning agrotexnikasi” Samarqand, 2014 y. 9-10 bet.
6. D.Yormatova, M.Ibrohimov, D.Yormatova “Meva-Sabzavotchilik”
7. Toshkent 2008 y. 72-73 bet.
8. Internet saytlari.
9. http://www.google.uz
10. http:// www.ref.uz
11. http://www.agro.uz
12. http://www.1rb-shor.ru
13. https//pochva.com
14. https//www.ziyonet.uz

TUPROQ UNUMDORLIGINING KAMAYISHI VA UNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRI

Abdalova Guliston
ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasi dotsenti

Tajiyev Jasurbek
tajiyevjasur@gmail.com

Odinayev Sherali

Islomov Toyirxuja
ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasi magistrlari

Annotatsiya. Tuproq unumdorligini kamayishi natijasida qishloq xo‘jaligida hosildorlik pasayishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda umumiy tabiat ozuqa zanjiri uzilishiga hamda oziq-ovqat xavfsizligi global muammoga aylanadi.

Аннотация. В результате снижения плодородия почвы снижается продуктивность в сельском хозяйстве. Глобальная природа становится глобальным нарушением пищевой цепочки, а продовольственная безопасность становится глобальной проблемой.

Abstract. As a result of a decrease in soil fertility, productivity in agriculture is reduced. Global nature is becoming a global disruption to the food chain, and food security is becoming a global issue.

Kalit so’zlar: Oziq-ovqat xavfsizligi, organik, kompost, tuproq unumdorligi.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, органика, компост, плодородие почвы.

Key words: food security, organic, compost, soil fertility.

Kirish. Hozirgi zamonda yangi texnika va texnologiyani kiritish, fermerlar va klasterlar harakati shakllanishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan hukumat qarorlari asosida qishloq xo‘jaligini yuritish usuli tubdan o‘zgarib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan muhimi yerning yuqori unumdor qatlami tuprog‘ining kuchsizlanib borishi, yer osti suvlarini ifloslanishi va qishloqlarda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga talablar oshganidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi tashkiloti (FAO) va BMTning boshqa tashkilotlari mutaxassislari o‘tkazgan tajribalar xulosalariga ko‘ra, 2050 yilda dunyo aholisi

9 milliard kishiga yetishi taxmin qilinmoqda. Bu juda katta ko‘rsatkich hisoblanib, sayyoramiz resurslari aholi ehtiyojidan anchagina kamligini ko‘rsatadi. Bunday holatda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanib, insonlarni oziq-ovqat bilan ta’minlash uchun hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan noz-nematlar miqdorini 60 foizga oshirish zarur bo’ladi. Shu bilan birga, o‘sib borayotgan aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun tuproq unumdorligini oshirish zarur.

Unumdorlik, asosan, tabiiy va samarali turlarga bo‘linadi. Tabiiy unumdorlik tuprokdagi oziq moddalar umumiy zaxirasi bilan xarakterlanadi; uning shakllanishi esa tuprok hosil bo‘lish sharoitlari va omillari hamda genezisiga bog‘liq. Samarali (sun’iy) unumdorlikning inson mehnat faoliyati bilan, ya’ni yerga ishlov berish, sug‘orish, o‘g‘itlash, sho‘rini yuvish kabi agrokompleks tadbirlar bilan boshqaradi. Sun’iy yo‘l bilan qumlik, toshloq, botqoqlik kabi unumsiz yerlarda unumdor tuproklar paydo qilish mumkin. Tabiiy unumdor tuproqlar ba’zan kam samaraga ega bo‘lishi mumkin va aksincha yuqori agrotexnika tadbirlarini qo‘llash natijasida unumsiz tuproqlarda yuqori unumdorlikka erishish mumkin. Tuproqdagi oziq moddalar miqdori (azot, fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy, oltingugurt, temir, bor, marganets va boshqa mikroelementlar) tuprok, hosil qiluvchi jinslar va uning tagidagi yotqizikdar (tagzamini) tarkibiga hamda tuproq hosil qiluvchi jarayonlarga bog‘liq. O‘simliklarning mikroelementlarni o‘zlashtirishiga tuproq reaksiyasi katta ta’sir ko‘rsatadi. Tuprokdagi oziq moddalar zaxirasi mineral va organik o‘g‘itlar solish bilan boshkarib turiladi. Tuprokda suvda oson eruvchi tuzlar, asosan, natriy, shuningdek, magniy, kaltsiy va boshqa kationlarining ortiqcha miqdorda bo‘lmasligi unumdorlikning muhim shartidir.

Asosiy qism: Bugungi kunda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish tuproq unumdorligini oshirishga borib taqaladi. Tuproqlarda biogumus miqdori kamayib borar ekan, ularni regeneratsiya qilib qayta tiklash qishloq xo‘jaligini raqobatbardoshligini ta’minlashning birdan-bir yo’lidir. Organik dehqonchilik sintetik materiallardan eng kam miqdorda foydalanish bilan birga,

ma’danli o‘g‘itlar, pestitsidlar, geni o‘zgartirilgan urug‘lar, konservantlar, qo‘shimchalar, radiaktiv nurlantirishlardan voz kechishni targ‘ib qiladi. Asosiysi, aniq maydonda maqbul qishloq xo‘jalik amaliyoti bilan shug‘ullanib, tuproqning uzoq muddatda unumdorligini oshirish va saqlashda organik o‘g‘itlar (go‘ng, kompost), sideratlar, almashlab ekish, tuproqlarga juda kam darajada ishlov berish, o‘simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilishda biologik usullardan foydalanishni taklif qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, organik dehqonchilik atrof-muhitga zarar keltiradigan kimyoviy vositalarni ishlatmasdan, biologik xilma-xillikni asraydigan, qolaversa, agroekotizimning sanitariya holatini yaxshilaydigan, tuproq unumdorligini oshiradigan va insonlar salomatligini muhofaza qiladigan ishlab chiqarishni boshqarishning yagona tizimi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish yurtimizda ham muhim masalalardan biri. Ayniqsa, bunga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotgani, o‘z iqtisodiyoti rivojlanishini agro-industrial yo'nalishda tashkil etayotgan hozirgi O‘zbekiston sharoitida tuproq unumdorligini muhofaza qilishning huquqiy muammolarini o‘rganish, ularning echimini topishda amaliyot materiallari asosida chuqur ilmiy-nazariy mushohadaga asoslangan takliflar ishlab chiqish, xulosalar berish zaruratini vujudga keltiradi.

Joriy yilning 10-iyun kuni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror bu boradagi yana bir huquqiy asos bo‘ldi. Mazkur hujjat atrof-muhitning barqaror faoliyatini ta'minlash, tabiiy ekologik tizimlarni muhofaza qilish, tuproqlardan samarali va ehtiyotkorlik bilan foydalanish, ularning sifati va unumdorligini saqlash hamda tuproqlarni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga e’tiborni qaratadi. Tuproq sifati masalasini kun tartibiga qo‘yish ko‘pchilik uchun erish tuyulishi mumkin. Ammo bu allaqachon global muammolardan biriga aylangan. BMTning so'nggi besh yillikdagi tahlillariga ko‘ra, hozirga qadar yer sharining 40 foiz tuprog‘i o‘z sifatini yo‘qotgan. Insonning yerga noto‘g‘ri munosabati tuproq unumdorligini pasaytirib va hosildorlikni pasayishiga olib kelmoqda.

Xulosa. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda qishloq xo‘jaligi sohasida ham tub o‘zgarishlar olib borilmoqda. Bu borada tuproq unumdorligini oshirish, erdan oqilona foydalanishni tashkillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Agrar sohada asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan yerga e’tibor, ushbu sohadagi ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishda o‘ziga xos zamin bo‘ldi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ga a’zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi ming yillik rivojlanish

maqsadlariga erishgani uchun 2015 yilda beriladigan mukofotiga sazovar bo‘lgan 14 ta davlatdan biri sifatida mamlakatimiz e’tirof etildi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan keng ko‘lamli tadbirlar natijasida mamlakat aholisi sonining 10 million kishidan ziyodga ko‘payishiga qaramasdan aholi jon boshiga ishlab chiqarilayotgan bir qator oziq-ovqat mahsulotlari hajmi bir necha barobarga oshdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston har yili dunyoning 80 davlatiga 180 dan ortiq turdagi sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqda. Ma’lumki, biologik (organik) qishloq xo‘jaligi atrof-muhitni saqlaydi va qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishining asosiy yaqqol misoli bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanov D.T. “Organik dehqonchilik” o‘quv qo‘llanma Toshkent, 2022 y «Fan ziyosi nashiryoti»
2. B.Musayev “Agrokimyo” Toshkent, 2001 y, 294-296 bet
3. Bezborodov G.A “Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy amaliy asoslari” (2-qism) Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. Toshkent, 2007 y.
4. Internet saytlari:
5. 1.http://www.google.uz
6. 2.http:// www.tadqiqot.uz
7. 3.https//www.ziyonet.uz

ЎҚИТИШНИНГ КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИДА ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШ

Ашурова Дилрабо Халиловна
Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти
Таянч докторант
ashurovadilrabo@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада олий таълим муассасалари талабалари билимларини баҳолаш қиёсий тарзда таққосланади ва баҳолаш мезони хусусида фикр юритилади.

Таянч сўзлар: ECTS кредит-модуль тизими, кредит-модуль тизимининг баҳолаш тизими ва шкаласи, Болонья жараёни, Болонья декларацияси

Бугунги кунда юртимизнинг кўпгина олий таълим ташкилотларида ECTS кредит-модуль тизими татбиқ этилмоқда. ECTS кредит-модуль тизимининг ўз баҳолаш тизими ва шкаласи мавжуд бўлиб, ушбу

тизимни ўз таълим тизимига татбиқ қилаётган давлатлар қайси баҳолаш тизимини жорий этишни мустақил ҳал қила оладилар. Юртимизда талабаларнинг билимини баҳолашннинг амалдаги қоидаларида атиги 3 та ижобий баҳолар мавжуд (3,4,5) ва бу, бизнинг фикримизча, талабаларнинг билим ва салоҳиятларини етарли даражада баҳолаб бера олмайди. Америкада баҳолаш тизимининг 12 та шкаласи мавжуд.

Талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 9 августдаги 19-2018-сонли буйруғига илова қилинган “Олий таълим муассасаларида талабаларнинг билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги низом” га асосан ташкил этилади. Ушбу низомда олий таълим ташкилотлари талабалари томонидан ўзлаштиришнинг баҳолаш тизимлари қиёсий тарзда таққосланади: (2-жадвалга қаранг)

2-жадвал

Олий таълим тизимида талабалар ўзлаштириши баҳолаш тизимларининг қиёсий таққослаш жадвали

<table>
<tr><th>Таклиф этилаётган Ўзбекистон тизими</th><th>Россия тизими (МДУ) *</th><th>Европа кредит трансфер тизими (ECTS — European Credit Transfer System)</th><th>Америка тизими (A- F)</th><th>Британия тизими (%)</th><th>Япония тизими (%)</th><th>Корея тизими (%)</th><th>Ўзбекистон тизими (%)</th></tr>
<tr><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«A»</td><td>«A+»</td><td rowspan="2">70 — 100</td><td rowspan="3">80 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td></tr>
<tr><td>«A»</td></tr>
<tr><td>«A-»</td><td>65 — 69</td></tr>
<tr><td rowspan="3">«4»</td><td rowspan="3">«4»</td><td>«B»</td><td>«B+»</td><td>60 — 64</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="3">80 — 89</td><td rowspan="3">70 — 89,9</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«C»</td><td>«B»</td><td rowspan="2">50 — 59</td></tr>
<tr><td>«B-»</td></tr>
<tr><td rowspan="4">«3»</td><td rowspan="4">«3»</td><td>«D»</td><td>«C+»</td><td>45 — 49</td><td rowspan="4">60 — 69</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="4">60 — 69,9</td></tr>
<tr><td rowspan="3">«E»</td><td>«C»</td><td rowspan="3">40 — 44</td></tr>
<tr><td>«C-»</td></tr>
<tr><td>«D+»</td><td>60 —</td></tr>
</table>

			«D»			69	
			«D-»				
«2»	«2»	«FX»	«F»	0 — 39	0 — 59	0 — 59	0 — 59,9
		«F»					

Ушбу низомга биноан олий ўқув юртларида талабаларнинг билимини назорат қилиш оралиқ ва якуний назорат турлари ўтказилиши асносида амалга оширилади . Ушбу низом аввалги амалда бўлган низомдан фарқли тарзда талабалар билимини қуйидаги мезонларга биноан баҳолашни тавсия этади: (3-жадвалга қаранг)

3-жадвал

Талабалар билимини баҳолаш мезони

Баҳо	Таснифи
5 – (аъло)баҳо	талаба мустақил қарор ва хулоса қабул қила олади, ижодий фикрлайди, эркин фикр юритиш қобилиятига эга, эгаллаган билимни амалда қўллаш имкониятига эга, фан мазмунини тушуна олади, ифодалайди, айтиб бера олади ва фан юзасидан асосий тушунчага эга деб ҳисобланганда
4 –(яхши) баҳо	талаба эркин фикр юритади, эгаллаган билимни амалда қўллаш имкониятига эга, фан мазмунини англайди, ифодалайди, айтиб беради ҳамда фан ёки мавзу бўйича тасаввурга эга деб ҳисобланганда
3 – (қониқарли) баҳо	эгалланган билим талаба томонидан амалда қўллана олади, фан ёки мавзунинг мазмунини англайди, айтиб бериш имкониятига эга ва фан ёки мавзу бўйича тасаввур мавжуд деб ҳисобланганда
2 – (қониқарсиз) баҳо	фан дастури талаба томонидан ўзлаштирилмаган, фан ёки мавзунинг мазмунини тушунмайди ва фан (мавзу) юзасидан тасаввур мавжуд эмас деб ҳисобланганда

Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2019 йил 8 октябрдаги Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси"га кўра мамлакатдаги олий таълим муассасаларининг 85 фоизи 2030 йилгача босқичма-босқич кредит-модуль тизимига ўтиши режалаштирилган. Бу яқин йиллар давомида

мамлакатдаги деярли барча олий таълим муассасаларининг кредит-модуль тизимида фаолият юрита бошлашидан дарак беради .

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 9 августдаги 19-2018-сонли буйруғига илова қилинган “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги низом
2. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2018 йил 9 августдаги 19-2018-сонли буйруғига илова қилинган “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги низом, 2-боб, 2-банди
3. Ўқув-услубий мажмуа, Ҳабибуллаев Р, Топилдиев В, Инназаров М, 2020, 6- бет

ОШЛОВЧИ ТОТИМ (Rhus coriária L.) ЎСИМЛИГИНИНГ БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ТЎГРИСИДА

Ахмедов Эгамёр Тошбоевич
Биология фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент

Аманова Гўзал Чоршанбиевна
Магистр, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент

Айни пайтда фармацевтика саноатида фойдаланиладиган дори воситаларини табиийлаштириш долзарб масаларидан бири бўлиб ҳисобланиб, бу йўналишда Ўзбекистонда қатор илмий-амалий изланишлар амалга оширилмоқда. Республикамизда фармацевтика саноатини доривор ўсимлик хом-ашёларига бўлган эҳтиёжларини қондириш мақсадида, ҳозирги кунда ихтисослашган ўрмон хўжаликларида 30 дан ортиқ доривор ўсимликлар маданий ҳолда етиштирилади. Етиштирилаётган доривор ўсимликлар орасида ошловчи тотим (Rhus coriária L.) алоҳида эътиборга молик.

Ошловчи тотим (Rhus coriária L.) ўсимлигининг хўжалик аҳамияти кенг қамровли бўлиб, ўрмон хўжалиги, доривор ўсимликшунослик, кўкаламзорлаштириш ва бошқа соҳаларида муҳим аҳамият касб этади. Шу вақтгача ошловчи тотим (Rhus coriária L.) ўсимлигига ўрмон ва манзарали ўсимлик сифатида қаралган бўлса, эндиликда эса унга қимматли доривор ўсимлик сифатида ҳам қаралмоқда. Чет-эл фармацевтика парьюмерия ва лак-бўёқ саноатларида унинг ер устки хом-ашёларидан турли-хил мақсадларда

фойдаланилади. Хусусан, ошловчи тотим барглари доривор хом ашё ҳисобланиб, улардан танальбин препарати таркибига кирувчи тиббиёт танини олинади [2.3.6.7].

Ўзбекистон Республикасининг 2017–2021 йилларга мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси” дастурида қатор вазифалар белгилаб берилган бўлиб, унда доривор ўсимликларни биологик хусусиятларини ўрганиш ва етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга жорий этиш муҳим аҳамият касб этади [1].

Шу мақсадда, ЎзР ФА Ботаника боғи ва ТошДАУ тажриба ер майдонларида мазкур ўсимликнинг коллекцияси яратилган бўлиб, илмий изланишларимизда бу ўсимликнинг биоэкологик хусусиятлари ва етиштириш агротехникасини ишлаб чиқишга доир маълумотлар атрофлича ёритилмоқда.

Ошловчи тотим (Rhus coriária L.) ўсимлиги қуйи ва ўрта тоғ минтақаларининг денгиз сатҳидан 1000 м гача баландлигида ва Помир Олойда тизмасининг 1800 м гача баландлигида ўсади. Одатда улар зич ўсиш майдонларини ҳосил қилмайди. Ўсимлик жанубий экспозициянинг қуруқ қияликларида ўсиши унинг қурғоқчиликка чидамлилигини кўрсатади. Ёруғсевар, шунинг учун фақатгина очиқ жойларда учрайди; ўрмонларнинг пастки қисмида ҳатто сийрак ва ёруғ бўлса ҳам камдан-кам учрайди [4.5].

Тотум– Anacardiaceae оиласига мансуб бута ёки унча катта бўлмаган ва кам шохланган дарахт бўлиб, унинг баландлиги 1 м дан 3 м гача етади. Котта ёшдаги ўсимликларнинг пўстлоғи жигаррангсимон рангда бўлиб, сийрак тукланган. Ёш ниҳоллари ва бир йиллик пояларининг пўстлоғи қўнғир рангли, дағал тукли, кўп йиллик таналари ва новдалари ранги эса тўқ қўнғиррангли бўлади.

Барглари кетма-кет, тоқ патсимон, 4-8 жуфт майда қарама-қарши баргчалардан иборат, дағал тукли, устки қисми тўқ яшил, остки қисми деярли кулранг, узунлиги 15-20 см, эни 1,5-3 см, чўзинчоқ тухумсимон, кенг понасимон асоси ва юқори қисми ўткирлашган, ён қирралари йирик буришган-аррасимон.

Гуллари бир жинсли, майда, яшил-оқ, унча кўзга ташланмайдиган, катта конуссимон, юқориги ҳамда кичикроқ майда қўлтиқдан чиққан чангчи ва уруғчи рўвак тўпгулларидан иборат булади.

Чангчи рўваклари оралари кенгайган, узунлиги 25 см, уруғчи тўпгуллари зичроқ, узунлиги 15 см. Косачабарглари юмалоқ тухумсимон, яшил, тожибарглари тухумсимом чўзилган, оқиш рангли бўлади. Меваси майда шарсимон ёки буйраксимон бўлиб, бир уруғли қизил данакли бўлади.

Катта ёшдаги ўсимликлар етарлича ривожланган илдиз системасига эга бўлиб, асосан вертикал ва горизантал тарзда ривожланади. Вертикал ривожланган илдизлар механик “мустаҳкамловчи” вазифасини бажараса, горизонтал равишда тарқалган кўп сонли илдиз бачкилари эса асосан “вегетатив” кўпайиш функциясини таъминлайди.

Кузатишлар (ЎзР ФА Ботаника боғи ва ТошДАУ тажриба ер майдонлари) шуни кўрсатдики, ўсимликнинг мавсумий ривожланиши иқлим шароитлариги бевосита боғлиқдир. Одатда июнь-июль ойларида гуллайди. Аммо, иқлим шароитининг мўътадил келиши билан айрим ҳолларда кузда иккиламчи гуллашни кузатиш мумкин. Дастлабки гуллардан ҳосил бўлган биринчи мевалар июлда, сентябрь-октябрь ойларида тўлиқ пишади.

Ўсимлик асосан иссиқсевар, аммо -200С гача совуқ ҳароратга бардош бера олади. Ёш ниҳоллар, хусусан, питомниклардаги кўчатлар совуққа чидамсиз бўлади.

Дала тажрибаларининг кўрсатилишича, Ошловчи тотим очиқ ердаги унумдор тупроқларда жуда яхши, кам унумдор тупроқларда яхши ва шунингдек, унимсиз ва шағалли ерларда ҳам етарлича ўса олиш хусусиятига эгадир.

Шундай қилиб, ўсимликнинг мавсумий ривожланиши иқлим шароитлариги бевосита боғлиқ. Иқлим шароитининг иссиқ ва куз фаслининг мўътадил келиши билан кузда ўсимликларда иккиламчи гуллаши кузатилади. Бизнинг шароитимизда ошловчи тотим асосан ёруғсевар ва иссиқсевар ўсимлик ҳисобланиб, унимдор тупроқларда жуда яхши ўсиб ривожланади, аммо, бал боннитети паст унимсиз ва шағалли ерларда ҳам етарлича ўса олиш қобилиятига эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Ташкент: Медицина, 1990. – 446 с.
3. Алимбаева П.К., Гончарова А.В. Дикорастущие лекарственные растения Киргизии. – Фрунзе: Илим, 1971. – 98 с.
4. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений. – М.: ГУГК, 1983.– 340 с.

5. Биологические особенности и распространение перспективных лекарственных растений // Под редакцией Т.А.Адылова. – Ташкент: Фан, 1981. –158 с.
6. Головкин Р.Н., Руденская И.А., Трофимова А.И., Шретер Б.Н.. Биологически активные вещества растительного происхождения.– в 3 томах. М.: Изд-во Наука, 2001. – 764 с.
7. Государственная Фармакопея СССР // 11-е изд. – М.: Медицина, 1989. – 398 с.12.

BANKNING MIJOZLAR BILAN ISHLASH SAMARALIGINI OSHIRISH

Haydar Nurfayziev
O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi paytlarda korporativ mijozlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq holda tijorat banklari sharoitlarida yuzaga kelgan o‘zgarishlarini ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi ko'proq foyda olish uchun hozirgi sharoitda banklarning korporativ mijozlar bilan biznes yuritish yondashuvlarini o'zgartirish yo'llarini topishdan iborat. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini xorijiy olimlar va mutaxassislarning bank tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishga oid ilmiy ishlari tashkil etdi. Ilmiy nashrlar, huquqiy manbalar, retrospektiv statistik ma'lumotlar va taniqli konsalting kompaniyalarining tahliliy materiallarini sifat va miqdoriy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Natijada muallif banklarning ichki jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab berdi:

– mijoz faoliyati va u ishlayotgan sohani tahlil qilishni chuqurlashtirish;

– har safar bir xil hujjatlarni taqdim etish talabisiz mijoz ma'lumotlarini qayta ishlashning yuqori tezligini ta'minlash;

– mijozga xizmat ko'rsatish taklifini mahsulot, narx va uni bunday bank bilan biznesni kengaytirishga jalb qiladigan boshqa shartlar bo'yicha shaxsiylashtirish;

– bank tomonidan mijozga ko'proq mablag' va e'tiborni asosiy biznesiga yo'naltirishga yordam beradigan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish.

Muallifning xulosasiga ko'ra, kompaniyalar bilan hamkorlikda yangi yondashuvlarni joriy etish banklarga nafaqat korporativ biznesning rentabelligini oshirish masalalarini hal qilish imkonini beradi, balki bank aktsiyadorlari tomonidan qo'yilgan kapitalning daromadliligini kapital qiymatiga yaqinlashtirishga yordam beradi. investorlar uchun investitsiya ob'ektlarini tanlashda muhim qo'llanma hisoblanadi.

Kalit so'zlar : korporativ bank; samaradorlik; raqamli raqobatchilar; G'aznachilik boshqarmasi; xavflar; kapital qiymati.

Iqtisodiy inqiroz ko'plab sohalardagi kompaniyalarning moliyaviy holatiga og'ir ta'sir ko'rsatadi, bu banklarning moliyaviy holatida ham o'z aksini topadi. Ular daromad olish imkoniyatlarini qisqartirdilar, ular kreditlar bo'yicha mumkin bo'lgan (kutilgan) yo'qotishlar uchun qo'shimcha zaxiralarni yaratishga majbur. Markaziy banklar banklar ishini kapitalning yetarlilik darajasi, provayderlar yaratish va majburiy likvidlik "yostig'i" bo'yicha yanada qat'iy tartibga sola boshladilar, bu umuman bank operatsiyalari rentabelligining pasayishiga olib keladi. Bank operatsiyalari sohasida "raqamli" o'yinchilar mavjud bo'lib, ular mijozlarga qulayroq, arzonroq va shaxsiylashtirilgan takliflarni taklif qilishadi. Korporativ mijozlar banklardan o'zlarining biznes muammolarini hal qilishda, naqd pul, valyuta, foiz stavkalari va tovar risklarini boshqarish bo'yicha g'aznachilik ishini sezilarli darajada osonlashtiradigan xizmatlarni ishlab chiqish va taklif qilishda yanada yaqinroq ishtirok etishlarini kutishadi, bu esa kompaniyalarning moliyaviy bo'limlariga muammolarni hal qilish uchun ko'proq vaqt beradi. mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning tarmoqlarida raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlash.

Korporativ bank ishi juda katta bozor bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab bank sanoatidan tushgan umumiy 5 trillion dollar daromadning qariyb 30 foizini tashkil qiladi.

Banklar ishlab chiqarish va tijorat kompaniyalariga quyidagi xizmatlarni taqdim etadilar:

• ssudalar va likvidlik liniyalari kabi qarz resurslarini taqdim etish;

• tranzaksiya xizmatlari: to'lovlarni qayta ishlash, naqd pulni boshqarish va savdoni moliyalashtirish;

• kompaniya risklarini boshqarish mahsulotlari: foiz stavkalarini almashtirish, valyuta yoki tovar operatsiyalarini xedjlash;

• korporativ moliya xizmatlari, masalan, o'z kapitalini oshirishda vositachilik qilish va qo'shilish va sotib olishda sotiladigan qarz qimmatli qog'ozlarini joylashtirish. Ko'p yillar davomida korporativ bank faoliyatining biznes modeli banklar o'z balanslarini korporativ mijozlarga kredit va likvidlik (asosan deyarli har bir bankda mavjud bo'lgan shaxsiy bo'lmagan tovarlar) bilan ta'minlash uchun foydalanishi va bu bilan parallel ravishda rivojlanishi edi. kompaniyalarning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan yuqori daromadli mahsulotlarni bunday mijozlarga sotish bo'yicha munosabatlar komissiya asosida.

Kredit berish va o‘zaro savdo yondashuvi sharoitida bankning roli aniq va shubhasiz edi: balans sig‘imi va mijozlarni mahsulotlar bilan bog‘lash qobiliyati banklarning raqobatdosh ustunligining asosiy manbalari bo‘lib, bozorga potentsial

yangi ishtirokchilarga qarshi to‘siq bo‘lib xizmat qildi. Biroq, bank faoliyatini tartibga solishning yangi tendentsiyalari, ayniqsa 2008-2009 yillardagi iqtisodiy inqirozdan so'ng keskinlashdi, bir nechta juda yirik banklar qulab tushdi, bu esa mijozlarning butun bank sanoatining ishonchliligiga ishonchiga tahdid soldi, shuningdek, bank sektorining rivojlanishi. raqamli texnologiyalarning rivojlanishi banklar ishini sezilarli darajada murakkablashtirdi.

Banklardan kapitalni jalb qilish, balans tuzilmasi bo‘yicha ma’lum cheklovlarga rioya qilish, likvidlik zaxiralarini saqlash, shuningdek, o‘z mijozini bilish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash doirasida mijoz tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarga bo‘lgan qat’iy talablarni talab qiluvchi tartibga soluvchi tashabbuslar; xarajatlarni oshirish va banklarning rentabelligini kamaytirish.

Raqamli raqobatchilar Amazon asoschisi Jeff Bezosning “sizning marjam – mening imkoniyatim” biznes yondashuviga amal qilib, asta-sekin an'anaviy ravishda faqat bank muassasalari tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalarga o'tmoqda va bir necha yo'nalishda ishlamoqda. Yangi tashkil etilgan N 26, Atom, Monzo, Starling, Tinkoff Bank va an'anaviy banklarning sho''ba korxonalari (masalan, Goldman Sachs'dan Markus va BNP Paribas'dan Hello) kabi Internet-banklar texnologik innovatsiyalar (sun'iy intellekt) tomonidan taqdim etilgan mijozlar tajribasini ta'kidlaydi. , katta ma'lumotlar, tahlillar, bulut va boshqalar) va bank filiallaridan voz kecheng. Yirik texnologiya kompaniyalari, jumladan Google, Apple, Facebook, Amazon, Baidu, Alibaba, Tencent va Square, Stripe, PayPal, TransferWise, Gemalto, Ingenico kabi bank bo‘lmagan to‘lov tashkilotlari bank litsenziyasisiz ishlaydi yoki odatda litsenziyaga ega bo‘ladi. an'anaviy bank bilan solishtirganda, asosan jismoniy shaxslarga yoki kichik biznesga ma'lum to'lovlarni ta'minlash, an'anaviy banklarning pul do'konlariga rolini kamaytirish.

Raqamli raqobatchilarning tajovuzkor yondashuviga qaramay, korporatsiyalar uchun bank xizmatlarini ko'rsatishda ularning ulushi hali ham juda past: kompaniya hisoblarini boshqarishda 2-3%, kreditlar taqdim etishda 1-9%, to'lovlarda 6-12%. va moliyaviy bozorlarda vositachilikda 2-4% 1 . Shu bilan birga, yirik kompaniyalar uchun ularning ulushi ko'rsatilgan diapazonlarning past qiymatiga moyil bo'lib, bu ko'p jihatdan bunday kompaniyalar, qoida tariqasida, kompaniyaga jiddiy munosabatda bo'lgan eng yirik bank tuzilmalari bilan hamkorlik qilishlari bilan bog'liq. biznes uchun qulay zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Bundan tashqari, kompaniyalarning o'zlari raqamli raqobatchilar qila olmaydigan murakkab mahsulotlar va oxirigacha xizmatlarni talab qiladi. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, raqamli raqobatchilarning an'anaviy banklar uchun tahdidining ahamiyati ular olib qo'yadigan bank xizmatlari bozori

ulushida emas, balki ular bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylikni ta'minlaganligidadir. Tezlik va uni kechayu kunduz taqdim etish shartlari, shuningdek hujjatlashtirish va xizmatni mijozning ehtiyojlariga moslashtirish talablari banklar mijozlar bilan chambarchas bog'langan bank qiymat zanjirini buzish imkoniyatlarini qidirmoqda. va investorlar, va banklar daromadlarining eng jozibador (chunki risksiz) qismini - bank komissiyalarini maqsad qilgan. Va bu tahdidni amalga oshirish oqibatlari allaqachon ko'rinib turibdi: banklarning komissiya daromadlari pasayib bormoqda. Xususan, agar 2004 yilda AQSh banklarining foizsiz daromadlari operatsion daromadning deyarli 46 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda u 30 foizdan sal ko‘proqqa tushdi.

Hozirgacha korporativ banklar real iqtisodiyot uchun asosiy korporativ bank xizmatlarini ko'rsatuvchi asosiy provayder bo'lib qolmoqda. Biroq, xotirjamlik uchun hech qanday asos bo'lmasligi kerak. Tegishli va hayotiyligini saqlab qolish uchun korporativ banklar "butun qiymat zanjiri bo'ylab yuqori sifatni ta'minlashi kerak - qisqa muddatda rentabellikni saqlab qolish va o'rta muddatda o'z pozitsiyalarini yangi turdagi raqobatchilardan himoya qilish uchun".

Raqobat muhitining boshqa tomoni an'anaviy banklar o'rtasidagi mijoz uchun raqobatdir. Bitimlar hajmining o'sishi, ularning murakkabligi va geografik diversifikatsiyasi bilan kompaniyalar o'zlari ishlayotgan banklar doirasini kengaytirishga moyildirlar. Tranzaksiya banki nuqtai nazaridan, dunyodagi eng yirik kompaniyalarning 34% va undan ortiq banklar bilan ishlaydi, 40% esa 150 dan ortiq bank hisob raqamlariga ega. Hatto eng kichik kompaniyalar ham odatda bir nechta banklar bilan ish olib boradi va respondentlarning atigi 16% bitta bank bilan ish olib boradi.

Biroq, kompaniyaning operatsiyalari jamlanadigan va ularning asosiy qismi amalga oshiriladigan asosiy bank tushunchasi saqlanib qolgan. Va bu borada kompaniyalar oqilona konservativdir: hech kim o'zining asosiy bankini o'zgartirishga shoshilmayapti - aksincha, kompaniyalar o'z banklarini kerakli operatsiyalarni rivojlantirishga undaydilar. Va agar bank kerakli diapazon va hajmda kerakli xizmatni taqdim qilmasa, korporativ mijoz o'zining asosiy bankini o'zgartirish haqida o'ylaydi. Misol uchun, Buyuk Britaniyadagi mijozlar o'zlarining asosiy banklarini har 15-20 yilda bir marta o'zgartiradilar, Buyuk Britaniyaning raqobat va bozorlar boshqarmasi.

Banklar kapitallari bo'lgan vaziyor: kashayish xavflari va to'ldirish imkoniyatlari. Bank kapitalini ko'paytirishga qo'yiladigan talablar, birinchi navbatda, tartibga soluvchi organlarning bank tizimining barqarorligi, uning mijozlari jamg'armalari va joriy mablag'larining ishonchli saqlovchisi sifatidagi tashvishi bilan belgilanadi. qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini pasaytirish

xavfiga qarshi, bu ham likvidlik yostig'i banklarini yaratish choralarini yaratishga qaratilgan. Natijada, banklar qo'shimcha kapital mablag'larini jalb qilishga majbur bo'lmoqdalar, buning natijasida 2018 yilga kelib ularning kapital bazasi bo'yicha holati yanada barqaror bo'ldi. 2011 yildagi 6,66% dan 1-darajali kapitalning etarliligi butun dunyo bo'ylab 6,75% gacha ko'tarildi. Bu bankning xavf-xatarga ega 1-darajali kapitali (4,5%) bo'yicha Bazel III ko'rsatmalaridan ancha yuqori. Biroq, so'nggi yillarda kam sonli banklar o'zlarining kapital qiymatidan oshib ketadigan daromad keltirdilar (hozirda taxminan 12%), chunki bank sanoati uchun o'z kapitalining o'rtacha sof rentabelligi taxminan 9,6% ni tashkil qiladi. Bunday holatning asosiy sabablari - berilgan kreditlar bo'yicha provizionlarning ko'payishi va komissiya va komissiya daromadlarining kamayishi.

Qayta moliyalashtirish xarajatlari, operatsion xarajatlar va tavakkalchilik zaxiralarini hisobga olgan holda hisoblangan banklarning iqtisodiy foydasiga nazar tashlab, banklarning moliyaviy sog'lig'ining to'liq ko'rsatkichi bo'lib, shuningdek, joriy moliyaviy ta'sirni aniqlash uchun foydali ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. tartibga solish bosimi, bank faoliyati bo'yicha raqamli va to'g'ridan-to'g'ri raqobatchilar, keyin vaziyat ham juda jozibador emas, chunki 2014 yildan buyon bu ko'rsatkich 15 bazaviy punktdan 2018 yilda butun dunyoda bank sanoati uchun 6 ga kamaydi.

Ko'rib turganimizdek, bank kapitalining ko'payishi va real sektorni kreditlashning sezilarli darajada oshishi fonida 2020 yilgi pandemiyadan oldin ham bank sohasidagi rentabellik bilan bog'liq vaziyat yanada murakkablashdi. bank kapitalining nominal o'sishi, bu ularga iqtisodiyotni kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berdi va ko'plab markaziy banklar tomonidan olib borilayotgan "oson pul" siyosati bilan bog'liq holda qarz mablag'larining arzonlashishi. Natijada, Standard & Poor's ma'lumotlariga ko'ra , so'nggi o'n yillikda moliyaviy ta'sirning (qarz yuki) favqulodda o'sishi kuzatildi, bu rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rtacha qarz nisbatini EBITDA ning atigi 80% dan (foizlar, soliqlardan oldingi daromad) ko'tardi. va amortizatsiya), t .e. 2008 yilda kompaniyalar uchun mavjud bo'lgan mablag'lardan kamroq bo'lgan, 2019 yilda qarzdorlik kompaniyalarga mavjud bo'lgan mablag'lar miqdoridan ikki baravar ko'p bo'lgan. Jahon iqtisodiyotining inqiroz bosqichiga o'tishi kredit portfelini ko'paytirish bo'yicha rezervlar bo'yicha banklarga bosimni kuchaytirdi va bank rentabelligi bilan bog'liq vaziyatni yanada murakkablashtirdi.

Joriy inqiroz davridagi yo'qotishlar tufayli 100 dan 400 milliard AQSH dollarigacha bo'lgan kapitalni yuvish imkoniyatini hisobga olgan holda, "ehtiyotkorlik zonasiga" o'tishlari mumkin . Bunday sharoitda taqsimlanmagan foydadan kapitalni to'plash qobiliyati har yili 1-darajali kapitalning 0,5-1 foiz

punktiga ekvivalent darajadan atigi 0,2-0,5 foiz punktiga tushadi, bu esa organik qayta kapitallashuvni sezilarli darajada sekinlashtiradi [10]. Afsuski, sof aktivlarning kapitallashuvi va joriy qiymatining past nisbati (2019 yilda butun bank tizimi bo‘yicha 0,93) va so‘nggi yillardagi pasayish tendentsiyasi tufayli banklar uchun ochiq bozorda kapitalni jalb qilish katta muammo hisoblanadi . Shu bilan birga, an'anaviy banklarning raqobatchilari - texnologiya kompaniyalari bir necha baravar yaxshiroq baholanadi (2019 yilda Google , Apple , Facebook , Amazon uchun o'rtacha 10,36). Va bunday investitsiyalarning bozor qiymatining o'sishi istiqbollari juda yorqin. Adolat uchun shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy banklar va texnologiya kompaniyalari, jumladan, fintech kompaniyalari o'rtasida kapital uchun raqobat unchalik teng emas: bunday kompaniyalarning kapitallashuvi, garchi ular foyda keltirmasa ham, o'sib bormoqda. Eng yorqin misol - Tesla kapitallashuvining o'sishi bo'lib , u uchta yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi qiymatidan oshib, o'nlab marta ko'proq avtomobil ishlab chiqaradi va daromad keltiradi. Va barqaror rentabellikga ega bo'lgan banklarning qiymati tushadi. Biroq, investorlar kelajakda yuqori daromad va'da qiladigan korxonalarga ko'proq sarmoya kiritadilar. Banklar bilan bog'liq muammo shundaki, investorlar kelajakda kapital qiymatidan yuqori daromad keltira olmaydi deb o'ylamaydilar. Shuning uchun banklar ushbu muammoga e'tibor berishlari kerak.

Ernst & Young ma'lumotlariga ko'ra , so'nggi besh yil ichida doimiy ravishda kapital qiymatidan yuqori daromad keltirgan dunyodagi 1250 ta yirik bankdan 350 tasining muvaffaqiyati bank sanoati hozirgi tendentsiyalarni "yangi norma" sifatida qabul qilmasligi kerakligini anglatadi. past daromadli, ammo iqtisodiy tsiklning hozirgi bosqichini hisobga olgan holda kapitalni to'ldirish uchun etarli daromadni ta'minlash uchun ular bunday natijalarga qanday erishganlarini tushunish va ulardan o'rnak olish yaxshiroqdir . Bank sektorining o‘sish sur’atlari sustlashda davom etayotganini hisobga olsak, buni amalga oshirish qiyin bo‘lsa-da , sanoat daromadlari 2014-2018 yillarda yiliga 2 foizga o‘sib, bank sektorining tarixiy yillik o‘sishi 5-6 foizdan ancha past.

Binobarin, banklar kapital qiymatidan yuqori rentabellikni oshirish uchun operatsion xarajatlarini va yangi daromad manbalarini kamaytirish haqida jiddiy o'ylashlari kerak. Bu, albatta, foydaning bir qismini kapitalga taqsimlash orqali ham, ochiq bozorlarda mablag'larni jalb qilish orqali ham kapitalni to'ldirish masalalarini hal qilishga yordam beradi.

Hozirgi sharoitda rentabellikning oshishi, birinchi navbatda, korporativ mijozlarning bank xizmatlari sifati va uning bank ichidagi jarayonlarni tezlashtirish va soddalashtirish, naqd pul va pul mablag'larini boshqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishda keng ko'lamli tahliliy vositalardan foydalanish kabi sohalarda ko'p

qirraliligidan maksimal darajada qoniqish bilan bog'liq. kompaniyalar faoliyati bilan bog'liq risklar va korporativ mijozlarga ularning ta'minot zanjiri va sotishlarini moliyalashtirishda yordam berish. Mahsulotga yo'naltirilganlik o'rniga mijozlarga e'tibor qaratish texnologiyaga katta sarmoya kiritishni, biznes modellarini o'zgartirishni va bank xodimlari uchun ishni birinchi o'ringa qo'yishning yangi usulini talab qiladi. Bank xodimlarining asosiy vazifasi o'z mahsulotlarini sotishdan olingan (hech qanday yo'l bilan) daromad miqdori bo'lmasligi kerak. Kompaniyaning kredit-moliyaviy muammolarini hal qilishda bankning yordami bilan mijozlar qoniqishini olishga intilish kerak, bu esa qoniqarli mijozlarning ko'proq bank xizmatlarini sotib olishiga aylanadi, ularni sotishdan bank o'z foydasini oladi.

Korporativ mijozlar bilan ishlashga yondashuvning bunday o‘zgarishi banklar uchun jiddiy muammo bo‘lib, shu bilan birga bankning raqobatchilardan qanday farq qilishini ko‘rsatish imkoniyatidir.

Korporativ bankda mahsulotga qo'shimcha ravishda bir qancha qo'shimcha omillar, jumladan, narxlash, soddalashtirilgan jarayonlar, operatsion mukammallik, munosabatlarni boshqarish va xalqaro ishtirokchilik rolini o'ynaydi. Kuchli raqobat mahsulot darajasida korporativ bank o'yin maydonini tobora tekislash bilan birga , banklar tijoratlashtirilgan mahsulotlar uchun faqat narx bo'yicha raqobatlashmaslik uchun mijozlar tajribasi va mukammalligi orqali o'zlarini farqlashlari kerak.

Raqobatda g'alaba qozonish uchun ushbu rivojlanishga investitsiyalar banklarning kapital bazasini jiddiy mustahkamlashni talab qiladi, yuqorida ko'rsatilgandek, bu oson emas. Ayniqsa, bunday investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati bo'lmagan yoki boshqa yo'l bilan yirik raqobatchilar fonida ajralib turadigan kichik banklar uchun qiyin. Natijada, bunday kichik banklar o'z faoliyatini to'xtatadi yoki yiriklari bilan birlashadi, natijada butun dunyo bo'ylab banklar soni kamayib bormoqda: tijorat banklari soni, masalan, Rossiya Federatsiyasida taniqli tendentsiya bilan bir qatorda. , Qo'shma Shtatlarda 2009 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda kamaydi. 33,3% ga (4653 tagacha), Yevropa Ittifoqida esa 34,5% ga (11948 tagacha) kamaydi. Qolgan kichik banklar uchun biznes hajmi pasaymoqda: Rossiya Federatsiyasida 2013 yildan 2020 yilgacha. Hududiy kredit tashkilotlarining yuridik shaxslarni kreditlashdagi ulushi qariyb 3 baravar, korporativ mijozlarning banklar oldidagi umumiy qarzining 7,3 foizidan 2,7 foizigacha qisqardi.

Bankning korporativ muzuchi nima ishlaydi. Qoidaga ko'ra, banklar bilan joriy ish bilan g'aznachilik boshlig'i (agar u yirik kompaniya bo'lsa) yoki moliya direktori shug'ullanadi. Ularning bu ishi ikki qismga bo'lingan: (1) kundalik operatsiyalarni boshqarish va (2) aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni

kamaytirish bilan bog'liq uzoq muddatli strategiya va biznes risklarini boshqarish masalalarini hal qilish, shu jumladan butun qarorlar. tashqi qiymat zanjiri (birinchi navbatda, etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan), uning taqchilligini moliyalashtirish uchun mablag'larni jalb qilish xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, tovar va valyuta bozorlarida o'sib borayotgan noaniqlik bilan bog'liq risklarni boshqarish.

Muammolarning birinchi guruhida ushbu moliya direktorlari takrorlanuvchi tranzaktsiyalarni to'liq raqamli va uzluksiz boshqarishga intilishsa, ikkinchi guruh muammolarini malakali biznes hamkorlarisiz hal qilish qiyin bo'lsa, kompaniyalar maslahat olishni va ular bilan hamkorlik qilishni xohlashadi. moliyaviy masalalarning keng doirasi.

Ma'lum bo'lishicha, joriy operatsiyalar kompaniya talab qiladigan darajada ko'plab banklar tomonidan amalga oshirilishi mumkin va maslahat nuqtai nazaridan, turli banklarning o'zlarining korporativ mijozlariga qulay va o'z vaqtida maslahat va xizmatlarni taklif qilish qobiliyatida sezilarli farqlar mavjud. Ammo aynan shu qobiliyatlar kompaniyalar tomonidan eng qadrlanadi. Ernst & Young tomonidan o'tkazilgan global so'rovda moliyaviy direktorlarning 67% asosiy banklaridan oladigan qo'shimcha qiymatli maslahatlar qo'shimcha qiymatli maslahatlar ekanligini ta'kidladilar va respondentlarning 50% yangi g'oyalar va chuqur bank bilimlarining muhimligini ta'kidladilar. tegishli sanoat.

Korporativ mijozlar faqat ma'lum bir moliyaviy masala bo'yicha tajriba izlamaydilar, ularni quyidagilar qiziqtiradi:

• o‘z sohasiga tegishli bo‘lgan va muammoga boshqa tomondan qarash orqali o‘ziga xos biznes vaziyatlarni hal qilishga imkon beruvchi innovatsion g‘oyalar ;

• yaxlit yondashuvni ishlab chiqish uchun kompaniya moliyaviy faoliyatining barcha turli sohalarini, shu jumladan banklar, yetkazib beruvchilar, xaridorlar, hamkorlar va boshqalar bilan operatsiyalarni bog‘laydigan integratsiyalashgan yakuniy yechimlar;

Kompaniyalar ham banklar ham pul ishlashga intiladigan tijorat tashkilotlari ekanligini to'liq tushunadilar. Biroq, banklar korporativ mijozni o'zlari kerak bo'lmagan mahsulot yoki xizmatlarni sotib olishga ishontirishga harakat qilganda, kompaniyalar uchun qabul qilinishi mumkin emas. Shu bilan birga, kompaniyalar talab qilinadigan xizmat uchun raqobatbardosh narx taklifini bildirsa yoki bank kompaniyaga qiziqarli ma'lumot yoki maslahatlar bersa, bankka ko'proq biznes berishga tayyor. Shu bilan birga, kompaniyalar, albatta, ushbu xizmatlarni "eng yaxshi narxda" olishni xohlashadi, lekin ular narx muhokamasini na bank uchun, na kompaniya uchun foydali bo'lmagan vaziyatga olib kelishni xohlamaydilar. Odatdagidek, bu daromad darajasi va foyda massasi o'rtasidagi kelishuv bo'lishi

kerak: ma'lum bir operatsiya bo'yicha bank daromadi biroz kamroq, ammo mijoz bilan ko'proq miqdordagi operatsiyalar, bu sizga mijozdan ko'proq foyda olish imkonini beradi. , va kompaniya bank operatsiyalarini shunday bank foydasiga qayta taqsimlaydi, bu esa o'z muammolarini eng keng qamrovli tarzda hal qiladi, bu esa uning asosiy faoliyatida ko'proq foyda olish imkonini beradi.

Iqtisodiyotning nomoliyaviy sektori kompaniyalari uchun moliyaviy menejment muhim, lekin asosiy vazifa emas, bu yuqori raqobatbardosh mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish va tegishli bozorda raqobatda o'z o'rnini egallashdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, moliyaviy boshqaruv xarajatlari qisqartirishga arziydigan asosiy bo'lmagan xarajatlardir (2018 yilgi HSBC global so'rovida yirik kompaniyalarning moliyaviy direktorlarining 60 foizi so'nggi yillarda qo'shimcha resurslar olmaganliklari yoki mablag'lar qisqartirilgani haqida xabar berishdi. Bundan tashqari, korxona faoliyatining moliyaviy qismi korxonaning ishlab chiqarish rejalarining bajarilishini ta'minlashi kerak.

Aynan shu yo'nalishda banklar moliyaviy bo'lmagan kompaniyalarga ushbu muammolarni hal qilishda yordam berish va natijada bunday hamkorlikdan daromad olish uchun o'z kuchlarini yo'naltirishlari kerak.

Shu sababli, korporativ bankning vazifasi o'z xizmatlarini korporativ g'aznaga qaraganda yaxshiroq, arzonroq va tezroq qilishdir, shunda butun kompaniya bank bilan hamkorlikdan ko'proq foyda oladi va nafaqat g'aznachilik uchun xarajatlarini kamaytiradi, balki o'z g'aznachilik ishlariga nisbatan o'z moliyasini boshqarish samaradorligini ham oshiradi. Agar banklar buni uddalay olmasalar, ular boshqa an'anaviy banklar yoki o'zlarining bank operatsiyalarini korporativ moliya funktsiyalarini bajaradigan o'zlarining ichki korporativ banklariga yoki fintech kompaniyalariga autsorsing qiladigan kompaniyalarga raqobatni yo'qotish xavfi bor.

Kichik korxonalarda o‘z mablag‘larini kompaniyaning sho‘ba korxonalari doirasida samarali taqsimlash vazifasi qolmasligi mumkin, lekin, albatta, moliyaviy boshqaruv xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish zarurati tug‘iladi.

Deyarli barcha bozorlarda noaniqlik kuchayib borayotgan bir sharoitda, asosiy bankni tanlashda kompaniyalarning moliyaviy rahbarlari bunday kontragentning barqarorligi va ishonchliligi omillariga alohida e'tibor berishadi. Narxlar bilan bog‘liq muammolar o‘ta muhimligicha qolayotgan bo‘lsa-da, ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lamining ahamiyati, xizmat ko‘rsatish darajasi va mijozning biznesini bilish darajasi ortib bormoqda. Boston tadqiqotidagi har bir moliya direktori konsalting Guruh 2018 yilda bankka ishonch hissi bo'lmasa, korporativ moliya bo'yicha mas'ul shaxslar bankka kompaniyalarning katta

mablag'larini joylashtira olmaydi, ularning xavfsizligi va o'sishi uchun ular shaxsan javobgardir. Ishonch qozonish qiyin va ko'p vaqt talab qiladigan bo'lgani uchun, bu menejerlar ko'pincha bank sheriklarini tanlashda juda konservativ hisoblanadilar, bu esa, o'z navbatida, kompaniyalar tomonidan bank sheriklarining kamdan-kam aylanmasini belgilaydi. Va bu yondashuv juda o'zini oqladi : agar bu pulni yo'qotish xavfi ortib borayotgan bo'lsa, hech kim kompaniyaning pullarini biroz yaxshilangan narxlar uchun xavf ostiga qo'ymaydi.

Moliyaviy direktorlar o'z banklaridan "ularga birinchi o'ringa qo'yish, ilg'or tajribalarni almashish va samaraliroq bo'lishga yordam berishlarini" xohlaydi. Shu bilan birga, kompaniyalar istagan o'zaro munosabatlar konteksti tubdan o'zgarib bormoqda: kompaniyalar faqat mijoz menejeri yoki katta bankir bilan bog'lanish o'rniga, kompaniyalar bank va kompaniyaning integratsiyalashgan guruhlari doirasida tegishli sohalarda hamkorlikni tashkil qilishni xohlashadi. ish: bankning IT-mutaxassislari bevosita kompaniyaning IT-mutaxassislari bilan, g'aznachilik operatorlari - bankning operatsion bo'limlari xodimlari bilan, kompaniyaning risklarni boshqarish bo'yicha mutaxassislari - bankning tegishli xodimlari bilan ishlashi kerak.

Moliyaviy direktorlar o'z banklaridan konstruktiv yordam so'raydigan aniq sohalar orasida eng muhimlari:

• debitorlik qarzlarini boshqarish, uni xedjirlash va faktoring;

• xom ashyo, materiallar va xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan bog'liq risklarni kamaytirish;

• yetkazib beruvchilarning ham, xaridorlarning ham qiymat zanjirini moliyalashtirish;

• valyuta, foiz va tovar risklari hamda likvidlikni boshqarish.

PwC tadqiqotiga ko‘ra, kompaniyalar tomonidan hamkor bank tanlashda ustuvorliklar (eng muhimligi bo‘yicha):

• kompaniya faoliyatini moliyalashtirish;

• bankning mahsulot va xizmatlar imkoniyatlari;

• bank xizmatlari narxi;

• munosabatlarning muvaffaqiyatli tarixi;

• kompaniya uchun umumiy iqtisodiy samaradorlik.

Yuqoridagilarni sarhisob qiladigan bo'lsak, korporativ mijozlar qulay bank xizmatlarini ko'rsata oladigan ishonchli va tajribali hamkorni, shuningdek, biznesni strategik rivojlantirish va moliyaviy menejment va ular bilan bog'liq risklar bo'yicha maslahat beradigan mas'uliyatli biznes-maslahatchini qidirmoqda.

Xulosa Ko'rinib turibdiki, ichki jarayonlarni jiddiy o'zgartirmasdan turib, banklar o'z samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, tartibga

soluvchilarning talablariga javob berish, raqamli raqobatchilarning tajovuzkorligini bartaraf etish , korporativ mijozlarga yangi xizmatlarni taklif qilish orqali daromadlarni oshirish mumkin emas. kompaniya va u faoliyat ko'rsatayotgan sohani chuqur bilish bo'yicha mijozning biznesini rivojlantirishga kredit va moliyaviy xizmatlar sohasida har tomonlama yordam berishga qaratilgan.

Buning natijasida banklar aksiyadorlar tomonidan qo‘yilgan o‘z kapitalining rentabelligini oshirish, kapital qiymatini qondirish va undan oshib ketish, natijada o‘z balanslarini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ushbu yondashuvga amal qilgan banklar amalda korporativ mijozning ajralmas qismiga aylanadi, bu o'zaro manfaatli uzoq muddatli munosabatlar uchun mustahkam poydevor yaratadi, bu esa, o'z navbatida, muayyan bank faoliyatining foydaliligini baholashga yondashuvlarni sezilarli darajada o'zgartiradi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1. Ditz M., Jenkins P., Kapashi R., Lemerle M., Mehta A., Quetti L. Eski o'yin uchun yangi qoidalar: moliyaviy vositachilikning o'zgaruvchan dunyosidagi banklar. McKinsey Global Banking Annual Review 2018. Vashington, DC: McKinsey & Co.; 2018. 52p. URL: https://www.mckinsey.com/pl/~/media/ClientLink/ New%20rules%20for%20an%20old%20game%20Banks%20in%20the%20changing%20world%20of%20 moliyaviy%20intermediation/Banks - o'zgaruvchan-moliyaviy-vositachilik-dunyosida-GBAR.pdf
2. Jamshedovich, M. Z. (2021). RULES FOR INSPECTION OF THE TECHNICAL CONDITION OF THE BUILDING DURING RECONSTRUCTION. European Scholar Journal, 2(5), 118-121.
3. Jamshedovich, M. Z., Ulug’bekovna, F. S., & Kamoliddinovna, F. N. (2021). Designing a Health Bathroom with Central Asian Bathroom Traditions. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 1(5), 26-33.
4. Jamshedovich, M. Z. (2021). Designing a Health Bathroom with Central Asian Bathroom Traditions (Architecture-Construction Part). International Journal on Orange Technologies, 3(11), 40-55.
5. Shodiyev, K. (2022). THE MODEL OF OPTIMIZATION OF ENTERPRISE PRODUCTION AND INCREASE THE PROFITABILITY OF THE ENTERPRISE IN A MARKET ECONOMY. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(4), 122-131.
6. Shodiyev, K., Melikov, Z., & Nazarov, B. (2021). WAYS TO SOLVE ECONOMIC PROBLEMS IN ANALYSIS OF ENTERPRISES. Oriental

renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 568-579.

ARAB, FORS, O‘ZBEK ADABIYOTIDA ARUZ VA ARUZSHUNOSLAR

Hamdamova Maxsuma
FDU adabiyotshunoslik yo’nalishi magistranti, o’qituvchi

O‘zbek adabiyotida aruz va aruzshunoslar haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo, Yusuf Xos Hojiblardan boshlaymiz. IX asrdan yetishib chiqqan shoirlar o‘sha davr an’analariga muvofiq arab tilida ijod qildilar va bevosita aruz vazniga murojaat qildilar. “Qutadg’u bilig”, “Hibbat-ul haqoyiq” kabi asarlarda aruz nazariyasi o’zlashtirilgani va amalda qo’llangani bejizga emas. XIII-XV asrlarda aruz vaznida ijod qilganlarning davomchilari sifatida Pahlavon Mahmud, Badriddin Chochiylar fors she’riyatida, Nosiriddin Rabg’uziy, Qutb, Xorazmiy, Sayfi Saroiy kabi shoirlarning asarlarida keng qo’llandi. XV asr o’zbek aruzi uchun eng gullagan, eng taraqqiyot bosqichiga chiqqan davr hisoblanadi. Chunki bu davrning birinchi yarmida Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Gadoiy, Lutfiy kabilar aruz vaznining gullab yashnashiga xizmat qilganlar.

Ayniqsa, Alisher Navoiy ham aruz vazniga o’zining barcha lirik merosida yuzdan ortiq bahrlarni sinovdan o’tkazib xissa qo’shdi. Aruz vazni haqidagi eng mashhur asarlardan yana biri Navoiyning “Mezon ul-avzon” asaridir. Unda aruzning genezisidan tortib barcha xususiyatlari keng ko’lamda yoritilgan. Avval aruz so’zining lug’aviy ma’nosiga to’xtalar ekan, “Aruz nomli vodiy bo‘lib, u vodiyda arab uylarini tikib, ularga jilva berib bahoga sotishar ekan. Uyni arablar bayt dermish, uyni ustunlarini esa rukn dermish”[1]. Aruz haqida eng mashhur asarlardan biri “Mezon ul-avzon” bo’lib aruz fanining taraqqiyot bosqichiga olib chiqishiga o’z xissasini qo’shgan va adabiyotshunoslar uchun hali hamon dasturulamal bo’lib xizmat qilmoqda. Navoiy bu asarida arab va fors aruzi xususiyatlarini tushuntirar ekan, shu bilan birga turkiy aruz asosiga qo’yiladigan lisoniy sifatlarni ham belgilaydi. Navoiy asarda birinchi marta aruzdan boshqa vazn tilga olinadi: “Yana bir necha vaznki, ba’zini ajam shuarosi mutaaxxirlari aytipturlar va ba’zi bu zamonda nazm topibdur va hech aruzga dohili bo’lmaydur”. Bundan tashqari Navoiy jami 9 ta doirani o’z ichiga olgan “doirayi mujtamia” ni yaratdi va uni nazariy jihatdan asoslab berdi[2].

Alisher Navoiydan so’ng, Zahiriddin Muhammad Bobur aruz an’analarini davom ettirib aruz vaznining yuqori bosqichlarga ko’tardi. Shayx Ahmad

[1] Алишер Навоий.Мезону-л-авзон. Асарлар.Ён беш томлик. Т. 14. – Т.: Фан, 1967 . – Б.137.

[2] Мирзаев С. Навоий арузи.НДА.-Т.:1946.

Xudoydod Taroziy (XV asr) haqidagi dastlabki ma'lumot Boburning "Aruz risolasi" asarida uchraydi. "Mezon ul-avzon" asaridan so'ng aruz bo'yicha eng mashhur asarlardan biri, Boburning "Muxtasar" asarida aruz vaznini nafaqat adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, balki til jihatdan ham o'rganish kerakligini anglatadi.

Manbalarda Furqat ham aruz vazniga oid risola bitgani yoziladi va bu ilm orqali "Ilmi ash'orning qoidayi avzoni" nomli risolasida uni imkon qadar ixcham qilib tushuntirishga harakat qiladi. "Ammo bilgilkim aruz fani nazm avzonining mezonidir, sharif fandur... she'r ilmining rutbasi bag'oyat buyuk martabadir... Andoqki, Haq subhanohu ta'olloning Kalomi majidida ko'p yerda nazm voqe bo'lubdir",-deya aruz haqida fikrlar bildiradi.

Fitratning "Aruz haqida"gi risolasi nafaqat aruz tarixi va texnikasi, balki, umuman, vazn nazariyasi va uning qo'llanish tarixidan ham saboq beruvchi nazariy-metodik qo'llanma hisoblanadi. Chunki olim o'z asarida vazn masalasiga bir butunlikda she'riy asarning eng muhim uzv (a'zo) laridan biri sifatida qaragan: "Qoidaga muvofiq suratda o'lchangan va o'lchovlarni mushtarak bo'lgan gap parchalarining ma'lum qoida bilan ketma– ket tizilishi desak har holda haqiqatdan juda uzoqqa bormaymiz "[3]

Aruz ilmi Fitratga qadar mavjud bo'lganidek, uning qatlidan so'ng ham bu soha davom ettirildi. Ayniqsa, 60-70-yillar adabiyotshunosligida fors-tojik aruzini o'rganish bilan bir qatorda, turkiy tillardagi aruzning tabiatiga dohil bir necha ilmiy tadqiqotlar yaratildi[4].

O'zbek olimlarining bu sohadagi izlanishlarining samarasi sifatida A.Rustamov, U.To'ychiyev, A.Hojiahmedov va boshqalarning risola va qo'llanmalari chop qilidi.

Mashhur aruzshunos olimlardan yana biri Anvar Hojiahmedovdir. U o'zining "Maktabda aruz vaznini o'rganish ", "O'zbek aruzi lug'ati" va aruzga oid bir qancha asarlar yozgan. "Maktabda aruz vaznini o'rganish" nomli asari aruz vazni va uning taraqqiyot bosqichlari, ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiyoti fanining mutaxassislari, adabiyot o'qituvchilari va aruz fani ixlosmandlari uchun eng yaxshi dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. A.Hojiahmedov asarida aruzning barcha taraqqiyot bosqichlari haqida keng ko'lamda ma'lumot bergan.

Arab she'riyatiga tatbiq qilingandan so'ng, fors-tojik adabiyotida ham keng qo'llana boshlangani, Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, keyinchalik Umar Xayyom, Sa'diy, Hofiz She'roziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodidan mustahkam o'rin

[3] Фитрат. Аруз ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, .- Б. 16
[4] Фитрат. Аруз ҳақида. – Т.: Ўқитувчи, .- Б. 16

egalladi. Navoiy va Boburdan so'ng, Mashrab, Nodira, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Nodira, Hamza Avloniyning xizmatlari katta bo'ldi.

Yuqoridagi buyuk shoirlardan so'ng Cho'lpon, Hamid Olimjon, G'ofur G'ulom, Oybek, Uyg'un kabi shoirlar barmoq vazni bilan bir qatorda aruz vaznidan ham samarali foydalanishdi va ijod qilishdi.

Oltmishinchi yillarda iqtiorli shoir Erkin Vohidov o'zining "Yoshlik devoni" bilan she'riyatimizga aruzning qayta jonlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning qadimiy, lekin g'oyat musiqiy zamondoshimizga xos lirik kechinmalarni nihoyatda latif ifodalashga imkon beruvchi mazkur qadimiy o'lchovdagi she'rlari aruz imkoniyatlarini yana bir bor namoyish qildi, uning hali o'z umrini tugatmaganligi bu o'lchov zamirida rang-barang tuyg'ular mavjini eng dilrabo misralarda jilolantirish mumkinligini isbotlab berdi. 60-80-yildagi yoshlar she'riyatiga aruz mezonidagi ko'plab lirik asarlar,bevosita mana shu devonning ta'siri ostida yaratildi, desak, xato bo'lmas. Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Oydin Hojiyeva, E'tibor Oxunova kabi shoirlarimiz o'z she'rlari bilan o'zbek aruzining go'zalligini, jozibalili ohanglarga boyligini yana bir bor dalilladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абу Наср Фаробий.Фозил одамлар шаҳри.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1993
2. Алишер Навоий.Мезону-л-авзон. Асарлар.Ён беш томлик. Т. 14. – Т.: Фан, 1967 . – Б.137
3. Фитрат.Аруз ҳақида (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев).Т.: Ўқитувчи 1997.- Б.25-26
4. Шамси Қайси Розий. Ал –Мўъжам.- Душанбе: Адиб,1991.- Б.33
5. Мирзаев С. Навоий арузи.НДА.-Т.:1946.
6. Internet manbalari:
7. www.ziyo,uz
8. www.aruz .uz
9. www.adib.uz

ТЕХНИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ В ПРОЕКТИРОВАНИИ АВТОМАТИЗИРОВАННОЙ РАБОЧЕЙ МЕСТО ШИТЬЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Джамалидинова Малохат Бахадировна
Ташкентский государственный
педагогический университет имени Низами, сискатель

На сегодня существующие все автоматизированные системы (т.е. управления, проектирования или научных исследований) сопровождаются

разными видами обеспечений это: техническое, программное, математическое, информационное, лингвистическое, организационное, методическое, правовое и т.д.

В зависимости от сложности решаемого класса задач проектируемая система независимо от ее сложности и объема поэтапно разрабатываются и создаются на разных уровнях.

Это связано: с разработкой и созданием разных видов моделей объекта исследования; с использованием разных математических, статистических или стандартных методов вычисления; с накоплением разных объемов информации промежуточных и окончательных результатов вычисления; с использованием математической логики и логических операций программирования и т.д.

Целью данной исследовательской работы является проектирование и создание нетрадиционного вида обеспечения, технического, которая связана с технологизацией и интеллектуализацией учебного процесса, а именно классов [1] для проведения практических и лабораторных занятий с участием искусственного интеллекта и робототехнических систем [2].

Нами предлагаемое техническое обеспечение отличается от традиционных обеспечений, тем что в природе существуют множества процессов и для каждого необходимо разработать, и создать свою. Потому что они на разных уровнях и этапах эксплуатации системы управления и при выполнении технологических процессов отличаются друг от друга, т.е. они программно-технически несовместимы.

Рассмотрим участвующих элементов искусственного интеллекта и робототехнических систем, на примере технологического процесса шитья в Профессиональном образовании.

Элементами искусственного интеллекта, являются:

- микропроцессоры разных объемов памяти, скорости вычисления, вычисляющий и управляющий над всеми технологическими процессами в целом;

- разработанные алгоритмы, для выполнения разных логических и арифметических операций связанные с управлением технологических процессов;

- созданные программы на алгоритмическом языке Python для, управления всеми технологическими процессами, которые выполняют от элементарного до сложных конкретных функций.

К числу робототехнических систем относятся все машины и механизмы, которые приводит в движение вес комплекс механических работ в выполнении операции шитья, это:

- разные виды роботов участвующие в технологическом процессе шитья;
- манипуляторы: доставляющие, подставляющие, поворачивающие, складирующие или убирающие и т.д.;
- видео глаз для наблюдения технологическим процессом для определения точности выполнения швейных операций, определение допущенных ошибок процесса шитья т.д.

Для разработки и создания АРМов необходимо использовать новый вид моделирования, это – эргономическое моделирование [3], где в зависимости от расположения приборов, измерителей, установок и других на рабочем месте строится новый вид модели, т. е эргономический модель, и с помощью чего строится другие виды модели, например, математический и т.д.

Из-за этого на каждую рабочую место в зависимости от выполняемой функции -операции необходимо будет строить «следующий» новый эргономический модель, которые организует новый АРМ относительно обучаемого в приобретении знаний. Потому что, каждый создаваемый «следующий» АРМ: по своей выполняемой функции, по используемой количество приборов и участвующих элементов отличается от предыдущего.

На пример в проектирования АРМ-швеи [4], отличительная стороной является то что, при разработке и создании технологического шитья, например, если она состоит из 18 операций, то необходимо создать столько же АРМов потому что, выполняемые операции на каждом этапе технологического процесса отличаются друг от друга.

Для разработки и создания АРМ-швеи необходим:

- манипуляторы, и роботы для доставки, поворачивания, сдвига и т.д.;
- видео глаз, для записи производимой технологической операции шитья и для сличения допущенной ошибки обучаемого;
- микропроцессор Audi no, для управления технологическим процессом;
- рабочий стол, для выполнения технологических процессов;
- швейная машинка, для выполнения операций шитья.

Для каждой производимой операции шитья с помощью АРМа будет выделено стандартный «участок» или «объем площади», так называемый «эталон - шаблон», которая закладывается в память микропроцессора где обучаемый ориентируется по шаблону и произведя операцию шитья будет учится в точности выполнения всех операций.

За операцией шитья будет контролировать видео глаз подключенный к микропроцессору с заранее разработанной стандартной программой, которое сопоставляет стандартную с выполненной операцией для выявления произведенной «ошибки», и она «подскажет» вид допущенной ошибки обучаемому.

Резюме: Так как, данное время стоит вопрос: цифрирования, разработки и создание искусственного интеллекта и ее внедрение в учебный процесс, то необходимо:

- владеть соответствующими знаниями в данной области;
- иметь техническую базу по выше перечисленную технику;
- и практиковаться от простого к сложному.

Список использованной литературы

1. Халдаров Х.А., Мухамедова Х.Б. Искусственный интеллект в приобретении знаний швейном деле с использованием эргономики.. Межд, НПК «Цифровые технологии в образовании: проблемы и их решения». Ташкент, ТГПУ, 24 май, 2022, с. 525-530.
2. Халдаров Х.А., Мухамедова Х.Б. Проектирование учебного класса с помощью искусственного интеллекта для приобретения знаний в профессиональном образовании. Межд. НПК «Цифровые технологии в образовании: проблемы и их решения». Ташкент, ТГПУ, 24 май, 2022, с. 530-536.
3. Халдаров Х. А. Эргономическое моделирование в образовании. “INNOVAION IN TECHNINOLOGY AND SCIENCE EDUCATION”, SCIENTIFIC JORNAL, 1, 2020/2, p.300-309.
4. Халдаров Х.А., Джамлидинова М.Б. Об одном подходе автоматизации технологического процесса шитья с помощи эргономики. “INNOVAION IN TECHNINOLOGY AND SCIENCE EDUCATION”, SCIENTIFIC JORNAL, 2, 2020/2, p. 6.

O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH VA BAHOLASHGA DOIR

Abdiraimov Shohruh Samad o‘g‘li
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, ped.f.f.d.(PhD)
sh.abdurahim@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning ona tilidagi matnlarni o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda baholashga zarurat bor yoki yo‘qligi tekshirilgan. Shuningdek, o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholashning ahamiyati

ochib berilgan. Mazkur maqolada kuzatish, so‘rovnoma, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, baholash, o‘qib tushunish, zarurat, o‘qish savodxonligi.

Abstract. This article examines whether there is a need to develop and evaluate the reading comprehension skills of students in their native language. The importance of assessing reading comprehension skills is also revealed. This article uses methods of observation, survey, and generalization.

Key words: mother tongue education, assessment, reading comprehension, need, Reading literacy.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о необходимости развития и оценки навыков понимания прочитанного у учащихся на родном языке. Также выявлена важность оценки навыков понимания прочитанного. В статье используются методы наблюдения, опроса и обобщения.

Ключевые слова: обучение родному языку, оценивание, понимание прочитанного, потребность, читательская грамотность.

Umumiy o‘rta ta’limda ona tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarda ona tilida nutq vaziyatidan kelib chiqib ko‘zlagan maqsadiga muvofiq tarzda o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakllarda ravon va ta’sirchan ifodalay olish, shuningdek, muloqot jarayonida o‘zgalar fikrini kontekstga mos tarzda to‘g‘ri tushunish ko‘nikmasini shakllantirish. Bu – hozirgi global zamonning eng asosiy talabi. Negaki axborotlarning faol almashinuvi kishilarni muloqot jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib qo‘ydi. Bu jarayon shunchalar faollashdiki, axborotni saralash, uni to‘g‘ri tushunish, idrok qilish, har bir kontekstni ongli shaxs sifatida hal qilish eng muhim masalalardan biriga aylandi. Shuning uchun ham ona tili ta’limida o‘quvchilarda hayotni, undagi voqelikni idrok qilish, o‘zgalarni tushunish, muloqot vaziyatlarini to‘g‘ri anglab, shunga mos tarzda javob qaytarish hamda verbal, noverbal, vizual axborotlarni fahmlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish ustuvor masalalardan biriga aylandi. Jumladan, o‘qib tushunish, tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga amaldagi DTS hamda kompetensiyaviy o‘quv dasturida alohida e’tibor qaratilgan, yangi avlod darsliklarida ham o‘quvchilarda anglash – o‘qib, eshitib, ko‘rib tushunish malakalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar o‘rin olmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalar tizimida o‘quvchilarda o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning pedagogik tizimini hamda ularni baholash mezoni, metodikasini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko‘rish muhim pedagogik muammo.

Tajriba-sinov – ilmiy tadqiqotning eng sermahsul usuli, u o‘rganishlar natijasida tug‘ilgan g‘oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o‘quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini aniqlab beradi. Shu nuqtayi nazarga tayanib, tadqiqotimi oldiga qo’ygan maqsadga monanad tajriba-sinov ishlarini o’tkazdik. Tajriba-sinov ishlarimizning asosiy maqsadi bitiruvchi sinflarda ona tili fanining birlamchi kompetensiyasi – nutqiy kompetensiyalardan biri bo‘lgan o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash mezonlarini ishlab chiqishga zarurat bor yoki yo’qligini aniqlash, shu orqali o‘quvchilarda nutqni to‘g‘ri idrok etish, matnni to‘liq o‘zlashtirish, hayotiy vaziyatga to‘g‘ri baho bera olish, “sabab-oqibat-yechim”, “qiyoslash”, “izchillik” qonuniyatini anglash ko‘nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish va mazkur jarayonga yangicha usullarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik qarashlarni ilgari surish.

Umumta’lim maktablari ona tili ta’limida o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasining bugungi holatini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov maydonchalari aniqlab oldik. Avvalo, ona tili va adabiyot o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik. So‘rovnoma savollari quyida keltiriladi.

1. Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarda qanday kompetensiyalar rivojlantiriladi?
2. Nutqiy malakalarning qanday turlari bor?
3. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasi deganda nimani tushunasiz?
4. O‘qib tushunish ko‘nikmasi bilan bog‘liq muammoga duch kelganmisiz?
5. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga ehtiyoj bormi? Bo‘lsa, izohlang.
6. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash mumkinmi?
7. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash mezonlari haqida tasavvurga egamisiz?
8. Qaysi uslubdagi matnlarni o‘qib tushunishda qiyinchiliklar yuzaga keladi?

“Ona tili ta’limida o‘qib tushunish ko‘nikmasining o‘rni” mavzusida olingan so‘rovnomada ishtirok etgan ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining ayrimlari kasbiga munosabati nuqtayi nazaridan javob bergan bo‘lsa, ayrimlari baholi qudrat javob bergan. Masalan, birinchi savolga ko‘pchilik o‘qituvchilar bir xil javob berishgan, ya’ni “lingvistik va nutqiy kompetensiyalar” deb. Ayrimlar esa aniq javob bera olmagan. Ikkinchi savolga ko‘pchilik to‘g‘ri javob bergan, ayrimlar esa “yozma va og‘zaki nutq” degan javobni berishgan. Navbatdagi savolga deyarli barcha o‘qituvchilar “matnni ifodali o‘qish” yoki “ifodali o‘qib tushunish” deya javob yozishgan. Ayrimlar “Matnni o‘qib idrok qilish” deya javob berishgan. Keyingi so‘roqqa ko‘pchilik qisqa qilib “Yo‘q” degan. Ayrimlar “Ha, uzun hajmli matnlarda” degan javobni qoldirgan. Navbatdagi savolga esa ko‘pchilik

“boshlang‘ich sinflarda” deyishgan. Ba’zilar esa “Ha, kerak” deyishgan. Oltinchi savolga barcha o‘qituvchilar “Ha” deb javob yozishgan. Yettinchi savolga esa “Ha, o‘qish tezligini aniqlash”, “ifodali o‘qishini baholash” mazmunidagi javob yozishgan. “Matnni o‘qib to‘g‘ri tushunishga nimalar ta’sir qiladi?” savoliga juda kam o‘qituvchilar javob yoza olgan. Qolgan aksariyat o‘qituvchilar javob yozmagan. Yuqoridagi so‘rovnoma tahlilidan ko‘rinib turibdiki, “ona tili ta’limida o‘qib tushunish” atamasini ko‘pchilik o‘qituvchi “matnni o‘qish” ya’ni tez va sifatli o‘qish deb tushunishining guvohi bo‘lamiz. Bu esa o‘qib tushunish ko‘nikmasi garchi DTS va o‘quv dasturda keltirilgan bo‘lsa ham, o’qituvchilar orasida tasavvur yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bu – bugungi kun maktab ta’limidagi xavotirga solgulik jihat. Shuning uchun o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish va baholash yuzasidan uslubiy-metodik qo‘llanmalar va topshiriqlar to‘plamlariga katta ehtiyoj borligi bilinadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish va baholash mezonlarini ishlab chiqishga zarurat bor. Negaki aksariyat maktab o‘qituvchilari o‘qib tushunish ko‘nimasi haqida yetarlicha ma’lumotga ega emas. Shuningdek, baholash jarayonida badiiy asardan parcha, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar olingan turli mavzudagi matn, xat, hujjat, tarkibida diagrammalar, rasmlar, xaritalar, grafik va jadvallar berilgan matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Azimova, Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. –Toshkent. 222-bet
2. Dylan Viliam. Assessment: The Bridge between Teaching and Learning. // National Council of Teachers of English. Volume 21 Number 2, December 2013. Page 15-20.
3. Sh. Abdurahim. Ona tili ta’limida o‘qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent. “Nodirabegim” nashriyoti – 2021. –B. 126
4. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, Massachusetts: The M.I.T. Press./ http://www.geta.kr/inc/download.asp?File_Name=2012_05.pdf
5. Jalilov K., Baholash nazariyasi asoslari. Toshkent, Akademnashr 2020, 252 bet

ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ ЎТОВИДАГИ АСОСИЙ БЕЗАК – АҚБАСҚУР ҲАҚИДА БАЪЗИ МАЪЛУМОТЛАР

Давлетбаева Набира Курбанбаевна
Қорақалпоғистон Республикаси И.В.Савицкий номидаги давлат санъат музейи Этнография бўлими илмий ходими

Аннотация. Мақолада Қорақалпоқ халқи ўтмишдаги турар жойлардан бири ҳисобланган ўтов, ўнинг интеръеридаги асасий безак тури – ақбасқур ҳақида сўз этилади. Ундаги накшларнинг турлари ва ранглар уйғунлиги асосий масала қилиб олинган.

Калит сўзлари: ўтов, ақбасқур, нақш, «мўйиз-шох» нақши.

Abstract. The article talks about otov, which is considered one of the settlements of Karakalpak people in the past, and the main type of decoration in its interior - aqbaskur. The main issue is the combination of patterns and colors.

Key words: otov, aqbaskur, pattern, "horn-horn" pattern.

Аннотация. В статье рассказывается об отове, который в прошлом считается одним из поселений каракалпакского народа, и основном виде украшения в его интерьере - акбаскуре. Главный вопрос – сочетание узоров и цветов.

Ключевые слова: отов, акбаскур, узор, узор «рог-рог».

Ҳар бир халқ ўзнинг муаййан бир тарихига эга. Мазкур тарихий жараёнлар даврида халқнинг асосий турар жойлари катта аҳамият касб этади. Бизга азалдан малумки, ўзининг бой ва узоқ тарихга эга қорақалпоқ халқи ярим кўчманчи яшаш шараётида яшаган. Бундай ҳолатда халқ учун энг мақул турар жой бу албатта – ўтов ҳисобланади. Мақоламизда бой тарихи, ясалиш техникаси барчамизга маълум бўлган ўтовнинг ички интерьерида алоҳида ўринга эга бўлган безак тури – «ақбасқур» ҳақида тўхталиб ўтамиз. Қорақалпоқ халқи ўйи - ўтов ички ва ташқари безаклари жуда хилма-хил, улар асосан гиламчилик намуналари ва ёғоч ўймакорчилиги буюмларидан иборат. Ақбасқур ўтов интерьеридаги энг асосий, ҳашамдор, ёркин, жойлашган ўрни қулай ва аёллар томонидан қўл меҳнатида яралган гилмчилик намунаси десак адашмаган бўламиз. Қорақалпоқ тилидан сўзма-сўз таржима қиладиган бўлсак «ақбасқур» атамаси қуйдаги маънони беради, яъний «*ақ*» – оқ, «*бас*» – бош, асосий, «*қур*» – гилам тури. Бундан тушиниш мумкинки «оқ рангдаги асосий гилам тури» яъний «ўтовнинг бош безаги».

Ақбасқур аёллар қўл меҳнатида урчикда ёки шархда егирилган пахта, жун ипларидан тўқилади ва албатта бунда ранглар уйғунлиги катта аҳамиятка эга. Мазкур безак тури энсиз 40 см атрофида, кўпинча 12-15 метр узунликта бўлиб, нақшлари уй ичкарисига қараган ҳолда ўтов ичкари

қисмига айлана тақилади. Ақбасқурнинг охири иплар билан тугалланади. Улар бир-бирига боғланмайди, балки ўтовнинг қириш жойи устидаги деталга боғланади. Иплар боғланган бу жой одатда ўзунлиги 120 см эни 30-40 см атрофларидаги декоратив гиламча «*есиқ қас*» - эшик қош билан яширилган. Уни жилвакор қилиб кўрсатадиган асосий нарса бу унинг юз қисмидаги жудаям мураккаб уйгунликга эга бўлган нақшлари ҳисобланади. Қадимдан бизга маълум бўлганидек инсоният яралибдики атрофидаги барча нарса, буюмларни иложи борича санъат асарига айлантиришга ҳаракат қилади. Нақшлаш техникасида ақбасқурнинг ўзига ҳос ҳусияти бўлиб, нақш унинг ўрта қисмидан бошланиб икки учига қараб давом эттирилади. Қорақалпоқ аёллари моҳирлик билан келтирган нақшлар жуда мураккаб бўлиб, улар асосан қуйидаги мотивларда тўқилади: ўсимлик шаклини такрорловчи нақшлар (дарахт, новда, дарахт шохи ва гулларнинг хар ҳил кўриниши), ҳайвонларнинг аъзоларини такрорловчи нақшлар (шохнинг хар ҳил кўринишлари, тирноқ, қуш). Бу нақш тўрлари барча туркий халқларда шу жўмладан қорақалпоқ халқида ҳам кенг кўлланилган нақш ҳисобланади. Шохли нақшлар туркумига кирувчи нақшларда асосан қўчқор ёки эчки шоҳларига қиёсланади. Геометрик фигураларни такрорловчи нақшлар типитаги нақшлар дунёдаги энг қадимий нақшлар ҳисобланади. Инсон томонидан яратилган энг қадимий нақшлар айнан думолоқ-айлана, учбурчак, тўртбурчак, овал, ярим ой шаклларда бўлган. Ақбасқурда бундай нақшларнинг ифодаланиши табиий ҳол, сабаби қорақалпоқ халқининг келиб чиқиши қадим даврларга бориб тақалади. Ақбасқурдаги нақшалар уйғунлиги асосан биз юқорида келтириб ўтган нақшлардан ташкил топган, ва бу ерда жуда кам ҳолларда қўлланиладиган аёлларга тегишли предметлар нақш сифатида туширилганлигининг ҳам гувоҳи бўлишимиз мумкин. Яъний қўпгина ҳолларда «тароқ», «учбурчак шаклдаги тумор» ақбасқурда нақш сифатида кўриниш беради. Қорақалпоқ ҳунарманд аёллари безак ва эстетикани чуқур ҳис этган, шунинг учун ҳам ақбасқурларнинг қиймати жуда аҳамиятли.

Бизга маълум тўқимачиликнинг ўзи ижодий жараён ҳисобланади. Ҳунарманд аёллар нақшли ақбасқурни тўқишда ўтов конструкциясини ҳисобга олган ҳолда бази нақшли жойларининг кўринмай қолишини билган ҳолда ўз таассурот оламнинг баъдий яхлитлигини ҳам ривожландириб, мустаҳкамлаб борган. Бу жараёндан кейин тўкув дастгоҳида яратилган мўжизани кўриб ўнга лол қолмасдан илож йўқ.

Демак, ўтовни безаш билан боғлик безак турларини шу жумладан ақбасқурни ҳам бемалол санъат асари деб ҳисоблаш мўмкин. Улар билан бир

қаторда қорақалпоқ халқи ўтовини ҳам. Агар бу турар жой – ўтов бўлмаганда ақбасқур ва бошқа безаклар ҳам пайдо бўлмаган бўлар эди.

Адабиётлар

1. Алламуратов А. Мәңги мийрас. Нөкис, 1993.
2. Богословская И. Каракалпакский орнамент: образ и смысл. Алматы. 2019.
3. Камалова Г. Гөззал үлке. Нөкис, 1986.
4. Пирназарова А. Қарақалпақ халқының көркем-өнери. А.Пирназарова. Әмиўдарья. Нукус, 2021. - №6.

$\left\{u(z)=a_1|z_1|^2+a_2|z_2|^2+a_3|z_3|^2\in 2-sh\right\}$ FUNKSIYALAR SINFI

Xusainova Malohat
Urganch davlat universiteti

$m-$subgarmonik funksiyalar nazariyasi bir qancha matematiklar tomonidan o‘rganilgan, jumladan,, Blocki [2], Dinew va Kolodziej [3], Lu [4], Sadullayev va Abdullayev [1] va boshqalar.

Dastlab kerakli tushunchalarni keltirib o‘tamiz:

$u\in C^2(D)$ funksiya uchun $dd^cu=\frac{i}{2}\sum_{j,k}u_{j\bar{k}}dz_j d\overline{z_k}$ ikkinchi tartibli differensialni unitar almashtirishlar yordamida $dd^cu=\frac{i}{2}[\lambda_1 dz_1\wedge d\bar{z}_1+...+\lambda_n dz_n\wedge d\bar{z}_n]$ ko’rinishda yozib olamiz. Bu yerda $\lambda_1(u),...,\lambda_n(u)$ - $\left(u_{i\bar{k}}\right)$ Ermit matritsasining xos qiymatlari.

$\left(dd^cu\right)^m\wedge\beta^{n-m}=m!(n-m)!H_m(u)\beta^n$

tenglikdagi $H_m(u)=\sum_{1\le j_1<...<j_m\le n}\lambda_{j_1}...\lambda_{j_m}$ ifodaga $\lambda=(\lambda_1,...,\lambda_n)\in R^n$ vektorning *Gessiani* deyiladi.

1-ta’rif. Agarda D M J ^{n} sohada aniqlangan $u(z)$ O $L^1_{loc}(D)$ funksiya:

1) D sohada yuqoridan yarim uzluksiz, ya’ni

$\overline{\lim_{z\to z^0}}u(z)=\lim_{e\to 0}\sup_{B(z^0,e)}u(z)$ J $u(z^0)$;;

2) D sohada dd^cu Ш$\left(dd^c|z^2|\right)^{m-1}$ i 0, 1 J m J n, ya’ni " w O $F^{(n-m,n-m)}$ uchun D M Ў^{2n}

$dd^c u$ Ш$\left(dd^c \left|z^2\right|\right)^{m-1}(w) =$ T $u\left(dd^c \left|z^2\right|\right)^{m-1}$ Ш$dd^c w$ i 0, bo‘lsa, bu funksiyaga D sohada m - sh *funksiya* deyiladi.

2-marta silliq $u \in C^2(D)$ D M J ^{n} funksiya uchun $m-sh$ funksiya ta’rifi quyidagicha bo`ladi:

2-ta’rif. Ikki marta silliq $u(z)$ funksiya tayinlangan $z^0 \in D$ nuqtada $m-sh$ deyiladi, agar

$$dd^c u \wedge \beta^{m-1} \geq 0, 1 \leq m \leq n \qquad (1)$$

tengsizlik bajarilsa. Agar berilgan funksiya $D \subset \square^n$ sohaning har bir nuqtasida $m-sh$ bo`lsa, u holda bu funksiya $D \subset \square^n$ sohada $m-sh$ deyiladi.

Bu yerda $\beta = dd^c |z|^2 -$ $\square^n$ fazodagi standart hajm formasi.

$\left\{u(z) = a_1|z_1|^2 + a_2|z_2|^2 + a_3|z_3|^2 \in 2-sh\right\}$ funksiyalar sinfini qaraylik. 2-ta’rifdan ma’lumki, $u \in C^2(D)$ funksiya $\left(D \subset \square^3\right)$ $2-sh$ funksiya deyiladi, agar (1) tensizliklar sistemasi o`rinli bo`lsa.

$$\left\{u(z) = a_1|z_1|^2 + a_2|z_2|^2 + a_3|z_3|^2 \in 2-sh\right\} \qquad (1)$$

funksiya uchun $dd^c u \wedge \beta^2 \geq 0$, $dd^c u \wedge \beta \geq 0$ tengsiklarni qanoatlantirish shartlarini ko’rib chiqamiz. Bu funksiya uchun $dd^c u$ differensial forma quyidagi ko`rinishga keladi: $dd^c u = \frac{i}{2}\left(a_1 dz_1 \wedge d\overline{z_1} + a_2 dz_2 \wedge d\overline{z_2} + a_3 dz_3 \wedge d\overline{z_3}\right)$.

Demak, bizda $\lambda_1 = a_1$, $\lambda_2 = a_2$, $\lambda_3 = a_3$ bo`lar ekan.

Teorema. $\left\{u(z) = a_1|z_1|^2 + a_2|z_2|^2 + a_3|z_3|^2 \in 2-sh\right\}$ sinfdan olingan $u(z)$ funksiya uchun

$$\begin{cases} a_1 + a_2 \geq 0 \\ a_1 + a_3 \geq 0 \\ a_2 + a_3 \geq 0 \end{cases} \qquad (3.3.1)$$

tengsizliklar o‘rinli.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Sadullayev, B. Abdullayev, Potential theory in the class of $m-$subharmonic functions, Moskva, Trudy Matematicheskogo Instituta imeni V.A. Steklova, 2012
2. Z. Blocki, Weak solutions to the complex Hessian equations, Grenoble Ann. Inst. Fourier, 2005

3. S. Dinew, S. Kolodziej, Non standard properties of m – subharmonic functions, Dolomites, Dolomites Research Notes on Approximations, 2018
4. H.C. Lu, Complex Hessian equations, Doctoral thesis, University of Toulouse III Paul Sabatier, 2012

FARID EDGU ASARLARIDA MODERN USLUBNING NAMOYON BO'LISHI

Shaxnoza Karimova
TDSHU, Turk filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

Asli istanbullik bo'lgan yozuvchi Farid Edgu 1936-yilning 24-fevralida ishchi oilasida dunyoga keladi. Yozuvchining bolalik davri tenqurlaridan farqli ravishda kechadi. Boshlang'ich ta'limini davlat maktablarida olgan Edgu, oliy ta'limini İstanbul Go'zal San'atlar akademiyasida davom ettiradi. Faqat Turkiyadagi ta'limi bilan cheklanib qolmay avval Germaniyada so'ng Parijda tahsil oladi. Xorijdan qaytgach bir muddat Istanbulda qoladi va turli sohalarda faoliyat yuritadi.

Edgu adabiyot olamiga 15 yoshlarida "Kaynak", "Yeni Ufuklar", "Şairler yaprağı" va "Mavi" jurnallarida yozgan she'rlari bilan kirib keladi. Ayniqsa, "Mavi" jurnalidagi ijodiy faoliyati uni modernist yozuvchi va tanqidchi sifatida tanitadi. Ushbu jurnalda u o'zining badiiy qarashlarini va qarshi taraf vakillariga bo'lgan munosabatlarini bildiradi.

Nasriy faoliyatining asosiy qismi Hakkari viloyatidagi xizmat safaridan so'nggi davrlarga to'g'ri keladi. Uning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabatini o'zgartirib yuborgan chekka tumandgi hayot, ijodiga ham ta'sir qiladi. Hakkari safaridan so'ng adib "Qochqinlar" nomli ilk hikoyalar to'plamini, keyinroq "Mag'lubiyat" va "Ov" hikoyalar kitobini nashr ettiradi. Uning "Hech kim" va "U/Hakkarida bir mavsum" romanlari 1974-76 yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, unda yozuvchi hayotining burilish nuqtasi bo'lgan Hakkari viloyatidagi voqealar aks ettiriladi. So'nggi romani "Sentyabrning soyasida yoz edi" romanini esa 1987-yilda yozib tugatadi. Yozuvchi ijodining asosiy qismini kichik, minimal hikoyalar tashkil qilib, ularni 1978-2002 yillar oralig'ida birin-ketin chop ettiradi. "Bir kemada", "Faryod", "Ming bir bo'g'in", "Sharq hikoyalari", "Mana dengiz, Mariya" singari hikoya to'plamlari shular jumlasidan. "Oh, Min'al Ishq" va "Tog'" to'plamlarida esa adib o'zini shoir sifatida namoyon qiladi. Ushbu asarlari "Said Foiq mukofoti" va TDK mukofotlari bilan taqdirlanadi. "Hakkarida bir mavsum" romani esa fransuz, nemis, xitoy va xorvat tillariga tarjima qilinadi, ushbu roman asosida olingan shu nomli film "33-Berlin kino festivali" bilan birga umumiy hisobda to'rt kino festivallarda faxrli mukofotlar bilan taqdirlanadi.

Edgu qalamiga mansub asarlar hayotiyligi, haqiqiy insoniy kechinmalarning markazga olinganligi bilan kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinsa, turk adabiyotshunoslari uchun modernizm va postmodernizmning ilk urinishlarini amalga oshirgan ijodkorlardan biri sifatida talqin qilinadi, shuningdek, zamonaviy turk adabiyotida birinchilardan bo‘lib minimal hikoya janrida ijod qilgan hikoyanavis sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adibning boy adabiy merosi, ijodining badiiy til xususiyatlari Firat universiteti dotsenti Mutlu Devejining “Farid Edgu mavjudlik va yolg’izlik” nomli doktorlik dissertatsiyasida, prof. Selma Bashning “Farid Edguning kafkayona dunyosi” nomli monografiyasida tadqiq etilgan. Adib ijodi Vaysal Shahin[5], Jafar Gariper[6], Jihan Erdal[7], Oktay Yilvi[8], Ramazon Korkmaz[9], Sezgin Demir[10] kabi tadqiqodchilar tomonidan kichik tadqiqodlar olib borilgan. O‘zbek tadqiqodchilariga Farid Edgu ismi va uning ijodi begona emas, Edgu va uning turk modern hikoyachiligida tutgan o‘rni haqida adabiyotshunos P.Kenjayeva “XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari” nomli dissertatsiyasida[11] so‘z yurutadi.

Yozuvchi qalamiga mansub ikkita roman, yozuvchining o‘z kechinmalariga asoslangan bo‘lib, uning Sharqdagi xizmati vaqtida boshidan kechirgan voqealar, u yerdagi sharoit, yozuvchini ta’sirlantirgan mavzularga asoslanganidir. Har ikki romanning nomlanishi, voqealar rivoji, xarakterlar, diyaloglar umuman barcha unsurlari an’anaviy roman tushunchasidan tubdan farq qilib, o‘zida chuqur ma’noni mujassamlashtiradi. “Hech kim” deb nomlanuvchi romanining nomi shahardan eng chekka sharqiy qishloqqa borib qolgan o‘qituvchining, aslida shu kunga qadar bilgan va ko‘rganlari hech narsa emasligi va aslida oddiygina hayot o‘quvchisi ekanligini anglab yetish falsafasi asosiga qurilgan. Romanning o‘ziga xosligi esa unda an’anaviy romandagi turli unsurlarning boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘lishida seziladi. Hayotning murakkab qonuniyatlari bilan tanishib ulgurmagan va o‘zini qish qahratonida yovvoyi hayvonlardek uy qamog‘iga mahkum qilgan o‘qituvchi obrazi ikkinchi ovoz bilan shizofrenik suhbatga asoslangan. Hikoya qiluvchi ushbu ovoz suhbatida buguni va o‘tmishida uning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatgan hodisalar asosan dialoglar vositasida aks ettiriladi.

[5] Şahin V. Ferit Edgü’nün “Yolcu” Adlı Küçürek Öyküsünde Yurtsuzluk İtkisi. Akademik sosyal araştırmalar degisi; Yıl: 2, Sayı: 2\2 Haziran 2014. -S.234-242.
[6] Gariper C. Ferit Edgü’nün Nıjınskıy Öykü’lerinin Metinsel Özellikleri. Erdem dergisi. 2003. Sayı 65.- 2013. – S.97-115.
[7] Erdal Cıhan. Ferit Edgü Öykücülüğü Suskunluk Ve Yazmak Arasında.MSGÜ Sosyal Bilimler. Sayı 13: - 2016. – S.70-77
[8] Yılvı O. Ferit Edgü’de Gerçeklik Sorunsalı. Folklor\Edebiyat dergisi. Sayı 66. – 2011. – S.137-143
[9] Korkmaz R., Deveci M. Türk Edebiyatında Yenı Bir Tür Küçürek Öykü. Grafikler. Ankara. 2011. —S.17.
[10] Demir S. Ferit Edgü’nün Garip Aile Küçürek Öyküsünün Gösterge Bilimsel Yöntemlerle Çözümlenmesi. ASOS JOURNAL ISSN 2148-2489. – 2015. –S.126-140.
[11] Kenjayeva P. XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari. Filol. fan d-ri ... diss. – Toshkent, 2017. -272 B.

Ikkinchi ovoz deb nomlangan g‘ayritabiiy ovoz aslida hikoyachinng ikkinchi meni ekanligini muallif ikkinchi ovozning hikoyachining unutishga uringan o‘tmishidagi voqealarni eslatishi bilan kitobxonga xotirlatib turadi. Birgina qahramon va g‘ayritabiiy ovoz diyaloglaridan tashkil topgan roman, umuman insoniyatni qiynagan azaliy muammolar bilan bir qatorda, mahalliy xalqning ham ko‘plab muammolarini noan’anaviy uslubda tilga oladi. Romanda o‘zini qurshab turgan olam bilan muvozanatli munosabat qura olmagan, o‘zini g‘or misoli kimsasiz uyining mahkumiga aylantirgan, bolalar o‘limi, Sharqdagi nikoh masalasi, tabiiy ob-havo qonuniyatlari, shahar hayotidan mushkulroq hayot kabi sabablar tufayli ta’sirlangan va o‘zini bir uyga qulflagan shaxsning o‘zini topish yo‘li, o‘tmishi va bugunidan parchalar orqali dialog shakilida namoyon bo‘ladi. Bu dialoglarning ma’lum qismlarida ikkinchi ovoz bilan birinchi ovoz kelisholmasa, ba’zilarida ko‘p muammolarning yechimi sifatida “yozish” yechim sifatida ko‘rinishi bilan ifodalanadi, ba’zi joylarida esa ikkinchi ovoz birinchisining ovozini o‘chirtiradi. Bu dialoglar orqali yozuvchi Sharq qishlog‘ida anglagan haqiqatlarni, ichki ziddiyatlarini dialog shaklidagi monologida ichki dunyosiga asoslanib javob izlaydi. Ayni shu voqealarda yozuvchi shaxsining tashqi dunyoga nisbatan namoyon qilishi uning “U/Hakkarida bir mavsum” nomli romanida o‘z aksini topadi. U romanida ham Hakkari viloyatining Palanis qishlog‘idagi xizmatdagi o‘qituvchining o‘zi uchun notanish bo‘lgan insonlar va qishloqdagi moslashish jarayoni va sivilizatsiyadan yiroqda, yolg‘izlikda o‘zini topish sarguzashti hikoya qilinadi.

Yozuvchining so‘nggi “Sentabrning soyasida yoz edi” romani undan avvalgi ikki romanidan ham shakl, ham mazmun jihatidan tubdan farq qiladi. Romanning asosiy mavzusi ijtimoiy hayot bo‘lib, unda birqancha ijtimoiy muammolar qalamga olinadi. Roman ikki bo‘limdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi bo‘lim Chakirning hikoyasiga asoslangan. Chakir har doim jamiyat tomonidan yolg‘izlikka mahkum qilingan, shunday bo‘lsa-da qalbi mehrga to‘la va u mehrni hayvonlarga ko‘rsatgan holda o‘ziga taskinlik beruvchi yosh yigit obrazidir. Yozuvchi u haqida foto hikoyalash uslibida umrining har lahzasini surat tasvirini izohlagandek, kuzatuvchi sifatida hikoya qilib beradi. Romanning birinchi bo‘limi Chakirning o‘limi va uning o‘limidan so‘ng eng yaqin yo‘ldoshi otining o‘limi bilan yakunlanadi. Romanning ikkinchi bo‘limi esa insonlar o‘rtasidagi munosabat va o‘zaro ziddiyatlar asosiga qurilgan bo‘lib, insonlarning jamiyatdagi yolg‘izligini sevgi va do‘stlik, qardoshlik munosabatlari asosida tasvirlab beradi.

XX asr adabiyotining mahsuli hisoblangan minimal hikoyalar yozuvchi ijodining asosiy qismini tashkil qiladi. Turk modern adabiyotida minimal hikoyalarni birinchilardan bo’lib o‘z qalamida sinab ko‘rgan Edgu, bu janrning eng

taniqli ijodkorlaridan biri sanaladi. Yozuvchining o‘zi esa kichik hikoyalar haqida shunday deydi: “Mendan nega kichik hikoyalar deb so‘raydigan bo‘lsangiz, lo‘ndalik, yana ham soddaroq lo‘ndalik, ortiqcha hech nimasi bo‘lmagan, yozish tarziga erishish uchun degan bo‘lardim.”[12]

Farid Edguning turli to‘plamlarda jami 300ga yaqin minimal hikoyalari mavjud. Ushbu kichik hikoya orqali yozuvchi jamiyatning eng dolzarb muammolarini keraksiz so‘z va tasvirlarsiz qisqa va lo‘nda ifodalashga erishadi. An’anaviy nasriy asarlarda bo‘lgani kabi uzun va ortiqcha tasvirlarsiz, qahramonlarni yaxshi va yomonga ajratmagan holda, o‘quvchiga o‘z fikrlarini uqtirmagan holatda hayotdan bir misol sifatida xolis taqdim qiladi. Faqatgina hikoyaning xotimasi so‘ng jumla yaratgan hayrat uzoq vaqt, eng kamida bir romanchalik fikrni beradi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir ijodiy metod, tur va hatto eng kichik janr ham o‘zidan avvalgi badiiy mezonlarga asoslanadi. Turk modern adabiyotida milliy va dunyo adabiyotidan ayrim jihatlarni o‘z ijodida mujassamlashtirgan Edgu nafaqat turk adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham taniqli yozuvchilardan biriga aylandi. Yozuvchi asarlarida ilgari surilgan g‘oya va qalamga olingan mavzular turk adabiyotida yangilik hisoblanmasa-da, ularni ifodalash shakli va yondashuvi g‘arbona modern adabiyotidan ilhomlanib yozilganligi, badiiy til xususiyatlari esa g‘arbona modernizmda mavjud xususiyatlar bilan sharqona va turk xalqining milliy g‘oyalari bilan chambarchas bog’langanligi bilan muhum ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gariper C. Ferit Edgü’nün Nıjınskıy Öykü’lerinin Metinsel Özellikleri. Erdem dergisi. 2003. Sayı 65.- 2013.
2. Demir S. Ferit Edgü’nün Garip Aile Küçürek Öyküsünün Gösterge Bilimsel Yöntemlerle Çözümlenmesi. ASOS JOURNAL ISSN 2148-2489. – 2015.
3. Yılvı O. Ferit Edgü’de Gerçeklik Sorunsalı. Folklor\Edebiyat dergisi. Sayı 66. – 2011.
4. Kenjayeva P. XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari. Filol. fan d-ri ... diss. – Toshkent, 2017.
5. Korkmaz R., Deveci M. Türk Edebiyatında Yenı Bir Tür Küçürek Öykü. Grafikler. Ankara. 2011.
6. Şahin V. Ferit Edgü’nün “Yolcu” Adlı Küçürek Öyküsünde Yurtsuzluk İtkisi. Akademik sosyal araştırmalar degisi; Yıl: 2, Sayı: 2\2 Haziran 2014.
7. Edgü F. İşte deniz, Marıa. YK yayınları, Istanbul. 1999.

[12] Edgü F. İşte deniz, Marıa. YK yayınları, Istanbul. 1999. -S.1.

8. Edgü F. Leş. Sel Yayıncılık. İstanbul – 2010. Edgü F. İşte deniz, Marıa. YK yayınları, Istanbul. 1999.
9. Erdal C. Ferit Edgü Öykücülüğü Suskunluk Ve Yazmak Arasında. MSGÜ Sosyal Bilimler. Sayı 13: - 2016.

ШИРКАТЛАР ТАРИХИГА НАЗАР

Умаралиев Джавлан Акбаралиевич
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Муаллиф мазкур мақолада тарихий манбаларга таянган ҳолда ширкатлар тарихини назарий ва амалий жихатдан тахлил этган. Шунингдек, ширкатларни моҳиятан шериклар кўзлаган жамиятга наф келтирувчи, қонун доирасидаги аниқ мақсад, умумий манфаатни ифодаловчи ва мақсадга эришишга қаратилган доимий келишувлар, мулкий ҳамжиҳатлик, фойда ва зиён кўришдадаги мезонларга асосланганлигини ёритиб берган.

Калит сўзлар: ширкат, оддий ширкат, ширкат мулки, умумий манфаат, мулкий ҳамжиҳатлик, улуш, фойда, зарар, битим, ҳўжаликни биргаликда юритиш.

Аннотация. В данной статье автор проанализировал историю товарищества с теоретической и практической точки зрения, опираясь на исторические источники. Также он пояснил, что товарищества по существу основаны на критериях пользы для общества, предполагаемых партнерами, постоянных соглашений, выражения общего интереса и достижения цели, имущественной солидарности, прибылей и убытков.

Ключевые слова: товарищество, простое товарищество, имущество товарищества, общий интерес, имущественная солидарность, доля, прибыль, убыток, сделка, совместное ведение хозяйства.

Annotation. In this article, the author analyzed the history of the partnership from a theoretical and practical point of view, based on historical sources. He also explained that partnerships are essentially based on the criteria of benefit to society, assumed by partners, permanent agreements, expression of common interest and achievement of a goal, property solidarity, profit and loss.

Key words: partnership, simple partnership, property of the partnership, common interest, property solidarity, share, profit, loss, transaction, joint management of the economy.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар шароитида фуқаролик ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишнинг муаммоларини назарий-методологик ва амалий жиҳатдан ўрганиш ишлари

изчил амалга оширилмоқда. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш концепциясида «фуқаролик ҳуқуқий муносабатлар иштирокчиларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини самарали ҳимоя қилишга тўсқинлик қилувчи фуқаролик қонунчилигидаги ҳуқуқий бўшлиқлар ва коллизияларни бартараф этиш»[13] вазифалари белгилаб қўйилган. Ушбу вазифаларни амалга ошириш муайян даражада ширкатга оид муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш механизмини фуқаролик қонун ҳужжатларида белгилаб қўйиш орқали амалга оширилади.

Оддий ширкат шартномаси ҳам ўзига хос фуқаролик-ҳуқуқий шартнома бўлиб, ўзаро шерик асосида фаолият юритишга асосланади. Ўзбекистонда мазкур шартнома мусулмон ҳуқуқи амал қилган даврда ҳам амал қилганлигини айтиб ўтиш лозим. Ўша пайтларда мазкур шартнома шериклик асосида тадбиркорлик фаолиятининг ўзига хос кўриниши сифатида мавжуд бўлган. Шу билан бирга қарз шартномаси тузиш, бир шахснинг иккинчи шахсга мол-мулкни савдо-сотиқда фойдаланиш учун бериши ўзаро шериклик ҳисобланган ва олинган даромад улар ўртасида ўзаро келишувга кўра тақсимланган. Ҳозирги кунда мусулмон ҳуқуқи амал қиладиган давлатларда банкларнинг кредит ёки қарз бериши фоизга эмас ўзаро шериклик шартномаси асосланади. Бунда банк берган кредити ёки қарзи учун фоиз эмас олинган даромаддан улуш олиши белгиланган[14].

Оддий ширкат шартномаси биргаликда хўжалик фаолиятини амалга ошириш, ўз харажатларини камайтириб даромадларини ошириш мақсадида икки ёки ундан ортиқ шахснинг мол-мулк ва маблағларини қўшишга имкон берган юридик кўринишдир.

Олди-сотди шартномаларига бағишланган Гай институцияларининг учинчи китобини учинчи титулида ширкатлар масаласи **(societas)** алоҳида ажратиб кўрсатилган. Унда энг аввало ушбу тузилмани аниқлаш имконини берувчи жиҳатларга эътибор қаратилган. Яъни, ширкат ўзининг бор мулки билан, ёки бирон-бир битимни амалга ошириш, масалан қулларни сотиб олиш ёки сотиш учун муомалага киришиш деб таърифланган. И.А. Покровский, **societas** ҳақида фикр юритиб, "унинг тарихий ривожланиши, шубҳасиз, **consortium** дея аталган тузилмадан бошланган, яъни ака-укалар ўртасида отанинг ўлимидан сўнг ажралиб кетмасдан, хўжаликни биргаликда

[13]Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармойиши (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон).

[14]Аль-Марашдех Маджед Ахмед Халаф. Хозяйственное товарищество по законодательству Иордании. Автореф.дисс…к.ю.н.-Т.:1999.-10-11 с.

юритиш тўғрисидаги битимдир деб таъкидлаган. Ширкатларнинг келиб чиқиши кейинги давр ҳуқуқида шу тарзда акс этганки, умуман **socii** ўртасидаги муносабатлар **fraternitas** (fr. 63 pr. D. 17. 2) характерига эга; хусусан, **socii** бир-бирининг олдида фақат ўз ишларига нисбатан билдирадиган эътибор ва ғамхўрлик учун жавоб беради, яъни **culpa in concrete**, **diligentia quam suis rebus ashidere solet** учун (шу тарзда, **socies** умуман, эътиборсиз, ўзининг оддий эътиборсизлиги учун жавоб бермайди, ҳолбуки ўзгалар олдида ана шу совуққонлиги учун жавоб бериши зарур).". Томонлар манфаатларининг умумийлигига асосланган ширкат **(socius)** шартномалар **ius civile** да ўз ўрнини эгаллашидан аввал ҳуқуқий ҳимояга эга бўлган. Шартнома ҳуқуқининг ана шу даврини кўзда тутган ҳолда, Л.Г. Гусаков шундай таъкидлайди: "Қонунда уларга мос бўлган контракт даъволари бўлмаса-да, судья ҳимоялашдан бош тортмайди - айни пайтда, бир шахс томонидан иккинчисига топширилган мулк ҳуқуқи шу жумладан, ҳамда ўзига тегишли бўлмаган мулкни ўзлаштирувчи контрагентни оддий ўғрини жазолангандек жазолайди". Кейинчалик **Цицерон,** ўзининг икки дўстини низоси бўйича судда иштирок этар экан, ўз даъвосини жавобгарнинг хатти-ҳаракатида **delictum, furtum, fraus** (деликтлар, ўғрилик, алдов.) мавжудлиги билан асослайди. Яъни, **action pro socio** (ширкатдан берилган даъво) мутлақо деликт мавжудлигини кўзда тутмаслигини англамайдигандек.

Рим ҳуқуқига кўра **societas omnium bonorum**нинг турлича моделларидан фойдаланиш имконияти кўзда тутилган, унга кўра иштирокчилардан ҳар бирининг мулки ширкатнинг умумий мулки таркибига киритилиши белгиланган эди. **Societas**нинг ушбу тури моҳиятига кўра асосан аграр, ва айни пайтда аграр ва оилавий муносабатларга мўлжалланган. Тегишли равишда, бу борада ҳам меросхўрлар ҳақида, яъни ҳуқуқий муносабатлар билан зич боғлиқ бўлган шахслар ҳақида сўз бормоқда. Ва шундан сўнг аста-секин, асосан тижорат муносабатларга эътибор қаратган ҳолда **societas unius negotiationis** (unius rei) жорий этила бошланди, яъни томонлар шартномага кўра шериклардан ҳар бирининг иштироки улушини кўзда тутган ва улар ушбу мулкни умумий мулкка айлантириш мажбуриятини олган.

Аста-секин Римнинг ҳуқуқий ҳаётида ширкат нафақат хусусий ҳуқуқ соҳасида (қуллар савдоси ва бошқа тадбиркорлик мақсадлари), балки оммавий ҳуқуқ соҳасида ҳам **(societas publicanorum)** қўлланила бошланди. Бунда асосан, **societas vectigalium** ҳақида сўз боради, бу “давлат даромадларини ижарага олишни” англатади. **Societas** аста-секин оддий ширкат шартномасига яқинлаша бошлади.

Ю. Барон Қадимги Римдаги **societas** ни корпорациялар билан қиёслар экан, хусусан, "ширкат ташкилий тузилмага эга эмаслиги, шу сабабли юридик битимлар фақат барча **socii** ёки барча аъзолар томонидан тайинланган ишончли вакиллари билан бирга қўлланиши мумкинлиги», шунингдек, «аъзолар умумий мулкда ўз улушига эга, ширкат номидан тузилган битимлар бўйича ўзлари ҳам қарздор, ҳам кредитор бўлишлари мумкинлигини» бежиз таъкидламаган. Муаллифнинг бошқа тадқиқотида эса: «аъзоларнинг учинчи шахсларга муносабатига ширкат шартномаси ҳеч қандай таъсир кўрсатмайди: у гўёки ҳеч қандай ширкат йўқдек муҳокама қилинади». Шундан сўнг умумий хулоса ўрнида таъкидланадики**: «Societas** соҳасида ширкат талаблари ва қарзларига ўрин йўқ, балки алоҳида аъзоларнинг талаблари ва қарзлари мавжуд. Кўрсатилган вазиятларни эътиборга олган ҳолда Г.Ф.Шершеневич шундай деб ёзади: «Эркин меҳнатнинг йўқлиги, рақобатнинг етишмаслиги Рим ҳуқуқида ширкат муносабатларининг ривожланишига ёрдам бермади».

Эндиликда, Рим ҳуқуқини кўзда тутган ҳолда, Д.В. Дождев шунга эътибор қаратдики, "ширкатнинг тузилиши турли-туман муносабатларни, жумладан, ишга ёллашни расмийлаштириш имконини беради, ҳолбуки соф ҳолда римликлар уни шармандали деб билган. Айтайлик, масалан, биттаси сармоя киритгани ҳолда кўплаб бошқа ширкатлар ўзининг ишчи кучини беради, ёки аксинча, биттаси бунга меҳнатини сарфлайди (масалан, ўқитувчилик меҳнатини), қолганлари эса пул киритади, лекин бунда тадбирдан олинадиган фойда бир хил бўлмаслиги мумкин».

Ширкат моҳиятан қуйидаги мезонларга асосланган: шериклар кўзлаган жамиятга наф келтирувчи, қонун доирасидаги аниқ мақсад, умумий манфаатни ифодаловчи ва мақсадга эришишга қаратилган доимий келишувлар, мулкий ҳамжиҳатлик, фойда ва зиён кўришда шерикларнинг тенг иштироки ва хоказолар[15].

Шериклар барча мулкни ўртада тақсимлашни белгилаганлар, қўшган улушларини ва кейинчалик қўлга киритган мулкларини ҳам ўртада тенг тақсимланганлар. Шериклардан ҳар қайсиси улуш сифатида қўшган мулкига ўзининг якка ҳолдаги эгалик ҳуқуқини сақлаган ва ўз мулкини ширкат кўзлаган мақсадга эришиш учун умумий фойдаланиш учун қўшган. Бундай ҳолатларда шерикларнинг ширкатдан чиқишида қўшган улуши қайтарилган. қўшилган улушнинг бир хил миқдорда бўлиши зарур ҳисобланмаган.

Шерикларнинг ҳар қайсиси пул, мулк ёки ўзининг касбий билимини улуш сифатида қўшиши мумкин бўлган. Умумий қоидага кўра қўлга

[15] Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. Дарслик. Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. 263 б.

киритилган фойда шерикларнинг ҳар қайсисига тенг тақсимланган, етказилган зиён учун ҳам шерикларнинг ҳар қайсиси тенг жавобгар ҳисобланган. Лекин, тақсимотнинг бошқачароқ шакллари ҳам мавжуд бўлган. Унда шериклардан бири тушган фойдадан кўпроқ улуш олиб, кўрилган зиёнга камроқ ҳисса қўшган шароитларда ҳам шартномалар имзоланган. Бироқ, шериклардан бирига фақат зиён келтириш, бошқасига эса фойда келтириш қатъиян таъқиқланган.

Ширкатларнинг кенг тарқалиши аста-секин тадбиркорлик соҳаси дея аталиши мумкин бўлган соҳани (саноат ва савдо) қамраб олди ва бу республиканинг ва императорлик даврининг сўнгги йилларида кузатилади. Бундан фарқли равишда Қадимги Римга кўпроқ даражада societas omnium bonorum моделлари (иштирокчиларнинг бутун мулкини қамраб олувчи) хос бўлган.

Тадбиркорлик (савдо) муносабатлари ривожланиши баробарида Рим ҳуқуқида фақат битта ҳуқуқий бўлмаган субъектнинг мавжудлиги етарли бўлмай қолди.

Бундай модель аввало кредиторлар манфаатларига ва натижада умуман фуқаролик муомиласига зид бўлиб, унинг барқарорлигини етарли даражада таъминлай олмаган. Бу пайтга келиб аста-секин юридик шахс тушунчаси ҳам ривож топди. Айнан у ширкатларнинг айрим турлари учун қўлланила бошланди. Оқибатда хозирги кунда баъзи бир муаллифлар шундай хулосага келдики, унга кўра Рим ҳуқуқида **societas** атамаси икки хил маънога эга бўлди: у юридик шахсларни **(universitas personarum)** ва айни пайтда ўз аъзолари орасида умумий мулкчилик муносабатларини белгиловчи тасодифий ва шартномавий бирлашмаларни англатади. И.А. Покровский Қадимги Римда юридик шахс тузилмаси ривожланишини кузатиб шундай хулосага келади: "Рим ҳуқуқида юридик шахслар ўзининг тўлиқ ривожланиш даражасига етмаган, ҳолбуки Рим ҳуқуқида юридик шахс ҳуқуқигина яратилмаган, балки унинг асосий амалий ифодаси белгилаб берилган: жисмоний шахсга боғлиқ бўлмаган ҳуқуққа лаёқатлилик тушунчалари, сунъий лаёқатлилик усуллари ва ҳатто юридик шахсларнинг асосий турлари (корпорация ва муассасалар) ишлаб чиқилган. Янги турга ниҳоятда нозик юридик восита берилган, унинг ёрдамида турли-туман ижтимоий тузилмалар фуқаролик жамиятининг нормал ҳаётига киритилиши ва янги дунё ундан кенг фойдаланиши мумкин».[16] Рим ҳуқуқида юридик шахс мавжудлигини тан олиш борасидаги шунга ўхшаш фикрлар К.Н.Анненков томонидан билдирилган.

[16] Покровский И.А. История римского права. Пб., 1918. С. 243.

Н.С. Суворовнинг нуқтаи назари юқоридагилардан фарқ қилган. Унинг фикрича, Рим ҳуқуқи, юридик шахслар борлигини тан олишдан бош тортиб, айни пайтда муомалада жисмоний шахслар билан бир қаторда амал қилувчи фуқаролик ҳуқуқининг алоҳида тури мавжуд. Яъни, бу ўринда **"personae vice fungi"** ёки **"privatorum loco habere"** деб аталувчилар кўзда тутилган .[17] Шуни қайд этиш керакки, айрим муаллифлар Рим ҳуқуқида юридик шахслар тан олинишига йўл қўйгани ҳолда, буни ширкатга нисбатан татбиқ этишдан бош тортган.[18] И.Б. Новицкий ҳам шу нуқтаи назарга қўшилади, унинг фикрича "Римлик юристлар баъзан ширкат мулки ҳақида сўз юритса-да, бунда ҳали барча аъзолар мулкидан йирикроқ нарса кўзда тутилгани йўқ[19] Г. Дернбург ҳам шундай хулосага келган.[20] Г.Ф. Шершеневич ҳам «Рим ҳуқуқида фақат ширкат аъзолари ўртасидаги ички муносабатлар ривожланишга улгурган деган фикрни илгари сурган.[21] Рим ҳуқуқида ширкатларнинг юридик шахс сифатида тан олмасликни К.П. Победоносцев[22] ва А.О. Гордон[23] таъкидлашган.

С.Н. Муромцев, республиканинг сўнгги асрларини назарда тутган ҳолда, ширкатларга шундай таъриф беради: «умумий харид қилиш ва эгалик қилиш мақсадида алоҳида шахсларнинг бирлашуви. Ширкатда кўзда тутилган эгалик қилишнинг умумийлиги бирон бир юридик таърифига эга бўлмади, Ширкат аъзоларининг ўзаро муносабатлари шартномавий ҳуқуқ асослари билан белгиланган: ҳуқуқда ширкат умумий яхлитлик деб тушунилмаган, балки ширкат аъзолари билан алоҳида муносабатлар кўзда тутилган. Юридик жиҳатдан ширкат шахсий мулкчиликка оид индивидуал ҳуқуқ ва мажбуриятлар тушунилган. Бизнинг назаримизда, юридик ширкат ривожлана олмаган, ҳозирча у фақат шахсий манфаатлар туфайли вужудга келган мулкий муносабат шакллари билан чегараланган. Бошқа турдаги қизиқишлар юриспруденцияни фуқаролик ҳуқуқи сохасига янги тушунча киритишга даъват этган, унга кўра умумий эгалик фуқаролик шакли сифатида очиқ тан олинган. Бу сохта ёки юридик шахс тушунчаси бўлган»[24].

Шундай ҳолатлар бўлганки, субъект ҳуқуқига эга бўлмаган тузилмалар сифатида ташкил этилган ширкатлар юридик шахс бўлган ширкатларга

[17] Суворов Н.С. О юридических лиц в римском праве. М., 1900. С. 1 - 2.

[18] Хвостов В.М. Система римского права. М, 1996. 112 ва 114 б.
[19] Новицкий И.Б. Римское частное право: Дарслик. М., 1948. 501-б.
[20] Дернбург Г. Ўша асар. 415-б..
[21] Шершеневич Г.Ф. Курс торгового права. I том. 287-б..
[22] Победоносцев К.П. Курс гражданского права. Часть третья: Договоры и обязательства. СПб., 1890.501-б.
[23] Гордон А.О. Представительство в гражданском праве. СПб., 1879. 104-б.
[24] Муромцев С.Н. Гражданское право Древнего Рима. М., 2003. 595 – 596-бетлар.

айланган. Бундай айланиш В.Ельяшевич томонидан ижарачилар ширкати мисолида кўрсатиб берилган **(societas publicanorum).**

Бунда эътибор шунга қаратилганки "асбоблар, хизматчилар, қуллар ва ҳ.з. шаклдаги йирик сармояга эгалик зарурати ушбу ширкатларнинг у ёки бу даражада кўп сонли таркибини назарда тутса, бошқа томондан, уларнинг давлат хўжалиги билан алоқаси уларнинг ҳуқуқий лаёқатли бўлишлари учун етарли бўлган **causa**ни яратиб берган. Ижарачиларни бирлаштирувчи тузилмаларнинг интилишлари уларнинг муомалага киришларини осонлаштирган ва соддалаштиргани ҳолда принципатнинг биринчи юз йиллигида амалга оширилган».[25]

Рим ҳуқуқида ширкатнинг ҳуқуқий мақомини белгилаш билан боғлиқ масалалар асосан уч турга бўлинган. Биринчиси қуйидагидан иборат: бир аъзо бошқаларига нисбатан кўпроқ фойда оладиган ёки бошқаларга кўра камроқ маблағ сарфлайдиган ширкат шартномасини тузиш мумкинми? Ушбу саволга берилган турлича жавоблар орасидан, ширкатнинг айрим иштирокчилар меҳнати ва фаолияти алоҳида қимматга эга деб баҳоланган ҳолда шундай тартиб жорий этилиши мумкин, деган жавоб кенг тарқалди. Улушлар нисбатига оид саволга жавоб эса - эришилган битимда бошқа шарт кўзда тутилмаган бўлса, иштирокчилар улушининг тенг бўлишини тан олишни англатади. Шартноманинг моҳиятига тегишли бўлган учинчи саволга жавоб шартноманинг шахсий характери билан изчил боғлиқ бўлган. Бундан нуқтаи назарга кўра, ширкатдан чиқиш, айни пайтда ширкат аъзосининг вафот этиши ширкатнинг тугатилишига олиб келишини ҳам англатади. Бу билан тегишли тузилманинг хусусий характери ҳам таъкидланади.

Юстиниан Институцияларининг учинчи китобида ширкатга XXV титул бағишланган. Унда кўзда тутилишича, хусусан, мулкни умумлаштириш мақсадида ширкатга кириш баробарида аъзо учун маълум тадбирни амалга ошириш (қулларни, ёғ, шароб, нон ва сотиб олиш ва сотиш) ҳам рағбат бўлиб хизмат қилиши мумкин. Ушбу манбада келтирилган новеллалар сирасига алоҳида аъзо мулкини мусодара қилиш оқибатида ширкатнинг тугатилиши имкониятини (бу ўринда маълум аъзонинг бутун мулки мусодара қилиниши кўзда тутилганни қайд этилган), нафақат алдов, балки умуман айб учун аъзолар ўртасида жавобгарлик тамойили қўлланилишини (мутлақ бепарволик ва ҳаракатсизлик, умум манфаатларга ўз манфаатларидек қараш талабининг бузилишини) киритиш мумкин.

[25] Ельяшевич В. Юқоридаги асар. 407, 409 ва 431 бетлар.

Гай Институциялари каби, Дигестларда мулкни умумлаштириш учун, шунингдек муайян тадбир учун ширкат тузилиши фарқланган (давлат солиқларини йиғиш каби мақсад алоҳида ажратиб кўрсатилган). Юстиниан Дигестларида фавқулодда ҳолларда улушларнинг тенгсизлигига йўл қўйилган (шахс ўз зиммасига кўпроқ меҳнат, кўникма ёки иш сарфлаш мажбуриятини ўз зиммасига олиш шарти билан). Ширкат аъзолари шартноманинг бирон бир шартини бажармаган тақдирда ундан чиқиш ҳуқуқи тан олинган. Айни пайтда аъзо томонидан йўл қўйилган айрим бузилишлар туфайли ширкатдан чиқариш имконияти ҳам кўзда тутилган. Ширкат фаолият кўрсатган пайтда вужудга келган қарз мажбуриятларини умумий мулк ҳисобидан қоплаш зарурияти махсус қайд қилинган. Ушбу манбада **Ульпиан** фикри келтирилган бўлиб, у «ширкат даъволарига» йўл қўйилиши мумкин, деб мулоҳаза юритган. Бунинг учун ширкатнинг ўзи мавжуд бўлиши керак. Мулк – умумий мулк эканлиги етарли бўлмаган, чунки мулкнинг умумийлиги мутлақо бошқа асослар туфайли ҳам вужудга келиши мумкин (легат, мерос, ҳадя ва ҳ.з.).

Савдо корхоналарининг ташкил топиши ташқи муносабатларга нисбатан ҳам ширкатнинг умумий бирлигини тан олишга олиб келди.

Бу эса ширкатга нисбатан билдирилган даъволар унинг аъзолари манзилларига эмас, идораси манзилига йўлланишида ҳам ўз ифодасини топди.

Манбаларда Рим ҳуқуқида ушбу институтининг ривожланиши ҳақида бошқа мулоҳазалар ҳам билдирилган. Ушбу гуруҳ муаллифлари орасида П.Е. Соколовскийни қайд этиш мумкин. Унинг тадқиқотида **societas omnium bonorum** тушунчаси тубдан қайта баҳоланган.[26] Чунки, муаллифнинг фикрича, "у ўз ичида келгусида савдо муассасаси сифатида ривожланиши мумкин бўлган ўзига хос хусусиятлар мавжуд эмас». Бунда муаллиф шуни таъкидлайдики, "Цицерон, маиший турмушни ва ширкатнинг ҳуқуқий ҳолатини ўрганиб, ўзини бу соҳада мутахассис деб билгани ҳолда бирон маротаба **societas omnium bonorum** ни тилга олмайди. Бу ўринда сўз бу каби савдо муносабатларининг **societas omnium bonorum** моҳияти – ҳар бирига тегишли бўлган мулкнинг умумийлиги билан бир бирига зидлиги ҳақида бормоқда. П.Е. Соколовский **societasни** энг аввало actio pro socie билан боғлаб (мулкка йўналтирилган таваккалчилик назарда тутилади), ширкат аъзолари ўртасида societas ни улардан бирининг иродасига кўра тугалланишини назарда тутади. Ўз навбатида ушбу даъвонинг асоси бўлиб барча аъзолар фойдасини кўзлаб тузилган мустақиллик хизмат қилиши

[26] Соколовский П.Е. Договор товарищества по римскому праву. Киев, 1883.

лозим. Бундай шартнома аъзолар бор мулкларини умумий хиссага қўшгунича тузилган. Бунда **actio pro socie** дан ташқари **societas omnium bonorum**, шунингдек societas unius rei (умумий манфаат учун битта нарсани ажратиш), societas publicanorum (ижарачилар ширкати – шартномага кўра хазинадан ўлпон олиш ҳуқуқига эга бўлганлар) ажратиш зарур деб ҳисобланган.

Юқорида кўриб чиқилган ҳуқуқий конструкциялар хозирги кунда ширкат тўғрисидаги замонавий тушунчаларга жуда яқин эканлиги маълум бўлди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки оддий ширкат шартномаси кўп томонлама, консенсуал ва ташкилий характерга эга шартнома ҳисобланади. Ушбу шартнома икки ёки ундан кўп шахс томонидан тузилиб, уларнинг ўз маблағларини бирлаштириш мажбуриятини қамраб олади. Оддий ширкат шартномаси иштирокчилари фойда олиш ёки қонунга зид бўлмаган бошқа мақсадга эришиш мақсадида юридик шахс ташкил этмасдан биргаликда фаолият юритиш тўғрисида келишиб оладилар. Агарда ушбу шартнома тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш мақсадини кўзласа, унинг тарафлари бўлиб, якка тадбиркорлар ва тижорат ташкилотлари ҳисобланади.

Ҳақиқатдан ҳам фуқаролик ҳуқуқий шартномалар ичида оддий ширкат шартномаси алоҳида ўрин эгаллайди. Мазкур шартномани тарихий илдизларини ўрганиш Республикамизда шартнома институтини замирида қандай маъно ётганлигини англаб етишга ва шартнома институтини янада такомиллаштиришга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармойиши (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.04.2019 й., 08/19/5464/2891-сон).
2. Аль-Марашдех Маджед Ахмед Халаф.Хозяйственное товарищество по законодательству Иордании. Автореф.дисс…к.ю.н. -Т. :1999. -10-11 с.
3. Топилдиев В.Р. Рим ҳуқуқи. Дарслик. Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. 263 б.
4. Покровский И.А. История римского права. Пб.1918. С. 243.
5. Суворов Н.С. О юридических лиц в римском праве. М., 1900. С. 1 - 2.
6. Хвостов В.М. Система римского права. М, 1996. 112 ва 114 б.
7. Новицкий И.Б. Римское частное право: Дарслик. М., 1948. 501-б.
8. Дернбург Г. Ўша асар. 415-б..
9. Шершеневич Г.Ф. Курс торгового права. I том. 287-б..

10. Победоносцев К.П. Курс гражданского права. Часть третья: Договоры и обязательства. СПб. 1890.501-б.
11. Гордон А.О. Представительство в гражданском праве. СПб. 1879. 104-б.
12. Муромцев С.Н. Гражданское право Древнего Рима. М., 2003. 595 – 596-бетлар.
13. Ельяшевич В. Юқоридаги асар. 407, 409, 431 бетлар.
14. Соколовский П.Е. Договор товарищества по римскому праву. Киев, 1883.

JAMIYAT HUQUQIY TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sarvar Saidov Faxriddin o‘g‘li
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Yurisprudensiya fakulteti
III bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonabiy dunyoda davlatlarning o‘zaro bog‘liq ekanligi; jamiyat huquqiy tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari haqida fikr-mulohaza yuritadi.

Kalit so‘zlar: huquqiy tizim, zamonaviy olam, jamiyat, tendensiya, jadallashuv, takomillashuv, huquqiy qadriyat, zamonaviy davr.

Bugungi zamonaviy olamda mamlakatlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini kuchaytirish, yuksaltirish tendensiyasi mavjud. Ushbu tendensiyalar ayni vaqtda sodir bo‘layotgan iqtisodiy sohadagi jarayonlarning, transport sohasiga tegishli tizimlarning integratsiyalashuvi, resurslar manbalarining umumiy ekanligi, hozirda turmushning bir bo‘lagiga aylanib ulgurgan axborot kommunikatsiya vositalarining jadallashuvi, yana bir tomondan turli xalqlar orasidagi intellektual va axborot almashinuvining tobora kuchayib borishi, insoniyatning ta’lim va bilim olish uchun hamda undan foydalanish maqsadidagi muloqoti; ikkinchi tomondan esa, xalq va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning kuchayishiga, takomillashishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy davrda huquqiy tizimlar rivoj topishining qonuniyatlari va ko‘rsatkichlari sivilizatsiya omillarining o‘zaro ta’siri jarayonining murakkablashuvi, faollashuvi, ularning rivojlanishidagi uzluksizlikni ham o‘z ichiga qamrab oladi. O‘z an’anaviyligini yo‘qotmagan huquqiy qadriyatlar huquqiy tizim tomonidan yoki boshqa huquqiy tizimlardan qabul qilingan yangi qadiryatlar bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Soha tarixi nuqtai nazaridan kelib chiqib aytish mumkinki, alohida jamiyat va davlatlarning huquqiy tizimlarida taraqqiyot natijalari kuzatilgan. Bu qonuniyatlar pirovard natijada iqtisodiy omilning

rivojlanishi, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosbaatlarining takomillashuvi, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan belgilanadi. Bugungi zamonaviy olamning zamonaviy huquqiy xaritasi huquqiy tizimlar haqida xilma-xilliklar talaygina ekanidan dalolat beradi. Shu jumladan, jamoat va davlat hayoti mamlakatlarning bir-biriga yaqinlashuvi, qonun sohasidagi birdamligi, bozor munosabatlarini tartibga solish, atrof-muhitni muhofaza etish va yana bir qator yo‘nalishlarda huquqni qo‘llash, joriy etish istagi mavjud ekanligini ham ta’kidlaydi.

Ayni vaqtda zamon bilan hamnafaslikda harakatlanayotgan davlatlarning barcha huquqiy tizimlari huquqiy tartibga solishni talab qiladigan ijtimoiy munosabatlar sohasining keskin o‘sishi, davlat organlarining qonun ijodkorligi faolligining kuchayishi, ijtimoiy munosabatlarning huquqiy shakli rolining ortishi bilan tavsifga ega bo‘ladi, ya’ni: umume’tirof etilgan va mustaqil qadriyat sifatida huquqqa yo‘naltirilganlik (huquqiy davlat g‘oyasi); yuqori (siyosiy tizimlar va davlat bilan solishtirganda) barqarorlik va uzluksizlik darajasini ko‘rsatadigan zamonaviy huquq katta moslashuvchanlik va turli davlat rejimlarida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Qonunchilikni birlashtirish va uyg‘unlashtirish jarayonida Yevropa davlatlarining xalqaro iqtisodiy va siyosiy hamjamiyatlari (umumiy bozor va boshqalar) alohida muhim rol o‘ynaydi, ular doirasida ko‘p tomonlama shartnomalar ishlab chiqiladi. Xalqaro siyosiy va iqtisodiy hamjamiyatlarning ta’sis normalari ko‘pincha shartnomani ratifikatsiya qilish tufayli tegishli normativ hujjatlar qabul qilinmasdan ham ishtirokchi davlatlarning milliy qonunchiligiga kiritilgan.

Shunday qilib, huquqiy tizim ijtimoiy ob’yekt sifatida faoliyat jarayonida ob’yektiv va sub’yektiv rejaning turli xil umumiy siyosiy va umumiy fuqarolik qarama-qarshiliklarining ta’sirini boshdan kechiradi.

Tavsiya etiladigan internet resurslari:

1. https://lawyer-great.ru/uz/

O‘RMON XO‘JALIGI YERLARIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH BO‘YICHA MAMLAKAT MIQYOSIDAGI QAROR VA BUYRUQLAR

Abraxmatov Himoyiddin Umbarqulovich
ToshDAU, magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rmon xo‘jaligi yerlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha mamlakat miqyosidagi qaror va buyruqlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlari: Dorivor o‘simliklar, yetishtirish texnologiyasi, o‘rmon, samaradorlik, aholi, farmon, qonun..

Annotation. This article provides information on national decisions and orders on the cultivation of medicinal plants on forestry land.

Key words: Medicinal plants, cultivation technology, forest, productivity, population, decree, law.

Аннотация. В данной статье представлена информация о государственных решениях и распоряжениях по выращиванию лекарственных растений на землях лесного хозяйства.

Ключевые слова: Лекарственные растения, технология возделывания, лес, продуктивность, популяция, декрет, закон

Zamonaviy dunyoda dorivor o’simliklarga bo’lgan qiziqishni oshirish tendentsiyasi mavjud, ya’ni ularning inson organizmiga ijobiy ta’sir ko’rsatish qobiliyati. Aholining miqdoriy o’sishi, kasalliklar-ning profilaktik diagnostikasi sifatining yaxshilanishi, dorivor o’sim-liklar o’sishining tabiiy maydonlarining qisqarishi dorivor o’simlik xom ashyosiga bo’lgan talabni doimiy ravishda oshirib borish tendentsiyasi-ga olib keldi. Jahon Sog’liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, bugungi kunda 60,0% dan ortiq dori vositalari tarkibida (ma’lum dara-jada) o’simlik komponentlari mavjud.

O’zbekiston Respublikasida ham farmatsevtika sanoatining jadal rivojlanishi dorivor o’simliklar xom-ashyosiga bo’lgan talabni keskin ortishiga sabab bo’lmoqda. Ta’kidlash joizki, respublikamizda tabiiy holda o’sadigan dorivor o’simliklar zaxiralarining chegaralanganligi tufayli farmatsevtika sanoati korxonalarining dorivor o’simliklar xom-ashyosiga bo’lgan talabini, asosan, dorivor o’simliklar yetishtirish orqaligina qondirish mumkin

Jamiyat va iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim ob’ektiv muammolarni hal etishga bog‘liqdir. SHu nuqtai nazardan, qishloq va o‘rmon xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi, jamiyat va iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida esa, eng muhim ishlab chiqarish vositasi, takror ishlab chiqarilmaydigan va o‘rni almashtirilmaydigan er resurslaridan foydalanish – har qanday milliy iqtisodiyot yaxlit tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, mamlakatni rivojlantirish, ayniqsa muayyan islohotlarni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash o‘z navbatida yerdan foydalanish iqtisodiyotining o‘ziga xos masalalarini o‘rganish va bilishga ob’ektiv bog‘liqdir. Shu bois yurtimizda ham tizimli ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 23 avgustdagi «Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra, 2020 yil 1 yanvardan boshlab o‘rmon fondining

o‘rmon bilan qoplanmagan yerlarini ijaraga berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan edi. Shunga ko‘ra, 2020 yilning yanvar – sentyabr oylarida 29 ming gektardan ortiq yer maydoni 1561 ta jismoniy va yuridik shaxslarga investitsiya kiritish va yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan 49 yil muddatga ijaraga berildi.

“O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori bilan esa o‘rmon fondi erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2020-2022 yillarda o‘rmon fondi yerlarini ijaraga olgan ijarachilarga faoliyat yo‘nalishiga qarab 1 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatda ijara to‘lovining “nol” stavkasini qo‘llash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bunday imkoniyat va imtiyozlar o‘rmon xo‘jaliklari faoliyatini yanada takomillashtirish bilan birga, mazkur tarmoqda xususiy sektorning o‘rnini kengaytirish, shu faoliyat bilan mashg‘ul yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz mustaqillika erishgandan so‘ng o‘rmonlarga katta axamiyat berila boshlandi.

1990 yilda O‘rmon fondi erlarining umumiy maydoni 2507,5 ming gektarni yoki jami Respublika umumiy (44410,3 ming gektar) erlarning 5,6 foizini, o‘rmonzor va butazorlar maydoni 1410 ming gektarni yoki Respublika umumiy elarining 3,1 foizni tashkil qilgan.

2005 yilda O‘rmon fondi erlarining umumiy maydoni 8536,5 ming gektarni yoki jami Respublika umumiy erlarning 19,2 foizini, o‘rmonzor va butazorlar maydoni 2808,1 ming gektarni yoki Respublika umumiy erlarning 6,3 foizni tashkil qilgan.

2015 yil 1 yanvar xolatiga O‘rmon fondi erlarining umumiy maydoni 9752,3 ming gektarni yoki jami Respublika umumiy erlarning 21,7 foizini tashkil qiladi. SHundan, o‘rmonzor va butazorlar maydoni 3543,3 ming gektarni yoki Respublika umumiy erlarning 8 foizni tashkil qiladi.

2005 yilda 1990 yilga nisbatan O‘rmon fondi erlarining umumiy maydoni 6029 ming gektarga yoki 340 foizga, o‘rmonzor va butazorlar maydoni 1398,1 ming gektarga yoki 199 foizga o‘sdi.

2015 yilda 1990 yilga nisbatan O‘rmon fondi erlarining umumiy maydoni 7244,8 ming gektarga yoki 389 foizga, o‘rmonzor va butazorlar maydoni 2133,3 ming gektarga yoki 251 foizga o‘sdi.

O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi tizimidagi o‘rmon xo‘jaliklarining umumiy er maydoni 9140,6 ming gektarni tashkil etib, shundan, 7919,6 ming gektar (87 foiz) cho‘l hududi, 939,8 ming gektari (10 foiz) tog‘ hududi, 173,6 ming

gektari (1,9 foiz) vodiy hududi, 107,5 ming gektari (1,2 foiz) to‘qay hududlariga to‘g‘ri keladi.

Umumiy o‘rmon fondi 4043,2 ming gektari (44 foiz) o‘rmonzorlar, 699 gektari (0,01 foiz) o‘rmon ko‘chatxonalari, 1613 gektari (0,02 foiz) bog‘ va uzumzorlar, 7761 gektari (0,08 foiz) haydaladigan ekin erlari va 5087 ming gektari (55,6 foiz) boshqa erlardan iborat. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan sug‘oriladigan ekin erlariga asosan o‘rmon ko‘chatxonalari va dorivor ekinlar ekilib, qishloq xo‘jaligi ekinlari asosan sug‘oriladigan erlarga yangi ekilgan bog‘ va yangi o‘rmonzorlar qator oralariga, pista va boshqa suvsizlikka chidamli daraxt va butalar suvsiz va lalmi yerlarga ekilib parvarishlanmoqda. Oshqovoq, namatak kabi ekinlar esa asosan sug‘oriladigan yerlarga ekilgan bog‘ va o‘rmonzorlar qator oralariga ekilib, qo‘shimcha daromad olinmoqda.

Davlat o‘rmon fondi erlarida 6 ta markaziy davlat o‘rmon xo‘jaliklari, 55 ta davlat o‘rmon xo‘jaliklari, 7 ta qo‘riqxona, 5 ta o‘rmon ov xo‘jaliklari, 2 ta milliy tabiiy bog‘lar, 1 ta o‘rmon biosfera rezervati, 5 ta dorivorchilikka ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaliklari, 6 ta o‘rmon tajriba stansiyalari, 5 ta o‘rmon ishlab chiqarish korxonalari, 4 ta irrigatsiya o‘rmon xo‘jaliklari, 2 ta ekopitomniklar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. 1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойда-ланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4670- сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 2017 йил 11 майдаги ПҚ-2966-сон қарори.
3. Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти – (дарслик), - Т.: “Иқтисод молия” 2018, 402 б.
4. Тўхтаев Б.Ё., Махкамов Е.Х. ва бошқалар. Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом ашёсини тайёрлаш-(йўриқнома), - Т.: 2015 йил.
5. Саттаров Ж.С. Биоразнообразие и ресурсы дикорастущих лекарственных растений в некоторых районах Центрального Таджикистана-(диссертация “доктор наук”) 2020 г.

Internet saytlari

6. https://givoyles.ru
7. http://lex.uz
8. www.wikipedia.org

9. 11 . http://scholar.google.com
10. www.scopus.com
11. 19. www.elibrary.ru

ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИИ ИЗВЕСТКОВО-АММИАЧНОЙ СЕЛИТРЫ С НОВЫМИ ДОБАВКАМИ

Тахирова Н.Б.

Набиев А.А.
Ташкентский химико-технологический институт

Худойбердиев Ф.И.
Навоийский государственный горно-технологический университет

Самым распространенным и эффективным в мире азотным удобрением является АС. Но она имеет три очень серьёзных недостатка. Во-первых – взрывоопасность, во-вторых – слёживаемость при хранении и в-третьих – её физиологически кислый характер, который не позволяет её использовать на кислых почвах. С целью устранения этих недостатков АС и была разработана технология получения известково-аммиачной селитры (ИАС) путем введения в расплав нитрата аммония известковых материалов (известняк, мел или доломит). Сущность процесса производства ИАС состоит в смешении тонко измолотого $CaCO_3$ (известняка, доломита или мела) с плавом NH_4NO_3 и грануляции смеси в механических грануляторах или грануляционных башнях [1].

Нитрат аммония в расплавленном состоянии заметно разлагается по уравнению

$$NH_4NO_3 = NH_3 + HNO_3 – 41,7 \text{ ккал}$$

и кислотность плава постепенно повышается. Поэтому при смешении карбоната кальция с плавом нитрата аммония протекает реакция

$$2NH_4NO_3 + CaCO_3 = Ca(NO_3)_2 + (NH_3)_2CO_3.$$

При относительно высокой температуре смешения компонентов углекислый аммоний разлагается на NH_3, CO_2 и воду. Поэтому реакция карбоната кальция с расплавом нитрата аммония выглядит следующим образом:

$$2NH_4NO_3 + CaCO_3 = Ca(NO_3)_2 + 2NH_3 + CO_2 + H_2O.$$

Технология производства ИАС состоит из следующих основных стадий: 1 – получение плава NH_4NO_3 по обычной технологической схеме, принятой при производстве гранулированной АС; 2 – дробление и размол известняка для получения известняковой муки с тониной помола менее 100 микрон; 3 –

высушивание известняковой муки до содержания 0,1% влаги; 4 – смешивание плава нитрата аммония с известняковой мукой; 5 – гранулирование полученной смеси в грануляционной башне, или в шнековом грануляторе; 6 – рассев продукта; 7 – дробление крупной фракции продукта и возврат вместе с мелкой фракцией на смешивание с плавом нитрата аммония; 8 – охлаждение товарной фракции; 9 – обработка готового продукта опудривающими добавками и отправка продукта на склад для хранения насыпью.

На рис. приведена технологическая схема получения ИАС с применением шнекового гранулятора. Исходный 94-98 %-ный плав NH_4NO_3 с температурой 125-140°С смешивается в шнековом грануляторе (1) с размолотым известняком. Оптимальной температурой на выходе является 108-109°С. Полученные гранулы направляются в обогреваемый теплым воздухом сушильный барабан (2), из которого поступают на грохот (3) для отделения крупной фракции и затем на грохот (4) для отделения мелкой фракции. Крупная фракция размалывается в вальцовой мельнице (10) и вместе с мелочью и пылью возвращается в гранулятор. Продукционная фракция охлаждается в двух камерах холодильника с кипящим слоем (5) до 30°С, а затем обрабатывается в барабане (6) кондиционирующими добавками и транспортируется на склад. Отходящий из сушильного барабана воздух очищается в циклоне (7) и скруббере (8) с последовательно включенным каплеотделителем (9) и сбрасывается в атмосферу. Для получения 1 тонны 25 %-ной по азоту ИАС необходимо подавать в гранулятор около 750 кг 95-96 %-ного раствора NH_4NO_3, 250 кг известняка (влажностью порядка 0,5%) и 3 т сухого рецикла (влажностью 0,1-0,5%).



Рис. 1. Технологическая схема получения известково-аммиачной селитры с применением шнеков-грануляторов: 1 – гранулятор; 2 – сушильный барабан; 3 – грохот для отделения крупной фракции; 4 – грохот для отделения мелкой фракции, 5 – холодильник с кипящим слоем; 6 – барабан для кондиционирования, 7 – циклон для обеспыливания отходящего воздуха из сушильного барабана, 8 – скруббер для очистки отходящего воздуха из сушильного барабана; 9 – сепаратор для очистки воздуха мокрой очистки; 10 – валковая мельница для крупной фракции; 11 – подогреватель воздуха; 12 – фильтр воздуха, направляемого на создание кипящего слоя; A – 95 %-ный плав аммиачной селитры; B – размолотый известняк; C – возврат; D – раствор нитрата аммония из системы мокрой очистки; E – размолотые крупные частицы; F – мелкая фракция; G – кондиционирующие добавки; H – готовый продукт; I – продукт на склад; J – сухой воздух из атмосферы; K – пар; L – конденсат; M – выход в атмосферу; N – основной конденсат; O – подача воздуха из атмосферы для создания кипящего слоя.

В производстве ИАС известняк или мел можно заменить доломитом. Его использование не только не вредит, но приводит к повышению урожая по сравнению с ИАС, полученной обычным путём [2].

Создание производства ИАС с использованием доломита, с меньшим содержанием карбонатного минерала и большим содержанием азота перспективно и для Узбекистана с его нейтральными и щелочными почвами.

Сырьевая база доломитов в Узбекистане обширная. Их месторождения: Джаркак, Мамаджургаты, Кермине, Каракия. Большие запасы известняков и доломитов имеются на месторождениях Джетымтау и Мурунтау. Требуют изучения вопросы взаимодействия доломитов Узбекистана с расплавом нитрата аммония, состава и свойств получаемых продуктов, их агрохимической эффективности на сероземных почвах Узбекистана при выращивании различных культур. Исходя из вышеизложенного, проведение систематических исследований по разработке и внедрению технологии экспорто-ориентированной модифицированной АС с добавкой местного доломита является весьма актуальной задачей, на решение которой посвящена следующая научно-исследовательская работа.

Список использованной литературы

1. Тахирова Н.Б., Набиев А.А., Худойбердиев Ф.И. Известково-аммиачная селитра: получение и свойства // Научный вестник Наманганского Государственного Университета: г. Наманган / 2022 г. – № 7. – С. 79-86 (03.00.00 № 18).
2. Тахирова Н.Б. Реологические свойства известково-аммиачной селитры на основе доломита, плава нитрата и сульфата аммония // International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences ISSN: 2181-144X DOI: 10.24412/2181-144X-2022-2-27-31 Vol. 3 (2) 2022. – С. 27-31.

THE SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS DENOTING HUMAN INTELLECTUAL ABILITIES IN THE UZBEK LANGUAGE

Tukhtaeva Dildora Zokirovna

Annotation. This paper presents semantic features of phraseological units denoting human intellectual abilities in the Uzbek language. The semantic features of a set of expressions can serve as a sign of clear comprehension of their meaning in the context. Semantic features of the phraseological units representing human intellectual abilities such as "*Alifni kaltak (tayoq) deyolmaydi*" is analyzed.

Keywords: phraseological units, a set of expression, semantic feature, meaning, periodization, interrelationship.

Аннотация. В статье представлены семантические особенности фразеологизмов, обозначающих интеллектуальные способности человека в узбекском языке. Семантические особенности набора выражений могут служить признаком четкого понимания их значения в контексте. Анализируются семантические особенности фразеологизмов,

репрезентирующих интеллектуальные способности человека, таких как «алифни калтак (тайок) дейолмайди».

Ключевые слова: фразеологизмы, набор выражений, семантический признак, значение, периодизация, взаимосвязь.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi insonning aqliy qobiliyatini bildiruvchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari ko‘rsatilgan. Ifodalar majmuining semantik xususiyatlari kontekstda ularning ma'nosini aniq anglash belgisi bo'lib xizmat qilishi mumkin. “Alifni kaltak (tayoq) deyolmaydi” kabi insonning aqliy qobiliyatini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: frazeologik birliklar, ifoda majmui, semantik xususiyat, ma’no, davrlashtirish, o‘zaro bog‘lanish.

As we know that every nation expresses language units based on its place of residence, history, lifestyle, value, tradition, and custom. For example, in the Uzbek language “Alifni kaltak (tayoq) deyolmaydi” is mostly used to describe an illiterate person. This person does not have a good grasp of learning and is unable to read or write. The origin of this phraseology unit is deeply connected with the history of the Uzbek language. In this phraseology “alif” comes from the first letter of Arabic. In the 8^{th} -9^{th} -centuries most Central Asian countries used the Arabic language. The Arabic Uzbek alphabet is taught at some schools in the country. However, it was no longer used because the official Uzbek government under the Soviet Union started to use Cyrillic in 1940. In the phraseology of *“alifni kaltak deyolmaydi”* the word “alif” comes from the first letter of Arabic. The alphabet is given in Table 9.

Table 9

The script of “ alif “ in Arabic language alphabet

Name	Initial	Medial	Final	Separate	Pronunciation
alif*	ا	ـا	ـا	ا	see opposite

The script of “alif” in Arabic is like to a stick. Thus “alif” is the easiest letter in Arabic alphabet and it is not difficult to remember the first letter. A completely uneducated, illiterate person, even though not familiar with “alif” and is not able to say “alif” as a stick. Here the meaning of this phraseology gets aware us of the periodization of Uzbek language history. This shows that the study of phraseological units from different angles and their comprehensive approach, the discovery, and the generalization of its feature help enrich our language at the expense of new expressions.

In conclusion, investigating semantic features of phraseological expression, it is important to determine their component structure and their interrelationships

with meaning. Because the words in the components of phraseological units are closely connected with the long experience of the nation, history, geographical location, literature, culture, and tradition.

References

1. Ashurova D.U, Galiyeva M.R-“Cultural linguistics”-Toshkent-2019.
2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati - Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 26 b.

ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ ЎТОВИДАГИ АСОСИЙ БЕЗАК – АҚБАСҚУР ҲАҚИДА БАЪЗИ МАЪЛУМОТЛАР

Давлетбаева Набира Курбанбаевна
Қорақалпоғистон Республикаси И.В.Савицкий номидаги давлат санъат музейи Этнография бўлими илмий ходими

Аннотация. Мақолада Қорақалпоқ халқи ўтмишдаги турар жойлардан бири ҳисобланган ўтов, ўнинг интеръеридаги асасий безак тури – ақбасқур ҳақида сўз этилади. Ундаги накшларнинг турлари ва ранглар уйғунлиги асосий масала қилиб олинган.

Калит сўзлари: ўтов, ақбасқур, нақш, «мўйиз-шох» нақши.

Abstract. The article talks about otov, which is considered one of the settlements of Karakalpak people in the past, and the main type of decoration in its interior - aqbaskur. The main issue is the combination of patterns and colors.

Key words: otov, aqbaskur, pattern, "horn-horn" pattern.

Аннотация. В статье рассказывается об отове, который в прошлом считается одним из поселений каракалпакского народа, и основном виде украшения в его интерьере - акбаскуре. Главный вопрос – сочетание узоров и цветов.

Ключевые слова: отов, акбаскур, узор, узор «рог-рог».

Ҳар бир халқ ўзнинг муаййан бир тарихига эга. Мазкур тарихий жараёнлар даврида халқнинг асосий турар жойлари катта аҳамият касб этади. Бизга азалдан малумки, ўзининг бой ва узоқ тарихга эга қорақалпоқ халқи ярим кўчманчи яшаш шараётида яшаган. Бундай ҳолатда халқ учун энг мақул турар жой бу албатта – ўтов ҳисобланади. Мақоламизда бой тарихи, ясалиш техникаси барчамизга маълум бўлган ўтовнинг ички интерьерида алоҳида ўринга эга бўлган безак тури – «ақбасқур» ҳақида тўхталиб ўтамиз. Қорақалпоқ халқи ўйи - ўтов ички ва ташқари безаклари жуда хилма-хил, улар асосан гиламчилик намуналари ва ёғоч ўймакорчилиги буюмларидан иборат. Ақбасқур ўтов интерьеридаги энг асосий, ҳашамдор, ёркин,

жойлашган ўрни қулай ва аёллар томонидан қўл меҳнатида яралган гилмчилик намунаси десак адашмаган бўламиз. Қорақалпоқ тилидан сўзма-сўз таржима қиладиган бўлсак «ақбасқур» атамаси қуйдаги маънони беради, яъний «*ақ*» – оқ, «*бас*» – бош, асосий, «*қур*» – гилам тури. Бундан тушиниш мумкинки «оқ рангдаги асосий гилам тури» яъний «ўтовнинг бош безаги».

Ақбасқур аёллар қўл меҳнатида урчиқда ёки шархда егирилган пахта, жун ипларидан тўқилади ва албатта бунда ранглар уйғунлиги катта аҳамиятка эга. Мазкур безак тури энсиз 40 см атрофида, кўпинча 12-15 метр узунликта бўлиб, нақшлари уй ичкарисига қараган ҳолда ўтов ичкари қисмига айлана тақилади. Ақбасқурнинг охири иплар билан тугалланади. Улар бир-бирига боғланмайди, балки ўтовнинг кириш жойи устидаги деталга боғланади. Иплар боғланган бу жой одатда ўзунлиги 120 см эни 30-40 см атрофларидаги декоратив гиламча «*есиқ қас*» - эшик қош билан яширилган. Уни жилвакор қилиб кўрсатадиган асосий нарса бу унинг юз қисмидаги жудаям мураккаб уйгунликга эга бўлган нақшлари ҳисобланади. Қадимдан бизга маълум бўлганидек инсоният яралибдики атрофидаги барча нарса, буюмларни иложи борича санъат асарига айлантиришга ҳаракат қилади. Нақшлаш техникасида ақбасқурнинг ўзига ҳос ҳусияти бўлиб, нақш унинг ўрта қисмидан бошланиб икки учига қараб давом эттирилади. Қорақалпоқ аёллари моҳирлик билан келтирган нақшлар жуда мураккаб бўлиб, улар асосан қуйидаги мотивларда тўқилади: ўсимлик шаклини такрорловчи нақшлар (дарахт, новда, дарахт шохи ва гулларнинг хар ҳил кўриниши), ҳайвонларнинг аъзоларини такрорловчи нақшлар (шохнинг хар ҳил кўринишлари, тирноқ, қуш). Бу нақш тўрлари барча туркий халқларда шу жўмладан қорақалпоқ халқида ҳам кенг кўлланилган нақш ҳисобланади. Шохли нақшлар туркумига кирувчи нақшларда асосан қўчқор ёки эчки шоҳларига қиёсланади. Геометрик фигураларни такрорловчи нақшлар типитаги нақшлар дунёдаги энг қадимий нақшлар ҳисобланади. Инсон томонидан яратилган энг қадимий нақшлар айнан думолоқ-айлана, учбурчак, тўртбурчак, овал, ярим ой шаклларда бўлган. Ақбасқурда бундай нақшларнинг ифодаланиши табиий ҳол, сабаби қорақалпоқ халқининг келиб чиқиши қадим даврларга бориб тақалади. Ақбасқурдаги нақшалар уйғунлиги асосан биз юқорида келтириб ўтган нақшлардан ташкил топган, ва бу ерда жуда кам ҳолларда қўлланиладиган аёлларга тегишли предметлар нақш сифатида туширилганлигининг ҳам гувоҳи бўлишимиз мумкин. Яъний қўпгина ҳолларда «тароқ», «учбурчак шаклдаги тумор» ақбасқурда нақш сифатида кўриниш беради. Қорақалпоқ ҳунарманд аёллари безак ва

эстетикани чуқур ҳис этган, шунинг учун ҳам ақбасқурларнинг қиймати жуда аҳамиятли.

Бизга маълум тўқимачиликнинг ўзи ижодий жараён ҳисобланади. Ҳунарманд аёллар нақшли ақбасқурни тўқишда ўтов конструкциясини ҳисобга олган ҳолда бази нақшли жойларининг қўринмай қолишини билган ҳолда ўз таассурот оламнинг баъдий яхлитлигини ҳам ривожландириб, мустаҳкамлаб борган. Бу жараёндан кейин тўкув дастгоҳида яратилган мўжизани кўриб ўнга лол қолмасдан илож йўқ.

Демак, ўтовни безаш билан боғлик безак турларини шу жумладан ақбасқурни ҳам бемалол санъат асари деб ҳисоблаш мўмкин. Улар билан бир қаторда қорақалпоқ халқи ўтовини ҳам. Агар бу турар жой – ўтов бўлмаганда ақбасқур ва бошқа безаклар ҳам пайдо бўлмаган бўлар эди.

Адабиётлар

1. Алламуратов А. Мәңги мийрас. Нөкис, 1993.
2. Богословская И. Каракалпакский орнамент: образ и смысл. Алматы. 2019.
3. Камалова Г. Гөззал үлке. Нөкис, 1986.
4. Пирназарова А. Қарақалпақ халқының көркем-өнери. А.Пирназарова. Әмиўдарья. Нукус, 2021. - №6.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM OLISHI VA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIKANING MAZMUNI

Aslonova Feruza Saloxidinovna,
FarDu, o'qituvchi

Аннотация. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning bolani maktab ta'limiga tayyorlashdagi alohida ahamiyati haqida fikr yuritiladi.Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodikasini ishlab chiqishning nazariy jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, didaktika, ko'rgazmalilik, ko'nikma va malakalar, nutq, metod,nazariya,

Аннотация. В данной статье рассматривается особое значение дошкольного образования в подготовке ребенка к школьному обучению, раскрываются теоретические аспекты разработки методики обучения детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, дидактика, демонстрация, умения и навыки, речь, метод, теория,

Annotation. This article discusses the special importance of preschool education in preparing a child for school education. The theoretical aspects of developing the methodology of teaching preschool children are explained.

Key words: preschool education, didactics, demonstration, skills and competencies, speech, method, theory,

Maktabgacha yosh davri inson kamolotining keng rivojlanishidagi, bolani maktab ta'limiga tayyorlashdagi alohida ahamiyati sifatida maktabgacha ta'limning maqsadini belgilaydi. Hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodlari va tashkiliy shakllarini o'ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama kamolga yetkazishga o'qitishning ahamiyatini tadqiq qilish zarurligini shart qilib qo'ydi. Bu esa maktabgacha ta'lim didaktikasi sohasining yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Maktabgacha ta'lim didaktikasi bu - umumiy didaktikaning bir jabhasidir Maktabgacha ta'lim didaktikasi - maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish nazariyasi hisoblanib, uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabda o'qishga tayyorlashni ta'minlovchi ta'limning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi, Maktabgacha ta'lim didaktikasining asoschilari У.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiy hisoblanadi. У.A.Komenskiyning "Onalar maktabi" nomli asarida maktabgacha ta'limning maqsadi - atrof-muhit haqidagi oddiy bilimlarni o'zlashtirish, axloqiy odatlarni rivojlantirish va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash ekanligini ta'kidlab, bolalarga beriladigan bilimlarning ilk rejasiini belgilab berdi.

Olim rejani tarbiya va ta'limning boshlanishi maktabgacha yoshdadir, degan g'oyani ilgari surgan. K.D.Ushinskiy maktabgacha ta'limning vazifasi aqliy salohiyat va nutq qobiliyatini rivojlantirishdan, ularni maktabga tayyorlashdan iboratdir– deb uqtiradi. Bunda u ko'rgazmalilikka, faoliyatlarning qiziqarliligiga tayanish muhimligini ta‘kidlaydi.

У.A.Komenskiy va K.D.Ushinskiyning qimmatli merosi keksa avlod pedagoglari tomonidan maktab didaktikasini ishlab chiqishda foydalaniladi. O'tmish pedagoglari maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish huquqini - hayotni anglashga, dunyoqarashni kengaytirishga, bilim, ko'nikma va malakalar huquqini kafolatlash lozim deb ta‘kidlaydilar. Ular bilimlarning aqliy rivojlanishi va nutqning o'sishida, o'yin va tasviriy faoliyatlarni rivojlantirishda, atrofdagi voqelikka munosabatning shakllanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tdilar.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim mashg‘ulotlari dasturiga kiritilishi zarur bo'lgan bilimlar doirasini belgilab berdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babaeva D.R. Maktabgacha ta‘lim fanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari. O_quv-uslubiy majmua. –t.: PKQTMOI, 2018. 4-bet.
2. Mahkamova N.Yu. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped. fan. nom. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2002. – 23 b.
3. Bola ma‘naviyati.Uzluksiz ma‘naviy tarbiya trilogiyasi.II-qism.3-7 yoshli bolalarni ma‘naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. A.Qodirov, M.Quronov va boshqa. -Toshkent-2018.31-b.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik /M.X.Toxtaxodaeva va boshq. – T.:

ASSESSMENT OF QUALITY PARAMETERS OF TRANSPORT SERVICE OF URBAN PASSENGER TRANSPORT

Sayidyusupov Marufkhon
Namangan Civil Engineering Institute

Abstract. The article describes the level of organization of the transportation process in urban passenger transport, qualitative parameters, rational distribution of traffic along routes and the creation of an optimal traffic schedule.

Keywords: qualities of the urban passenger transport system, time consumption, convenience, safety, passenger fare, passenger traffic, travel time.

Аннотация. В статье описаны уровень организации перевозочного процесса на городском пассажирском транспорте, качественные параметры, рациональное распределение движения по маршрутам и создание оптимального графика движения.

Ключевые слова: качества городской пассажирской транспортной системы, затраты времени, удобство, безопасность, пассажиропоток, пассажиропоток, время в пути.

Abstrakt. Maqolada shahar yo‘lovchi tashish transportida tashish jarayonini tashkil etish darajasi, sifat ko‘rsatkichlari, yo‘nalishlar bo‘ylab harakatni oqilona taqsimlash va optimal harakat jadvalini yaratish yoritilgan.

Kalit so'zlar: shahar yo'lovchi transporti tizimining sifatlari, vaqt sarfi, qulaylik, xavfsizlik, yo'lovchi tashish narxi, yo'lovchi tashish, sayohat vaqti.

Introduction.One of the first indicators of the quality of the urban passenger transport system was considered by Zilbertal A.Kh. He singled out three groups of factors: time costs; convenience; safety.

Travel time includes walking time, waiting time for transport, travel time, transfer time.

In accordance with "Transport Services. Passenger transportation: nomenclature of quality indicators" elements of the transport service quality system are presented in the following form:

• economy, ie. the level of development of the route network and the value of the passenger fare;

• information service for passengers, transportation;

• comfort of the trip, determined by the level of filling the passenger compartment of the bus;

• speed of delivery of passengers;

• availability of services, which is determined by the time of the pedestrian approach to the stopping point and is determined by the rational development of the route network.

The comfort of transport service is a complex category consisting of the following elements:

• informing passengers;

• noise level and temperature conditions in the interior of vehicles; compliance with vehicle capacity standards;

• number of transfers during the trip; environmental friendliness of the transport system.

Results and its discussion. Passenger service quality indicators are defined in the American Highway Capacity Manual [1,2]. In accordance with this document, the system of indicators for the quality of passenger service and the efficiency of urban transport is formed based on:

• work of stopping points of public transport;

• performance characteristics of transport on hauls;

• set of passenger transport routes.

Many researchers [3,4,5,6,7,8,9,10] refer to the main indicators of the quality of public service by urban mass passenger transport:

• intervals (intensity) of rolling stock movement along the routes;

• reliability of traffic schedule fulfillment;

• observance of rolling stock capacity;

• use of rolling stock capacity corresponding to the capacity of passenger flows.

Thus, the quality of transport services for the population is a property of the transport system, which is assessed by a complex set of indicators.

In accordance with the Highway Capacity Manual (HCM) [11], the quality of transport service is assessed through the following indicators:

1. The interval of movement of the rolling stock on the route.

2. Pedestrian accessibility of stopping points.

3. Filling the vehicle.

4. Opening hours of public public passenger transport.

5. Arrangement of stopping points.

6. Reliability of urban passenger transport.

7. The ratio of the speed of communication when using urban public transport and a car.

8. Travel time.

9. Safety.

The main indicators of the quality of work of urban public passenger transport include the interval of movement and the filling of the rolling stock.

According to the filling value, six boundaries of service levels were formed according to the conditions for placing passengers in the cabin of the rolling stock of urban passenger transport, which include:

1. Level A - passengers can choose a seat on the bus and not sit next to each other.

2. Level B - passengers can choose a seat in the cabin.

3. Level C - all passengers can sit.

4. Level D - seats are occupied, there are standing passengers.

5. Level E - maximum cabin load.

6. Level F - overflow of the rolling stock.

The structure of time spent on the movement of passengers is:

time spent on pedestrian approaches; duration of waiting for a trip; travel time.

The regularity of traffic, the filling of the rolling stock and the interchange are important factors affecting the comfort of the movement of passengers. Fishelson M.S. in his work [12,13] noted that the regularity indicator is determined by the timely execution of the traffic schedule by vehicles, depends on the organization of the transportation process, and recommends referring it to the comfort of passenger movement.

One of the main factors affecting the time of movement of passengers is transfer. The time spent on transfers, as a rule, depends on the level of development of the infrastructure of the route network and is determined by the layout of interchange nodes, the location of stopping points and the convenience of movement between them [14,15,16]. All of these factors have a different impact on passengers: depending on weather conditions, purpose of travel, gender and age of passengers [17,18].

The number of transfers depends on the level of development of the infrastructure of the route network of the city, which is characterized by such indicators as the range of travel, branching of the route network and its compliance with passenger flows.[19].

There are certain factors that influence the formation of the mobility of the population, leading to its increase or decrease. Such factors include the territorial remoteness of urban facilities, the duration of movement, the distance between stopping points, the value of the passenger fare, the characteristics of the rolling stock, etc. [20,21];

The costs and incomes of carriers directly depend on the type and number of rolling stock operating on the route. Therefore, to work on the route, it is necessary to choose rolling stock, the capacity of which corresponds to the capacity of passenger traffic, and operating costs ensure the profitable operation of the transport company. The capacity and quantity of the rolling stock on the route depend on such technical and operational indicators as the filling of the rolling stock, traffic interval, turnaround time, transportation costs, etc.;

Conclusions. The speed of the vehicle along the route depends on many factors: the improvement of the streets, the layout of the city, the technical characteristics and the degree of loading of the rolling stock, the intensity of the traffic flow and the nature of its regulation, the number of stopping points on the route and the level of their equipment, the qualifications of the driver, etc. has a different meaning depending on the time of day and days of the week, directly affects the cost of transportation and the travel time of passengers [23,24];

The level of organization of the transport process is characterized by the rational distribution of the rolling stock along the routes and the compilation of the optimal schedule for the movement of the rolling stock. The organization of the movement of urban passenger transport can be carried out only with the most complete coordination of the work of all types of transport and transport companies. The level of organization of the transport process is characterized by such factors as: the number of rolling stock on the line, traffic intervals, filling, traffic regularity, level of information equipment, traffic safety, etc. [24];

The operating costs of the rolling stock depend on the type of vehicles used. As you know, the operating costs of rolling stock increase in proportion to the increase in its capacity. Thus, the rolling stock in terms of capacity should correspond as much as possible to the capacity and nature of the passenger traffic. The total number and type of rolling stock on each traffic route affects such parameters as: traffic interval, filling, traffic safety, etc. [25].

References

1. Гудков, В.А. Технология, организация и управление пассажирскими автомобильными перевозками: учеб. для вузов/ В.А. Гудков, Л.Б. Миротин; под ред. Л.Б. Миротина. -М.: Транспорт, 1997.
2. Гудков, В.А. Логистика: учебное пособие для студентов вузов транспортных специальностей/ В.А. Гудков, Л.Б. Миротин, С.А. Ширяев.- Волгоград, РПК Политехник, 2002.
3. Гудков В.А. Миротин Л.Б Вельможин А.В. Ширяев С.А. Пассажирские автомобильные перевозки: учебник для ВУЗов - М.:Горячая линия-Телеком, 2006.-448с.
4. Спирин И.В. Перевозки пассажиров городским транспортом: Справочное пособие. – М: ИКЦ «Академкнига», 2004. – 413 с.
5. Фомин Е.В. Методика решения задачи определения оптимальной структуры парка подвижного состава городского пассажирского транспорта общего пользования/А.И. Фадеев, Е.В. Фомин// Вестник Иркутского государственного технического университета – 2018г., №1, С. 218-227.
6. Djuraev, A., Rosulov, R., Kholmirzaev, J., Diyorov, H., & Berdimurodov, U. (2021). Development of effective construction and justification of parameters of the cleaner of fibrous material. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 304). EDP Sciences.
7. Холмирзаев, Ж. З., Кучкоров, С. К., & Эксанова, С. Ш. (2020). Ударно-Вращательная Динамическая Модель Рабочего Органа Очистителя Хлопка. *Концепции И Модели Устойчивого Инновационного Развития*, *137*.
8. Zakirjanovich, K. J., Karimjonovich, K. S., & Gulomjanovich, A. I. (2021). Periodic volatile modes in the working organ of a cotton purifier. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO*, 10763-10769.
9. Djuraev, A., Sayitqulov, S., Mavlyanov, A., Kholmirzaev, J., & Joraeva, M. (2022). Analysis of the diameter of the pins of the drum of a cotton-cleaning unit on the efficiency of cleaning raw cotton. *Современные инновации, системы и технологии*, *2*(1), 51-56.
10. Djuraev, A., Sayitqulov, S., Nurboev, R., Xolmirzaev, J., & Berdimurodov, U. (2022). Analysis of full-factorial experiments on improving the cotton gin. *Современные инновации, системы и технологии*, *2*(1), 69-75.
11. Иноятов, К. М., Холмирзаев, Ж. З., & Абдуллаев, Р. К. (2016). Повышение Качества И Долговечности Автомобильных Дорог При Помощи Оптимизации Технологических Процессов Уплотнения Асфальтобетонных Покрытий. *Science Time*, (5 (29)), 259-264.

12. Холмирзаев, Ж. З., Акбаров, И. Г., & Абдуллаев, Р. К. (2016). Йўл қурилишда фойдаланиладиган пневмоғилдиракли машиналарнинг рул бошқармаси ва олд кўпригининг кўрсаткичларни асослаш. *Міжнародний науковий журнал*, (5 (2)), 8-10.
13. Djuraev, A., Zukhritdinov, A., Rajabov, O., & Kholmirzaev, J. (2022, February). Development of design and substantiation of parameters of fiber material cleaner with a drum with combined pegs. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 981, No. 2, p. 022042). IOP Publishing.

JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Sarvar Saidov Faxriddin o‘g‘li
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Yurisprudensiya fakulteti
III bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola jamiyatda huquqiy madaniyatning tarkib topganligi va uni yuksaltirish haqidagi mulohazalarga bag‘ishlanadi. Maqolada jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish manfaatli sanalgan takliflar o‘rin oladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019 yildagi PF-5618-son Farmoni mazmuniga nazar tashlanadi.

Kalit so‘z va iboralar: huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, shaxs, oila, mahalla, ta’lim muassasasi, tashkilot, jamiyat, huquqiy ong.

Abstract. This article is devoted to considerations about the formation of legal culture in society and its improvement. The article includes proposals considered to be beneficial for improving legal culture in the society and looks at the content of Decree No. PF-5618 dated 09.01.2019 of the President of the Republic of Uzbekistan.

Key words and phrases: legal culture, legal literacy, individual, family, neighborhood, educational institution, organization, society, legal consciousness.

Аннотация. Данная статья посвящена размышлениям о формировании правовой культуры в обществе и ее совершенствовании. В статье рассмотрены предложения, которые считаются полезными для повышения правовой культуры в обществе, и рассмотрено содержание Указа Президента Республики Узбекистан от 09.01.2019 № ПФ-5618.

Ключевые слова и фразы: правовая культура, правовая грамотность, личность, семья, микрорайон, образовательное учреждение, организация, общество, правосознание.

Aholining barcha qatlamlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ularning huquqiy ongini va huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biridir. “Shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili asosida tizimli va o‘zaro bog‘liq holda harakatlanish esa huquqiy madaniyat va huquqiy ongning jamiyatda yanada yuksalishida asosiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat - jamiyatning huquqqa nisbatan umumiy bilim darajasi va xolis munosabati; hayot jarayonida yaratilgan me’yorlar, e’tiqod va munosabatlar shaklidagi huquqiy bilimlar majmui demakdir. U o‘zaro ta’sir sub’yektlarining ishida, muloqotida va xatti-harakatlarida o‘zini namoyon bo‘ladi. Madaniy-huquqiy ta’lim va tarbiya tizimi ta;sirida ham shakllanishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Huquqiy madaniyat o‘z-o‘zidan jamiyat orasida rivoj topmaydi, uning o‘z tashuvchisi mavjud bo‘ladi. Xuddi shu tashuvchisiga qarab, huquqiy madaniyatning uch turi ajratib ko‘rsatiladi:

* jamiyatning huquqiy madaniyati;
* shaxsning huquqiy madaniyati;
* guruhning huquqiy madaniyati.

Dunyoning yetuk olimlari Yu.N.Dmitrienko va I.V.Dmitrienkoning rasmiy tadqiqotlar va nashrlari hamda sinovdan o‘tgan g‘oyalariga ko‘ra, huquqiy madaniyat turlari «huquqiy ongning ijtimoiy faoliyati sikllari»ning muhim va ustuvor manbalariga egadir.

Huquqiy madaniyatning turlari sifatida sanalgandagi turlarning qatorida jamiyatning huquqiy madaniyati o‘rin olib turibdi. Bundan ko‘rinadiki, jamiyatda huquqiy madaniyatning tarkib topganligi shaxs va guruhlarning huquqiy madaniyati shakllanishida ta’sirini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda jamiyatning huquqiy madaniyati iborasiga aniqlik kiritib o‘tish joiz bo‘ladi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati — bu umumiy madaniyatning bir qismi hisoblanib, u insoniyat tomonidan huquq sohasida to‘plangan va ushbu jamiyatning huquqiy voqeligi bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar tizimlarining *(huquqiy ong darajasi, huquq rejimi va qonunlar, tartib, qonunchilik holati, huquqiy amaliyot holati va boshqalar)* yuqori darajasi huquqiy taraqqiyot ko‘rsatkichidir. Jamiyat madaniyati shaxslar, guruhlar va boshqa huquq sub’yektlarining ijtimoiy-huquqiy faoliyati natijasi ham hisoblanadi. Bu faoliyat turining va umuman, shaxsning huquqiy madaniyatining boshlang‘ich nuqtasi, asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilm-fan nuqtai nazaridan huquqiy madaniyat alohida narsa deb qaralmasligi lozim. Chunki u yaxlit madaniyatning bir bo‘lagidir. Ikkinchisi bilan esa uzviy

bog‘liqlikni saqlab qoladi. Shu boisdan ham u yoki bu darajada butun jamiyat uchun ham, alohida shaxslar uchun ham xos deyiladi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko’rsatadi.

Ayni yuqoridagilarni inobatga olib, bugungi kunda mamlakat bo‘ylab jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ustuvor vazifalar qatoriga chiqdi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini** aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko’rsatayotgani ham e’tibordan chetda qoldirilmadi. Buning yaqqol isbotini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019 yildagi PF-5618-son Farmoni timsolida ko‘rish mumkin.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida hamda ayrim fakt va mulohazalar tufayli bu Farmon

bugun jamiyat hayotida yashayapti, targ‘ib qilinyapti. Nafaqat targ‘ib etilibgina qolmay, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi va unda belgilangan vazifalarning ijobiy natijalariga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda davlat organlarining o‘rni beqiyosdir. Ammo bunda natijani ularning harakatidangina kutib qolmay, aholining o‘zi ham shiddat bilan harakat qilishi, joriy etilgan qonun-qoidalarni inkor etadigan xatti-harakatlarni amalga oshirmasligi zarur.

Tavsiya etiladigan internet resurslari

1. https://lex.uz
2. https://ru.wikipedia

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ ПИТАЮЩЕГО ЦИЛИНДРА ПНЕВМОМЕХАНИЧЕСКИХ ПРЯДИЛЬНЫХ МАШИН

Ураков Нуриддин Абраматович

Тоштемиров Салохиддин Тудимурод ўғли

Аннотация. Мақолада йигириш машиналарида толаларни дискретлаш ҳолати таҳлил қилинган. Таъминлаш цилиндрининг янги канструкцияси ва ишлаш принципи келтирилган.

Аннотация. В статье приводится анализ состояния дискретизации волокон в прядильных машинах. Дается новая схема конструкции питающего цилиндра, принцип его работы.

Abstract. The article analyzes he condition of discretion of collecting machines. It presents new principle of construction and working of providing cylinder.

Сущность процесса дискретизации заключается в разъединении ленты на отдельные не контактирующие друг с другом волокна, в относительном смешении и в распределении их на очень большой длине.

В процессе дискретизации происходит экстра высокое утонение, т.е. лента утоняется в 3000-7500 раз, и в сечении дискретного потока при идеальном разъединении находятся 2-6 не контактирующих друг с другом волокон. В этом отличие дискретизации от вытягивания. [1].

В прядильном устройстве в основные фазы входят подача, дискретизация, транспортировка, съем и транспортировка воздухом. При подаче ленты находящейся тазу она поступает с постоянной скоростью, при этом не возникает большой осевой силы и не наблюдается деформации ленты, поэтому не происходит перераспределения волокон в ленте по длине.

Во время подачи сечение ленты изменяется на плоское прямоугольное, удобное для дискретизации. Лента проходит через уплотнительную воронку, которая направляет ее приблизительно к центру ширины питающего цилиндра, уплотнительная воронка оказывает влияние прежде всег окак орган, дающий определенное направление ленте и ограничивающий ее ширину. На машине БД-200 сечение уплотнительной воронки подобрано так, что ширина ленты на выходе не превышает 9 мм, и толщина 2 мм. Изменение сечения ленты достигается за счет повышения плотности волокон в сечении. Плотность волокон увеличивается, так как при постепенном уменьшении сечения для прохода волокон в ленте под влиянием упругих поперечных деформаций возникают напряжения. Уплотнительная воронка не изменяет неравномерность расположения волокон, в сечении ленты. Напряжения в ленте вызывают силы трения на стенках уплотнительной воронки, которые предотвращают перемещение крайних слоев волокон. Эти силы трения действуют по периметру сечения уплотнительной воронки неравномерно. Чтобы предотвратить скрытую вытяжку, необходимо выходное сечение уплотнительной воронки приблизить к области сжатия питающего устройства. Лента сжимается между питающим цилиндром и столиком. При этом плотность волокон в сечении увеличивается и одновременно увеличивается ширина ленты до ширины прорези в столике

Известна конструкция, в которой питающий цилиндр выполнен рифленым с прямыми рифлями (параллельными оси цилиндра), при работе данного цилиндра условием надежной работы подачи, без нарушения равномерности ленты, является преодоление сопротивления сил трения между лентой и столиком и создание необходимого перемещения с помощью питающего цилиндра. При этом из-за усилия зажима ленты к столику изменяется сила трения, также происходить некоторое скольжение ленты. Это скольжение зависит от расстояния между рифлями питающего цилиндра [2].

Недостатком данной конструкции рифленого питающего цилиндра является неравномерное распределение силы трения по длине цилиндра, что приводит некоторому отставанию перемещения волокон ленты, по краям цилиндра. За жесткого взаимодействия питающего цилиндра с волокнами происходит их повреждение.

В известной конструкции питающий цилиндр прядильного устройства, рабочая поверхность которого выполнена в виде криволинейных по винтовой линии шлиц в форме выступов и впадины, причем на поверхности выступов имеются рифли. При этом предложены несколько вариантов исполнения

питающих цилиндров прядильного устройства с криволинейными рифлеными полосками на поверхности [3].

Недостаткам данной конструкции является в процессе работы сдвиг волокон только в одну сторону за счет винтового расположения рифленых выступов (шлиц). При этом наибольшая нагрузка приходится только на половину длины цилиндра, а другая половина цилиндра остается не догруженной. Это может привести к значительному повреждению волокон в подаваемой к зоне дискретизации ленте. Задачей разработчиков являлось обеспечение равномерности подачи ленты по длине питающего цилиндра и снижение поврежденности волокон в ленте. Поставленная задача решается совершенствованием конструкции питающего цилиндра прядильного устройства, обеспечением некоторых перемещений волокон ленты в направлении от краев цилиндра к его середине. Сущность конструкции заключается в том, что питающий цилиндр прядильного устройства, имеет на наружной поверхности шлицы в виде выступов и впадин, выполненных параллельно к оси цилиндра, наружные поверхности выступов выполнены рифлеными (Рис.1).



Рис.1. Питающий цилиндр прядильного устройства

Процесс питания ленты в зону дискретизации осуществляется следующим образом. Волокнистая масса (хлопковое волокно) в виде ленты поступает через уплотнительную воронку и зону подачи между столиком (на рис. не показана) и питающим цилиндром 1 с рифлеными выступами 2 и впадинами 3 на поверхности. При этом лента (волокнистая масса) сжимается между рифлеными выступами 2 цилиндра 1 и столиком. Здесь давление на ленту со стороны рифленых выступов 2 цилиндра 1 распределяется более равномерно по его длине за счет сдвига волокон находящихся по краям ленты к ее середине вогнутыми криволинейными ребрами 4 выступов 2 цилиндра 1. При этом с учетом неравномерности распределения волокон ленты по её ширине разница между минимальной и максимальной значениями ширины выступов 2 цилиндра 1 выбрана:

$$a_{max} - a_{min} = 0{,}15 \div 0{,}35 \text{ мм}$$

где, a_{max}, a_{min}– соответственно максимальное и минимальное значения ширины выступов 2. Таким образом, обеспечивается равномерность плотности волокон по ширине ленты, тем самым и равномерность подачи ленты, а также снижение поврежденности волокон.

При этом уменьшается плотность волокон в крайних положениях перемещающейся ленты. Таким образом, обеспечивается равномерность плотности волокон по ширине ленты, тем самым и равномерность подачи ленты, а также снижение поврежденности волокон.

Вывод. На основе анализа конструкции элементов зоны дискретизации разработана новая конструкция питающего цилиндра устройства прядильной машины.

Литература

1. А.Дж.Джураев, О.А.Мирзаев, Н.А.Ураков, Р.И.Умаров. Питающий цилиндр прядильного устройства // Патент. Рес. Узб. № IAP 05854. Бюлл., № 6. -2019.

2. А.Дж.Джураев, Т.Б.Мурадов, С.Л.Матисмоилов, О.А.Мирзаев, Н.А.Ураков. Дискретизирующий барабанчик для пневмомеханических прядильных машин // Патент. Рес. Узб. № IAP 06301. Бюлл., № 10. -2020.

3. Н.А.Ураков, А.Дж.Джураев, О.А.Мирзаев. Оптимизация заправочных параметров зоны дискретизации пневмомеханических прядильных машин // Вестник ТАШГТУ. Ташкент, 2019. №2. С.140-145.

4. A.J.Juraev, N.A.Urakov. Development of designs and justification of the parameters of a scretting drum with a damper of a spinning machine // Indiya. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) vol. 10, issue 5, may. 2022. p. 1093-1101.

АМАЛИЙ КЎНИКМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Алкарова Ф.Н.

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. В данной статье описаны способы и методы активизации практических навыков учащихся. Описаны меры применяемые в этом направлении. Показана роль наставника в продвижении практических навыков учеников.

Ключевые слова: практическая деятельность, активизация, знания, навыки, учебные ситуации, педагогические процессы.

Annotation. This article describes ways and methods to enhance the practical skills of students. Measures applied in this direction are described. The role of a mentor in promoting the practical skills of students is shown.

Key words: practical activity, activation, knowledge, skills, learning situations, pedagogical processes.

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish yo'llari va usullari tasvirlangan. Ushbu yo'nalishda qo'llaniladigan chora-tadbirlar tavsiflangan. Talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirishda murabbiyning o'rni ko'rsatilgan.

Kalit so’zlar: amaliy faoliyat, faollik, bilim, malaka, o`quv vaziyatlari, pedagogik jarayonlar.

Ҳар қандай амалий-ижодий фаолиятни эгаллаш уни ташкил этадиган ҳаракатлар ва операцияларни бажаришдан бошланади. Натижада ўқувчилар муайян фаолиятни ўзлаштириш ва улар устида ижодий фикрлаш усулларини эгаллайдилар. Бундай усуллар ёрдамида ўқувчилар ўз олдиларига қўйилган мақсадга эришиш имкониятларига эга бўладилар. Инсоннинг амалий фаолияти ижодкорлик, яратувчилик характерига эга. Ўқувчилар амалий меҳнат кўникмаларини эгаллаш орқали жамиятдаги ўз ўринларини аниқ тасаввур қила бошлайдилар. Бунинг натижасида улар фаол ижтимоий фаолиятга киришадилар. Ўқувчилар янги билимларни ўзлаштириш натижасида амалий фаолиятларини режалаштириш учун ақлий ҳаракатларни амалга оширадилар.

Бугунги кунда яратилаётган педагогик-психологик назарияларда ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштиришга дидактик жараённинг негизи сифатида ёндашилмоқда. Бу жараён ўқувчиларнинг муайян ўқув муаммоларини англаш ва ечишга йўналтирилган ҳаракатларини ташкил этиш, бунда инновацион усуллар ва методларни қўллаш талаб қилинмоқда. Ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштириш тушунчаси остида ўқувчи ҳамда ўқитувчиларнинг ўзаро уйғунлашган изчил ҳаракатлари тушунилади. Ушбу ҳаракатлар натижасида педагогик шарт-шароитларни вужудга келтириш имконияти таъминланади. Шунга кўра мазкур педагогик шарт-шароитлар ёрдамида ўқув топшириқларини бажариш ва бу жараёнга мақсадга мувофиқ тарзда раҳбарлик қилиш имконияти вужудга келади.

Ўқувчиларнинг шахсий қувватларини ривожлантириш узлуксиз таълим жараёнининг барча босқичларида амалга оширилади. Бунда технология дарслари алоҳида аҳамиятга эга. Чунки технология дарсларида ўқувчилар амалий фаолиятнинг кўплаб турлари ҳақида аниқ маълумотга эга бўладилар.

Жумладан, уй-рўзғор юритиш, дизайнерлик, тикувчилик фаолияти каби. Бундай фаолият натижасида ўқувчиларда шахсий ривожланиш ва касбий тасаввурлар вужудга келади. Бунинг учун янги мавзуга оид билимларнинг функционал жиҳатларини ривожлантириш билан бир қаторда ўқувчиларнинг фикрлаш ва коммуникатив фаолиятини ривожлантириш назарда тутилади. Чунки ўқувчиларнинг фикрлаш ва коммуникатив фаолиятини ривожлантириш орқали уларни ижтимоий фаолиятга тайёрлаш жараёни жадал кечади. Нутқ меҳнат ва амалий фаолиятда ўзаро мулоқот ва шахслараро муносабат ўрнатиш воситаси ҳисобланади. Ўқувчилар мулоқот жараёнида ижтимоий муносабатларга киришиш, фикрлаш кўникмаларини ҳам фаол ўзлаштирадилар.

Технология дарслари ўқувчиларда амалий меҳнат ва ижодкорлик кўникмаларининг фаоллашувига самарали таъсир кўрсатиб, уларда мустақиллик, ижодкорлик, шахсий масъулиятлиликни шакллантириш имконини беради. Шу билан бир қаторда, технология таълими жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш учун катта имкониятлар мавжуд.

Ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштириш ва саломатликларини муҳофаза қилиш технология фани ўқитувчисининг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади. Ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштириш уларнинг ақлий мустақиллик кўрсатишларига имконият яратади. Шу билан бир қаторда, эгалланган янги билимларнинг амалий кўникмаларга айланишига кўмаклашади. Натижада ўқувчилар эгаллаган янги билимларини амалий фаолият орқали ностандарт ва нотаниш вазиятларда қўллаш усулларини ўзлаштирадилар.

Ўқувчиларнинг амалий фаолият кўрсатиш жараёнидаги мустақилликлари фикрий фаолият операцияларини ўзлаштириш натижасида ҳосил бўлади. Бу эса уларнинг ўқув-билув фаолиятлари самарадорлигини таъминлашга кўмаклашади. Шунингдек, янги билимларни муваффақиятли ўзлаштириш имконини беради. Натижада уларнинг билиш қизиқишлари ортади, ақлий-ижодий меҳнат кўникмалари ривожланади.

Билиш фаоллигига эга бўлмаган ўқувчилар амалий фаолиятга қийинчилик билан киришадилар. Бунинг учун ўқитувчи томонидан мунтазам тарзда муайян даражадаги педагогик ёрдам кўрсатилади. Қулай педагогик-психологик муҳит яратилади, уларнинг нотўғри жавоб бериш, хатолар қилишдан қўрқмасликлари кераклиги таъкидланади. Амалий кўникмаларга эга бўлган ўқувчилар ўқув материалларига нисбатан алоҳида қизиқишининг мавжудлиги, дарс шаклларига алоҳида эътибор қаратишлари билан ажралиб

турадилар. Уларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштириш бир қадар осон кечади. Амалий кўникмалар ва назарий билимларни фаол қўллаш имкониятига эга бўлган ўқувчиларга таълим-тарбия беришда муаммоли топшириқлардан фойдаланиш, ролли ўйинлар орқали уларнинг фаолликларини муайян мақсадга йўналтириш мумкин. Ўқувчиларда амалий кўникмаларни фаоллаштириш жараёнида фаолликнинг юқори даражада намоён бўлиши ижодий фаоллик сифатида эътироф этилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Иванова С.П. Современное образование и психологическая культура педагога. - Псков: Псков, гос. пед. ин-т им. С.М.Кирова, 1999. - 564 с.
2. Йўлдошев Ж.Ғ. “Педагогик технология асослари (халқ таълими ходимлари учун)” Тошкент.,-Ўқитувчи 2004 й.
3. Сафарова Р., Юсупова Ф. ва б.қ. Ўқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантириш жараёнини ташкил этиш тамойиллари ва параметрлари. - Т.: Фан ва технология нашриёти, 2013. – 142 б.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

Nargiza Kaxramonovna Qaytarova
Toshkent shahar Sergeli tumanidagi
6-DIUO‘T maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini rivojlantirish haqidagi manbalarni o‘rganish natijasida yuzaga kelgan fikr-mulohazalarni qamrab oladi. Maqoladan pedagogika sohasi vakillari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda shu mavzu yuzasidan izlanuvchi barcha tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: O ‘z-o ‘zini rivojlantirish, shaxsning shaxsiy harakati, shaxsning mohiyati, axloqiy fazilatlar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘z-o‘zini tarbiyalash.

Abstract. This article covers the opinions that arose as a result of the study of sources about the development of self-development competence in elementary grades. The article can be used by representatives of the field of pedagogy, primary school teachers and all researchers looking for this topic.

Key words: Self-development, personal action of a person, the essence of a person, moral qualities, primary school students, primary school teacher, self-education.

Аннотация. В данной статье освещаются мнения, возникшие в результате изучения источников о развитии компетенции саморазвития в младших классах. Статья может быть использована представителями области педагогики, учителями начальных классов и всеми исследователями, ищущими данную тему.

Ключевые слова: Саморазвитие, личностное действие человека, сущность человека, нравственные качества, учащиеся начальных классов, учитель начальных классов, самовоспитание.

O‘z-o‘zini rivojlantirish istagi har bir shaxsning hayotidagi muhim sifat sanaladi. O‘z-o‘zini rivojlantirish — bu shaxsning mohiyatiga kiritilgan tabiiy inson ehtiyoji deyilishi ham mumkin. Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy fazilatlarini yangilash va rivojlantirish bo‘yicha maqsadli, tizimli ishlarni olib borish nafaqat boshlang‘ich sinfda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning, balki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ham o‘z-o‘zini rivojlantirishiga katta ko‘mak beradi.

Boshlang‘ich ta’lim haqida so‘z borganda, avvalo, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini unutmaslik lozim. Asosiy jihatlaridan yana biri bunda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi, ya’ni boshlang‘ich ta’limda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zimmasiga yosh o‘quvchining qobiliyatlarini ochish, yuzaga chiqarish yuklanadi. Shunday ekan bu jarayonda o‘qituvchi o‘zi namuna bo‘lad. Boshlang’ich sinf o‘quvchisining shaxsiyati shakllanishida o‘qituvchi bevosita ta’sirini o‘tkazadi. Ya’ni, uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlaydigan, o‘zini yaxshilaydigan o‘qituvchi o‘quvchisining takomillashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish — bu tashqi muhit va olamning ta’sirlari emas. Balki shaxsning shaxsiy harakatlarining natijasi bo‘lgan faol, izchil va ijobiy o‘zgarish jarayoni ekanini hisobga olinar ekan, bunda boshlang‘ich sinflarda O‘z-o‘zini rivojlantirishga erishish uchun o‘quvchilarning inson tabiatiga xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini yoki uning rivojlanishining oldingi bosqichlarini o‘zgartirishga harakat qilinishi lozim.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning tarkibiy elementlari bo‘lgan: o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z taqdirini o‘zi belgilashni inobatga olib, boshlang‘ich sinflarda bu elementlarni yanada yuksaltirishga diqqat qaratish o‘rinli bo‘lad. Chunki har bir bola, o‘quvchi o‘zicha bir olam va o‘zida sanalgan elementlardan qay birigadir ega deb biladi yoki bu elementlarning birortasini o‘zida mavjudligini bilmasa, his qilmasa, ularga mas’ul o‘qituvchi tomonidan anglatish va shu elementlarni rivojlantirish juda muhimdir.

O‘qituvchi o‘quvchi shaxsini hurmat qilgan holda, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga erishish uchun avvalo, o‘z-o‘zini rivojlantirish tushunchasi insoniy ma’noga ega ekanligini inobatga olishi lozim. Shundagina o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga ta’ri qilish, o‘zida eng yaxshi fazilatlarga tayanish, shu eng yaxshi fazilatlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, doimiy intilish va o‘z istagan cho‘qqiga intilish sari chorlashida maqsadga erishishi mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy akmeologiya fani ham nafaqat o‘qituvchining, balki o‘quvchi-yoshlarning ham o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish masalalariga e’tibor beradi. Bunda o‘qtuvchilarga o‘quvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirishga yaxshiroq yondashishni, ko‘proq e’tibor qaratishni hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoning muhim tarkibiy qismi bu o‘z-o‘zini tarbiyalash ekanini unutmaslikni uqtiradi. Ya’ni bu jarayonda o‘z-o‘zini tarbiyalash — bu shaxsning o‘zini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi takomillashtirishning asosiy usullaridan biri ekanligi, u o‘z-o‘zidan eng yaxshi, eng yuqori tomon harakatida qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishini o‘quvchilarga yosh xususiyatlariga munosib ravishda tushuntirish ishlarini olib borish yanada manfaatli bo‘ladi. Masalan, bilimli bo‘lish — bu boshqalarni, o‘zini va hayotning ma’nosini tushunish va qabul qilish ekanligidan darak berish ham foydali natijani ko’rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘z-o‘zini rivojlantirishda o‘quvchilarning shaxsiy salohiyatidagi sifat o‘zgarishlarini ham ko‘zdan qochirmaslik kerak. Chunki bunga bog‘liq holatlar mavjud. Ya’ni o‘quvchilarning yoshi o‘sgani sayin ong va o‘z-o‘zini anglashning kengayib borishi, haqiqiy o‘zini, o‘zida muhim bo‘lgan narsani yuzaga chiqarish, kashf etish singarilarni nazardan chetda qoldirish o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirishning yuqori samarali ko‘rsatkichiga erishishda pand berib qolishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini rivoj toptrishda e’tibor berish lozim bo‘lgan jihatlaridan yana biri — o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishni uyg‘otish yoki mavjud bo‘lganlarida yanada takomillashtirishdir. Xulosa qilish mumkinki, bunday jihatlarga ahamiyat berish o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ishtiyoqni yanada kuchaytiradi va ijobiy samara beradi. Samarani o‘quvchilarning amalga oshiradigan xatti-harakatlari ko‘rsatadi.

Tavsiya etiladigan internet resurslari:

1. https://cyberleninka.ru
2. https://infourok.ru

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OLMOSH SO‘Z TURKUMINING O‘RGANILISHIDA E’TBOR BERILISHI LOZIM BO‘LGAN ELEMENTLAR

Zulayho Hakimova
Nizomiy nomidagi TDPU magistri

Bugungi kunda zamonaviy shart-sharoitlarga ega jamiyatda har tomonlama kamol topgan shaxsni yetishtirish vazifasi ta’lim sohasi vakillarining ham zimmasida turgan mas’uliyatli vazifalardan sanaladi. Shu boisdan ham inson tafakkurining yuqori darajaga ko‘tarilishida asosiy vosita rolini uzluksiz ta’lim sohasida ona tili fani oldi o‘rinda joy oluvchi fanlardan hisoblanadi. Xuddi shundan kelib chiqqan holda, umumta’lim maktablarining «Ona tili» darslarida, «Olmosh so‘z turkumi»ni izchil o‘rganish, ayniqsa, boshlang‘ich sinfdayoq bu boradagi bilim berish ishlariga ko‘proq e’tibor qaratish juda katta ta’limiy ahamiyatga egadir deyish mumkin. Chunki ushbu mavzuning chuqur o‘rganilishi bilan o‘quvchilar tilning yaxlit tizimdagi «ichi g‘ovak» so‘zlarning mohiyati va mustaqil so‘z turkumlari orasida tutgan o‘rni hamda ularni o‘z o‘rnida qo‘llash natijasida og‘zaki va yozma nutqda noo‘rin takrorlanishlarni qo‘llash orqali nutqiy g‘alizlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha zaruriy ko‘nikmalarni yanada boyitadilar.

Fan tarixidan ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda olmosh so‘z turmuki 1-sinf yoki 2-sinflardanoq o‘qitilmaydi, o‘rganilmaydi. Boshlang‘ich ta’limning yuqori qismiga yetib borgach, bu so‘z turkumi o‘rganilishni boshlaydi. Ana shu jarayonga yetib kelganda, o‘quvchilarga olmosh so‘z turkumining o‘rganilish tarixidan, olmoshning ot, sifat, son, fe’l, sifat, ya’ni o‘quvchilarga tanish so‘z turkumlari bilan almashtirish mumkin ekanligidan ham ma’lumot berib o‘tish o‘quvchilarda yuqori sinfda olmosh so‘z turkumini chuqurroq o‘rganishga yetganlarida mustahkam poydevorni qo‘yilishiga asos bo‘ladi. Bu bilan o‘quvchilar yuqori sinfda mazkur so‘z turkumiga yanada chuqur kirishda qiyinchilikka duch kelmaydilar.

4-sinfda o‘quvchilarga ona tili darslarida olmosh so‘z turkumi haqida ma’lumot berilar ekan, uning aynan «Kishilik olmoshlari» turi to‘g‘risidagina bilim beriladi. Kishilik olmoshlarini o‘rgatishda sodda va xotirada mustahkam saqlanib qoladigan qilib tushuntirishda jadvaldan foydalanish ham yanada maqsadli bo‘ladi. Ya’ni bunda o‘quvchilarga kishilik olmoshining shakllari bilan tanishishlarida yaqqollikni jadval tizimida gavdalantirishga erishish mumkin. Bu bilan «ko‘z xotira»da olmoshning shakllari haqidagi bilimlar saqlanib qolishiga ham muvaffaq bo‘linadi.

Xulosa qilib aytish joizki, olmosh so‘z turkumi mustaqil so‘z turkumlari orasida o‘ziga xos ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega va bu uning deyarli

barcha turkum so‘zlar o‘rnida qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfdayoq o‘quvchilarga bundan ma’lumot berish, bilimini boyitish hamda boshlang‘ich ta’limda olmosh so‘z turkumini o‘rganishning ahamiyati o‘quvchilar nutqini o‘sishida, o‘rinsiz takrorlanishlardan holi bo‘lishida o‘z ifodasini topadi.

Tavsiya etiladigan internet resurslari

1. https://journals.uz/
2. https://cyberleninka.ru/

MANZARALI DARAXT VA BUTALARNING CHANG USHLAB QOLISH XUSUSIYATI

Sarabayeva Iroda Shokir qizi
ToshDAU, magistranti

A.K. Qayimo
ToshDAU, professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada manzarali daraxt va butalarning chang ushlab qolish xususiyati bo‘yicha ma’lumotlar. berilgan.

Kalit so‘zlari: manzarali, yetishtirish texnologiyasi, o‘rmon, daraxtl, aholi,chang, buta.

Annotation. This article provides information on the dust retention properties of ornamental trees and shrubs.

Key words: scenic, cultivation technology, forest, tree, population, dust, bush.

Аннотация. В данной статье представлена информация о пылеудерживающих свойствах декоративных деревьев и кустарников.

Ключевые слова: живописность, технология возделывания, лес, дерево, популяция, пыль, кустарник.

Bugungi kunda tabiatni asrab avaylash, uning boyliklarinni kelajak avlodga bekamu ko‘st yetkazish dunyo hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda atrof-muhitga ko‘rsatilayotgan qo‘pol va shafqatsiz ta’sirlar, shu jumladan , hayvonot va nabodot olami ne’matlaridan ko‘r-ko‘rona foydalanilishi oqibatida keskin ekologik vaziyatlar,iqlim o‘zgarishlari vujudga kelmoqda, biologik xilma xillikka putur yetkazilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda tabiiy o'rmonlarning, sun'iy daraxtzorlarning sanitar-gigienik xususiyatlari keng yoritilgan. Ularning havoni, suvni sog‘lomlashtirishi, har xil zararli qo‘shimchalardan tozlash va tarkibini kislorod, fitonsid, ion moddalari bilan boyitish haqida ko'pgina ma’lumotlar berilgan. Sanoat korxonalari atrofida ixota- sanitar daraxtzorlar barpo etish, ularning xar xil hududlarda kurort

ahamiyati to‘grisida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Qayerda o'rmon maydonlari ko‘p bulsa, u yerlar axolining sog‘ligi to‘g‘risida kursatkich yuqori bo‘lgan. Hozirgi vaqtlarda qishloq landshaftining tozaligi haqidagi fikr xam xaqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Bu joylarning muxiti shaxarga nisbatan tozaroq degan fikr bor edi. Ammo qishloq xo‘jaligidagi ilmiy texnik rivojlanish. industriyalash, kimyolash bu joylarda ekologik muammoni vujudga keltirdi.

Atrof muxitning ifloslanishiga yana bir sabab qilib, 2021 yil 4 noyabr kuni O‘zbekiston hududiga Ural hududlaridan sovuq havo, kuchli shamollar tufayli mavsumga hos bo‘lmagan chang –qumli bo‘ron hodisasini misol keltirish mumkun.

“O‘zgidromet”ning Toshkent shaxrida havo sifatini ifloslantiruvchi moddalar tahlilini yurituvchi avtomatik stasionar kuzatuv postalrida chang miqdori keskin ko‘tarila boshlangan. Avvaliga chang miqdori ruhsat etilgan me’yoridan 5 barobarga, keyinroq esa 30 barobargacha ko‘tarilgani qayd etilgan. Qum va changli shamol tufayli havoning ifloslanishi darajasi bo‘yicha onlayn reytingda O‘zbekiston birinchi o‘ringa chiqdi . Bu ko‘rsatkich bilan Hindiston va Xitoyni ham ortda qoldirdi. Shamolning ta’sirida tuproqning yuqori qurigan ustki qatlami ko‘tarilib, respublikaning bir qator hududlarida ko‘rishning 100-200 metrgacha yomonlashishi bilan changli qumli tuman ta’sirini yuzaga keltirdi. Atmosfera havosida changning miqdori keskin o‘sdi. “O‘zgidromet” tomonidan olib borilayotgan kuzatishlar davomiyligida(150 yil) bunday holat ilgari kuzatilmagan. Shu boisdan ham chang ushlab qolishi yuqori bo‘lgan daraxtlarni aholi yashash joylari, maktab, bog‘, istirohat bog‘lariga ekishni tavsiya qilish zarur.

Qishloq joylarda kuchli ifloslantiruvchi manba avtomobil yo‘llari xisoblanadi. Yo‘ldan 50 metr masofada bo'lgan hamma o‘simliklar zararlanadi, ayniqsa 25 metrgacha bo'lganlari kuchli zararlanadi.

Yo‘l bo‘ylarida ekilgan bog‘larda, 50 metrgacha bo'lgan masofadagi olma tarkibida qo‘rg‘oshin normasidan 3 marta ko'p ekanligi aniqlangan. Shuning uchun qishloq xo'jaligidagi muxit xam xar qanday ifloslanishdan himoyaga muxtoj va bu muammoni yechishda ixotazorlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Bir yil davomida bir gektar o'rmon 2 tonna uglerodni o'zlashtiradi va 18 mld m^3 havoni kislorod bilan boyitadi.

R.V. Bobrovning aytishicha terak daraxtzorlari eng ko'p (55 t/ga) kislorod ishlab chiqaradi. Bir gektar qarag'ayzor 10,3 tonna, eman 6,2 tonna kislorod ishlab chiqaradi.

Ixota o'rmonzorlar muxitida mikroiqlimning o'zgarishi inson xayoti va faoliyatida katta o'rin tutadi. A. M. Izdebskiyning izlanishlariga qaraganda

odamlarning daraxtzorlarda bo'lgan paytlarida yurak urishi o'rtacha minutiga 6 taga, eng ko'pi 18 ta urishga kamayadi.

Ixotazorlar o'rmonagrar landshaftida mikroiqlimni yaxshilaydi, havoni kislorod bilan boyitadi sog'lom muhit hosil qiladi.

Ixotazorlarning changlarni ushlab qolish qobiliyati. Daraxtzorlar mikroiqlimni yaxshilash bilan, havo tarkibidagi chang

miqdorini kamaytiradi. Bu holat daraxtzorlarning o'zida ham va unga yondoshgan dalalarga taaluqli bo'lib, atmosferadagi zararli chiqindilarni tarkibini kamayishiga olib keladi.

Chang zarrachalari daraxtlarning tanasida, novdalarida, shoxlarida, barglarida o'rnashib qoladi. Bir m^3 barg ustida 1,5 -10,0 gr chang o'tiradi. Eng ko'p chang (140 g/m^2) yaprog'i g'adir-budir bo'lgan, yopishqoq moddaga ega bo'lgan bargli daraxtlarda bo'ladi. O'zbekiston sharoitida ixotazorlarning samarali ta'siri bahor va yoz oylarida namoyon bo'ladi. Bu paytlarda daraxtzorlarda ochiq joylarga nisbatan 53% ga oz. Qish faslida barglar to'kilganda bu ko'rsatkich 27 % ni tashkil qiladi.

Belorussiyada o'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki o'rmonzorlar 70%-80% gacha aerozol va changlarni ushlab qoladi. Bir gektar qarag'ayzor 35 tonna, emanzor 54 tonna, terakzor 44-53 tonna changni ushlab qoladi. Aralash o'rmonzorlarning chang ushlab qolish darajasi, bir turdagi daraxtdan iborat bo'lgan o'rmonlarga nisbatan 15-17% ko'pdir. Changlarni ushlab qolish darajasi daraxtlarning shox-navdalarining rivojlanishiga va ularning barglarining miqdoriga bog'liq. Barglari qancha ko'p bo'lsa shuncha ko'p chang ushlab qolinadi.

O'zbekistonda, Mirzacho'l sharoitida eng ko'p chang ushlab qoladigan so'g'diona shumtoli, eman, zarang, qayrag'och, chinor kabi daraxtlar ekanligi aniqlandi. Shunda so'g'diona shumtoli barglar bilan 11,3 g/m^2, chinor 10,2 g/m^2, penselvaniya shumtoli 9,4 g/m^2 , eman-8,3 g/m^2, zarang 8,1 g/m^3 miqdorda changlarni ushlab qolgan. Yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, ixotazorlarning o'rta qatorlaridagi daraxtlar, chet qatorlaridagiga nisbatan 12,0-35,0% changni ham ushlab qolar ekan.

Kuz fasliga 20 yoshli, balandligi 18 m bo'lgan ixotazorlar gektariga 1619,2 kg dan 5196,8 kg gacha changni ushlab qoladi.

Ixotazorlarning changni ushlab qolish darajasi, kg/ga. (Sirdaryo viloyati, Sardoba sh/x)

Daraxt turi	Aniqlangan vaqti	Shoxlardagi barglar soni	Bir m^2 bargdagi chang miqdori	Hamma barglarni chang ushlab qolgan	Bir gektar daraxtzorning ushlab qolgan chang miqdori,kg

				miqdori, g	
Qayrag‘och	May	12043	1,06	265,2	860,8
	Iyul		3,1	629,3	2517,2
	Sentyabr		6,4	1299,2	5196,8
Aljir	May	51267	0,71	125,0	500,0
Terak	Iyul		2,4	422,0	844,8
	Sentyabr		4,6	809,0	1619,2

Ixotazorlar o'z navbatida filtr vazifasini bajarib, qishloq xo'jalik ekinlarini zararli chang va gazlardan himoyalaydi va changlanish darajasini pasaytiradi. Himoyalanganda paxta ochiq joyga nisbatan chang miqdori 2-3 marta kam ekanligi aniqlandi. Ixotazorlar 300 metr masofagacha chang miqdorini kamaytirib borishi ma'lum bo'ldi.

Ixota daraxtzorlarining zaharli gazlarga chidamliligi. Iflos havo tarkibida organik moddalardan tashqari, yana har xil zararli aralashmalar borki, ular aholi hayotining sanitar sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, xalq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Birinchi navbatda bu avtomabildan chiqayotgan zaharli gazlardir va bularni ichida miqdor va zaharli jihatdan uglerod oksid katta ahamiyatga ega. Eng ko'p zararli havoning ifloslanishi sanoat korxonalari tomonidan ro'y beradi, natijada ulardan atmosferaga serouglerod, azot qorishmasi, xlor, ftor, ammiak va boshqalar chiqarib yuboriladi va havo tarkibida kislorod muvozanati buzilib insonlarga, hayvonot, o'simlikdunyosiga katta zarar keltiradi. Ixotazor o'rmonzorlar atmosfera havosini CO dan ifloslantiruvchi manbadan 500 m masofagacha 2,5-7 marta tozalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Nexujenko N.A. Osnovы landshaftnogo proyektirovaniya i landshaftnogo arxitekturы S. Peterburg.:2004 S 88.
2. Pechenisin V.P., Agzamov A.A. Kultura ozeleneniya T.:2005 S 59-64.
3. Qayimov A.Q. //Dendrologiya” T.:2006.
4. Xessayon D.G. “Vsyo o krasivosvetuщix kustarnikax” M.: “Kladez Buks”, 2003 S 166-169
5. Xonazarov A.A. va boshqalar. O‘zbekiston xududini ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan asosiy manzarali daraxtlar va butalar. T.: 2008, 124 bet.
6. Yeroxina V.I.,Jerebsov G.P. Volftrub T.I. Ozeleneniye naselyonnыx mest M.: 1987 S 86-93
7. Абаимов В. Ф. Дендрология. – 2017.
8. Алексеева А. С., Тышкевич А. В. Инновационные методы, применяемые при вертикальном озеленении городских пространств //Новые технологии и проблемы технических наук. – 2015. – С. 73-76.

Internet saytlari

9. https://givoyles.ru
10. http://lex.uz
11. www.wikipedia.org

НАУЧНОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ «МГНОВЕННОЙ ЗАМОРОЗКИ» ПРИ ХРАНЕНИИ ЯГОДЫ

Бокижонов Мухаммадакбар Мухаммадшариф угли
TDAU magistranti

З.С.Искандаров
TDAU қ.х.ф.ф.д.(ПҳД), доцент

Annotatsiya. Maskur maqolada mevalarni saqlashda "bir zumda muzlatish" dan foydalanishning ilmiy asoslari haqida fikir yuritiladi.

Kalit so’zlar: bog', rezavorlar, xilma-xillik, harorat, havo.

Аннотация. В этой статье рассматриваются научные основы использования "мгновенной заморозки" при хранении фруктов.

Ключевые слова: сад, ягоды, сорт, температура, воздух.

Annotation. This article looks at the scientific basis for using "flash freeze" for fruit storage.

Key words: garden, berries, variety, temperature, air.

Актуальность и востребованность темы диссертации. Ягоды земляники садовой являются важнейшими источниками биологически активных веществ и обладают лечебными свойствами. Однако большинство сортов этой культуры отличается высоким содержанием свободной и слабосвязанной воды, неустойчиво к инфекционным заболеваниям и непригодно к длительному хранению в свежем виде. Перспективным и эффективным способом консервирования ягод является замораживание. Научное обоснование технологических режимов замораживания и хранения ягод предполагает знание биологических особенностей сортов.

В последние годы в почвенно-климатических условиях Узбекистана НИИ садоводства, виноградарства и виноделия им. М.Мирзаева занимаются селекцией более 10 высокоурожайных сортов земляники садовой. Однако в настоящее время отсутствует научная информация о критериях, характеризующих пригодность испытуемых сортов земляники к замораживанию и длительному хранению.Знание агробиологических и химико-технологических показателей пригодности различных сортов ягод земляники садовой к замораживанию и длительному хранению позволит

организовать целенаправленную селекцию и выращивание этой культуры в условиях промышленного производства. Такой подход обеспечит повышение рентабельности, получение высококачественных ягод и круглогодичное снабжение ими населения, а также пищевых отраслей, выпускающих продукты детского и диетического питания, кондитерские и хлебобулочные изделия, кисломолочные продукты, мороженое, напитки и т.п.

В связи с вышеизложенным, тема данной работы является актуальной и имеет социальное значение.

Таким образом, актуальность выбранной темы объясняется тем, что инвестиционная сфера в последние годы всё более становится объектом внимания научных исследований, направленных при хранения ягодных.

Технологические аспекты холодильного консервирования растительных продуктов: Анализ отечественной и зарубежной литературы показывает, что в последнее десятилетие во всем мире все более широкое распространение находит применение низких температур как метод хранения продовольственных товаров. Основным критерием оценки любого способа хранения является уровень изменения исходных свойств продуктов, а также сроки, в течение которых возможно сохранить этим методом продукцию с заданными технологическими параметрами. Консервирование плодов и ягод, сопровождаемое применением термических и механических операций, в большинстве случаев не дает возможности сохранить продукт в натуральном виде и приводит часто к необратимым изменениям некоторых пищевых и биологически активных веществ сырья. Поэтому растительные продукты следует употреблять по возможности в свежем виде, без добавлений химических консервантов и чрезмерной тепловой обработки.

По мнению многих исследователей, быстрое замораживание в определенной мере снижает пищевую "ценность, уменьшая содержание аскорбиновой кислоты и других витаминов, ухудшая вкусовые и ароматические свойства, и, тем не менее, замороженные фрукты и ягоды сохраняют биоактивные вещества, позволяют ликвидировать дефицит свежих сельскохозяйственных продуктов в межсезонье [5, 14, 17].

Для замораживания продуктов растительного происхождения применяют воздушное замораживание, криогенное и замораживание в охлаждённых жидкостях.

Воздушная флюидизация обладает многими привлекательными характеристиками, включающими высокую скорость замораживания с высоким коэффициентом теплоотдачи, хорошее качество замороженных продуктов, непрерывность; возможность полной автоматизации.

Криогенный способ известен как способ замораживания пищевых продуктов с применением жидких газов. В последние годы замораживание осуществляется погружением продукта в жидкий азот или орошением парокапельным азотом [13, 23, 25, 33, 35, 37, 36].

Жидкий азот применяют для замораживания земляники садовой, малины, бананов, абрикос, помидоров, огурцов, кукурузы, зелёного горошка, лука, грибов, готовых блюд и различных полуфабрикатов [19, 25, 34].

Во многих странах мира (европейские, США, Япония) значительная роль в холодильной отрасли отводится применению нетрадиционных хладагентов (жидкого азота, жидкого и твердого диоксида углерода), характеризующихся рядом преимуществ: экологической безопасностью, высокими скоростями замораживания, совмещением низкотемпературного воздействия с влиянием создаваемой газовой среды (с повышенным содержанием азота или CO_2). Создание отечественных технических средств для криогенного замораживания позволили разработать технологию замораживания ягод с использованием в качестве хладагента гранулированного диоксида углерода (сухого льда) [3, 31, 46].

Научное обоснование технологических режимов замораживания и хранения ягод предполагает знание биологических особенностей не только видов, но и сортов ягод [18, 27, 38].

В настоящее время оптимальной температурой в центре продукта, до которой производится замораживание, является -18°С. Кроме температуры замораживания большое значение имеют режимы хранения растительной продукции. Быстрозамороженные плоды и овощи хранят при температуре воздуха не выше -18°С, а в некоторых случаях - при -20°С и даже ниже при относительной влажности воздуха 95-98% в течение года, для замороженных ягод эти сроки ограничиваются девятью месяцами при -18°С [7, 8, 17, 18, 19, 23].

Замораживание в охлаждённых жидкостях - этот способ эффективнее . воздушного, так как связан со значительной интенсификацией теплообмена [37, 45].

Метод замораживания в некипящих жидкостях представляет интерес, поскольку достигается значительное сокращение продолжительности замораживания, что связано с более высокими значениями коэффициента теплоотдачи, который, в зависимости от способа перемешивания и теплофизических свойств охлаждающего раствора по данным [18, 19], в жидкой среде почти в 20 раз выше, чем в воздухе.

Замораживание гороха в туннельном морозильном аппарате [14, 16, 18] занимает 15-20 мин при температуре воздуха -30...-40°С, скорости воздуха 5 м/с и среднем значении а=25-30 Вт/м^2-К и две минуты - путём погружения в раствор вода-ЫаС1-спирт при -21,5 Си среднем значении а=700 Вт/м -К [14].

Другие преимущества метода - это хорошее разделение пищевых продуктов, подвергающихся замораживанию, то есть, практически, поштучное замораживание и более высокое качество конечного продукта.

В качестве некипящих сред, как правило, используются растворы солей, в основном бинарнью - это хлорид натрия, хлорид кальция, пропиленгликоль, этиловый спирт - безопасные для человека и не изменяющие свойства продуктов и их качественные характеристики. Кроме бинарных находят широкое применение тройные и более сложные растворы - вода + соль + спирт или вода + моно- и дисахариды.

Для замораживания фруктов и ягод контактным способом используются охлаждающие жидкости, например, раствор, содержащий 10-18% поваренной соли и 20-30% сахара или 50% раствор инвертного сахара. К сахарному или солевому раствору добавляют 5-10% глицерина, исходя из того, что 5% раствор снижает температуру замерзания солевого раствора примерно на 1°С. Используется также раствор, содержащий 32% глицерина, 30% этилового спирта и 38% воды [14, 16].

Погружной метод в некипящей жидкости используется для бесконтактного или контактного замораживания штучных пищевых продуктов. Для преодоления недостатков и суммирования достоинств воздушной флюидизации и иммерсионного замораживания в Болгарии была предложена и запатентована новая экономически выгодная технология на основе ICE - SLURRY (мелкокристаллические ледяные суспензии).

Метод гидрофлюидизации с использованием ice slurries может достигать скорости процесса, приближающейся к скорости криогенных сверхбыстрых способов замораживания. Например, при охлаждающей температуре ice slurry -25°С и коэффициенте теплоотдачи 1000 Вт/м-К земляника, абрикосы и сливы были заморожены от 25°С до среднеобъёмной конечной температуры - 18°С за 8-9 мин, малина и вишня за 1,5-3 мин, зелёный горошек, черника и клюква за 1 мин [14, 18]. Двухфазные ice slurries как флюидизационные агенты известны под разными торговыми именами как FLO-ICE, BINAR, ICE, slurry - ICE, Liquid - ICE - это безвредные для окружающей среды вторичные холодильные агенты. Практически существуют неограниченные . возможности для комбинирования составных частей и образования подходя-

щих многокомпонентных гидрофлюидизационных охлаждающих сред на основе однофазных жидкостей или двухфазных ice slurries.

Охлаждающие среды могут включать в себя антиоксиданты, ароматизаторы и микропитательные вещества для продления срока хранения продуктов и улучшения их пищевой ценности и органолептических свойств [141, 189].

В различных странах производство замороженных продуктов представлено высокомеханизированной специализированной индустрией, вырабатывающей до 800 наименований изделий. Спрос на быстрозамороженные плодо- во-овощные полуфабрикаты в Европе к 2004 году колебался от 12,1 кг (Италия) до 25,3 кг (Швеция, Дания, Великобритания) на душу населения [8, 10, 17]. В США до 80% плодов и овощей,, предназначенных для консервирования, перерабатывается в местах производства и хранится в виде быстрозамороженных полуфабрикатов и готовых блюд. В нашей стране производство замороженных и быстрозамороженных продуктов составляет к 2005 году 30 млн. тонн в год, и быстро возрастает по мере того, как повышаются стандарты жизни и урбанизация во всем мире [7, 8, 11, 17, 23].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Айзенберг В.Я. Длительное хранение плодов косточковых, винограда, некоторых овощей в замороженном виде и приготовление из них консервов. // Хранение и переработка картофеля, овощей, плодов и винограда. М.: Колос, 1979. - С. 306-319.
2. Александрова Н.А. Использование криогенных хладагентов для замораживания и транспортировки пищевых продуктов за рубежом. — М.: ЦНИИТЭИ-мясомолпрома, 1980.
3. Алмаши Э., Эрдели Л., Шарой Т. Быстрое замораживание пищевых продуктов. Перевод с венгерского. М.: Легкая и пищевая промышленность, 1981.-408 с.
4. Ассортимент и технология производства быстрозамороженных овощей и фруктов в СССР и за рубежом. Обзор. ЦНИИТЭИлищепрш, 1985.- 17 с.
5. Барская И.З., Лалыжанский^ И:А., Федоренко В.Т. Эффективность производства быстрозамороженной плодоовощной продукции. М.: Агро-промиздат, 1989.- 141 с.
6. Бершеда Н.А. Исследование естественных потерь замороженного шиповника при длительном хранении. // Ресурсосберегающие технологии холодильной обработки и хранения пищевых продуктов.- JI.: ЛТИХП, 1991.-С. 83-87.

“MANZARALI DARAXTLARNING ESTETK VA SANITAR-GIGIENIK HUSUSIYATLARINI BAHOLASH” BO‘YICHA ILMIY ISHI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR

SARABAYEVA IRODA SHOKIR QIZI
ToshDAU, magistranti

A.K. Qayimov
ToshDAU, professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada “manzarali daraxtlarning estetk va sanitar-gigienik hususiyatlarini baholash” bo‘yicha ilmiy ishi bo‘yicha ma’lumotlar. berilgan.

Kalit so‘zlari: manzarali, yetishtirish texnologiyasi, o‘rmon, daraxtl, aholi, estetk va sanitar-gigienik.

Annatation. This article contains information on the scientific work “assessment of aesthetic and sanitary-hygienic properties of ornamental trees”. given.

Key words: ornamental, cultivation technology, forest, tree, population, estetk and sanitary hygienic.

Аннотация. В данной статье приводятся данные по научной работе “оценка эстетических и санитарно-гигиенических свойств декоративных деревьев”. дано.

Ключевые слова: декоративность, технология выращивания, лес, дерево, население, эстетика и санитарно-гигиенические.

Dunyo aholi yashash manzillarining kengayishi zamonaviy shaharsozlik an’analariga mos ravishda ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlarini keng yo‘lga qo‘yishni taqazo etmoqda. Bu o‘rinda, manzarali va shahar sharoitlariga biologik chidamli bo‘lgan ignabargli daraxt turlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tashqi muhit omillariga chidamliligini aniqlash, manzaraviyligini baholash, turli xil sharoitlarda ko‘paytirish usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Yangi Zelandiyada, Avstraliyada uchraydigan mox (50 xil) va lishayniklar (30 xil) o‘sadi. Sandvichi orollarida o‘sadigan 705 tur o‘simlikni 93% endemikdir. Bu yerdagi o‘simlik turlarini 76% daraxt va butalardan, 24% o‘tloqlardan iborat. Orollarda birorta ham ochiq urug‘li o‘simliklar uchramaydi. Iqlim o‘zgarishi qurg‘oqchilikning avj olishi biologik xilma-xillikning muhim komponentlariga salbiy ta’sir etmoqda. Bioxilma -xillikni global baholash UNEP ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda turli omillar natijasida 30000 dan ortiq o‘simlik va xayvon turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi. Shu bois, tabiiy floraning manzarali, noyob va kamayib borayotgan turlarni

aniqlash va ularni saqlab qolish yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bir yil davomida 1 gektar o‘rmon daraxtzori 2 tonna uglerod o‘zlashtiradi va 10 mlrd m^3 hajmdagi havoni kislorod bilan boyitib beradi. 1 gektar ninabargli o‘rmon daraxtzori yiliga 35t changni ushlab qoladi. Shu sababli ham shahrlar havosini musaffo etish uchun ninabargli, yaproqbargli, uzoq yashovchi daraxtlarni shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish uchun ko‘plab ekish zarurdir. Shahar havosida 0,04% CO_2, dala havosida 0,03 CO_2 gazi mavjuddir.

Jaxonda aholi yashash xududlarini ko‘kalamzorlashtirishda manzaraviylik xususiyatlari yuqori bo‘lgan hamda ekologik omillarga chidamli bo‘lgan ignabarigli daraxt turlari va ularning manzarali shakillariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’kidlash lozimki, Cupressaceae oilasining turkum turlari va shakillarining ekologik omillarga chidamliligini va kuchli fitontsidlik xususiyatlariga ega bo‘lganligi hamda bugungi kunda ko‘kalamzorlashtirishda va landshaft dizaynida keng qo‘llanilayotganligi alohida ahamiyatga ega. Bu oila vakillari yuqori manzarali va chidamli ignabargli turlar bo‘lganligi sababli, Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyo, Kavkazorti, Yevropa mamlakatlarida shaxarlarni ko‘kalamzorlashtirish uchun keng jalb etilgan.

Ayniqsa, Markaziy Osiyoning issiq va qurg‘oqchil mintaqalariga ham Cupressaceae oilasi vakillarini ko‘kalamzorlashtirish uchun keng joriy etilayotganligi ularni o‘sish va rivojlanish xususiyatlarini ilmiy asoslash, muhit omillariga chidamliligini aniqlash va ko‘paytirish samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shunga ko‘ra, Cupressaceae oilasi vakillarining introduktsiya sharoitida bioekologik xususiyatlarini asoslash, urug’mahsuldorligini aniqlash hamda ularni ko‘paytirish yo‘llarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bunday tahlillar MDH mamlakatlarida jumladan, Rossiya Federatsiyasining Shimoliy Kavkaz qismiga introduksiya qilingan ochiq urug‘lilarning 49 ta turi mavjud. Turlarning 70 % dan ortig‘ini Cupressaceae oilasiga mansub vakillar tashkil etadi. Introduksiya qilingan maskur turlarning o‘sishi, hayotiy shakillari bo‘yicha tahlili, rivojlanishi, urug‘ mahsuldorligi, ularning geografiyasi, gullash biologiyasi o‘rganilib, ko‘kalamzorlashtirishga tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2013 yil 13 avgustdagi 233-sonli “O‘zbekiston Respublikasida landshaft dizaynini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 sentyabrdagi PQ-3262-sonli “Avtomobil yo‘llarining arxetektura- landshaft konstruktsiyasi va obodonlashtirish tizimini

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezdentining “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g’risida”gi qarorida “Poytaxtimizning ekologik va sanitariya muhitini yaxshilash, mahalliy yo‘llarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish masalalari, shuningdek aholi ma’daniy dam oladigan bog’ va hiyobonlar tashkil etilishi, shu bilan birga. Keng miqyosda ko‘kalamzorlashtirish ishlari amlga oshirilishi ustivor vazifalarimizdan biri” deb takidlanishi ko‘kalamzorlashtirish ishlariga doimgidan xam ko‘proq ahamiyat berila boshlanganligini ko‘rish mumkin [2].

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga bog’liqligi. Tadqiqot ishlari respublika fan va texnalogiyalar rivojlanishining №5 «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekalogiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi paytlarda atrof muhitning ifloslanishi insonning hayotiy faoliyatiga, uning tabiat bilan hamohang yashashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu boisdan ham bu global muammo bilan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Daraxtlarning sanitar gigienik va manzarali xususiyatlari bo‘yicha bir qancha olimlar jumladan, R.V.Bobrov, N.P.Krasinskiy, R.A.Babayas kabilar ilmiy ishlar olib borishgan.

A.Qayimovning o‘quv qo‘llanmasida aholi yashash xududlari va binolar, inshootlar atrofida ko‘rkam ko‘rinishdagi landshaft barpo etish, unda manzarali daraxt va butalarni joylashtirish sxemalari mavjud. Shuningdek, manzarali yaproq va nina bargli daraxt ko‘chatlarini joylashtirish bilan bir qatorda ularni parvarishlash, daraxtlarning sanitar-gigienik, estetik hususiyatlari, daraxtlarga ishlov berish, shakl berish xususiyatlari ham to‘liq ko‘rsatilgan [8].

Manzarali o‘simliklarning yana bir estetik ko‘rinishi bu ularni o‘sib rivojlanish jarayonida uzoq yashab ketishidir. Ma’lumki yaproq bargli butalar ham nina bargli butasimonlar ham uzoq yashashi uchun yaxshi iqlim sharoiti va tuproq tarkibi talab darajasida bo‘lishi zarur bo‘ladi. [9].

Atrof muhitni o‘simliklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ular atrof muhitning sanitar-gigiyenik holatini yaxshilashdagi ahamiyati xilma-xil va juda kattadir. O‘simliklar shamolning tezligini, shovqin suronini kamaytiradi, issiqlik rejimini boshqarib turadi, havo tarkibini xar hil chiqindilar va changdan tozalaydi. Bularning barchasi sog’lom muhit barpo qilishga xizmat qiladi. Manzarali

butasimonlarni barpo qilinayotgan inshoot va binolar fasadiga to‘g’ri joylashtirib borish o‘z ko‘rkini namoyon etadi.

Manzarali yaproq va nina bargli butasimonlarni atrof muhit ekologiyasi uchun go‘zal ko‘rinishi bu ularni boshqa o‘simlik turlari yoki ko‘p yillik gul o‘simliklari bilan uyg’unlashgan holda ekib borib ajoyib manzara namoyon bo‘ladigan yashil xududlar barpo qilishdan iboratdir. Bu esa ko‘rkam fasad va kompozisiyaning yana bir turi hisoblanadi

Manzarali yaproq va nina bargli daraxt va butalar havo tarkibini tozalovchi fitonsid moddasini ajratib berish xususiyatiga ega.

Shuningdek manzarali bog’dorchilik va o‘rmonchilik respublika ilmiy tadqiqot markazining o‘rmonshunos olimlari A.A.Xonazarov, Sh.T.Yusupov, Ye.S.Aleksandrovskiy, R.A.Sultonov va Ye.K.Botmanlar tomonidan chop etilgan «O‘zbekiston hududini ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan asosiy manzarali daraxtlar va butalar» asarida bir necha xil manzarali daraxt va butalarga denrologik tavsif berilgan. Bunda daraxtlarning manzarli xususiyati, barg yoyishi, gullar namoyon etishi qayd etilgan [10].

Tadqiqotning ob`yekti: Toshkent shahri ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirishda hududlardagi, manzarali daraxt va buta ko‘chatlari.

Tadqiqotning predmeti: Daraxtlarning estetik xususiyatlari, ko‘kalamzorlashtirishda nina va yaproq bargli daraxtlarning va sanitar gigienik xususiyatlari.

Ishning maqsadi: Manzarali daraxtlarning estetik va sanitar-gigienik hususiyatlarini baholashni ilmiy asoslari.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Manzarali daraxt va butalarni chang ushlab qolish hususiyatini o‘rganish;

2. Manzarali yaproq va nina bargli daraxtlarni atrof muhit ekologiyasi uchun sanitar- gigienik va go‘zal ko‘rinishdagilarini ishlab chiqarishga tavsiya qilish;

3. Yaproq va nina bargli daraxt va butalarni ekologik hususiyatini o‘rganish;

4. Shahar ko‘chalaridagi daraxt va butalarning estetik hususiyatlari o‘rganish.

Amaliy ahamiyati: O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar asosida aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish uchun sanitar-gigienik hususiyatlarga ega bo‘lgan daraxt turlarini tanlash va ularni ekish me’yorlarini belgilash mumkun.

Tadqiqotning uslublari. Belgilangan vaifalar quyidagi uslubda amalga oshiriladi.

1. Muammoning hozirgi holatini o‘rganish. Daraxtlarning sanitar-gigienik va estetik hususiyatlarini nazariy asoslarini o‘rganish. Mavzu yuzasidan ilmiy adabiyotlar, horijiy adabiyotlar, dessertatsiyalar, maqolalar, internet

ma’lumotlari va boshqa ma’lumotlari o‘rganiladi hamda hozirgi holati bilan taqqoslanadi.

2. Tajribalar o‘tkaziladigan joydagi daraxt va butalarning sanitar-gigienik hususiyatlari, iqlim sharoiti, esetik hususiyatlari o‘rganishda Manzarali bog’dorchilik o‘rmonchilik respublika ilmiy tadqiqot markazining o‘rmonshunos olimlari A.A. Xonazarov, Sh.T. Yusupov, Ye.S. Aleksandrovskiy, R.A. Sultonov va Ye.K. Botmanlar tomonidan chop etilgan “O‘zbekiston xududini ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan asosiy manzarali daraxtlar va butalar” qo‘llanmasi tahlil qilinadi. Shuningdek, manzarali daraxt va butalarga dendrologik tavsiflari, daraxtlarning manzarli xususiyati, barg yoyishi, gullar namoyon etishi o‘rganiladi [10].

Ishning ekologik samaradorligi. Olingan natijalarning ekolagik samaradorligini tahlil etishda atrof muhit ekologiyasiga har taraflama foydali, zaharli gaz va changlarni yutishi va esetik hususiyati yuqori daraxt va butalarni tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi PQ-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar sategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi punktlarini obodonlashtirish sohasida ishlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 4-iyundagi PQ-4351-son qarori
3. Ablayev S.M., Yuldashev Ya.X. //Madaniy o‘rmonlar T.:2008.
4. Nexujenko N.A. Osnovы landshaftnogo proyektirovaniya i landshaftnogo arxitekturы S. Peterburg.:2004 S 88.
5. Pechenisin V.P., Agzamov A.A. Kultura ozeleneniya T.:2005 S 59-64.
6. Qayimov A.Q. //Dendrologiya” T.:2006.

Internet saytlari

7. https://givoyles.ru
8. http://lex.uz
9. www.wikipedia.org
10. http://scholar.google.com

ШОЛИ НАВЛАРИНИ ПОЯ БАЛАНДЛИГИ ВА ВЕГЕТАЦИЯ ДАВРИНИ ДАВОМИЙЛИГИГА АЗОТЛИ ЎҒИТЛАР МЕЪЁРЛАРИНИ ТАЪСИРИ

Қ.Ўразметов
ТДАУ Ўсимликшунослик ва мойли экинлар кафедраси доцент.

А.Хорунова
Магистрант

Аннотация. Мақолада, Шоли Навларини Поя Баландлиги Ва Вегетация Даврини Давомийлигига Азотли Ўғитлар Меъёрларини Таъсири haqida ma’lumot berilgan.

Калит сўзи: поя, вегетация, иссиқлик, ҳарорат, барг.

Аннотация. В статье приведены сведения о влиянии норм азотных удобрений на высоту стебля и продолжительность вегетационного периода сортов риса.

Ключевые слова: стебель, растительность, тепло, температура, лист.

Annotation. In the article, information is given on the effect of nitrogen fertilizer rates on the stem height and duration of the growing season of rice varieties.

Key word: stem, vegetation, heat, temperature, leaf.

Шоли экини ер юзидаги энг қадимги экинлардан бири бўлиб, дунё аҳолисининг учдан бир қисми учун асосий озуқа манбаи ҳисобланади ва тропик келиб чиқишига қарамай, мўътадил ҳудудларда кенг тарқалган. АҚШ қишлоқ хўжалиги департаменти (USDA) маълумотларига қараганда, 2019 йилда дунё бўйича 765,6 млн. тонна, жумладан, Хитойда – 224,6 млн. т, Ҳиндистонда – 176,9 млн. т, Индонезияда – 56,1 млн. т, Бангладешда – 54,6 млн. т, Вьетнамда – 43,5 млн. т, Таиландда – 31,5 млн. т, Бирмада - 20,5 млн. т, Филиппинда – 18,4 млн.т, Японияда – 12,0 млн. т, Покистонда – 11,5 млн. тонна шоли ҳосили етиштирилган[27].

Дунёда шоли етиштирувчи бир қатор ривожланган давлатларда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида тупроқ-иқлим шароитларига мос навларни яратиш, танлаш, оқилона жойлаштириш, етиштиришнинг илғор ресурстежамкор технологияларни илмий асосланган ҳолда қўллаш эвазига дон сифати яхшиланиб юқори ҳосилдорликка ва иқтисодий самарадорликка эришилмоқда.

Республикамизда сўнгги йилларда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш бўйича кенг қамровли ислоҳатлар амалга оширилмоқда. Хусусан,

[27] http://www.worldagriculturalproduction.com/crops/rice.aspx

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "**2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси** тўғрисида"ги ПФ 4947-сон Фармонида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини муттасил ривожлантириш, мамлакат озиқ-овқат хавфизлигини янада мустахкамлаш, суғориладиган ерлардан ва сувлардан самарали фойдаланиш, маҳаллий тупроқ-иқлим шароитларга мослашган қишлоқ хўжалик экинларининг янги навларини яратиш, танлаш, ресурстежамкор замонавий агротехнологияларни жорий этиш бўйича вазифалар белгилаб берилган[28]. Бу борада шоли етиштиришда ҳосилдорликни ошириш ва дон сифатини яхшилаш мақсадида, шоли етиштириш технологиясининг айрим элементлари, жумладан тупроқ-иқлим-шароитларини ҳисобга олган ҳолда навларни жойлаштириш, мақбул экиш муддатлари, меъёрлари ва озиқлантириш тартибини ишлаб чиқиш ҳамда ишлаб чиқаришга жорий этиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш долзарб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги "Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ 5303-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 29 мартдаги 259-сонли "2019 йил ҳосили учун қишлоқ хўжалик экинларини оқилона жойлаштириш ва махсулот етиштиришнинг прогноз хажмлари тўғрисида"ги ва 2019 йил 12-декабрдаги 986-сон "Шоличиликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарорларида ҳамда бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур диссертация тадқиқотлари муайян даражада хизмат қилади.

Ана шу миқдордаги ўсимликни олиш учун эса уруғликнинг сифат кўрсаткичларига ва дала унувчанлигига боғлиқ равишда экиш миқдорлари қўлланилди ва илмий изланишлар орқали аниқланди.

Уруғнинг дала унувчанлиги эса нисбий қиймат бўлиб, даланинг текислигига, экишга қандай тайёрланганлигига, экиш муддатлари, тавсияларига ҳамда усулларига, навнинг биологик ва ирсий хусусиятларига, экиш ҳолатига яъни чуқурлигига, сув, ҳаво ҳароратларига яъни объектив ва субъектив омилларга боғлиқ равишда намоён бўлди. Ана шу омилларнинг таъсирида лаборатория шароитида унувчанлиги 95% дан ортиқ бўлган уруғликларнинг дала унувчанлиги 50% га ҳам етмаган ҳоллар жуда кўп учрайди. Шоли навларининг биологик ва бошқа хусусиятларининг бир-

[28] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "**2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси** тўғрисида"ги ПФ-4947 фармони

бирларидан бирмунча фарқ қилишлари уларнинг дала унувчанлиги кўрсаткичларида ҳам намоён бўлишлигини кўрамиз. Айнан бир хил ташқи шарт-шароитлар ва ҳар-хил экиш меъёрларида «Мустақиллик» ва «Тарона» шоли навлари қуйидаги турли натижалар кўрсатди.

Вариантларда униб чиққан ва сақланиб қолган кўчат қалинлиги қуйидаги жадвалда берилган.

1-жадвал

Шоли ўсимлигининг вариантларда униб чиққан ва сақланиб қолган кучатлар сони (дона/ м^2).

Ўғитлар сарфи	Униб чиқиши			Ўрим –йиғим теримдан олдин			Сақланиш даражаси %
	шоли	курмак	хилол	Шоли	курмак	хилол	
Назорат УзРОС 7-13							
Назорат	267	-	-	223	--	-	78.5
ФОН $P_{120}K_{150}$	274	2	-	233	-		81.4
ФОН+N_{90}	276	1	-	240	-	-	82.9
ФОН+N_{120}	278	1	1	241		-	84.2
ФОН+N_{150}	277	1	-	242	-	-	85.3
Мустакиллик							
Назорат	277	-	-	223	--	-	80.5
ФОН $P_{120}K_{150}$	278	2	-	233	-	-	83.8
ФОН+N_{90}	279	1	-	240	--	-	86.0
ФОН+N_{120}	280	1	1	241	-	-	86.0
ФОН+N_{150}	281	1	-	242	--	-	86.1
Тарона							
Назорат	277	-	-	223	--	-	81.2
ФОН $P_{120}K_{150}$	281	2	-	233	-		82.7
ФОН+N_{90}	282	1	-	240	--	-	83.7
ФОН+N_{120}	283	1	1	241		-	84.7
ФОН+N_{150}	283	1	-	242	--	-	86.3

“УзРОС 7-13” назорати экилганда 1 м^2 да униб чиққан кўчатлар сони назорат вариантида 267 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 223 тани, ФОН $P_{120}K_{150}$ли вариантда 274 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 233 тани, ФОН+N_{90}ли вариантда 276 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 240

тани, ФОН+N_{120}ли вариантда 278 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 241 тани, ФОН+N_{150}ли вариантда 277тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 242 тани ташкил этиб назорат вариантига нисбатан 10-19 донага юқори бўлганлиги кузатилди ва сақланиш даражаси 78.5-85.3 % га тенг бўлди.

“Мустақиллик” нави экилганда 1 $м^2$ да униб чиққан кўчатлар сони назорат вариантида 277 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 223 тани, ФОН+N_{150}ли вариантда 281 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 242 тани, ташкил этиб назорат вариантга нисбатан 4-19 донага юқори бўлганлиги кузатилди ва сақланиш даражаси 80.5-86.1 % га тенг бўлди.

“Тарона” нави экилганда 1 $м^2$ да униб чиққан кўчатлар сони назорат вариантида 277 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 223 тани, ФОН $P_{120}K_{150}$ли вариантда 281 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 233 тани, ФОН+N_{90}ли вариантда 282 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 240 тани, ФОН+N_{120}ли вариантда 283 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 241 тани, ФОН+N_{150}ли вариантда 283 тани ўрим-йиғим теримдан олдингиси 242 тани ташкил этиб назорат вариантига нисбатан 6-19 донага юқори бўлганлиги кузатилди ва сақланиш даражаси 81.2-86.3 % га тенг бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Дзюба В.А. Теоритическое и прикладное растениеводство: на примере пшеницы, ячменя и риса. Научно-методическое пособие. Краснодар, 2010. Б.187-446
2. Жайлыбаев К.Н., Тауженов И.А., Нурмат Н.К. Урожайность риса в зависимости от азотных удобрений и норм высева семян. Зерновое хозяйство. 2003. №4. С.21-23.
3. Жумаев Н. Дала экинлари биологияси ва етиштириш технологияси. // Маъруза матнлари тўплами. Карши 2010, Б.99-106.
4. Шеуджен А.Х. “Агрохимия и физиология питания риса” //Майкоп. 2005. С. 1012

JO‘XORI HOSILDORLIGIGA EKISH ME‘YORLARINING TA’SIRI BO‘YICHA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

L.Xalilova
TDAU o‘simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasi dotsenti

N.Ibragimova
magistrant

Аннотация. Мақолада, дунёда ҳамда Республикамизда иқлимни глобал ўзгариши, Орол денгизини қуриши оқибатида, шўрланиш, ҳаво ҳароратини ортиши, мунтазам қурғоқчилик шароитида ушбу ҳолатга бардошли бўлган жўхори, жумладан донжўхорининг истиқболли навларининг ўсиб-ривожланишига об-ҳавонинг таъсири бўйича маълумотлар келтирилган.

Калит сўзи: Жўхори, дон, иссиқлик, ҳарорат, барг.

Аннотация. В статье представлены сведения о влиянии погоды на рост кукурузы, в том числе перспективных сортов кукурузы, устойчивых к этим условиям, в связи с глобальными изменениями климата, образованием Аральского моря, повышением температуры воздуха, регулярными засушливыми условиями и в мире.

Ключевые слова: Овес, зерно, теплота, температура, лист.

Annotation. The article presents information about the impact of weather on the growth of corn, including promising varieties of corn that are resistant to these conditions, in connection with global climate change, the formation of the Aral Sea, rising air temperatures, regular dry conditions and in the world.

Key word: Oats, grain, heat, temperature, leaf.

O’zbekistonda oziq-ovqat va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko’paytirish va uning sifatini yaxshilash muhim vazifa hisoblanadi. O’simliklardan tayyorlangan ozuqalar umumiy ozuqa balansining asosiy qismini tashkil etadi, ya’ni ularga ozuqa birligining 95% to’g’ri keladi. Shuning uchun yembop don ishlab chiqarishni ko’paytirish, dalalarda yem-xashak yetishtirish asosiy vazifadir. Dalalarda ozuqabop ekinlar hosildorligini oshirishning asosiy yo’li ularni o’stirishda intensiv texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi. Ozuqa yetishtirish asosan dehqonchilikni intensivlashtirish hisobiga amalga oshirilib borilishi kerak, bunda har qanday tuproq-iqlim sharoitida muttasil mo’l hosil yetishtirishni ta’minlaydigan ozuqa ekinlarini to’g’ri tanlash kerak. Jo’xorishulardan biri. Bu issiqqa sho’r va qurg’oqchilika chidamli ekin. Sizot suvlari yaqin yerlarda yaxshi o’sadi va mexanik tarkibini yaxshilaydi. Jo’xori makkajo’xoriga nisbatan ko’p ko’kat hosili beradi. Dala ekinlari orasida eng qurg’oqchilikka chidamli ekindir.

Jo’xori o’rilgandan keyin qayta ko’karish xususiyatiga ega bo’lgan ekindir. Jo’xori asosan yem-xashak maqsadida yetishtiriladi, ammo poyasining tarkibida suvda eruvchan qand moddasining ko’p miqdorda bo’lishi shinni ishlab chiqarishning asosiy xom-ashyosi hisoblanganligi uchun qandolatchilikda keng miqyosda ishlatilmoqda. Qishloq xo’jaligining bozor iqtisodiga o’tishi va mamlakatimizda ekologiya muhitining buzilishi, Orol muammosi jo’xorini kam suv, mineral o’g’it va boshqa moddiy resurslar sarflab, yuqori rentabelli don va ko’kat hosili yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. jo’xori donidan kraxmal, sof fruktoza, glyukoza, fruktoza kiyomi, sellyuloza, qonsentrat yem, poyasi tarkibidagi sharbatdan etanol (etil spirt) olinadi. Etanol-esa qayta tiklanuvchi, ekalogik toza, arzon energiya manbaidir. Shirin jo’xorini istiqbolli ishlatish yo’nalishi – bu etanol ishlab chiqarishdir, Bu ekinning poyasi tarkibida 17%dan 21%gacha qand moddasi bo’ladi. Yuqori hosildorlilik, yetishtirishda kamxarajatlilik bu ekinning qand ishlab chiqarishda yagona ekin ekanligini ta’kidlaydi.

Urug’ining unib chiqish darajasi va haqiqiy ko’chat qalinligi. Jo’xorining “Qorabosh” navi don uchun 4 xil me’yor va o’simlik qalinligida ekilgan. Jo’xori urug’ining unuvchanligi past bo’lganligi uchun uni ekishdan oldin oftobda bir kun qizdirildi va bitta uyaga ikkitadan urug’ tashlangan.

1-jadval

Qorabosh navii urug’ining unib chiqish darajasi va haqiqiy ko’chat qalinligi

Variantlar	Ekish me’yori	Unib chiqqan o‘simlik soni, ming dona /ga	%	O‘suv davri oxirida saqlanib qilgan o‘simliklar soni ming dona/ga	%
Don uchun					
1	80 ming dona	73.6	91.4	73.1	91.0
2	90 ming dona	82.6	91.5	82.2	91.0
3	100 ming dona	91.5	91.7	91.0	91.3
4	110ming dona	100.6	92.0	100.1	91.4

Unib chiqqan maysalar to’liq maysalash fazasida aniqlandi. Don uchun ekilib, 80 ming dona sarflangan urug’dan 73,6 ming dona urug’ unib chiqib maysa hosil qildi, yoki 91,4 % urug’lar maysaladi. O’suv davri oxirida haqiqiy ko’chatlar soni hisoblanib, 73,1 ming dona o’simlik saqlanib qoldi yoki o’simlikning saqlanish

darajasi 91,0% ni tashkil qildi. 90 ming dona sarflangan urug'dan ikkinchi variantdan 82,6 ming dona urug' unib chiqib maysa hosil qildi, yoki 91,5 % urug'lar maysaladi. O'suv davri oxirida haqiqiy ko'chatlar soni hisoblanib, 82,2 ming dona o'simlik saqlanib qoldi yoki o'simlikning saqlanish darajasi 91,0% ni tashkil qildi. Birinchi va ikkinchi variantlarda o'suv davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar foizi bir xil bo'lganligi aniqlandi. 100 ming dona sarflangan urug'dan uchinchi variantda 91,5 ming dona urug' unib chiqib maysa hosil qildi, yoki 91,7 % urug'lar maysaladi. O'suv davri oxirida haqiqiy ko'chatlar soni hisoblanib, 91,0 ming dona o'simlik saqlanib qoldi yoki o'simlikning saqlanish darajasi 91,3% ni tashkil qildi. 110 ming dona sarflangan urug'dan uchinchi variantda 100,6 ming dona urug' unib chiqib maysa hosil qildi, yoki 92,0 % urug'lar maysaladi. O'suv davri oxirida haqiqiy ko'chatlar soni hisoblanib, 100,1 ming dona o'simlik saqlanib qoldi yoki o'simlikning saqlanish darajasi 91,4% ni tashkil qildi. Urug' miqdori oshirilgan variantlarda urug'larning unib chiqishi 0,3-0,6 % ga ko'p bo'lishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov Q. jo'xori namunalarida o'tkazilgan tajriba natijalari //O'zbekiston qishloq xo'jaligi,-Toshkent. -№ 1 (9), 2009, -B.18-19.
2. Alabushev A.V, Beskrovnыy V.I va boshqalar Saxarnoye sorgo v stepnoy zone. // - Zemledeliye, 1993,- № 5, - S.24 8.
3. Astashov A.N., Korolev V.F, Chavleshvili I.B Effektivnost vozdelыvaniya sorgovых kultur v chistых i smeshannых posevax s amarantom v usloviyax Povoljya – // Kukuruza i sorgo, 2009, -№ 4, -S. 8-10. 9.
4. Astashov A.N., Kononenko S.I., Kononenko I.S. Sorgo kak komponent kombikorma dlya sыplyat-broylerov. // .Kukuruza i sorgo, 2009, - № 5, S.13-14 .

ЯНГИ АВЛОД ФАН ДАСТУРИЛАРИНИ ЯРАТИШДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ЛОИҲАЛАБ ЎҚИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Тиллашайхова М.А.
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

Аннотация. Ушбу мақолада ҳозирги замон таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳатлар, янги авлод фан дастурлари ва ўқув адабиётлари, уларни яратиш механизми ҳақида сўз юритилган.

Шу билан бирга таълим сифати ва самарадорлигини ошириш, рақаботбардош кадрларни тайёрлаш масаласи инновацион педагогик технология ва унинг тамойиллари асосида ишлаб чиқилган таълим

жараёнининг лойиҳалари ҳамда уни амалиётда қўллашда файдаланиладиган замонавий ва интерактив усуллари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Янги очилган таълим йўналишлари, янги авлод фан дастури, янги авлод ўқув адабиётлари, рақаботбардош кадрлар, таълим сифати, таълим самарадорлигини, ўқув машғулотларни лойиҳалаш, лойиҳалаш.

“Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳатларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” қарорнинг 4-иловасида олий таълим муассасаларида илғор жаҳон тажрибалари асосида янги авлод дарслик, ўқув қўлланмаларни яратиш белгилаб қўйилди[1].

Ўқитиш асрлар давомида маълум билимлар мажмуини эгаллашдан иборат бўлиб келган бўлса, ҳозирги пайтда билимларнинг бир авлод ҳаёти давомида эскириб қолаётганлигини кузатиш мумкин. Бунда, билимлар ҳажми, ҳатто айрим ихтисосликлар доирасида ҳам шунчалик улканки, мавжуд ўқитиш методикалари асосида уни ўзлаштириш амалда мумкин бўлмай қолди. Буларнинг ҳаммаси таълим олдида янги ахборотни мустақил қабул қилиш, баҳолаш ва тегишли қарорларни қабул қилишга қодир бўлган ижодкор шахсни тарбиялаш вазифасини қўймоқда.

Инновацион педагог технология тўғрисидаги билимларга эга бўлиши, янгилик яратиш ва уларни татбиқ этиш, илғор тажрибаларни тарғибот қилиш, оммалаштириш, инновацион фаолиятларнинг натижаларини баҳолаш бўйича зарурий билим ва малакаларга эга бўлиши зарур. Шундагина, келажак учун етук, билимли, фидоий, маҳоратли математика ўқитувчиларини тайёрлаш мумкин. Шундай экан, Педагогик технология − бу муайян лойиҳа асосида ташкил этиладиган, аниқ мақсадга йўналтирилган ўқув жараёнини система сифатида қараб, ушбу мақсаднинг натижаларини кафолатловчи таълим жараёнига технологик ёндашадиган таълимий тадбирдир[2].

Республика олий таълим жараёнида А.Алимов, Б.Зиёмухаммедов, И.Зулфуқаров, Г.Изетаева, М.Қўчқаров, М.Тожиев, М.Ўралова, Э.Шарипов кабилар томонидан тайёрланган ўқув фанлари лойиҳалари муваффақиятли тажрибадан ўтказилмоқда, чунки, педагогик тажриба натижалари орқали яхлит таълим тизимини қайта қуриш талабларига жавоб берадиган сифат ўзгаришлари рўй беради. Педагогиканинг ҳозирги ва эртанги куни талабларига жавоб берадиган янги сифатга ўтишини тезлаштириш учун инновацион таълимни, ундан келиб чиқадиган билишнинг илмий

воситаларини ишлаб чиқиш, илғор педагогик тажрибани таҳлил этиш ва ёйишни жадаллаштиришни тақозо қилади.

Ўқув машғулотларни лойиҳалашнинг аҳамиятли томони шундаки, бунда педагог ва талабалар лойиҳалаш бўйича билим, кўникма ва малакаларга эга бўладилар.

Педагогик технология тамойиллари асосида ўқув машғулотларини лойиҳаларини тузиш мақсадга мувофиқ бўлиб, бунда ҳар бир ўқитувчи анъанавий ўқитиш методикаси ва технологик ёндашувларга асосланиб таълимни жараёнини лойиҳалаш ёрдамида илмий методик савиясини ошириши зарурлиги кузатилди.

Янги очилган таълим йўналишлари дастур ва абиётларини яратишда ўқув жараёнини лойиҳалаш жараёнига тамойил бўлиб хизмат қилувчи қонун ва қоидалар бўлиб, Ўзбекистонда қабул қилинган “Таълим тўғрисидаги” Қонун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастур”да Давлат таълим стандарти талабларини ҳар бир ўқув фанига алоҳида-алоҳида белгилаб берилганлиги туфайли, ўқув машғулотини лойиҳалаш жараёнида бу методологик асосга дастуриламал сифатида таянилади.

Шунингдек, янги очилган таълим йўналишлари фан дастури ва аабиётларини яратишда диалектика қонунлари билан системали ёндашув тамойилининг қоидалари асос қилиб олинади. Педагогик фаолиятни, шу жумладан ўқув жараёнини лойиҳалаш ишини, амалга оширишда умумий методологик асослардан бири, яъни фалсафий асоснинг бир қисми, диалектика қонунлари билан системали ёндашув тамойилининг қоидалари ҳисобланади.

Диалектиканинг “Қарама-қарши томонлар бирлиги ва кураши”, “Миқдорни сифатга ва сифатни миқдорга ўтиш қонуни” ҳамда “Инкорни инкор қонуни” асосий қонунлари коинотнинг барча нарса ва ҳодисаларида, шу жумладан ўқув жараёнида ҳам ўзини намоён қилади.

Диалектиканинг уч асосий қонунини ўқув машғулотларини лойиҳалаш жараёнида ишлашини кўриб чиқадиган бўлсак, аввалом бор, лойиҳаланаётган таълим-тарбия жараёнини кўз олдимизга келтиришимиз керак бўлади. Таълим-тарбия жараёни бир бутунлик бўлгани ҳолда, икки қарама-қарши “Таълим берувчи” ва “Таълим олувчи” деган томонлардан, бошқача айтганда қарама-қарши кучлардан ташкил топганлигини кўрамиз. Ҳақиқатдан ҳам, таълим бериш, бу таълим олиш эмас, таълим олиш эса, таълим беришнинг зиддияти ҳисобланади. Булар қутбий қарама қарши кучлардир. Диалектика қонунига биноан улар бир вақтнинг ўзида бир-бирига интилади ва бир-биридан қочади. Уларнинг орасида ўзаро тортилиш билан бир вақтда, бири

биридан қочиш ҳам мавжуд. Ўқув машғулотини лойиҳасини тузганда, диалектиканинг бу қонунини ҳисобга олмасак, лойиҳа қоидагидек бўлмайди ва ўқув жараёнини амалга оширишда қийинчиликларни туғдиради.

Диалектиканинг иккинчи қонуни, “Миқдорни сифатга ўтиш” қонуни бўлиб, у ҳам ўқув машғулотини лойиҳалаш жараёнида кўзда тутилиши шарт. Қарама-қарши томонлардан бири бўлган “Таълим берувчи” қарши томон “Таълим олувчига”, берилаётган билим моҳиятини очиб, қизиқтириб, тушунтириши пайтида, “Таълим олувчи”, уни қабул қилгиси келмай, педагогга ботинан қарши туради. Ўқув жараёнини нормал ҳолатга келтириш ва қарши турган кучнинг майиллигини ўзининг фойдасига ҳал бўлиши учун миқдор йиғилиб сифатга ўтиши шарт. Унинг учун берилаётган билимларни тарбияланувчига бир неча бор такрорлаш лозим бўлади. Илмий тадқиқодлар шуни кўрсатдики, бериладиган билим таълим олувчининг мия қобиғида ўз аксини топиши учун уни камида 4 – 5 маротаба , мураккаб мавзуларни ўтганда 8 – 9 маротаба такрорлаш лозим экан. Шундагина миқдор сифатга ўтиб, талабалардаги “Билмаслик” ҳолати “Билди” ҳолати билан алмашинади, миқдор сифатга ўтади.

Дунёни илмий тушуниш заминида оламни фалсафий концепцияси билан табиий ва ижтимоий фанлардаги кашф қилинган қонуниятлар ётади. Фалсафанинг шу кундаги асосий концепциясини, синергетик дунёқарашдан келиб чиқувчи бутун борлиққа система (мажму) сифатида ёндашув тамойили ташкил қилади.

Ҳозирги замонда дунёни илмий тушуниши, ташкилий жиҳатдан умумий белгиларга эга турли объектларнинг ҳар турли мажму гуруҳларига бирлаштиришни кўзда тутади.

У бутун олам тадрижий ривож маҳсули эканини исботлади. Бу фикр XX аср ўрталарига келибгина тўлагича англаб етилди. У Ньютон физикасини асосий ғоясига зид бўлиб, механик физикага асосланган дунёқарашни тубдан ўзгартиришга замин тайёрлади.

Умуман, системали ёндашувнинг қадимги илм-фан ва фалсафада мавжуд эканини ҳам кўрса бўлади. Бутун борлиқ қандайдир, ўзаро боғлиқ бўлган қисмлардан ташкил топганлигини Платон, Фаробий, Ибн Сино ва бошқа алломалар фикрларида учратиш мумкин. Мавлоно Жалолиддин Румий ҳам оламнинг заррадан коинот қадар вобасталиги, бир-бири билан тортилиб туришини айтган.

Бироқ, XIX – XX аср олимлари нарса ва ҳодисаларга анъанавий тасниф беришдан нарига ўтолмадилар. Фақат XX асрнинг 50-йилларига келиб,

ўрганилаётган объектга ўзаро функционал боғлиқ бўлган қисмлардан ташкил топган бир бутунлик сифатида қарайдиган бўлишди.

Ҳар бир ишда мажмулар назариясидан келиб чиқиб ишни бажариш “Мажму ёндашув тамойили”га амал қилиш дейилади.

Мажмулар назариясидан келиб чиқиб бажарилган иш бир неча ўн баробар осонлашади. Баъзи мураккаб ишларни, мажму ёндашув тамойилини қўлламай бажариб бўлмайди.

Таълим-тарбия фаолияти ўта мураккаб бўлганлиги туфайли, мажму ёндашув тамойилидан фойдаланмай, уни талаб даражасида бажариб бўлмайди[3].

Ўқув машғулотини лойиҳалаш жараёнида мажму ёндашув тамойилининг қуйидаги қоидаларига риоя қилишлик лозим.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, ушбу мақолада педагогик технология ва унинг тамойиллари асосида ўқув машғулотларни лойиҳалашнинг умумий методологияси, ўқув машғулотларини лойиҳалаб ўқитишнинг назарий асослари, ўқув машғулотини лойиҳалаш жараёнига тамойил бўлиб хизмат қилувчи қонун ва қоидалар ва диалектика қонунлари билан системали ёндашув тамойилининг қоидалари кўрсатиб берилди.

Педагогик технология тамойиллари асосида ўқув машғулотларини лойиҳаларини тузиш, бунда ҳар бир ўқитувчи анъанавий ўқитиш методикаси ва технологик ёндашувларга асосланиб таълим жараёнини лойиҳалаш бўйича методик савиясини ошириши зарурлиги илмий томондан асосланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳатларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли қарори.
2. Зиёмуҳаммадов Б., Тожиев М. Педагогик технология – замонавий ўзбек миллий модели. Т.: “Lider Press”, 2009.
3. Тожиев М. Математика ўқитиш жараёнини лойиҳалаш // Ўқув ва илмий-услубий қўлланма/ М.Тожиев, К.Мамадалиев; Масъул муҳаррир: иқтисод фанлари доктори, профессор Б.Ҳ.Раҳимов; фалсафа фанлари доктори, профессор Б.Зиёмуҳамедовнинг умумий таҳрири остида; Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимини ривожлантириш маркази. −Т.: FAN VA TEXNOLOGIYA MARKAZINING BOSMAXONASI. 2013. −160 б.
4. Tillashayxova M.A. Practice of Innovative Pedogogical Technologies in Education // International Journal of Social Science And Human Research D

OI: 10.47191/ijsshr/v4-i11-45. Impact factor-5.586. Volume 04 Issue 11, November 2021. -3375-3378p..

5. Tillashayxova M.A. Practice of Innovative Pedogogical Technologies in Education // International Journal of Social Science And Human Research D OI: 10.47191/ijsshr/v4-i11-45. Impact factor-5.586. Volume 04 Issue 11, November 2021. -3375-3378p.

ЯНГИ ОЧИЛГАН ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ УЧУН ЎҚУВ АДАБИЁТЛАРИНИ ЯНГИ АВЛОДИНИ ЯРАТИШ УСЛУБИЁТИ ВА УНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНЛАРИГА ТАДБИҚ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ

Самигова Г.

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

Аннотация. Ҳозирги кунда ўқув адабиётларини янги авлодини яратиш яратишга қаратилган талаблар кескин ортиб бормоқда. Дарсликларнинг янги авлодини яратиш учун таълимнинг асосий йўналишлари бўйича хориж адабиётларининг тажрибаларидан фойдаланиш, ҳамда мавжуд дарсликларни таҳлил этиш талаб этилади. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, ўқув йўналишлари учун дарсликларнинг янги авлодини яратиш, ҳамда мазкур дарсликларни ўқув жараёнларга тадбиқ этиш заруриятини моҳияти кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: замонавий педагогик технологиялари, ахборот-коммуникация технологиялари, узлуксиз таълим, янги авлоди ўқув адабиётлари, педагогика таълим соҳаси, дарслик, ўқув қўлланма, ўқув-услубий мажму, давлат таълим стандарти, ўқув дастури

Таълим тизимида юксак малакали, ижодкорлик ва ташаббускорлик қобилиятига эга, келажакда касбий ва ҳаётий муаммоларни мустақил ҳал қила оладиган кадрларни тайёрлашда таълим жараёнини замонавий педагогик, ахборот-коммуникация технологиялари асосида яратилган янги авлод дарслик ва ўқув адабиётлари билан таъминлаш муҳим аҳамиятга эга.

“Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳатларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” қарорнинг 4-иловасида олий таълим муассасаларида илғор жаҳон тажрибалари асосида янги авлод дарслик, ўқув қўлланмаларни яратиш белгилаб қўйилди[1].

Шиддат билан кечаётган ҳозирги даврда таълим-тарбия ва таҳсил борасида ҳам кечаги қарашлар, бурунги услублар эскириб қолмоқда. Ҳаёт эса биздан ҳар соҳада замон билан ҳамнафас, ҳамқадам бўлишни талаб этмоқда. Бугун таълим муассасаларида ўтиладиган барча жамийки фанлар бўйича

дарслик ва қўлланмаларнинг янги авлодини яратиш куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Педагогика таълим соҳасининг янги очилган фанларни ўқитиш методикаси бўйича таълим йўналишлари давлат таълим стандартлари асосида амалий кўникмаларга эга бўлган мутахассисларни тайёрлашни такомиллаштириш, янги таълим йўналишларига киритилган фанлардан дарслик, ўқув қўлланма, ўқув-услубий мажмуилар мазмунини модернизациялаш ва электрон дарсликлар яратиш ҳамда амалиётга кенг тадбиқ этиш чоралари кўрилди.

Шунга асосан, Давлат таълим стандарти, фан дастури, ўқитиш методикаси, дидактик талаблар, педагогик технология ва мажму (системали) ёндошувга мувофиқ яратилган, иқтисодий ва ижтимоий соҳалардаги янгиликлар жорий этилган, илм-фан, техника ва технологияларнинг сўнги ютуқлари тўлиқ ёритилган, таълим олувчилар томонидан тегишли фан асосларининг мукаммал ўзлаштира олиш имконини берувчи ҳамда турдош таълим йўналишларида ҳам фойдаланиш имкониятлари ҳисобга олинган замонавий ўқув ва ўқув-услубий адабиётининг янги авлодини яратиш куннинг долзарб масалаларидан бирига айланди. Бу вазифанинг асосий ечимларидан бири замонавий ўқув ва ўқув-услубий адабиётларининг янги авлодини яратиш ва таълим-тарбия жарёнига кенг тадбиқ қилишдир.

Янги авлод ўқув адабиётларини яратишда таълим жараёнида қўлланилаётган педагогик технологияларнинг таркибий қисми бўлган, таълимда ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш бўйича тадқиқотлар А.А. Абдуқодиров, М.Арипов, У.Ш. Бегимқулов, Ф.М. Закирова, Н.И. Тайлақов, Ш.С. Шарипов, У. Юлдашев, А.Ғ. Ҳайитовларнинг ишларида амалга оширилган бўлиб, замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишга асосланган мультимедиа ўқитиш дастурларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш ўқув воситалари сифатида эътиборга олини, педагогика таълим соҳасида ахборот-коммуникация технологияларини қўлланилишининг методик аспектларини ишлаб чиқишда, “Ўқитиш технологияси ва лойиҳалаштириш” электрон дарслиги, уни ўқитиш методикасини яратишда ва янги очилган таълим йўналишларида электрон дарслик асосида талабаларнинг мустақил таълим олиш кўникмаларини шакллантиришда манба сифатида фойдаланилади.

Ўқув адабиётлар – муайян таълим тур (йуналиши ёки мутахассислиги) ўқув режасида кайд эилган фанлар бўйича тегишли ўқув дастурлари асосида зарур билимлар мажмуаси келтирилган, узлаштириш услублари ва дидактикаси ёритилган (шу жумладан, хорижий таржималар) манба[3].

Электрон ўқув адабиётлар – замонавий ахборот тсхнологиялари асосида маълумотларни жамлаш, тасвирлаш, янгилаш, саклаш, билимларни интерактив усулда тақдим этиш ва назорат килиш имкониятларига эга булган манба[2].

Ўқув адабиётларининг янги авлодини яратишга қўйиладиган асосий талаб: Кадрлар тайёрлаш миллим моделига мувофиқ узлуксиз таълим тизимида ўқув адабиётлари таълим турлари бўйича тасдиқланган давлат таълим стандартлари (ёки давлат талаблари) асосида, муайян фаннинг ўқув адабиётлари мазкур таълим турида ўқитиладиган фанлар билан ўзаро боғликликни ва бошқа таълим турларида ушбу фаннинг ўқув дастурларидаги узвийликни таъминлаган ҳолда тайёрланади.

Таҳлиллар натижасида педагогика таълим соҳасининг янги очилган таълим йўналишларда ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш тамойиллари ва уларни тайёрлаш механизмлари ишлаб чиқилди, олий таълимнинг бакалавр босқичидаги “Ўқув жараёнини лойиҳалаш”[3] туркумидаги фанлар дастури ва адабиётларини яратишнинг методологик асослари, педагогик технология тамойиллари асосида фанларнинг ўқув машғулоти лойиҳалари, “Ўқитиш технологияси ва лойиҳалаштириш” фанини ўқитишнинг методик системаси яратилди.

1.Педагогика таълим соҳасида янги таълим йўналишлари очилишининг ижтимоий зараурлиги илмий томондан асослаш.

2. Янги очилган таълим йўналишлари ўқув адабиётларининг янги авлодини яратиш тамойиллари ва уларни тайёрлаш механизмлари ишлаб чиқиш.

3. Педагогика таълим соҳасида ахборот-коммуникация технологияларни қўлланилишининг методик аспектлари ишлаб чиқиш.

4. Янги очилган таълим йўналишларида электрон дарсликларни яратиш ва уни таълим жараёнига қўлланилишининг долзарблиги ва аҳамияти кўрсатиб бериш.

5. Ўзбекистонда кабул килинган “Таълим туғрисидаги” Конун ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ҳамда Республика Президентининг ёш авлод фазилатларига кутаётган талабларини инобатга олиб, буюк мутафакирларни инсон ижтимоий сифатларига қўйган мезонлар тизимидан фанлар дастури ва адабиётларининг янги авлодини яратишга кенг фойдаланиш.

Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтиш жоизки бугунги кунда барча олий таълим муассасаларида хориж адабиётларидан фойдаланиб янги авлод ўқув адабиётларини яратиш ҳаммамизнинг олдимизга қўйилган устувор

вазифаларидан бирига айланиб бормоқда. Бизнинг тадқиқотларимизда эса хориж тажрибаларидан фойланган ҳолда янги авлод ўқув адабиётларини яратишнинг янги ўзбек методикасини ишлаб чиқилмоқда. Уларнинг айримларига эса юқорида тўхталиб ўтдик.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳатларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги” 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 16 сентябрдаги “Янгиланган классификаторга мувофиқ ишлаб чиқилган олий таълим йўналишлари ва мутахассисликларининг Давлат таълим стандартлари ва ўқув режаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 387-сонли буйруғи билан тасдиқланган 5460100 – “Математика” таълим йўналиши Давлат таълим стандарти(ДТС).
3. Тожиев М., Мамадалиев К. Ўқитиш технологияси ва лойиҳалаштириш // Ўқув ва илмий-услубий қўлланма. −Т.: Fan va texnologiya, 2013. −160 б.

КУЗГИ РАПСНИНГ ЎСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА ЭКИШ МЕЪЁРИНИНГ ТАЪСИРИ

Юлдашева Зулфия Камаловна
қ.х.ф.н., доцент
Тошкент давлат аграр университети

Чориев Эрали Олимович
Магистр, Тошкент давлат аграр университети

Аннотация. Мақолада кузги рапснинг ўсиши ва ривожланишига экиш меъёрининг таъсири келтирилган бўлиб, ўсимликнинг бўйи экиш меъёри гектарига 1.4 мл.дона уруғ сарфланган вариантда Лорис навида баланд бўлиши аниқланган. Ўсув даврининг давомийлигига экиш меъёрининг таъсири деярлик сезилмади, аммо навлар орасида Сармат нави назорат нави ва Лорис навига нисбатан 6-8 кунга кеч пишиши аниқланди.

Калит сўзи: кузги, рапс, экиш меъёри, нав, ўсиш, ривожланиш, уруғ, қўзоқча, мой миқдори

Аннотация. В статье представлено влияние нормы высева на рост и развитие озимого рапса и установлено, что норма высева растения выше у сорта Лорис в варианте с 1,4 мл семян на 1 га. Влияние нормы высева на продолжительность вегетационного периода почти не заметно, но

установлено, что сорт Сармат созревает на 6-8 дней позже, чем контрольный сорт и сорт Лорис.

Ключевые слова: осень, рапс, норма высева, сорт, рост, развитие, семя, клубень, масличность

Annotation. In the article, the effect of planting rate on the growth and development of autumn rapeseed is presented, and it was determined that the planting rate of the plant is higher in the Loris variety in the variant with 1.4 ml of seeds per hectare. The effect of planting rate on the length of the growing season was almost not noticeable, but it was found that the Sarmat variety ripened 6-8 days later than the control variety and the Loris variety.

Key word: autumn, rapeseed, planting rate, variety, growth, development, seed, tuber, oil content

Кириш. Рапсни мой олиш йўналишида ишлаб чиқариш бўйича сезиларли даражада муваффақиятларга эришилган бўлса ҳам, унинг ўртача ҳосилдорлиги пастлигича қолмоқда, бу эса рапснинг потенциал имкониятларига мос келмайди. Рапс Янги навлар ва дурагайлар ко'пинча потентсиал маҳсулдорлик даражасининг пасайиши туфайли эмас, балки этарли даражада экологик барқарорлик ва мослашувчанлик натижасида талаб қилинмаган ишлаб чиқаришдир [1][29]

Россия ва чет эл олимларининг фикрича,кузги рапснинг юқори маҳсулдор ва мослашувчан навлари ишлаб чиқаришга бир хил шароитда киритилганда, улар ҳосилдорликни 25% га оширишга ижобий та'сир ко'рсатади[2].[30]

Рапснинг Замонавий навлари ҳам ижобий, ҳам салбий хусусиятларга эга бо'либ, улар йилга қараб турлича намоён бо'лади. Масалан, фақат қулай метеорологик ва агротехник шароитда улар юқори ҳосил ҳосил қилиши ва ёмонлашганда уни кескин камайтириши мумкин[3].[31]

[29] Кадыров, М.А. Некоторые аспекты селекции сортов с широкой агроэкологической адаптацией / Н.А. Кадыров, С.И. Гриб, Ф.Н. Батуро // Селекция и семеноводство. – 1984. – №7. – С

[30] Корчагин, В.А. Ресурсосберегающие технологии возделывания сельскохозяйственных культур. Практическое руководство / Горшков, В.И. Результаты испытаний сортов ярового рапса в условиях лесостепи ЦЧР, 2001. – С. 94. 2005. – С

[31] Литвиненко, Н.А. Селекция на повышение адаптивного потенциала озимой пшеницы / Н.А. Литвиненко // Вестник сельскохозяйственной науки. –//Неттевич, Э.Д. Культура поля и селекция /Амелин, А.В. Значение сорта в повышении эффективности производства зерна озимой пшеницы в природно-экономических условиях Орловской области / А.В. Амелин, А.Ф. Мельник, В.И. Мазалов, А.Н. Николаев // Зернобобовые и крупяные культуры. – 2013. – № 3. – С. 57-65 1990. – №5. – С. 98-106. 1986. – С. 22-38.

Экинлар ҳосилдорлигини максимал даражада ошириш ҳар доим ҳам қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг асосий мақсади бўлиб қолмаслиги керак. Бу ҳосилдорликни ошириш учун қо'шимчаларни жалб қилиш кераклиги билан изоҳланади айланма маблаг'лар (о'г'итлар, о'симликларни ҳимоя қилиш воситалари, ёқилг'и-мойлаш материаллари ва бошқалар), пировардида маҳсулот таннархига та'сир қилади. Ҳосилдорликнинг ма'лум даражага ко'тарилиши билан маҳсулот таннархи пасаяди, аммо кейинчалик о'сиш билан рентабеллик даражаси маҳсулот бирлиги таннархини ва инвестициялар рентабеллигини оширади камаймайди. Шунинг учун энг мақбулини танлаш учун экинларни этиштириш технологиясига иқтисодий баҳо бериш керак.[4]

Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, кузги рапснинг экиш меъёри кам ўрганилган. Шунинг учун бизнинг тадқиқотимиз мақсади Тошкент вилояти суғориладиган шароитларида ҳар хил экиш меъёрларининг кузги рапснинг ҳосил элементларига таъсирини ўрганишдир.

Илмий тадқиқот ишлари 2021-2022 йиллари Тошкент давлат аграр университетининг “Қишлоқ хўжалигида инновацион ишланмалар ва маслаҳат Маркази” тажриба даласининг типик бўз тупроқлар шароитида ўтказилди. Тажриба экилган умумий майдон 0,10 га. Тажрибада кузги рапснинг “Ясна” нави 10 сентябр куни экилди. Экиш меъёрларининг кузги рапс ҳосил элементларига таъсирини ўрганиш мақсадида 4 хил экиш меъёри – 0.8, 1,0,1.2,1.4 млн. унувчан уруғлар экилди. Тупроқни ҳайдашдан олдин минерал ўғит $П_{80}К_{120}$ миқдорда ва экиш билан бирга азот $Н_{20}$ миқдорда берилди.

Кузги рапс навларининг ўсиши ва ривожланишига экиш меъёрининг таъсири тадқиқот натижаларида аниқланди. Ўсимликнинг бўйи ўсув даври охирида аниқланди (Расм-1).

Кузги рапс пояси экиш меъёри оширилган вариантларда тажрибадаги ўрганилган учта навда ҳам баланд бўлиб ўсиши аниқланди. Гектарига 0.8 млн.дона/га уруғ экилган вариантда Ясна навида 121.0 см баландликда ўсган бўлса Сармат навида 3.7 см га пастроқ бўлиб ривожланди, лекин Лорис навида аксинча Ясна навига нисбатан ўсимлик бўйи 3.2 см га баланд бўлиб ўсиши аниқланди.

Расм-1

Кузги рапс навларининг поя баландлигига экиш меъёрининг таъсири, см



Экиш меъёри 0.8 млн.дона/га дан 1.4 млн.дона/га гача оширилган вариантларда ўсимликлар 5.7 см дан 7.8 см гача баланд бўлиб ўсиши аниқланди. Бунда Ясна назорат навида ўсимлик бўйи ўртача 126.7 см, Сармат навида 123.8 см ва Лорис навида 132.0 см баландликда поялар ривожланган.

Кузги рапснинг ўсиши ва ривожланишига экиш меъёрининг таъсири сезилмади, лекин навлар орасида ўсув даврида фарқ борлиги аниқланди (1-жадвал).

Ясна назорат нави уруғи экилгандан кейин 17-18 кунда тўла майсалаш фазасига кирди. Эрта баҳорда март ойининг бошида поялаш фазаси кузатилди, поялаш фазаси майсалагандан кейин 157-158 кунда кузатилди. Поялаш фазасидан 20 кун ўтгач гуллаш фазаси, 17 кундан кейин қўзоқлаш ва пишиш фазаси 48-49 кундан кейин кузатилди. Экишдан тўла пишишгача умумий ривожланиш даври 242-243 кунни ташкил қилди.

Сармат нави уруғи экилгандан кейин Ясна назорат навига нисбатан 2-3 кун эрта майсалади. Эрта баҳорда март ойининг бошида поялаш фазаси майсалагандан кейин 162 кунда кузатилди, аммо назорат навига нисбатан 4 кунга кечикди. Поялаш фазасидан 23 кун ўтгач гуллаш фазаси, 20 кундан кейин қўзоқлаш ва пишиш фазаси 47 кундан кейин кузатилди. Экишдан тўла

пишишгача умумий ривожланиш даври 248-250 кунни ташкил қилди. Ушбу нав Ясна назорат навига нисбатан 6-8 кун кеч пишиши аниқланди.

Лорис нави уруғи экилгандан кейин Ясна назорат навига нисбатан 2-3 кун эрта майсалади. Эрта баҳорда март ойининг бошида поялаш фазаси майсалагандан кейин 162 кунда кузатилди, аммо назорат навига нисбатан 4 кунга кечикди. Поялаш фазасидан 20 кун ўтгач гуллаш фазаси, 15 кундан кейин қўзоқлаш ва пишиш фазаси 46 кундан кейин кузатилди. Экишдан тўла пишишгача умумий ривожланиш даври 243-244 кунни ташкил қилди. Ушбу нав Ясна назорат навига нисбатан 1-2 кун кеч пишиши аниқланди.

1-жадвал

Кузги рапс ўсиш фазаларига экиш меъёрининг таъсири, кун

Вариант	Навлар номи	Экиш меъёри, млн.дона/га	майсалаш	Поя ҳосил қилиш фазаси	Гуллаш фазаси	Қўзоқчалаш фазаси	Пишиш фазаси	Умумий пишиш
1	Ясна (назорат)	0.8	17	157	20	17	49	243
2		1.0	18	158	20	17	48	242
3		1.2	18	158	20	17	48	242
4		1.4	18	158	20	17	48	242
5	Самрат	0.8	15	162	21	18	47	248
6		1.0	15	162	23	20	47	250
7		1.2	15	162	23	20	47	250
8		1.4	15	162	23	20	47	250
9	Лорис	0.8	15	162	20	15	46	243
10		1.0	15	162	20	16	46	244
11		1.2	15	162	20	15	46	243
12		1.4	15	162	20	15	46	243

Хулоса. Кузги рапснинг навларининг ўсиши ва ривожланишига экиш меъёрининг таъсири сезиларли даражада кузатилган бўлиб, экиш меъёри бўйича ўсимликларнинг бўйи экиш меъёри оширилган, яъни гектарига 1.4 мл./да уруғ экилган вариантда баланд бўлиб ўсиши ва ўсув даври Сармат навида Ясна ва Лорис навига нисбатан 6-8 кун кеч пишиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кадыров, М.А. Некоторые аспекты селекции сортов с широкой агроэкологической адаптацией / Н.А. Кадыров, С.И. Гриб, Ф.Н. Батуро // Селекция и семеноводство. – 1984. – №7. – С.

2. Корчагин, В.А. Ресурсосберегающие технологии возделывания сельскохозяйственных культур. Практическое руководство / Горшков, В.И. Результаты испытаний сортов ярового рапса в условиях лесостепи ЦЧР, 2001. – С. 94. 2005. – С.
3. Литвиненко, Н.А. Селекция на повышение адаптивного потенциала озимой пшеницы / Н.А. Литвиненко // Вестник сельскохозяйственной науки. –//Неттевич, Э.Д. Культура поля и селекция /Амелин, А.В. Значение сорта в повышении эффективности производства зерна озимой пшеницы в природно-экономических условиях Орловской области / А.В. Амелин, А.Ф. Мельник, В.И. Мазалов, А.Н. Николаев // Зернобобовые и крупяные культуры. – 2013. – № 3. – С. 57-65 1990. – №5. – С. 98-106. 1986. – С. 22-38.
4. Лопаткина Е. Д., Эсенкулова О. В. Промежуточные культуры как способ увеличения продуктивности пашни // Аграрный вестник Урала. – 2012. – № 8. – С. 10–12

BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA INTEGRATSION YONDASHUV

Mamanazarova Gulhayo

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirishda ta’limga integratsion yondashuvning ahamiyati va fanlararo integratsiyaning mohiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar*:* integratsiya, fanlararo bog‘liqlik, integratsiyalangan kurs, integratsion yondashuv, tabiiy-matematik sikl fanlari, ko‘p predmetlilik, integratsion dars, “olam-tabiat-inson” tizimi.

Abstract. The article talks about the importance of an integrated approach to education and the essence of interdisciplinary integration in the development of thinking of primary school students.

Keywords: Integration, interdisciplinarity, integrated course, integrated approach, science of the natural-mathematical cycle, multi-subjectivity, integrated lesson, "universe-nature-human" system.

Аннотация. В статье говорится о важности комплексного подхода к обучению и сущности межпредметной интеграции в развитии мышления младших школьников.

Ключевые слова: интеграция, межпредметная связь, интегрированный курс, интегрированный подход, естественно-математический цикл наук, полипредметность, интегрированный урок, система «вселенная-природа-человек»

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi[32] PF-5712 sonli farmonida O‘zbekiston Respublikasini ta’lim sohasida eng rivojlangan 30 davlat qatoriga kiritish rejasi qo‘yilgan bo‘lib, ushbu maqsadni amalga oshirishda ta’lim sifatini oshirish, uni yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb vazifalardan biridir. Globallashuv jarayoni fan va ta’lim jarayoniga keskin ta’sir qilayotgan bugungi shiddatkor davrda esa ta’limni integratsion yondashuv asosida tashkil etish uning samaradorligini kafolatlovchi omillardan biri sifatida tan olinmoqda. Jumladan, boshlang‘ich ta’limga bunday yondashish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zi-dan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan mavzularning izchil va aniqligini, puxta o'rganilganligi va o'zaro mantiqiy aloqalarni ta’minlashni talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialining ixchamligi, bundan tashqari, o'quv materialini o'rganishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan, ona tili va o‘qish savodxonligi, matematika, texnologiya, tabiiy fanlar darslarida shu fanlar asoslari bilan bir qatorda fizika, geografiya, biologiya, iqtisod fanlariga poydevor sifatida turli tushunchalar ham o‘rgatiladi. Buni 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” faniga kiritilgan mavzular misolida ham ko‘rishimiz mumkin: “Qishda uxlaydigan hayvonlar”, “Sayohatchi qushlar” (zoologiya), “Yer ostida nima bor?” (geografiya), “Bakteriya va mikroblar” (biologiya, odam va uning salomatligi), “Foydali nonushta”, “Tanamizni o‘rganamiz” (odam va uning salomatligi). Bu kabi mavzularda o‘quvchilarning so‘z boyligi va ona tiliga oid bilimi oshishi bilan bir qatorda, yuqori sinfda o‘tiladigan fanlar uchun ham poydevor qo‘yiladi. Shunday ekan, fanlararo aloqalar o'qituvchiga barcha o'qitilayotgan darslarda atrof-olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ish olib borishga imkon beradi. Boshlang'ich maktabdagi har bir fan bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matemalik sikl fanlari bilan uzviy bog'liq, bu kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni o'rganishga bo'lgan faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog'liq. “Fanlararo aloqalarni amalga oshirish - integratsiya turlaridan biri.

[32] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinng O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5712 sonli farmoni. 2019-yil 29-aprel. https://lex.uz/docs/-4312785

Aynan integratsion darslarda olam haqida uzuq-yuluq, parchalangan bilimlardan farqli o'laroq bilimlar bir butun, yaxlit tizimda beriladi. Ta'limda integratsiyaning xilma-xiI turlari mavjud: - ko'p predmetlilik (bunda fundamental fanlarni qiyoslash) asosida; - chegara fanlar asosida; - asosiy fanlar asosida.

Bunday darslarda “olam-tabiat-inson” tizimida bilimlar berilib, turli faoliyatlar asosida ko'nikma va malakalar uzviy shakllanib boradi. Ko'rinib turibdiki, integratsion dars yuqori samara beradi. Bunda o'quvchida olam bir butunlikda namoyon bo'ladi”.[33]

Bu esa o'z navbatida mantiqiy, izchil, atrof-olam haqida to'laligicha fikrlashga o'rgatadi. “Robert Karlosning aytishicha, boshlang‘ich maktab faqat o‘qish, yozish va sanashni o‘rgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirish kerak. Chunki har bir bola shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag‘batlantirish, tabiiy qobiliyat singari, uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir”.[34]

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf darslarini integratsion yondashuv asosida tashkil etish o‘quvchilar dunyoqarashining o‘sishiga; olam, tabiat haqida har tomonlama to‘kis tasavvurga ega bo‘lishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinng O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5712 sonli farmoni. 2019-yil 29-aprel.
2. K. Mavlonova va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. (1-qism). Toshkent:RTM, 2021.
3. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Ilm-ziyo”, 2009.
4. R. Shodiyev, O.Aslanova. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. Darslik. Qarshi,2021.

[33] R. Mavlonova, N. Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Ilm-ziyo”, 2009.

[34] R. Shodiyev, O.Aslanova. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. Darslik. Qarshi,2021.

“BOSH” SOMATIZMINING POLISEMATIZM BIRLIGI SIFATIDA O`RGANILISHI

Alimova Sarvinoz Sobirovna
Samarqand shahar 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tiliva adabiyot fani o‘qituvchisi

Tilning somatik qatlami uning ajralmas qismi sifatida universallikka ega leksik guruh sanaladi. Ushbu qatlam tadqiqot obyekti sifatida qator ishlarning obyekti bo‘lib, somatizmlarni o‘rganish tilni etimologik, qiyosiy-tipologik lingvokulturologik va yana bir qancha aspektlarini tahlil qilishga keng yo‘l ochadi.

Somatizmlar – kishi va hayvon tana a’zolarining nomlaridir. Bu termin biologiya va tibbiyot ilmida odam tanasi bilan bog‘liq tushunchalar hamda insonning psixik holati nuqtayi nazaridan ham ishlatiladi. Tilshunoslikda bu termin kishi organizmi bilan bog‘liq barcha a’zo nomlarini ifodalanishi nuqtayi nazaridan ishlatiladi. Ular shuningdek o‘ziga aynan tana nomlarini komponent sifatida oluvchi leksik birliklarni ham bildirib keladi.

Y.N.Karaulov ta’kidlaganidek, “tilni o‘z chegarasidan tashqariga chiqmasdan, uning yaratuvchisi, tashuvchisi, foydalanuvchisi – odamga , o‘ziga xos lingvistik shaxsga murojaat qilmasdan bilish mumkin emas”[35]. [Karaulov Y. N., 1987: 7] til yaratuvchisiga murojaat qilish, ya’ni. insonga, uning bilimi va, avvalambor, uning tuzilishini nomlaydigan va aks ettiradigan somatik lug‘atni tahlil qilmasdan hosil bolgan lug‘atni tahlil qilmasdan va tushunmasdan samarali bo‘lishi mumkin emas. Somatizmlarning atrofdagi dunyo haqiqatlari bilan aloqalarining kengligi inson tanasi qismlarining ontogenetik funksional xususiyatlari va ularning keng ramziyligi bilan izohlanadi.

Somatik frazeologik birlik esa inson yoki hayvon tanasi a’zolari nomlari qatnashgan frazeologizmlar bo‘lib, tilda ularning keng qo‘llanilishim`no-mazmunnning xilma-xilligi, obrazliligi,xalqchilligi, stilistik bo‘yoqdorligi hamda grammatik struktura jihatidan soddaligi bilan ifodalanadi.

Mazkur ishimiz somatik birliklarning semantikasiga to‘xtalgan holda olib boriladi. Bunda somatik leksikaning universalligi kuzatilib, dunyoning turli xalqlarida asosiy ramziy birliklarga aynalgan vazifadoshlik yuzaga chiqadi. Masalan, bosh – bilim, aql ramzi hisoblansa, oyoqlar – harakat, qo‘llar esa ish bilan mashg‘ullik yoki mansab ramzi sanaladi.

Polisemantik somatizmlarning turli jihatlari qator tillarda tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Ular orasida tilshunos olimlar T. M. Aliyevning “Полисемантизм

[35] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Караулов Ю. Н., 1987. - 264с.

соматической лексики в разносистемных языках”,M.N.Jadeykoning “Антрополингвистические аспекты полисемии соматизмов”,R.Yu.Muguning “Полисемантизм соматической лексики (на материале русского и немецкого языков)” kabi asarlarini ta’kidlash mumkin.

O‘zbek tilida somatizmlarni tadqiq qilish borasida ularning frazeogizmlarning komponenti sifatida o‘rganish bo‘yicha A.Isayevning “Соматические фразеологизмы узбекского языка”,Sh.R.Usmonovaning “Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар” kabi qator tadqiqotlarni sanashimiz mumkinki, ularning barchasi mavzuni yoritishda asqotadi.Zeroki, jahondagi ko‘pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi.

Avvalo, *bosh* somatizmining etimologiyasini tahlil qilishda, uning deyarli barcha turkiy tillarda *bash* shaklida bo‘lganini , hozirda ham shu shaklda ishlatilishini anglaymiz. [36] O‘zbek tilida esa cho‘ziqlik belgisi yo‘qolib, a unlisi o unlisiga almashishi natijasida *bosh* shaklida talaffuz qilinishini kuzatishimiz mumkin.[37]

Bosh leksemasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarni anglatishini ko‘rib chiqar ekanmiz, bunda biz “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[38]dan hamda leksikografik kuzatuvlarimizdan foydalandik:

1) inson yoki biror bir hayvonning boshi (qizimning boshi, ho‘kizning boshi)
2) inson, jon ma’nosida: Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.(Maqol)
3) hayvonlar sonini hisoblash birligi(besh bosh qoramol terisi)
4) boshliq, rahbar (yurt boshi, davraning boshi)
5) aql-hush,miya(boshing bilan ishla)
6) qobiliyat, imkoniyat(yosh boshi bilan)
7) lavozim, mansab jihatidan katta(bosh shifokor)
8) ulkan, katta,asosiy(bosh sovrin, bosh harf)
9) eng muhim, asosiy yetakchi(bosh sabab, bosh gap)
10) eng birinchi, oldingi(bosh farzand)
11) tik narsalarning tepa qismi , uchi(tog‘ boshi, maysa boshi)
12) biror bir jarayonning boshlanish qismi(to‘y boshi, ko‘rsatuvning boshi)
13) yon, old, tomon(do‘stingning boshiga bor)
14) biror bir o‘rinning bosh qo‘yiladigan yuqori tomoni (qabrning boshi,karavotning boshi)

[36] Этимологический словарь тюркских языков.Составитель Дибо А.В.-Астана :ТОО”Prosper Print”,2013.-С.315.
[37] Ўзбек тилининг этимологик луғати.Раҳматуллаев Ш.-Тошкент :”Университет”,2000.Б.60.
[38] Ўзбек тилининг изоҳли луғати I жилди. А. Мадвалиев таҳрири остида.-Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти,2006.Б.332-339.

15) ba’zi otlar birikkan holda shu predmetning o‘zi yoki uning atrofini bildirishi(o‘choq boshi)

16) uzun va davomli maydon, obyektlarning boshlanishi(daryo boshi)

17) biror bir voqea-hodisaga sabab bo‘lgan narsa(baxtsizlikning boshi)

18) ba’zi o‘simliklar hisobi(bir bosh uzum)

19) ba’zi o‘simliklarning dumaloq shakldagi hosili, mevasi(bir bosh karam)

20) sanoq sonlar bilan kelganda karra ma’nosida(besh bosh qilib olish)

21) inson, jon (sanash)ma’nosida: (odam boshi bittadan non berish)

22) kishilarga hamroh, birga inson (bosh ega)

Bosh somatizmining yuqorida berilgan barcha semalari yillar davomida uning markaziy semasi (inson va hayvonlarning boshi) atrofida paydo bo‘lib, uning deyarli barcha ma’nolari umumturkiy tillar leksikasini tashkil qiladi.[39]

Ushbu leksemani struktur jihatdan tahlil qilishda uning bir qancha sememalari o‘rtasidagi bog‘liqlik va funksional-semantik munosabatni kuzatamiz. Shu jihatdan uning ma’nolarini 3 yirik turga ajratishimiz mumkin:

1.*Bosh* somatizmining substantiv funksiyalarni bajaruvchi sof leksik ma’nolari

2.Turli variatsiyalardagi aniqlovchi ma’nolar

3.*Bosh* leksemasining so‘zlardan keyin kelgan holatlardagi funksional ma’nolari

Polisemantik so‘zning semantik birligi uning asosiy va ikkilamchi ma’nolari o‘rtasidagi ma’lum bir bog‘liqlik orqali aniqlanadi. "Polisemantik so‘zning alohida ma’nolari, ularning xarakteristik majmuyi bir-biriga butunlay to‘g‘ri kelmaydi: bu kompleksning faqat alohida tarkibiy qismlari mos kelishi mumkin".[40]

Polisemantning ikkilamchi ma’nolari bir-biri bilan o‘zaro umumiy sememalari yordamida bog‘liq holda yoki ular bizning ongimizda aks ettirilgan alohida shaxslar narsalar, hodisalar, faktlar orasidagi turli xil assotsiatsiyalarga asoslangan holda yuzaga keladi. Masalan, tadqiq etilayotgan somatizm “odam” antroponimik ma’nosiga asoslanib, quyidagi ikkilamchi ma’nolar yuzaga keladi:

- ✓ inson, jon (odamlarni sanashda)
- ✓ boshliq, rahbar (urug‘, jamoa, biror bir hududda ustunlik , “oqsoqol”, xizmat ko‘rsatish holatlarida boshqalardan ustun turadigan shaxs)
- ✓ turmush o‘rtoq, er (so‘zning eskirgan holatida)
- ✓ ong, aql
- ✓ fikr, qobiliyat, iste’dod

[39] Система значений полисеманта баш «голова» в тюркских языках. Гаджиахмедов Н.Э., Асельдерова Б. Журнал «Современная наука: актуальные проблемы теории и практики».С.116.

[40] Три заметки о смысловых пересечениях // Сокровенные смыслы: Слово. Текст. Культура. Шведова Н.Ю. М.: Языки славянской культуры, 2004. С. 242-254.

Demak, *“bosh”* somatizmini tahlil qilish jarayonida shuni ko‘rishimiz mumkinki, u o‘zida polisemantlik namoyon etgan holda, birlamchi va ikkilamchi semalarni mujassamlashtiradi. Ikkilamchi semalar,asosan, metaforik, metonimik, sinonimik hamda vazifadoshlik asosidagi ma’no ko‘chishlarida yuzaga keladi. Leksema bildirib kelayotgan somatik kodlar esa insonni va atrofdagi voqea-hodisalarini tushunish va o‘zlashtirishning milliy an'analarini o'zlashtirgan tilning universalligi va o'ziga xosligini aniq namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс.канд.филол.наук.-Т., 1976. -146 с.
2. Потапов Л.П. Умай – божество древних тюрков в свете этнографических данных // Тюркологический сборник,1972. – Москва: «Наука»,1973.– С.265-266
3. Состав человеческий: Человек в традиционных соматических представлениях русских.-СПб.:«Петербургское Востоковедение».2001.С.14.
4. Система значений полисеманта баш «голова» в тюркских языках. Гаджиахмедов Н.Э., Асельдерова Б. Журнал «Современная наука: актуальные проблемы теории и практики».С.116.
5. Три заметки о смысловых пересечениях // Сокровенные смыслы: Слово. Текст. Культура. Шведова Н.Ю. М.: Языки славянской культуры, 2004. С. 242-254.
6. Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар:
7. ф.ф. н. дисс. – Тошкент,1998. 136 б.
8. Этимологический словарь тюркских языков.Составитель Дибо А.В.- Астана :ТОО”Prosper Print”,2013.-С.315.
9. Ўзбек тилининг этимологик луғати.Раҳматуллаев Ш.-Тошкент : “Университет”,2000.Б.60.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати I жилди. А. Мадвалиев таҳрири остида.- Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти,2006.Б.332-339.
11. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири/ таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур.Тошкент. “Movarounnahr”, 2020.Б.597.
12. Alpomish. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi – 2018. 368.

Internet saytlari

13. www.google.com

14. www.yahoo.com
15. www.wikipedia.com

MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

M.Berdibaev
Nukus Davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Yuldashev Murodjon
Xojayli tumani 40-sonli maktabining katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu o'quv qo'llanma 5111700- boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda matematika o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, tamoyillari, ta'lim metodlarining tasnifi, matematika fanlarini o'qitish jarayonida o'qitish metodlari, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, matematikani o'qitish shakllari, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Metod, o'qitish metodi, og'zaki, amaliy, ko'rsatmalilik, induksiya, deduksiya, analogiya, repraduktiv, produktiv metodlar, izohli illyustratuv metod, qisman izlanish,bilimlarni muammoli bayon etish, didaktik o'yinlar, mustaqil ishlar va hokazo…

O'qitish metodlari haqida tushuncha. O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri. O'qitish metodi tushunchasiga olimlar tomonidan turli ta'riflar berilgan. O'qitish metodi bu o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib ,uning evaziga o'quvchilar bilim,malaka va ko'nikmalarni egallab oladilar.O'quvchilarning dunyoqarashi shakllanadi,hayotga va mehnatga tayyorlanadi. Shunday qilib, o'qitish metodlari o'zlashtirish, tarbiyalash va rivojlanish kabi uchta asosiy vazifani bajaradi. O'qitish metodlaridan, ta'limning yangi mazmuniga, yangi vazifalariga mos keladiganlariga ongli tanlab olish uchun oldin hamma o'qitish metodlarini tasniflashni o'rganib chiqish zarur. Matematika metodikasiga doir tadqiqotlarda boshqa metodlardan ham foydalaniladi. Odatda bu metodlarning hammasidan birgalikda foydalanish, bu xil natijalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Hozirgi zamon didaktikasida o'qitish metodlari tasnifida har xil yondoshish mavjud. Metodga nisbatandan turlicha munosabat kelib chiqib metodning o'ziga ham turlicha ta'rif berganlar. Masalan: L.N.Skatkin metodga qo'yidagicha ta'rif beradi. "O'qitish metodlari - bu darsda o'quvchilarning bilish faoliyatlarini tashkil etish usullaridandir" Bu fikrga kuchli psixolog I.YA.Lerner ham qo'shiladi. Undan tashqari metodist Nekandarov o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'qitish metodlariga qo'yidagicha ta'rif beradi:

“O’qitish metodlari bu darsda o’quvchilarning o’qish faoliyatlarini boshlash usullaridir” Har ikkala ta’rif ham bir- biriga o’xshash o’quvchilarning o’quv faoliyatlarini tashkil etish va boshqarishga bagishlangan. Lekin keyinrok G.I.Shukinaning pedagogika kitobida o’qitish metodlariga qo’yidagicha ta’rif berilgan. “O’qitish metodlari bu darsda o’quv tarbiya maqsadlariga qaratilgan o’qituvchi va o’quvchilarning birgaikdagi ish faoliyatlaridir” Bu ta’rif bir muncha to’liq va mukammaldir. Chunki metod deganda ham o’qituvchi ham o’quvchi faoliyati birgalikda qaralayapti. Yoki Moskvada o’qitishning mazmuni va metodlari ilmiy tekshirish institutining biologiya bo’limida shunday ta’rif beriladi: “O’qitish metodlari - bu darsda o’qituvchi va o’quvchilarning tartiblashtirilgan ish faoliyati bo’lib, uning evaziga o’quv tarbiya ishlari hal etiladi” shu institutdagi boshlang’ich ta’lim sektorida o’qitish metodlariga qo’yidagi ta’rif beriladi. “O’qitish metodlari bu darsda o’qituvchi va o’quvchvilarning birgalikdagi faoliyati bo’lib, evaziga bilim, malaka, ko’nikma beriladi. dunyoqarash shakllanadi. O’quvchilarda mustaqllik elementi sodir bo’ladi va ular oayotga, mehnatga tayyorlanib boradi”. Bizning fikrimizga eng maqsadga muvofiq, har xil metodlarni o‘z ichiga olgan tasnifidir. O’qitish metodlari klassifikatsiyasiga har xil yondashishlar mavjud bo’lib, eng maqsadga muvofiq har xil metodlarni o’z ichiga olgan klassifikatsiya bu akademik YU.Babanskiy bergan klassifikaksiyadir. Umuman olganda, o’qitish metodlari o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikdagi faoliyatidan iborat ekanligini biz yuqorida ko’rib o’tdik. Binobarin, bunday faoliyat tashkil qilish, rag’batlantirish va nazorat qilishni nazarda tutadi Yuqorida keltirilgan ta’rifdan o‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatidan iborat ekani ko‘rinadi. Binobarin, bunday faoliyat tashkil qilish rag‘batlantirish va nazorat qilishni nazarda tutadi, shunga ko‘ra o‘qitish metodlari ham uchta katta guruhga bo‘linadi: o‘quv faoliyatini tashkil qilish metodlari; o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish metodlari; o‘quv faoliyatini samaradorligini nazorat qilish metodlari. O’qitish metodlarining turlari. O’quv -bilish faoliyatini tashkil qilish metodlarini bir nechta gruppalarga bo’lib klassifikaцiyalash mumkin. I. O’quvchilar bilim oladigan manbalar bo’yicha, og’zaki, ko’rsat mali va amaliy metod (tushuntirish suhbat, hikoya, kitob bilan ishlash va h.k.); ko’rsatmali metodlar (atrof-tevaraqdagi predmet va xodisalarni kuzatish); II.O’quvchi fikrining yo’nalishi bo’yicha; induksiya, deduksiya va analogiya; metodlar. III. Pedagogik ta’sir o’quvchilarning o’qishda mustaqillik darajasi bo’yicha o’qituvchi boshchiligida bajariladigan o’quv ishi metodi; o’quvchilarning mustaqil ishlari metodi. IV. O’quvchilarning mustaqil aktivliklari darajasi bo’yicha; izohli - illyustrativ metod; reproduktiv metod; bilimlarni problemali bayon qilish metodi; qisman izlanish va tadqiq qilish metodi; 1. Og’zaki metodlar. Bunda qisqa muddat

ichida hajmi bo'yicha eng ko'p axborot berish, o'quvchilar oldiga muamolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi. a) T u sh u n t i r i sh . Bilimlarni tushuntirish metodining mohiyati shundan iboratki bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa uni tayyor holda qabul qilib oladilar. Material bayoni esa puxta, aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak. Boshlang'ich matematika kursining bir qator masalalarini qarashda bilimlarning izchil bayoni zarur. Masalan, Ko'p xonali sonni I xonali songa yozma bo'lish algoritmi Ko'p xonali sonni I xonali songa yozma bo'lish algoritmini o'zlashtirish uchun izchil bayon zarurdir. Masalan: 1. 4088 ni 73 ga bo'lish kerak. Birinchi to'liqsiz bo'linuvchi 408 o'nlik. Demak, bo'linmada ikkita raqam bo'ladi. 2. Bo'linmaning o'nliklar raqamini topish uchun 408 ni 73 ga bo'lamiz, buning uchun 40 ni 7 ga bo'lamiz, 5 chiqadi. Tekshirish: 73 ni 5 ga ko'paytiramiz, 365 chiqadi, 365 ni 408 dan ayirish kerak, 43 qoladi, bu 73 dan kichik, 5 raqami to'g'ri keladi. Shuni yozamiz. 3. Ikkinchi to'liqsiz bo'linuvchi 438 birlik. Bo'linmaning birliklari raqamini topish uchun 438 ni 73 ga bo'lish kerak, buning uchun 43 ni 7 ga bo'lamiz, 6 chiqadi. Tekshirish: 73 ni 6 ga ko'paytiramiz, 438 hosil bo'ladi. Hamma birliklar bo'lindi; 6 raqami mos keladi. Yozamiz. 4. Javob: 4088 va 73 ning bo'linmasi 56 ga teng. 1yoki 0 ga ko'paytirish xollari. Bolalarda bu amal haqida tarkib topib qolgan bilimlar I yoki 0 ga ko'paytirish xolini tushuntirishlariga yordam bermay aksincha ularga bilimlarni tayyor holda etkazish kerak. b) S u x b a t Bu eng ko'p tarqalgangan etakchi o'qitish metodlaridan biri bo'lib, darsning turli bosqichlarida, har xil o'quv maqsadlarida qo'llanilishi mumkin. Suhbat-bu o'qitishning savol-javob metodi, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilim-larini o'zlashtirishliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus taxlangan savollar sistemasi va o'nga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy va tar-biyaviy masalalarini hal qilishga olib keladi. O'qitishda suhbatning 2 xilidan, ya'ni katexizik va evristik suhbatdan foydalaniladi. Katexizik suhbat shunday savollar sistemasi asosida tuziladiki, bu ilgari o'zlashtirilgan bilimlar, ta'riflarni oddiygina qayta eslashni talab qiladi. Bu suhbatlar asosan bilimlarni tekshirish va baholashda, yangi materialni mustahkamlashda va takrorlashda foydalaniladi. Evristik suhbat-(grekcha) topaman, ochaman degan ma'noni bildirib, o'qitishning shunday savol-javob formasiki, bunda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilimlarini bermaydi, balki qo'yilgan savollar orqali ularning o'zlarini oldingi o'zlashtirgan bilimlari asosida, kuzatishlari shaxsiy hayotiy tajribalarni asosida yangi tushunchalarga, xulosa va qoidalarga olib keladi. v) H i k o ya. O'qituvchining bilimlarini tushuntirishi hikoya shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bundan asosan matematika tarixining rivojlarini o'lchov sistemalari rivojlanishi haqida tarixiy ma'lumotlarini berish

uchun foydalaniladi. g)O’ q u v ch i l a r n i n g k i t o b b i l a n i sh l a shl a r i , - og’zaki o’qitish metodlarining ko’rinishlaridan biridir. Kitob muhim bilim manbaalaridan biridir. O’qish jarayonining hamma bosqichlarida darslik va kitob bilan ishlash amalga oshiriladi. Darsliklarda har xil mashqlardan oldin berilgan ko’rsatmalarni o’qishga katta e’tibor berish kerak. Ayniqsa, bu algoritmik xarakterdagi konkret ko’rsatmalardan foydalanishda muhimdir, bunday ko’rsatmalar III sinf darsligida yozma hisoblash usullarini qarashda berilgan. Bunday ishning yakuni rasm, chizma og’zaki ifodalar matematik yozuvlar yordamida yangi bilimlarni musitaqil egalash uchun darslik ochib beradigan imkoniyatlarning hammasidan foydalanishdan iborat bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E. Matematika o’qitish metodikasi (OO’Y uchun darslik)Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil 426b.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun ) Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil.
4. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2006 yil. 20 b/t.
5. Tadjiyeva Z.G.,Abdullayeva B.S.,Jumayev M.E.,Sidelnikova R.I.,Sadikova A.V.Metodika prepodavaniya matematiki.-T. “Turon-Iqbol” 2011. 336s.

GO‘ZA YETISHTIRISHDA BEGONA O‘TLARGA QARSHI ABONE SUPER GERBITSIDNING TA’SIRINI ILMIY ASOSLASH HAQIDA ILMIY ISH HAQIDA MA’LUMOT

Mamatqulov Romazon Ziyodullayevich
ToshDAU, magistranti.
mamatqulovramazon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada go‘za yetishtirishda begona o‘tlarga qarshi abone super gerbitsidning ta’sirini ilmiy asoslash haqida ilmiy ish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlari: G‘o‘za, gerbisid, qishloq xo‘jaligi, begona o‘tlar, dalada o‘sadigan, ilmiy ish.

Annotation. This article provides information about the scientific work on the scientific basis of the effect of abone super herbicide against weeds in the cultivation of wheat.

Key words: Cotton, herbicide, agriculture, weeds, growing in the field, scientific work.

Аннотация. В данной статье представлена информация о научных работах по научному обоснованию действия гербицида абоне супер против сорняков при возделывании пшеницы.

Ключевые слова: Хлопок, гербицид, сельское хозяйство, сорняки, выращивание в поле, научная работа.

Dissertatsiya mazvzuning dolzarbligi va zarurati: Qishloq xo‘jaligi ekinlari maydonlarida begona o‘tlarga qarshi kurash tadbirlari hozirgi davr dehqonchiligining dolzarb mavzularidan biridir.

Xozirda dunyoning 85 ta mamlakatida 33 mln. gektar maydonda paxta etishtirilib, 26 million tonna atrofida hosil olinmoqda.Dunyo dehqonchiligida 3000 dan ortiq turdagi begona o‘tlar tarqalgan bo‘lib ulardan 1700 turi juda katta iqtisodiy zarar keltirib, shulardan 200 dan ortiq turi asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari bilan kuchli raqobatda bo‘ladi. Begona o‘tlarga qarshi agrotexnikaviy va kimyoviy kurash tadbirlarini uyg‘unlashgan holda olib borish AQSH, Braziliya, Xitoy, Avstraliya, Xindiston, Pokiston,Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya va boshqa davlatlarda yuqori natijalarga erishilmoqda.

Respublikamizda g‘o‘za parvarishida qo‘llaniladigan samarali gerbitsidlarni ta’siri hamda tuproq unumdorligi va paxta hosildorligini oshirishni ta’minlovchi usullari bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Haraqatlar strategiyasida “3.3. qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchilrivojlantirish,mamlakat oziq-ovqat havfsizligini yanada mustahkamlash ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni,eng avvalo zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son qaroriga muvofiq Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-5853-son *farmoniga muvofiq* zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash natijasida ishlab chiqarishda ertagi, sifatli va haridorgir paxta tolasi etishtirish uchun har bir g‘o‘za navi bo‘yicha agrotexnik tadbiriy choralarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. G‘o‘za va g‘o‘za majmuidagi ekinlarni etishtirish agrotexnikasi bo‘yicha olib borilgan tajribalar natijalariga ko‘ra, ushbu tajribalarning asosiy maqsadi yalpi mahsulot ishlab chiqarishni 30 foizga ko‘paytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini esa 20 foizga kamaytirishga qaratilgan hamda qishloq xo‘jaligi texnikasi, yonilg‘i-moylash materiallari, mineral o‘g‘it, urug‘lik, shuningdek, kimyoviy va biologik himoya vositalari bilan ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 dekabrdagi 1025 sonli qarorida hamda 2020 yil 10 yanvardagi 03/1-1769 sonli 2020 yilda qishloq xo‘jalik ekinlarni etishtirish chora tadbirlari dasturiga asosan 2020 yilda jami 1033.6 mingn gektar maydondaa paxta etishtirish belgilangan.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari orasida o‘sadigan begona o‘tlar hosil miqdori va sifatini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.Dalalarda bajariladigan ishlarning asosiy qismini begona o‘tlarni yo‘qotishga qaratilgan tadbirlar tashkil qiladi. Agrotexnik kurash choralari, almashlab ekish va gerbitsidlardan uyg‘unlashgan holda foydalanilmasa dalalarni begona o‘tlardan toza bo‘lishiga erishib bo‘lmaydi. Bunda gerbitsidlarni qo‘llash eng samarali vosita hisoblanadi Hozirgi davrda sug‘oriladigan erlarda gerbitsidlardan foydalanish kamayganligi tufayli begona o‘tlar miqdori yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Begona o‘tlarni yo‘qotish hamda ularning ko‘payishini oldini olishda almashlab ekishni to‘g‘ri tashkil etish va samarali gerbitsidlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ekin maydonlarini ajriq, g‘umay, qo‘ypechak va salomalaykum kabi begona o‘tlar bilan kuchli ifloslangan dalalarni o‘z vaqtida begona o‘tlardan toza bo‘lishida gerbitsidlarni qo‘llash eng samarali usul hisoblanadi. CHunki, kimèviy preparatlarni qisqa vaqt ichida katta maydonlarda qo‘llash mumkin. YA’ni gerbitsidlardan foydalanish dehqonchilikning intensiv elementlaridan biri hisoblanadi Respublikamizda gerbitsidlarni qo‘llashda atrof–muhitni muxofaza qilishga katta e’tibor berilmoqda. Bu yo‘nalishda kam miqdorda ishlatib yuqori samaraga erishish imkonini beradigan gerbitsidlarni qo‘llash asosiy o‘ringa chiqmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng kam me’èrda yaxshi samara beradigan gerbitsidlarni sotib olish imkoni tug‘ildi Raundap, Zellek super, Pantera, Fyuzilad, Nabukabi preparatlar ana shular jumlasidan hisoblanadi. Bundan tashqari gerbitsidlarni ketma-ket qo‘llash, navbatlab qo‘llash, aralashmalaridan foydalanish ham kimèviy kurash choralarining samaradorligini oshirishni ta’minlaydi SHu sababli biz ta’sir dorasi har xil bo‘lgan gerbitsidlarni ketma-ket qo‘llashning samaradorligi bo‘yicha g‘o‘za ekilgan maydonlarda tadqiqotlar olib bordik.

Paxtadan yuqori xosil olishda g‘o‘zani parvarishlash majmuidagi kompleks agrotexnik tadbirlar ichida mamlakatimizning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos maqbul qo‘chat qalinligini ta’minlash, ko‘chatlarni maydonda to‘g‘ri joylashtirish xamda oziqa rejimini ishlab chiqish dalalarda begona o‘tlarga qarishi kurashish dolzarb masala hisoblanadi.

Bunda o‘simlikda kechadigan fotosintetik jarayonlar tezlashadi, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi kuchayadi, oxir oqibatda g‘o‘zadan ertangi, yuqori va sifatli paxta xosili olishga erishiladi.

G‘o‘za parvarishida agrotexnik tadbirlarni hamda g‘o‘zani biologik xususiyatlarini hisobga olmasdan o‘tqazish paxta hosilini keskin kamayishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o‘z oldimizga paxta etishtirishda begona o‘tlarga qarshi gerbitsidlarni qo‘llash usullarini ishlab chiqishni g‘o‘za hosildorligiga ta’sirini ilmiy asoslashni maqsad qilib qo‘ydik.

Республикамизнинг 80-90 фоиз суғориладиган майдонлари кўп ва бир йиллик бегона ўтлар билан юқори даражада зарарланган. Айниқса йўқотишга кўп куч ва маблағ талаб этадиган: қамиш, ғумай, ажриқ, қўйпечак ва бошқалар бугунги кунда суғориладиган майдонларда кўп зарар етказмоқда. Бегона ўтлар қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилдорлигини пасайишига, сифатининг бузилишига ва ҳосилини ифлосланишига сабаб бўлмоқда. Кўп йиллик изланишлар натижасида пахта етиштирадиган майдонларда кўп ва бир йиллик бегона ўтларнинг 74 тури учраши ва улардан 35 тури энг кўп зарар етказиши аниқланган. Бегона ўтлар сони нисбатан кам бўлгани билан улар экинларга катта зарар келтиради. Суғориладиган ерларнинг ғўза етиштирадиган 85-90 фоиз майдонларида шудгорлаш ишларини бажаришида икки ярусли плугларнинг ишлатилмаслиги ва шудгорлаш техникаларининг маънавий эскирганлиги оқибатида далаларда кўп йиллик бегона ўтларнинг кўпайишига олиб келмоқда. Яъна бир асосий сабаби, ҳар йили кузги буғдойдан бўшаган майдонлар ёзда сифатсиз ҳайдалиши сабабдир.

Шуни таъкидлаш керакки, ғўза етиштириладиган далаларда бегона ўтлар тупроққа солинган минерал ўғитлардаги озиқ моддаларнинг 20 фоизагача ўзлаштириб олиши мумкин. С. А. Гильдиевнинг (1970) аниқлашича, ғўзанинг қуруқ массасида 1,2-2,2 фоиз азот, 0,6-1,2 % фосфор ва 1,5-2,4 % калий бўлиб, бегона ўтларда бу моддаларнинг миқдори мос равишда 2,5- 4,5; 0,5-2,0 ва 5,0 фоизни ташкил қилади. Сувни эса ғўзага нисбатан 2 баравар кўпроқ ўзлаштиради.

Кўп йиллик илмий изланишлар натижаларига кўра, бегона ўтларнинг зарари ҳисобига олинадиган ҳосилнинг камайиши 10,3 % ни ташкил этади ёки бу ҳар йили 3,0 миллиард сўмлик зарар демакдир. Жумладан, донли экинлар 11,9 %, дуккакли дон экинлари 15,5, пахта 8,1 %, зиғир 11,5 %, қанд лавлаги 9,0 %, картошка 7,0% ва сабзавот экинлари 11,0 фоизга камайиб кетади. Бу эса ишлаб чиқариш харажатларини, яъни қўл меҳнатини ,0-2,5 баробаргача (чопиқ ишларини 4-5 мартагача ўтказиш), ёқилғи мойлаш материаллари харажатларини 10-15 фоизга, меҳнат унумдорлигини пасайишига, ишга қўшимча ҳақ тўлашни 8-10 фоизга ошишига, пахта ва дон

экинларнинг ҳосилини 11,8-24,5 % камайишига ва сифати бузилишига, ўз навбатида етиштирилган маҳсулот таннархини ошишига сабаб бўлмоқда. (Хасанов ва б.,2018).

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-sonli “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.T.06.03.2020 y
2. Abdukarimov D., Nurmatov SH. - Kuzgi bug‘doydan keyin tuproqqa asosiy ishlov berish texnologiyalarini loviyaning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri. //Navlarni yangilash, joylashtirish va parvarishlash texnologiyasi. Toshkent, 2001. 9-10 b.
3. Aleev B.G.-Primenenie gerbitsidov v xlopkoseyuщey zone Uzbekistana. Toshkent, Fan, 1971. 108 b.
4. Aliev A.M. Effektivnost kompleksnogo ispolzovaniya navoza i gerbitsida. J. Zemledelie – 2003, № 2, b. 20.
5. Aleev B.G. Napravlenie issledovaniy v oblasti gerbitsidov v xlopkovodstve. J. Xlopkovodstvo, 1960, № 3, 21-s.
6. Aleev B.G. Ispolzovanie gerbitsidov v borbe s sornyakami xlopkovыx poley. (broshyura), Tashkent, 1963, 25-s.
7. Aleev B.G. Gerbitsidы i ix primenenie v xlopkovodstve (broshyura), Tashkent, 1965,28-s 49

Internet saytlari

8. https://givoyles.ru
9. http://lex.uz
10. www.wikipedia.org
11. http://scholar.google.com
12. www.scopus.com
13. www.elibrary.ru

БАДИИЙ АСАРЛАР ПАРАЛЛЕЛ КОРПУСИНИ ЯРАТИШДА ЛЕКСИКОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИ

Ахмедова Анорхон Насивали қизи
ЎзДЖТУ Таржимонлик факультети катта ўқитувчиси
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Сўнгги йилларда корпус тилшунослигининг ривожланиши ва лингвистик материалларни қайта ишлашнинг статистик усулларига эътиборнинг кучайиши турли тиллардаги параллел ёки ўхшаш матнлардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган қатор тадқиқотларнинг бажарилишига

сабаб бўлмоқда. Тадқиқотимиз жараёнида корпус тилшунослигида таржимашуносликнинг ажралмас қисмига айланиб бораётган таркибий қисмларидан бири – параллел матнларга асосий эътибор қаратилиши мақсадга мувофиқ.

Параллел матнлар корпус лингвистикаси таркибида фаннинг янги йўналиши сифатида қаралса-да, аммо унинг тарихи милоддан аввалги йилларга бориб тақалади. Милоддан аввалги 196 йилда Миср ибодатхоналари томонидан қирол Птоломей V га атаб тошга қиролни шарафловчи матнлар икки тилда (юнон ва миср тилларида) ёзилган. Бу биз ҳозир “параллел матнлар” деб атайдиган матнларнинг, яъни битта матннинг иккинчи ёки бир нечта тилларга таржима қилинган матнларнинг мукаммал намунасидир. Бу тош фанга Розетта тоши деб киритилган. 1822 йилда Жан-Франёис Шамполлионнинг Розетта тошини ўрганиши шуни кўрсатдики, иероглиф матн кодини ҳал қилишнинг калитидир, бу ёзувнинг ўрганилиши фанда жуда катта ўзгаришларга сабаб бўлиб кўплаб баҳс-мунозараларга ва афсоналарга нуқта қўйди. Розетта тоши тошга ишланган бошқа ёзувларга нисбатан кейинги бўлса ҳам, лекин матннинг тўлиқлиги ва икки тилда параллел тарзда берилганлиги боис бошқа тош ёдгорликларга қараганда мукаммалдир.

Ўн тўққизинчи асрнинг саксонинчи йилларидагина параллел матнлар тилни автоматик қайта ишлаш тизимида ишлатила бошланди. Уларни ишлатиш учун бир нечта уринишлар 50-йилларнинг охирида машина таржимасида синовдан ўтказилди. Аммо чекланган маълумотлар омбори ва компьютер сиғими шу йиллардаги компьютерларнинг сақлаш ва ҳисоблаш имкониятлари катта ҳажмдаги матнли маълумотларни киритишнинг қийинлиги ўша пайтда корпусдан фойдаланиш имкониятларини чеклаган.

Кейинчалик корпус таркибига таржима намуналарини сақлаш, қайта ишлаш ва таҳрир қилиш каби турли тадқиқотлар ўтказиш каби ғоялар пайдо бўлди. Ўтган асрнинг 70-йиллари охирида матнни параллел автоматик муқобиллаштиришнинг биринчи автоматик усули Мартин Кай ва Мартин Росчеисен [1] томонидан 1987 йилда ишлаб чиқилган. Улар катта ҳажмли ва турли даражадаги матнларни муқобиллаштириш учун бир қанча усуллар таклиф қилишган, яъни улар бир-бирини таржима қиладиган бирликларни ишлаб чиққан. Бу бирликларга *параграфлар, жумлалар, сўзлар ва ибораларни* киритишган.

Муқобиллаштирилган параллел матнларнинг қўлланилиши Ҳаррис [2] томонидан таклиф қилинган. У таклиф этган назария *таржима хотираларини тузиш, луғатлар* ва *икки тилли атамалар рўйхатини тузиш*ни

ўз ичига олади. Ҳаррис параллел корпуслар тиллараро маълумот олиш, компьютер ёрдамида ўқитиш ёки қиёсий тилшунослик ва таржимашунослик учун тадқиқот манбаси сифатида хизмат қилади, деган назарияни илгари сурган.

Параллел корпусга тегишли бўлган атамалар луғати кўп бўлмаса ҳам, у билан боғлиқ бир қанча ўзига хос терминлар мавжуд. Хусусан, жаҳоннинг бир қанча олимлари ўз тадқиқотларида параллел корпусни таърифлаганлар: “Таржима билан боғлиқ матнлар тўплами”, “матнлар ўртасидаги параллелликни кўрсатадиган иккита (ёки ундан кўп) субкорпора”;[3]

“функционал жиҳатдан ўхшаш (асл) матнлар тўплами (икки ёки ундан ортиқ тилларни ичига қамраб олади)”; [5]

“дастлаб А тилда ёзилган матнлар ва уларнинг Б тилдаги таржималари (ва С ...)”. [4]

Бизнинг фикримизча, параллел корпуслар замонавий таржима тадқиқотлари учун тадқиқотчининг ишини осонлаштирувчи, ўрганилаётган икки тил материалларини корпус базасида тадқиқ қилиш, корпус аннотация, метамаълумотлардан фойдаланиш ва икки тилда конкордансни аниқлашда қўлланиладиган корпус туридир.

Ҳар қандай параллел корпус яратиш лойиҳасининг биринчи босқичи мос келадиган параллел ёки қиёсий матнли материал саралаб олишдир. Бу лойиҳанинг биринчи босқичи, кўпинча катта сабр-тоқат ва узоқ вақт талаб қилади, чунки у муаллифлик ҳуқуқини расмийлаштиришни, матн териш ёки сканерлаш ва хатоликларни тузатишни ўз ичига олади. Баъзан параллел ва қиёсий корпуслар яратиш учун автоматик маълумотлар йиғилади. Бунда асосан ***WWW (World Wide Web)*** материаллари – ҳақиқий алтернатив сифатида қаралади. ***URL*** ва параллел ***HTML***ни белгилаб олиш лозим. Кейинчалик Ресник параллел корпусга идентификатор филтрини қўшди.

Тил соҳаларида кўп тилли бўлишнинг аҳамияти ошди, глобал бозорлар ва бутун дунё бўйлаб маълумот алмашиш, параллел матндан фойдаланиш параллел корпусларни тадқиқ қилиш ва улардан олинадиган натижаларни мукаммаллаштиришни тақозо қилди. Параллел матнлар баъзан ***bitexts*** – ***икки тилли*** ёки тиллар сони икки тилдан ортиқ бўлса ***multitext – кўп тилли*** деб аталади. Бугунги кунда параллел матнларнинг сони ва қамрови тобора кўпайиб бормоқда, уларда электрон ҳужжатларни сақлаш ва архивлаш воситалари яхшиланганлиги туфайли турли фирмалар ва *www* кўп тилли ҳужжатларни ўз ичига қамраб олган параллел корпуслардан фойдаланмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Kay M., Roscheisen M. Text-translation alignment. Computational Linguistics, 1993. № 19 (1), – P. 121-142.
2. Harris B. Bitexts: A new concept in translation theory. Language Monthly, 1988. № 54. – P. 8-10.
3. Ebeling Jarle. “The Translation Corpus Explorer: A browser for parallel texts”, in: Stig Johansson and Signe Oksefjell (eds.). Corpora and cross linguistic research: Theory, method, and case studies. – Amsterdam: Rodopi. 1998. – P. 101-112.
4. Hartmann R.K.. “From contrastive textology to parallel text corpora: theory and applications”, in: R. Hickey and S. Puppel (eds.), Language history and language modelling. Festschrift in honor of Jacek Fisiak’s 60th birthday. – Berlin: de Gruyter, 1997.
5. Teubert W. “Comparable or parallel corpora”, in: J. McH. Sinclair, J. Payne and C. P. Hérnandez (eds.), Special issue of International journal of lexicography, 9(3). 1996. – P. 238-264.
6. Philip R. “Mining the Web for bilingual text”, in: Proceedings of the 37th annual meeting of the Association for computational linguistics, 1999.

OLMOSH SO‘Z TURKUMINING XUSUSIYATLARI

Zulayho Hakimova
Nizmoiy nomidagi TDPU magistri

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo‘lmish ona tili ta’limi maktabda yetakchi o‘quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi.

Umumta’lim maktablarining ona tili darslarini o‘qitish juda katta ta’limiy ahamiyatga ega. Bu fanni o‘qitishning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchilar til va uning asosiy birligi — so‘z haqidagi ta’limot bilan tanishadilar, ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o‘zlashtirishlariga imkon tug’iladi. Zero, so‘z turkumlari tilning barcha bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shu bo’limlarni o‘qitishda izchillik bilan amalga oshiriladi. Aynan shu uzviylikni ta’minlashga qaratilgan usullarni va innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish va nafaqat olmosh so‘z turkumi, balki morfologiyaga oid bilimlarni ham mustahkamlashga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Olmoshlar masalasi yoritilgan ilmiy manbalarni 3 guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Olmosh tarixiy nuqtai nazardan yoritilgan asarlar.

2. Hozirgi o‘zbek tilidagi olmoshlar maxsus tadqiq qilingan yoki olmoshlar masalasi ham tilga olingan asarlar.

3. Olmoshlar ayrim turlarining stilistik xususiyatlari yuzasidan fikr bildirilgan yoki ma’lum darajada yoritilgan asarlar.

Yuqoridagi ajratilgan guruhlarning uchinchi qismiga kiruvchi ishlarni o‘rganish natijasida aytish mumkinki, olmosh stilistikasiga doir ayrim mulohazalarda kishilik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, gumon olmoshlarining uslubiy xususiyatlari, ularning asosiy ma’nolari bilan bir qatorda qo‘shimcha ma’nolar kasb etishi, bunday holat esa badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Olmoshlar ayrim turlarining stilistik xususiyatlari yuzasidan fikr bildirilgan yoki ma’lum darajada yoritilgan asarlar sirasiga kiruvchi — O.Yusupovaning «O‘zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari» nomli ilmiy ishida o‘zbek tilshunosligida olmoshlarning tutgan o‘rni ularning funksional-stilistik xususiyatlarini tahlil qilgan.

Yana aytish joizki, olmoshlarning ayrim turlari o‘zgacha uslubiy xususiyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Olmoshlarning uslubiy xususiyatlarini ikki xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqish mumkin:

3. Ijobiy baho ottenkasi;
4. Salbiy baho ottenkasi.

Bunday xususiyatlar asosan badiiy matnlarda namoyon bo‘lishini ham ta’kidlab o‘tish lozim.

Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlaridan biri shuki, ular shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo‘lgan umumiy ma’noni anglatadi Olmoshni bildiruvchi ma’no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o‘zlari almashtiruvchi so‘zlar kabi morfologik jihatdan o‘zgaradi. Olmoshlarda umumiylik juda kuchli darajada bo‘ladi. Masalan, bu so‘zi kontekstdan tashqaridan olinganda uning ma’nosi juda umumiy mavhum xarakterga ega bo‘ladi. *Bu daraxt bo‘lishi ham mumkin, bu - odam bo‘lishi ham mumkin, bu hayvon bo‘lishi ham mumkin* va hokazo.

Demak, olmoshlarning har nutq turida xilma-xil funksional uslubiy vazifalarda qo‘llanilishini ularning turli uslublarga xosligi bilan belgilash mumkin. Bundan tashqari badiiy uslubda olmoshlar tarixiy, shevaviy variantlari bilan olinib, badiiy asarlarda o‘ziga xos vazifani bajaradi.

Tavsiya etiladigan internet resurslari

1. https://cyberleninka.ru/

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF HAZRATLARINING «BAXTIYOR OILA» ASARIDA DINIY TERMINLARNING QO‘LLANILISHI

Dilrabo Ulug‘bekovna Matniyozova
Samarqand shahar
21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Diniy terminlar haqida so‘z borar ekan, avvalo, uning mazmunidan qisqa satrlarda bo‘lsa ham eslab o‘tish nojoiz bo‘lmaydi.

Diniy terminlar — asosan diniy tushunchani tasvirlash uchun ishlatiladigan so‘z yoki ibora demakdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining har qaysiki asarlarida bunday terminlarning o‘rin olishi tabiiydir. Chunki Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf millatimizning diniy masalalar bo‘yicha jahonga tanilgan va jahonda tan olingan yuksak ilm sohibi edilar.

Hazratning aynan «Baxtiyor oila»si diniy terminlardan mustasno bo‘lmagan holda yaratilgan asarlar sirasidan sanaladi. Ushbu asar umr yo‘ldoshini tanlash, nikohda ishboshilarning roziligi, jinsiy yaqinlik odoblari, g‘usl, erkak va ayol o‘rtasidagi farq, qudachilik aloqalari, bolaga mehribonlik, oila buzilishining oldini olish yoki bunga sabab bo‘luvchi ayrim holatlar, idda, ota-onaning farzand oldidagi burchi, farzandga ism qo‘yish, mahr va uning hukmlari, sovchilik masalalari, insonning juft qilib yaratilishi singari dolzarb mavzular borasidagi fikr-mulohazalarni, tarbiyaviy nasihatlarni o‘zida mujassam etadi.

Masalan, ushbu asarning mundarijasidan «Mahr haqida mulohaza» deya nomlanib, asar tarkibidan o‘rin olgan mavzu doirasida *faqih* so‘zi qo‘llanilgan. Nafaqat bu mavzuda, balki boshqa mavzular mazmunini ochishda ham mazkur tushunchaga murojaat etish holatlarini uchratishimiz mumkin. *Faqih* Islom diniga mansub, shariat qonun-qoidalarini taxdil etguvchi va yaxshi bilguvchi hamda ma’naviy jihatdan kamol topgan, hurmat-izzatning yuqori pog‘onasidan joy olgan, chuqur aql-zakovat va zaruriy ma’naviy fazilatlar ega insonlardir deya ta’rif etiladi. Mahr haqida mulohaza qilishda aynan bu tushuncha quyidagi alfozda qo‘llanilgan:

Alloh taolo «Niso surasida quyidagicha marhamat qiladi:

«Va ularning biriga behisob mahr bergan bo‘lsangiz ham, undan hech narsani qaytarib olmang!» (20-oyat).

Faqihlar xuddi shu oyati karimani dalil qilib, mahrga har qancha ko‘p mol bersa bo‘ladi, deydilar.

Yana asarning «Mahr va uning hukmlari»da *aqdi, sadoq, fariyza, nihla* singari diniy tushuncha va atamalar qo‘llaniladi. Ushbu diniy tushuncha va atamalar xalq orasida mahrning o‘rniga *«qalin», «sut puli»* kabi iboralar ishlatiladi.

Musulmonlarning barchasi nikoh mahrsiz bo‘lmasligiga ijmo’ qilganlar.

Yuqoridagi gap tarkibidan o‘rin olgan *ijmo’* atamasi arabcha - yakdillik, yakdillik bilan qilingan qaror ma’nolarini anglatadi. Qur’oni Karim va hadislarda aniq ko‘rsatma berilmagan huquqiy masalani hal etishda faqihlarning to‘planib, yagona fikrga kelgan holda hukm chiqarishidir.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarning «Nikohlanish» nomli nasihatlar qismida iyjob va fosiq iboralarining qo‘llaniligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bunda *iyjob* - nikohlanish jarayonida ikki tarafning biridan shu masalada rag‘bat sodir bo‘lganini anglatadigan narsa deya e’tirof etiladi. *Fosiq* esa shariatga xilof ravishda ish ko‘ruvchi, ish qiladigan odam deb ta’riflanadi. Shu sababli ham boshqa mazhablarda fosiqning guvohligi o‘tmasligi eslatib o‘tiladi.

Yana aynan shu qismda *zimmiy* atamasining qo‘llanilganligiga ham guvoh bo‘lish mumkin. Bunda zimmiy - Islom davlati soyasida yashayotgan g‘ayridin shaxs ekanligi uqtiriladi. Agarda musulmon odam zimmiy ayolga uylanayotgan bo‘lsa, ikki zimmiy erkakning guvohligida qilingan nikoh to‘g‘ri bo‘ladi deyiladi. Biroq bora-bora mazkur er-xotinning orasida nizo paydo bo‘lsa va ishlari mahkamada ko‘rib chiqiladigan holati vujudga kelib qolsa, zimmiylarning musulmonning ziddiga bergan guvohligi qabul qilinmasligi alohida ta’kidlanadi.

«Baxtiyor oila»da qo‘llanilgan diniy atamalarni nomma-nom sanash va ta’riflash uchun gard tegmagan qog‘ozlarda satrlarni keltirish yana bir asarni paydo qilish bilan barobardir. Shu sababli, xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu asar o‘z nomi bilan hamda muallifi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bilan diniy ta’limotning bir ko‘rinishini mutoala ixlosmandlariga namoyon qiladi. Bunda yuqorida misol tariqasida keltirilgan diniy tushunchalardan boshqa ko‘plab diniy tushuncha va atamalarning asar tarkibidan o‘rin olganligiga shubha yo‘qdir.

Tavsiya etiladigan internet resurslari

1. https://uz.wikipedia.org
2. https://imlo.uz

YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI — YOSHLARDIR

Saidov Sarvar Faxriddin o‘g‘li
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Yurisprudensiya fakulteti
III bosqich talabasi

Mustaqillik sharofati bilan bugungi kunda yoshlarga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan O‘zbekiston Respublikasidek o‘ziga bek sanalmish xalqning buyuk tarixi, buyuk ajdodlari, o‘lmas urf-odatlar, an’analariga ega bo‘lgan mustaqil vatanning farzandlari bo‘lish juda sharaflidir. Davlat rahbarining kelajak egalari deya aytilayotgan yoshlarga nisbatan qaratayotgan e’tibori, yaratib berayotgan shart-sharoitlari, imkoniyatlarga boy bo‘lgan eshiklar tomon ochilayotgan yo‘l, ota farzandiga bergan mehrdek, qiladigan g‘amxo‘rlikdek

g‘amxo‘rliklari yoshlarni ayni damdagi erishgan yutuqlaridan-da ko‘proq salmoqli natijalarni qo‘lga kiritishlari uchun yuksak shijoat va bitmas qanoatning bag‘ishlanishiga sababdir.

Muhataram Prezidentning oliy maqsadi va yuksak orzulari bu — O‘zbekiston quchog‘ida yoshlar bilan hamnafas bo‘lib, Uchinchi Renessansni barpo etish hamda bugunning egalari — yoshlar siymosida tarixiy ajdodlarni takroran gavdalantirishdir.

Shu o‘rinda renessans iborasiga to‘xtalish va unga batafsil ta’rif berish nojoiz bo‘lmaydi. Renessans — lug‘aviy jihatdan qaraganda fransuz tiidan kirgan so‘z bo‘lib, qayta tiklanish ma’nosini beradi. Xuddi shundan kelib chiqib, tarixiy sanalarda qayta tiklanish holatlari qachon yuz berganini ham eslab o‘tmoq kerak.

Tarixga nazar solish va tarixiy manbalardan ma’lumot olish natijasi shuni ko‘rsatadiki, Turkiston o‘lkasi ikki karra renessansni boshidan o‘tkazgan o‘lkadir. Ilk renessans davri IX-XII asrlar oralig‘ini o‘z ichig olsa, ikkinchi renessans esa XIV asrning so‘nggi choragi va XVI asrning birinchi choragiga to‘g‘ri kelishini kuzatish mumkin.

Dastlabki Renessansda o‘zbek millati vakillarining yorqin uchqunlari paydo bo‘lgan. Ular o‘zlarining o‘xshamas aql-zakovati, ma’naviy yetukligi va serqirra ijodkorligi-yu o‘zgacha ilm sohibi ekanliklari bilan alohida ta’kidlanishga sababdirlar. Shunday o‘ziga xoslikni o‘zida jamlab, Birinchi Renessans davri tarixida o‘chmas iz qoldirgan Amir Temur, Al-Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Zamaxshariy, Abu Bakr Roziy, Muhammad G‘azzoliy, Abu Nasr Farobiy, Nasafiy Aziziddinlar bugun ham o‘zbek xalqining qalbida, shuurida muhrlanib kelayotganlarini ham aytib o‘tish lozim. Nomlari Sanab o’tilgan ajdodlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi. She’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo al-Maarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o‘lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qaxramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo‘nalishga asos soldi. Uyg‘onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan „Ming bir kecha“, „To‘tinoma“, „Sindbodnoma“, „Jome’ul hikoyot“ kabi qiziqarli sarguzashtlarga to‘la, shavq-u zavq qo‘zg‘atadigan asarlarning ko‘paygani, ikkinchi tomondan „Xamsa“larda bo‘lganiday, insoniy ideaallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g‘oyalarning tasvirlanishidir.

Abdurauf, Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriylar Ikkinchi Renessans davrining millatparvar vakillari deya yod olinadilar. Bu millatparvar jadidchilar o‘sha davrda ham yoshlarni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiya etmoqlikka, yetarli darajadagi bilim, madaniyat, ma’naviyat egasi qilishga intilib, rus-tuzem, ya’ni yangi usul maktablarining barpo etilishiga sababchi bo‘lishgan. Faqatgina shu bilan cheklanib qolmay, millat yoshlarining xorijiy mamlakatlarda ta’lim olishlari, o‘z bilim va salohiyatlarini oshirishlari uchun qobiliyati va layoqatiga yarasha imkoniyatlar eshiklarini ochib berganlar.

Ayni paytda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan yuqoridagilarga monand tarzda faoliyat yuritish xosdir. Prezident tashabbusi bilan davlat hududida yana bir muhim uyg‘onish davri kechmoqda. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari qadam tashayotgan O‘zbekiston keyingi — Uchinchi Renessansga erishishni maqsad qilgandir. Bu maqsadga erishishni davlat Rahbari strategik vazifa sifatida belgilab berdi.

Yurtning ertangi kuni zamonaviy kadrlarga bog’liqligi sabali, buning uchun ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash ustuvor vazifa etib qo‘yilgan ekan, yoshlar hukumat rahbari orzu qilgan Uchinchi Renessans asoschilari bo‘lar ekan, davlat rahbari ta’kidlaganlaridek, o‘z siymosida buyuk ajdodlarni gavdalantirmog‘i muqarrar.

Mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi sa’y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Barcha sohalar singari Oliy ta’lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, takomillashtirish maqsadida ham ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatning ko‘pgina viloyatlarida ulug’ allomalar — Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, xalqning ardoqli adiblari nomlari bilan atalgan ijod maktablari, prezident maktablari, xususiy maktablar, zamonaviy ta’lim dargohlari tashkil etilganligi yurt yoshlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Mazkur o‘quv maskanlari yangi avlod kadrlarini yetishtirishda muhim poydevor bo‘lishi, shubhasiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarga katta ishonch bildirilib, olib borilayotgan bunday islohotlar, qabul qilinayotgan qaror va farmonlarga javoban, yangi O‘zbekiston yoshlari yuqori darajali bilim egalari va yetuk kadrlar bo‘lib yetishishga, egallagan bilim va ko‘nikmalari bilan vatan taqraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga intiladi. Farzandlari doim izlanishda bo‘lgan, yuksak marralarni ko‘zlab doimo oldinga intilgan xalq o‘z oldiga qo‘ygan maqsdalariga albatta erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent-2021; 52-53 betlar.

O‘QITUVCHINING NUTQIY MADANIYATI

Eshmirzayeva Guljamol Elxomjonovna
Toshkent shahar Yunusobod tumani
21 - sonli maktabning ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko‘zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og‘zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e’tibor yolg‘iz o‘qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o‘zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o‘qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog‘liq. Ushbu maqolada o‘qituvchining nutqiy madaniyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik mahorat, nutq madaniyati, adabiy til, yozma nutq, og‘zaki nutq, nutqiy qobiliyat.

O‘qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati, uning nafaqat ma’naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me’yordir. O‘qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o‘giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. O‘qituvchining nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat o‘qituvchining shijoatiga bog‘liq. Shu qobiliyat tufayli o‘qituvchining nutq madaniyati ham shakllanib boradi. Quyidagi o‘qituvchining nutq madaniyatiga xos bo‘lgan vositalarni yodda tutish zarur:

1. Nutq madaniyati o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko‘rsatuvchi, o‘z ona tilimizga e’tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madaniyati o‘qituvchilarni ma’naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ma’lum ma’noda ajratib turadi.

3. Nutq madaniyatining asosiy maqsadi erkin fikr egasi bo‘lgan barkamol avlodni qanday kasb egasi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar ma’naviy jihatdan tarbiyalash. 4. Nutq madaniyati — bu, avvalo, o‘qituvchilarda nutqiy ko‘nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko‘nikma pedagogik faoliyatda takomillashib

boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madaniyatiga o‘zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o‘qituvchi adabiy til qonuniyatlarini bilishi, badiiy adabiyot asarlarini doimiy o‘qib borishi, she’rlar yod olishi va uni deklamatsiya bilan o‘qiy olishi, radio va televideniye eshittirishlarrni kuzatib borishi lozim.

6. Nutq madaniyatini egallashning yana bir ko‘rinishi nutqiy taqlid bo‘lib, yosh o‘qituvchilar o‘zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma’noli va ta’sirchan nutq so‘zlaydigan ustoz murabbiylarning nutqiy san’atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o‘rganishi mumkin.

Nutq madaniyati va notiqlik san’atining umumiy, o‘xshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o‘qituvchi nutqiy faoliyatining ta’sirchan, chiroyli bo‘lishi uchun zarur hodisa bo‘lib, uning nutqiy madaniyatini o‘stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san’ati kabi nutqning ma’noliligi, nutqiy go‘zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi. Ba’zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san’ati og‘zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san’atdir. Nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O‘qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba’zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Bular quyidagilar: 1. Nutq madaniyati, chinakam ma’noda adabiy til bilan bog‘liq hodisadir. Uning paydo bo‘lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning normalari bilan bog‘liq. Notiqlik san’ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to‘la amal qilmaydiganlar, ma’lum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san’atini namoyish qilib kishilar qalbiga qizg‘in ta’sir qiluvchi kishilar uchraydi. So‘zga chechanlik, notiqlik, til materialining xarakteriga qarab emas, balki, notiqning chinakam so‘z ustasi ekanligiga, tinglovchilarni o‘ziga jalb etishida, ta’sirchan nutqiy san’atiga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik - bu nutqning og‘zaki shakli. Notiqlik san’ati og‘zaki nutq san’atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli bo‘lgan tushunchalardir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a’zolarining umumiy nutqiy faoliyatini nazarda tutadi, Nutq madaniyati sohasining maqsadi va ko‘zlagan orzusi yosh avlod nutqini madaniylashtirishni mo‘ljallaydi. Chin ma’nodagi notiqlik san’ati esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini va san’atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida o‘qituvchilar jamiyat talablari asosida yosh avlodga muayyan ta’lim va tarbiya beradi, yuqori malakali, raqobatbardosh, o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lgan kadrlami tayyorlaydi.

4. San’atkor notiq nutqi, asosan, ko‘pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyalarga mo‘ljallangan boiadi. Notiqni bir kishidan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

5. O‘qituvchilar adabiy tilning keng imkoniyatlari va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan tajribali notiq bo‘lishi mumkin. Biroq hamma o‘qituvchi ham san’atkor ma’nosidagi mukammal notiq bo‘la olmaydi. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir O‘qituvchi nutq madaniyatidan xabardor bo‘lishi shart.

6. Nutq madaniyati ko‘pchilikka mo‘ljallangan, ma’lum bir maqsadni ko‘zda tutib ish ko‘ruvchi soha Bu ma’noda u keng omma uchun mo‘ljallangan talabdir, ammo notiqlik - shaxsiy qobiliyatdir.

7. Nutq madaniyati - bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham. ya’ni adabiy tilni va uning me’yorlarini o‘rganish va bu me’yorlarni qayta ishlash ishi bilan ham shug‘ullanadi. Notiqlik san’ati esa bunday ilmiy - normativ faoliyatni ko‘zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko‘proq nutqning mazmunini, mantiqiy asoslarini, mundarijaviy tuzilishini e’tiborga oladi, nutq madaniyati esa. nutqning til qurilishi - lisoniy tuzilishiga e’tibor qiladi.

9. Notiqlik san’ati notiq uchun oldindan qanday so‘zlash tizimi va rejasini bermaydi. Nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a’zolarini ona tili, ya’ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq sharoit va uslub taqozasi talabiga ko‘ra o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini beradi. Bunday ko‘nikma, aslida har qanday san’atkor notiq uchun ham zarur.

10. Notiqlik san’ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida muntazam yangilanib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘qituvchini nutq madaniyati shakllangan bo‘lishi notiqlikka da’vogarlar safida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchi notiq sifatida o‘quvchilarni orqasidan ergashtira olishi lozim. O‘qituvchining nutq madaniyatini chuqur bilganligi o‘quvchilarida aks etishi hayotiy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iskandarova Sh.M. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari. Samarqand 1993
2. Xoliqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati asoslari. T 2013
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. T.2011

O‘ZBEKISTONDAGI CHO‘L HUDUDLAR SUV TANQISLIGINING OLDINI OLISH UCHUN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

Мухтор Собиров
Государственный комитет Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi eksperti Hasan Boboyev suv oqimi pasayishining O‘zbekistonga ta’siri, cho‘l zonalarida suv tanqisligini oldini olish va Qorako‘l tumanidagi Do‘rmon qishlog‘ida olib borgan tajribalari to‘g‘risida gapirib berdi. Ekspertning fikricha, Qorako‘l tumaninning Do‘rmon qishlog‘ida suv tanqisligi muammosi o‘z vaqtida bartaraf qilinmasligi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni ortiradi.

O‘zbekistonda sug‘orish tarmoqlarida suv yetkazib berish va ta’minlashdagi yo‘qotishlar 40 foiz deb baholanmoqda, chunki sug‘orish tarmoqlarining 70 foizi antiinfiltratsion va beton qoplamaga ega emas (Xo‘jayev, 2019). Bu muammo mamlakatda mavjud irrigatsiya tizimlarini qayta ta’mirlash va modernizatsiya qilish, bu sohada ilmiy izlanishlarni yanada kuchaytirish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish hamda ular yordamida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularni amalda qo‘llash zaruratini tug‘dirmoqda.

Tahlillarga nazar soladigan bo‘lsak, 1960-2014 yillardagi chuchuk suv iste’molini baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra, jami chuchuk suv sarfining 70% qishloq xo‘jaligi va chorvachilik sektorlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shundan qishloq xo‘jaligi yerlarining 20% sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, bu yerlarda jami oziq-ovqat mahsuloti hajmining 40% ishlab chiqarilgan. [Nicoleta, 2020].

Butun jahon suv instituti hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025 yilga kelib dunyoda taxminan 3,5 mlrd. aholi suv tanqisligi muammosiga duch kelishi mumkin.Xususan, rivojlanayotgan davlatlarda tabiiy resurslarni boshqarishning mukammal strategiyasi va siyosatining amalda ishlamasligi hisobiga bu ko‘rsatkich 1,2-1,8 mln. kishiga yetadi. 2080 yilga borib esa ekinlarni sug‘orish samaradorligini oshishiga qaramasdan, global iqlim, ob-havo, yog‘ingarchilik va o‘simliklar vegetatsiya davrining o‘zgarib ketishi sababli chuchuk suvga bo‘lgan talab 25%ga ortishi prognoz qilinmoqda [Gorgios, 2020].

Suv oqimining pasayishi O‘zbekistonga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Hozirgi kunda butun dunyoda 17 ta davlat “o‘ta yuqori” darajada suv tanqisligiga uchragan mamlakatlarhisoblanadi. O‘zbekiston mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha 164 ta davlat orasida 25 – o‘rinda turadi (beshlik shkalada 2-darajada), ya’ni “yuqori” darajada suv tanqisligiga uchragan davlatlar qatoriga kiradi. [Hofste, 2019; Nicoleta, 2020].

Sho‘rlanish sababli har yili 10 mln. gektar yerlar tashlandiq yerga aylanib bormoqda. 2050 yilga kelib, butun dunyodagi qishloq xo‘jaligi yerlarining 50%dan ko‘prog‘i tuproq sifati va degradatsiya (tanazzulga uchrashi) bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi taxmin qilinmoqda[Gorgios, 2020]. Ayniqsa, yerlarning degradatsiyasi Markaziy Osiyoda (asosan, O‘zbekistonda) qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishiga va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy muammo bo‘lib, bu asosan suv tanqisligi bilan bog‘liq.

Suv tanqisligi, o‘rmonlarning kesilishi va keskin qisqarib ketishi, tabiiy ekotizimning buzilishi hamda oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar – yaqin kelajakda o‘z yechimini kutayotgan jiddiy masalalardan biriga aylanadi.Jahon banki 2050 yilga kelib suv oqimining pasayishi Sirdaryo havzasida 2-5%ni, Amudaryo havzasida 10-15%ni tashkil qilishi mumkinligini prognoz qilmoqda. Buning natijasida suv tanqisligi yanada kuchayadi

Cho‘l zonalarida suv tanqisligini oldini olish uchun amalga oshiriladigan choralar

Mamlakatimizda ekologik holati yomon bo‘lgan cho‘l zonalarida tabiiy resurslardan to‘g‘ri foydalanish va unga tahdid solayotgan suv tanqisligi va oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolarni o‘z vaqtida bartaraf qilish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Qizilqum cho‘li hududida zamonaviy issiqxonalarni ko‘paytirish, tajriba maydonlarida daraxtlar va ekinlarning yangi navlarini ekish va bozor o‘rinlarini yaratish kabi bir qator xalqaro loyihalar amalga oshirib kelmoqda. Shunday loyihalardan biri “Tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlarini baholash” loyihasidir. Ushbu xalqaro loyiha Markaziy Osiyo davlatlarining cho‘llar bo‘yicha tashabbusi (CADI) doirasida Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) moliyaviy ko‘magi ostida Qurg‘oqchil mintaqalarda qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari markazi (IKARDA) tomonidan amalga oshirildi. Loyihaning asosiy maqsadi – suv resurslarini va tabiiy resurslar hamda ekotizim xizmatlarini baholash bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga qaratilgan. Mazkur ilmiy tadqiqot Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Do‘rmon qishlog‘i tajriba uchastkasida olib borildi va uning asosiy maqsadlaridan biri aynan tomorqa yer egalarining suv ta’minoti xizmatlari uchun haq to‘lash imkoniyatlarini baholash hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Nicoleta, 2020 https://www.mdpi.com/2071-1050/12/21/9055
2. Gorgios, 2020 https://www.mdpi.com/2073-4395/10/8/1120/htm
3. Hofste, R.; Reig, P.; Schleifer, L. 17 Countries, Home to One-Quarter of the World’s Population, Face Extremely High Water Stress; WRI: Washington,

DC, USA, 2019. Available online: https://www.wri.org/blog/ 2019/08/17-countries-home-one-quarter-world-population-face-extremely-high-water-stress (accessed on 17 September 2020).
4. https://www.wri.org/blog/2019/08/17-countries-home-one-quarter-world-population-face-extremely-high-water-stress

FE’L SO’Z TURKUMI VA UNING LEKSIK – SEMANTIK TASNIFI

Mirzayeva Surayyo
QarDUPI o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fe’l so’z turkumi va uning leksik – semantik tasnifi haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** tilshunoslik, o`zbek tili, ingliz tili fe`llari, grammatik shakllar, ish –harakat, sintaksik vazifa, shaxs-son.

Fe’lning grammatik mohiyati haqida gapirganimizda shuni ta’kidlash mumkinki, fe’l asosiy so‘z turkumlaridan biri bo‘lib, o‘z ma’nosi, grammatik shakllari va sintaktik vazifalari bilan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Fe’l ish-harakatni, mavjudlikni, holatni va munosabatni zamon nuqtai nazaridan aniqlagan holda jarayon tarzida voqelik bilan bog‘laydi. Aynan ana shu xususiyati bilan fe’l undan yasalgan otdan farq qiladi. Fe’l quyidagi xususiyatlariga ko’ra mustaqil so’z turkumi sifatida xarakterlanadi:

1. Harakat, holat yoki jarayon sifatidagi leksik-grammatik ma’nosi.

2. O’ziga xos o’zak yasovchi quyidagi suffikslar va prefikslarga hamda leksik-grammatik so’z morfemalarga egaligi.

3. Fe’l boshqa so’z turkumlariga qaraganda so’z o’zgartirish va so’z yasash borasida ancha rivojlangan, bunga sabab uning bir qancha grammatik kategoriyalarga egaligidir.

4. Fe’lning o’ziga xos tarzda bog’lanishi.

5. Gapda turlicha sintaktik vazifalarda kela olishi.

Fe’l - harakat, holat yoki jarayonni ifodalab, zamon, aspekt, mayl, nisbat, perfekt, modallik va boshqa shu kabi grammatik kategoriyalarga ega bo’lgan so’z turkumidir. Fe’llar harakat ma’nosini bildiruvchi so‘zlardir.

Grammatikada harakat ma’nosi juda keng bo‘lib *kelmoq, yurmoq* kabi fe’llar ifodalaydigan harakatlarni, *uyg‘onmoq, turmoq* kabi fe’llar ifodalaydigan holatlarni, *hayratda qoldirmoq, xavotirlanmoq* kabi fe’llar ifodalaydigan ruhiy o‘zgarishlarni, *gullamoq, ulg‘aymoq* kabi fe’llar ifodalaydigan biologik jarayonlarni hamda shu kabi harakat va hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bularning hammasi o‘ziga xos xususiy tomonlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ularning hammasi uchun umumiy bo‘lgan tomoni ham mavjuddir, ya’ni ular zamon bilan

bog‘liq holda yuz beruvchi hodisalar bo‘lib hisoblanadi. Fe’l mustaqil so’z turkumi bo’lib, u harakat, holat yoki jarayonni, ya’ni ma’lum bir belgining paydo bo’lishi va o’zgarishi kabi harakatni ifodalaydi. Fe’lga xos bunday ma’nolarning barchasi uni boshqa so’z turkumlaridan farqlashga yordam beradigan umumiy harakat ma’nosiga borib taqaladi. Y.S.Maslov ta’kidlaganidek, fe’l vaqt davomida sodir bo’ladigan belgining, harakatning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan so’z turkumi bo’lib hisoblanadi. Harakatning grammatik ahamiyatini keng ma’noda tushunish mumkin. U nafaqat harakat va tom ma’nodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va ma’lum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini ko’rsatadi.

Muhimi shundaki, fe’l o‘zida ma’lum bir vaqt davomida sodir bo‘ladigan harakatga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu xususiyatlar fe’lning shaxsli shakllarida namoyon bo‘ladi va shuning uchun ham fe’l shaxsli shakllarining sintaktik vazifasi gapda faqat kesim sifatida qo‘llanilishdan iboratdir. Fe’lning so’z o’zgartirish tizimi boshqa so’z turkumlariga qaraganda ancha boy va xilma-xildir. U nafaqat flektiv tillarga xos bo’lgan sintetik usulga ega, balki o’zakka formantlar qo’shilishi yoki analitik usulga ham egadir. Shuni ta’kidlash joizki, fe’l analitik shakllarga ega bo’lgan yagona so’z turkumi hisoblanadi. Fe’llarning so’z o’zgartiruvchi tizimiga alohida e’tibor qilsak, affiksatsiya usuli bilan yasaladigan suffiksli fe’llar ancha kamchilikni tashkil etishining va konversiya yo’li bilan yasaladigan qo’shma fe’llarning anchagina ko’pligining guvohi bo’lamiz. Ingliz tilida fe’llar tashqi tuzilishiga ko’ra grammatik kategoriyalari va sintaktik vazifalariga bog’liq tarzda shaxsli va shaxssiz shakllarga bo’linadi. Har ikkala tilda ya’ni, ingliz tilida ham, o’zbek tilida ham fe’llar morfologik, leksik – semantik, leksik – grammatik xususiyatlariga ko‘ra boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi.

O‘zbek tilidagi fe’llar leksik – grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil fe’llar va yordamchi fe’llarga bo‘linadi. Mustaqil fe’llar harakatni bildiradi, mustaqil ma’noga ega bo‘lgan va gapda uning biror bo‘lagi vazifasida kela oladi. Masalan: Topshirilgan vazifa muddatidan ilgari bajarildi.

Boshqa tillardagi fe`l bilan o`zbek tilidagi fe`lni solishtiramiz:

Nafaqat o‘zbek tilida balki ingliz tilida ham mustaqil fe’llarning ot, sifat, ravish turlariga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari bor.

Masalan: *ishlash foydali* yordamchi fe’llarga ega harakat bildirmaydi, mustaqil ma’no ifodalamaydi. Ular turli grammatik ma’no ifodalash uchun yoki boshqa vazifada qo‘llaniladi. Yordamchi fe’llar asosiy xususiyatlariga qarab, so‘z yasash uchun xizmat qiluvchi va bog‘lanma fe’l vazifasini bajaruvchi yordamchi fe’llar, fe’llarga birikib turli qo‘shma ma’no ifodalovchi fe’llarga ajratiladi.

Fe’l asosan shaxs faoliyatini ko’rsatib keladigan so’z turkumidir. Bunday ta’rif har ikkala tilga ham ya’ni, ingliz va o’zbek tillariga xos bo’lib, buni quyidagi misollarda ham ko’rish mumkin:

Lanny Swarts and Young Mako are coming here tonight.

They set down, very shaky, and looked at each other.

O’zbek tilida ham quyidagi misolni keltirishimiz mumkin.

Masalan; O’rta maktabni a’lo baholar bilan bitirdi.

Bu misollarda ajratib ko’rsatilgan so’zlar fe’l turkumiga oid bo’lib, ular gapdagi subyektning faoliyatini ko’rsatib kelayapti.

Hozirgi o’zbek tilida fe’lga xos grammatik kategoriyalar quyidagilarni tashkil etadi: Daraja, bo’lishli - bo’lishsizlik, mayl, zamon, shaxs – son. Fe’llarning grammatik kategoriyalari fe’l turkumiga kiruvchi so’zlarning sintetik yoki analitik formalarini o’zaro qarama – qarshi qo’yish vositasida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G’ulomov A. Fe’l. Hozirgi zamon o’zbek tili kursidan materiallar.-Toshkent, 1954, 55-bet.
2. Rasulov R. O’zbek tilidagi holat fe’llari…97-bet.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent,2002, 73-bet.

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI SIYOSATI – MAMLAKAT, MINTAQA VA DUNYO TARAQQIYOTIDAGI O`RNI

Djurayeva Feruza Turg‘unovna

Navoiy viloyati Navbahor tumani 37-AFCHO‘MI Tarix fani o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi O‘zbekistonning yangi siyosati – mamlakat, mintaqa va dunyo taraqqiyotidagi o`rni haqida so`z yuritilgan. Shuningdek, ushbu maqola, jahon mamlakatlari orasida shiddat bilan rivojlanib kelayotgan yangi O'zbekiston haqida fikrlar va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu maqola orqali yangi O'zbekiston g'oyasining ma'nosi va shu paytgacha qanday o'zgarishlar qilingani, iqtisodiyot va siyosatdagi, din va dunyoviy ta'limdagi rivojlanishlar, yoshlarga yaratilayotgan yanada keng imkoniyatlar, qishloqlarning shaharlashishi, universitet va maktablardagi o'sish va shaffoflik, dinimizning yanada rivojlanishi va uning yo'lidagi barcha to'siqlarning olinishi hamda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan tub o'zgarishlar va kelgusida bu jarayonni davom ettirish haqidagi fikrlari ham yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** O`zbekiston, taraqqiyot, tarix, yangi siyosat, dunyo, mintaqa, madaniyat, tashqi siyosiy aloqa, milliy qadriyat.

Abstract. This article talks about the new policy of the new Uzbekistan - its role in the development of the country, the region and the world. Also, this article contains thoughts and information about the new Uzbekistan, which is rapidly developing among the countries of the world. In addition, through this article, the meaning of the idea of new Uzbekistan and how changes have been made so far, developments in economy and politics, religion and secular education, wider opportunities created for young people, urbanization of villages, education in universities and schools growth and transparency, the further development of our religion and the removal of all obstacles on its way, as well as the thoughts of our respected President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev about the fundamental changes implemented in the new Uzbekistan and the continuation of this process in the future.

Key words: Uzbekistan, development, history, new policy, world, region, culture, foreign political relations, national value.

Абстракт. В данной статье рассказывается о новой политике нового Узбекистана - его роли в развитии страны, региона и мира. Также в этой статье собраны мысли и информация о новом Узбекистане, стремительно развивающемся среди стран мира. Кроме того, в этой статье раскрывается смысл идеи нового Узбекистана и того, как к настоящему времени произошли изменения, развитие экономики и политики, религии и светского образования, более широкие возможности, созданные для молодежи, урбанизация сел, образование в рост и прозрачность университетов и школ, дальнейшее развитие нашей религии и устранение всех препятствий на ее пути, а также мысли нашего уважаемого Президента Шавката Миромоновича Мирзиёева о кардинальных изменениях, осуществляемых в новом Узбекистане и продолжении этого процесса в будущем.

Ключевые слова: Узбекистан, развитие, история, новая политика, мир, регион, культура, внешнеполитические связи, национальная ценность.

Yangi O'zbekiston! Naqadar jarangli va chiroyli eshitiladi! Biz shunday xalqi musulmon bo'lgan jannatmakon diyorda tug'ilganmiz, va istiqomat qilib kelmoqdamiz. Buning uchun Allohga behisob shukronalar aytishimiz kerak. Biz yoshligimizdan O'zbekiston kelajagi buyuk davlat degan faxriy gapni eshitib kelganmiz va shukurki, shunday kunlarda yashayapmiz. So'nggi yillarda davlatimiz istiqboli uchun juda katta va yorqin ishlar qilinib kelinmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan

vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, xalqaro tajriba asosida tashkil etilayotgan “Yangi O'zbekiston” universitetida iste'dodlarning jamlanishi, moliyaviy resurslar bilan to'laqonli ta'minlanishi va zamonaviy boshqaruv tizimiga asoslangan o'quv, ilmiy va innovatsion faoliyatning yo'lga qo'yilishi kelajakda ushbu bayroqdor oliygohda vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan, dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallaydigan istiqbolli rahbar yoshlarning unib-o'sishiga xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz o'z nutqlarida aytib o'tganlaridek, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O'zbekiston” g'oyasi zamirida buyuk va ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzuintilishlari va armonlari ham mujassam, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz, albatta.

Hozirgi kunda yurtimizda yana bir muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O'zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

Davlatimiz rahbarining ta'kidlashlaricha, Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va printsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlat hisoblanadi.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida xalqqa, ilmga chanqoq yoshlarga qarata: "Sizlar koʻp kitob oʻqigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz oʻtmishda jahon sivizilizatsiyasi beshiklaridan biri boʻlganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Fargʻoniylar, Beruniy va Ibn Sino, Ulugʻbek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda"- deya yoshlarni yanada ruhlantirib keladi.

Tashqi iqtisodiyot,ilm-fan, sport va siyosatda qilingan o'zgarish va rivojlanishlar va anchagina ko'p va sezilarli. Masalan, avvalo, qo'shni davlatlar bilan bir qancha kelishuvlar qilindi, iqtisodiyot va siyosatda ham anchagina

yutuqlarga erishildi, ilm-fan va sport uchun yaratilgan imkoniyatlar natijasida ta'lim va sportda ham anchagina yutuqlarga erishildi.

Xullas, biz davlatimiz rahbarining bizga qaratayotgan e'tiborlari va mehnatlarini oqlash uchun tinmay harakat qilyapmiz va ishonamanki, shunaqa davom etsa bilimda, sportda, iqtisodiyot va siyosatda ham dunyoda yetakchi o'rinlardan biri O'zbekistonniki bo'ladi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda yurtimizda qilinayotgan o'zgarish va islohotlarni yoritish uchun butun bir kitob kamlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" -Toshkent, 2022
2. Sh. Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz"-Toshkent, 2017

XALQ CHOLG'U ASBOBLARI AHAMIYATI

Maxanov Sherzodjon Irisboy o'g'li
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
Instituti farg'ona mintaqaviy filiali
Xalq ijodiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Kalit so'zlar: Chang, g'ijjak, kvarta, rubob, prima, orkestr.

Ключевые слова: *Чанг, гизжак, кварта, рубоб, прима, оркест,.*

Cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlari o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiy cholg'ularda ijrochilik san'ati insoniyat ma'naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti maxsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Xalq cholg'ulari uzoq o'tmishda paydo bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII-ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Undan keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta'kidlagan, shovqinli cholg'ular ta'sirini ko'paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o'ziga xos, takrorlanmas go'zal holatni vujudga keltirar edi.

O‘rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg‘uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa asboblarini chala olgan, balki o‘zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg‘uchilar o‘z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo‘lishgan. O‘rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogird an’analari qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san’atining asosiy ko‘rinishlari shakllanib cholg‘u asboblarining yangi namunalari kashf etishdi.

Qadimgi sharq madaniyati bag‘rida, o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘bizlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldiQuldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal’a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog‘ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg‘ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg‘ular ham takomillashdi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal’a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog‘ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg‘ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg‘ular ham takomillashdi.

O’zbek xalq cholg’ulari xilma-xil bo’lganligi uchun uni takomillashtirish nihoyatda qiyin vazifa edi. Asta-sekinlik bilan an’anaviy cholg’ularning eski namunalari o’rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan yangi namunalar paydo bo’la boshladi, va mavjud bo’lgan musiqa asboblarini yanada takomillashtirishga urinishlar bo’ldi. Chang, g’ijjak kabi cholg’ularga qo’shimcha torlar qo’yilgach, bu qo’shimcha torlar ularning ohang doirasini ancha kengaytirdi.

Keyinroq g’ijjaklarning kvarta, kvinta so’zli turkumi yaratildi, ruboblar takomillashtirildi, prima (kichik rubob) ixtiro qilindi. Yangi musiqa asboblari avvaliga A.I. Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida tashkil qilingan o’quv cholg’u orkestr sinfida sinaldi. Keyinchalik O’zbekiston Davlat filarmoniyasi orkestrida cholg’ularni rekonstruksiya qilish tajribaxona vazifasini o’tadi.

Musiqa cholg‘u asboblaria. ba’zida xalq va professional (orkestr) turlarga ham bo‘linadi. Orkestr cholg‘ulari kompozitor tomonidan yaratilgan, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan ko‘p ovozli musiqa asarlari ijrosiga

moslashtirilgan. Xalq cholg‘ulari esa ma’lum millat (elat) monodik musiqa ijrosi uchun qo‘llaniladi va musiqiy tovush quroli bo‘lish bilan birga, moddiy madaniyat mahsuli hamdir; mukammal shaklida xalq badiiy tafakkuri, nafosat tasavvurlari, ramziy ma’nolar aks etgan. Cholg‘ular xalq hayotida sof estetik vazifa bajarishdan tashqari shomonbaxshilar, afsungarlar ruhiyatga ta’sir o‘tkazishda, harbiylar, cho‘ponlar, dehqonlar tomonidan boshqaruvchi, qo‘rqituvchi, chorlovchi tovush quroli sifatida foydalanib kelingan.

O‘rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlargacha yetib kelgan o‘zbek xalq cholg‘ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjirdagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Necha yuz yillar o‘tdi, musiqa cholg‘ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o‘z o‘rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda. Ota bobolarimiz tomonidan ijod qilinib, ta’mirlanib hozirgacha qo‘llanilib kelayotgan o‘zbek milliy cholg‘ularimizni yosh avlod o‘rgatish, o‘rganish orqali ularda musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishni tarbiyalash muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov Il. Musiqa lug’ati T., San’at 1990 yil.
2. Vizgo T. O’rta Osiyo musiqa asboblari. Moskva., 1980 yil.
3. Karomatov F. O’zbek chlg’uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980yil.
4. Odilov A. O’zbek xalq cholg’u asboblarida ijrochilik tarixi. Toshkent., O’qituvchi 1995 yil.
5. Fitrat A. O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi.

НЫЗАМ ДӨРЕТИЎШИЛИГИНДЕ ПУҚАРАЛЫҚ ЖӘМИЙЕТИ ИНСТИТУТЛАРЫ ОРНЫ

Исмаилов Конысбаи Куатбаевич
Қарақалпақ мәмлекетлик университети

Таяныш сөзлер: Нызам дөретиўшилик, нызам жойбарлары, нормативлик ҳуқықый актлер қабыл етиў, демократия, мәҳәлле институтлары.

Key words: Creation of law, adoption of draft laws, non-formal legal documents, democracy, neighborhood institutions.

Қарақалпақстан Республикасы Конституциясы елимиз раўажланыўының тийкарғы бағдаларын белгилеп бериўши әҳмийетли сиясий ҳәм ҳуқықый ҳүжжет болып табылады. Тийкарғы нызам сыпатында қабыл етилиўи мәмлекетимизди реформалаўда ҳәм оны қурыўда үлкен әҳмийетке ийе болды. Елимиздиң сиясий, экономикалық, жәмийетлик турмысы, сондай-ақ

сыртқы сиясатына тийисли тийсли барлық әҳмийетли мәселелерди тәртипке салыўдағы принцип ҳәм нормаларды нызам менен беккемлеп берди.

Қарақалпақстан Республикасы Конституциясының 3-бабы **15-статьясында** Қарақалпақстан Республикасында Өзбекстан Республикасы менен Қарақалпақстан Республикасы Конституцияларының ҳәм нызамларының сөзсиз үстинлиги мойынланады. Және оның **16-статьясында** бир де нызам ямаса басқа да нормативлик ҳуқық акти Конституцияның нормаларына ҳәм принциплерине қайшы келиўи мүмкин емеслиги ҳаққындаға принцип сыпатында беккемлеп қойылған[1].

Бул бойынша Өзбекстан Республикасы Конституциясы 15-статьясында да келтирилип өтилген Өзбекстан Республикасында Өзбекстан Республикасы Конституциясы ҳәм нызамларының үстинлиги сөзсиз тән алынды ҳәм де 16-статьясында болса бир де нызам яки басқа норматив-ҳуқықый ҳүжжет Конституция нормалары ҳәм принциплерине қайшы келиўи мүмкин емес деп беккемлеп қойылған[2].

1997-жылы 15-декабрьде қабыл етилген «Қарақалпақстан Республикасы нызам жойбарларын таярлаў ҳәм жоқарғы кеңеске киргизиў тәртиби ҳаққында»ғы №297/1-Нызамында 15.12.1997-ж. 29-статьясында Нызам жойбарын экспертизадан өткериў Нызам жойбары үстинде жумыс тамамланғанынан соң оның сапасына баҳа бериў ушын нызамшылық басламасы ҳуқықы субъектиниң шешими бойынша жойбар ҳуқықый ҳәм басқа түрдеги (экономикалық, финанслық, илимий, экологиялық, коррупцияға қарсы ҳәм басқа) экспертизадан да өткерилиўи мүмкин. Экспертлер нызам жойбарының экспертизасы нәтийжелери бойынша тийисли жуўмақларды усынады. Экспертлер сыпатында нызам жойбарын таярлаўда тиккелей қатнаспаған шөлкемлер ҳәм (яки) шахслар тартылады. Экспертиза өткериў ушын илимпазлар ҳәм қәнигелер, соның ишинде басқа мәмлекетлер ҳәм де халықаралық шөлкемлерден илимпазлар ҳәм қәнигелер тартылыўы мүмкин. Нызам жойбарының додаланыўы барысында билдирилген яки экспертлердиң жуўмақларында баян етилген усыныслар ҳәм пикирлер усыныс сыпатына ийе болады. Есапқа алынбаған усыныслар ҳәм пикирлер бойынша тийисли түсиндириўлер берилген ҳалда мағлыўматнама дүзиледи[3].

Нормативлик ҳуқықый актлер жойбарларын экспертизадан өткериў ҳәм келисиў нормативлик ҳуқықый акт жойбарының экспертизасы нормативлик ҳуқықый акт жойбары ҳуқықый ҳәм коррупцияға қарсы экспертизалардан өткерилиўи шәрт. Нормативлик ҳуқықый акт жойбары ислеп шығыўшының яки нормативлик ҳуқықый актти қабыл етиў ҳуқықына

ийе болған уйымның қарарына муўапық экономикалық, финанслық, илимийлик, лингвистикалық, экологиялық экспертизадан, сондай-ақ басқа түрдеги экспертизалардан да өткерилиўи мүмкин. Экспертлер сыпатында нормативлик ҳуқықый акт жойбарын таярлаўда тиккелей қатнаспаған шөлкемлер ҳәм (яки) шахслар қатнастырылады. Экспертиза өткериў ушын илимпазлар ҳәм қәнигелер, соның ишинде, басқа мәмлекетлер ҳәм де халықаралық шөлкемлерден илимпазлар ҳәм қәнигелер қатнастырылыўы мүмкин. Экспертлер нормативлик ҳуқықый акт жойбарына баҳа бериўде ғәрезсиз ҳәм олар экспертиза өткериўди тапсырған уйымның көз-қарасына байланыслы болмайды. Экспертлердиң нормативлик ҳуқықый акт жойбары бойынша жуўмақлары усыныс характерине ийе ҳәм ислеп шығыўшы яки нормативлик ҳуқықый актти қабыл етиў ҳуқықына ийе болған уйым тәрепинен қарап шығылыўы керек болады. Жуўмақтың есапқа алынбаған бәнтлери бойынша тийисли түсиндириўлер берген ҳалда мағлыўматнама таярланыўы лазым[4].

Нормативлик ҳуқықый акт жойбарының ҳуқықый экспертизасы ҳуқықый экспертиза барысында нормативлик ҳуқықый акт жойбарының Қарақалпақстан Республикасының Конституциясы ҳәм нызамларына, оған салыстырғанда жоқары юридикалық күшке ийе болған басқа нормативлик ҳуқықый актлерге, юридикалық-техникалық жақтан рәсмийлестириў талапларына муўапықлығы, сондай-ақ силтеўши нормалар қолланылыўының тийкарлылығы ҳәм де мақсетке муўапықлығы тексериледи. Нормативлик ҳуқықый акт жойбарларының ҳуқықый экспертизасы ислеп шығыўшының яки нормативлик ҳуқықый актти қабыл етиў ҳуқықына ийе болған уйымның юридикалық хызмети, сондай-ақ Қарақалпақстан Республикасы Әдиллик министрлиги, оның қалалық, районлық бөлимлери ҳәм басқа да шөлкемлери тәрепинен нызамшылыққа муўапық өткериледи.

Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2022-2026-жылларға белгиленген жаңа Өзбекстанның раўажланыў стратегиясы пәрманында 8-мақсетинде норма дөретиўшилиги процесин модернизациялаў, нызамшылық ҳүжжетлериниң қатаң орынланыўын тәмийинлеў ҳаққында келтирип өтилген. Сондай-ақ онда: - нызам дөретиўшилик процесинде пуқаралық жәмийети институтлары менен мәсләҳәтлесиўлер өткериў әмелиятын жетилистириў, -тараўларды «тәртипке салыў жүгин» кемейтириў шеңберинде нызамшылық ҳүжжетлерин қысқартырыў, мәмлекетлик органлар искерлигин тәртипке салыў норматив ҳуқықый ҳүжжетлерди системаластырыў, -Өзбекстан Республикасы нызамшылығын раўажландырыў концепциясын ислеп шығыў, -уйымлараралық норматив

ҳуқықый ҳүжжетлерди қабыл етиў ўәкиллигине ийе мәмлекетлик органлар көлемин қысқартырыў, сондай-ақ усы ҳүжжетлер санын муўпықластырыў жумысларын даўам еттириў[5].

Жуўмақлап айтқанда, нызам дөретиўшилигинде демократиялық принциплерге тийкарланып норматив ҳүжжетлерди қабыл етиў, нызам дөретиўшилик процесинде пуқаралық жәмийети институтлары менен мәсләҳәтлесиўлер өткериўди алып барыўы, олардың пикирлерин тыңлаў ҳәм итибарға алыў зәрүрлиги, нызамшылықты раўажландырыў концепциясын ислеп шығыў, уйымлараралық норматив ҳуқықый ҳүжжетлерди қабыл етиў ўәкиллигине ийе мәмлекетлик органлар көлемин қысқартырыў, сондай-ақ усы ҳүжжетлер санын муўпықластырыў жумысларын алып барыў керек деп есаплайман.

Әдебиятлар

1. Қарақалпақстан Республикасы Конституциясы.
2. Өзбекстан Республикасы Конституциясы.
3. «Қарақалпақстан Республикасы нызам жойбарларын таярлаў ҳәм жоқарғы кеңеске киргизиў тәртиби ҳаққында»ғы №297/1-Нызам. 15.12.1997-ж. joqargikenes.uz/8433.htm.
4. Қарақалпақстан Республикасы нормативлик ҳуқықый актлер ҳаққындағы Нызамы. joqargikenes.uz/8436.html.
5. Өзбекстан Республикасы Президентиниң «2022-2026-жылларға белгиленген жаңа Өзбекстанның раўажланыў стратегиясы» ПП-60-санлы Пәрманы, 28.01.22ж. https://lex.uz/docs/5841063.

BO'G'IMOYOQLILARNING TUZULISHI VA TABIATDAGI FUNKTSIYASI

Ergasheva Nodira Sodiqjon qizi

Kalit so’zlar: Bo‘g‘imoyoqlilar, simmetriya, halqali chuvalchang, trilobitasimon, turning umumiy xususiyatlari.

Ключевые слова: Членистоногие, симметрия, стригущий лишай, трилобит, общая характеристика видов.

Bo‘g‘imoyoqlilar - umurtqasiz hayvonlar tipi. Bo’g’imoyoqliklarning ajdodi tuban tuzilgan dengiz halqali chuvalchanglari hisoblansada, ularning bitta yoki bir necha umumiy ajdodlardan kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi muammo hozirgacha uzil kesil hal etilmagan. Eng qadimgi bo‘g‘imoyoqlilardan trilobitasimonlar quyi kembriy qatlamlaridan boshlab uchraydi.

Artropodlarning tabiatdagi roli juda katta. Ular deyarli barcha yashash joylarida yashaydi va ta'sir qiladi. Artropodlar boshqa hayvonlar uchun ozuqa

bo'lib xizmat qiladi, tuproq hosil bo'lishida va tabiatdagi organik moddalarning aylanishida ishtirok etadi, o'simliklarni changlatadi, yuqumli kasalliklarni olib yuradi va ekinlarga zarar etkazadi.

Turning umumiy xususiyatlari

Protostomlar.

ikki tomonlama simmetriya.

Embrion davrida butun birlamchi bo'shliq bilan birlashadi; natijada ichki organlarni o'z ichiga olgan va gemolimfa bilan to'ldirilgan aralash tana bo'shlig'i (miksokoel) hosil bo'ladi.

Tana segmentlarga bo'lingan. Metamerizm (segmental tuzilish).

Tana bosh, ko'krak va qorindan iborat. Ba'zida ko'krak boshi bilan birlashib, sefalotoraks hosil qiladi.

Oyoq-qo'llari birlashtirilgan. Keyinchalik rivojlangan shakllar oyoq-qo'llarning ixtisoslashuvini rivojlantiradi.

Tana tashqi skeletni tashkil etuvchi zich xitinli qobiq bilan qoplangan, ichki mushaklar unga qo'shiladi. Qobiq bir necha qatlamlardan iborat bo'lib, aksariyat turlarda suv o'tkazmaydigan bo'lib, bu artropodlarning erni to'ldirishiga imkon berdi.

O'sish molting bilan birga keladi - xitin qoplamasining o'zgarishi. Oldingi va orqa ichak epiteliysi xitin qoplamali bo'lganligi sababli, hayvonlar eritish paytida ovqatlanmaydi.

Teri-mushak xaltasi yo'q. Chiziqli mushak to'qimalarining mushaklari alohida to'plamlar bilan ifodalanadi. Odatda mushakning bir uchi tananing bir segmenti yoki oyoq-qo'l segmentining devoriga, ikkinchisi - boshqa segmentning devoriga biriktiriladi.

Asab tizimi: bosh ganglion, qorin bo'shlig'i nerv tizimi.

Sezgi organlari yaxshi rivojlangan. Ba'zi guruhlarda murakkab ko'zlar paydo bo'ladi.

Qon aylanish tizimi yopiq emas. Yurak dorsal yurak tomiridir.

Nafas olish tizimi: gillalar, o'pka yoki traxeya - yashash joyiga qarab.

Ovqat hazm qilish tizimi: og'iz teshigi bosh segmentlarining oyoq-qo'llaridan rivojlanadigan qo'shimchalar bilan jihozlangan.

Og'iz - og'iz bo'shlig'i + so'lak bezlari - farenks - qizilo'ngach - oshqozon - o'rta ichak + jigar - orqa ichak - anus

Chiqaruvchi tizim: buyraklar (metanefridiya), malpigiya tomirlari (er yuzidagi shakllarda).

Reproduktiv tizim: ikki xonali. Ichki urug'lantirish. Tuxum odatda katta va sarig'iga boy. metamorfoz bilan rivojlanish.

ELEKTRON HUKUMATNING JAMIYATIMIZDAGI O`RNI

Muydinov Eldorbek Aminjon o‘g‘li
Farg‘ona politexnika inistituti menejment yo‘nalishi magistranti.
Oltiariq tumani Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi katta mutaxasisi.

Kalit so’zlar: zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari,elektron hukumat, elektron hukumat talablari, interaktiv xizmatlar.

Ключевые слова: современные информационно-коммуникационные системы, электронное правительство, требования электронного правительства, интерактивные услуги.

Bugungi kunga kelib har bir sohaga axborot texnologiyalari kiribbormoqda. na shunday axborot texnologiyalaridan biri bu elektronhukumattushunchasidir. Xo’sh, elektronhukumat bu o’zi nima, biznima uchun va kimlaruchun bu tushunchani qo’llaymiz? Shu kabi ko’plab savollar bugungi kunga kelibko’pchilik fuqarolarimizda yuzaga kelmoqda? Negaki yurtimizdagi juda ko’plabfuqarolar bu haqida yetarlicha, ba’zilari esa umuman tushunchaga ega emas.Shuning uchun ushbu maqola yordamida elektron hukumat nima ekanligi, bu tizimaholi uchun qanday qulaylik va imkoniyatlar yaratilishi, shuningdek, elektronhukumat xizmat ko’rsatadigan interaktiv davlat xizmatlari bilan tanishib chiqamiz

Hozirgi rivojlanayotgan davrda “elektron hukumat” tushunchasiga turli tarifva tavsiflar keltirilgan. Misol uchun ba’zi manbalarda elektron hukumatga davlatxizmatlarining masofaviy (online) taqdim etish jarayoni deb qaralsa, boshqamanbalarda elektron hukumat fuqaro, tadbirkor, davlat tashkilotlariga davlatxizmatlarini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlaridanfoydalanish deya tavsif berilgan.Umuman olganda, elektron hukumat bu – raqamli texnologiyalar, internetvositalari orqali fuqarolarga, tashkilot hamda muassasalarga , tadbirkor vabiznesmenlarga davlat xizmatlarini taqdim etishning eng oson, tezkor va qulayyo’lidir. Elektron hukumat yordamida fuqarolar o’z-o’zini boshqarishlari uchunqo’shimcha imkoniyatlar hosil qiladi, texnologik yangiliklardan xabardorliginioshiradi hamda davlat boshqaruvidagi ishtirokini yanada qulaylashtiradi

Bizning mamlakatimizda aholi va yuridik shaxslarga davlat organlarining veb–saytlari va O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali orqali interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun axborot–kommunikatsiya texnologiyalari uzoq yillardan beri va maqsadli ravishda joriy etilmoqda. 2007 yildayoq 49 ta xizmatlarni o'z ichiga olgan Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari Reestri

tasdiqlangan edi. 2009 yilda bu ro'yxat kengayib, 94 taga etdi va hozirgi kunda esa u 195 tadan ortiq xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda «elektron hukumat»ning samarali elementlari sifatida 20 dan ortiq loyihalar amalga oshirilgan. Ularning ichiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali–gov.uz, u tashkilotlarning elektron–axborot o'zaro hamkorligi infratuzilmasining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi tizim yaratuvchi elementi hisoblanadi. Istalgan fuqaro yoki korxona, tashkilot, muassasa vakili O'zbekistondagi davlat hokimiyatining barcha elementi batafsil ma'lumotni olishi, hamda elektron ravishda bevosita gov.uz portali orqali u yoki bu hokimiyat organiga rasmiy talabni yuborishi mumkin. Ushbu portalda, shuningdek Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri ham to'liq ravishda joylashtirilgan.

«E-Kommunal.uz» portali, bu – uy–joy va kommunal xo'jaligi sohasidagi umumiy axborot infrastrukturasini aks ettiruvchi axborot resursi bo'lib, u aholi, nazorat organlari va xususiy uy–joy mulkdorlari shirkatlari hamda kommunal xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro axborot almashish jarayonini soddalashtirishga xizmat qiladi. Ushbu portalda qulay shaklda O'zbekiston Respublikasining uy–joy va kommunal xo'jaligining barcha masalalari bo'yicha ma'lumotlarni olish mumkin, shuningdek, unda tariflar bo'yicha informer va hattoki, barcha kommunal xizmatlarning interaktiv hisoblagichi ham joylashtirilgan.Istalgan foydalanuvchi Portalda kommunal xo'jalik sohasiga taalluqli bo'lgan muammo bo'yicha ma'lumot, fotosurat joylashtirishi mumkin, ushbu ma'lumot davlat hokimiyatining tegishli organlari tomonidan ma'lum chora–tadbirlarni qabul qilish uchun ko'rib chiqiladi.

BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHDA XAVFNI HISOBGA OLISH

M.R. Turg'unov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) fakultetining 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshqaruvda qaror qabul qilishda xavni hisobga olish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: qaror,muammo,noaniqlik elementlari,boshqaruv,mezon.

Bizning vaqtimizda noaniqlik va har xil xavf-xatarlar davrida faoliyatning barcha sohalarida, shu jumladan turizmda qaror qabul qilish zarurati tug'iladi.

Ko'pgina iqtisodiy jarayonlarning ishlashi va rivojlanishiga xos bo'lgan noaniqlik elementlari aniq natijaga ega bo'lmagan vaziyatlarning paydo bo'lishini tushuntiradi. Ushbu holat noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish jarayonini

murakkablashtiradi, va belgilangan maqsadlar va cheklovlar bo'yicha amaliyot uchun maqbul (maqbul va oqilona) boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradigan tegishli usullardan foydalanish zarurligini oldindan belgilaydi.

Ma'lumki, noaniqlik darajasiga qarab, xavf va noaniqlik holatlari farqlanadi. Bu yerda xavf holati har bir harakat natijasida turli xil natijalar paydo bo'lishi mumkinligi bilan tavsiflanadi, ularning ehtimolligi ma'lum va baholanishi mumkin bo'ladi. Xavf sharoitida qaror qabul qilish usullarida turli xil mezonlar va ko'rsatkichlar bilan belgilanadi, ularning yordamida xavf darajasi baholanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xavf sharoitida echimni tanlash, vaziyatning mumkin bo'lgan variantlarining ehtimolligi ma'lum, deb taxmin qilinadi, keyin bu holda ehtimolliklar statistik ma'lumotlar asosida, agar ular yo'q bo'lsa, ekspert baholari asosida aniqlanadi.

Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda, vaziyatning mumkin bo'lgan variantlari ehtimolligi ma'lum bo'lmaganda, bir qator mezonlardan foydalanish mumkin, ularning har birini tanlash, hal qilinayotgan muammoning mohiyati, belgilangan maqsadlar va cheklovlar bilan bir qatorda, qaror qabul qiluvchilarning xavf-xatarga moyilligiga ham bog'liq.

Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda ishlatiladigan klassik mezonlar qatoriga quyidagilar kiradi:

1)Laplasning yetarli darajada asoslanmaslik printsipi;

2)Valdning maksimal mezoni;

3)Savijning minimal mezoni;

4)Guvirtsning umumlashtirilgan maksimum mezoni.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy nazariya va amaliyot tomonidan ishlab chiqilgan xavf va noaniqlik sharoitida muammolarni hal qilish usullari sanab o'tilgan usullar bilan cheklanmaydi.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. Granaturova V.M. Ekonomicheskiy risk: sushnost, metodi izmereniya, puti snijeniya:Uchebnoye posobiye.– M:Izd-vo «Delo i Servis», 1999 – 112s

ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚИ ЎТОВИДАГИ АСОСИЙ БЕЗАК – АҚБАСҚУР ҲАҚИДА БАЪЗИ МАЪЛУМОТЛАР

Давлетбаева Набира Курбанбаевна

Қорақалпоғистон Республикаси И.В.Савицкий номидаги давлат санъат музейи Этнография бўлими илмий ходими

Аннотация. Мақолада Қорақалпоқ халқи ўтмишдаги турар жойлардан бири ҳисобланган ўтов, ўнинг интеръеридаги асасий безак тури – ақбасқур

ҳақида сўз этилади. Ундаги накшларнинг турлари ва ранглар уйғунлиги асосий масала қилиб олинган.

Калит сўзлари: ўтов, ақбасқур, нақш, «мўйиз-шох» нақши.

Ҳар бир халқ ўзнинг муаййан бир тарихига эга. Мазкур тарихий жараёнлар даврида халқнинг асосий турар жойлари катта аҳамият касб этади. Бизга азалдан малумки, ўзининг бой ва узоқ тарихга эга қорақалпоқ халқи ярим кўчманчи яшаш шараётида яшаган. Бундай ҳолатда халқ учун энг мақул турар жой бу албатта – ўтов ҳисобланади. Мақоламизда бой тарихи, ясалиш техникаси барчамизга маълум бўлган ўтовнинг ички интерьерида алоҳида ўринга эга бўлган безак тури – «ақбасқур» ҳақида тўхталиб ўтамиз. Қорақалпоқ халқи ўйи - ўтов ички ва ташқари безаклари жуда хилма-хил, улар асосан гиламчилик намуналари ва ёғоч ўймакорчилиги буюмларидан иборат. Ақбасқур ўтов интерьеридаги энг асосий, ҳашамдор, ёркин, жойлашган ўрни қулай ва аёллар томонидан қўл меҳнатида яралган гилмчилик намунаси десак адашмаган бўламиз. Қорақалпоқ тилидан сўзма-сўз таржима қиладиган бўлсак «ақбасқур» атамаси қуйдаги маънони беради, яъний «*ақ*» – оқ, «*бас*» – бош, асосий, «*қур*» – гилам тури. Бундан тушиниш мумкинки «оқ рангдаги асосий гилам тури» яъний «ўтовнинг бош безаги».

Ақбасқур аёллар қўл меҳнатида урчиқда ёки шархда егирилган пахта, жун ипларидан тўқилади ва албатта бунда ранглар уйғунлиги катта аҳамиятка эга. Мазкур безак тури энсиз 40 см атрофида, кўпинча 12-15 метр узунликта бўлиб, нақшлари уй ичкарисига қараган ҳолда ўтов ичкари қисмига айлана тақилади. Ақбасқурнинг охири иплар билан тугалланади. Улар бир-бирига боғланмайди, балки ўтовнинг қириш жойи устидаги деталга боғланади. Иплар боғланган бу жой одатда ўзунлиги 120 см эни 30-40 см атрофларидаги декоратив гиламча «*есиқ қас*» - эшик қош билан яширилган. Уни жилвакор қилиб кўрсатадиган асосий нарса бу унинг юз қисмидаги жудаям мураккаб уйгунликга эга бўлган нақшлари ҳисобланади. Қадимдан бизга маълум бўлганидек инсоният яралибдики атрофидаги барча нарса, буюмларни иложи борича санъат асарига айлантиришга ҳаракат қилади. Нақшлаш техникасида ақбасқурнинг ўзига ҳос ҳусияти бўлиб, нақш унинг ўрта қисмидан бошланиб икки учига қараб давом эттирилади. Қорақалпоқ аёллари моҳирлик билан келтирган нақшлар жуда мураккаб бўлиб, улар асосан қуйидаги мотивларда тўқилади: ўсимлик шаклини такрорловчи нақшлар (дарахт, новда, дарахт шохи ва гулларнинг хар ҳил кўриниши), ҳайвонларнинг аъзоларини такрорловчи нақшлар (шохнинг хар ҳил кўринишлари, тирноқ, қуш). Бу нақш тўрлари барча туркий халқларда шу жўмладан қорақалпоқ халқида ҳам кенг кўлланилган нақш ҳисобланади.

Шохли нақшлар туркумига кирувчи нақшларда асосан қўчқор ёки эчки шоҳларига қиёсланади. Геометрик фигураларни такрорловчи нақшлар типитаги нақшлар дунёдаги энг қадимий нақшлар ҳисобланади. Инсон томонидан яратилган энг қадимий нақшлар айнан думолоқ-айлана, учбурчак, тўртбурчак, овал, ярим ой шаклларда бўлган. Ақбасқурда бундай нақшларнинг ифодаланиши табиий ҳол, сабаби қорақалпоқ халқининг келиб чиқиши қадим даврларга бориб тақалади. Ақбасқурдаги нақшалар уйғунлиги асосан биз юқорида келтириб ўтган нақшлардан ташкил топган, ва бу ерда жуда кам ҳолларда қўлланиладиган аёлларга тегишли предметлар нақш сифатида туширилганлигининг ҳам гувоҳи бўлишимиз мумкин. Яъний қўпгина ҳолларда «тароқ», «учбурчак шаклдаги тумор» ақбасқурда нақш сифатида кўриниш беради. Қорақалпоқ ҳунарманд аёллари безак ва эстетикани чуқур ҳис этган, шунинг учун ҳам ақбасқурларнинг қиймати жуда аҳамиятли.

Бизга маълум тўқимачиликнинг ўзи ижодий жараён ҳисобланади. Ҳунарманд аёллар нақшли ақбасқурни тўқишда ўтов конструкциясини ҳисобга олган ҳолда бази нақшли жойларининг қўринмай қолишини билган ҳолда ўз таассурот оламнинг баъдий яхлитлигини ҳам ривожландириб, мустаҳкамлаб борган. Бу жараёндан кейин тўкув дастгоҳида яратилган мўжизани кўриб ўнга лол қолмасдан илож йўқ.

Демак, ўтовни безаш билан боғлик безак турларини шу жумладан ақбасқурни ҳам бемалол санъат асари деб ҳисоблаш мўмкин. Улар билан бир қаторда қорақалпоқ халқи ўтовини ҳам. Агар бу турар жой – ўтов бўлмаганда ақбасқур ва бошқа безаклар ҳам пайдо бўлмаган бўлар эди.

Адабиётлар

5. Алламуратов А. Мәңги мийрас. Нөкис, 1993.
6. Богословская И. Каракалпакский орнамент: образ и смысл. Алматы. 2019.
7. Камалова Г. Гөззал үлке. Нөкис, 1986.
8. Пирназарова А. Қарақалпақ халқының көркем-өнери. А.Пирназарова. Әмиўдарья. Нукус, 2021. - №6.

KRAUDSORSING NIMA? YOXUD ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA KRAUDSORSINGNI TUTGAN O'RNI

Iskandarova Iroda
O'zbekiston Milliy Universiteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabasi
iiroda266@gmail.com

Kirish. Mamlakatimizni rivojlantirishda bugungi kunda juda ko'p tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Davlat boshqaruvi tizimida esa yangi , samarali va sifatli faoliyat yurutuvchi tizim yaratish asosiy maqsad qilib belgilab olingan. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 8-sentabrda PF-5185-son farmoni bilan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islihotlar konsepsiyasi va Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirishda "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unga ko'ra davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh etish, innavatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish aytib o'tilgan.

Annotatsiya. Davlat boshqaruvini samarali tashkil qilishda yangi siyosiy texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish. Zamaonaviy davlat boshqaruv texnologiyalariga " Kontrakting aut", "Kraudsorsing", " Autsorsing", "elektron demokratiya" , "electron hukumat" va boshqa usullar kiradi. Mazkur usullar samarali davlat xizmatini tashkil etishda va fuqarolik jamiyatining turli tuzilmalarini boshqarishda amaliy yordam beradi. Hozirgi biz ko'rib chiqadigan usulimiz "krudsorsing"dir.

Kalit so'zlar; krudsorsing, jamoatchilik fikri, modernizatsiyalash, samarali davlat xizmati, siyosy texnologiyalar.

"KRAUDSORSING" o'zi nima ? Keling avvalo shuni o'ziga aniqlik kiritib o'tamiz (Inglizcha so'zdan olingan bo'lib crowdsoursing, crowd- "omma" va soursing – "resursidan foydalanish")- ya'ni oddiy insonlarning yaratuvchanligi, tajriba va bilimlarga asoslangan holda muammolarni hal etish va yangi brendlarni yaratishdir. *1

Kraodsorsing texnologiyasi yordamida inson resurslaridan foydalanib biznes , ijtimoiy va siyosiy muammolarga yechim topish mumkin. Ilk marotaba 2003- yilda Luis Fon Ax jamoasi bilan birglikda "insonlar xisobiga" ya'ni kompyuter bajara olmaydigan ishlarni tez va oson bajarish mumkin ekanligini Kraudsorsing usuli orqali hayotga tadbiq etadi. Bu zamonaviy davlat boshqaruvi usulida bugungi kunda bizning mamlakatimizda xam foydalanib kelinmoqda. Ho'p kroudsorsing bizga nima beradi? Kroudsorsing orqali biz juda yaxshi natijaga erisha olamiz. Ya'ni nimadir tashkil qilmoqchimiz lekin bizda unga g'oya yo'q. Biz kroudsorsingni qo'llash orqali fuqarolarni fikirlarini bir joyga jamlaymiz va eng ma'qul bo'lgan variantni tanlab olamiz.

Birinchidan ; bu sizga vaqtdan yutish imkoniyatini beradi. Ya'ni siz o'zingizda mavjud bo'lmagan yoki puxta ishlanmagan g'oya ustida bosh qotirib vaqtingizni yoqotmaysiz. Turli variantlar o'zi keladi.

Ikkinchidan; bu orqali faol va talantli fuqarolarni aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Negaki fuqarolarni xammasini xam qanday imkoniyatga ega ekanligini bilish imkonsiz albatta. Bundan tashqari chekka viloyat va tumandagi iqtidorli fuqarolar, imkoniyati cheklangan shaxslarni xam kashf etish mumkin.

Uchinchidan ; mablag'ni tejash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Ya'ni bunda uydan chiqmasdan internet orqali e'lon berasiz va fikirlarni qabul qilib olasiz. Bu esa sizdan ko'p mablag' talab qilmaydi.

Makur usuldan aynan bugun foydalanilyaptimi? Ha albatta bugun mamlakatimizda yangi konstitutsiya qabul qilish jarayoni kechmoqda. Aynan davlat boshqaruvida kraudsorsingni qo'llanishini shunda ko'rishimiz mumkin. Chunki xar bir xududdan fuqarolar o'z taklif va mulohazalarini yuborib faol ishtirok etmoqda. Kroudsorsing bugun yaxshi najia berib kelmoqda. Nafaqat syosiy balki biznesda xam bu orqali katta yutuqlarga erishildi dunyoda.

Bugungi kunda davlat boshqaruvida kroudsorsingdan foydalanishda xam albatta bir qancha muammolar yuzaga keladi. Bular birinchi navbatda muloqot masalasi. Negaki biror masala kroudsorsingga qo'yilsa undan aholining aksariyat qismi boxabar bo'lmasdan qoladi. Buni sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan texnik jihatdan , yoki shu masalaga ommani jalb qiladigan reklama tayyorlanmaganligi ya'ni texnalogiyalarni qo'llay olmaslik. Bularni amalga oshirishda albatta faol bo'lib jalb qiluvchi reklamalardan yaxshi foydalana bilish, ijtimoiy tarmoq sifatini yaxshilash yoki sovrinli tadbirlar uyushtirish albatta muvofaqqiyatli samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki xozirgi sanab o'tilgan zamonaviy davlat boshqaruvi usullarining barchasi ijtimoiy hayotni yaxshlishga, samarali davlat xizmatini tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan "hududiy marketing "ni oladigan bo'lsak, unda xar bir hududni brend darajasiga ko'tarib unda nomarkazlashgan boshqaruvni tashkil qilsak unda xam biz kutilgan natijamizga erisha olamiz. Mazkur davlat boshqaruvi usullarining xar biri ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan va aniq bir natija prognoz qilingan. Ammo bixevoralizm orqali uni yo'li boshqa tomonga siljib ketishi mumkin yani prognozda belgilangan istiqbolga erishish masalasi so'roq ostida qolishi mumkin. Lekn unga to'g'ri yondashilsa, chuqur o'rganilib amaliyotga taqdim etilsa ana unda katta yutuqlarga erishish extimoli yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Google ; biznesni rivojlantirishni istiqbolli rejalashtirish bo'limi ma'lumoti.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIK SHAKLLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattorov.O.F
(TDYU, Toshkent)

Oliy ta'lim muasasalaridagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar turli xil shakllarda sodir etiladi.

Dastlab, shakl tushunchasini yoritib o'tamiz, S.Ojegova shakl mazmunning ajralmas qismi, uning mavjudligini ta'minlovchi, ifodalanishiga xizmat qiluvchi tushuncha, deb tariflaydi[41]. D.Ushakov esa, shakl bu tashki ko'rinish, obyektning tashqi ifodalanishi, deb hisoblaydi[42].

Oliy ta'lim muasasalarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari –oliy ta'lim muasasalaridagi sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning turli ko'rinishlari hisoblanadi.

K.Kuzina oliy ta'lim muasasalaridagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllari ko'rsatib o'tgan: davlatga qarashli OTMda byudjet mablag'larini talon-toroj qilinishi; OTMni akkreditatsiya qilish uchun pora berish; oliy ta'limga oid diplom va boshqa hujjatlarni noqonuniy usulda olish; tanlov natijasini hisobga olmagan holda OTMni ro'yxatdan o'tkazish; talabalarni baholash jarayonida o'qituvchilar tomonidan korrupsiyaviy tovlamachilik sodir etish; o'qishni istamagan talabalarni o'qituvchilarga korrupsiyaviy bosim qilishi; hamkasblar va rahbariyatni mas'ul o'qituvchilarga talabalarni qo'llab-quvvatlash masalasida korrupsiyaviy bosimlar o'tkazishi[43].

Firkimizcha, sohadagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning quyidagi shakllari mamlakatimiz doirasida dolzarb hisoblanadi:

– OTMga kirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–talabalarni baholash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–talabalarning davomatini yashirish maqsadida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish hamda o'qishga qayta tiklash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

---

[41] Ожегов С.И., Толковый словар, 2008-2009, http://slovarozhegova.ru.

[42] Ushakov D.N., Tolkovыy slovar 2008-2009, http://ushakovdictionary.ru.

[43] Кнауст И.С. "Коррупсия учреждениях вқсшего профессионалного образавания: Магистерская диссертатсия". Томск:. 2016. – 15 s.

–ilmiy-tadqiqot jarayonlarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish;

–rahbar xodimlar va hamkasblarni mas’ul o‘qituvchilarga korrupsiyaviy bosim o‘tkazishi;

–OTM xodimlaridan korrupsiyaviy maqsadlarda noqonuniy pul mablag‘larini yig‘ish;

–talablarga kitoblar va boshqa o‘quv materiallarini majburiy sotish hamda buning uchun ularni turli jabhalarda qo‘llash;

–OTMni bitirganligi to‘g‘risida sohta diplom yoki boshqa hujjatlar berish;

–kadrlarni lavozimga tayinlash, ularni ishdan bo‘shatish, moliyaviy rag‘batlantirish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–OTMga davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish;

–talabalarni yotoq joyi bilan ta’minlash jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etish va boshqalar.

Respublika Oliy ta’lim muasasalarida 2020-2021 yillar davomida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarni tahlil qilsak, ularning **42 tasi byudjet** mablag‘larini talon-toroj kilish, 28 tasi o‘qishga pora evaziga kiritib qo‘yish, 9 tasi ta’limni to‘liq o‘zlashtirmagan talabalarga ijobiy baho qo‘yish, 7 tasi surunkali dars mashg‘ulotlariga qatnashmagan talablarga diplom olib berish, 6 tasi OTMga pora evaziga ishga qabul qilish, 3 tasi boshqa holatlarda pora olish bilan bog‘liq[44]. Raqamlardan mamlakatimizda byudjet mablag‘larni talon-toroj qilish, pora evaziga o‘qishga kiritib qo‘yish, pora evaziga baho olib berish, pora evaziga ishga olish kabi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari keng tarqalganligini ko‘rish mumkin.

Oliy ta’lim muasasalarida sodir etilayotgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin.

Jumladan, A.Osipian huqubuzarlik shakllarini turli asoslar bo‘yicha tasniflaydi. Xususan, u huquqbuzarliklarni sodir etilish usuliga ko‘ra: poraxo‘rlik, nepotizm, favorotizm, fribgarlik, moddiy boyiklarni talon-toroj qilish, plagiat, kasbiy odob-axloq qoidalarini buzish, shartnomani buzish shakllarga; sodir etilish sohasiga ko‘ra: OTMga qabul qilish, ta’lim berish, bitirish, akkreditatsiya va litsenziyalash, professor-o‘qituvchilarni tanlab olish va rag‘batlantirish jrayonida, tadqiqot olib borish, grantlar olish jarayonida sodir etiladigan; subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘ra: davlat-universitet, tadbirkor-universitet, fakultet-

[44] Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig‘ilish bayoni, “Oliy ta’lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylikni ta’minlashga doir masalalar” – 2021-yil 18-yanvar.

talaba, fakultet-boshqaruv, davlat-talaba o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarlik shakllariga tasniflaydi[45].

Sohadagi korrupsiyaviy huquqiy munosabatlar davlat yoki mintaqa bo‘yicha dolzarb va o‘ziga xos bo‘ladi.

Jumladan, Italiyada mafiya va OTM o‘rtasidagi korrupsiyaviy munosabatlar mavjudligi sababli tadqiqotchilar tomonidan bu holat sohadagi yangi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli sifatida baholandi. AQShda firibgarlik, plagiat va talabalar uddabronligi keng tarqalgan bo‘lsa, Rossiya Federatsiyasida OTMga kirish va o‘qishni tamomlash jarayonidagi poraxo‘rlik dolzar shakllar hisoblanadi. Buyuk Britaniyada OTMni akkreditatsiyadan o‘tkazish bilan bog‘liq korrupsiya muhim ahamiyat kasb etsa, Xitoyda o‘qishni bitirganligi to‘g‘risida soxta sertifikat berish keng tarqalgan. Birgina AQShda xususiy oliy ta’lim rivojlanishi natijasida universitetlarning davlatdan qarzlari 1.7 mln. dollordan 17 mln. dollarga ortdi va turli firibgarliklarni sodir etishga olib kelmoqda [46].

Korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birga vujudga kelishini xalqaro tajribadan ko‘rish mumkin. Masalan, xususiy oliy ta’lim rivojlangan AQSh va Yevropa mamlakatlarida OTMni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida korrupsiyaviy holatlar ko‘p uchrasa, mamlakatimizda xususiy OTM endi rivojlanayotganligini inobatga olgan holda mazkur huquqbuzarlik yaqin kelajakda dolzarb shaklga aylanishi mumkin.

Oliy ta’lim muasasalarida sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar talabalar, guruh yetakchilari, o‘qituvchilar, rahbarlar va boshqa shaxslar tashabbusi bilan sodir etilishi mumkin. Siyosiy ta’dqiqotchi Albina Yunni o‘rganish natijalariga ko‘ra, mamlakatimiz OTMda yuzaga kelayotgan korrupsiyaviy kelishuvlarning 25 foizi talabalar, 24 foizi o‘qituvchilar, 10 foizi guruh yetakchilari, 3% xodimlar, 38% boshqa shaxslar tashabbusi bilan sodir etilayotganligi ko‘rsatilgan[47].

Fikrimizcha, korrupsiyaviy huquqbuzarlik korrupsiyaviy manfaatni kim ko‘rishiga qarab **individul va institutsional** ko‘rinishdagi korrupsiyaviy harakatlar bo‘lishi mumkin. Individul ko‘rinishdagi korrupsiyaviy harakatlar natijasida alohida yakka shaxs yoki shaxslar manfaatdor bo‘ladi. Misol uchun, pora evaziga OTMga kiritib qo‘yish, talabaga pul evaziga ijobiy baho qo‘yish. Institutsional ko‘rinishdagi korrupsiyaviy harakatlar natijasida alohida shaxs yoki shaxslar emas

[45] Osipian A. “Higher Education Corruption in the World Media: Prevalence, Patterns, and Forms”. 32nd Annual Conference of the Association for the Study of Higher Education, Louisville, KY, November 2007.
[46] Osipian A. “Higher Education Corruption in the World Media: Prevalence, Patterns, and Forms”. 32nd Annual Conference of the Association for the Study of Higher Education, Louisville, KY, November 2007.
[47] Yun A., “Corruption in Uzbek higher education: detrimental impurity for the future, Norwegian institute International affairs”, 2016, p – 12.

balki ma’lum soha vakillari yohud ma’lum tuzilma manfaatdor bo‘ladi. Masalan, OTMni pora evaziga noqonuniy ravishda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Shuningdek, korrupsiyaviy harakatlarning qonuniyligiga ko‘ra, **qonuniy faoliyat asosida va noqonuniy faoliyat asosida** amalga oshiriladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga ajratish mumkin. Qonuniy faoliyat asosida amalga oshiriladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga xodimlarni xizmat vazifasiga subyektiv yondashuvi, ya’ni o‘qituvchi tomonidan do‘sti yoki yuqori amaldorning bilimsiz farzandiga ijobiy baho qo‘yishini misol qilish mumkin. Noqonuniy faoliyat asosida amalga oshiriladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga xodimlarni javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladigan harakat, ya’ni talabani pora evaziga bir ta’lim yo‘nalishidan boshqa ta’lim yo‘nalishiga ko‘chirishini keltirish mumkin.

Bundan tashqari, Oliy ta’lim muasasalaridagi korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilish sohalariga qarab, **ta’lim berish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv** sohasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga bo‘lish mumkin. Talabalarning yakuniy ishini moddiy manfaatdorlik evaziga ijobiy baholashni ta’lim berish, talabaga moddiy manfaatdorlik evaziga yotoqxona berishni xizmat ko‘rsatish, pora evaziga rektor lavozimiga tayinlashni boshqaruv sohasidagi korrupsiyaga misol sifatida keltirishimiz mumkin[48].

N.Rumyanseva oliy ta’limdagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni quyidagicha tasniflaydi:

1) ta’limdagi maxsus korrupsiya:

– akademik korrupsiya: talaba-fakultet va talaba-boshqaruv xodimi o‘rtasidagi korrupsiya;

–xizmat ko‘rsatishdagi korrupsiya: talaba-xizmat ko‘rsatuvchi xodim va talaba-boshqaruv xodimi o‘rtasidagi korrupsiya;

2) boshqaruvdagi korrupsiya[49].

Huddi shu kabi, korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllarini OTM tashkiliy-huquqiy shakliga qarab, **davlat, xususiy va xorijiy** OTMdagi huquqbuzarliklarga ajratish mumkin.

Oliy ta’lim muasasalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishda korrupsiyaviy huquqbuzarlik xususiyatlarini ko‘rib chiqish muhim o‘rin tutadi. Zero, har qanday kasallikka qarshi kurashishda, avvalo, ushbu kasallikning xususiyatlari, ya’ni inson organizmiga salbiy ta’siri aniqlanadi, so‘ngra kasallikka qarshi kurashish choralari ko‘riladi.

[48] Osipian A. “Corrution in higher education: for the degreye of Doctor of philosophy”. 2013, pages – 25-26.
[49] Rumyantseva N, “Taxonomy of Corruption in Higher Education”, Peabody Journal of Education, Newly Emerging Global Issuyes, 2005, p – 81-92

Oliy ta’lim muasasalaridagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar quyidagi xususiyatlarga ega:

Birinchidan, munosabat subyektlari soni ko‘pligi va sohada korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishi yuqoriligi.

Xususan, 2019-yil holatiga Respublikada 410 nafar bakalavriat 13 ming nafar magistr talabalar ta’lim olishi, 25.418 nafar professor-o‘qituvchilar mehnat qilishi buning yorqin misoli bo‘ladi[50]. Mazkur subyektlarning deyarli har kuni o‘zaro munosabatga kirishishi va bu jarayonda inson omilining yuqoriligi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelishi mumkin;

Ikkinchidan, talabalarni baholash jarayonidagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni ko‘zga ko‘rinmasligi, munosabat subyektlari va jamoatchilik tomonidan bu turdagi harakatlarni ahamiyatsiz huquqbuzarlik sifatida baholashi.

Jumladan, talabani pul berib yoki tanish mansabdorlar orqali ijobiy baho olishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan jinoiy huququqbuzarlik sifatida qabul qilinmaydi. Mazkur mayda korrupsiyaviy harakatlarni o‘qish va ish faoliyatida muntazam sodir etilishi ularni o‘qituvchi va talabalar uchun oddiy holga aylantiradi.

Uchinchidan, Oliy ta’lim muasasalaridagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar davriy asosda sodir etilish xususiyatga ega.

Jumladan, har yili OTMga kirish imtihonlarini o‘tkazilishi, yilda ikki marta oraliq, yakuniy imtihonlarini o‘tkazilishi va bitirish kurslarida davlat imtihonlari, bitiruv malakaviy ishlarni topshirilishi holatlarini keltirishimiz mumkin. Davriy asosda korrupsiyaviy o‘choqlarni yuzaga kelishi huquqbuzarlar uchun uzoq va puxta tayyorgarliklar ko‘rish imkoniyatini yaratadi hamda bu sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yuqori bo‘lishiga olib keladi;

To‘rtinchidan, abiturient va talabalar uchun oliy ma’lumotga ega bo‘lish katta hayot yo‘lidagi hal qiluvchi nuqta, ko‘p ehtimol bilan uning kelajagi uchun ko‘prik bo‘lishi alohida bir xususiyat. Ushbu muhim hayot bosqichida ijobiy natijaga qonuniy yo‘l bilan erisha olmagan shaxslar korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga urinadi;

Beshinchidan, Oliy ta’lim muasasalaridagi korrupsiya bo‘lajak kadrlarda korrupsiyaviy illatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Masalan, talabaning o‘qituvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri korrupsiyaviy munosabatlarga kirishishi uni savodsiz kadr bo‘lishiga olib kelishi bilan bir qatorda, kelgusi ish faoliyatida ham korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga o‘rgatib boradi. Zero, sohada korrupsiyani avj olishi korrupsiyaga moyil bo‘lajak kadrlar uchun tajriba maydoni bo‘lib hizmat qiladi;

[50] O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma’lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 06/19/5847/3887-son.

*Oltinchidan,*Oliy ta’lim muasasalaridagi korrupsiya boshqa sohalarga ham korrupsiyaning keng tarqalishiga xizmat qiladi.

Xususan, OTMga pora berish yo‘li bilan kirgan va uni korrupsiyaviy yo‘llar bilan tugatgan talaba davlat xizmatining turli sohalariga, jumladan sog‘liqni saqlash, qurilish, huquqni muhofaza qilish va boshqa sohalarga mehnat faoliyatini davom ettiradi va bu o‘z navbatida ushbu davlat xizmati sohalarida korrupsiyaning keng tarqalishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim muasasalarida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari – oliy ta’lim muasasalaridagi sodir etiladigan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning turli ko‘rinishlari hisoblanadi. Oliy ta’lim muasasalaridagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakli, tasnifi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar kelib chiqish sabab va omillarini aniqlashga imkon beradi.

QADRING BALAND BO`LSIN, ONA TILIM!

N.B. Djumaniyazova
IIVning Xorazm akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

N.K.Abdullayeva
IIVning Xorazm akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Mustaqillikka ilk qadamni 1989- yilda qo`ydik, ya’ni ona tilimiz, O`zbek tiliga Davlat tilima qomining berilishi erk uchun bosilgan dastlabki odim edi. Endilikda bemalol minbarlarda ona tilimizda baralla hayqirishimiz mumkin bo`ldi. Milliy g`ururimiz, iftixorimiz bo`lgan, onamiz allasi ila qulog`imizga ilk eshitilgan tilimiz ozod bo`ldi. Til - millat ko`zgusi, xalqning o`zligini namoyon qiluvchi vosita.

Xo`sh, biz bugun mana shu iftixorimiz bo`lgan tilimizga e`tibor va mehrni ko`rsata olyapmizmi? O`zi tilga muhabbat nimada aks etadi?

Avtobusga o`tirib, shahar ko`chalarni kezarkansiz, bo`layotgan o`zgarishlar, qurilayotgan bir- biridan baland, go`zal binolarni ko`rib behad quvonasiz. Biroq shahar ko`chalarida osib qo`yilgan afishalarga qarab dilingiz siyoh bo`ladi.

Bugungi kunimizda Urganch shahrida ham turli ko`ngilochar makonlar, kafe, restoranlar ko`paygan. To`g`ri, ulardagi mijozlarga xizmat ko`rsatish a`lo darajada, ammo bu maskanlarga tanlangan nomlar kishini biroz mushohada yuritishga majbur qiladi. Masalan, yo`lda borayotganimda “Shox kafe”

degan nomga ko`zim tushdi. Shox paronim so`z bo`lib, “shox” va “shoh” shaklida ishlatiladi. Agar biz bu so`zda chuqur til orqa undoshi “x” ni qo`llasak, uning mazmuni shox, shabba, masalan, “daraxtning shoxi” yoki bo`lmasa “ho`kizning shoxi” degan ma`nolarni anglatadi. Bu so`z bo`g`iz undoshi “h” harfi bilan qo`llansa, “podshoh” demakdir. Shunday ekan, bu nomni tanlayotgan shaxs ushbu so`zlarning ma`nosini chuqurroq o`ylab ko`rishi lozim.

Yangi qurilayotgan katta bino oldiga “Orzuyingdagi uy” deb yozilgan katta afisha osib qo`yilgan.

1995- yil 24- avgustda Vazirlar Mahkamasining 339- sonli qaroriga asosan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to`g`risidagi ” qarori qabul qilindi. Ushbu imlo qoidalarining “Asos vaqo`shimchalar imlosi ” bobining 35-bandi 3- xatboshida quyidagilar yozib qo`yilgan.

1) o, o`,u,e unlilari bilan tugaydigan so`zlarga egalik qo`shimchasi quyidagicha qo`shiladi: -m,-ng,si, miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qo`shiladi. Masalan, *bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobolari; orzum, orzung, orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi .

2) parvo, obro`, mavqe, mavzu, avzo so`zlariga I,II shaxs egalik qo`shimchalari qo`shilganda bir *y*

tovushi qo`shib aytiladi va shunday yoziladi.

Demak, yuqorida gi afishada “Orzungdagi uy ” shaklida yozilishi kerak.

Bu kabi xatoliklarni ko`plab uchratish mumkin. Bu orqali kimnidir ayblash yoki kamsitish fikridan yiroqmiz. Maqasadimiz yangi ish boshlayotgan tadbirkorlar o`z bisneslarini boshlayotgan vaqtida nom qo`yish jarayonida “O`zbek tilinning imlo” lug`atiga murojaat qilsalar. Milliy g`ururimiz, millatimiz ko`zgusi bo`lgan Ona tilimizga biroz bo`lsa-da e`tibor va hurmat bilan qaramog`imiz lozim. Aslida ona tiliga mehr ana shu o`rinda aks etmaydimi???

TASHQI BOZORGA KIRISH STRATEGIYALARI

Turg'unov Muxriddin Rustam o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti Iqtisodiyot(tarmoqlar va soha bo’yicha) fakulteti talabasi

Maxammadiyeva Sabina Sharofiddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti Iqtisodiyot(tarmoqlar va soha bo’yicha) fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada kompaniya faoliyatini xalqarolashtirish bosqichlari, korxonani tashqi bozorlarga olib chiqish uchun zarur shartlar, korxonani tashqi

bozorga olib chiqishning asosiy strategiyalari, shuningdek ushbu strategiyalarning afzalliklari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqarolashtirish, tashqi bozorlar, eksport strategiyasi, qo'shma biznes strategiyasi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar.

Xalqaro marketing jahon iqtisodiy jarayonining muhim atributidir. Xalqaro marketing kontseptsiyasi AQShda o'tgan asrning urushdan keyingi davrida paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lishi Amerika xalqaro kompaniyalarining amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq edi. Ichki bozorda kompaniya faoliyatini tashkil etishga marketing yondashuvining afzalliklariga ishonch hosil qilib, amerikalik mutaxassislar (ham amaliyotchilar, ham nazariyotchilar) uni tashqi bozorda operatsiyalarga tarqatish zarurligini his qilishdi. Ushbu muammo ikkinchi jahon urushidan keyin, AQSh iqtisodiyoti kuchli bo'lganida va o'z mahsulotlarini sotish uchun yangi bozorlarni talab qilganda dolzarb bo'lib qoldi [1,V. 68].

Korxonaning tashqi bozorlarga chiqishi, birinchi navbatda, tegishli strategiyani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishni tashkil etish nuqtai nazaridan tashqi bozorga kirishning quyidagi asosiy strategiyalari mavjud: eksport strategiyasi, qo'shma biznes strategiyasi,to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar.

Eksport tashqi bozorga kirishning eng oson yo'li. Eksport strategiyasini qo'llagan holda, firma barcha mahsulotlarini o'z mamlakatida ishlab chiqaradi, ularni o'zgartirilgan yoki o'zgartirilmagan holda eksport qilishni taklif qiladi. Ushbu strategiyaning afzalligi shundaki, u kompaniyaning mahsulot assortimentida, uning tuzilishida, kapital xarajatlarida va faoliyat dasturida minimal o'zgarishlarni talab qiladi. Eksport "bilvosita" va "to'g'ridan-to'g'ri" bo'lishi mumkin:

1)bilvosita eksport turli xil xalqaro vositachilar orqali amalga oshiriladi: milliy eksport vositachisi, milliy eksport agenti, kooperativ tashkilotlar,eksportni boshqarish kompaniyasi. Eksport faoliyatini endigina boshlayotgan firmalar bilvosita eksportdan foydalanish ehtimoli ko'proq. Ular bu variantni afzal ko'rishadi-ikkita sababga ko'ra. Birinchidan, bunday eksport kamroq kapital qo'yilmalarni talab qiladi, chunki firma chet elda o'z savdo ofisini yaratmasligi yoki chet elda aloqalar tarmog'ini yaratmasligi kerak. Ikkinchidan, bilvosita eksport bilan kompaniya kamroq xavf tug'diradi.

2) to'g'ridan-to'g'ri eksport kompaniya tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi: eksport bo'limi orqali, chet elda savdo bo'limlari orqali, savdo vakillari orqali, xorijiy distribyutorlarni jalb qilish orqali [2,V. 105].

Qo'shma tadbirkorlik faoliyatining variantlaridan biri bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha shartnoma tuzishdir. Shartnoma ishlab chiqarishning yetishmasligi-bu firmaning ishlab chiqarish

jarayoni ustidan kamroq nazorati va potentsial foyda bilan bog'liq ishlab chiqarishni yo'qotishdir, shu bilan birga ular faoliyatni tezroq, kamroq xavf bilan va mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalari bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Ushbu turdagi eksport past xavf bilan tavsiflanadi va boshidanoq yaxshi daromad keltiradi. Ushbu turdagi kelishuv judaham qulay bo'ladi, ayniqsa, agar boshqaruv kompaniyasi belgilangan muddat ichida chet el sherigining mol-mulkining ma'lum bir qismini sotib olish imkoniyatiga ega bo'lsa yoki samarali boshqaruv kompaniyasi yuqori daromat olishini taxmin qilsa. Shartnoma idorasi kompaniyani mijoz tomonidagi raqobatchilardan ozod qiladi.

Alohida-alohida, biz litsenziyalashni (franchayzingni), ya'ni ishlab chiqarish litsenziyasini sotishni, ularning ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish huquqini, savdo belgisini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bu litsenziyalashning eng rivojlangan shakli. Litsenziyalash kompaniyasi tashqi bozorga kirishda minimal xavflarni o'z zimmasiga oladi va litsenziat ishlab chiqarish bo'yicha bilim va ish tajribasini yoki taniqli mahsulotni ishlab chiqarish imkoniyatini oladi. Ushbu strategiyaning kamchiligi shundaki, litsenziat litsenziyalash kompaniyasining faoliyatini nazorat qila olmaydi. Muammoning ildiziga nazar tashlasak, litsenziatning muvaffaqiyati oxir-oqibat litsenziyalash kompaniyasining daromadini kamaytiradi va oxir-oqibat kompaniya rahbariyati o'zlarining raqiblarini o'zlari yaratganligini bilib olishlari mumkin bo'ladi. Bunga innovatsiyalar orqali yo'l qo'ymaslik mumkin.

Qo'shma korxonalarni tashkil etish iqtisodiy yoki siyosiy sabablarga ko'ra zarur bo'lishi mumkin. Aslida,bu xorijiy va mahalliy kapital egalarining uni ishlab chiqarishga investitsiya qilish imkoniyatlarining kombinatsiyasi bo'lib, uni boshqarish shartnomada nazarda tutilgadek har ikki tomon amalga oshiradi. Ehtimol, xorijiy kompaniyada moliyaviy, moddiy yoki boshqaruv resurslari yoki ta'lim yetishmaydi. Yoki qo'shma korxona tashkil etish hukumat tomonidan belgilanadigan bozorga kirish uchun zarur shartdir. Bunday holda, hatto yirik korporatsiyalar ham bunday bozorlarga kirish uchun "qo'shma" ishlab chiqarishni tashkil etishlari kerak. Qo'shma korxonaning afzalligi shundaki,kompaniyaning mahalliy a'zosi o'z bozori, aholining mentaliteti, ushbu mamlakatda biznes yuritishning o'ziga xos xususiyatlari va biznes dunyosining nozik jihatlari haqida ko'proq biladi. Ammo bunday korxonalar ma'lum kamchiliklarga ega. Hamkorlar investitsiyalar, marketing, foydaning yangi yo'nalishlariga rozi bo'lmasliklari mumkin. Masalan, marketing muhim bo'lgan Amerika kompaniyalarini olib, mahalliy a'zolar faqat savdo tashkilotlariga ishonishlari mumkin. Bundan tashqari,turli mamlakatlarda qo'shma korxonalarning mavjudligi transmilliy

kompaniyaga butun dunyo bo'ylab marketing siyosatini ishlab chiqarishni qiyinlashtiradi [3, V. 129].

Xalqaro bozorga kirishning so'nggi shakli to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir. Bu tashqi bozorda faoliyatda ishtirok etishning eng to'liq shakli. Uning mohiyati chet elda o'z yig'ish yoki ishlab chiqarish korxonalarini yaratishga sarmoya kiritishdir. Firma eksport ishlari bo'yicha tajriba to'plaganligi sababli va chet el bozorining yetarlicha katta hajmi bilan chet eldagi ishlab chiqarish korxonalari kompaniyaning uzoq muddatli ishlashini ta'minlaydi. Naqd pulni tejash bu erda ishchi kuchini qo'llash va transport xarajatlarini tejashdan iborat.

Ushbu strategiyaning afzalliklaridan biri shundaki, kompaniya chet el hukumatlari tomonidan xorijiy omonatchilarga beriladigan imtiyozlar, transport xarajatlarini kamaytirishdan va arzon ishchi kuchidan foydalangan holda pulni tejashga qodir.

Shunday qilib, strategiyalarni shakllantirish va boshqarish zarurati mahsulotlarni ishlab chiqish va bozorga chiqarishda yuzaga keladigan noaniqlik va xavfning katta darajasi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Sautchenkova Yu.N. Strategii vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti organizatsii/ Innovatsionnaya nauka. 2016. №4-2 (16). –S.68-75.
2. Musayev I.Strategiya razvitiya vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti predpriyatiy promishlennosti na regional'nom urovne/Voprosi strukturizatsii ekonomiki. 2015. №5.–S. 104-109.
3. Voronov, A.A. Otsenka taktiki i strategii menedjmenta predpriyatiya / A.A. Voronov. – Kras-nodar: K-Press, 2010.–285 s.

TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Boltayeva Mohichexra Jamshid qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali "Ta'limning kredit tizimini tashkil etish" sektori bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarga tarix fanini o‘qitishda jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish uchun turli xil uslublarni qo‘llash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion metod, elektron ta’lim, audiovizuallar, interfaol uslublar, o‘quv-metodik uslublar, “Raqamli tarix”.

Hozirgi kunda tarix fanlarini o`qitishning muhim muammolaridan biri bu - maqsadli ta'lim-tarbiyani yo`lga qo`yishdir. Ta'lim jarayonida ilg`or pedagogik

uslub va texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida ilgari surilgan vazifalar bugungi kunda ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tarix fanini o`qitishda quyidagi innovatsion faoliyatga e’tibor berish tavsiya qilinadi:

Mashg`ulot vositalari:

- Mashg`ulot o`tkazish uchun; Plakatlar, maketlar, modellar, audiovizual, jihozlar, texnik va real vositalar;
- Pedagog uchun; O`quv-metodik qo`llanma, metodik ishlanma, metodik tavsiya, dars rejasi.
- O’quvchi uchun; Darslik, tarqatma materiallar, jadvallar, yo`l-yo`riqli texnologik xaritalar, topshiriq varaqasi, tipik xatolar xaritasi, interfaol usullar bo`lishi mumkin.

Tarix fanlarini o`qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko`nikma va malakani shakllantirish orqali o`quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o`stirishni, ularga kasb-hunarga yo`naltirilgan bilim berishni ta'minlash maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o`quvchilarning tanlagan kasbi bilan bog`liq bo`lgan tarixiy bilim, tushuncha, tassavvurni yanada rivojlantirish hamda o'zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni o`rgatishdir.

Agarda, dars jarayonida quyidagi didaktik shartlarga amal qilinsa, o'qitishga mujassam yondashishda samaradorlikka erishiladi:

- o'rganilayotgan o'quv fanlari bo'yicha mavzularni mazmunan uyg'unlashtirish orqali o'quv rejalariga fanlararo aloqadorlik asosida tashkil topgan dars soatlarini kiritish;
- o'quv fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarning ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish;
- darslarda mazmunan bir-biriga yaqin yoki aralash o'quv fanlari tarkibidagi tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "Atamalar izohi", «Juftini top», «Aql charxpalagi», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat-e'tibor birgina bolaga qaratiladi. "Juftini top" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari

yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak.

Sonlar ishtirokidagi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yini. Bizga ma'lumki tarix fanida har bir mavzuda tarixiy yillar, sonlar berilgan bo'lib, ularni to'liq eslab qolishga o'quvchilar qiynalishadi. Agarda o'quvchiga mavzuda berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, axborotni o'rganib kelish topshirig'i berilsa, to'liq barcha yillar, sonlar bilan bog'liq voqealar, axborotni o'quvchi aytib bera olmaydi. Savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib tarix darsligida berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq eslab qolish mumkin: Birinchi navbatda, o'quvchining nuqtayi nazarida zerikarli hamda soni jihatidan juda ko'p bo'lib tuyilgan tarix darslaridagi sonlarni, yillarni qiziqarli, jozibali qilib ko'rsatib beruvchi turli xil ta'limiy o'yinlar orqali qiziqtirish kerak. O'quvchida qiziqish bo'lmasa, har qanday metod, usulni qo'llamang samara berishi qiyin.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yinining oltin qoidasi: Takrorlash barcha ilmlarning onasidir. Takrorlash barcha fanlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Ammo tarix fanida ma'lumotlar hajmi juda kattaligini hisobga olsak, mavzularni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarib turish judayam zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida. // Xalq so`zi, 2012. 29 may, № 10.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo`llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Lafasov M. Jahon tarixi. (1918-2008). –T.: Turon-iqbol, 2011.
5. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo`llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.
6. Tarix o'qitish metodikasi . Toshkent, 2005 yil.

ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА УЧРАЙДИГАН МУАММОЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Ш.К.Каримова

Педагогик инновациялар,профессионал таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти “Персонални бошқариш”кафедраси катта ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги қонунида вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш мақсад қилиб қўйилган бўлиб, уни амалга оширишда жамоатчилик ташкилотлари, таълим муассасалари, ҳуқуқий-тарғибот органлари ҳамда ота-оналарнинг вазифалари, уларнинг ўзаро ҳамкорлиги масалаларига эътибор қаратилган.

Маълумки, таълим муассасаларининг муҳим вазифаларидан бири – бу ёшлар тарбиясида миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги ва муштараклиги масаласи алоҳида ўрин тутади. Бугунги кунда педагог-психологларнинг ахборотлар оқими узлуксиз коммуникация тармоқларидан узатилаётган бир даврда хавфсизликни таъминлаш, хатарлар, салбий оқибатларнинг олдини олишни масъулиятли вазифамиздир. Ёшларимиз эркин фикрлайдиган, ҳар қандай салбий таъсирчан ғоялардан, онг, тафаккур қарамлигидан озод, оилада, атроф - муҳитда бўлаётган воқеа - ҳодисаларни ҳаққоний баҳолайдиган ва уларга эркин муносабатларини билдира оладиган, ўзининг илғор фикрлари, намунаси билан оила аъзолари, синфдошлари, дўстларига таъсир қила оладиган, интеллектуал кучга эга, тиришқоқ, билимли, жасур ва одобли бўлмоғи назарда тутилади.

Белгиланган вазифаларни амалга оширишнинг ўзига хос муаммоли ва мураккаб томонлари мавжуд. Ҳозирда ижтимоий - иқтисодий, маданий, ва айниқса, сиёсий соҳаларда кузатилаётган кескин ўзгаришлар ва иқтисодий соҳадаги беқарорлик инсонларнинг дунёқараши, хулқ - атвори, турмуш тарзи ва уларнинг касбий фаолиятига ҳам салбий таъсир этаётганлигини ҳам айтиб ўтиш жоиз. Ёшлар ўртасида жамоатчиликда ўзига нисбатан кераксиз инсон сифатида қараб ўз жонига қасд қилишлар бўйича айни вақтда етарлича илмий асосларга суянган ҳолда илмий тадқиқот ишларни жойларда ўрганишни тақозо этмоқда. Айниқса, ёшлар ўртасида ўз жонига қасд қилиш муаммолари ҳар бир ота-она ва педагог-психологлар учун кутилмаган фожиали ҳодисалар бўлиб қолмоқда. Ёшлар ўртасидаги бундай психологик кризис кичик мактаб ёшида, ўсмирлик ва ўспирин ёш даврларидаги ўтиш даври билан боғлаб тушунтиришга ҳам ҳаракат қилади. Ўсмирда психологик инқироз шахсий дунё қарашларнинг ўзгаришларига олиб келади. “Мен” тизимининг бузилишида ўқувчи шахси ўз - ўзини англаши, ўз - ўзига баҳо бериши, чорасизлик, ахлоқий мувозанатсизликлар кузатилади. Бу ўзгаришлар ўзи учун ҳаёт шароити тарзида энди яшаш имконияти йўқлиги, ўзини йўқотиб қўйиш, шаклланиб бораётган девиант хулқ кўринишлари ўсмирнинг ўзига хос механизмлари сифатида юзага келади. Бу ўз навбатида

“Ўзини йўқотиш”, “Ўзига нафрат ҳиссида бўлиш” шахсий ички низоларни ҳал этиш йўлларини излаш бошланади, янги “ Мен” ининг шаклланиши учун замин яратса, яъни боши берк йўлга кириб қолгандек ҳис қилиб ўз жонига қасд қилишга йўл қўяди.

Республикамизда болалар суициди бўйича олиб борилган педагогик тадқиқотлар шуни кўрсатдики, педагоглар, ота-оналар ва бошқа мутахассислар суицидиал хулқ – атвор шакллари ҳақида етарли маълумотга эга эмас. Ўз вақтидаги психологик ёрдам, ўсмирларни ҳаётнинг ҳар қандай вазиятларига астойдил психологик тайёргарлик бундай нохуш ҳолатларнинг олдини олган бўлар эди. Таълим тизимидаги суицид муаммосининг олдини олишнинг ечими кадрлар масаласига боғлиқ, биринчи галда таълим муасссаси психологи, ўқитувчи ва тарбиячини тайёрлаш лозим.Маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиш суицидиал ҳатти – ҳаракатни олдини олиш ва коррекция қилишга ёрдам беради. Бугунги куннинг долзарб муаммолари қаторида ўз жонига қасд қилиш жаҳон мутахассислари томонидан чуқур ўрганилмоқда. Тан олиш керакки, айрим объектив ва субъектив сабалар туфайли, ўз жонига қасд қилиш ҳолатларига оид статистик маълумотлар кенг оммага эълон қилинмайди. Давлатимиз келажаги бугун вояга етаётган йигит–қизларга боғлиқ экан, улар нафақат жисмоний, балки руҳий жиҳатдан ҳам етук бўлишлари керак.

Оила инсон тарбияси ва шаклланишида алоҳида ижтимоий психологик аҳамиятга эга бўлган жамият бўғинидир. Суицидал хавфга оилада онанинг ишлаши ёки ишламаслиги, она ишлайди, ота эса ҳозирда “вақтинча” ишламайди. Аёллар оилавий ҳаётдаги она ва уй бекаси фаолиятини, оилани моддий таъминоти, касбий соҳадаги фаолияти билан мутаносибликда олиб бормоқдалар. Бу эса онанинг фарзандалари билан ўзаро мулоқот қилиши вақтини чегараланишига олиб келади.

Нотўлиқ оилалардаги ота - оналар билан суҳбатларни ташкил қилганда “ота - оналар фарзандлари содир этган суицидал уринишлар сабабларини гўёки, “эшитмайдилар”. Ота-оналар ўзларининг ҳаётидан нолишлар, фарзандалари учун эрта тонгдан то кечга қадар тинмай ишлашлари ёки фарзандалари ҳамма нарсага эга эканликларини, баъзи ҳолларда кўзларида ёш билан таъкидлайдилар.Бу билан ота - оналарнинг ўзларига ҳам психологик ёрдам керак эканлигини тушуниш мумкин. Албатта, низолар энг бахтли оилаларда ҳам ҳатто бўлиб туради. Аммо уларнинг фарқи шундаки, баъзи бир оилаларда катталар ўз норозиликларини «конструктив» тарзда билдириб, бир-бирларини тушунишга ҳаракат қилишса ва ярашишга интилишса, бошқалари бир-бирларини ҳақорат қилган ҳолда,

муносабатларни бузадилар, оиладаги тинчлик, эмоционал яқинлик йўқолади. Баъзан эса ўз жанжалларига фарзандларини ҳам жалб этишади, энг ёмон ҳолатларда ўсмирда руҳий шикастланиш ҳолатларини келиб чиқишига, асаб бузилишларига, эмоционал таранглик, ўзини айблаши ва охирги чора сифатида ўз жонига қасд қилишига олиб келади. Шуларни инобатга олиб, ўқувчиларга тўғри ташхис қўйиш учун педагог, психологлар қуйидаги методлардан фойдаланиши жоиз бўлади:

Оила ҳақида маълумот йиғиш. Мутахассис олдин ўрганилаётган муҳитда олдин суицидал ҳаракатлар бўлған ёки бўлмаганлигини аниқлаш керак, ўрганилаётган инсон ҳақида кўпроқ маълумот йиғиши зарур, суицидиал ҳаракатлар ҳақида қанчалик кўпроқ ўйланишини аниқлаш ва ҳ.

«Тугалланмаган гаплар» методикаси. Бу методика ассоциатив тестларга киради, бунда шахснинг муҳитга муносабати аниқланади.

Г. Айзенк сўровномаси. Ҳар ҳил психологик аҳволнинг ўзида бор ёки

йўқлигини айтиши керак. Бу сўровноманинг хавфнинг, агрессия, фрустрация ва ригидлик даражасини аниқлашга ёрдам беради

Шмишек тест – саволномаси ёрдамида ўсмирларнинг характер акцентуациясини аниқлаш. Характер акцентуациялар – бу ҳар бир инсонга хос бўлган баъзи бир индивидуал хусусиятларнинг «кескинлашган, ўткирлашган» кўринишидир.

А. Басс ва И. Даркнинг агрессия шакллари ва унинг кўрсаткичларини диагностика қилиш методикаси. Шахснинг йўналишини аниқлашга ёрдам беради: ўзига, атрофтагиларга, жисмоний, нисбий агрессиялар, асабийлик, вербал агрессия - агрессив реакциялар индексини ташкил қилади; аламзадалик ва шубҳаланиш эса қаршилик реакциясини ифодалайди

Хавф-хатарга мойиллик тести. Мазкур тест ўсмирнинг хавф - хатарга мойиллигини аниқлашга ёрдам беради.

Ота - оналарнинг ўсмир ёшли фарзандини тушуниш тести. Тавсия этилаётган тест фақат бир саволга: «катталар ўсмирлик ва ўспиринлик ёши психологиясини биладиларми?» деган саволга жавоб олишга имкон беради.

Маънавий-маърифий тадбирлар орқали суицидал харакатларга қарши курашда ишонтириш усули алохида ахамиятга эга. Ишонтириш усулининг асосий шакллари тушунтириш, уқтириш, ғоявий-сиёсий хамда қизиқарли мавзуларда сухбатлар, маърузалар, мунозаралар ташкил этиш,мувафаққиятли кишилар билан учрашувлар уюштириш,бадиий асарлар билан таништириш ва бошқалардан иборат.Маънавий-маърифий тадбирлар “Хаёт завқи”, “Шукроналилик - инсондаги гўзал хулқ”, “Биз улуғ уламоларнинг

давомчиларимиз”, “Мен буюк Ўзбекистон фарзандиман” каби мавзуларда ўтказилиши мақсадга мувофиқдир.

BUXORO VILOYATI HUDUDINING QUYOSH ENERGIYASI RESURSLAR SALOHIYATINI BAHOLASH

O’lmasov Qudrat Norqul o’g’li
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Energetika fakulteti” tyutori

Termodinamik usulda quyosh nuri energiyasini energiyaning boshqa turlariga aylantirishga doir amaliy va ilmiy-tekshirish ishlari O’zbekistonda 1920 - yillarda boshlangan edi. 1929 - yilda tamaki eksrtaktini yig’ilgan quyosh nuri yordamida bug’lantirish amalga oshirilgan. 1930 - yilda quyosh nuriga isitiladigan tajribaviy issiqxona qurilgan. 1934 - yilda esa Toshkentda geliotexnika labaratoriyasi, 1934 – yilda O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Fizika – texnika institute tarkibida galiotexnika labaratoriyasi tashkil etildi. Unda quyosh suv isitish qurilmalari, meva quritgichlar, quyosh pilla ivitgichlari va quritgichlari, oltingugurtni quyosh nurlari yordamida suyultirish qurilmalari ishlab chiqarildi va amaliyotga tadbiq etildi. 1946 – yilda Toshkentga ko’gusining diametri 10 metr bo’lgan paraboloid quyilma yasaldi. Bu qurilma xonalarni isitish va havoni mo’tadillashtirish, bug’ hamda muz olish va boshqa tadqiqotlar o’tkazishga yordam beradi. 1978 – yilda Buxoro shahrida geliosuvistgichlar va geliooshxonlarni ishlab chiqaradigan birinchi gelioapparat zavodi qurildi.

1963 – yilda yuqorida aytib o’tilgan geliotexnika labaratoriyasi asosida Geofizika bo’limi tashkil etildi. Bu bo’limda quyosh nuri energiyasini termodinamik usul bilan energiyaning boshqa turiga aylantirish ishlari natijasida mustaqil quyosh energiyasi qurilmalarida foydalaniladigan 0,5 – 2,0 kVt quvvatli Stirling sikliga asoslangan issiqlik dvigatellarini, mexanik energiya bilan birga sovuqlik hosil qiluvchi mujassamlashgan Stirling mashina va gidravlik porshenli suv ko’targichlarni barpo qilish imkoniyati tug’ildi.

Past haroratli quyosh qurilmalaridagi issiqlik jarayonlarini o’rganish tufayli xonadonlarni issiq suv bilan ta’minlash tizimlari uchun quyosh suv isitgichlari yaratilgan. Turar-joy kommunal xo’jaliklarni issiqlik bilan ta’minlash uchunishlatiladigan quyosh va yoqilg’i energiyalari yordamida ishlovchi issiqlik ta’minoti tizimlarining optimal ish tartibi aniqlandi, quyosh energiyasidan foydalanib issiq suv va issiqlik bilan taminlanadigan bir nechta tajrubaviy ko’p qavatli uylar qurildi, qishloq xo’jalik mahsulotlarini quritish uchun havo isitgichlari, quyosh energiyasini yigib, o’zida saqlab turadigan turli issiqlik akkumliyatorlari yordamida isitiladigan issiqxonalar, sho’r suvni chuchuklashtiruvchi quyosh qurilmalari, temir-beton qurilish materiallarini

bug'lovchi qurilmalar, shaxsiy xo'jaliklarda foydalanishga mo'ljallangan quyosh meva quritgichlari yaratildi.

To'plangan quyosh nuri bilan bemorlarni davolaydigan tibbiyot qurilmalari, qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lariga ekishdan oldin zaharli kimyoviy moddalarni qo'llamagan holda to'plangan impulisli nur bilan ishlov beruvchi va natijada hosildorlikni oshiruvchi qurilmalar yaratiladi va amalda foydalanish uchun topshiriladi. Quyosh energiyasi va biogazni ishlatuvchi chorvachilik energetika majmuasining alohida loyihasi taklif qilindi.

O'zbekistonda yuqori haroratli materialshunoslikka oid tadqiqotlar 1976 – yildan keng ko'lamda o'tkazila boshlandi. Bu tadqiqotlarda to'plangan quyosh nuri bilan materiallarga ishlov berish usuli asos qilib olindi.

Keyingi yillarda tadbiqiy fanlar, birinchi navbatda materialshunoslik fani tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida quyosh energiyasini to'plovchi katta qurilmalar – kata konsentratorlarga e'tibor yanada kuchaydi. Bunday qurilmalar yordamida yangi materiallarni yaratish, materiallar xossalarini yaratish uchun ularni nur yordamida qayta ishlash, materiallarning issiqlik xossalarini o'rganish, monokristallar o'stirish, o'ta sof materiallar olish, yangi yaratilgan texnik qismlarni kompleks sinovdan o'tkazish kabi muhim ishlarni amalga oshirish mumkin. Keyingi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar esa ularni astrofizikaga oid masalalarni yechishda ham ishlatish mumkinligini ko'rsatgan.

1978 – yilda issiqlik quvvati 1000 kvt bo'lgan Katta quyosh sandoni (pechi) ishga tushirildi. Bunday qurilma shu vaqtga qadar dunyoda faqat Odeyo (Fransiya) shahridagina bor edi. Bu qurilma haqli ravishda O'zbekistonning faxri hisoblanadi. Bu qurilmaga dunyoning ko'plab mamlakatlarda qiziqish katta [27].

1993 – yilda "Fizika – quyosh" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tarkibida Materialshunoslik ilmiy-tekshirish instituti tshkil etildi.

2000-2002 – yillarda Buxoro va Samarqanddagi yaylovlarda quduqlardan chorva hayvonlarini sug'orish uchun suv tortib chiqaradigan, qo'y junini qirqish elektr qaychilari va cho'pon qunalg'alarini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi fotoelektrik qurilmalar ishlab chiqildi va foydalanishga topshirildi.

2003-2014 – yillarda mamlakatimizning yuzlab qishloq virachlik punkitlarida, fermer xo'jaliklari va boshqa muassasalarda quyosh fotoelektr stansiyalar va quyosh suv isitish kollektorlari ishga tushirildi.

Demak, O'zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha yetarli tadqiqotlar o'tkazilib, keragicha tajriba to'plangan. Binobarin, jannatmakon yurtimizda quyosh energiyasidan keng foydalanish uchun yetarli sharoit bor va imloniyat bo'lgan taqdirda undan foydalanmaslik oqilona ish bo'lmas edi.

O’zbekiston energiya ta’minoti bo’yicha jahonda nufuzli o’rinlardan birini egallasada, o’z tabiiy, geografik xususiyatlariga ko’ra muqobil energiya manbalaridan foydalanishga muhtoj. Chunki hozircha mingga yaqin aholisi kam, borish qiyin bo’lgan va uzoqda joylashgan (cho’l, sahro va tog’ zonalari) aholi punktlari, uch mingdan ortiq cho’pon qunalg’alari elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan yetarlicha ta’minlanmagan. Bu joylarda bir milliondan ortiq vatandoshlarimiz yashaydilar. Quyosh nuri energiyasidan foydalanib ishlovchi qurilmalar yordamida ularni elektr energiyasi, issiqlik va ichimlik suvi bilan ta’minlash mumkin.

Respublikamizning janubiy viloyati Buxoro hududlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari yuqori ekanligi olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan. Shu jumladan mintaqada markazlashtirilgan elektr ta’minotidan uzoqda joylashgan aholi punktlari va fermer xo’jaliklarini uzluksiz va ishonchli energiya bilan ta’minlashda quyosh energiyasidan foydalanishni baholaymiz.

1-rasmda Buxoro viloyati iqlim haroratining yillik o’rtacha ko’rsatgichlari keltirilgan. Keltirilgan ma’lumotlarga asosan Buxoro viloyatida 300 kun quyoshli kun bo’lib, harorat yoz oylarida o’rtacha 35 ^{0}C bo’lishi aniqlangan.



1-rasm. Buxoro viloyati iqlim haroratining yillik o’rtacha ko’rsatgichlari (2020 yil).



2-rasm. Buxoro viloyatida quyosh batareyalaridan olinadigan kunlik solishtirma energiya ko’rsatgichlari (2020 yil).



3 –rasm. O’zbekistonda gorizontal yuzaga tushuvchi yig’indi quyosh radiatsiyasining miqdorlari keltirilgan xarita.

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqot natijalariga ko’ra Buxoro viloyatining quyosh energiyasining yalpi (nazariy) solishtirma energiyasi yiliga 1750-1800 kWsoat/m^2 ga tengli hamda mintaqada o’rtacha yiliga 4,72 kWsoat/m^2/kun energiya olish imkoni mavjud ekanligi aniqlandi. Foydali ish koeffitsienti 12 % bo’lgan quyosh panellaridan Buxoro viloyati hududlarida foydalanganimizda texnik salohiyat yiliga 3,5 TWh/yil ga tengligi baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.Lex.uz
2. O.Z.Toirov, K.T.Alimxo’jayev, Sh.K. Alimxo’jayev. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari. O’zbekiston sharoitida ishlab chiqarish va ishlatish istiqbollari. (Monografiya).–T.: «Fan va texnologiya», 2019, 212 bet.
3. M.D.Xodjayev. Iqlim o‘zgarishlari ta‘sirini yumshatish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejamkor texnalogiyalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari to‘g‘risida loyixa tashabbuskorlariga ma‘lumotlar yetkazish. Toshkent. 2018. -96 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLAR DARSLIKLARIDA ASTRONOMIYA ELEMENTLARINI O‘QITISH ASOSLARI

S.E.Amirov
Nizomiy nomidagi TDPU Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Yurtimizda 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab 1-6-sinflarda tabiiy fanlarni o‘zida jamlagan Tabiiy fanlar (SCIENCE) joriy etildi. Ushbu fan ayni vaqtda o‘qitilib kelinayotgan 1-2-sinfda «Atrofimizdagi olam», 3-4 sinflarda «Tabiatshunoslik», yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar, ya’ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7 sinfdan boshlab) fanlarini o‘zida birlashtirgan.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darsligini joriy qilish juda muhim masala hisoblanadi. Tabiy fanlar qatoriga kiruvchi astronomiya fani bo‘yicha ham kiritilgan mavzular bo‘yicha ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda muhim va foydalidir.

Birinchi sinf o‘quvchilari uchun darslikda osmonda nimalarni kuzatamiz, quyosh, yer va oyni tasvirlash, kun va tunning almashishi haqida mavzular ajratilgan bo‘lib, bu mavzular orqali o‘quvchi yoshlar ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar o‘rganib olishlari mumkin bo‘lishadi.

Bu yerdagi mavzularda, masalan “Osmonda nimalarni kuzatishimiz mumkin?” mavzusiga qaraydigan bo‘lsak, mavzu nomi ham juda yaxshi tanlangan va yosh o‘quvchilarni osmonga qiziqish bilan qarashga undaydi. Quyosh, Oy va yerning tasvirlash mavzusida o‘quvchilar uchun Quyosh, Oy va Yerni bo‘yash topshirig‘i berilganligi o‘quvchilar tasavvurini oshiradi. Shu yerda yana Quyosh, Yer va Oyning shar shaklida ekanligi, oyning bazida yarim oy bo‘lib ko‘ringani bilan aslida doim to‘la shar shaklida bo‘lishi haqida qo‘shimchalar qo‘shilishi kerak deb o‘ylaymiz. Biz har 24 soatda guvohi bo‘lgan kun va tun almashishiga bag‘ishlangan “Kun vat tun” mavzusi ham o‘quvchilar uchun ayni muddaodir. Kun va tunni nimaga asosan farqlashimiz va buni rasimlar bilan buyitilganligi chiroyli ko‘rinish olgan.

Ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun berilgan darslikdagi astronomiyaga tegishli mavzular Quyush sestimasi bo‘limida joylashgan bo‘lib Yulduzlar va sayyoralar, Yer-sayyora, kun va tunning almashishi kabi mavzularni o‘z ichiga olgan. Yulduzlar va sayyoralar mavzusida o‘quvchilar sayyoralarning soni, ularning nomi, ularning yulduzlardan farqi va yulduzlar va sayyoralar nega kunduzi ko‘rinmasligi haqida turli ko‘rgazmali rasmlar bilan qiziqarli malumotlarni olishlari mumkin. Mana shu mavzu uchun sayyoralarning quyosh atrofida aylanma harakat qilishini, yulduzlar sayyoralarga qaraganda juda olisda joylashgan

ekanligini ham ma’lumot sifatida kiritib o‘tish kerak deb o‘ylaymiz. Asosiy mavzulardan bo‘lgan “Yer-sayyora” mazusi esa juda ham ajoyib o‘xshatish va rasmlar bilan berilgan. Yerni ham sayyora ekanligi, uni o‘z o‘qi atrofida aylanishi va koptokka o‘xshatish keltirilganligi o‘quvchilarda astronomiya faniga qiziqish uyg’otadi. Keyingi mavzu “kun va tunning almashishi” mavzusida esa eng ajoyib g‘oya bu kun vat un almashishini tushuntirib berish maqsadida kiritilgan amaliy tajriba bo‘gan. Negaki yosh va qiziquvchan ikkinchi sinf o‘quvchisiga mana shu tajriba bajarib ko‘rsatilsa tasavvuri kengayadi va hech qachon esidan chiqarmaydigan voqea bo‘ladi albatta.

Umumiy holatda birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun kiritilgan tabiiy fanlar darsligida astronomiyaning o‘quvchilar yoshiga mosravishda eng asosiy elementlari kiritilgan. Shuningdek, tashkiliy qismida ham o‘quvchilar etiborini tortadigan qiziqarli rasmlar va esda qolarli tajribalar kiritilganligi mamlakatimizda kuchli astronomlarni yetishib chiqishida muhim rol o‘ynashi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son Qarori. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 230-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018-y., 09/18/858/2095-son.
2. Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 88 b.
3. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLAR DARSLIKLARIDA FIZIKA ELEMENTLARINI O‘QITISH

S.E.Amirov

Nizomiy nomidagi TDPU Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Tabiiy fanlar fan-texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi hamda ko‘plab sohalarning asosi hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 1-6 sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o‘rniga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda tabiy fanlar darsligini joriy qilish juda muhim masala hisoblanadi. Tabiy fanlar qatoriga kiruvchi fizika fani bo‘yicha ham kiritilgan

mavzular bo‘yicha ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda muhum va foydalidir.

Birinchi sinf o‘quvchilari uchun harakat, issiqlik, yoruglik, havo haroratini o‘lchash va tuvush mavzulari bo‘yicha, ikkinchi sinflar uchun esa issiqlik, yorug‘lik, tovush, yog‘in turlari, harakat, magnit va energiya haqida tushuchalar berib bo‘tilgan.

Birinchi sinflar uchun kiritilgan mavzularga to‘xtaladigan bo‘lsak, darslikda haroratni o‘lchash mavzusida haroratni nima, uni o‘lchash uchun qanday asboblar kerak bo‘lishi, turli joylarda havo harosati turli xil bo‘lishini ko‘rsatuvchi amaliy darslar qo‘yilganligi va buni o‘quvchilar tomonidan bajarilishi ularda katta qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek issiqlik mavzularida, issiqlik nima, uning manbalariga misollar, ularni issiqlik uzatish jarayoni yuzasidan fikirlar, issiqlik uzatish bo‘yicha tajribalar keltirilgan. Tovush mavzusi yuzasidan tovushning tarqalishi, turlari, tovoshni keltirib chiqaruvchi sabablari kiritilgan va ular bizga qandat tasir qilishi bo‘yicha o‘quvchilar uchun qiziq bo‘lgan amaliy va nazaiy malumotlar aytib o‘tilgan. Yorug‘lik mavzulari bo‘yicha yoruglik manbalari, yorug‘likning tarqalishi, biz uni qanday sezishimi va bizga qanchalik kerakligi haqida tushunchalar berilgan. Yorug‘lik mavzusi bo‘yicha yorug‘likning turlarga ajralishi haqida ham ma’lumotlar kiritishni taklif qilardim. Chunki barcha yoshlar kamalakni ko‘rgan va kamalak turli nurlarni nomoyon qilganligi sababli o‘quvchilarda katta qiziqish uygotadi. Darislikning so‘ngida keltirilgan kiritilgan harakat bo‘limida harakat turlari, uni keltirib chiqaeivchi sabablari va eng asosiysi bazi harakatlarni o‘quvchilarni o‘zlari yuzaga keltirishlari uchun topshiriqlar berilgan.

Ikkinchi sinf o‘quvchilari uchun kiritilgan mavzularga to‘xtalsak, energiya mavzusida o‘quvchilar energiya nima, energiya manbalari, uning ijtimoiy hayotimizda foydalanishi haqida qiziqarli ravishda malumotlar olish imkoniga ega. Yorug‘lik va issiqlik mavzularida yorug‘likning yerga quyoshdan yetib kelishi, soya hosil bo‘lishi, kamalakni hosil bo‘lishi va undagi ranglar turlarini keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari tovushning o‘zi nima, qanday hosil qilish mumkin, tabiatdagi tovush turlari bilan o‘quvchilar tanishib chiqishadi. Shu yerda aks-sado hosil bo‘lishi yuzasidan qo‘shimcha ma’lumotlar kiritishni taklif qilgan bo‘lardik. Ikkinchi sinflar uchun harakat va tezlik tushunchalari yoshiga mos ravishda birinchi sinfdagidan farq qiladi. Asosiy farqlardan biri shuki bu yerda o‘quvchilar harakatni yuzaga keltiruvchi kuch borligi va harakatning tezroq va sekinroqligi bilan ham tanishib o‘tishadi. Shu yerda aytish kerakki magnit haqida kiritilgan ma’lumotlar qo‘shilganligi juda ham zo‘r g‘oya bo‘lgan. Chunki, ikkinchi sinf yoshidagi bolalar uchun temirlar bilan va o‘zaro tasirlashuvchi magnitlar sehirli bir

qiziqish hosil qiladi. Bu bo‘limda o‘quvchilar magnit nima, magnitlarning qutiblari, qay hollarda tortishishi va itarishishi bilan va turli tajribalardagi magnit xossalari bilan tanishadilar.

Darsliklarning tashkil qilishdagi har bir mavzular bo‘yicha o‘quvchilarga tushuncha berishda turli xil rasmlar va ko‘rgazmalar bilan boyitilganligi, shuningdek har bir mavzuda o‘quvchilarning o‘zlari ishtirok etadigan amaliy tajribalar kiritilganligi juda zo‘r g‘oya bo‘lgan deb hisoblaymiz. Chunki yosh o‘quvchilarda bu tajribalar fanga nisbatan katta qiziqish uyg‘ata oladi va kuchli fizik mutaxassislarni yetishib chiqishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 187-son Qarori. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 230-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018-y., 09/18/858/2095-son.
5. Tabiiy fanlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 88 b.
6. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

BOLA PSIXIK TARAQQIYOTIDA OILANING ROLI

D.Fatidinova

Andijon davlat pedagogika institute o’qituvchisi

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishda ma’naviy barkamol, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliy miqyosidagi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘z istiqboli, kelajagini o‘ylagan har qaysi inson, xalq, millat, mamlakat o‘z farzandlarining ma’naviy – ma’rifiy tarbiyasi haqida o‘ylashi va qayg‘urishi kerak. Zero, buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur».

Bolalarni tarbiyalashda ota-ona, oila, maktab, jamiyat a’zolarining ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onaning, oilaning o‘rni haqida so‘z yuritamiz. Bolaning xarakteri, tabiati, tarbiyasi, dunyoqarashi, atrofdagilarga munosabati oila sharoitida qaror topadi. Shuningdek, bola ma’naviyatini shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimi bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bola tarbiyasini qachon boshlash lozim, uning tarbiyasida nimalarga ko‘proq e’tibor berilish kerak, bu jarayonda oila va o‘quv

dargohining roli qanday? kabi savollar ko‘p ming yillik tarix davomida insoniyatni o‘ylantirib kelmoqda.

Ota-ona bolaning birinchi ustozlaridir. Bola ota-onasining hatti-harakatlarini ko‘rib, ularni o‘rganib ulg‘ayadi. Bir olimning yoniga uch oylik chaqaloq bilan kelib, undan “bola tarbiyasini qachon boshlash kerak?”, - deb so‘raganlarida, olim: “o‘n ikki oy kechikdingiz”, deb javob bergan ekan. Ya’ni, tarbiyani bola tug‘ilganidan keyin emas, balki homiladorlik davridanoq boshlash kerak. Bunda onaning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz shoiri va dramaturgi O. Goldsmit aytganidek, ayollar insoniyatning ilk murabbiylaridir. Zero, tug‘ilmagan bolaning olamga nisbatan ishonch va ishonchsizlik hissi bolaga onadan kelib tushuvchi ma’lumotlar asosida shakllanadi. Onaning his-tuyg‘ulari bola psixikasi va xarakterining shakllanishida yo ijobiy, yo salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tug‘ilajak bola jismoniy rivojiga onaning hayot tarzi, ovqatlanish madaniyati, zararli odatlari bor yoki yo‘qligi ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, agar ota yoki onada salbiy odatlar bo‘lsa, bu ularning farzandlarida qaytalanadi. Bu odatlar bolaning jismoniy holatigagina emas, balki uning ruhiy-ma’naviy holatiga ham ta’sir qiladi, albatta.

Ota-onaning bolaga go‘daklik chog‘idan sevgi, mehr berishi, to‘g‘ri parvarish va tarbiya qilishi unda ishonch tuyg‘usini shakllantiradi. Bu davrda ota-ona va farzand o‘rtasida iliq, yoqimli taassurot uyg‘onadi. Bola boshqalar bilan ham shunday munosabatga kirishadi. Bolaning o‘ziga ishonishi, o‘zini hurmat qilishi muhim bo‘lib, ota-ona doimo uni tinglashi, uni rag‘batlantirishi, unda sevgi, mehr, hurmat, sabr-qanoat va ishonch tuyg‘ularini uyg‘otishi lozim. Olimlar jamiyatda tez tushkunlikka tushadigan insonlarni o‘rganib tahlil qilganlarida, ularning ko‘pchiligi bolalik davrida yaqinlari tomonidan kam e’tibor berilgan yoki umuman e’tiborsiz o‘sganliklari aniqlangan.

Bolani qattiq nazorat qilish, unga baqirish, yonida janjallashish, vaqtida ovqatlantirmaslik, atayin yig‘latish – endigina ishonch tuyg‘usi uyg‘onayogan bolaga katta yomonlik qilish bilan teng. Natijada bola qo‘rqoq, ichimdagini top, deydigan bo‘lib qoladi. Kattalar buni sezmasliklari mumkin. Biroq, mutaxassislar fikricha, ota-onaning tez-tez janjallashishlari bolaning kasalliklarga oson chalinishi, yolg‘on gapirishi va tartibsiz bo‘lishining bosh sababidir. Farzand maktabga ilk qadamini qo‘yganidan boshlab, qiyinchiliklarni yengishga ishonishi lozim. Savollariga u tushunadigan tarzda javob berish kerak. Unga dalda bo‘lish, qoqilganida o‘rnidan turib, oldinga intilishni o‘rgatish lozim. Shuningdek, ularga imkoniyat darajasini inobatga olgan holda topshiriqlar berish kerak. Bu haqda amaliy psixologiyada quyidagi fikr keltiriladi: “Odamning bironta faoliyatining muvaffaqiyat bilan bajarilishi, avvalo odamda bo‘lgan bilim saviyasi va malakasiga bog‘liqdir”. Insondagi malaka esa yillar davomida shakllanib boradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mustaqil O‘zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu maqsad yo‘lida katta ishlar olib borilayotgani ham sir emas. Yoshlar bilim olishga undalmoqda va ularga zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bolalarga yuragidagi tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalashlari uchun ko‘maklashish darkor. Tuyg‘ularini ifodalay olmagan bola o‘zini chorasiz his qiladi. Bolaning aytgan gaplari, so‘zlayotgan voqealari ota-ona uchun shunchaki oddiy gapdek tuyulsada, bola uchun e’tiborli va muhim bo‘lib ko‘rinadi. Farzandni vaqtida va e’tibor bilan tinglamaslik, vaqt o‘tishi bilan bola va ota-ona orasida jarlikni paydo qiladi. Hatto, begonalardek uzoqlashuvga sabab bo‘lib, bunday vaziyatda bolalarda jinoyat ko‘chasiga kirish yoki o‘z joniga qasd qilish kabi holatlar kuzatilishini ta’kidlash mihimdir. Olimlar o‘z joniga qasd qilishni ko‘pincha psixologik inqiroz bilan bog‘laydilar. Bu avvalo shaxsning ichki shaxsiy aloqalarini uzilishi, o‘zi taalluqli bo‘lgan ijtimoiy guruhdan begonalashuvi oqibatida paydo bo‘ladi. Har bir inson necha yoshda bo‘lishidan qat’i nazar “meni sevadilar” degan tuyg‘u bilan yashashni istaydi. Bolani tushunishda va qiynayotgan muammolarini hal qilishda uning gapirishiga qulay vaziyat yaratish, eshitish muhimdir. Bola so‘zini tamomlamasdan biron fikrni bildirish yoki qarshi fikr aytish noo‘rin. Bola o‘zini bezovta qilayotgan narsani tushuntirishda, tuyg‘ularini ifodalashda ba’zan qiynaladi. Shuning uchun suhbat chog‘ida unga dalda berishlarini xohlaydi. Bunday vaqtlarda bolaga zarda qilmasdan, muloyimlik bilan so‘zlashish, gap orasida “shundaymi?”, “Ha, barakalla”, “shunday degin”, “qiziq, keyin nima bo‘ldi” singari dalda beruvchi so‘zlardan foydalanish zarur. Bu bilan bola o‘zining ishonchli suyanchi, ko‘makchisi, mehriboni borligini his qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayot kechirishning asosiy mezoniga aylantirishga bog‘liq tushuncha va tasavvurlar oiladan boshlanadi. Bu g‘oyalarning xalqimiz qon-qoniga singib ketganligi eng avvalo oilalarda saqlanib kelayotgan ijobiy an’analarda, ota-onadan farzandlarga singdiriladigan o‘gitlarda, qarindosh-urug‘chilik aloqalaridagi mehmonnavozlik va ushbu jarayonda orastalik va ozodalik tamoyillariga rioya etilishlarida, mahalla-ko‘yda rioya etiladigan tartib-qoidalar, xususan, ko‘chani, har bir xonadonni ozoda va sarishta saqlash odatlariga tayangan qo‘ni-qo‘shnichilik muomalalarida o‘z aksini topadi.

BENCHMARKING BERADIGAN IMKONIYATLAR

D.T.Sobirov
Nizomiy nomidagi TDPU, tyutori

Annotatsiya. Ushbu maqola benchmarkingdan ta’lim tashkilotida foydalanish natijasida ega bo’linadigan imkoniyatlar va erishiladigan natijalar haqida fikr-mulohazalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘z va iboralar: benchmarking, ta’lim tizimi, benchmarking ob’yekti, qiyoslash sub’yekti.

Bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanib kelayotgan ta’lim tizimida ham, umuman strategik menenjmentda benchmarking zamonaviy strategik menejment vositalaridan biri sifatida tan olinadi. Benchmarking metodologiya sifatida hamkor tashkilotlar (qiyoslash sub’yektlari) faoliyatini ulardagi ilg‘or tajribalarni aniqlash, o‘rganish va moslashtirish orqali takomillashtirishning tuzilishi, tashkil etilishi, usullari va vositalarini o‘rganish ekan, bunday holda, tadqiqot yo‘naltirilgan har qanday faoliyat sohasi benchmarking ob’yekti deb ataladi. Benchmarking ob’yekti strategiyalar, mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar, jarayon funksiyalari va tashkilot faoliyatining boshqa tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Benchmarking sizga o‘z amaliyotingizni tubdan, sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi. Boshqalar tomonidan sinovdan o‘tgan ijobiy usulga asoslangan, chunki u davom etayotgan jarayonlar, ma’lumotlar, usullar va boshqa ma’lumotlarni chuqur tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot uchun yaxshi ilmiy asosga ega bo‘lgan holda, taqqoslash hattoki, universitetlar kabi konservativ tashkilotlarda ham o‘zgarishlarga qarshilikni yengishga yordam beradi.

Benchmarking qator va keng imkoniyatlarni ochib beradi — barchasi ambitsiyalarga, maqsadlarga va kerakli natijalarga bog‘liq. Agar tashkilot o‘zgarish arafasida bo‘lsa, u holda benchmarking eng samarali va keng qo‘llaniladigan vositalardan biridir. Benchmarking jarayonida hech kim nima va qanday qilish kerakligi haqida retseptlar bermaydi. Benchmarking — bu bilim va kashfiyot jarayoni, kollektiv ijodkorlik jarayoni demakdir.

TA’LIM TIZIMIDA BENCHMARKINGNING QO‘LLANILISHIGA SABABLAR

D.T. Sobirov
Nizomiy nomidagi TDPU, tyutori

Zamonaviy jamiyatda zamonaviy Oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi, ta’lim xizmatlari sifatini yanada orttirish zamonaviy mamlakat ta’lim siyosatining asosiy imprativlaridan biri, ayni vaqtda respublika iqtisodiyotini muvaffaqiyatli tarzda isloh etishning kaliti sifatida qarash ham o‘rinli bo‘ladi. Ta’lim tobora ommaviy, iste’molchiga yo‘naltirilgan bo‘lib borayotgan hozirgi kunda boshqaruv jarayonlari samaradorlik va sifatni baholash, resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarni kamaytirish uchun ishonchli ma’lumotlarga asoslanishi lozim. Ushbu muammolarni hal qilish yo‘nalishlaridan biri zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish bo‘lib, ular orasida ***benchmarking*** muhim o‘rinni egallaydi.

Benchmarking - bu o‘z tashkiloti faoliyatini yaxshilash maqsadida o‘zga bir tashkilot yoki muassasaning ilg‘or tajribasini aniqlash, uni obdon o‘rganish natijasida o‘z tashkiloti faoliyatga munosib ravishda moslashtirish jarayoni demakdir.

Agarda zamonaviy Oliy ta’lim tizimiga nazar tashlansa, benchmarking elementlarining shakllanishi, kelib chiqishini osongina topish mumkin. Masalan, Garvard universiteti va Amerikaning ilk mustamlaka kollejlari ingliz kolleji modelining moslashuvi edi, lekin o‘quv dasturlari, tashkiliy tuzilma, moliyalashtirish va boshqa elementlar o‘sha paytdagi Amerikaning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgani uchun nusxa emas, balki moslashuvni aks ettirdi. Keyinchalik esa, AQSHning O‘rta G‘arbiy qismida yangi tashkil qilingan universitetlar o‘zlarini Garvard universiteti bilan taqqoslab, ushbu universitet amaliyotini moslashtirgan holda o‘z amaliyotlarini yaratdilar va Rossiyada ham shunga o‘xshash holatlar yo‘q emas edi. Moskva Lomonosov, Sankt-Peterburg, Qozon universitetlaridan tortib, keyinchalik yaratilgan universitetlargacha bunday holatni kuzatish mumkin.

Talabalar, ota-onalar, ish beruvchilar, davlat va shu singarilarning ehtiyojlari ortgani sayin Oliy ta’lim tizimiga tobora yuqori talablar qo‘yilmoqda. Bunday vaziyatda universitetlar yangi yondashuvlarni hisobga olgan holda, eng yaxshilariga e’tibor qaratib, o‘z faoliyatini takomillashtirish usullarini malakali tanlashi va qo‘llashi joiz.

Axborot jamiyati davrida bilimlar tez o‘zgarib bormoqda va tarqalmoqda, bu universitetlarga haqiqiy raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lmagan holda statusni saqlab qolishga imkon bermaydi. Ko‘plab ilmiy va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi

provayderlar yangi universitetlar, korporativ universitetlar, ilg‘or o‘qitish texnologiyalaridan foydalanadigan internet-provayderlar, ta’lim bozorida gavjum universitetlar oldida paydo bo‘ladi. Biz doimo eng yaxshilardan o‘rganishimiz va ishimizni yaxshilashimiz kerak. Ta‘limni boshqarish bo‘yicha amerikalik mutaxassis Syuzan Taker bu vaziyatni juda to‘g‘ri tavsiflaydi: «Agar siz doimo qilgan ishingiz bilan shug‘ullansangiz, siz doimo o‘zingizda bo‘lgan narsaga ega bo‘lasiz». Bundan xulosa qilish mumkinki, yangilikka intilish yoki sinovdan o‘tgan innovatsiyani o‘z ishingizda joriy etishingiz va bundan qo‘rqmasligingiz kerak. Negaki, doimiy ravishda bir xillikda bo‘lish bu o‘sish uchun imkoniyat eshiklarini ochmaydi. Benchmarking bunday jarayonlarda o‘z foydasini berishi mumkin. Qachonki, oqilona foydalanilsa va amalda joriy etilsagina.

Tavsiya etiladigan internet resurslari

1. **https://ru.wikipedia.org**
2. **https://seguidores.online/uz/**

BOSHLANG’ICH TA'LIM O’QUVCHILARDA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Turġunova Dilnura Mamanazar qizi
Andijon davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti
Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi òqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlanġich ta'lim òquvchilarda chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** sport, salomatlik, boshlang`ich ta`lim, jismoniy sifat, texnologiya, tarbiya, metod, mashq, pedagogika.

Inson o‘zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy tarbiya va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o‘ziga yoqqan ma’lum bir jismoniy mashg‘ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Yosh avlodning jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lgan jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog‘lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan quruvchilarini tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir. Jismoniy tarbiya oldida turgan vazifalarni hal etishda xalq milliy harakatli o‘yinlarini to‘plash va ularni hayotga tadbiq etish, ulardan oqilona foydalanish zarurligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli o‘yinga asoslangan dars, mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir. K.Balsevich tadqiqoti bo‘yicha, bolalarning

jismoniy faolligini quyidagicha ta’riflab beradi: 1-4 sinf bolalar jismoniy sifati ko‘rsatkichining barchasi o‘sishning yuqori tempda borayotganligini namoyon etadi. Faqat egiluvchanlik ko‘rsatkichining tempi bu davrda pasayib boradi. Bu yoshdagi bolalarda biodinamik harakatning va eng avvalo, koordinatsion qismlarning shiddatli rivojlanishi ro‘y beradi. 1-4 sinf orasida jismoniy sifatlarning va koordinatsion qobiliyatning, inson harakat faolligining namoyon bo‘lishi uchun amaliy jihatdan juda yaxshi zamin tayyorlanadi.

F.N.Nasriddinov, A.Sh.Qosimovlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha jismoniy tayyorgarlik natijalari yoshdan yoshga o‘tish bilan hamma ko‘rsatkichlar ma’lum miqdorda ortib borishini ko‘rsatadi. A.N.Liviskiy ilmiy tadqiqot ishlarining ko‘rsatishicha, qo‘l panjalari mushaklarining kuchi 7 yoshda 13-14 kg.ga yetadi. Shu yoshdan boshlab, harakatli o‘yinlar vositasida, bu sifatlarni yanada rivojlantirish ehtimoli kuchli. Yosh o‘zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funksional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarning sog‘lomlashtirish-tarbiyaviy ishlarini harakatli o‘yinlar vositasida yanada jonlantirish uchun ularning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko‘rsatkichi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini aniqlash lozim. Bu samarali vositalarni tanlashga, keyin pedagogik sinov-tajriba o‘tkazishga imkoniyat yaratadi. Maktab o‘quvchisining shaxs, komil inson bo‘lib shakllanishida, rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Xalq jismoniy tarbiyasi esa insoniyat rivojining ilk bosqichlaridayoq bola va o‘smirlarning shakllanishida asosiy vositalaridan biri bo‘lgan. Shu bois bugungi o‘zligimizga qaytgan davrimizda xalqning milliy qadriyatlariga asoslangan jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘yinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e’tibor berish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasini qiziqarli va foydali o‘tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba’zi milliy o‘yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e’tibor berish kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya darslarida qadriyatlarga muhabbat uyg‘otish, xalq an’analarini avaylab-asrashga o‘rgatish ko‘p jihatdan xalq milliy harakatli o‘yinlaridan unumli foydalana bilishga bog‘liq bo’ladi. Sababi, milliy harakatli o‘yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, uni jismoniy tarbiyaga, shu orqali qadriyatlarga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi. 1-4 sinf bolalar yoshiga mos o‘yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bolalarda tezkorlikni va egiluvchanlikni tarbiyalovchi o‘yinlar;

2. Bolalarda kuchni oshirib beruvchi o‘yinlar.

3. Bolalarda chidamlilikni va chaqqonliknirivojlantiruvchi o‘yinlar.

Ayrim o‘yin turlari bolalarning barcha bo‘g‘inlariga mos kelishi mumkin, ya’ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o‘yinlar ko‘pchilikni tashkil etadi, ularda turli jismoniy sifatlar ketma-ket rivojlanishi mumkin. Milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish jarayonida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kattalar faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqishining ortishi.

2. Bolalar xalq harakatli o‘yinlari atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin his-tuyg‘uli jihatlarini aks ettirishini.

3. Xarakatli o‘yinlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qila olishi.

Yosh avlodning jismoniy jihatdan to‘kis, sog‘lom, Vatan himoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o‘sib-ulg‘ayishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, Buning uchun o‘quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug‘ullanishlari, turli milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga e’tiborni yanada kuchaytirish, ularni o‘z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g‘oyat muhim vazifalar bilan bog‘liq tarzda maktabda o‘qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlangan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o‘zbek xalq milliy harakatli o‘yinlari juda qo‘l keladi, chunki bu o‘yinlar bolalarni ruhiy, jismoniy, ma’naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o‘z ichiga ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo‘lgan yoshlarni sog‘lom, yetuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining zamini mustahkam bo‘lishiga xizmat etadi.

Xarakatli o‘yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o‘zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmuni, qoidalarida o‘zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to‘xtalgan edik. Ba’zi o‘yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana shunday o‘yinlardan foydalanishda bolalarga jismoniy ta’siridan tashqari tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ularni ijodiy qo‘llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, Uloq» o‘yini deganda odatda ot bilan o‘ynaladigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiy ko‘pkari o‘yini tushuniladi.

Ma’lumki, bolalar jismoniy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini usuliy, pedagogik nuqtai nazardan to‘g‘ri aniqlash uchun bolalar fiziologiyasi

hamda ruhiyatini yaxshi bilish shart, shularga suyangan holda har bir mashg‘ulot oldidan ma’lum vazifalar qo‘yilishi lozim. Vazifalar soni ikki-uchtadan iborat bo‘lib, ularni bir necha guruhlarga bo‘lib o‘tish, asosiy harakatlar va mashqlar, milliy harakatli o‘yinlar tanlanadi. Tanlangan mashqlar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, mashqlar o‘quvchilarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jinsiga mos bo‘lishi ham kerak. Bundan tashqari bu mashqlar bolaga oddiy, tushunarli, tanish va ular bajara oladigan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘zaro munosabatlar. //Boshlang‘ich ta’lim.- Toshkent,2000y
2. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2010.-140 bet
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “O‘qituvchi”, 2004. -102 b.
5. M.E.Jumaev, M.Y.Yuldasheva, B.U.Mingbaeva, G.A.Mamatova “Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innavatsiyalar” metodik uslubiy qo‘llanma – T.: 2017y.

YOSH QIZLARDA JISMONIY SIFATLAR ORQALI SOG`LOMLASHTIRISH

To`raqulova Fotima Sultonboy qizi
ADU Jismoniy madaniyat fakulteti FJMS kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh qizlarda jismoniy sifatlar orqali sog`lomlashtirish haqida so`z yuritilgan. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko‘rsatmoqda. Sport inson umrini uzaytiradi, sog‘-salomat hayot kechirishiga zamin hozirlaydi. U insonning aqliy, axloqiy, mehnat va nafosat tarbiyalariga ham ta’sir etadi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxsni komillikka yetaklaydi.

**Kalit so`zlar:** sog`lomlashtirish, jismoniy rivojlanish, tarbiya, mashq, jismoniy tarbiya, fiziologik yetilish, jismoniy madaniyat, ta`lim.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini

har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib, voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari bo‘lajak yosh avlodni turli nazariy bilimlarni, jismoniy tarbiya tizimining rivojlanish tarixiy qonuniyatlari, metodlari, vositalarini o‘rgatish hamda jismoniy tarbiyaning xususiyatlari haqida atroflicha va chuqur bilimlar berish bilan birga ularni kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy a hamiyat kasb etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Arastu, Aflotun, Suqrot kabi antik davr olimlari quldorlarning farzandlariga jismoniy tarbiya berishning nazariy asoslarini ishlab chiqishga harakat qilganlar. Ular har bir tarbiyali shaxs jismonan kuchli bo‘lishi, qilichbozlik, nayza uloqtirish, otda chopish, suvda suzish kabi jismoniy mahoratga ega bo‘lishi kerak, deb hisoblaganlar. Bu ahli donishlarning jismoniy tarbiya borasidagi fikrlari yillar o‘tgani sayin sayqal topib, mukammallashib bormoqda.

Uzoq o‘tmish davrlaridan boshlab xotin-qizlar erkaklar bilan o‘zlarining teng huquqlilik, erkinlik va mustaqilliklari uchun qaysidir ma’noda kurashib kelganlar. Xotin-qizlarning erkinlik darajasi, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, tarixan har qanday jamiyat rivojining sifat ko‘rsatkichi ko‘rinishida qabul qilingan. Oxirgi 100 yil ichida dunyoda tanilgan olimalar, faylasuflar, shoiralar va jahon arenasida betakror sport yutuqlari bilan o‘chmas iz qoldirgan xotin-qizlar hissasi aynan o‘sha jamiyat, millat rivojining salmoqli sifat ko‘rsatkichidir. Xotin-qizlar fenomenining ijobiy “portlash effekti” natijasida erkaklar qatorida nafaqat o‘z mutaxasisliklari va ma’naviy sohada, balki katta sport yutuqlari sari intilish borsida ham tenglikka erisha olishdi. Psixologiyada “ideal” ayol va “ideal” erkak tushunchalari mavjud bo‘lib, har birida maxsus xususiyatlar to‘plami mavjud.

Psixologiya fani xulosasidan farqli Nemis psixologi O.Vayningerning tadqiqiy ma’lumotlariga ko‘ra sof ma’noda na “ideal” ayol, na “ideal” erkak tabiatda uchramasligi isbotlangan. Insonning asl tabiatida ikki qutblilik mavjud bo‘lib, qaysi tomon hayotda aksariyat namoyon bo‘lishi oqibatida shaxsning umumiy obrazi shakllanadi. Insoniyat jamiyatining zamonaviy ko‘rinishlarida sof erkaklar sport turining qolmaganligini kuzatish mumkin. Dunyo bo‘yicha xotin-qizlar yakka kurash, og‘ir atletika kabi oldingi davrlarda tasavvurga sig‘magan sport turlari bilan shug‘ullanishadi.

Xotin-qizlar sportiga xos muammolarni o‘rganish, ilmiy tekshiruvlarga asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zarurati shubhaga o‘rin bermaydi. Hozirgi davrga qadar xotin-qizlarga xos sport mashg‘ulotlari mavzusida yakdil qarashlar mavjud bo‘lmasada, bu masala yuzasidan ikki yo‘nalishdan iborat tubdan farq qiluvchi yondashuvlarni belgilash mumkin. Professor V.Platonov e’tirofiga ko‘ra birinchi yo‘nalish olimlari va amaliyotchilari tomonidan xotin-qizlarning ovarial-

menstruial sikl o‘zgarishlarini mashg‘ulot mezotsikllarga moslashtirishni, ikkinchi yo‘nalishda esa sportchi xotinqizlar mashg‘ulotlarini sportchilarning umumiy qonuniyatlari asosida tashkil etishni tavsiya etishadi. Hozirgi davrda xotin-qizlar tomonidan aksariyat mislsiz yuqori natijalarga intilish kabi global muammolar mavjud bo‘lib, fan yo‘nalishida kechiktirib bo‘lmaydigan ilmiy izlanishlarni taqozo etadi:

1. Xotin-qizlar organizmiga mashg‘ulot yuklamalarining ta’sir mexanizmlarini har tomonlama va to‘liq o‘rganish zarurati.

2. Xotin-qizlar organizmiga salbiy ta’siri bo‘lmagan va optimal yuqori sport yutuqlariga erishish yo‘nalishida metodikalarni ishlab chiqish. Retrospektiv ma’lumotlarga ko‘ra sport mashg‘ulotlari nazariyasi va amaliyotida erkaklar va xotin-qizlarga birdek aloqador umumiy talablar qatorida aynan xotin-qizlarga xos tomonlar ham o‘rin tutgan. Xotin-qizlar organizmining funksional xususiyatlarini tasvirlash imkonini beruvchi alohida sport turlarining xususiy talablaridan kelib chiqadigan va organizmda kechadigan har xil moslashuv jarayonlarning kechish xususiyatlarini atroflicha o‘rganish bilan aniqlanadi.

3. Navbatdagi muhim muammo sifatida xotin-qizlar sporti yo‘nalishida ijtimoiy psixologik, pedagogik asoslarni yaratish zaruratidir. Sportchi xotin-qizlar organizmga xos tabiiy ehtiyojlaridan voz kechish orqali tom ma’noda sportcha turmush tarziga qat’iy rioya etish talablari mavjud. Inson borlig‘ining ijtimoiy sahifasida ham oddiy hayot quvonchlarini, munosabatlarni ongli tarzda cheklash muhim ahamiyatga ega.

Sport bilan muntazam shug‘ullanadigan xotin-qizlar o‘ta yuqori yuklamalarni boshdan kechirishi ayol organizmiga va uning reproduktiv salomatligiga ta’siri oqibatsiz o‘tmasligi mumkin. Real sabab va oqibatlar majmuida xotin-qizlarning sport faoliyati bilan faol shug‘ullanishlari uchun ulardan ongli munosabat, ham jismoniy ham psixik tayyorlik talab etiladi. Katta yutuqlar sportida erkaklar ko‘rsata olgan sport rekordlarni xotin-qizlar tomonidan takrorlay olishlari, yoki o‘zib ketishlarini bashorat qilish mushkul bo‘lsada, bu masalada ba’zi muayyan tendensiyalarni kuzatish mumkin.

Bugungi kunda ayollarning emansipatsiya moslashuvi, ulardan sportda yildan-yilga yuqori natijalarni kutmoqda. Misol, xotin-qizlarning suzish sport turi bo‘yicha jahon rekordlari, erkaklar rekordini ancha yildan beri takrorlamoqda. Zamonaviy tendensiyalar ko‘rinishida xotin-qizlar organizmidagi atletik shaklga xoslikning rivojlanib borayotganini e’tirof etish mumkin. “Atletizm” termini ma’nosida sportchi xotin-qizlar va erkaklarning qaddi-qomat shaklida farqning kamayib borishi e’tiborga olinmoqda. O‘tgan asrning 80 - yillarida 100 va 1500 metr masofaga yugurish musobaqalarida xotin-qizlar va erkaklar tomonidan

ko‘rsatilgan rekordlar orasidagi farqning qisqarib borishini kuzatish mumkin va holat hozirgacha davom etmoqda. Ilmiy tilda bayon etilsa - ushbu tasvirlanayotgan tendensiyaga ko‘ra jinsiy farq yoki jinsiy “diformizm” ko‘rinishlarining kamayib borishi bilan izohlash mumkin. Xorijiy davlatlarda (Rossiya) o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra sportchi xotin-qizlarning aksariyatida interseksuallik (erkaklik, atletlik) fenotipi aniqlangan. Ushbu hodisani - sport ixtisosligi bilan bog‘liq bo‘lmagan 75 % sportchilar, shu o‘rinda 98 % gimnastlarda, engil atletika bilan shug‘ullanadiganlardan 70-90 % ayollarda, 71 % chang‘i sportida, 67 % futbolchilarda va 44 % suzish sportchi ayollarida kuzatilgan. Sport yo‘nalishida aniqlangan muammo jotin-qizlar “giperandrogeniya”si deb manbaalarda izoh berilgan. Keltirilgan termin definitsiyasiga ko‘ra xotin - qizlar organizmida kechishi mumkin bo‘lgan me’yordan ortiq androgen sekretsiyalar ta’siri ostida shartlanadigan salbiy klinik o‘zgarishlar e’tiborga olingan. Oddiy tilda, haddan ortiq jismoniy yuklama natijasida organizmda erkaklik jinsiy garmonlar salmog‘ining oshib borishi bilan buyrak usti faoliyatini o‘zgarishi va ulkan stress holatiga olib keladi.

Ginekologlar fikrlariga ko‘ra, “giperandrogeniya” muammosining mohiyatida sportchi xotin-qizlarning sportdan keyingi homiladorlik davri patalogiyasida bepushtlik yoki shunga o‘xshash salbiy tahdidlarga bosh sababdir. Oliy ta’lim tizimida, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodika fani ham o‘quv, ham ilmiy fan sifatida o‘qitiladi. Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida “Xotin qizlar sporti” guruhlarining ochilishi jamiyatda, shubhasiz ayol jismoniy tarbiya o‘qituvchilarga, sport murabbiylarga, instruktor - metodistlarga bo‘lgan ehtiyojning yildan-yilga oshib borishidan dalolat beradi. Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi bo‘yicha o‘qitiladigan mutaxasislik fanlar mazmunini xotin-qizlar sporti muammolari va qonuniyatlari talablarida optimallashtirish, ta’lim metodologiyasini qayta ko‘rib chiqish - jamiyatimiz talabini sifatli ta’minlashning bosh shartidir. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika fani ilmiy fan sifatida bir-necha asrlik tarixga ega. Fan yo‘nalishida tadqiq etilgan ilmiy ishlarni retrospektiv o‘rganish orqali ba’zi ahamiyatli qonuniyatlarni asosli tarzda e’tiborga olish talab etiladi.

Xotin-qizlar jismoniy ishchanligi erkaklar nisbatida 60-80 %ni tashkil etadi. Ishchanlik - organizm imkoniyati sifatida, aslida sportchining maxsus jismoniy tayyorgarlik tomonlarini ifodalaydi, dastlabki o’rganish jarayonida siklik sport turlariga xos maxsus chidamlilikning aniq tafsilotlariga asoslanish mumkin bo’ladi. Aksariyat manbalarda uchraydigan “ishchanlik” (shartli belgi, P) iborasi ishlatilganda, bu yo’nalishning ba’zi hodisalar mohiyatini aks etishlarda prinstipial bo’lgan fikr va munosabatlar tarqoqli kuzatilgan. Bu holat, xotin-qizlar va erkaklar sportida uchun alohida metodikalar, baholash mezonlari va ishchanlik

parametrlarini standartlashtirishga qaratilgan ishlanmalarni yaratishga shubhasiz salbiy ta’siri mavjud. Ilmiy mulohazalarda ta’kidlanishicha, mazkur masala bilan bog‘liq bo‘lgan amalda mavjud barcha ifodalanishlar (tafsiflanishlar) baholash mezonlari rasmiy mantiqqa zid bo‘lib, faqat ayrim vaziyatlarga taalluqlidir, ko‘p hollarda ishchanlik iborasi o‘rniga tayyorgarlik, sportchi holati, mashq ko‘rganlik iboralari orqali pedagogik hodisalar tahlil qilingan Mashq ko‘rganlik (yoki, mashq bilan chiniqqanlik) - organizmning muayyan holati bo‘lib, mashq ta’sirida uning morfologik va funkstional xususiyatlari parametrlarida kechadigan o‘zgarishlarni bildiradi. Mashq ko‘rganlik va jismoniy tayyorgarlik ta’riflarining asl mohiyatini, faqat sportchining barcha majmuaviy tibbiy tekshiruv parametrlarini uning organizmining funkstional holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bilan solishtirish orqali hosil qilish mumkin. Ishchanlik bu organizm va uning alohida organ va tizimlariga xos ishni, funkstiyani uddalay olish qobiliyati bo‘lib, uning o‘lchovlariga asoslangan baholash tartibi va qiyosiy xususiyatlari amaliy va ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aksariyat sport sohasining barcha mutaxasislarida “ishchanlik” iborasi o‘zining aniq, ravshan ma’nosi bilan muammoli vaziyatlar tahlilida mustahkam o‘rin olgan va bundan keyin uning asosiy xususiyatlarini qaytatdan rasmiylashtirishga hojat bo‘lmasa kerak. Miqdoriy va sifat parametrlarida chegaraviy shiddat yoki vaqt davomiyligida kechadigan mashg‘ulot natijasida sodir bo‘ladigan organizmning maksimal kuchlanishli faoliyat effektiga xos xususiyatlar, aynan ishchanlikning asosiy farqlanish nishonalari hisoblanadi. Asosiy muammoga qaytadigan bo‘lsak, xotin-qizlarning jismoniy yuklama ta’siriga moslashuv (adaptatsiya) jarayoni organizm funksiyalarining zo‘riqishi va juda sekinlikda qayta tiklanishi bilan xarakterlanadi. Ba’zi salbiy muhit sharoitlariga o‘ta ta’sirchan va psixik qo‘zg‘aluvchan. Mashq ko‘rganlik darajasining o‘sib borishi bilan tabiiyki funksional imkoniyatlar doirasi kengayib borsa-da, hattoki bir qator parametrlar bo‘yicha erkaklarga yaqinlashsa-da, bugungi kunda asosiy harakatlanish qobiliyatlari bo‘yicha etishish imkoniyatining yo‘qligi, ahamiyatsizligi aniq. Xotinqizlar organizmining jismoniy, psixik va adaptatsion-moslashuv xususiyatlari faqat muayyan sport turlari bilan shug‘ullanishni taqozo etadi, boshqlarida natijaga erishish jarayonini qiyinlashtiradi va eng asosiysi barkamol shaxs sifatlariga zid holatni keltirib chiqorishi mumkin. Muammo yuzasidan xotin-qizlarning kurash, dzyudo, futbol, og‘ir atletika, pauerlifting, xokkey, futbol, boks sport turlari bilan shug‘ullanishlari nomunosib degan qarashlar va ularga qarshi fikrlar bahsmunozaralarga sabab bo‘lmoqda. Hozirga qadar na fundamental na akademik fan yo‘nalishida xotin-qizlar sporti muammolari bo‘yicha muddatli jarayon dinamik tasviri, qiyosiy kuzatuvlarga asoslangan tadqiqot natijalarining etishmasiligi sababli yakdil

yondashuvga erishib bo‘lmasligi e’tirof etiladi. Qarshi fikrlar asosida ayol va erkaklarda chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha farq unchalik katta emas, ba’zida taxminan bir xil deb hisoblaydiganlar ham bor. CHunki ulardagi qon aylanish apparati va aerob quvvat ta’minot tizimini shug‘ullantirish mexanizmlarida anchagina o‘xshashlik bor. Tizimli, muntazam mashg‘ulotlar orqali erkaklar darajasida xotin-qizlarning potensial imkoniyatlarini yaqinlashtirish mumkin. Ayollar erkaklarga nisbatan chidamliligi to‘g‘risida ilmiy faktlar ham mavjud. Masalan, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan uzoq vaqt va masofalarda yugurish yuklamalariga yaxshi dosh bera olishadi. Aynan, uzoq vaqt suzish rekordi ayollar tomonidan qayd etilgan. Jismoniy yuklama ta’sirida ter ajralish anchagina past bo‘lib, faqat tashqi muhitning yuqori harorat sharoitida boshlanadi.

Xotin-qizlar sporti mavzusida o‘zaro keskin qarama-qarshi bo‘lgan ilmiy faktlar asosidagi ikki yo‘nalishli muammoni tushunish mumkin. Bir tomondan, xotin-qizlar sportini reabilitatsiyalash tarafdorlari, ikkinchi tomondan sport bilan shug‘ullanishning diagnostika usullarini joriy etish orqali ilk boshlanish davrlarida giperandrogeniya patalogik asoratlarini oldini olishga qaratilgan muammolardir. E’tirof etilayotgan mustaqil fikrlardan faqat bir masala aniq-ravshanki, xotinqizlarning u yoki bu sport turi bilan shug‘ullanish istaklarini chegaralash mumkin emas, chunki ularning sportga bo‘lgan munosabatlarida ham erkaklarga nisbatan farq mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Лигай. Путь к совершенству. Ташкент, «Шарк» 1994 г. 159 с.
2. Ю.М.Бабак, э. Константинова Таэквондо: Методическое пособие Киев: 2010 г. 88 с.

DUNYO MAMLAKATLARIDA OZODLIKDAN MAHRUM QILINGAN AYOLLARNI JAZONI O’TASHI

Qilichova Kamola Luqmonxon qizi
Zafarobod tumani IIB HPB Xotin qizlar masalalari bo’yicha katta inspektor, leytenant

Anotatsiya. Jinoyatlar o’z o’zidan sodir etilmaydi, uni sodir etish uchun ham kimdir yoki nimadir sabab bo’ladi. Erkak jinoyatchilar bo’lganidek ayol jinoyatchilar ham mavjud. Butun dunyo mamlakatlarining ko’pchiligida ayollar saqlanadigan qamoqxonalar mavjud bo’lib, ularda ayollarga nisbatan har xil munosabatlarda bo’ladi.

Kalit so’zlar: ayol mahkumlar, tuzatish dasturlari, ayollar huquqlari, zo’ravonlik, mahkum ayollar soni, yashash huquqi.

Ko’pgina dunyo mamlakatlarida ayollar saqlanadigan qamoqxonlalar mavjud. Ularda saqlanayotgan ayollarning ahvolini, tartib qoidalarini yoritib o’tamiz. So’nggi yillarda Xitoyda ayollarni qamoqqa olish darajasi 46 foizga oshdi. Ayollar mamlakat ichidagi qamoqxonalardagi shaxslar umumiy sonini 6 foizini tashkil etadi, lekin bu ko’rsatkich AQSHga qaraganda ancha ko’p. Yangi Zelandiya davlatida esa ayol mahbuslar saqlanadigan 3 ta qamoqxona mavjud. Ularda yangi tug’ilgan farzandi bor ayollar, aqliy va jismoniy nogironligi bor ayollar uchun turli tuzatish dasturlari taklif etiladi va yordam berish choralari ko’riladi. Shu bilan birga jazoni ham o’tashni nazorat qilishadi.Rossiya davlatida ayollarning huquqlarini isloh qilishda sustkashlik mavjud. Lekin ularning bolalarining huquqlari xalqaro standartlar doirasida ta’minlanadi. Masalan agar ayol homilador bo’lsa yoki o’n to’rt yoshga to’lmagan farzandi bor bo’lsa uning jazosi kamaytirilishi, bekor qilinishi yoki ijrosi kechiktirilishi mumkin. AQSH davlatiga keladigan bo’lsak, u yerda dunyo ayollarining 4 foizi yashaydi, lekin dunyo qamoqxonalaridagi ayollarning 30 foizidan ortiqrog’I Amerika qo’shma shtatlari hisobiga to’g’ri keladi. Bu davlatda saqlanayotgan ayollar mahbuslarning ko’pchiligi qamoqxona ichida zo’ravonlikka uchrashadi. Ayrimlari vayshiyona tarzda jinsiy zo’ravinlik qurboniga aylanishadi.

Ayol mahkumlar orasida qamalgan jinoyat turi bo’yicha dunyoda har xil bo’lsada, ularning jinoyat sodir etishga undagan asoslarda o’xshashlik mavjud. Ushbu o’xshashlikning eng ko’zga ko’ringan tomoni qashshoqlik va qashshoqlikni keltirib chiqaradigan sharoitdir. AQSH va Buyuk Britaniya davlatlarida qamoqxonalardagi ayollar aholisi sog’liq uchun alohida ehtiyojlarga ega, ular ko’pincha qondirilmaydi. Masalan “Jamiyatda sog’liqni saqlash va ijtimoiy yordam” degan tadqiqot jurnalida Yevropa mamlakatlaridagi qamoqxonalar soni bo’yicha Angliya va Uelsda ayollarning ruhiy va jismoniy sog’lig’iga bo’lgan ehtiyojlari o’rganilmagan va yetarli darajada qondirilmaganligi aniqlandi, uzoq muddatli sog’liq muammolari solishtirilganda ayollar 40 %, erkaklar esa 33% ni tashkil etgan. Bizning yurtimizda esa Ayollarga nisbatan ancha yengilliklar yaratilgan. Ayollar saqlanadigan qamoqxonlar bekor qilinib, jazoni ijro etish uchun mo’ljallangan koloniyalar tashkil etilgan. Koloniyada saqlanayotgan har bir shaxsninh o’z huquq va erkinliklari ta’minlanadi. Agarda bu huquq va erkinliklari buzilsa Inson huquqlari bo’yicha vakil(Ombudsman)ga, prokuratura murjaat etishlari mumkin. Agarda ularning 14 yoshga to’lmagan farzandlari mavjud bo’lsa ular bilan yashashlari, yoki Jinoyat ijroiya kodeksida belgilangan tartibda Jazoni ijro etish koloniyalarini yaqinidagi uy joyda belgilangan rejim qoidalariga amal qilgan holda yashash huquqi beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayol mahkumlarni o’rganish markazi –“Van Diymen yurtidagi mahkum ayollar to’g’risida” tadqiqotlarga bag’ishlangan notijorat tashkilot.
2. Codd, Helen “Xotin qizlar va qamoq”. Vagadu, Transmilliy ayollar va gender tadqiqotlari jurnali.
3. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi.
4. Jinoyat ijroiya huquqi. Darslik, umumiy qism.

AYOLLAR JINOYATCHILIGI VA ULARNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

Qilichova Kamola Luqmonxon qizi
Zafarobod tumani IIB HPB Xotin qizlar masalalari bo’yicha katta inspektor, leytenant

Anotatsiya: O’zbekiston Respublikasida ayollar tomonidan ko’plab jinoyatlar sodir etilmoqda. Xususan o’g’irlik, firibgarlik, tovlamachilik hamda badanga shikast yetkazish kabi jinoyatlar boshqa jinoyatlarga nisbatan 2-3 barobar ko’p sodir etiladi. Ayollar sodir etgan qilmishining og’ir yoki yengilligi ular jinoyat sodir etayotgan holatdagi ruhiy fiziologik holati, umumiy jismoniy xususiyatlari,jinoyat sodir etiladigan joy, jabrlanuvchi shaxsi, jabrlanuvchi bilan aloqasi muhim o’rinni egallaydi.

Kalit so’zlar: ayollar jinoyatchiligi, jinoyatning og’irligi, yengillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holat, o’g’irlik, firibgarlik, badanga shikast yetkazish, jabrlanuvchi shaxsi.

Ayollar jinoyati - bu ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar majmui. Ayollar jinoyatchiligi - bu jinoyatning bir qismi bo'lib, u bir qancha sifat va miqdoriy xususiyatlar, jinoyatchilik omillarini belgilovchi bir qancha shaxsiyat xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, ayollar jinoyatchiligining oldini olish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Jinoyat sodir etgan shaxslarning umumiy sonidagi ayollar ulushi kam, taxminan 20 %. Shu bilan birga, ayollar jinoyati tarkibi erkak jinoyatchiligidan, asosan, kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan yollanma jinoyatlarning ko'payishi bilan farq qiladi: o'zlashtirish yoki o'zlashtirish yo'li bilan tovlamachilik, o'g'irlik, firibgarlik va mulkka qarshi boshqa jinoyatlar. So'nggi yillarda bu iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyatlarning ko'payishi, shuningdek, jinoyatchi ayollarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq: noqonuniy bank faoliyati, noqonuniy ravishda kredit olgan tashkilot bilan soliq to'lashdan bo'yin tovlash, noqonuniy biznes. *(Masalan Zafarobod tumanida 2022 yil 9 oylik jinoyatlar tahlil qilinganda 5 ta jinoyat sodir etilgan bo’lib, shuning 3 tasi firibgarlik jinoyatini tashkil etadi).* Shu bilan birga, ayollar jinoyati tarkibida bu toifadagi jinoyatlar erkaklar jinoyati tarkibidagi tegishli jinoyatlar nisbati bilan solishtirganda ancha yuqori. Ayollarning ushbu jinoyatlarni sodir etishda yuqori

jinoyat faolligi, ko'pincha bu jinoyat harakatlari iqtisodiyotning feminizatsiyalangan sohalarida sodir bo'lishi bilan izohlanadi.(*masalan, savdo, bank, maishiy xizmatlar va pul munosabatlari.)*

Ayollar jinoyatchiligining umumiy oldini olish, umuman, jinoyatchilikka qarshi kurash doirasida, zamonaviy jamiyatdagi ayollarning ijtimoiy mavqeining o'ziga xos xususiyatlarini, u bajaradigan ijtimoiy va rol funktsiyalari kompleksini hisobga olgan holda qurilgan. Ayollarning kriminologik harakatlari yosh avlodga eng halokatli ta'sir ko'rsatadi: ulardan o'g'irlik, doimiy ichish yoki fohishalik bilan shug'ullanadiganlar o'z farzandlariga to'g'ri tarbiya bera olmasligi aniq. Ayollar sodir etgan jinoyatlar orasida davlat mulkini o'g'irlash, fuqarolarning shaxsiy mulkini o'g'irlash, firibgarlik, poraxo'rlik, qotillik, talonchilik va boshqa jinoyatlar ko'p. Voyaga etmagan jinoyatchilar orasida qizlar soni ko'payib bormoqda, ular mastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va fohishalik bilan faolroq shug'ullanmoqda. Ayollarning jinoyatchilik xatti -harakatlarining sabablarini tushunish ayollar jinoyatchiligining oldini olishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, ayollarning jinoiy xatti -harakatlarining sabablari haqida gapirganda, qoida tariqasida, bolalikdan, oiladan boshlanadigan butun jinoiy zanjirni tahlil qilish kerak. Shaxsiyatning shakllanishida oilaning shaxsga ta'siri tom ma'noda hayotning birinchi kunlaridan boshlab sodir bo'ladi, u odatda o'smirlik davrida - shaxsning ijtimoiy rivojlanishi jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lgan davrda, butun hayotida davom etadi.

1. Foydalanilgan adabiyotlar

2. Jinoyat huquqi. Umumiy qism
3. Kriminologiya. Darslik umumiy qism
4. Viktimologiya. Darslik
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Darslik

COMPARATIVE ANALYSIS OF ISOMORPHIC FEATURES OF "WEDDING CEREMONY" IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Ganieva Madina Ganiboy kizi
madinaganieva3013@gmail.com

Abstract. Family customs are usually carried out between family members and relatives and are reflected in the language of each nation. Information about certain traditions of a certain nation and culture is determined in the phraseological fund of the language. Taking into account that family traditions are mainly studied by cultural studies, the new direction *of linguistics "linguculturalology"* (culture and linguistics) is aimed at researching cultural phenomena from a linguistic point of view.

Key words: wedding announcements, wedding cake, wedding speech, marriage registration, religions, cultures, mentalities.

The "wedding " tradition is a cultural heritage for the English and Uzbek peoples, where specific customs and traditions are carried out. Proverbs and expressions as symbols of the English and Uzbek languages allow you to get to know the wedding process in English and Uzbeks. In the analysis of wedding traditions, linguistic, linguocultural studies were considered within the framework of family traditions. In this scientific study, we compared the specific characteristics, similarities and unique aspects of the wedding. The etymological method of linguistics was used to reveal the concept of "wedding", the descriptive method of the wedding ceremony was described, and the comparative method helped to search and compare phraseological units related to the wedding in both languages. The research is new for linguistics, and its purpose is to compare universal and ethnic cultural features of wedding in linguocultural studies.

Results of the analysis show that the wedding is a culturally determined tradition, as the proverbs and expressions representing it contain elements of national and cultural identity. Despite the fact that different religions, cultures, mentalities have different geographic locations, languages, phraseological units show the existence of common views on wedding, one of which is evaluated as a positive influence on the psychology of people, and the others. To unite young people who are above traditions is to create a happy family in the future. On the other hand, the food served to the guests at the wedding ceremony, the clothes and mainly the wedding ceremony process are given specific information. Analytical statistics show that the proverbs, phrases and symbols expressed in wedding phrases reflected in the linguistic landscape of the English world are only 10-15%, and 40-50% in the Uzbek language.

Family tradition that belongs to every language and culture, it includes many cultural ceremonies, customs and traditions. This phenomenon is mainly studied by cultural studies, but a new branch of linguistics, such as linguoculturology, also focuses on cultural issues related to language. Wedding has been defined differently in different periods. Wedding is adding a new member to the family and starting a new life together. A wedding is a day when two young people decide to live together in the future, to love and respect each other forever. As for the linguistic-cultural approach, scientists believe that it has cultural, linguistic, psychological and social significance for science. Firstly, the verbal and non-verbal expression of the most important positive values of the society can be found in wedding relations, and secondly, the wedding ceremony itself is of primary importance for the formation of an important linguistic and cultural concept. In

modern linguistics, there is an increasing interest in the concepts of the foundations of national culture, in particular, the concept of "wedding". Identifying the main features of the lacuna in the translation of the concepts and realities of the wedding ceremony and methods of eliminating it in the process of intercultural communication are also the relevance of the research.

In both English and Uzbek, a number of proverbs describe wedding traditions, that is, language is a reflection of any cultural element. Therefore, language is not only a way of passing cultural heritage from generation to generation, but also a tool used to enter the mentality, culture, worldview of the nation. The study of wedding traditions from a linguistic and cultural point of view develops intercultural relations, provides theoretical and practical materials for foreign language learners, and finally contributes to the political, social and other interactions between the countries of these two native speakers satisfied. A comparative approach to the study of wedding traditions provides opportunities for future investigations, primarily by building a foundation of scientific, cultural, and linguistic material on other types of traditions.

Etymological method is the first stage of concept analysis. This allows you to get the necessary knowledge about the original meaning of the concept. For English linguistics, the concept of "to'y" has the following etymological meanings: *"to pledge", "to engage, wed"* . The above words are French words, the original form of which was *"weddung, weddian"* , later *"-ing" was* added to form the modern word *"wedding"* , Uzbek "to'y " is an old Turkic word, the initial form of *" toq" in the* sense of *"satisfying hunger" and "occupying space"* due to assimilation later changed to the form of " *to'y"* .

Descriptive method allows to explain the meaning of "to'y". According to Merriam-Webster's Annotated English Dictionary, "to'y" has several meanings: 1) a wedding ceremony, and the festivities that usually accompany it; 2) an act, process or instance of close association; 3) wedding anniversary or its celebration - usually used together as golden wedding. The National Uzbek Encyclopedia gives the following definition for the word " wedding": "a party, a celebration and a custom organized with joy." The following definition is given in the explanatory dictionary of the Uzbek language: " Wedding is a party or holiday organized and carried out among people in order to marry someone's children."

Finally, using a selection of English and Uzbek proverbs and phrases about wedding customs, it was possible to use the comparative-typological method and determine the cultural characteristics of this concept. Dictionary of proverbs and idioms in both languages are the main sources of our research. We conducted an

analysis of the wedding and highlighted the similar, unique, common features of the concept.

Intercultural communication is of great importance in today's developing world. Mastering a foreign language is not enough to communicate with a foreign language representative; in order to be correct in communication, it is necessary to understand the need for knowledge about the culture, history, mentality, character of the nation. Reading and learning information about it is not so complicated, but the real information is stored in the language and reflected in the linguistic landscape of the world. In the English lexical system , there are associations such as *" preparation for the wedding", "the importance of the wedding cake, dance"* and post - wedding activities. At the phraseological level , the wedding tradition includes a number of specific elements that have not been defined in Uzbek linguistic culture: choosing a suitable wedding date, paying attention to the symbolic elements of the bride's dress, and accompanying the bride to the church. For Uzbeks, the lexical level of wedding traditions is related to the wedding day and post - wedding ceremony, while the phraseological level includes pre-wedding ceremonies.

References

1. Dasen P.R. *Intercultural Cognitive Development*: Annual Publications of the New York Academy, 1977.
2. Piaget J. *Cultural Aspects of -Piaget Theory*, Annual Publications of the New York Academy, 1977.
3. Wagner L. *Manners, customs and observances.* – London, Heinemann, 1984.
4. Whorf B.L. *Language, thought and reality. Selected writings.* – New York, Carrol MIT, 1956.
5. Wierzbicka A. *Emotions across languages and cultures: diversity and universals*. Cambridge university press, 1999.
6. Wilson C. *Wedding cake: a slice of history*. Gastronomica: The journal of food and culture, 2005.
7. https://www.countryhouseweddings.co.uk
8. https://www.weddingdetails.ro/

COMPARATIVE ANALYSIS OF ALLOMORPHIC FEATURES OF "WEDDING CEREMONY" IN ENGLISH AND UZBEK

Ganieva Madina Ganiboy kizi

madinaganieva3013@gmail.com

Abstract. Analysis shows that wedding customs are typical for both linguistic cultures, but we have identified more dissimilar features than similarities. The

importance of having specially prepared wedding food, guests' wishes and greetings for the newlyweds indicate similar features of wedding traditions reflected in languages. The results of the analysis show that wedding traditions and their ceremonies are 90% unique, 10% similar, i.e. "wedding cake" in English, *"Breakfast dinner "* in Uzbek . *"* Wedding dishes and wishes and congratulations ceremonies. This can be explained by the fact that, firstly, English and Uzbek languages belong to different language families, and secondly, their mentality, life experience, geographical location, and religion differ sharply from each other.

Key words: cognitive stereotypes, cognitive process, honeymoon, wedding speech, wedding breakfast.

I. Weddings . The *"white" color in the* expression *"White wedding"* refers to the dress of the English bride and the marriage that begins in the church. The Cambridge Dictionary defines it as: "a traditional Christian wedding in a church, where the woman getting married wears a white dress. "As for Uzbek traditions, people organize the following weddings: son's wedding (a wedding celebrating the circumcision of a boy), khovli wedding (the family moves to a new house a ceremony organized in the past) and the most important wedding for the family is the wedding (wedding of the bride and groom).

II . Ceremonies and customs before the wedding:

a) Choosing a wedding date. *" Marry in May, rue for aye" describes the caution of the* English people in choosing a suitable month for a wedding.

b) Preparation of wedding clothes. In English ceremonies related to the bride, such as *"Something new, something old, something borrowed, and something blue"*, it is considered necessary to fulfill the rules related to the bride's wedding outlook. And this is a symbol of the future and a happy life for the newly married couple.

Such examples of pre-wedding ceremonies and customs are revealed only in English-language materials. The preparation of the Uzbek people for the wedding is reflected in the following cases:

c) Advice on organizing a wedding. Uzbek folk proverbs: "A wedding arranged with advice will not be broken"; *"The wedding will be with the council"* (The wedding must be arranged with the council). According to these proverbs, a family planning a wedding for their child should consult with relatives, neighbours, and get recommendations from friends with relevant life experience.

Wedding day:

a) Wedding food. Uzbek wedding day starts early in the morning *with "Nahorgi osh", "Wedding dinner"*. The bride's parents prepare a large amount of pilav and invite the guests to taste it and pray for the happiness of the newlyweds.

At "Nahorgi Osh" event, many pilav cooks, guests and hosts make it very fun and interesting as they talk, dance and listen to songs. The description of this event is reflected in the following Uzbek proverb: Wedding dinner is riotous dinner. Similar to this ceremony is *"Wedding breakfast" in English.* But "Wedding breakfast", unlike "Nahorgi osh" in Uzbek, is served after the wedding and only to the newlyweds. *"Wedding cake" is* usually baked in wedding halls or wedding receptions. It is prepared and eaten as a symbol of the sweet, delicious life of the bride and groom. A number of sources define a wedding cake as follows: "Traditionally, wedding cakes are made to bring good luck to all the guests and the couple".

b) Wedding ceremony. *" Give someone away"* The phrase means accompanying the bride to the waiting groom in the church. This process is full of emotional moments for the bride, the group and their relatives. The action figuratively described in the phrase represents the bride's close relative presenting her to the groom. Another English expression is *"first dance"*, which is the first dance performed by the bride and groom after the wedding. Dance music is traditionally chosen by the young couple and is usually danced to quiet music. The Uzbek bride leaves her parents' house to the song *"Yor-Yor". The following definition is given for "Yor-Yor"*: "The content of the song, which is sung when the bride is taken to the groom's house, introduces the bride to the groom and introduces the groom to the bride, the qualities of the bride are conveyed through the song." This is an Uzbek reality song, a symbolic farewell song to the bride's parents.

IV. Post - wedding events. After the wedding comes *the Wedding Reception, which is a small celebration that allows* the bride and groom to host guests for the first time after getting married. "...this party features a fruit cake made with cherries, walnuts, and other sweet ingredients. As for Uzbek post-wedding rituals, the bride is introduced to the groom's relatives. The ceremony called " *Kelin Salam" is performed* after the first day of the wedding or in the evening of the wedding day. The bride wears national Uzbek clothes, hides her face with a handkerchief and *greets* each of the groom's relatives under the song "Kelin salom", after "Kelin salom" again *"Bet achar"* (Opening the face) ceremony comes. The bride removes the handkerchief from her face and allows others to see her face. Three days or a week later, the bride's parents invite the groom and his family to a *"Challar"* feast for the groomsmen. During the celebration, relatives, parents of the bride and groom talk, get to know each other better, eat, drink, sing songs and dance. As can be seen from the presented examples, the wedding is characteristic of both linguistic cultures.

Undoubtedly, there are many rituals that have wedding traditions, but they are not reflected in phraseological units. The examples presented in the table try to reveal the unique characteristics of Wedding in each culture .

Table-1. The reflection of wedding traditions in the linguistic landscape of the world (in English-language materials)

Pre-wedding rituals	Wedding day rituals	Post-wedding rituals
Choosing appropriate data for wedding (Proverb)	Wedding dishes	Wedding reception
Preparation of Wedding clothes	Wedding wishes and greetings	
	Give a bride away (idiom)	
	First dance	

Table-2. Reflection of wedding traditions in the linguistic landscape of the world (in Uzbek language materials)

Pre - wedding ceremonies	Ceremonies on the wedding day	Ceremonies after the wedding
Advice on organizing a wedding (Proverbs)	(Proverb)	Kelin salom
Pre - wedding event "Discussion dinner"	Side by side	To open face
	The groom is a servant	Challar

References

1. Humboldt W. On the Diversity of Human Language Construction and Its Influence on the Mental Development of the Human Species, Cambridge University Press, 1999.
2. Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar. – Stanford, California, Stanford university press, 1987; Investigations in cognitive grammar. – Mouton de Gruyter, 2009.
3. Lipka L. An outline of English lexicology. Lexical structure, word semantics and word formation. – Max Niemeyer Verlag Tubingen, 1992.
4. Lott B. Women's lives: Themes and variations in gender learning. – Thomson Brooks // Cole Publishing, 1987.

5. https://www.weddingideasmag.com/british-wedding-traditions-and-wedding-etiquette/

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ФЕЪЛЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Юлдашева Садоқат Баҳодир қизи
Андижон тумани 54-мактаб
она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек тилидаги феълнинг ўзига хос жиҳатларига янги қарашлар ёритилган. Ушбу қарашлар ҳам назарий, ҳам методик характердаги изланишлар учун муҳимдир. Феъл валентлиги ҳамда феълнинг таркибий ва мазмуний жиҳатларининг боғлиқлигини ўрганиш ушбу изланишларни бойитади.

Калит сўзлар: феъл, сўзшакл, композиция, қўшма феъл, кўмакчи феъл.

Валентлик барча мустақил маъноли сўзларда ва ҳатто, ёрдамчи маъноли сўзлар, шунингдек, морфологик шаклларда ҳам мавжуд. Бироқ бу валентликка эга бўлган бўлган бирликлар предикатга эга бўлгандагина, гап қолипини белгилаши мумкин.

Кесим энг кичик ҳажмли гапни ҳам таркиб топтиради ва, шунингдек, гапни уюштирувчи марказий бўлаги ҳам бўлади.

Предикативликни ҳам, кесимнинг ҳам уюштирувчанлик хусусияти асосан, феъл билан ифодаланганда, фаол ҳолатда кузатилади. Шунингдек, феъл кесим учун жуда ҳам мосланган сўз туркуми ҳисобланади.

Агар гап кесими феъл бўлса, унинг, яъни айни феъл кесимнинг валентлиги гап қолипини белгилайди.

Феъл кесим ўз валентлиги асосида нутқ йўл қўйган вазиятга қараб, ўз актантларини қабул қилади, яъни шу орқали феъл семантикасидаги узвлар намоён бўлади. Муайян валентликнинг актанти эса гапнинг муайян бўлаги ҳам ҳисобланади.

Тилшуносликда яратилган кўплаб асарларда феълда ифодаланувчи муайян хабар қонунан ўз субектига эга бўлиши таъкидланади. Дарҳақиқат, феъл маълумоти аслида мантиқий субектнинг фаолияти сифатида намоён бўлади. Феъл маъносидаги ҳаракатнинг субъекти доимо агенс бўлиб кузатилади. Феъл семантик майдонининг ҳар бир семантик гуруҳини ташкил этувчи тил бирликлари ўзига хос агенсга эга. Чунки объектив борлиқдаги турлича фаол, нофаол ҳаракатларни аслида агенс юзага келтиради. Агенс феъллардаги ҳаракатнинг манбаини ўзида моддийлаштирувчи мантиқий субъект семантик актантдир.

Агенс валентлиги ўзбек тилидаги *қилмоқ* феълининг зарурий валентлиги ҳисобланади. Чунки феълнинг ҳаракатни агенс актанти билан бирга ифодалаши уларнинг энг муҳим семантик қобилятидир. Шунга кўра феъл гапда агенсни ўзида ташувчи ва ифодаловчи бўлади. Феълнинг ўз маъносида намоён бўлган ҳаракатнинг бажарувчиси, агенси билан англатиши унинг бош семантик вазифаси саналиб, бу феълнинг гап бўла олиш имконини белгилайди. Таъкидлаш зарурки, феъл маъносидан, унда намоён бўлган ҳаракатдан унинг мантиқий агенсини ажратиш мутлақо мумкин эмас. Негаки, муайян ҳаракат акти бевосита ўз бажарувчисининг мавжудлигини билдирса, бажарувчининг мавжудлиги бевосита муайян ҳаракатнинг юз беришини англатади. Бунинг устига, семантик нуқтаи назардан муайян ҳаракат ким томонидан бажарилса, шу энг асосий қатнашувчи ҳисобланади. Шунга кўра агенс валентлигининг ҳаракат феълларида зарурий валентлик ҳисобланиши қонуний аксиомадир.

Ўзбек тилидаги ҳаракат феълларининг семантик майдонидаги барча бирлаштирувчи ва фарқловчи семалар ўзига хос агенс валентликларига эга.

Ҳаракат феъли гапда кесим бўлиб келар экан, унинг агенси деярли эга билан мутаносиб бўлади. Агенс муайян ҳаракатнинг аниқ бажарувчисини англатади. Агенснинг намоён этувчиси, асосан, бош келишикдаги сўзда ифодаланади. Эганинг бош келишикда келиши унинг семантик-синтактик табиатига мос грамматик қонуниятидир(4,85; 2, 267).

Масалан: Қобил бобо бир кечада пишиқ ғиштдан сағана қилдирибди.

Бу гапда қилдирмоқ феъли *“барпо қилмоқ, қурмоқ, ясамоқ”* каби нутқий маъноси билан қўлланган. *Қурмоқ, ясамоқ* шахсга хос. Шунга кўра унинг агенс валентли шахс билдирувчи *Қобил бобо* актантида намоён бўлган. Улар “шахс” семаси асосида классемани таркиб топдирган.

Объект валентлиги феълнинг лексик семантис валентликларидан бири ва асосийсидир. У деярли феъл предикат семантикаси асосида ётади. Ўтимли феъллар ҳамма вақт объект валентлигига эга бўлиши баробар намоён бўлган актант тушум келишиги билан шаклланади. Айрим ҳолда тушум келишиги билан шаклланади. Айрим ҳолларда тушум келишиги имконда ҳам берилиши мумкин. Масалан: Қобил бобо бир кечада пишиқ ғиштдан *сағана қилдирибди*.

Демак, объект валентлик лексик-семантик ҳисобланиб, доимо агенс ҳаракати ҳолатида ўтган. Шунингдек, ҳаракат ёки ҳолат натижаси бўлган предметда намоён бўлади. У ўз актанти билан семемаларининг нарса ва баъзан шахс ифодаловчи семаси бўйича классемани таркиб топтиради. У воситасиз тўлдирувчи воситасида ҳам, агенс билан бирга эга вазифасида

келади. Феъл нисбати ёки нутқ вазиятига кўра унинг синтактик вазифаси ўзгариши мумкин.

Миқдор валентлиги феълнинг воситали семантик валентликларидан биридир. *“Икки соат ичида барча овқатларни қилди” с*интагмасига эътибор берилса, *икки соат ичида қилди* бирикмасидаги миқдор валентлигининг актанти *икки соат* сўзи феъл билан классемани таркиб топтирмайди. Феъл ўзининг объект валентлиги актанти *овқат* сўзи билан “ озуқа” билдирувчи классемани, объект октанти *овқат* сўзи миқдор актанти *икки соат* сўзи билан “миқдор” семасига кўра классемани таркиб топдирган. Бу ўринда *қилди* феъли ўзининг миқдор валентлигини объект валентлиги актанти семантикаси орқали орттирган. Шунинг учун уни лексик-семантик валентлик эмас, воситали семантик валентлик деб аташ тўғри бўлади.

Қилмоқ феълининг миқдор валентлиги узунлик масофа ҳажм оғирликка нисбатан ҳам бўлиши мумкин. Феълнинг миқдор валентлиги актанти узунлик ёки оғирлик ўлчовини ҳам кўрсатади.

Масалан: Бир метр *гилам қилдим.*

Икки кило *пахта қилдим.*

Қурилмаларида бир метр узунлик миқдорини, икки кило оғирлик миқдорини билдирган. Уларнинг маъноси номинатив бўлиб, метонимик эмас. Лекин уларда ҳам от миқдор билдирувчи сон билан атрибутив бирикмани таркиб топтирмаганлиги кўзга ташланади. Улар ҳам феъл томонидан бошқарилмаганлигига қарамай, у билан семантик алоқага киришмаган. Феълларнинг бу валентлиги актанти намоён бўлишида қурилмаларнинг биринчисида гилам, иккинчисида пахта бошқарув семантикасига воситачилик семантикасини берувчи вазифасини ўтаган, яъни метр сўзи қилдим сўзи билан пахта сўзи кило сўзи билан қилдим сўзи пахта сўзи орқали семантик боғланади. Гилам ва пахта сўзлари феълларининг намоён бўлган объект валентликлари актантларидир.

Феълнинг миқдор валентлиги актанти ҳамма вақт миқдор сон-нумератив от бирикувида ифода топади. Бу табиийдир: чунки миқдор сон феълнинг миқдор валентлиги маъносига аниқлик беради. Шу аниқ миқдор орқали феълнинг объект ёки ўрин валентлиги актанти билан семантик алоқада бўлади. Объект ифодаловчи сўз феъл томонидан бошқарилиши ва ва семантик алоқада бўлиши табиий.

Демак, феълнинг миқдор валентлиги асосан, воситали семантик валентлик ҳолида намоён бўлади. Миқдор валентлиги актанти семантикаси ҳажм, масофа, оғирлик, узунликка бўлиши кузатилади. Восита семантикасини асосан объект ва баъзан ўрин валентлиги актанти

семантикаси беради. Миқдор валентликлари актанти миқдор **сон+нумератив от** кўринишидаги бирикмада ифода топади ва синтактик жиҳатдан миқдор ҳоли вазифасини ўтайди. Миқдор валентлигининг актанти феълга семантик боғланиб келиши учун восита бўлган ўрин ёки объект актанти синтактик жиҳатдан унинг аниқланмиши вазифасини ўтайди. У эллипсисга учраб маъносини аниқловчи бўлмиш миқдор актантига қолдирар экан. Бу актант феълга бевосита семантик боғланади ва лексик-семантик валентлик актанти ҳисобланади.

Ўрин валентлиги феълнинг лексик-семантик валентликларидан биридир. Ўрин феълвалентлиги бўлганидан кейин унинг актанти феъл томонидан бошқарилади. Шундай бўлгач, ҳоким бўлак бўлган феъл ўрин валентлиги актанти семантик жиҳатдан мослиги ва классема таркиб топдирганлиги кузатилади.

Масалан: Низом ака барча ишларини яйлоқда қилибди, мисолида яйлоқ оти *“кенг”, “ўтлоқ”, “жой”* семаларидан иборат семемаси билан *“йўналма ҳаракат” “жой” “қўймоқ”* семаларига эга сол феълига бириккан. Бирикма таркибидаги ҳар икки сўз семемаси таркибида *“жой*”, семаси мавжуд бўлиб у классемани таркиб топдирган яъни *қил*феъли ўз лексик-семантик валентлигига кўра актантини нутқда намоён этган. Бу унинг ўрин валентлигидир.

Юқорида *“яйлоқда қилибди”* бирикмаси айтилганидай, ўрин валенти актанти билан намоён бўлган.

Демак, асосан, ҳолат ва қўзғалма ҳаракат феълларида ўрин валентлиги бўлиб у ҳамма вақт лексик-семантикдир. Феъл ўз ўрин актанти билан “жой”, семасига кўра классемани таркиб топдиради. Унинг морфологик кучу макон келишиклари ва баъзан тушумкелишиги ҳамдир. Баъзан кўмакчилар ҳам уларни шакллантиради. Улар актант объектли бирикма таркибида ўрин ҳоли вазифасида келади.

Кесим ҳамма вақт маълум замонни кўрсатиб келади. Феъл кесимлар барча замон шаклини қабул қила олади. Шунга кўра кесим вазифасидаги феъллар **пайт валентлигига** эга бўлади. Улар ўз замон кўрсаткичига пайт ҳоли вазифасидаги актантни қабул қилади.

Масалан: Кечга яқин супа четига *жой қилди.*

“Жой қилди” феъли ўтган замонни билдиргани учун *“Укечга яқин супа четига жой қилди”*гапида вақтнинг маълум бир қисмини билдирувчи актант билан намоён бўлган актант деярли пайт равишларида ёки вақт билдирувчи отларда намоён бўлади.

Масалан: *”Қобил бобо бир кечада пишиқ ғиштдан сағана қилдирибди”* бирикувида эса қилдирибди феъл кесимининг пайт валентлиги бир кеча от бирикувда намоён бўлган. Ҳар икки мисолдаги пайт актанти ҳам синтактик жиҳатдан пайт ҳоли вазифасини ўтаган

Демак, замон кўрсаткичи кесим вазифасидаги феълларга пайт валентлигини илова қилади ва у пайт равиши шунингдек, пайт билдирувчи отларда ифодаланган актантларда намоён бўлади.

Феълнинг кўриб ўтилган грамматик хусусиятлари тадқиқи феъл туркумига доир назарий тадқиқотлар олиб бориш учунгина эмас, лингводидактик изланишлар учун ҳам зарурийдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки – Тошкент, 1970
2. Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975
3. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976
4. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М. А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент:Ўрта ва олий мактаб, 1961.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент, 1963.
6. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973
7. Ҳожиев А. Ўзбек тилида аналитик феълларнинг моҳияти.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. 3-сон

ФЕЪЛНИНГ АЙРИМ ГРАММАТИК ЖИҲАТЛАРИГА ДОИР

Юлдашева Садоқат Баҳодир қизи
Андижон тумани 54-мактаб
она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси.

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек тилидаги феълнинг ўзига хос жиҳатларига янги қарашлар ёритилган. Ушбу қарашлар ҳам назарий, ҳам методик характердаги изланишлар учун муҳимдир. Феъл валентлиги ҳамда феълнинг таркибий ва мазмуний жиҳатларининг боғлиқлигини ўрганиш ушбу изланишларни бойитади.

Калит сўзлар: феъл, сўзшакл, композиция, қўшма феъл, кўмакчи феъл.

Аннотация. В данной статье представлены новые взгляды на специфику узбекского глагола. Эти взгляды важны для исследований как теоретического, так и методического характера. Изучение взаимосвязи между валентностью глагола и структурными и семантическими аспектами глагола обогащает эти исследования.

Ключевые слова: глагол, словоформа, композиция, составной глагол, вспомогательный глагол.

Annotation. This article presents new views on the specifics of the Uzbek verb. These views are important for both theoretical and methodological research. Studying the relationship between the valence of the verb and structural and semantic aspects of the verb enriches these studies.

Key words: verb, word form, composition, compound verb, auxiliary verb.

Тилшуносликда сўз шаклининг икки тури – синтетик ва аналитик шакли борлиги тан олинган. Синтетик шакл шакл ясовчи морфема билан, аналитик шакл ёрдамчи сўз, яъни кўмакчи ва кўмакчи феъл билан ҳосил қилиниши таъкидлаб ўтилган. Синтетик шаклнинг моҳияти кенг қамровлидир. Масалан: *қиляпман, қиляпсан, қиляпти* сўзида *қил* феълининг ҳозирги замон ва шахс-сон шакллари ҳисобланади. Лекин *қилиб қўй, қилиб бер, қилиб бериб тур, қилиб бериб тура қол* аналитик феълларнинг *қил* феълининг аналитик шакли бўлиши алоҳида ўрганилмаган.

Феълнинг сўз ўзгартириш тизими, бошқа сўз туркумларига қараганда, анча бой ва ҳилма-хилдир. У нафақат агглютинатив тилларга хос бўлган синтетик усулга эга, балки аналитик усулга ҳам эгадир.

Қўшма сўзларнинг ясалиши тилда сўз ясалишининг энг қадимий бир усули бўлиб, у маҳсулдорлик жиҳатидан аффиксациядан кейин иккинчин ўринда туради ва луғат бойлигини бойитишда муҳим рол ўйнайди. Негиз ва аффиксдан ташкил топган сўзларнинг ясалиши аффиксация дейилгани каби, бирдан ортиқ негиздан тузилган сўзларнинг ясалиш усули ҳам муайян бир термин билан аталиши лозим. Туркологияда бу усул синтактик, сўз қўшиш, негиз қўшиш, композиция усули, аналитик усул каби турли терминлар билан аталиб келинади. Бу терминларнинг кўпи қўшма сўзларнинг ясалиш йўлларини тўла қамраб оломаслиги, уларни қўшма сўз ясалишига нисбатан қўллаш тўғри бўлмаслиги кўпгина тилшунос олимлар томонидан айтиб ўтилган. Бу ўринда Азим Ҳожиевнинг “ўзак-негиз” қўшиш йўли билан сўз ясалишини композиция усули деб аташи маъқул(6,7). Жаҳон тилшунослигида қўшма сўзларнинг “композита” деб аталиши ҳам бу фикрнинг тўғрилигини кўрсатади.

Шуни айтиш лозимки, қўшма сўзлар шу тилда пайдо бўлиш йўллари жиҳатидан ўзаро фарқ қилади. Уларнинг бир қисми шу тилда мавжуд бўлган сўз бирикмаларидан келиб чиқади. Бир қисми шу тилда мавжуд бўлган қўшма сўзлар қолипида – аналогия йўли билан ясалади. Яна бир қисми эса бошқа тиллардан қабул қилинади.

Сўз бўлмаган тил бирликларининг, жумладан, сўз бирикмаларининг сўзга айланиши лексикализация дейилади. Сўз бирикмалари бир неча хил йўл билан, масалан, ихчамлашув, терминлашув, аналитик усул, хусусий лексикализация, грамматизация, аффиксация йўллари билан сўзга айланади.

Қўшма сўзлар асосан бир бош урғу урғу билан айтилгани учун талаффузда бўғин миқдори тенг бўлган содда сўзларга ўхшаб кетади. Азим Ҳожиев таъбири билан айтганда, “қўшма сўз бирдан ортиқ негиздан ташкил топади. Содда сўзларда эса негиз битта бўлади”(5,11). Қўшма сўз билан содда сўзнинг фарқи бу қадар аниқ бўлишига қарамасдан, айрим асарларда уларни қориштириш ёки фарқламаслик ҳоллари учраб туради.

Қўшма сўзлар билан содда сўзларни фарқлашдаги энг кўп чалкашлик, ноаниқлик, бир компоненти ҳозирги ўзбек тилида мустақил ишлатилмайдиган, аммо шу тил тариида ишлатилагн ва бошқа тилларда ишлатиладиган сўзлар мисолида кўзга ташланади. Баъзи аффиксоидлар ўзи мансуб бўлган сўздан, яъни аслидан шаклан фарқ қилмайди, аммо у билан семантик алоқаси узилган бўлади.

Масалан, *уй қилаётган* феълининг сўнгги қисми ётмоқ феълидан бўлиб, шу шаклда у сўз мустақил қўллана олади. *Пахта уюмида ётган бола* каби. Бироқ бу *қилаётган* сўзи таркибидаги шакли (-ётган) сифатдош ясовчи аффикс вазифасида бўлиб, у энди *ётмоқ* феълининг лексик маъноси билан боғланмайди: *сабр қилаётган аёл, овқат қилаётган қиз* каби. *Қилаётибди, қилаётир* каби феъл формалари таркибидаги -ётиб, -ётир элементлари ҳам ҳудди шу типдаги аффиксоидлардир(3,83).

Ўзбек тилшунослигида сўз шаклининг икки тури, яъни морфемалар билан ҳосил бўладиган синтетик шакли ва кўмакчилар ҳамда кўмакчи феъллар билан ҳосил қилинадиган аналитик шакли борлигини тан олинган. Лекин синтетик шаклнинг морфема(аффикса) билан, аналитикк шаклнинг кўмакчи ва кўмакчи феъл билан ҳосил бўлишинини қайд этишнинг ўзи улардан ҳар бирининг моҳияти ҳақида аниқ тасаввур бермайди. Шу боис, кўмакчи феъллар билан ҳосил қилинадиган аналитик феъллар ҳақида фикр юритишдан аввал шундай тил бирликларини ҳосил қилувчи кўмакчи феълларнинг шакл ясовчи морфемалардан фарқли хусусиятларини аниқлаб олишга тўғри келади. Қолаверса, ўзбек тилшунослигида бу масала юзасидан фикр-мулоҳазалар мавжудки, уларга ҳам, қисқа тарзада бўлса-да, муносабат билдирилиб ўтиш керак.

Маълумки, адабиётларда морфемаларнинг луғавий маънога эга бўлмаган, сўз ясаш ёки сўз шаклини ясаш учун хизмат қиладиган тил бирлиги экани қайд этилган.

Қўшма сўз, яъни қўшма феъл деганда, семантик жиҳатдан яхлитланган янги маъноли янги лексик бирлик тушунилади(1,13-14).

Феълларнинг аналитик формаси билан қўшма феълларнинг бир-биридан фарқи шундаки, феълларнинг аналитик формаларида кўмакчи қисмни ташлаш билан шу лексик маъно сақланаверади.

Масалан, *озод қилмоқ, овқат қилмоқ, сабр қилмоқ, боғ қилмоқ* каби бирикувларида лексик маъно *озод ва қилмоқ, овқат ва қилмоқ, боғ ва қилмоқ* сўзларининг ҳар иккисидан биргаликда англашилса, *сотиб қўймоқ, ташлаб юбормоқ, ўртаниб кетмоқ, йиқила бермоқ* типидаги бирикувларда, иккинчи компонент ташлаб юборилса ҳам, биринчи компонентдан айни шу лексик маъно англашилаверади.

Ўзбек тилида, хусусан, туркологияда аналитик феъллар ҳақида тўғрисида жуда кўп илмий ишлар, махсус конференциялар бўлиб ўтган ва бўлиб ўтмоқда. Феъл туркумига оид ишларда, қўлланма ва дарсликларда берилган маълумотлардан ташқари шу мавзуга бевосита ёки билвосита алоқадор бўлган илмий мақолалар, турли ҳажмдаги рисола ва монографиялар эълон қилинди. Бироқ мавзуга оид энг асосий масалалар юзасидан шу вақтга қадар бир фикрга келингани йўқ. Бунинг энг асосий сабабларидан бири шуки, ўзбек тилшунослигида кўмакчи феъллар ёрдамида ҳосил бўла оладиган аналитик феъллар борлиги, яъни тил қурилишининг шундай бирлиги тан олинган ҳолда, амалда шу тил бирликлари эмас, балки уларни ҳосил қилувчи тил бирликлари, хусусан, кўмакчи феъллар ўрганиб келинди ҳамда шундай ҳолат ҳозир ҳам давом этиб келмоқда. Табиийки, бу тарзда иш олиб бориш билан аналитик феъллар мавзусига оид муаммоларни ҳал этиб бўлмайди. Демак, асосий, биринчи навбатдаги вазифа аналитик феълларнинг ўрганишнинг йўл-йўриғини белгилаб беришдан иборат. Бу аналитик феъллар ва улар билан боғлиқ тил ҳодисаларининг моҳиятини тўғри ва тўла ёритиш имконини беради(7,3-9). Аналитик феълларга нисбатан, аналитик шакл, аналитик форма, аналитик конструкция, аналитик феъл, қўшма феъл каби терминлар қўлланилиб келинмоқда. Шунинг ўзиёқ бу тил бирлигининг моҳияти ҳақида аниқ ва тўғри тасаввур йўқлигини билдиради. Кўмакчи феъллар луғавий маънога эга бўлмаслиги, мустақил қўлланмаслиги билан ёрдамчи сўзлар сирасига киради ва мустақил феъллардан фарқланади. Моҳиятига кўра, кўмакчи феъллар ясовчи, яъни ҳосил қилувчи бирлик ҳисобланади. Унинг маъноси ва бошқа хусусияти ўзи ҳосил қиладиган ясама бирлик, яъни аналитик феъл таркибида воқеланади. Шу боис мустақил тил бирлиги сифатида кўмакчи феъллар эмас, улар ёрдамида ҳосил бўладиган аналитик феъллар ўрганилиши керак бўлади.

Ўзбек тили аналитик феъллари бўйича олиб борилган кузатишлардан маълум бўлмоқдаки, бу мавзуни ёритишда қуйидагилар эътиборга олиниши лозим:

1. Аналитик феъллаарни ясама яъни ҳосила бирлик сифтатида тадқиқ этиш.
2. Ҳосила бирлик сифатида уларнинг таркибий қисмларга бўлиниши;
3. бир етакчи ва бир кўмакчи феълдан таркиб топган аналитик феъллар: *хамир қилиб чиқди, уй қилиб олди*;
4. кўмакчи қисмида бирдан ортиқ кўмакчи феъл бўлган аналитик феъллар: *чиройли қилиб бера қол, вазифани қилиб бериб тура қол.*
5. Ясама бирликларнинг моҳияти таркибий қисмлари моҳияти асосида юзага келиши.
6. Бу жиҳатдан аналитик феълларга хос фарқли хусусиятлар, яъни моҳияти таркибий қисмларга хос моҳият асосида юзага келадиган ҳамда бундай хусусиятга эга бўлмаган аналитик феълларнинг мавжудлиги ва бунинг сабаблари.
7. Аналитик феълнинг моҳияти, яъни унга хос маънонинг моҳияти грамматик ва бошқа турдаги маъно бўлиш масаласи.
8. Аналитик феълнинг парадигмага муносабату яъни категориял шакл бўлиш ва бўлмаслиги.
9. Моҳиятига кўра аналитик феълларнинг қандай тил бирлиги бўлишини белгилаш.

Келтирилган энг асосий вазифаларнинг ўзиданоқ маълум бўляпдики, шу тарзда иш олиб борилгандагина, ўзбек тилининг кўмакчи феълларигина эмас, балки улар ёрдамида ҳосил бўладиган тил бирлиги – аналитик феъллар ўрганилган бўлади. Бу билан шу тил бирлигининг ва у билан боғлиқ тил ҳодисаларининг моҳиятини тўла ва тўғри ёритиш имконини туғдиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки – Тошкент, 1970
2. Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент: Фан, 1975
3. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976
4. Ғуломов А.Ғ., Асқарова М. А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент:Ўрта ва олий мактаб, 1961.
5. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент, 1963.
6. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973
7. Ҳожиев А. Ўзбек тилида аналитик феълларнинг моҳияти.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. 3-сон

MAMLAKAT TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING EGALLAYOTGAN O‘RNI

Nargiza Kaxramonovna Qaytarova
Toshkent shahar Sergeli tumanidagi
6-DIUO‘T maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola raqamli asrda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasining o‘zgarishi, qo‘lga kiritadigan yutuqlari va ega bo‘ladigan tajribalari haqida fikr-mulohaza yuritadi. Bundan tashqari, ta’limni raqamlashtirish masalasini zamonaning global tendensiyasi sifatida ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘z va iboralar: raqamli iqtisodiyot, ta’lim, raqamlashtirish tendensiyalari, raqamli avlod.

Hozirgi rivjlanishlarga va innovatsiyalarga boy asrda jahonning ko‘pgina mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni takomil etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardosh bo‘lishiga va yanada yuksalishiga xizmat qilishida eng muhim sanaluvchi omillar sirasidan deya ta’kidlanmoqda.

Dunyohamjamiyatidan ortda qolmagan tarzda faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi mamlakatni rivojlantirishning eng muhim hamda ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning yaqqol timsoli sifatida 05.10.2020 yildagi PF-6079-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini keltirib o‘tish mumkin. Ushbu Farmonda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani haqida mulohazalar o‘z aksini topadi. Yana ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish haqida ham alohida ta’kidlab o’tilgandir.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirishga e’tibor qaratish muhim vazifalardan ekanligi ham ta’kidlangan.

Qayd etish joizki, xalqaro amaliyotda “raqamli iqtisodiyot” tushunchasini ta’riflashga yagona yondashuv mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi sifatida ko‘rib chiqish taklif etiladi.

Shunday qilib, ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq o‘zgarishlar jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa, jumladan, ta’lim sohasini raqamli o‘zgartirish jarayonlariga olib keladi. Zamonaviy dunyo uchun ta’limni raqamlashtirish global tendentsiyadir deya e’tirof etish mumkin.

Rivojlanishlar va yuksalishlar sari ildam qadam tashlayotgan mamlakatimiz uchun ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi ta’lim jarayoni sifatini oshirish va shaxsiylashtirilgan ta’limga o‘tish uchun eng yangi axborot texnologiyalarini samarali va moslashuvchan qo‘llash lozim ekanligini, shu jumladan, ta’limning raqamli transformatsiyasining mohiyatan zarur ta’lim natijalariga erishish va raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishga o‘tishdan iboratligini ko‘rsatadi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, ta’limning raqamli transformatsiyasiga ta’sir etuvchi muhim omil bu ta’lim oluvchilarning o‘zlaridagi o‘zgarishlardir. Tadqiqotchilarning fikricha, ta’limning raqamli transformatsiyasi endi ta’lim jarayoni tashkilotchilari tashabbusi bilan emas, balki internet asrida tug‘ilgan «raqamli avlod»ini o‘rgatish zarurati bilan bog‘liq. Maktab o‘qituvchilar ham, universitet o‘qituvchilari ham buni hisobga olishga va raqamli maktab o‘quvchilari va raqamli talabalarga moslashishga majburdirlar.

Shu bilan birga, oqilona raqamlashtirish tamoyiliga amal qilish, ya’ni raqamli texnologiyalarni, birinchi navbatda, o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynashini hisobga olgan holda, ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish vositasi sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Raqamli iqtisodiyot yoki mamlakat ta’lim tizimida raqamli iqtisodiyotning o‘rin egallayotgani haqida fikr-mulohazalar talaygina. Aynan yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xulosa sifatida aytish mumkinki, zamonaviy sharoitda raqamli maktab o‘quvchilari va raqamli talabalar ma’lumotni shunchaki takrorlashdan manfaatdor bo‘lolmaydilar, shuning uchun o‘qituvchi o‘rganishga va shaxsiy yondashuvga e’tibor qaratishi darkor hamda ta’lim muassasasi talaba va o‘quvchilarning individual ta’lim trayektoriyalarini rivojlantirishga diqqat qaratilgan bo‘lishi kerak.

Tavsiya etiladigan internet resurlari:

1. *https://lex.uz/*

2. https://uzdon.uz/news/info

СОСТОЯНИЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ЗАСУХ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Мухтор Собиров
Государственный комитет Республики Узбекистан
по экологии и охране окружающей среды

Оценка климатических изменений условий засушливости основывается на данных специализированных наблюдений, которые проводились в Центральной Азии на всей территории в разных природных зонах в течение нескольких десятилетий. К таким наблюдениям относятся как наблюдения за влажностью почвы, являющейся ключевой характеристикой в определении условий засушливости, так и другие наблюдения, дающие возможность мониторинга процессов тепло-и влагообмена в приповерхностном слое, в частности, наблюдения за испарением с поверхности почвы и водной поверхности.

Традиционно в регионе за мониторинг засух отвечают Национальные Гидрометслужбы13 . Начиная с 1991 года состояние государственной гидрометеорологической сети наблюдений было неоднозначным. В начале этого периода произошло резкое сокращение государственного финансирования гидрометеорологических служб в Кыргызстане, Казахстане и Таджикистане, в лучшем положении оказались Туркменистан и Узбекистан, практически полностью сохранившие свою гидрометеорологическую сеть наблюдений. В настоящее время ситуация улучшается, сеть наблюдений восстанавливается как при участии государства, так и на основе помощи международных организаций.

Несмотря на то, что национальным Гидрометслужбам удалось в целом сохранить высоко квалифицированный персонал, занимавшийся обработкой данных сети, постов наблюдения и подготовкой прогнозов погоды и речного стока, сеть наблюдения не обеспечивала достаточно точных данных для надежной оценки экстремальных погодных условий и их воздействия, в результате чего ухудшилось качество прогнозирования.

С обретением независимости необходимо было заново организовывать сотрудничество между национальными Гидрометслужбами и решать проблемы на национальном уровне, а также развивать кооперацию с национальными министерствами и международными организациями.

Особо резкому сокращению в регионе подверглась агрометеорологическая сеть, что повысило уязвимость секторов хозяйства к сельскохозяйственной засухе. В Центральной Азии, где сельское хозяйство является источником занятости для большой части населения и составляет значительную долю в экономике, важную роль играют относительно точные долгосрочные прогнозы, которые невозможны без систематизированной базы данных для прогнозирования взаимосвязи урожая и погоды, а также научных исследований влияния погоды на сельскохозяйственные культуры и их конечный урожай.

К примеру, в проекте “Комплексное управление природными ресурсами в подверженных засухе и засоленных сельскохозяйственных производственных ландшафтах Центральной Азии и Турции (ИСЦАУЗР-2)» в области управления рисками засухи в сельском хозяйстве Кыргызстана выявлены следующие проблемы:

- Модернизация сети наблюдений Кыргызгидромета недостаточно охватывает агрометеорологические станции;
- Агрометеорологическое оборудование физически устарело и требует срочного обновления;
- Техническое состояние сети агрометеорологических наблюдений приводит к нарушению выхода агрометеорологической продукции;
- На 20 метеорологических станциях и 10 агрометеорологических постах, входящих в агрометеорологическую сеть Кыргызгидромета, ощущается острая нехватка приборов для определения влажности, промерзания и оттаивания почвы;
- Отсутствуют агрометеорологические наблюдения и программное обеспечение для прогнозирования почвенной и атмосферной засухи, сухого ветра, града, гололеда;
- Низкий уровень подготовки специалистов агрометеорологии.

Аналогичные проблемы можно отметить и в других странах Центральной Азии. В настоящее время возможности информационного обеспечения для изучения проблемы засух в регионе Центральной Азии существенно улучшены. Это стало возможным в результате того, что национальные Гидрометслужбы получили значительную зарубежную помощь.

AMPUSAID, NOAA, Швейцарское агентство по развитию и сотрудничеству, Всемирная метеорологическая организация и Всемирный банк произвели значительные инвестиции в разнообразные меры по модернизации метеорологических и гидрометеорологических систем

наблюдения и обмен данными в Центральной Азии, а также в повышение потенциала работников Гидрометслужб по использованию новых технологий, что позволило на 20-50% повысить точность прогнозов речного стока и на 5-20% точность прогнозов погоды.

Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан и Таджикистан разработали Профили климатических рисков. Весь комплекс предпринятых мер позволил заметно улучшить качество мониторинга и обеспечить условия для развития систем раннего предупреждения засухи в регионе Центральной Азии.

Все страны Центральной Азии являются Сторонами Конвенции ООН по борьбе с опустыниванием (КБО). В соответствии с положениями Конвенции все они подготовили Национальные программы действий (НПД) по борьбе с опустыниванием.

Поскольку опустынивание и засуха являются трансграничными проблемами, поэтому НПД предусматривают совместные действия для борьбы с опустыниванием и засухой. На основе этого было принято решение о разработке Субрегиональной программы действий по борьбе с опустыниванием (СРПД/БО) в контексте КБО.

С учетом положений Конвенции подготовка и осуществление СРПД/БО рассматривается в качестве неотъемлемой части страновых национальных политик в области устойчивого развития. Была признана необходимость того, чтобы рамки субрегионального сотрудничества охватывали не только НПД, но и другие национальные планы действий по улучшению социально-экономической и экологической ситуации.

Кроме этого, необходима взаимосвязь с другими международными конвенциями и соответствующими юридическими соглашениями, а также региональными и/или глобальными программами, связанными с борьбой с опустыниванием и засухой.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЕР РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Абдураҳманова Муқаддас Тохтасиновна
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети, докторанти
muqaddas_01@mail.ru

Аннотация. Замонавий дунёда хар қандай мамлакатнинг мустақиллиги биринчи навбатда озиқ-овқат билан таъминлаш бўйича белгиланади, шунинг учун ҳам ресурсларни кўпайтириш муоммоси давлат сиёсатининг муҳим бўғинидир. Аграр соҳа олдида турган вазифаларни бажариш учун аграр соҳани ва улар билан боғлиқ бўлган саноат тармоқлари, хизмат кўрсатиш

ҳамда инфратузилма соҳаларини хорижий давлатлар тажрибаси асосида ҳар томонлама ривожлантириш зарурдир.

Калит сўзлар. Қишлоқ хўжалиги, ер ресурслари, иқтисодий муносабатлар, аграр соҳада самарадорлик, ишлаб чиқариш, назарий қарашлар.

Иқтисодий муносабатлар ривожланишининг турли босқичларида ер ресурсларидан хўжалик юритишнинг турли шаклларида, айниқса, қишлоқ хўжалигида самарали ва оқилона фойдаланиш илмий-амалий жиҳатдан долзарб аҳамият касб этувчи муаммо сифатида баҳоланиб, замонавий бозор иқтисодиёти шароитида ҳам мазкур муаммо иқтисодий адабиётда ҳали ҳануз ўз ечимини кутаётган масалалар қаторига киради. Иқтисодий нуқтаи назардан, узоқ йиллар мобанида ер ресурсларига анъанавий тарзда инсон ёрдамисиз табиат томонидан етказилган меҳнат предметлари тўплами сифатида қаралган.[1] Шу сабабли ҳам амалий жиҳатдан иқтисодий муносабатлар ривожланишининг турли босқичларида табиий шарт-шароитларнинг маълум бир элементлари, масалан, сув ресурслари, қазилма бойликлар, ўсимликлар кабилардан фойдаланиш ернинг сифати ва тупроқ унумдорлигига бевосита ёки билвосита таъсир кўрсатиб келган, деган хулосага келиш мумкин бўлади.

Ер ресурсларининг тикланиш хусусияти бўйича таҳлил қилинганда, улар чекланган табиий ресурслар қаторига киритилиб, ушбу ҳолат қуйидаги икки сабаб орқали тавсифланади:

- кенглик, ҳудуд, ернинг устки қатлами, қуруқлик билан сув нисбатининг хусусий тарздаги локал ўзгаришларини ҳисобга олмаганда ер ресурслари қайта тикланмайди;

- ер ресурслари турларининг ишлаб чиқариш имкониятлари кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш, яхшилаш, тиклаш учун имкониятлар амалий жиҳатдан чексиздир. [1]

Қишлоқ хўжалигининг иқтисодиётнинг бошқа тармоқларидан фарқли жиҳатларидан бири бу ушбу соҳада маҳсулот ишлаб чиқариш самарадорлиги ер ресурсларининг ҳолати ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқлигидадир. Иқтисодий адабиётда узоқ йиллар мобайнида иқтисодиётнинг турли тармоқлари, жумладан, қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишга бағишланган илмий қарашлар шаклланиб келмоқда. Таниқли иқтисодчи олим К. Маркс ўзининг «Капитал» номли асарида ер ресурсларига қуйидагича таъриф беради: «ер ресурслари иқтисодиётнинг турли тармоқларида ишлаб чиқариш фаолиятини ташкил этиш ва ёлланма ишчиларни жойлаштириш имконини беради» [8].

Иқтисодчи олим томонидан ер ресурсларига нисбатан берилган таърифга асосланган ҳолда, ер ресурслари нафақат қишлоқ хўжалиги, балки иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари фаолиятини самарали ташкил этилишида ҳам муҳим аҳамият касб этади, деган хулосага келиш мумкин бўлади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, олим яшаган даврда аксарият мамлакатлар иқтисодиётида қишлоқ хўжалиги муҳим аҳамият касб этганлигини инобатга олган ҳолда, қишлоқ хўжалиги самарадорлигини таъминлашда ер ресурсларидан оқилона ва самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этиши аниқ баён этилганлигини олим томонидан ер ресурсларига берилган таърифда кўришимиз мумкин бўлади.

Классик иқтисодий мактаб намоёндаларидан бири, А. Смит ўз илмий тадқиқотларида ишлаб чиқаришнинг устувор ҳисобланган ер, меҳнат ва капитал омилларини ажратиб кўрсатади.[5] Ушбу ҳолат жаҳон мамлакатларида капиталистик муносабатларнинг шаклланиш даврининг илк босқичларида ҳам ер ресурсларидан самарали фойдаланиш долзарб илмий-амалий аҳамият касб этганлигидан далолат беради.

XX асрнинг ўрталарига келиб, К. Маркс[6], А. Смит[7], Д. Рикардо[12] каби иқтисодчи олимларнинг ер ресурслари ва улардан самарали фойдаланиш йўналишлари бўйича амалга оширган тадқиқотларига таянган ҳолда, С.А. Удачин[15] томонидан ер ресурсларининг ишлаб чиқариш омили сифатидаги функциялари ишлаб чиқилди. Олим ўз тадқиқотларида ер ресурсларининг ишлаб чиқариш воситаси сифатидаги вазифалари, унинг мамлакат иқтисодиётининг турли тармоқлари учун аҳамияти, ер ресурсларининг бошқа ишлаб чиқариш воситаларидан фарқли жиҳатларини инобатга олган ҳолда ер ресурсларидан фойдаланишнинг иқтисодий моҳиятини ёритишга харакат қилади. Олим тадқиқотлари натижалари бугунги кунга қадар жаҳон мамлакатларида ер тузиш ва ундан фойдаланиш борасида амалга ошириладиган чора-тадбирларда мунтазам қўлланиб келинмоқда.

Хорижлик иқтисодчи олимлардан яна бири Е.А. Захарова ўз илмий тадқиқотларида бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалиги мамлакатлар иқтисодиётида муҳим стратегик аҳамият касб этувчи тармоқлар қаторидан ўрин эгаллашини таъкидлаган ҳолда, ушбу соҳа табиий омилларнинг таъсири, ер ресурсларининг ҳолати ва уларнинг маҳсулотлар ишлаб чиқаришга бевосита таъсирини баҳолайди.[7] Шунга ўхшаш тадқиқотлар Н.Г. Овчинникова томонидан ҳам амалга оширилган бўлиб, унинг фикрича, қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан нооқилона фойдаланиш қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмига

салбий таъсир кўрсатиши билан биргаликда, иқтисодий субъектларнинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича харажатларини асоссиз равишда ортиб кетишига олиб келади.[10]

Умуман олганда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришни ташкил этишнинг ресурс салоҳиятини таҳлил қилишда қишлоқ хўжалиги жойлашган майдон, яъни унда фойдаланилаётган ер ресурслари ҳажми, меҳнат ресурслари сони, моддий ва техник ресурсларга эътибор қаратилади. Ушбу ҳолат юқоридаги Е.А. Захарова ва Н.Г. Овчинниковалар томонидан амалга оширилган тадқиқотларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришда турли мамлакатлар, минтақалар, ҳудудларда тенологик жиҳатдан мувозанатлашмаган ресурсларга эгалик қилиш билан биргаликда, ер ресурсларининг хусусиятлари турлича эканлиги инобатга олинмаганлигидан далолат беради.

О.Н. Долматова [5] томонидан замонавий бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмига таъсир кўрсатувчи омилларнинг ўзаро таъсири таҳлил этилган бўлиб, олим ер, меҳнат ресурслари ва ишлаб чиқариш воситалари каби омиллар ўртасидаги ўзаро комбинациялашган алоқадорликни ишлаб чиқади. Бунда олима қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёни билан бевосита боғлиқ бўлган омилларга эътиборни қаратади.

Махаллий иқтисодчи олимлардан Б.Ф. Султонов фикрича, қишлоқ хўжалигида ердан самарали фойдаланиш концепцияси ердан самарали фойдаланиш ташкилий-иқтисодий механизмини шакллантиришнинг иқтисодий, экологик ва ижтимоий масалаларини ягона тизим сифатидаги таркибий жиҳатларини ўз ичига олади. Шу билан биргаликда, қишлоқ хўжалигининг ўзига хос хусусиятлари унда ижтимоий меҳнат тақсимотининг бошқа тармоқларга нисбатан ўзгача намойн бўлишида, деб ҳисоблайди. Олим қишлоқ хўжалигида ер, ишлаб чиқариш воситалари ва ишчи кучилан оқилона фойдаланиш дехқончилик ва чорвачилик тармоқларини уйғун ҳолда ривожлантиришни объектив заруриятга айлантиради, деган фикрни илгари суради. [17]

Шунингдек, иқтисодчи олим Ҳ.П. Абулқосимов қишлоқ хўжалигида энг юқори унумдорликка эришиш имконини берувчи ер ресурси сифатида – суғориладиган ерларни ажратиб кўрсатади. Унинг фикрича, суғориладиган ерлар – қишлоқ хўжалигида фойдаланиш ва суғориш учун яроқли бўлган, сув ресурслари ерларни суғоришни таъминлай оладиган суғориш манбаи билан боғланган доимий муваққат суғориш тармоғига эга бўлган ерлар ҳисобланади. Шу билан биргаликда, олим қишлоқ хўжалигида ер

ресурсларидан самарали фойдаланишнинг бош стратегияси ер ресурслари ҳолатини ўрганиш, уларнинг миқдори ва сифатини белгилаш, деб ҳисоблайди. Олим томонидан амалга оширилган тадқиқотларда қишлоқ хўжалигида суғориладиган экин майдонларининг камайиши бораётганлиги қаровсиз, экин экилмаган ер майдонлари улушининг ўсиб бориши, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳосилдорлигини янада ошириш, хўжалик субъектлари фаолияти рентабеллигини ошириш зарурияти муҳим иқтисодий ресурс (омил) бўлган ер ресурсларидан самарали фойдаланишни тақозо этади, деган хулосага келади.[2]

Махаллий иқтисодчилардан яна бири А.Б. Пренов томонидан қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишда қишлоқ хўжалигида фойдаланилаётган ер майдонларининг сув таъминотига эътибор қаратилади. Унинг фикрича, қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланиш тизимини яратишда, аввало сув таъминоти даражасини ҳисобга олган ҳолдамуълум маъмурий ҳудудлар доирасида экинлар экиш таркибини такомиллаштириш зарур.[11]

Шу ўринда эътиборни махаллий иқтисодчи олим Ў.Б. Мухторовнинг илмий тадқиқотлари натижаларига қаратиш мақсадга мувофиқ. Унинг фикрича, «Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини бу – экин майдонларидан юқори самара олиш, улардан мақсадли фойдаланиш, ердан фойдаланишнинг оптимал ўлчамларини аниқлаш, экологик талаблардан келиб чиққан ҳолда тупроқ унумдорлигини тиклаш, сақлаш ва ошириш орқали тармоқда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришни таъминлашга қаратилган тадбирлар мажмуининг таркибий қисми ҳисобланади»[22] Олим ўз илмий тадқиқотларида қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишда ернинг ишлаб чиқариш воситаси сифатидаги хусусиятларини 2-жадвалда келтирилган тартибда ажратиб кўрсатади.

Таҳлилларга кўра, қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланиш бугунги кунда иқтисодий адабиётда ҳали ҳануз ўз ечимини кутаётган муаммолар қаторидан ўрин эгаллайди. Фикримизча, қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишнинг илмий назарияларида умумий ҳолда тупроқ унумдорлигидан келиб чиққан ҳолда ер ресурсларидан фойдаланиш зарур, деган ғоя илгари сурилган. Ушбу ҳолат тупроқ унумдорлиги тушунчасининг моҳиятини тушуниб етиш заруриятини вужудга келтиради.

Тупроқ унумдорлиги бу нисбий тушунча бўлиб, унумдорлик нафақат тупроқ билан боғлиқ хусусиятлар, балки қишлоқ хўжалигида экиладиган

экинларнинг турларига ҳам узвий боғлиқ ҳисобланади. Масалан, маълум бир турдаги тупроқ айрим қишлоқ хўжалиги экинлари учун унумдор ҳисобланса, бошқа турдаги экинлар учун унумли бўлмаслиги мумкин. Ушбу ҳолат қишлоқ хўжалиги экинларидан улар экиладиган тупроқ хусусиятларига бўлган талаби турли хил эканлиги билан изоҳланади.[4]

Шу билан биргаликда, қишлоқ хўжалигида ерлардан самарали фойдаланиш қуйидаги талабларга мос келиши зарур:

1. Ер майдонидаги тупроқ ҳосилдорлиги кўрсаткичига салбий таъсир кўрсатмаслиги;

2. Ҳар бир гектардан олинаётган ҳосил кўрсаткичи йилдан йилга пасайиб кетмаслиги;

3. Ер майдонларига экинларни экиш ернинг техник кўрсаткичларини ёмонлашувига олиб келмаслиги;

4. Мунтазам равишда ер ресурсларининг техник кўрсаткичларини яхшилашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириб борилиши;

5. Вақти-вақти билан ерларга экин экишдан дам бериш ва ҳ.к.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Авазбаев С., Шарипов С.Р. Ер тузишнинг назарий асослари: Ўқув қўлланма. Т.: ТИҚХММИ – 2020. – б. 13 (171 бет).
2. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ерларидан унумли фойдаланиш масалалари. Иқтисод ва молия илмий журнали. № 9. 2015. 10-16 бетлар.
3. Алтиев А. Ер ресурсларидан фойдаланиш тизимини тартибга солишнинг механизмларини такомиллаштириш. дисс. и.ф.д. 2017. – 238 б.
4. Долматова О.Н. Значение земельных ресурсов в системе современного рыночного сельскохозяйственного производства. / О.Н. Долматова // Вестник Омского ГАУ, 2017 – № 3 (27). – с. 197-206. маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
5. Dunstan Gabriel Msuya. Farming systems and crop-livestock land use consensus // Open Journal of Ecology. Vol. 3. № 7 (2013), 9 p.
6. Захарова Е.А. АПК, господдержка и эффект мультипликации / Е.А. Захарова // Российское предпринимательство. – М.: Креативная экономика, 2012. - № 4 (2). – с. 121-125.
7. Мухторов Ў.Б. Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишни рағбатлантириш механизмларини такомиллаштириш. Иқт. фан. б-ча фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. Тошкент – 2021. 52 б. маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

8. Овчинникова Н.Г.Формирование механизма обоснования устойчивого землепользования / Г.Н. Овчинникова // Эконом. вестн. Ростовского государственного университета, 2009. – Т. 2. - № 2. – с. 41-44
9. Пренов А.Б. Ер-сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг ташкилий-иқтисодий асослари. Иқтисод ва молия илмий журнали. № 6. 2014. 37-42 бетлар.
10. Рикардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения / Д. Рикардо // Антология экономической классики. – М.: Эконов, 1993. – Т. 1. – с. 397-473.
11. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит // Антология экономической классики. – М.: Эконов, 1993. – Т. 1. – с. 79-396.
12. Султанов Б.Ф., Сайитмуродова Н.Б. Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишнинг ижтимоий аҳамияти. “O‘zbekiston zamini” илмий-амалий ва инновацион журнал. № 3. 2020. 20-22-бетлар.

TRANSLATION PROBLEMS IN THE FIELD OF TOURISM

Madina Azizova Bakhromjon qizi
master of the University of World Economy and Diplomacy

Tourists are also increasingly demanding when searching for information - preferably trustworthy and in their own language – driven by access to new technologies and widely available machine translation options on the internet. The great diversity of languages and this importance given to personalized translation has driven the market of content localization for tourists, which is still a relatively new challenge for the tourist business. Translation thus has a very important role to play in the development of international tourism and its growth in the economy of each country.

Tourism is one of the important economic sectors and a fast growing industry that brings in huge revenues to a country. This sphere of the society is defined as activities that involve long or short journeys and temporary stays of the trip by which the aim is for the leisure and recreational purposes .The work of translators is therefore fundamental for airports, hotels, restaurants, museums, tourist guides or tour operators, seeking the best way to communicate their services and meet the needs of tourists. Although English is, to a certain extent, a global language that facilitates interaction around the world - and possibly the most used in tourism

translation, it is not always sufficient to cover possible communication failures between speakers of different languages.

The large number of tourism terms is continually coined, increasing scientific interest in the questions of translating tourist terminology into different languages including English, Russian and Uzbek. Tourism and language are connected with each other. When it comes to the notion of tourism, it is being given a special attention in each country in the world. All in all, the current research paper has considered peculiarities of English terminology of tourism as well as methods and strategies of translating tourism terms from English into Uzbek languages. Besides that, a particular attention has been given to features of neologisms in new types of tourism sector.

Terminology in tourism, methods and challenges in their translation play an important role in the modern linguistics and tourism industry. The current topic is considered to be an object of various scientific researches by different professionals. The task of translation is to provide equivalence of original texts with their translation. While translating special and general tourist texts the following factors should be considered: organization, structure, key words, and main information. As it was mentioned above it is not practically possible to deliver the full content of the original version due to the fact that languages carry distinctive characteristics including system, organization, conceptions and others.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯ

Раупов Ж.Р.
ТГЭУ, старший преподаватель

Меняется мир, подходы, вкусы и предпочтения людей. Пандемия заставила граждан посмотреть на защиту здоровья другим взглядом. В связи с этим как и многие другие отрасли экономики, сфера медицинского страхования во многих зарубежных странах подверглась цифровой трансформации. Какие технологий оказались оптимальны и максимально эффективны? Что показывает опыт цифровой трансформации медицинского страхования в зарубежных странах?

Медицинское страхование - форма социальной защиты интересов населения в охране здоровья, выражающаяся в гарантии оплаты медицинской помощи при возникновении страхового случая за счёт накопленных страховщиком средств. Разделяют два вида медицинского страхования — обязательное (государственное) и добровольное.

Во многих странах мира сфера страхования претерпела цифровую

трансформацию. Изменились подходы, внедрены современные информационные технологий и цифровые решения. Например в Великобритании основная роль в формировании цифрового страхования в стране отведено государству. Правительство оказывает весомую поддержку предпринимательству, акселераторам, стартапам. Особый акцент сделан на развитие исследований и инноваций. Много лет подряд финансируются и реализовываются программы и проекты по внедрению технологии Интернет вещей, интеллектуальной инфраструктуры (смарт города, транспорт, энергосистемы), больших данных.

В процессе цифровой трансформации было много сложностей связанных с навыками работы работников, персональными данными, с их анализом, применением, обработкой и хранением. Остро стоял вопрос не хватки ИТ специалистов, а также персонала, обладающего необходимыми знаниями и навыками для работы в совершенно новых условиях и современными технологиями. В ускоренном решение данных вопросов большую роль сыграло государственно-частное партнерство органов власти на местах, ИТ компаний, других бизнес субъектов и организаций. Все они объединились и создали условия, а также возможности гражданам для обучения, переобучения и обретения необходимых навыков и компетенций.

Приведем примеры из зарубежного опыта. В Британии компания Microsoft реализовала программу по обучению 30 тысяч служащих государственного сектора, а также Инициативу по обретению навыков работы с облачными технологиями, в результате было обучено 500 тысяч человек. Компания O2 посредством своей платформы GoThinkBig повысила знания и навыки молодежи. Компания Lloyds Banking Group в рамках программы Helping Britain Prosper Plan обучила более 2 миллионов человек включая субъектов предпринимательства цифровым навыкам. Компания Cisco в рамках программы Cyber Badge организовала бесплатные интерактивные онлайн-курсы с предоставлением сертификатов для обучения молодежи в возрасте от 16 до 18 лет основам кибербезопасности. Все это создало фундамент для насыщения рынка труда высококвалифицированными специалистами имеющими навыки работы с цифровыми технологиями.

Германия относительно быстро поняла, что экономика страны уже невидит перспектив развития без цифровых технологий. Популярность обрели большие данные, искусственный интеллект, интернет вещей, облачные вычисления, блокчейн и роботизация бизнес-процессов. Практика показала, что большие данные значительно улучшают качество страхового продукта и процесс оценки рисков. В результате улучшается точность оценки

и андеррайтинга. Применение больших данных вместе с аналитикой позволит страховщикам более точно определить и выявить мошеннические схемы.

По мнению немецких экспертов искусственный интеллект помогает страховщикам из большого объема данных о клиенте определить наиболее оптимальное, а также распознавать лица клиентов, выявлять фальсификат и другие факты мошенничества. Обработка больших данных с помощью искусственного интеллекта позволит на много снизить расходы и транзакционные издержки. Технология интернет вещей повышает уровень взаимодействия с клиентами, помогает детально изучить и анализировать поведение клиента, что в свою очередь дает возможность страховым компаниям расширить линейку страховых продуктов.

В Сингапуре клиенты в течении многих лет сталкивались со сложным процессом подачи претензий страховщику, приходилось долго ждать. Чтобы подать претензию приходилось заполнять много различных документов, а также требовался визит к страховщику, и сам процесс был длительным и часто приводил к задержке выплат. Внедрение технологии в бизнес-процессы страховых компаний помогли улучшить внутренние процессы и повысить качество обслуживания. В 2018 году компания FWD Hong Kong совместно с 7-Eleven осуществила полную интеграцию процесса подачи, утверждения и выплаты претензий через мобильное приложение. После этого появилась возможность обрабатывать запросы клиентов в течение 30 минут, положительный ответ на запрос, является основание для получения выплаты в магазинах 7-Eleven или зачислением на банковские счета и пластиковые карты.

Регулирующие органы оказывают поддержку страховщикам и страховым компаниям в тестировании новых инноваций и продуктов. Созданные несколько лет назад нормативные песочницы Fintech позволили тестировать инновационные идеи и проекты продуктов в окружающей среде. Потребители страховых медицинских услуг в цифровом форме уверены в защите их интересов со стороны страховщиков. С этой целью было выпущено руководство по использованию искусственного интеллекта и аналитики данных (AIDA) в сфере финансовых услугах. Принципами являются справедливость, этичность, подотчетность и прозрачность.

Объединенные арабские эмираты в течении многих лет занимаются развитием в стране дистанционной диагностики и консультирования пациентов. Компания Quanterium Blockchain Solutions, одна из первых в Эмиратах предложила использовать искусственный интеллект, большие

данные, платформенные решения и другие цифровые технологий в сфере медицины и здравоохранении. ОАЭ лидируют среди 20 лучших странах мира по использованию искусственного интеллекта. С 2017 года в стране осуществляет деятельность отдельное ведомство под названием Министерство искусственного интеллекта.

По данным International Data Corporation (IDC) расходы только на ПО для бизнес-аналитики в ОАЭ в 2018 году составили 42,24 млн. долл. США. Ежегодно национальный рынок бизнес-аналитики показал рост в среднем на 5,3% в 2018-2022 годы.

Изучение зарубежного опыта цифровой трансформации медицинского страхования показали, что с современные технологий играют важную роль в развитии медицины и злравоохранения стран в дальнейшей перспективе. Отмечена необходимость внедрения оптимальных технологических решений в каждом конкретном случае. Цифровая трансформация должна осуществляться в соответствии с разработанной методологией. Цифровая трансформация внесет большие изменеия в бизнес-процессах медицинских учреждений, изменятся ценности и подходы к клиентам.

Литература

1. Weske, M. Chapter 1: Introduction // Business Process Management: Concepts, Languages, Architectures. — Springer Science & Business Media, 2012. — P. 1–24. — ISBN 9783642286162. (англ.).
2. Osipov Yu.M., Yudina T.N., Geliskhanov I.Z. Tsifrovaya platforma kak institut epokhi tekhnologicheskogo proryva platformy [Digital platform as an Institute of the era of technological breakthrough of the platform]. Ekonomicheskie strategii, 2018. Vol.5, pp. 22–29.
3. По данным информационной базы Statista. Digital Economy Compass 2020. URL: https://www.statista.com/study/83121/digital-economy-compass/.

МИГРАЦИЯ ЖАРАЁНИ ВА ЭТНО-МАДАНИЙ ТРАНСФОРМАЦИЯ

Худаяров Илхомжон Икромжонович
Наманган Давлат Университети докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада тарихий даврлар мобайнида туркистон ҳудудига кўчиб келиши, ҳалқ ва элатларнинг бирлашиши натижасида анъана ва қадриятларнинг уйғунлашуви, янги этно-маданий қадриятларнинг вужудга келиши ҳамда Марказий Осиё ҳалқларининг Россия империяси томонидан мустамлакага айлантирилиши натижасида озчилик миллат вакилларининг ортганлиги каби маълумотлар ифодаланган.

Калит сўзлари: Этно-маданият, Этнография, Қадрият, Этногенез, Толерантлик, Қўнғирот, Демография.

Марказий Осиёда жойлашган Ўзбекистоннинг географик мавқейи туфайли мамлактимиз шарқ сиёсати тарихининг марказида бўлиб келди, бу эса аҳолининг катта катта гуруҳлари оммавий равишда кўчиб юришига, турли ирқ қабила ва элатларнинг аралашиб кетишига олиб келди. Минтақа ҳудудидаги ҳалқларнинг маълум даврларда бир неча маротабалаб кўчишлари, урф-одатлар, анъаналар ва қадриятларга ўз таъсирини ўтказди ва натижада ҳудудда янги этно-маданий қадриятларнинг вужудга келишига олиб келди, бу эса минтақадаги социал муносабатларни ўрганиш нечоғли долзарб эканлигини кўрсатмоқда.

Ўрта Осиё ҳудудида яшаган ибтидоий одамларнинг қадимги манзилгоҳлари қуйи палеолит даврига тўғри келади. Ўзбекистон ҳудудида қадимдан деҳқончилик ва чорвачилик билан шуғулланиб келган қабиллалар яшаган.

Эрон шоҳи Доро I нинг Беҳистун ёзувларида ҳалқларнинг қадимий аждодлари хоразимликлар, суғийлар, саклар ва бақтрияликлар тўғрисида маълумотлар келтириб ўтган.

Мил.ав. III асрида Сирдарёнинг ўрта оқимида Қанғ давлати ҳукум сурган Амударё ва Сирдарё оралиғи ва унга туташ минтақаларда иқтисодий, сиёсий ва этномаданий алоқаларнинг тобора ривожланиб бориши натижасида туркийзабон этнослар устуворлик қилган, бу эса минтақада ўзига ҳос уйғунлашган маданият вужудга келтирган.

Ўзбек халқининг этногенезига назар ташлайдиган бўлсак унинг навбатдаги этник компонентлари кушонлар ҳамда 4-5 асрларда Ўрта Осиёнинг марказий вилоятларига кўчиб келган Олтий, Жан, Сибир ва Шарқий Туркустондан кириб келган хионий, қидорий ва эфталийлар ҳисобланади. Шунингдек, ўзбеклар этногенезига Ўрта Осиёнинг марказий минтақаларидан (Тошкент воҳаси, Фарғона, Зарафшон, Қашқадарё, Сурхондарё водийлари ва Хоразм) келиб ўтроқлашган туркий этник гуруҳлар ҳам фаол таъсир кўрсатаган. Бу компонетлар ва маҳаллий аҳоли ўртасидаги этно-маданий муносабатларнинг ривожи натижасида янги қатлам маданий ютуқларининг маҳаллий-хўжалик анъаналар билан уйғунлашуви вужўдга келганлигини кўришимиз мумкин.

Маълумки, Ўзбекистон худуди турли маданиятлар, иқтисодий фаол, турли этник гуруҳлар, миллий уруф-одатларни ўзида уйғунлаштирган этнографик минтақа хисобланади. Ушбу этно-маданий уйғунликни шакллантиришда Ўзбекистон халқининг асосий суб-этник қисмларидан бири

бўлган Қўнғиротга хос бўлган хусусиятлар катта аҳамиятга эга. Минтақага кўчиб келган Қўнғирот халқининг кундалик ҳаёти ва маданиятида шкни кўришимиз мумкинки, улардаги меҳмондўстлик, очиқлилик, жасоратлилик, бағрикенглик, ҳаракатчанглик, камсуқумлилик, мусиқа ва рақсга бўлган муҳаббат каби Ўзбекларга хос бўлган ақлий хусусиятларга эга ҳисобланади. Шунингдек, Қўнғирот халқининг хикоячилик мактаби билан бир қаторда, ҳалқ оғзаки ижоди анъаналари (баҳшичилик) санъати ва кураш кенг тарқалган.

Этнолог олим Б.Х.Кармишева 1945 йил Жанубий Ўзбекистон ва Тожикистон ҳудудида олиб борган тадқиқотлари давомида минтақада яшовчи аҳолининг этногенези ва этник-маданияти тўғрисидаги катта маълумотларни қолдирган. Шу билан бир қаторда мустақиллик йилларида ўзбек этногенези ва этно-маданияти бўйича бир қатор олимлар ва тадқиқотчилар томонидан илмий тадқиқотлар ва изланишлар олиб борилган. Жумладан, Н.Нарбаева, К.Бердиқулов, И.Умарова, О.Буриева, А.маликова, А.Қаюмова, С.Турсуновалар Қўнғирот этнографикасининг бази жиҳатларини тасвирлаб берганлар. Шунингдек, Самарқанд тарихчиси А.Маликованинг Зарафшон водийсини ўрганишдан асосий мақсади, Қўнғирот этнографиясини минтақа этно-маданий жараёнларидаги ўрнини аниқлаш бўлган.

Қўнғиротликлар узоқ даврлардан бери Ўзбекистон минтақасига узоқ даврлардан бери ўзининг катта таъсирини ўтказиб келаётган хақлардан бири сифатида кўришимиз мумкин. Улар ҳозирги Хоразм, Самарқанд, Бухоро, Навоий, Қашқадарё, ва Сурхандарё вилоятлари ҳудудларида яшаганлар. Қўнғиротларнинг иқтисодий хусусиятлари ва этно-маданияти, турли тарихий давирларда чорвачилик, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий жараёнларни ривожланишига сабаб бўлган.

Худудни тадқиқотчилар томонидан ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, этно-маданий ва социологик жиҳатдан ўрганилганда шуни кўрсатдики, респондентларнинг энг кам сони, яни Нишонликларнинг 2,9% ва Деҳқонабод қўнғиротларининг 2,4% (ўз ўзини англаши)ни билдирган. Шунингдек, Нишон вакилларининг 2,9% ўз фикрларини билдиришмаган: “битта турдаги уюшмада”. Шундай қилиб, Қунғрот оиласини вакили бўлиш кўп жиҳатдан маданиятли турмиш даражасига эга бўлиш деб жавоб берган. Шубҳасиз, замонавий этнологик маданият ҳамжамиятида шахсни ўз ўзини англаши муҳим омилларидан бири ҳособланади.

Янги маданиятнинг келиб чиқиши, хусусан, этник маданият асосини шаклланишининг муҳим белгилари, маълум бир манфаатлар асосида

бирлашган одамлар гуруҳининг пайдо бўлиши билан боғлиқ. Сўров давомида қариндошлик феномени ёки миллат тушунчасини аниқлаш учун саволлар берилди: “Ўзингизни ким деб ўйлайсиз? Қўнғирот ёки ўзбек? сиз учун нима муҳимроқ”. Респондентларнинг 57 киши (76%) учун “қўнғирот ва ўзбек бўлиш бир ҳил аҳамиятга эга эканлиги аниқланди, чунки миллат ва қариндошлик тушунчалари бир-бири билан боғлиқ”. Респондентларнинг 10 киши (13,33%) учун “Аввало, мен ўзимни Қўнғирот деб биламан, чунки ўзимни Қўнгирот деб билиш орқали ота-боболаримни танийман” деб жавоб берди. Респондентларнинг 3 киши (4%) “Бу наслдан кўра, миллат номи муҳим, яни Ўзбекистон томонидан тан олиниш” улар учун муҳим ҳисобланади. Респондентларнинг 5 киши (6,67%) “Мен билмайман” деб жавоб берди.

Жавобларни туманлар кесимида таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, Деҳқонаободнинг 85% ва Нишон респондентларининг 65,7% учун “Худди шу қиймат ҳам ўзбек ҳам қўнғиротдир, чунки бў тушунчалар бир бири билан боғлиқ” хисобланган. Қизиғи шундаки, Деҳқанобод ва Нишон аҳолисининг кўп қисми яни, 22,9% ўзларини асосан Қўнғирот деб билишади, чунки бу уларга ота-боболарини билишга имкон беради. Деҳқанободликларнинг атига 5 % респонденти умумий саволларга жавоб берган. Одатда этно-маданий ўзига ҳосликни ўрганишда тили, маданият ва иқтисодий фаолиятга таъсир қилувчи, интграция ва трансформация жараёнлари муҳим аҳамият касб этади.

Шу нуқтаи назардан шуни такидлаш жоизки, этник-маданий ўзига ҳосликни социологик жиҳатдан ўрганишда, тадқиқот олиб борилаётган минтақаларнинг пасттекисликларида яшовчи этник гуруҳлар орасида маҳаллий халқ вакиллари ва қабила ўртасидаги ўзаро таъсир аниқланмаган бўлса, тоғли ҳудудларда яшовчи Қўнғиротлилар орасидаги ўзаро муносабатлар яққол кўринади, айниқса уларнинг оилавий ва жамоавий тадбирлари пайтида кўришимиз мумкин.

Ўзбекистон ҳудуди аввало, серҳосил табиий иқлим шароитларига эга бўлган Фарғона ва Зарафшон водийлари, Тошкент ва Хоразм воҳалари ҳамда бошқа ҳудудлари ҳозирги кунга қадар шарқ ва ғарбдан кўчиб келган миллат ва элатларнинг ўзига тараннум этиб келмоқда. Айниқса туб жой аҳолисининг меҳмондўстлиги ва очиқ кўнгиллилиги бу ерга келган халқларнинг ўрнашиб, шу ерда яшаб қолишига асосий сабаб сифатида кўришимиз мумкин.

Маълумки, миграция жараёни тарихам (ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, диний, экологик, урушлар ва б.қ) омилларга кўра вужудга келган.

XIX аср охирида Марказий Осиё ҳудудининг Росси империяси томонидан мустамлакага айлантирилиши Туркманистон генерал-губернаторлиги, Бухоро амирлиги, Хива хонлиги каби ҳудудларнинг вужудга келишига сабаб бўлди. Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида яшаётган аҳолининг рўйҳатдан ўтказилмаганлиги, ҳудудлардаги этник гуруҳлар ва ҳудудда яшаётган миллат ва элатларнинг аниқлашга тўсқинлик қилди.

1897 йилнинг кузида Россия империяси томонидан Туркустон ўлкаси ҳудудида яшаётган аҳолини рўйхатдан ўтказиш натижасида аҳолининг таркиби тўғрисидаги тўлиқ маълумотларга эга бўлинган. Шунга биноан, Туркманистон ўлкасида яшовчи 5,3 млн. аҳолининг 35,75% ўзбеклар, 44,36% қозоқ ва қирғизлар, 6,73% тожиклар, 4,98% туркманлар, 3,75% руслар, 2,26% қорақалпоғлар, 2,15% бошқа миллатлар ташкил этган.

XX асрнинг 30 йилларида Ўзбекистонда саноатни ривожланниши натижасида ишчиларнинг оммавий кучиши юз берди. 1931 йилда ҳаммаси бўлиб, 15 минг турли касбларнинг малакали ишчилари кўчиб келган. Саноат корхоналарини қурилишида ишлаш учун эса Россядан Ўзбекистонга 1933 йилда 3062 киши, 1934 йилда 3500 киши, 1935 йилда 3000 киши ишчи кучи юборилган. 1933-1938 йилларда ҳам Ўзбекистонга ҳаммаси бўлиб, 650 минг киши, шу жумладан Россиядан 94,3 минг киши ишлаш мақсадида кўчиб келган.

1938 йилги аҳоли рўйхатига назар ташлайдиган бўлсак, Ўзбек миллатига мансуб аҳоли қариб, 1 миллион кишига ўсган. Лекин, аҳолининг умумий улушидаги ўрнини кўрадиган бўлсак, 65 фоиздан 62,2 фоизга тушиб кетган. Аҳолининг умумий улушида кўчиб келган рус, беларус, бошқир, татар, корейс, арман, осетин миллатига мансуб аҳолининг улуши ортганлигини кўришимиз мумкин.

20 асрнинг 70-80 йилларига келиб, турли миллат вакилларининг Ўзбекистондан ўз ватанларига ёки бошқа ривожланган мамлакатларга кўчиб кечишлари тобора ортиб борди. Масалан, 1976-1980 йилларда Ўзбекистондан 110 минг, 1981-1988 йилларда 287 минг киши кўчиб кетди. Шу даврдаги миграция вазиятини бир ибора билан тарифлаб бўлмаслиги табиийдир, чунки уни мураккаб ва хилма-хил ижтимоий иқтисодий, сиёсий, демографик омиллар белгилаб берган. XIX асрнинг 2 ярмидан XX асрнинг 90 йилларигача бўлган давр оралиғида Ўзбекистон аҳолисининг этник ва демографик қиёфаси тубдан ўзгарди. Аҳолининг этник таркибида миллат ва элатлар сони ортди. Бу миллатлар таркибига асосан европалик халқлар кўпчиликни ташкил этди. Аҳолининг демографик кўринишларининг

ўзгариши натижасида турли этник-маданий қадриятларни вужудга келишига олиб келди.

Мамлакатимизда узоқ давом этган тарихий жараёнлар давомида Ўзбекистон аҳолисининг хилма-хил этник таркиби шаклланди, натижада вужудга келган йирик элатлар вужудга келди. Бу эса миграци асосида турли этник гуруҳларни вужудга келишига олиб келди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки: Сўнгги йилларда давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири – жамиятда миллатлараро тотувлик ва бағрикенгликни таъминлаш, дўстлик муҳитини ва кўп миллатли катта ягона оила туйғусини мустаҳкамлаш, ёшларни Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳида, миллий ва умуминсоний қадриятларга ҳурмат билан қараш руҳида тарбиялаш, хорижий мамлакатлар билан маданий-маърифий алоқаларни кенгайтиришга йўналтирилган кенг миқёсдаги ишлар амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимизда яшаб келаётган 130 дан зиёд миллат ва элатларнинг вакиллари Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунлари тақдим этган тенг ҳуқуқ ва имкониятлардан фойдаланиб, иқтисодиётнинг турли тармоқларида ва ижтимоий соҳада, илм-фан ва маданият соҳаларида самарали меҳнат қилиб, Ватанимизнинг гуллаб-яшнашига ва унинг мустақиллигини мустаҳкамлашга, республиканинг халқаро майдондаги обрў-эътибори ва имижини оширишга муносиб ҳисса қўшиб келмоқдалар.

IKKITA PERPENDIKULYAR BUZILISH CHIZIG’IGA EGA ELLIPTIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY MASALA HAQIDA

Sobirov Sobir Jo‘raqulovich
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
«Aniq fanlar» kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ikkita perpendikulyar buzilish chizig’iga ega elliptik tipga tegishli xususiy hosilali differensial tenglama uchun chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlangan. Chegaraviy masala yechimning yagonaligi isbotlash maqsadida yordamchi lemma isbotlangan va chegaraviy masalaning Grin funksiyasini ko‘rinishi keltirilgan. Chegaraviy masala yechimining mavjudligini isbotlashda ketma-ket yaqinlashish usulidan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: perpendikulyar buzilish chizig'i, elliptik tip, chegaraviy shart, yechim yagonaligi, buzilish chizig'i, regulyar yechim, soha, birinchi tartibli uzluksiz hosila.

Asosiy matn:

$$y^m U_{xx} + x^m U_{yy} + a(x,y)U_x + c(x,y)U = f\left(x,y,U,U_x,U_y\right),\ \ m > 0 \qquad (1)$$

ikkita перпендикуляр buzilish chizig'iga ega bo'lgan elliptik tipra tegishli xususiy hosilali differensial tenglamani qaraymiz. Bu erda $a(x,y), c(x,y), f\left(x,y,U,U_x,U_y\right)$ berilgan va etarlicha silliq funksiyalar. Masalani yechish jarayonida ularga tegishli shartlar qo'yiladi.

$\Omega -$ (1) tenglama uchun chegaraviy masala qaralayotgan soha bo'lsin. Bunda $x > 0$ va $y > 0$ da $A(1,0)$ va $B(0,1)$ nuqtalarni tutashtiruvchi normal egri chiziq: $\sigma_0: x^{2p} + y^{2p} = 1,\ \ y = 0$ o'qidagi OA va $x = 0$ o'qidagi OB kesma bilan chegaralangan.

***ND* masalasi**. Ω sohada (1) tenglamani quyida berilgan chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi $U(x,y) \in C(\bar{\Omega}) \cap C^2(\Omega)$ regulyar yechimini toping:

$$U(x,y) = \varphi(x,y), \qquad (x,y) \in \sigma_0,$$

$$\lim_{y\to+0} \frac{\partial U}{\partial y} = \nu_1(x), \qquad 0 < x < 1\,,$$

$$\lim_{x\to+0} \frac{\partial U}{\partial x} = \nu_2(y), \qquad 0 < y < 1,$$

bu erda $\varphi(x,y),\ \nu_1(x),\ \nu_2(y)$ – berilgan uzluksiz funksiyalar.

Kelgusida qulay bo'lishi uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$I_1 = \{(x,y)\}: 0 < x < 1, y = 0, I_2\{(x,y): x = 0, 0 < y < 1\},$

$$2p = m + 2, \qquad 2\beta = \frac{m}{m+2}.$$

Ta'rif. (1) tenglamani Ω sohada regulyar yechimi deb (1) tenglamani qanaotlantiruvchi $U(x,y) \in C(\bar{\Omega}) \cap C^2(\Omega)$ funksiyaga aytiladi [1-2].

Quyidagi lemma o'rinli.

Lemma. Faraz qilamiz $f(x,y)$ funksiya birinchi tartibli uzluksiz hosilaga ega bo'lsin va Ω sohaning chegarasida yetarli tartibda nolga aylansin. U holda

$$U(x,y) = -\iint_{\Omega} f(\xi,\eta)G_2(\xi,\eta;x,y)d\xi d\eta$$

funksiya

$$y^m U_{xx} + x^m U_{yy} = f(x,y)$$

tenglamaning regulyar yechimi bo'ladi va

$$U(x,y)|_{\partial\Omega} = 0, \quad \lim_{y\to+0} \frac{\partial U}{\partial y} = 0, \quad \lim_{x\to+0} \frac{\partial U}{\partial x} = 0$$

chegaraviy shartni qanoatlantiradi, bu yerda $G_2(\xi,\eta;x,y)-$

$$y^m U_{xx}+x^m U_{yy}=0$$

tenglama uchun $\boldsymbol{ND}$ chegaraviy masalasini Grin funksiyasi bo'lib, quyidagi ko'rinishga ega [1]:

$G_2(\xi,\eta;x,y)=q_2(\xi,\eta;x,y)-(r_0^2)^{-2\beta}q_2(\xi,\eta:\bar{x},\bar{y})$, где

$$q_2(\xi,\eta;x,y)=\gamma_{02}(r_1^2r_2^2)^{-\beta}F(\beta,\beta,2\beta,1-S),$$

$$\gamma_{02}=\frac{4^{2\beta-1}\Gamma^2(\beta)}{\pi\Gamma(2\beta)},\quad 2\beta=\frac{m}{m+2},$$

$$r_{1,2}^2=(\xi^p\pm x^p)^2+(\eta^p\pm y^p)^2,\qquad r_{3,4}^2=(\xi^p\pm x^p)^2+(\eta^p\pm y^p)^2,$$

$$r_0^2=x^{2p}+y^{2p},\qquad \bar{x}^p=x^p/r_0^2\ ,\qquad \bar{y}^p=\frac{y^p}{r_0^2},$$

Berilgan funksiyalarga tegishli shartlar qo'yilib, yechimning yagonaligi isbotlanadi. Masala yechimining mavjudligini isbotlashda ketma-ket yaqinlashish usulidan foydalanilgan. Aytish joizki, yechimning mavjudligini isbotlashda ketma-ket yaqinlashish usuli qo'llanilganligi uchun $a(x,y),c(x,y),f\left(x,y,U,U_x,U_y\right)$ funksiyalarning o'zi va hosilalarining qiymatlarini yetarlicha kichik bo'lishi talab qilinadi. Ikkita buzilish chizig'iga ega ikkinchi tartibli elliptik, giperbolik va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalar [3-4] da o'rganilgan va ularni yechishda zaraur bo'ladigan ma'lumotlar [5-7] ilmiy izlanishlarda keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar (references)

1. Расулов Х.Р. (1996). Задача Дирихле для квазилинейного уравнения эллиптического типа с двумя линиями вырождения // ДАН Республики Узбекистан, №12, с.12-16.
2. Rasulov X.R. (2020). Boundary value problem for a quasilinear elliptic equation with two perpendicular line of degeneration // Uzbek Mathematical Journal, №3, pp.117-125.
3. Rasulov Kh.R. (2018). On a continuous time F - quadratic dynamical system // Uzbek Mathematical Journal, №4, pp.126-131.
4. Xaydar R. Rasulov. On the solvability of a boundary value problem for a quasilinear equation of mixed type with two degeneration lines // Journal of Physics: Conference Series 2070 012002 (2021), pp.1–11.
5. Расулов Х.Р. О некоторых символах математического анализа // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), p.66-77.
6. Расулов Х.Р. О понятие асимптотического разложения и ее некоторые применения // Science and Education, scientific journal, 2:11 (2021), pp.77-88.

7. Rasulov H. KD problem for a quasilinear equation of an elliptic type with two lines of degeneration // Journal of Global Research in Mathematical Archives. 6:10 (2019), p.35-38.

RAQAMLI IQTISODIYOT - IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI SIFATIDA

Uralov Olimjon Maxammadjonivich
Mustaqil tadqiqotchi, assistent

Nasimov Abdurashid
Ilmiy rahbar, Dotsent, PhD
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajriba va innovatsiya haqida so`z yuritilgan. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davrida bo‘lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga butunlay o‘tishi atiga bir necha yilni tashkil etadi.

Kalit so`zlar: raqamli iqtisodiyot, inqilob, insoniyat, xalqaro raqobat, internet, raqamli texnologiya, raqobatdosh, kommunikatsiya.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o‘zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi. Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga xos tushuncha bo‘lib, uning o‘rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davrida bo‘lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga butunlay o‘tishi atiga bir necha yilni tashkil etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun’iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo‘shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3Dtexnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko‘prog‘ida beqiyos o‘zgarishlar keltirib chiqarishi ta’kidlanmoqda. Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko‘payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o‘rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi. Dunyoda raqamli iqtisodiyot o‘sishining sur’atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda.

Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga yetgan. Ular hozirning o‘zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko‘rishmoqda. Raqamlashtirishning ahamiyati va ta’sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so‘nggi o‘n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko‘rish kifoya. Dunyo hamjamiyatida ro‘y berayotgan bunday jadal o‘zgarishlar va raqobatning keskinlashuvi jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib, yaqin va uzoq kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatdoshligini ta’minlay olmasligimiz ayni haqiqat bo‘lib, bu esa, o‘z navbatida, ilmiy va amaliy harakatlarni kuchaytirishni talab etadi. Bu borada, so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotimizni tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatimiz ijtimoiyiqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo‘nalishlarini sanab o‘tish maqsadga muvofiq:

- raqamli texnologiyalar barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sog‘liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa

sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog‘iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to‘liq qoplashni bosqichma-bosqich ta’minlash;

- kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish va bu yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni yetishtirish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘qitish, shu jumladan, xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda “1 million dasturchi” loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash va bu sohada “Raqamli ishonch” jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalangan holda ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash; • aholining keng qatlamlari o‘rtasida “raqamli savodxonlik”ni targ‘ib kilish va kengaytirish, ularni axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishga jalb qilish maqsadida o‘quv yurtlarida seminar, kurslar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;
- raqamli iqtisodiyot sohasida me’yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, “startap” tushunchasi, faoliyati, venchur fondlari orqali ularni moliyalashtirishning huquqiy asoslarini yaratish;
- raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil etish va uning mobilligini oshirish, yangi texnologiyalarni tezkorlik bilan o‘zlashtirish uchun mutaxassislar malakasini oshirib borish;
- raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, yetakchi xalqaro texnologik kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, innovatsion ishlanmalar bo‘yicha zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish. Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo‘llab quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim.

SHuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo‘llab-quvvatlash sohasida raqamli ta’limning zamonaviy metodlarini qo‘llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirishda ko‘maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. J.B. Dixit Fundamental of computer programming and IT. – Laxmi Publication PVT. Ltd., 2011. - 557 p.
2. Applegate L. M., McFarlan F.W., McKenney J. L. Corporate information systems management: the issues facing senior executives. Irwin, 1996.
3. Hickerson. Business and Infomiation Systems 3/e. N. Y.: John Wiley & Sons, 2000.
4. 4.Ostanaqulov M. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. - T: Talqin. 2008. 424 b
5. Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008; 372 b
6. Краснoперова О. Бюджетный учет - МТТроссМедиа Ферлаг", 2008; 384 с

CHOLPON'S WORLD OF LITERATURE

Karimov Abdusamad
teacher of Samarkand State university

Abstract. This article analyzes the literature of Abdulhamid Cholpan, who left his indelible mark in literature, with a new content, imbued with the ideas of enlightenment.

Key words: Enlightenment, intellectuals, article, literature, ignorance, exaggeration, national perspective, level.

Literature is a flower that grows in the darkest rooms of the history of every nation's sensuous heart in different shades and colors depending on the departure of life. Within the framework of the environment in which we live, its wave changes depending on the different lifestyles of a person.

As soon as Cholpon stepped into the world of literature, he faced this problem and had to search for an answer to it. It is noteworthy that Cholpon was not alone in his search. In the same period, other Uzbek intellectuals also asked "what is literature?" Many attempts have been made to find an answer to that problem. For example, Ibrahim Davron, a famous enlightener from Kokand, the author of the collection "Ash'ori Nisvan", published an article in "Turkestan region gazette" in 1909 called "Poet nadur?". Now let's turn to Cholpon. In the article "Adabiyot nadur?", "Yosh Munaqqid" first of all thinks about the social essence of literature. In his opinion, literature is a means of development of the nation, a factor that ensures its spirituality. Cholpon was so convinced of the truth of this conclusion that he affirmed in the article that "if literature lives, the nation lives" without leaving room for any objections:

"Yes, as much as water and air are necessary for our non-stop working body, so is literature for our soul, which has been soiled with all kinds of black dirt on the way to life. If literature lives, the nation lives. A nation whose literature has not

died, whose literature has not been developed, and whose writers have not been cultivated, will one day be deprived of feelings, thoughts, and ideas, and will gradually become a crisis."

Cholpan entered the field of creativity on the wings of this great enlightenment movement. He had a very high cultural level as a result of independent study. He was thoroughly familiar with Eastern classics, especially the works of Turkish and Indian writers, as well as with European and Russian literature. Therefore, at the age of 15-16, he was ready to accept the ideas of the Enlightenment. Therefore, despite his youth, Cholpon began to think deeply about the fate of Turkestan and the nation's prospects. He also followed the ancients and came to the belief that enlightenment is the only way to save the people from the mire of ignorance and ignorance, apathy and poverty. In order to develop the nation, first of all, it is necessary to free it from colonialism, and for this, the people must be self-identified, have a sense of national pride that unites and unites everyone. Cholpon looks for opportunities and measures that will help to bring the people to this level, and comes to the conclusion that literature is the most effective of them. That is why the young critic confidently made the existence of the nation dependent on the existence of literature. Perhaps Cholpon is a bit passionate in this place. He may have allowed a little exaggeration, but there is no doubt that in the conditions of Turkestan at the beginning of the 20th century, the formula "if literature lives, the nation lives" was a correct and effective formula. The important thing is that such a view of literature, considering it as an important means of renewing people's life, did not remain in Cholpan's work as an occasional thought, but became a constant guiding program throughout his subsequent work. Based on this belief, Cholpan exposed colonialism, which had taken on a new guise in the 20s, denounced various toras and effendi who made shackles for the people, and created fiery poems glorifying freedom and liberty.

It has been known since ancient times that in order for a work of art to rise to the level of true art, it must be closely united with the idea and artistry. Ideology without art is like a cancer that condemns literature to inevitable death. Literature acquires the power to satisfy the needs of society only through its art, that is, when it expresses the deep life content, the important truth of life in artistic forms that excite and excite people. Cholpon, well aware of this, praises the essence of art in his own way:

"... sometimes the sky makes a person sad, he realizes it, thinks about it, sighs and cries. These feelings cannot be contained. If he tells someone, he will say, "Oh, poor thing," and he will definitely want to tell someone about his grief. To be honest, it doesn't affect that much. Literally speaking, it definitely affects. The

news comes that a friend of mine has died. I'm not upset at all. At the same time, a letter arrives, in which the days they met are written like this:

Gullar bila pok qayg‘uli mahzun boqurdi,
Ko‘z yoshlarimiz to‘xtamay tun-kun oqurdi.
Mana shuni o‘qib albatta, bir ta’sir ila alarning qayg‘usiga qo‘shilurmiz».

When Cholpon fought not only for the new ideological content of literature, but also for its high artistry, he certainly relied on the characteristics of the literary process of that time. It is known that at the beginning of the 20th century, the modernists created literature of a new content, imbued with the ideas of enlightenment, but due to various reasons, this literature was not always full of high artistry. That is probably why Cholpon looked for ways to bring literature closer to art and came to the conclusion that the most correct way to achieve this is honesty.

References

1. Literary theory. Two volumes. -T: "Science", 1978-1979.
2. Sultanov I. Literary theory. -T: "Teacher", 2002.
3. "Adabiyot nadur?" from the book (Tashkent, "Cholpon" publishing house, 1994)
4. Yoldoshev M. Secrets of the word "Cholpon". - T.: Ma'naviyat, 2002.
5. https://cyberleninka.ru/article/n/sho-lpon-adabiy-estetik-qarashlarida-jamiyat-va-ayol-taqdiri
6. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/adabiyot-yashasa-millat-yashar

SHAHARLARDAGİ PARKOVKALARNİ BOSHQARİSH TİZİMLARİNİ SHAKLLANTİRİSH XUSUSİYATLARİ

Xakkulov Komil Boxodirovich
JizPi TVM kafedrasi o’qituvchisi
hakkulov1987@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax shaxridagi transport oqimiga ta’sir qiluvchi omillar (ko‘cha yo‘l tarmog‘idagi parkovka joyi)ni o‘rganib maqbul takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqolada Jizzax shaxri Sh.Rashidov ko‘cha yo‘l tarmog‘ida parkovka joyi loyihalashtirildi hamda ko‘cha yo‘l tarmog‘ida transport oqimining jadalligiga qarab ishlovchi yo‘l belgisi taklif qilingan. Shuningdek Jizzax shaxri misolida Park & Ride tizimidan foydalangan holda parkovkalarning maqbul joylashishi bo‘yicha maqbul yechim ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Avtoturargoh, avtomobil, sekinlashuv, yo’l yuzasi, yo’l sinovlari, pnevmatik shina, iqlim sharoiti.

Аннотация. В данной статье ставится задача изучить факторы, влияющие на транспортный поток в городе Джизак (парковочные места на уличной сети) и разработать соответствующие предложения.

В данной статье было спроектировано место для парковки на улице Ш.Рашидова дорожно-транспортной сети города Джизак и предложен дорожный знак, работающий в зависимости от скорости транспортного потока на улично-дорожной сети. Также на примере города Джизак разработано оптимальное решение по оптимальному расположению парковок с использованием системы Park&Ride.

Ключевые слова: Стоянка, автомобиль, торможение, дорожное покрытие, дорожные испытания, пневматическая шина, климатические условия.

Annotation. This article aims to study the factors affecting the traffic flow in the city of Jizzakh (parking space on the street network) and develop appropriate proposals.

In this article, a parking place was designed on Sh.Rashidov street road network of Jizzakh city and a road sign that works depending on the speed of traffic flow on the street road network was proposed. Also, on the example of the city of Jizzakh, an optimal solution for the optimal location of parking lots has been developed using the Park & Ride system.

Key words: Parking lot, car, deceleration, road surface, road tests, pneumatic tire, climatic conditions.

Avtoturargohni samarali boshqarish murakkab va ko‘p qirrali vazifadir. Uning yechimi nafaqat malakali mutaxassislarni jalb qilishni, balki avtoturargohlarni boshqarish tizimining mavjudligini ham talab qiladi. Bunday tizim transport oqimini boshqaruvini shaffof, sodda va tejamkor qiladi.

Hozirgi kunda “aqlli shahar” atamasi shaxar transport tizimini rejalashtirish bo‘yicha adabiyotlarda yoki shahar tadqiqotlarida juda keng qo‘llaniladi. Bu atama shahar hududini o‘z ichiga olgan turli xil jihatlarda qo‘llaniladi. Aqlli harakatchanlik xususiyatlariga e’tibor berish, mahalliy va xalqaro imkoniyatlar ushbu ishda o‘rganilgan muhim jihatlar, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy hamda barqaror transport tizimlarining mavjudligiga bog‘liq. Aqlli harakatchanlik transport tarmoqlarining samaradorligi va ijtimoiy barqarorligi nuqtai nazaridan foydalanuvchilarning so‘roviga javob berish uchun aqlli shaharlarni loyihalashtirishga hissa qo'shishi kerak. Shu nuqtai nazardan, shahar transport tirbandligini kamaytirish va jamoat transporti siyosati asosiy

maqsad bo‘lib, avtomobil turar joylarini aqlli boshqarish asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Darhaqiqat, Avtoturargoh dunyoning deyarli barcha yirik shaharlarida qimmatbaho manbaga aylanib bormoqda va uning yetishmovchiligi ham havoning ifloslanishi va shahardagi transport vositalarining sifatli harakatlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Avtoturargohning yetishmasligi natijasida ko‘cha yo‘l tarmog‘ida tirbandlik 20-45% o‘sishiga olib keladi, tirbandlik va avtohalokatlarning paydo bo‘lishi, mavjud xizmat ko‘rsatish darajasining umuman yomonlashishiga olib keladi.

Odatda, shaharning ma’lum bir hududida to‘xtash joylarining yetishmasligi, shuningdek, ko‘cha yo‘l tarmog‘ida tirbandlikning asosiy sababchisi ko‘cha yo‘l tarmog‘ida yo‘lning chetki polasalarining parkovka sifatida foydalanishidir. Tirbandlik natijasida transport vositasidan chiqadigan gazning emissiya darajasiga ta'siri ham jiddiydir, masalan, soatiga 800 ta avtomobilning mavjudligi (veh/soat) va ko‘cha yo‘l tarmog‘ida noto‘g‘ri parkovka sifatida 18 daqiqadan ko'proq vaqt davomida to‘xtash qo‘shimcha CO chiqindilarini taxminan 20% ni tashkil qiladi. Agar avtomobillar soni 1200 veh/soatgacha oshsa, qo‘shimcha CO chiqindilari taxminan 26,5% ni tashkil qiladi [11].

Aholi yengil avtomobillardan samarali foydalanish uchun ularni saqlashni tashkil etish muxim ahamiyatga ega. Shu tufayli ATXKS tizimlarini rivojlantirish bilan bir qatorda avtomobillarni saqlash masalasini ham xal etib borish zarur. Ammo respublikaning yirik shaharlarida, ayniqsa poytaxtda, yengil vatomobillarni saqlash rivojlanayotgan bo’lishiga qaramay ko’p avtomobillar ko’cha va xovli (dvor)larda saqlanib kelmoqda. Bunday xolat bir qator noqulayliklar va shahar obodonchiligida bir qator qiyinchiliklar paydo bo’lishiga sabab bo’lmoqda.

Avtomobillarni saqlash va ularga turar joylari tashkil etish murakkab masala bo‘lib, ularning yechimi quyidagi variantlarda ifodalanishi mumkin:

Ko‘p etajli aholi yashaydigan joylarda avtomobillarni doimo saqlash uchun: ochiq, 25- 200 avtomobillarga mo‘ljallangan maxsus avtomobil saqlash maydonlari tashkil etish, maydon avtomobillarini saqlash daxasida yashovchi aholining 30-50% avtomobillarni qo’yish uchun yetarli bo’lishi kerak ;

Ko‘p etajli 2-5 ramkali 100- 500 avtomobil sig‘adigan garaj-turar joylari tashkil etish;

aholi ko‘p yashaydigan uy podvallari yoki birinchi qavatlarida garaj turar joylari barpo qilish;

shahar markazlarida avtomobillarni vaqtincha saqlash uchun, 5-6 qavatli binolarda ko‘p yaroqli mexanizatsiyalashgan saqlash joylari tashkil etish;

Markaziy shaharlarda avtomobillarin vaqtincha saqlash uchun pullik avtomobil turar joylari va garajlar ko’rish maqsadga muvofikdir. Bu sharoitda

avtogaraj va turar joylardan avtomobilning ikkinchi darajali ko'chalarga chiqishini tashkil etish kerak.

Atrof-muxitni ximoya qilish va sanitariya-gigiena talablarini qondirish uchun avtomobillarni yerto'lalarda saqlashni tashkil etish yaxshi samara beradi.

Aholi avtomobillarini doimo saqlash uchun avtomobil egalarining mablag'lari orqali garajlar qurishni rejalashtirish ham mumkin. Bunday yo'l bilan quriladigan pullik avtoturar joylari mavjud bo'lgan garajlar o'zini 1,5-3 yilda qoplashi mumkin [5].

Transport masalasi, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida shaharsozlikda eng dolzarb muammo bo'lib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan va turlicha yechimini topgan. Xorijiy tajribaga ko'ra ko'cha-yo'l tarmog'ining o'tkazish qobiliyatini oshirishning eng maqbul usuli, bu sun'iy estakadalar va yo`l o`tkazgichlarni qurish yordamida turli sathda kesishuvchi chorrahalarni tashkil qilish, shaharning asosiy transport tugunlari (xalqaro va mahalliy vokzallar, aeroportlar...)ni aholi to'planadigan joylar bilan o'zaro tezkor yo'llar orqali bog'lash, ko'p qavatli avtoturargohlar qurish, yer osti muhtidan keng foydalanish kabilar hisoblanadi.

Albatta davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ushbu sohada aytishga arzigulik ishlar olib borildi. Shu jumladan 2015 yilning 22 iyul kuni "O'zavtoyo'l" DAK majlislar zalida kompaniya boshqaruvining 2015 yil birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda ta'kidlanganishicha, 2015 yilning birinchi yarim yilligi davomida umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarida tizim korxonalari tomonidan jami 672,2 mlrd. so'mlik yo'l qurilish, ta'mirlash va saqlash ishlari bajarilgan bo'lib, bu o'tgan 2014 yilning shu davriga nisbatan 121,7 foizni tashkil etadi. Investitsiya dasturiga muvofiq 2015 yilda 141,6 km uzunlikdagi umumiy foydalanuvda bo'lgan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari belgilangan. Tuzilgan shartnoma va tasdiqlangan rejaga muvofiq ilk yarim yillik yakunlari bo'yicha 218,3 mlrd. so'mlik yo'l ishlari bajarilib, 45,5 km uzunlikdagi avtomobil yo'llari rekonstruktsiya qilindi [8].

Xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida hamda shahar ko'chalarida "O'zavtoyo'l" kompaniyasi korxona va tashkilotlari tomonidan yo'llarni mukammal ta'mirlashda 81,4 mlrd. so'mlik ishlar amalga oshirilib, 24,3 km uzunlikdagi umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari ta'mirlandi. 42654 km uzunlikdagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha 2015 yilning birinchi yarim yilligida 337,7 mlrd. so'mlik mablag'lar o'zlashtirildi.

2015-2019 yillarda 2699,8 km, jumladan, 2281,3 km asfalt qoplamali va 418,5 km sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari qurish rejalashtirilmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi direktori o'rinbosari Shuhrat Dauletyarov matbuot konferentsiyasida ma'lum qildi.

"Ulkan miqyosli loyiha — umumiy uzunligi 2750 kilometrdan oshiq bo'lgan milliy avtomagistral qurilishi ham 2019 yilda tugallanadi. Andijondan Qo'ng'irotgacha va Samarqanddan Termizgacha bo'lgan yangi uchastkalarning modernizatsiyalanishi va qurilishi natijasida barcha avtomobil yo'llari xalqaro standartlarga to'liq mos bo'ladi", dedi fond rahbari. Joriy yilda 376,6 kilometrdan ortiq to'rt polosali yo'l qurilmoqda va rekonstruktsiya qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T: O‘zbekiston, 2017.
2. Sh.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. T: O‘zbekiston, 2017.
3. Sh. Mirziyoyev “Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” .- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza : O‘zbekiston, 2017.
4. “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Qonuni (1998 yil 29-avgust, 674-I-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2019 yil 19 apreldagi VM-336-sonli Qarori [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/-4300863.
6. O‘zbekistonda jamoat transportida yo‘lovchilarni tashishni tashkil etishda “Transport to‘g‘risida” (O‘RQ-706 09.08.2021)
7. Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida” (419-I 25.04.1997)
8. “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (370 24.12.2015)
9. Vazirlar Mahkamasining “Shahar yo‘lovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (13.11.2013 yildagi 308-son)
10. .https://mintrans.uz/news/hududlarda-jamoat-transportini-rivozhlantirish-choralari-belgilandi
11. https://www.grsproadsafety.org/

МУРАККАБ ШАКЛЛАРДАГИ ЛИБОСЛАРНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ УСУЛ ВА ВОСИТАЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Махсумов Саидакром Ахмат ўғли

Саидова Муниса Анваржон қизи
Тошкент кимё халқаро университети

Аннотация. Ушбу мақолада кийимлар дизайнини яратиш жараёнида, мураккаб конструктив бичимли аёллар либосини лойиҳалашнинг ўзига хослиги асосида кийимларни лойиҳалаш ва мураккаб бичимдаги либосларни яратиш хусусиятларини чуқур ўрганиб муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: Модельер, мода, костюм, силуэт, трансформация, муляж, фактура.

Модельер – рассом ўз ишида унинг тасаввури ва фантазиясини озуқа бериб бойитадиган турли ижобий манбаларга мурожаат этади. Халқнинг тарихий ўтмиши ва ҳозирги жамият ҳаёти, атроф-табиатнинг хилма-хиллиги, тарихий костюмлар ва халқ костюмларининг бойлиги, бадиий адабиёт, мусиқа, кино, театр ва ҳоказолар ҳозирги замон рассоми ижодининг манбалари бўлиб хизмат қилади. Рассом ўйларини етиштиришга ва конкретлаштиришга ёрдам берадиган айрим мотивлардан фойдаланиб, ана шу манбалардан ўз ғоялари ва образларини тўплаб боради [1].

Рассом-модельер жамият кайфиятини ийраклик билан илғаб олиб, модада ифодалайди. Шу жиҳатдан ҳам рассом–модельер зиммасида улкан масъулият ётади. У миллий дидни бадиий эстетик бўёқларда ифодалаб, даврнинг руҳини ўзида сингдириб, жамият аъзоларини орзу-умидлари ҳамда ҳоҳиш – истакларини ҳам ифодалай олиши муҳимдир. Маълумки, либос дизайни ва модада ҳар бир мавсумда ўз аҳамиятини йўқотиб, янгиси пайдо бўладиган ранглар ҳам зарурий омилдир. Шу жиҳатдан ҳам ҳар бир мавсумга хос бўлган рангларнинг танланишида рассом-модельернинг ўрни катта.

Кийимнинг образли ифодалийлигига композиция санъати воситасида, яъни кийимни ташкил этувчи ҳажмлар, ранглар, чизиқлар, деталлар ва безак элементларини ягона узвий бир бутун қилиб бирлаштириш воситасида эришилади. Модани кенг маънода олиб қарайдиган бўлсак, у ҳаёт ёки маданиятнинг бирор-бир соҳасида маълум диднинг узоқ давом этмайдиган ҳукмронлиги, кийинишда эса - костюм шаклларининг алмашувидир. Ижтимоий маданий тараққиёт маълум маънода мода умрининг қисқаришига олиб келади. Тараққиёт юксалгани сайин, янги модалар эскисини инкор этиб, майдонга чиқа бошлайди. Агар маълум моданинг ҳукмронлик даври антик кийимларда асрлар билан белгиланган бўлса, бугунги кунларга келиб мода

битта мавсум билан чекланадиган бўлди. Бу борада олима О.Русанова қуйидаги фикрларни билдиради: “Мода нима учун бизга керак? Бир хиллик одамни чарчатади ва кийимни ўзгартириш зарур. Бутун умр бир кўйлакни кийиб юриш мумкин эмас” [2].

Мода маданий ҳаётда ҳукмрон бўлган кийиниш маданияти ҳақидаги дидларга қарши майдонга келади, улар билан курашиб, мавҳ этгач, ўзи жамиятда маълум муддат ҳукмронлик қилади. Қачонки, ўзига қарши янги бир мода туғилгунча яшаб, инкорни инкор қонуни асосида янги мода томонидан инкор этилиб, тарих саҳифаларидан ўрин олади. Соҳа мутахассисларининг фикрига кўра: “Мода - назокатли ва инжиқ хонимлар сингари мураккаб характерлидир. Унинг хулқини олдиндан айтиб беришга ҳаракат қилиш ва ҳатто қандайдир даражада унга таъсир қилиш ҳам мумкин, лекин бу доим таваккал билан боғлиқ. Яъни, мода охирги дақиқада ҳам ўзига-ўзи ҳиёнат қилиши ва ўзи тавсия этган, замонга мос бўлган, чиройли деб билган жиҳатлардан ҳам воз кечиши мумкин” [3].

Албатта, барча модалар ҳам бир хилда умр кўришмайди. Моданинг умрбоқийлиги рассом модельер томонидан унга берилган қалб қўри, жамият аъзолари эҳтиёжининг асосий қирраларини мужассам этгани ва давр руҳини ўзида сингдира олганлиги билан ўлчанади. “Моданинг туғилиши учун рассом ҳамда у орқали яратилган кийимларни кия оладиган одам талаб этилади. Бу жуфтлик бир-бирларини ўзаро яхши тушунишлари, иложи бўлса, уларнинг дунёқараши ва дидлари ҳам имкон қадар мос келиши ва улар албатта замон нафасини бирдек ҳис эта олишлари лозим”[4]. Демак, моданинг мукаммаллигини таъминлашда замонавий кийимлар билан бир қаторда нафақат ушбу кийимларга мос инсон гавдаси, балки унинг дунёқараши ҳам муҳим ўрин тутар экан. Бироқ, модельернинг кийим ва бутун костюм образининг энг муҳим жиҳати, яъни вазифа нуқтаи назаридан қулай, ҳаётда ўринли костюм яратишга бўйсундирилган бўлибгина қолмай, балки у яратган костюмлар ифодали бўлиши ҳам кераклиги талаб қилинади.

Ушбу жараёнларни таҳлил қилиш биринчи навбатда мураккаб бичимларнинг конструктив-декоратив жиҳатларини, безаклилик анъаналари, қолаверса, либос силуэтлари шаклланишининг асослари ҳақида аниқ фактлар воситасида хулосалар чиқаришини талаб этади.

Жумладан, мураккаб конструктив бичимли аёллар либослари дизайни таҳлилини олиб борилганда, машҳур дизайнер Хуссейн Чалаян ижоди ва фаолиятини ўрганиш мақсадга мувофиқ. Унинг санъат асари даражасида яратилган либослар намуналаридан ижод манбаи сифатида фойдаланиб,

яратган либосларини таҳлил қилиш ва улар борасида янги шаклларни ҳосил қилиш имкони туғилди.

Ушбу тадқиқот ишининг мавзусини тўлиқ очиб бериш вазифаси аввало дунё мода оламидаги ўзгаришларни, юз бераётган янгиликларни ўрганишни, қолаверса, ушбу мавзу доирасида дунё мода оламида либосларни ўрганилганлик ва яна ҳаётга тадбиқ этилганлик даражасини ўрганишни талаб этади. Бунга мисол қилиб, Dice Kayak, Huseyn Chalayan, Ulliana Brut каби дунёга машҳур модельерлар либослари тўпламларини кузатиш ва ўрганиш бизга жуда катта ёрдам берди деб айта оламиз. Сабаби улар бир қатор мураккаб конструкцияга эга бўлган либослар тўпламини яратишга муваффақ бўлишган.

Хуссейн Чалаян – асл исми- Хуссейн Каглаян бўлиб, 1970 йилнинг 12 августида Кипрда таваллуд топган. Унинг миллати турк бўлиб, ҳозирги кунда британиялик дизайнер сифатида фаолият олиб боради. У либос дизайни соҳасида олиб борган тажрибалари ва инновацион ёндашуви асосида либосларни лойиҳалаш бўйича олиб борган ишлари натижасида машҳурликни қўлга киритган дизайнерлардан бири ҳисобланади. 1999 ва 2000 йилларда Британиянинг энг машҳур дизайнери номига сазовор бўлган. Шунингдек, Хуссейн Чалаян Британия империясининг Ордени мукофотига сазовор бўлган. Унинг энг машҳур асарлари бу-конверт шаклига келувчи трансформацияланувчи юбка ва қоғоздан қилинган кўйлак ҳисобланади.

Хуссейн Чалаяннинг биринчи профессионал либослар тўплами 1994 йили қоғоздан қилинган кўйлаклар ҳисобланади [1-расм]. Унинг либослари ассиметрик бичим ва дизайнга бўлган инновацион ёндашуви билан ажралиб туради. 1995 йили Хуссейн Чалаян London Fashion Design Award танловида иштирок этган 99 та қатнашувчини мағлуб этиб, биринчи ўринни эгаллади ва “Absolut” компаниясининг совриндори бўлган. 2000 йилда у яратган либослар тўплами “Замонавий моданинг буюк санъат асари” деб тан олинган. 2001 йилдан бошлаб эса, у ўз бренди ва номи билан саҳнага чиқа бошлади. 2008 йилда Чалаян мураккаб бичимли аёллар либосларида безак сифатида гавҳарлардан фойдаланади. 2011 йилда у ўзининг ижодий ишларининг китобини яратиб нашр қилдиради. Унда ёзилишича, “Айниқса мода ҳақида гап кетганда, мен ўзимни бу оламда ҳудди ўзга сайёраликдек ҳис қиламан” жумлалари келтирилган [5].

Хуссейн Чалаяннинг яратган либосларида асимметрик бичим ва ноодатий шаклларни кўриш мумкин. Шунингдек, дизайнер моделлаштиришнинг техник қисмига кўпроқ эътибор қаратади. Унинг

фикрича, коллекциядаги концепциядан кўра инсон қоматида яхши ўтирган шимни лойиҳалаш у учун афзал ҳисобланган.

1-расм.(Хуссейн Чалаяннинг биринчи профессионал либослар тўплами)

Унинг либослари жуда мураккаб кўринишда бўлган. Жумладан, у томонидан яратилган кўйлак ёнига тикилган енглар ёки ёстиқ кўринишини берувчи ёқаларни мисол қилиш мумкин. Унинг либослар тўплами ҳар бири бир-бирига ўхшамас ва олдингиларидан бутулай фарқ қилади. Дизайнер ҳаётда чиройли ҳисобланган ва қулай бўлган буюмларни яратади. Унинг ҳар бир либоси мураккаб бичимга эга бўлиб, аммо инсон қоматида жуда яхши ўтиради. Шунингдек, Хуссейн Чалаян ўз ғояларини қисқа метражли фильмларда ҳам намойиш қилиб туради. У яратган либослардан шоу-бизнесда, актерлар, рассомлар ва мода мухлислари фойдаланадилар. У “прет-а -порте” йўналишида ҳам аёллар либосларини яратган бўлиб, унда мураккаб бичимли енглар, ҳажмга эга бўлган шаклларни берувчи этаклар, ҳам аёллик назокатини кўрсатиб берувчи, ҳам маълум ҳажмга эга бўлган ноодатий шаклларнинг ёқа, енг, этак қисмларида қатнашишини тавсия қилар эди. У томонидан яратилган либослар аввал макет матосидан манекен устида муляж методи асосида тайёрланиб, сўнгра асосий матога бичим кўчириларди. Унинг либосларида мураккаб тахламалар орқали атиргул шаклини этак, енг қисмларида берувчи шакллар ҳам ишлаб чиқилган. Айнан Хуссейн Чалаяннинг шу усуллар орқали бажарилган, атиргулни эслатиб турувчи шакллардан илҳомланиб янги мураккаб бичимли аёллар либосини лойиҳалаш мақсад қилиб олинди. Яратилган либослар башанг либослар турига киради.

Модада янги силуэт, шакл, пропорциялар, чизиқлар, ранглар уйғунлиги, ассортимент ва бошқа изланишлар одатда башанг либосдан бошланади.

Башанг кийимлар ижодий объект сифатида дизайнер учун ғоят қизиқарли жараён ҳисобланади. Бу борада дизайнернинг фантазияси, унинг индивидуаллиги ва диди тўлиқ намоён бўлади. Башанг либослар бошқа кийим турларига нисбатан мавсумга боғлиқ эмас. Башанг либосларда биринчи навбатда эстетик талаблар туради ва у ўз навбатида гигиеник, эргономик, эксплуатацион ва иқтисодий-технологик талабларни инкор этиши мумкин.

Олима Г.К.Хасанбоеванинг фикрича, “Костюмнинг сиймо тузилиши турли материаллар фактураси, ранги ва бошқаларни таққослашда пайдо бўлиши мумкин. Унинг бадиий-сиймо ечими эса барча қисмларнинг ўзаро боғлиқлигини ва албатта одамнинг ўзига хослиги, ташқи муҳит билан боғлиқлигини талаб қилади”[6]. Ҳақиқатдан ҳам, костюмнинг сиймосини келиб чиқишида ранг, фактура асосий ўрин эгаллаши мумкин.

Мутахассисларнинг фикрича, мўлжали бўйича башанг кийимлар қуйидаги кўринишларга эга бўлиши мумкин *(5- расм)*:

Ўз навбатида ҳар бир мўлжал ўзига хос композицион ечимни талаб қилади.

5 -расм. Башанг кийимлар куйдагилардан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Коблякова Е.Б. Конструирование одежды с элементами САПР. Москва .1988 г.
2. Г.К.Хасанбоева, О.И.Крымова. Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш. 1990 й.

3. Комилова Х.Х. Тикув буюмларини конструкциялаш. Тошкент. 2003 й. Электрон дарслик.
4. Козлова Т.В. Основы теории проектированию одежды. Москва. Легпромбытиздат. 1988 г.
5. F.Otaxonova. Zamonaviy liboslarni modellasgtirish. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008 y.
6. G.K.Hasanboyeva, M.Sh.Shomansurova. Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2007.

ИЗУЧЕНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЯСА И ДРУГОЙ ПРОДУКЦИИ, ПОЛУЧАЕМОЙ ИЗ КРОЛИКА

Ибрагимов Алиджан Аминович
Профессор Ферганского государственного университета, д.х.н.

Маматов Зафар Мамаджанович
Специалист Ферганского государственного университет

Аннотация. В материале приведён анализ накопленных данных по химическому составу мяса кролика. Обсуждены проблемы и перспективы развития кролиководческих хозяйств в Узбекистане на научной основе.

Ключевые слова. Мясо кролика, химический состав, белки, аминокислоты, возраст животного, части тушки.

В последние годы в Узбекистане уделяется пристальное внимание развитию кролиководства, поскольку это является источником дешёвого диетического мяса. Однако, как отмечают руководители Ассоциации кролиководческих хозяйств Узбекистана, пока у нас отсутствует практика размножения высокопродуктивных видов кролика. Необходимо развивать научные основы комплексного использования данной продукции, а именно мяса, шкурок, шерсти. Следует провести сравнительный анализ химического состава указанных частей в зависимости от различных факторов: возраста животного, климата, качественного состава корма и др.

С этой целью нами проведён анализ литературных данных, который будет положен в основу последующих экспериментальных исследований. В статье Чешских исследователей Роберта Гала и др. [1] установлен приблизительный химический состав –комплекс аминокислот, содержание минеральных веществ в мясе в зависимости от части туши, производителя, генотип и пола мясных кроликов. Авторы отмечают, что с возрастом животного изменяется количественный состав большинства компонентов. Так, 65-дневные кролики по сравнению с 35-64 дневными содержат меньше, хотя и незначительно белка, жиров, кальция, неорганического фосфора,

аминокислот Leucine, Tyrosine, Phenylalanine, Histidine, Lysine, Arginine, Glutamine, Valine. В тоже время количество отдельных компонентов аминокислотного комплекса с возрастом возрастает: Asparagine, Threonine, Serine.

Многие исследователи отмечают, что мясо кролика обладает прекрасными питательными и диетическими свойствами; кроме того, его также можно эффективно обогащать биологически активными соединениями, что позволяет предоставить потребителю практически идеальную пищу [2,3]. Мясо кролика отличается очень низким содержанием жира и холестерина, высоким содержанием белков с незаменимыми аминокислотами, отсутствием мочевой кислоты и низким содержанием пуринов [4]. Кроме того, в мясе кролика мало мононенасыщенных жирных кислот, много n-3 полиненасыщенных жирных кислот, и оно является важным источником витаминов группы B (B2, B3, B5, B6, B12) [5]. В нем мало натрия (Na) и много фосфора (P) и селена [6,7].

Отмечается, что мясо кролика часто пользуется популярностью у потребителей, главным образом, благодаря высокому качеству белка из-за более высокой усвояемости по сравнению с другими видами мяса, такими как говядина или свинина [8,9]. Установлено, что качество мясных белков зависит от различных факторов, главным образом, биологических признаков животного [10,11]. Основными факторами, влияющими на характеристики белка мяса кроликов, являются аминокислотный состав, как было указано выше, а также порода животного [9], генотип [12], использованная часть туши [13], а также возраст [9]. В то же время, исследования, посвященные оценке влияния пола на аминокислотный состав в крольчатине все еще ограничены, тогда как влияние пола на незаменимые аминокислоты в доступной литературе отсутствует.

Таким образом, изучено состояние проблемы и перспективы развития кролиководства в целом. Следует заключить, что комплексное исследование химического состава компонентов кролиководческого производства, в том числе мяса, шкурок, шерсти является актуальной задачей и может стать толчком к развитию дополнительных источников ценных в питательном отношении пищевых продуктов и одежды.

Список цитируемой литературы

1. 1.Robert Gál, David Zapletal, Petra Jakešová, Eva Straková. . Proximate Chemical Composition, Amino Acids Profile and Minerals Content of Meat Depending on Carcass Part, Sire Genotype and Sex of Meat Rabbits. Animals **2022**, 12, 1537. https://doi.org/10.3390/ani12121537

2. Dalle Zotte, A.; Cullere, M.; Gleeson, E.; Cossu, M.E. Animal fat and vitamin E in rabbit diets: Total tract apparent digestibility, growth performance, carcass and meat quality traits. Czech J. Anim. Sci. 2020, 65, 380–388. [CrossRef]
3. Elazab, M.A.; Khalifah, A.M.; Elokil, A.A.; Elkomy, A.E.; Rabie, M.M.; Mansour, A.T.; Morshedy, S.A. Effect of dietary rosemary and ginger essential oils on the growth performance, feed utilization, meat nutritive value, blood biochemicals, and redox status of growing NZW rabbits. Animals 2022, 12, 375. [CrossRef]
4. Hernández, P. Carne de conejo, ideal para dietas bajas en ácido úrico. Revista Científica de Nutrición. 8 Septiembre. Boletín Cunicult. 2007, 154, 33–36.
5. Dalle Zotte, A.; Szendrö, Z. The role of rabbit meat as functional food. Meat Sci. 2011, 88, 319–331. [CrossRef].
6. Hermida, M.; Gonzalez, M.; Miranda, M.; Rodríguez-Otero, J.L. Mineral analysis in rabbit meat from Galicia (NW Spain). Meat Sci. 2006, 73, 635–639. [CrossRef]
7. Cullere, M.; Zotte, A.D.; Tasoniero, G.; Giaccone, V.; Szendr˝o, Z.; Szín, M.; Odermatt, D.; Gerencser, Z.; Dal Bosco, A.; Matics, Z. Effect of diet and packaging system on the microbial status, pH, color and sensory traits of rabbit meat evaluated during chilled storage. Meat Sci. 2018, 141, 36–43. [CrossRef].
8. Pereira, P.M.D.C.; Vicente, A.F.D.B. Meat nutritional composition and nutritive role in the human diet. Meat Sci. 2013, 93, 586–592. [CrossRef]
9. Li, S.; He, Z.; Hu, Y.; Li, H. Shotgun proteomic analysis of protein profile changes in female rabbit meat: The effect of breed and age. Ital. J. Anim. Sci. 2019, 18, 1335–1344. [CrossRef]
10. Jiménez-Colmenero, F.; Herrero, A.M.; Cofrades, S.; Ruiz-Capillas, C. Meat: Eating quality and preservation. In The Encyclopedia of Food and Health; Caballero, B., Finglas, P., Toldrá, F., Eds.; Oxford Academic Press: Kidlington, UK, 2016; pp. 685–692.
11. Triki, M.; Herrero, A.M.; Jiménez-Colmenero, F.; Ruiz-Capillas, C. Quality assessment of fresh meat from several species based on free amino acid and biogenic amine contents during chilled storage. Foods 2018, 7, 132. [CrossRef].
12. Nasr, M.A.F.; Abd-Elhamid, T.; Hussein, M.A. Growth performance, carcass characteristics, meat quality and muscle amino-acid profile of different rabbits breeds and their crosses. Meat Sci. 2017, 134, 150–157. [CrossRef].

13. Migdal, L.; Barabasz, B.; Niedbała, P.; Łapi ´ nski, S.; Pustkowiak, H.; Živkovi´c, B.; Migdał,W. A comparison of selected biochemical characteristics of meat from nutrias (Myocastor coypus Mol.) and rabbits (Oryctolagus cuniculus). Ann. Anim. Sci. 2013, 13, 387–400. [CrossRef].

TABIAT KUYCHISI VA RANGTASVIR USTASI *(O‘rol Tansiqboyev asarlari misolida)*

Maxmarizayeva Yulduzxon
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

“O‘rol og‘a o‘zini tabiat qo‘ynida xuddi o‘z uyidagidek his qilar, ayniqsa, tog‘larning ashaddiy oshig‘i edi. Son-sanoqsiz tog‘lar tasviri fikrimizni tasdiqlab turibdi. Hatto, asarlar nomi ham tog‘ bilan bog‘langan. E’tibor qiling: “Tog‘da kuz”, “Tog‘ yon bag‘irlari”, “Tog‘ qishlog‘i” ,”Oqshom”, “Tog‘da bahor”, “Chimyon yo‘li”, “Pomirdagi baland Qorako‘l ko‘li”, “Tog‘da kolxozda”, “Oloy vodiysi”. Rassom tog‘ning faqat ranglarinigina ilg‘abgina qolmay, u yerdagi giyohlarning ham nomlarini yaxshi bilgan”..

(Nodir Normatov).

O’rol Tansiqboev o‘tgan asrning elliginchi yillaridayoq manzara chizish bobida “o‘zbek levitani” degan nomga sazovor bo‘lgan edi. U kezlarda ayrim iqtidorli rassomlarni Levitan nomiga, rus sayyor rassomlari nomlariga qiyoslash odat edi. Levitan chindanda rus tabiatining mohir kuychisi sifatida dovruq qozongan rassomlardan biri bo‘lgan.

O‘zbekiston xalq rassomi, O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati O‘rol Tansiqboyev 1904-yil 14-yanvarda tug‘ilgan. 1924—1928 yillarda Toshkent san’at muzeyi qoshidagi rassom N. Rozanov studiyasida, 1929-yilda Penza Badiiy pedagogika texnikumida rus realistik san’atining mohir ustalaridan biri I. Goryushkin, Sorokopudov qo‘lida ta’lim oldi. Ijodini portretlar yaratishdan boshlagan. O‘rol Tansiqboyev asosan 30-yillarda rassom sifatida shakllandi, o‘z asarlarini xalqqa yaqin va tushunarli bo‘lishi uchun tinmay mehnat qildi. Bu vaqtda «O‘zbek portreti», «Oltin kuz», «Karvon», «Hosil» kabi portret,

manzara asarlarini yaratdi. «Ozod bo‘lgan sharq ayollari», «16-yil qo‘zg‘aloni» asarlari rassomning monumental rassomlik sari dadil qadam tashlaganini ko’rsatdi. 1940 yili yaratilgan «Alisher Navoiy» portreti uning ijodida alohida o‘rin tutadi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida «Vahshiyning yo’li», «Ozod qilingan yerlarda», «Partizan ayol» asarlarini yaratish bilan birga jonajon o‘lka manzaralarini gavdalantiruvchi «Qoplonbekda kuz», «Tungi sug‘orish», 15 polotnodan iborat «Urush yillarida» kabi kartina turkumlarini ham yaratdi. Keyinchalik rassom ijodida manzara yetakchi o’rinni egalladi. «Peshin. Ovqat payti», «G‘o‘za sug‘orish», «O‘zbekistonda bahor» kartinalari shular jumlasidandir. Uning «Taxiyatosh» «Qayroqqum GESi tonggi», «Yangi yerda», «Tog’da kuz», «O‘zbekistonda mart», «Kattaqo’rg’on suv ombori», «Bo‘stonliqda bahor», «Tog‘dagi yaylov» kabi asarlari ham tasviriy san’atning yangi yutug‘i sifatida kutib olingan bo’lsa, «Chorvoq qurilishida», «Mirzacho‘l kanali» va boshqa bir qator kartinalari uni mohir rassom, tabiat kuychisi sifatida elga tanitdi.

O’rol Tansiqboev asosan, liroepik rassom edi. Uning har bir asarida jonajon o’lkaga nisbatan cheksiz muhabbat bor. Ana shu muhabbat bilan O‘zbekiston manzarasining ulug’vor tasvirini chizdi. Haqiqiy manzara asari kishida hayotga muhabbat uyg’otadi. O‘rol Tansiqboev chizgan manzaralar ta’sirchanligi ham, qudrati ham ana shunda. Lekin bunday ta’sirchan manzaralar mashaqqatsiz yaratilmaydi, uning har biri o‘ziga xos tarixga egaligi san’at tarixidan ma’lum. Ayniqsa, rassom qadami yetgan joylar ijodkorga qadrdon bo‘lib qolganda, bu asarning ta’sirchanligini yanada oshiradi. Asar ohangidagi bunday oshno tuyg’uni didi o’tkir tomoshabin tez ilg‘aydi. Ba’zan shunday bo‘ladi: bir kartina oldida beixtiyor to‘xtab kolasan-u, unda aks etilgan manzara sen qachonlardir ko‘rgan qadrdon narsalarni xotirangda jonlantirib yuboradi. Ushbu paytda sen yoningda turgan hamrohingga bu asar haqida uzoq so‘zlaging keladi, lekin rassomning asarini so‘zlab berish naqadar mushkulligini ko’rgazma zalidan chiqqaningdan so‘ng his etasan.

U jamoat arbobi sifatida ham qator ishlarini amalga oshirdi. 1959-60 yillarda O‘zbekiston Rassomlar uyushmasining raisi lavozimida ishlab, yosh ijodkor musavvirlarga yaqindan yordam berdi. Taniqli rassom O’rol Tansiqboev 1974 yilda Toshkent shahrida vafot etdi. Undan boy va rang-barang meros qoldi. Uning asarlari mamlakatning yirik muzeylari-Tret`yakov galereyasi, Sharq madaniyati Davlat muzeyi, Olma-ota, Samarqand, Nukus va boshqa shaharlardagi rasmlar galereyasi hamda muzeylaridan munosib o’rin egallagan.

Men buyuk rassom O‘rol Tansiqboev ijodi haqida o’ylaganimda, uning mana bu so‘zlari yodimga tushadi: “Milliy san’at bir kunda yaratilmaydi. U uzoq yillar davomida ko’plab musavvirlarning uzluksiz sa’iy harakatlari mahsulidir. Uni

unutmoq yoki bekorga chiqarmoq mumkin emas; uning an'analariga o'z taqdirini bog'lamasdan manzur bo'larli hech narsa yaratib bo'lmaydi". O'rol Tansiqboyevning bu so'zlarida tajriba, adashishlar, izlanishlar, ijod mashaqqatlari o'z ifodasini topgan. Uning hayot faoliyati, ijodiy yo'li yoshlarimiz uchun ibrat maktabi. Qachonlardir ishini vinochilikdan, ijodini esa vino tayyorlashda ishlatiladigan oq suzma qog'oziga chizishdan boshlagan O'rol Tansiqboyev O'rta Osiyoning mohir manzarachi rassomi sifatida mashhur bo'ldi. Xalqimizga boy meros qoldirib ketdi. Bu meros muzeylarimizda, jumladan O'zbekiston Davlat San'at muzeyi va rassom nomidagi uy-muzeyida ko'z qorachig'idek avaylab saqlanmoqda. Bu asarlar O'rta Osiyo manzaralari haqida go'zal qo'shiqlardir. Uning "Qo'shiq" deb nomlangan asari kishi qalbida o'zgacha hotirjamlik, sukunat uyg'otadi. Unda shunday manzara aks etgan: Bahor. Gullarga bezangan qir. Yashil maysalar hamda chechaklarga burkangan tepaliklar. Uzoqlarda tog' yon bag'irlari. Ufq jozibali. Osmon zangori. Dasht qo'ynida sho'x qizaloqlar qo'shiq boshlaganlar. Bu qo'shiq bahor haqida, gullar va ko'katlar haqida, quyosh va yomg'ir haqida. Qizlarning o'zi ham tabiatning ajib guldastasiga o'xshab ko'rinadi. Olam va ranglar yaxlitlashib, kishi qalbiga kuy bo'lib quyiladi. Bu kuy ruhiyat-qalbda yangi-yangi tuyg'ularning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Tuyg'ular esa dilimizga mazmun beruvchi ruhiyat qushlaridir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarini bajarish mashqlarini qilishga kirishsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nodir Normatov. O'rol og'a saboqlari & O'rol Tansiqboev asarlari. Video albom Xurshid Davron kutubxonasi.
2. https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/nodir-normatov-orol-oga-saboqlari.html
3. O'zbekistonda tasviriy san'atning rivojlanish tarixi
4. https://odam.uz/Qiziqarli/ozbekistonda-tasviriy-sanatning-rivojlanish-tarixi
5. http://taqvim.uz/uz/event/view/345
6. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12).
7. Muslimov, Sherzod Nazrullayevich (2019) "THE ROLE OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF

PROFESSIONALLY-GRAPHIC COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL SCIENCES," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 6, Article 80.

8. Muslimov Narzulla Alikhanovich, Urazova Marina Batyrovna, Muslimov Sherzod Narzulla ugli. (2020). DEVELOPMENT OF DESIGN TECHNOLOGY FOR FUTURE VOCATIONAL EDUCATION TEACHERS, MODEL OF TRAINING AND BASIC INDICATORS OF DISSERTATION. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/ Egyptology*, *17*(7), 10534-10551. Retrieved from *https://www.archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/4088*
9. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, *6*(2), 7. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R
10. Валиев Аъзамжон Нематович. (2021). Об Особенностях Перспективы Простых Геометрических Фигур И Проблемах В Ее Обучении. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, *2*(4), 54-61. Retrieved from https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/116
11. Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo'nalishlari. *Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали*, *1*(6), 137-148.
12. Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos yo'nalish. *Жамият ва инновациялар*, *2*(5/S), 59–67. https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67
13. Kozim, M., Zilola, F., & Sanjarbek, S. (2019). DETERMINATION OF THE PARAMETERS OF THE DEFAULT ISOMETRIC VIEW USING METHOD OF RECTANGULAR AUXILIARY PROJECTION. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, *7*(12).
14. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, *17*(1), 212-214.
15. Khalimov Mokhir Karimovich. (2022). ELEMENTS OF STUDENT SPACE IMAGINATION IN THE TEACHING OF GRAPHIC SCIENCES AND METHODS OF USING IT. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 103–116. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-19

16. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2016). AutoCAD ЧИЗМА ДАСТУРИ ОРҚАЛИ ЧИЗМАЧИЛИКНИ ЎҚИТИШ ВА УЛАРНИНГ ИСТИҚБОЛИ . *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, *32*(3), 53–55. извлечено от https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/851
17. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL: https://moluch.ru/archive/192/48066/
18. Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1
19. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ΛΌГОΣ*. https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09
20. Maxkamova, S., & Jabbarov, R. (2022). Axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 27–29. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5097
21. Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O'QITISH ORQALI TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 145–153. Retrieved from http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335

ЧОРВАЧИЛИК БИНОЛАРИДА МЎЪТАДИЛ ИҚЛИМ ЯРАТИШ ВА ИССИҚЛИК ТАЪМИНОТИ ТИЗИМЛАРИ

Тошмаматов Б.

Бозоров Б.

Қарши Мухандислик Иқтисодиёт Институти,Қашқадарё вилояти Қарши шахри,Мустақиллик кўчаси 225-уй

Baxtiyor_2019@mail.ru

Аннотация.(Abstract). Ушбу мақолада чорвалар парвариш қилинадиган бино ҳавосининг температура намлик режимини экспериментал тадқиқ этиш жараёнида (қиш фасли ташқи ҳаво температураси -3...-5ºС) –бинони ички ҳаво температураси +16....+20ºС нисбий намлиги - 40...70%, бино ичидаги ҳавони циркульяцияланиш тезлиги 0,3...0,5м/с , ёз ва куз фаслида ташқи ҳаво температураси +35....40ºС бўлганда бино ичидаги ҳаво температураси +26...+28 0С, нисбий намлик 65% ва ҳавонинг циркульяцияланиш тезлиги /га тенг бўлган. Чорвалар парваришланадиган бино сувли эр поли орқали бўладиган буғланиш ҳавода намлик миқдорини ўзгариш иссиқлик-масса алмашинуви натижасида амалга ошади

1.Кириш. (1. Introduction)

Илмий тажрибалар шуни кўрсатадики, чорвачилик биноларида намликни меёрдан ошиб кетмаслиги, ферма қурилиши учун жой танлаш, қурилиш материалларини танлаш ва чорвалар сақланадиган бинодан фойдаланиш даврида бажариладиган чора-тадбирларга боғлиқдир.

Чорвачилик биноларидан фойдаланиш даврида ҳаводаги намликни кўпайиб кетмаслиги ёки максимал даражада ушлаб туришга харакат қилиш, яъни совуқ шифт ва деворларни вақтида иситиш, чорвачилик биносини тез-тез тозалаб туриш ва ифлосланган тўшамаларни чиқариб, ўрнига намликни ўзига яхши ютувчи қуруқ тўшамалардан фойдаланиш, сувнинг тўкилмаслигини назорат қилиш зарур. Чорва сақланадиган бинодан сийдик ва гўнгни вақтида чиқариш ҳамда вентиляцияни яхши ишлашини таъминлаш керак. Мазкур чора-тадбирлар биргаликда амалга оширилса чорвалар сақланадиган бинолар ҳавосида намликни кўпайиб кетмаслигига эришилади. Чорвалар сақланадиган бинолар ҳавосидаги намликни кўпаймаслиги учун вақтида вентиляцияни ишлатиб, нам ҳавони ташқарига чиқариш зарур. Яхши ишлайдиган вентиляция ҳаводаги намликни тез камайтиради, чунки ташқаридан кирган совуқ ҳавода ичкаридаги иссиқ ҳавога нисбатан намлик кам бўлади. Шунинг учун ташқаридан кирган ҳаво чорва биноси ичидаги намликни ўзига ютади ва ҳавони қуритади. Вентиляциялар орасида энг

самаралиси ҳавони иситиб берадиган калориферлар ҳисобланади. Намликни ўзига тез ютувчи тўшамалардан фойдаланиш зарур. А.К. Данилова ва бошқалар аниқлашича, тўшамалар ёрдамида чорва бинолар ҳавосидаги нисбий намликни 8-12% га камайтириш мумкин .

Ҳавонинг харакати қуёш энергияси эр юзини бир ҳил қиздирмаслиги натижасида пайдо бўлади. Эр юзининг ҳар ҳил нуқталарида ҳавонинг ҳар ҳил оғирликда ва босимда бўлиши туфайли ҳавонинг юқори ва пастловчи оқими пайдо бўлади. Бу эса ҳавони тик ва ётиқ чизиқ бўйича аралаштиради. Ҳавонинг харакат тезлиги ўтган масофаси, оғирлиги ва ўтган вақтга қараб метр секунд (м/сек) билан ўлчанади. Ҳавонинг харакат тезлигини Бофорт шкаласи билан аниқлаш кенг тарқалган.

2.Тадқиқот ўтказиш услубияти. (2. Materials and methods)

Тадқиқотлар шамол об-ҳаво кўрсаткичи бўлиб, организмига тўғридан-тўғри ва билвосита йўл билан таъсир қилади. Ҳавонинг харакати харорат ва намлиги билан бирга чорвалар парвариш қилинадиган бинода иссиқлик алмашишига таъсир қилади.

3.Натижалар ва мунозаралар. (3. Results and discussion)

Тадқиқотдан олинган маълумотларга кўра, Чорвачилик бинолари ичида ҳаво доимо бўлади ва бир ҳил харакатланмайди. Ҳавонинг харакат тезлиги ва унинг йўналиши вентиляция, эшик, ойналарини очилиши, девор, шифтни ёруғи ҳамда хайвонларни ажратган иссиқлигига боғлиқ бўлади. Қиш пайтларида чорвачилик биносини камчиликлари бўлмаса полдан 0,5-1,0 м баландликда ҳавонинг харакат тезлиги 0,03-0,05 м/сек атрофида бўлади. Куз ва баҳор фаслида чорвачилик ҳоналарни хавосининг харакати анча сусайиб, ёзда эса эшик ва ойна очиқлигида 5-7 м/сек га этади. Чорвачилик биноларини ҳавосининг харакат тезлиги ҳонанинг ён томонлари ва чорвалар ётган худудларда тез ўзгариб туради.

Ҳавонинг харакати нормал бўлса, молларнинг териси атрофидаги ҳаво шунча тез алмашади. Агар ҳавонинг харорати хайвонлар териси хароратидан паст бўлса, тери атрофидаги ҳаво қобиғини бузади, совуқ ҳаво терига таъсир қилиб, конвекция ва буғланиш йўли билан иссиқлик алмашишини кучайтиради. Агар ҳавонинг харорати тери хароратидан баланд бўлса, конвекция орқали иссиқлик ажралиш сусаяди ёки тўхтайди.

Калифорния университети олимларининг ёз вақтида ўтказган икки йиллик тажрибаси шуни кўрсатдики, бир ҳил шароитда боқилган, ташқарининг харорати бўлганда вентеляторлари ишлаб, ҳавонинг харакат тезлиги 1,6 м/сек бўлганда сўқимга боқилган молларнинг кунлик ўсиши

1075-1088 г га этган, ҳавонинг харакат тезлиги 0,2 м/сек бўлганда эса ўсиш 585-848 г бўлган.

Паст хароратда ҳавонинг юқори намлик ва харакатида конвекция, иссиқлик ўтказиш ва иссиқликни сочиш йўллари билан иссиқлик алмашиш кучаяди. Шундай қилиб, ҳавонинг харакати харорат юқори бўлган пайтларда моллар организмини иссиқлаб кетиши ва паст бўлганда эса совиб кетишига сабабчи бўлади.

Иссиқлик аккумулятордаги гидродинамик ва иссиқлик алмашинув қатламларида жараёнлар, иссиқлик ташувчининг тезлиги ва температурасига боғлиқ бўлади.

Агар чорвалар парвариш қилинадиган бинонинг иссиқлик сарфи 4000 Вт бўлиб, бинонаинг ички ҳарорати 20да тутиб туриш лозим бўлса, киритилаётган ҳавонинг ҳарорати 30/ бўлганда, киритилаётган ҳавонинг миқдорини қуйидагича аниқлаймиз:

Чорвалар парвариш қилинадиган бинони иситиш учун киритилаётган ҳаво миқдори:

$$G_{l,s} = \frac{4000 \cdot 3600}{1005(30-20)} = \frac{144000000}{10050} \approx 1440 \frac{kg}{soat}$$

Ҳавони иситиш учун берилаётган ҳаво ҳажмини аниқлаймиз.

$$L_{is} = 1440 : 1{,}11 = 1300 \frac{m^3}{soat}$$

Чорвалар парвариш қилинаётган бино ичидаги миқдори:

$$L_{kel} = 1440 : 1{,}205 = 1100 \frac{m^3}{soat}$$

Шунингдек бино ичида иссиқ ҳаво айланма циркульяцияси

$$L_{kel} - Ä_{x.a} = \frac{1440}{1{,}205} - 100 = 1200 \frac{m^3}{soat}$$

Чорвалар сақланадиган биноларда микроиқлим кўрсаткичлари

1-жадвал

Кўрсаткичлар	**Чорваҳоналар**		**Бузоқ-бинода**	**Профила кто-рияда**
	Боғлаб ва боғламай	**Қалин тўшамада**		
Ҳарорат, 0С	10(8-12)	6(5-8)	16(14-18)	18(10-18)
Нисбий намлик, %	70(50-85)	70(50-85)	70(50-85)	70(50-85)
Ҳавонинг алмашиши, м3/с 1 с оғирликка				
Қишда	17	17	17	-
Ўтиш даврида	35	35	35	-

Ёзда	70	70	70	-
Ҳавонинг харакат тезлиги, м/с				
Қишда	0,3-0,4	0,3-0,4	0,2	0,1
Ўтиш даврида	0,5	0,5	0,3	0,2
Ёзда	0,8-1,0	0,8-1,0	0,5	0,3-0,5
Ҳавонинг алмашиши, м3/с ҳар бир бошга				
Қишда				20
Ўтиш даврида				30-40
Ёзда				80
Ҳаводаги микроб сони/м3	70	70	50	20
Карбонат ангидрид,%	0,25	0,25	0,15	0,15
Аммиак, мг/м3	20	20	10	10
Водород сулфид, мг/м3	10	10	5	5

4. **Хулосалар. (4. Conclusions)**

Таҳлил натижаларидан хулоса қилиш мумкинки, паст хароратда ҳавонинг юқори намлик ва харакатида конвекция, иссиқлик ўтказиш ва иссиқликни сочиш йўллари билан иссиқлик алмашиш кучаяди. Шундай қилиб, ҳавонинг харакати харорат юқори бўлган пайтларда моллар организмини иссиқлаб кетиши ва паст бўлганда эса совиб кетишига сабабчи бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати (References)

1. Авезов Р.Р., Орлов А.Ю. “Солнечные системы отопления и горячего водоснабжения” Т.: “Фан”. 1988- 282с
2. Артемьев В.И, Елисеев О.А. Приусадебное птицеводство. Л.: Агропромиздат. 1988.- 96с.
3. Ануфриев Л.Н, Кожеинов И.А, Позин Г.М. Теплотехнический расчёт сельскохозяйственных производственных зданий. М.: Строиздат 1974- 221с.
4. Амерханов Р.А, Гарькавий К.А., Шевчук И.В. “ Решение задачи воздухообмена в животноводческом помещении: Энергообеспечение и энергоосбережение в сельском хозяйстве. Тр. 3-й Международной научно- технической конференции (14-15 мая 2003г : М.: ҒНУВИЭСХ).С. 380-385.”
5. Ахудов Д.С., Мурусибзе Д.Н., Чугунов А.И., Ерохин Л.П., Зайцев А.М. Микроклимат животноводческих помещений и энергосбережение //

Механизация и электрофикации сельского хозяйства.- 1997- Н 12. –С. 9-13.

6. Ачалин М.М. Энергосберечающая система вентиляции для животноводчесных помещений.// Механизации и электрофикация сельского хозяйстве.- М.: 2000 №8. с-18-21

TERORISTIK FAOLIYATLARDA O‘Z JONIGA QASD QILISH SINDROMINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Odinaxon Mansurova
GulDPI stajor-o‘qituvchisi

Globallashuv jarayoni nihoyatda tez suratlarda o‘sib borayotgan bunday davrda informatsion axborotlar dunyo hamjamiyatida tarqalish tezligi insonning psixologik holatiga kuchli tasir qiladi. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatini oldidagi katta muammolardan biri bu o‘z joniga qasd qilish hisoblanadi. O‘z joniga qasd qilishning jadallashini biz o‘tgan 45 yil ichda 60% ga o‘sganligi uning bundan keying holati bundanda tezlashishi mumkinligidan darak berdi. O‘z joniga qasd hujumlari ekstremist guruhlar o‘rtasida tobora kengayib borayotgan terorizm uslubiga aylandi. So‘nggi uch o‘n yillikda bu holat jahonning ko‘pgina mamlakatlarida sodir etildi, shulardan Livan, Isroil, Shri-Lanka, Iroq, AQSh, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Jazoir, Marokash, Turkiya, Checheniston, va boshqalar. Bu fenomenning psixologik-ijtimoiy tavsifi va uchta asosiy savolga javoblarni o‘z ichiga oladi.

1.Nima uchun terroristik tashkilotlar o‘z taktikasini shahidlik strategiyasida o‘tkazadilar ?

2. Nima uchun odamlar o‘z qasd qilishning portlatish yo’lini tanlaydi ?

3. O‘z joniga qasd qilish usullarini kim qo‘llab-quvvatlaydi va nima uchun?

Bu savollarga javob topish teroristik suitsidlarning sodir etish sababi demakdir. O‘z joniga qasd terrorizmini tushunishning ba’zi bir hususiyatlari bir nechta mualliflarning fikriga ko‘ra, ijtimoiy psixologiya - odamlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarining boshqa odamlar tomonidan qanday ta’sirlanishini ilmiy o‘rganishdir. Ijtimoiy ta’sir fenomeni ijtimoiy psixologiyaning qoq markazida. Ba’zan bu ta’sir qasddan yoki bevosita bo‘lmasligi mumkin. Ammo inson jamiyatda yashar ekan uning atrofidagilar tasiri mavjud bo‘ladi va bu tasirlar bazan kuchli hislarni ujudga keltirib malum harakatga undaydi. Odamlar boshqalarga ta’sir qilish uchun qo‘llashi mumkin bo‘lgan turli taktikalar mavjud. Terrorizm odamlarni yoki guruhlarni siyosiy yoki ijtimoiy mavqeini o‘zgartirishga majbur qilish vositasi sifatida qo‘rquvni kuchaytirish uchun kuch va zo‘ravonlikdan foydalanishni nazarda tutadi, ya’ni qo‘rquv orqali ijtimoiy ta’sir

terrorizmning asosiy maqsadidir. Shubhasiz, xuddi o‘z joniga qasd qilish terrorizmi ham malum darajada shunday asosga tayanadi.

O‘z joniga qasd qilish sindromining ko‘rinishi terrorizmning ko‘plab davolanishlariga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, o‘z joniga qasd hujumlari ayrim aniq sabablarni qidirishga chaqiradigan sindromga o‘xshaydi: ichki (masalan, shaxsiyat xususiyatlari) va yoki tashqi sabablar (masalan, qashshoqlik, siyosiy zulm). Boshqacha qilib aytganda, o‘z joniga qasd qilish terrorizmni ba’zi ijtimoiy yoki psixologik buzuqliklarning bevosita ta’siri sifatida ko‘rish mumkin. Yani asl suitsidga moyil insonni teroristik aktlardagi harakatiga yordam berish orqali o‘z maqsadi amalga oshirishni tushinsa bo‘ladi. Empirik tadqiqot, o‘z joniga qasd hujumlarida va ularning rahbarlarida hech qanday farq qilmaydigan ruhiy bezovtalikni ko‘rsatmadi. Ikkalasining profillilari ham o‘z xatti-harakatlarini jiddiy tushuntirishga yetarli darajada ma’lumotga ega emaslar. Va nihoyat, o‘z joniga qasd terrorizmga qarshi "tub sabablar" deb atalgan ijtimoiy yoki vaziyatning ta’siri haqida jiddiy shubha vujudga keldi. Shu sababli, o‘z joniga qasd qilish terrorizmi qashshoqlik yoki siyosiy zulm kabi ba’zi ildizlarning muqarrar oqibatlaridan kelib chiqishi mumkin emas. Shu bilan bir qatorda, terrorizm, jumladan, o‘z joniga qasd qilish terrorizmini oxirigacha va har qanday odamni ishlatishi mumkin bo‘lgan urush usuli yoki qurol sifatida ko‘radi. Bu taxmin, turli maqsadlarga erishish uchun o‘z joniga qasd hujumlarini amalga oshirgan turli ekstremistik guruhlarga taalluqli dalillar bilan mos keladi.

O‘z joniga suiqasd qilish - tajovuzkorning o‘limiga bog‘liq bo‘lgan tajovuzkor operatsiya. Bunday xatti-harakat ba’zi bir ratsionallik darajasini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ijtimoiy fanlardagi eng ta’sirchan nazariy modelga ko‘ra, shaxslar, tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar odatda oqilona aktyorlar kabi harakat qilishadi. O‘zini aqlli aktyor, u o‘zining eng yaxshi manfaatlariga ishonadigan tarzda harakat qilish uchun foydalanadi. Boshqacha qilib aytganda, oqilona aktyorlar o‘zlarining maqsadlariga erishish yoki o‘z xohish-istaklarini qondirish uchun eng samarali vosita deb hisoblagan xatti-harakatlarni tanlaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, ratsionallik, terrorizmga vosita nuqtai nazariga mos keluvchi instrumental yoki maqsadli harakatlar bilan bog‘liq. O‘z joniga qasd qilish harakatlarining instrumental orientatsiyasi tushunchasi ikki asosiy sababga asoslangan.

Birinchidan, o‘z joniga qasd hujumlarining aksariyati xavfli, ammo aniq jadval va ko‘rsatmalarga muvofiq kampaniyalarda to‘planganligi.

Ikkinchidan, o‘z joniga suiqasd qilish hujumlarini uyushtirgan guruhlar va rahbarlar ushbu usulni muayyan strategik maqsadlarga erishish uchun boshqalar orasida tanlaydilar.

Jihod rahbarlari va mafkurachilar o‘z joniga qasd bombardimalarini oqlash va o‘z joniga qasd hujumi kampaniyalarini amalga oshirgan aksariyat terroristik tashkilotlarning evolyutsiyasini tahlil qilish uchun ishlayotgan dalillari bunday zo‘ravonlik faoliyatining instrumental ma’nosini aniq ko‘rsatmoqda. Ko‘ngillilar o‘zlarini bu haqda to‘liq xabardor qilishni xohlamasligi mumkin, lekin ularning o‘limi odatda ma’lum strategik, operativ va taktik maqsadlarga erishish uchun mo‘ljallangan rejaga xizmat qiladi. O‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq asosiy strategik maqsadlar xorijiy bosqinchilar kuchlarini chiqarib tashlash, milliy mustaqillikka erishish, mustaqillik yoki siyosiy rejimni almashtirish, davom etayotgan zo‘ravon to‘qnashuvlarning kuchayishi yoki siyosiy, etnik yoki diniy mojarolar uchun tinch yo’llar bilan hal qilish jarayonining buzulishiga hizmat qiladi. Bundan tashqari, bu usulning taktik va operativ afzalliklari mavjud. Eng muhimi, o‘limning yuqori darajasi, kuchli psixologik va ijtimoiy ta’sir, ommaviy axborot vositalarining yoritilishini ommaga jalb qilish, maqsadli auditoriyalarga tegishli xabarlarni etkazish orqali qat’iyatlilik, tanglikni kuchaytirish, neytral kuzatuvchilarni jilovlash, dushmanni haydashga erishiladi va yaxshi himoyalangan va yuqori maqsadlarga erishish, uzoqdan qo‘mondon tizimlaridan mustaqil bo‘lish, portlovchi moslamalarni faollashtirish, zarur qochish rejasi, tajovuzkorlarni qo‘lga olish kabi afzallikka ega bo‘ladi. Barcha bu afzalliklarni inobatga olgan holda va shunga o‘xshash ratsionallik instrumental motivatsiya va harakatning foydalari va xarajatlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi, "o‘z joniga qasd hujumini qilish oqilona qarorning natijasidir". Ammo, u mutlaqo oqilonami yo aksinchami. Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘z joniga qasd terroristik kampaniyalarining strategik darajadagi instrumental mantiqqa rioya qilishiga rozi bo‘lishsa-da, toza ratsionallik bu hodisani to‘liq tushuntirib bera olmasligini aytish uchun bir necha sabablar mavjud. O‘z joniga suiqasd qilishda terrorizm bilan bog‘liq tuyulgan turli sabablar bor. Insonlarni o‘zini portlatib yuborish yoki o‘z joniga qasd qilish terrorizmiga qarshi turishga undovchi "natija yo’naltirilgan" motivatsiyalarning ta’sirini bor bunda albatta portlatib yuborish shartmi degan savol vujudga keladi. Buning sababi, insonning og‘riq va shaxsiy yo’qotish, tahqirlash, nafrat yoki intiqom bilan bog‘liq tuyg‘ular hal qiluvchi motivatsion rol o‘ynashi mumkin. Bu tuyg‘ularni diniy qarashlarga qorishtirish nimaga olib keladi. Masalan, intervyudan olingan ma’lumotlarga asoslanib, Atran "shahidlar" bo‘lish majburiyatining chuqur ma’no-mazmuni diniy yo’naltirilgan o‘z joniga qasd qilish bomba tashuvchilari orasida noan’anaviy motivatsiya tarqalishini tasdiqlaydi.

O‘z joniga qasd terrorizmi nuqtai-nazariga qarama-qarshi bo‘lgan yana bir dalil, oqilona tanlov nazariyasining o‘z cheklashlaridan toptalishi mumkin. O‘zining avvalgi versiyasida ratsional tanlov nazariyasi odamlarning ratsionalligi

deyarli mukammal bo‘lishga intiladi. Biroq, psixologik tadqiqotlar inson aqli va tanlovining ratsionalligi inson aqli va uning tuyg‘u va g‘ayrati bilan bo‘lgan o‘zaro bog‘liqliklari sababli cheklanganligi va nomukammalligi bilan chegaralanganligini ko‘rsatdi. Har qanday terroristik harakatni tushuntirishga ruhiy-ijtimoiy yondashuv cheklangan ratsionallik tamoyilini yodda tutishi kerak. Ushbu yondashuv Elster ning quyidagi fikrlari bilan mutanosibdir: "O‘z hayotini qurbon qilish orqali birovning hayotini qurbon qilishga tayyor bo‘lishning hech qanday foydasi yo’q, boshqalarni o‘ldirish uchun yana bir insonni o‘limga tayyorlash ham huddi shunday... biroq ba’zi hollarda o‘z joniga qasd hujumlari asosiy sabablarning noturg‘unligi yoki ayrim tajovuzkorlarning noto‘g‘ri e’tiqodga duchor bo‘lishi sababli bu haqdagi qarashlar mutlaqo o‘zgarishi mumkin "

Qanday insonlar o‘zini portlatishi mumkinligi holatini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan odamlarning psixologik xususiyatlarini ijtimoiy ta’sir o‘tkazish jarayoni natijasida tushuntirishga harakat qilinadi. Noyob odatiy profil mavjud bo‘lmaganligi sababli, avvalgi psixologik-ijtimoiy taxminlar o‘z joniga qasd qilishni istamaslikning kelib chiqishini aniqlash uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Terrorizmga erishish, asosan, sotsializm masalasi, radikallashtirish va zo‘ravonlik faoliyatiga jalb qilinish, ekstremistik mafkurani oldin qabul qilgan odamlar bilan aloqa qilib turish bilan osonlashtiriladi. Ijtimoiy munosabat - bu shaxslar terror hujumini amalga oshirish uchun o‘z hayotlaridan voz kechish istagini rag‘batlantiradigan va "oqlash" ga sabab bo‘lgan "sabablar" ga ega bo‘lgan vositadir. Terrorist guruhga integratsiyalashuvning sharti sifatida, ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar, o‘z joniga qasd qilish ishtiyoqida ishtirok etmoqchi bo‘lgan kishilarning bu istakni amalda qo‘llashiga imkon yaratadi. O‘z joniga qasd qilishni yakunlovchi bombardimonchilar va radikal tarmoqlar yoki ekstremistik tashkilotlarning a’zolari o‘zaro ta’sirning ikki turini kuzatishi mumkin. Birinchisi, o‘z joniga suiqasd qilgan shaxslarning radikal tarmoqqa yoki terroristik tashkilotga qo‘shilish tashabbusini o‘z zimmasiga olishi mumkin bo‘lgan eng past modeldir. Sageman 2004-2008 yillarda tomonidan olib borilgan tadkikotlar ushbu turdagi odamlarni "global salafiy jihod" harakatiga jalb qilish uchun muhimligini ko‘rsatdi. Sageman o‘z joniga qasd hujumlarini qo‘llab-quvvatlovchi va qo‘llab-quvvatlaydigan bu zo‘ravon harakatlarga qo‘shilishni, asosan, quyi darajadagi faoliyatdan iborat ekanligini ta’kidladi. Bir tomondan, "Al-Qoida", chunki u yanada mashhur tashkilot bo‘lib, yuqoridan pastga rasmiylashtirish dasturiga ega emas. Boshqa tomondan, 11-sentyabr hujumlariga qarshi reaktsiya "Al-Qoida" ning operatsion halokatini keltirib chiqardi va buning oqibatida Al-Qoida nomi bilan joniga qasd hujumlarini davom ettirayotgan guruhlar Al-Qoida etakchiligiga rasmiy ravishda bo‘ysunmaganlar. Birgalikda yig‘ilgan va Al-Qoida nutqidan ilhomlangan do‘stlar

to‘plami nimadir qilishga qaror qildi. Lekin bu ,,Al-Qoidaning‘’ rasmiy buyruqlari emas edi. Sageman nuqtai nazari boshqa mutaxassislar tomonidan qattiq tanqid qilingan bo‘lsa-da, biz avvalgi ijtimoiy aloqalar (qarindoshlik, do‘stlik va keyingi norasmiy guruhlar) o‘z mahallalarida uchrashgan shaxslar va guruhlarning radikallashuvini qanday engillashishiga e’tibor berishimiz kerak. O‘z joniga qasd qilish bomba qurolini yaratishga hissa qo‘shadigan ijtimoiy ta’sir o‘tkazish orqali ta’sirning ikkinchi shakli yuqori yoki pastki qism hisoblanadi. Bu nizom terrorchilik tashkilotlarining etakchilari va a’zolari tomonidan o‘z joniga qasd qilishni istagan shaxslar bilan aloqada bo‘lish va ularga aloqador bo‘lgan tashabbuslarni, shuningdek, ularni jalb qilish, ularni targ‘ib qilish va o‘qitishni o‘z ichiga oladi. Hozirgacha o‘z joniga suiqasd qilish hollari kamdan-kam hollarda bitta odam tomonidan amalga oshiriladi, biroq a’zolari yoki tashkilotlari, guruhlari yoki kattaroq tarmoqqa biriktirilgan hujayralar tomonidan o‘z joniga qasd terrorizmini tushunish uchun bu kabi ta’sirlar jarayonlarini inobatga olish doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi . Xafiz ta’kidlaganidek, terroristik guruhlar va tashkilotlar siyosiy yoki diniy sabablar tufayli o‘z jonlarini qurbon qilish uchun yangi ko‘ngillilarni jalb qilish uchun safarbarlik tuzilmalari roli beqiyos. Boshqa tomondan, ba’zi tadqiqotlar mazhabiy guruhlar va terroristik tashkilotlarda qo‘llaniladigan usullar o‘rtasidagi sezilarli o‘xshashliklarni aniqladi. Har qanday holatda, terroristik tashkilotlarda qabul qilingan faoliyat va turmush tarzi a’zolarining mentalitetini shakllantiradi, bunday holatlar tashkilotlarga bo‘lgan sadoqatni kuchaytiradi va ularni o‘z joniga qasd hujumi sifatida zo‘ravonlik faoliyatida ishtirok etishga tayyorlaydi. O‘z joniga qasd qilish bomba tashuvchilari bo‘lishi mumkin bo‘lgan odatiy tashkiliy amaliyotlar majburiy yoki diniy marosimlar singarilar, missiyadan bir necha kun oldin yozma yoki videotasvirli bayonotlarni tuziladi va ularni integratsiyalashuv zarur bo‘linmalarga jo‘natiladi sababi vaqtinchalik bu kabi holatni saqlab qolish zaruriyati mavjud.

Teroristik aktlardagi suitsid holatlari undash o’zining kuchli psixologik asoslariga ega va bu harakatlar doimiy tarzda diniy tushunchalarni noto’g’ri talqini bilan olib boriladi. Aslida uning zamirida doimo qandaydir siyosiy manfaat yotadi.

YUQORI SINF O'QUVCHILARINI JISMONIY TAYYORGARLIGINI TASHKILIY PEDAGOGIK ASOSLARI

G`afforov Ulug`bek Abdug`ani o`g`li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universitetining O`zbekiston-Finlandiya pedagogika isntituti Aniq-tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat nazariyasi fakulteti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasi 2-bosqich magirtranti

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, fiziologiya, antropologiya, funksional tayyorgarligi, psixologik rivojlanganligi, harakat imkoniyatlari, jismoniy sifatlar, mashqlarni me'yorlash

Bugungi kunda taraqqiyot yo'lidan ildam qadamlar bilan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or pedagogik zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Ushbu siyosatning asosiy tamoyillarida biri ta'limning uzluksizligi va izchilligidir. Uzluksiz ta'limning Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etilishining sabablaridan biri ham ana shundandir. Inson salomatligi jamiki bor narsaning hammasidan ustun va qimmat turadi.Ayniqsa insonni eng yoshligidanoq sog'lom qilib tarbiyalash uni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash esa undan ham qimmat turadi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida o'qovchi yoshlarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalarini hamda aholini jismoniy tarbiyasi bo'yicha bir qator muammolar O'zbekiston Respublikamizning yetakchi olimlari tomonidan xorijiy ko'zga ko'ringan yetakchi pedagoglar tomonida nazariy jihatdan o'rganilgan.

Maktabgacha hamda maktab yoshidagi o'quvchi-yoshlarning alohida jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari fiziologiya, antropologiya, meditsina va boshqa fanlarda keng ommalashtirishning o'ziga xosligini bildirishgan.

Keyingi yillarda I.Aliyev Z.B.Boltayevlar tekshirishlaridan bir xil yoshdagi o'quvchi-yoshlarning bo'yi, og'irligi, funksional tayyorgarligi, psixologik rivojlanganligi ularning harakat imkoniyatlari ham bir xil emasligi ayon bo'lgan.

Shuning uchun mualliflar faqat yuqori sinf o'quvchi-yoshlari uchun belgilangan bu xususiyatlar va me'yorlar o'quvchilarni jismoniy tayyorgarligiga yetarli darajada mos emasligini uqtirishgan. Bir xil yoshdagi va bir xil jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchi yoshlarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi har xil ekanligi ta'kidlangan.Natijada umumiy o'rta talim maktablari dasturida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi, harakat sifatlarining o'sishi bo'yicha kamchiliklar va xatolar yaqqol

ko’zga tashlanadi.Jismoniy tarbiyaning muhim muammolarida biri harakat faoliyatiga o’rgatishning yangi uslub va shakllarni yaratishdan iboratir.

O’quvchilar jismoniy tayyorgarligi darajasining orqada qolishi va ularning har xil tayyorgarligi, nazariy asoslari va ularni amaliyotga tadbiq qilish yo’llarini ishlab chiishni hisobga olish kerakligini isbotlashgan.Bolalar uchun jismoniy tarbiyaga bog’liq chora tadbirlarni ishlab chiqish mashg’ulotlar tashkil qilish va o’tkazishda ularning jinsiy farqini qat’iy hisobga olish kerak. Bu esa jismoniy tarbiya darslarida qo’llaniladigan mashqlarni me’yorlash juda muhimdir.

Shu boisdan jismoniy tarbiya tizimida muhim tamoyilni joriy etish uchun o’quvchilarning sog’lig’ini ta’minlash, jismoniy rivojlanganlik va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish doimo dolzarb muammolaridan bo’lib kelgan. Shu sababli jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi har xil bo’lgan o’g’il qizlarda jismoniy sifatlarni tayyorlash uchun individual dasturlar tuzish, mashqlar majmuasini ishlab chiqish, dars jarayonida o’quvchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish jismoniy tarbiya jarayonida dolzarb masalalardan biri.

Xulosa: Yuqori sinf o’quvchilarini jismoniy tayyorgarligini shakllantirishda ularni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy mashq va yuklamalarni berish ularni jismoniy sifatlarini nisbatan bir xil shaklda rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. “Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida” gi qonun. Xalq so`zi gazetasi 2000 yil. 26-may
2. A.Abdullayev, Sh.Xonkeldiyev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Toshkent 2006 yil.
3. M.S.Axmatov. Uzluksiz ta`lim tizimida ommaviy sport harakatining tashkiliy va boshqaruv asoslari. Fan-sportga 2004 yil.
4. WWW.Ziyo.Net

МУТАХАССИСДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ФУНДАМЕНТАЛ ЭЛЕМЕНТЛАРИ

Гаффаров Лазиз Хасанович
Педагогик инновациялар касб-ҳунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти таянч докторанти

Компетентлик шахснинг ўз касбий фаолиятини сифатли амалга ошириш учун ички мотивацияга эга эканлигини, шунингдек, касбий қадриятлар ва ўз касбига қадрият сифатида муносабатини англатади. Баркамол мутахассис ўз

касбининг предмети доирасидан ташқарига чиқа олиши, шунингдек, ўз-ўзини ривожлантириш учун ижодий салоҳиятга эга бўлиши керак.

Кўпгина тадқиқотчилар компетенция таърифини мақсад, контекст, вазиятга қараб юқори самарадорликка эришиш учун асосий элементларни бир бутунга бирлаштириш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган таълим фаолияти натижаси билан тўлиқ боғлашади. Замонавий таълим муассасасида ўқув жараёнини такомиллаштиришнинг иккита асосий йўналиши белгилаб қўйилди, бу эса уни ташкил етишда иккита ёндашувга олиб келди. Ахборот ёндашуви ахборотлаштириш, оммавий характер, фундаменталлик, таълимнинг узлуксизлиги тендентсияларини бирлаштиради. Унинг таълим жараёнига татбиқ этилиши профессионал таълим амалиётида масофавий таълим элементларидан фаол фойдаланишга, мазмуни ва ўқитиш технологияларини қайта кўриб чиқишга олиб келади. Ушбу ёндашувнинг мақсади ўқувчиларда мавжуд ва доимий равишда ўсиб бораётган ахборот ресурсларидан самарали фойдаланиш қобилиятини шакллантиришдир.

Бир қатор муаллифлар ўз тадқиқотларида таълим сифати муаммоларини ўқувчи ўқув жараёнида ўзлаштирган касбий компетенциянинг зарур даражаси билан боғлайдилар. “Компетенция – профессионал таълим муассасаси тамомлаган битирувчиларнинг ўз фаровонлиги ва жамият фаровонлиги учун шахсий жавобгарликни ўз зиммасига олишга тайёрлиги ва қобилиятидир”.

Назарий манбалар мазмуни билан танишиш, таълим муассасалари фаолиятини ўрганиш ва далилларни таҳлил етиш битирувчиларни касбий компетентлигини шакллантиришда бир қатор қарама - қаршиликлар мавжудлигини кўрсатди, хусусан:

- профессионал таълим муассасаси битирувчисининг этук мутахассис маълумоти даражаси билан Давлат таълим стандартининг модернизациялашган мазмуни ва ҳажмига қўйилаётган меъёрий талаблар ҳамда унинг шахсий имкониятларини рўёбга чиқариш даражаси ўртасида;
- профессионал таълим муассасаларида битирувчисининг касбий компетентлигини шакллантириш жараёнида қўлланилаётган анъанавий ҳамда инновацион методлар ўртасида;
- ўқувчи шахсий ва унинг касбий компетентлигини шакллантиришда педагогик жиҳатдан қўллаб-қувватлашга қаратилган профессионал таълим муассасалари фаолияти билан битирувчини рақобатбардош кадр сифатида тайёрлаш жараёнини ривожлантириш механизми ҳамда қонуниятлари ўртасида;

- педагогик туркум фанларнинг ўқувчи шахсий ҳамда касбий компетентлигини шакллантириш борасида умумкасбий ва махсус фанлари билан интеграциялаш имкониятларидан этарлича фойдаланилмаётганлиги ўртасида;
- илмий-техник тараққиёт, янгиланиб бораётган жамиятнинг маҳоратли мутахасис шахсига нисбатан ортиб борувчи талаблари билан ўқувчилар касбий компетентлигини шакллантириш асосий қисмининг ўз-ўзини ривожлантириб бориш шароитида фаолият юритишга тайёр эмасликлари ўртасидаги зиддиятлар кабиларни кўрсатиш мумкин.

Касбий компетенция ахборот, коммуникатив, протсессуал характерга эга бўлган маълум ваколатлар мажмуи сифатида шаклланади. Бизнинг фикримизча – касбий компетентлик касбий фаолиятга бўлган муносабати, унда зарурат ва қизиқиши, интилишлари, фаолиятдан мақсади, ўзининг ижтимоий ўрнини тасаввур қилиши ҳамда амалда қўллашидан иборатдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий
2. шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.докт. Дисс. –Т., 2007.-349.
3. Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётларини яратишнинг назарий ва услубий асослари. Педаг. Фан.док. Дис. – Т.: ТДПУ. 2005. – 274б.
4. Каримова Н.Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси Автореферати Тошкент – 2018.
5. Жураев А.Р.Дастурлаштирилган таълим воситалари асосида
6. бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетенцияларини шакллантириш методикасини такомиллаштириш. 13.00.05 - Касб – ҳунар таълим назарияси ва методикаси ихтисослиги бўйича Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) Диссертацияси автореферати. Тошкент. 2019.
7. Гаффаров Л.Х "Касбий компетентликни ривожлантиришда дастурий воситалардан самарали фойдаланиш" номли услубий қўлланма Тошкент 2022-120 бет
8. Турматов Ж.Р.Касб таълими ўқитувчиларида тадқиқотчилик компетенцияларида тадқиқотчилик компетенцияларини шакллантириш методикасининг дидактик таъминотини такомиллаштириш. 13.00.05 - Касб – ҳунар таълим назарияси ва методикаси ихтисослиги бўйича

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) Диссертацияси автореферати. Тошкент. 2019.
9. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения [Текст] / И.Я. Лернер. - М., 1981. – 369 с.

BUXGALTERIYA HISOBIDA ILG‘OR AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Abdusaidov Sanjar Jaloliddin o’g’li
Agro kimyo ta`minot servis MCHJ, bosh xisobchi
Samarqand

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobida ilg‘or axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari haqida so`z yuritilgan. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini tashkil etishning innovatsion texnologiyalariga asoslangan shakllarining mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari haqida bayon qilingan. Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati hamda xozirgi davrda xorijiy mamlakatlarda buxgalteriya hisobini yuritishda qo’llanilayotgan dasturiy ta’minotlar, bulutli texnologiyalar, blokchayn texnologiyalarini qo’llashda vujudga keladigan qulayliklar va kamchiliklar tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: buxgalteriya, raqamli texnologiyalar, mahsulot, boshqaruv, zamonaviy axborot texnologiya, kredit, moliya, hisoblash.

Mamlakatimizda jadal olib borilayotgan iqtisodiy o’zgarishlar tufayli, yurtimizda iqtisodiyotni yanada keskin rivojlantirish va takomillashtirish, Yangi O’zbekistonda ishlab chiqarish (xizmatlar ko’rsatish) ya’ni xo’jalik yurituvchi subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta’sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so‘nggi o‘n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko‘rish kifoya. Axborot asri deya e’tirof etilayotgan bugungi kunimizda axborot kommunikatsiya

tizimi izchil rivojlanishda davom etmoqda. Bugun zamonaviy axborot texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur etib bo'lmaydi.

Mamlakat darajasida ushbu soha rivoji muhim omillardan biriga aylangan. Shu bois ham mamlakatimizda telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa sohani xalqaro andozalarda mexanizasiyalashtirish va rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olingan. Amaliy harakatlar natijasida yurtimizning olis mintaqalarida axborot resurslarini yaratish va undan foydalanish samaradorligi oshirilmoqda. Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'nalishlar ochib beradi. "Raqamli texnologiyalar" tomon burilishga butun jahon internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo'ldi.

Ma'lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo'shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli xil algoritmlar, jarayonlar va raqamli axborotlar korporativ biznesning strategik rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lmoqda. Raqamli nomoliyaviy omillar banklarning raqobatbardoshligini belgilab bermoqda, samaradorligiga ta'sir ko'rsatyapti . Dunyo iqtisodiyotining va axborot texnologiyalarining rivojlanishi buxgalteriya hisobini ham rivojlanishiga asos yaratdi. Bu esa buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish imkoniyalarini yaratdi. Bugungi kunda mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritishda birqancha dasturiy ta'minotlardan foydalanilmoqda, jumladan 1uz, 1c, uzasbo, estat dasturlaridan foydalanib kelmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirishi natijasida buxgalteriya hisobini tashkil etishning quyidagi usularidan foydalanish mumkin.

- 1uz, 1c, uzasbo, estat kabi dasturiy ta'minotlarni ma'lumotlar bazasiga ulash orqali faoliyatni yuritish;
- bulutli texnologiyalardan foydalanish Google drive(disk),yandyex disk, Onedrive, dropbox texnologiyalaridan foydalanish;
- blokcheyn texnologiyasidan foydalanish;
- mobil buxgalteriya hisobidan foydalanish.

Har bir texnologiyani buxgalteriya hisobida qo'llashning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. 1uz, 1c, uzasbo, estat kabi dasturiy ta'minotlari buxgalterlarga buxgalteriya hisobining bir-biriga bog'langan sohalarini yuritish, boshqaruv xodimlariga tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini beradi.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish buxgalterlar ishini va ma'lumotni qo'lda qayta ishlash bilan solishtirganda ancha osonlashtiradi. Buxgalteriya

hisobini avtomatlashtirish boshlang'ich xujjatlarni avtomatik tarzda rekvizitlarni to'ldirish, ko'p hajmli ma'lumotlarni qayta ishlash, ma'lumotlarni turli ko'rinishlarda foydalanuvchilarga taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, ortiqcha qog'oz sarfi oldi olinadi, rahbariyat va quyi bo'g'inlar, tashkiliy bo'linmalar o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi, arifmetik xatolarni bartaraf etish, nazorat qiluvchi organlar va banklar bilan onlayn aloqa, qonun hujjatlaridagi o'zgarishlarga tezda javob berish qobiliyatlarining mavjudligi bilan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratadi.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo‘nalishlarini sanab o‘tish maqsadga muvofiq: Raqamli texnologiyalar barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sog‘liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog‘iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to‘liq qoplashni bosqichma-bosqich ta’minlash;

Kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish va bu yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni yetishtirish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘qitish, shu jumladan, xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda natijasi yuqori bo’lgan loyihalarni sinovdan O’zbekiston hududida amalga oshirish;

Xulosa qilib aytganimizda korxonalarda ma’lumotlar bazasini yaratish va ularni saqlashda raqamli texnalogiyalar judayam ahamiyatga ega. Korxonalarda buxgalteriya hisobi registrlarini to’g’ri va tizimli yuritishda va buxgalteriya provodkalarini to’g’ri amalga oshirishda judayam aniqlik kerak bo`ladi va xatolarni kamaytirish va osongina tuzatish, ish joyi va vositasining ahamiyatini kamaytirishga keng manoda bizga raqamli texnalogiyalar judayam katta yordam beradi.

Mehnat samaradorligini oshirishda, operativ hisob va hisobotlarni muntazam nazorat qilib borish, mahsulot tannarxi va kalkulyasiyani aniq hisob-kitob qilish, moliyaviy axborotlar va hujjatlarni tezkor aylanishini ta’minlashda, buxgalteriya va soliq hisobotlarini to’g’ri shakllantirishda va hisob yuritish bilan bog’liq

xarajatlarini tejashda bizga raqamli texnalogiyalar judayam katta yordam beradi.Bizning takliflarimiz quyidagicha:

1. Xodimlarni axborot texnologiyalar bilan ko'nikmalarini oshirib borish.

2. Buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan axborot texnologiyalarini Davlat tilida ishlab chiqish.

3. Korxonada hujjatlar va axborotlar almashinuvini to'liq avtomatlashtirish.

4. Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash va bu sohada "Raqamli ishonch" jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalangan holda ilmiy faoliyatni qo'llabquvvatlash; Aholining keng qatlamlari o'rtasida "raqamli savodxonlik"ni targ'ib qilish va kengaytirish, ularni axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga jalb qilish maqsadida o'quv yurtlarida seminar, kurslar va boshqa tadbirlarni o'tkazish; Raqamli iqtisodiyot sohasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish,

Raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil etish va yangi texnologiyalarni tezkorlik bilan o'zlashtirish uchun mutaxassislar malakasini oshirib borish; Innovatsion ishlanmalar bo'yicha zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish. Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo'llab quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72-74.
2. Коржова, О. В. Реализация в бухгалтерском учете информационных технологий в сфере цифровой экономики / О. В. Коржова, Л. В. Маркова // Научное обозрение. Педагогические науки. — 2019. — № 4-4. — С. 49-52.
3. Шамина, Е. В. Перспективы внедрения автоматизированных технологий в бухгалтерский учет / Е. В. Шамина, А. А. Филимонов // Актуальные направления научных исследований XXI века: теория и практика. — 2018. — № 2 (38). — С. 129-132.

БОДРИНГ СЕЛЕКЦИЯСИДА ЯНГИ ГЕРМОПЛАЗМАНИНГ ГЕНЕТИК-СЕЛЕКЦИОН АҲАМИЯТИ

Мадартов Бахром Кувондикович
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг Тошкент филиали профессори

Халилов Шокир Хуррамович
А.Навоий номидаги Ўзбек тили ва адабиёти университети ассистенти

Хашимова Мадина Рахмонберди қизи
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети магистри

Борасулов Акмал Мирайимович
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг Тошкент филиали (PhD)

Кириш. Экологик муаммолар чуқурлашиб бораётган, сув ва ер ресурслари чекланган бизнинг шароитимизда ирригация ва мелиорация ишларини давом эттириш, ерларнинг унумдорлиги ва ҳосилдорлигини янада ошириш, экин майдонлари таркибини оптималлаштириш, энг янги агротехнологияларни жорий этиш – қишлоқ хўжалигини ислоҳ этишнинг ҳал қилувчи масалаларидан биридир [1].

Бодринг дунё халқлари томонидан энг кўп етиштириладиган ва энг кўп истеъмол қилиндиган сабзавотлардан бири. Унинг келиб чиқиш маркази Жанубий Осиё, хусусан Ҳиндистон ҳисобланади. Ҳозирги кунга қадар Ҳимолай тоғларининг шимолий ҳудудларида кичкина ва юмалоқ, аччиқ мевали бодринг турини учратиш мумкин. Бодринг мевасидаги аччиқлик унинг таркибидаги кумарин ($C_9H_6O_2$ - алколоид) биокимёвий моддасига боғлиқ бўлиб, бу Bt гени томонидан бошқарилади [4]. Ҳиндистонда бундан 3 000 минг йил аввал бодринг экин тури сифатида экиб келинган. Бундан ташқари бодринг қадимги Миср, Месопотамия, қадимги Греция ва қадимги Римда ҳам севиб истеъмол қилинган.

100 г бодринг таркибида да 5-18 мг С (аскорбин кислота), 0,9-1,2 мг B_1 (тиамин), 0,07 мг B_2 (рибофлавин), 0,2 мг РР (ниацин), шунингдек А (каротин) витаминлари мавжуд. Шу билан бирга калий (К), магний (Mg), темир (Fe), калций (Са), фосфор (Р), натрий (Na) тузлари, фруктоза ($C_6H_{12}O_6$), глюкоза ($C_6H_{12}O_6$), сахароза ($C_{12}H_{22}O_{11}$) ва ҳар хил қимматли биологик моддалар бор. Кўпгина сабзавотлардаги каби бодрингда ҳам нитрат (NO_3) кимёвий моддасининг ортиб кетиши инсон организми учун салбий таъсир

кўрсатади. Ноқулай тупроқ шароити, микроэлементларнинг етишмаслиги, хароратнинг пасайиши ва тупроқ аэрациясининг бузилиши сабзавот ва полиз маҳсулотларида нитратнинг ортиб кетишига сабаб бўлади. Қишки иссиқхоналарда етиштирилган бодринг маҳсулотларида нитрат концентрасияси юқорироқ бўлади. Бу жараён ҳароратнинг пасайиши ва ёруғликнинг камайиши ҳисобига юз беради. Бундан ташқари азотли ўғитларнинг меъёридан ортиқ қўлланилиши ҳам нитратнинг ошишига сабаб бўлади. Бодринг экинидан 1 тонна ҳосил олиш учун 11,3 кг азот, 8,2 кг фосфор ва 5,0 кг калий сарфланиши лозим [2]. Ёруғликнинг етарли бўлиши фотосинтез жараёнини жадаллаштириши ҳисобига азот, ўсимлик томонидан яхши ўзлаштирилади ва нитрат миқдори нормал сақланади. Ёз ва куз ойларида, очиқ майдонларда етиштирилган сабзавотларда нитрат деярли тўпланмайди. Бу жараён ёруғлик ва иссиқликнинг етарли даражада эканлиги билан боғлиқ. Нитрат миқдори очиқ майдонларда етиштирилган 1 кг бодринг таркибида 150 мг, иссиқхоналарда етиштирилган бодрингларда эса 400 мг дан ошмаслиги лозим. Шунингдек сазавотлар вегетация давринининг биринчи ярмида экинларни 14-16 см гача сувга тўйинтириб суғорилиши нитрат миқдорини 32-40 % гача камайтириди [5]. Ялпи мева тугиш даврида ҳар сафар ҳосил йиғиб олингандан кейин, ҳаммаси бўлиб эса 12-16 марта суғорилади [3]. Очиқ майдонларда етиштирилган бодринг маҳсулотлари ўзининг фойдалилиги ва шу билан бирга ўзига хос ҳиди, таъми, серсувлиги билан кўпроқ қадрланади. Ўзбекистоннинг маҳаллий бодринг навларини касалликлар билан зарарланишининг юқорилиги ва ҳосилдорлигининг нисбатан пастлиги, бугунги кунда бодринг селекциясидаги муаммолардан ҳисобланади. Бодринг навларида доимо якка ва гуруҳли нанлаш ишлари олиб борилмаса, ҳосилдорлик йилдан-йилга пасайиб боради. Бодринг дурагайларидан эса ҳар йили бирдек юқори ҳосил олиш имкони мавжуд. Бодрингнинг касалликларга чидамли ва юқори ҳосилдор, партенокарпик F_1 дурагайларини яратиш учун дастлаб энг маъқул ота-она формаларини танлаб олиш лозим. Бодрингда партенокарпик гулларни тўлиқсиз доминантлик қилувчи 3 та Pc (P) ген бошқаради.

Тажриба материали, ўтказиш услуби ва шароитлари

Тажрибалар Халқаро сабзавотчилик марказидан келтирилган бодрингнинг Cucumis sativus L турига мансуб А-2 (AVCU 1402) линиянинг 7 та ва А-3 (AVCU 1403) линиянинг 13 та якка танловларида олиб борилди. А-2 (AVCU 1402) линия бодрингнинг монойция (M) жинсига, меваси Япон типига, келиб чиқиши Volt (No.5) нав намунасига мансуб. А-3 (AVCU 1403) линия бодрингнинг гинойция (G) жинсига, меваси Испан типига, келиб

чиқиши 01HCG9SAF нав намунасига мансуб. Селекция жараёни “Бодрингнинг турли хил экологик ҳудудларда ун шудринг ва сохта ун шудринг касалликларига чидамли навлари селекцияси” (ВНИИССОК-1985) [6] ва “Бодринг селекцияси ва уруғчилиги” (ВНИИССОК-1976) услубномалари асосида олиб борилди [7].

Тажриба майдонининг тупроғи шўрланмаган, ер ости сувлари анча чуқурда жойлашган. Тажриба майдонинг рельфи текис ва ғарбга томон пасайиб боради.

Тажриба натижалари

Навшунослик боғчасида эртаги муддатда олиб борилган дала тажрибаларининг фенологик кузатувларига кўра нихоллар 7 кунда униб чиқди. Оталик гуллари А-2 (AVCU 1402) линияда 35 кунда очилган бўлса, А-3 (AVCU 1403) линияда оталик гуллари учрамади. Оналик гуллари А-2 (AVCU 1402) линияда 36 кунда, А-3 (AVCU 1403) линияда эса 38-39 кун оралиғида очилди. Шунга мувофиқ А-2 (AVCU 1402) линияда мевалар 42-43 кунда, А-3 (AVCU 1403) линияда эса 45-46 кунда техник пишиб етилди.

(жадвал) Бодрингнинг А-2 ва А-3 линияларини қимматли хўжалик белгилари

Линиялар	Линиялар жинси	Техник мева					
		ранги	юзасининг тузилиши	узунлиги (см)	диаметри (см)	оғирлиги (г)	дегустацион баҳоси (5 балл)
А-6	М	Тўқ яшил	Текис	16	9	105	4.5
А-10	G	Тўқ яшил	Текис	12	8	95	4.5

А-2 (AVCU 1402) линиянинг техник пишиб етилган меваларининг ранги тўқ яшил, юзаси текис, узунлиги 16 см, диаметри 9 см, оғирлиги 105 г ва дегустацион баҳоси 4,5 бални ташкил қилди. А-3 (AVCU 1403) линиянинг техник мевалари ҳам тўқ яшил, юзаси текис, узунлиги 12 см, диаметри 8 см, оғирлиги 95 г ва дегустацион баҳоси 4,5 бални ташкил қилди. (жадвал).

Ҳар икки линияларда меваларнинг биологик пишиши 95-100 кунни ташкил қилди.

Асосий поя узунлиги А-2 (AVCU 1402) линияда 95 см ни, А-3 (AVCU 1403) линияда эса 120 см ни ташкил қилди. Линияларда ён шохлар сони 2,9-3,2 та ни, умумий узунлиги эса 190-220 см ни ташкил қилди.

А-2 (AVCU 1402) линиясидан ўз-ўзига чатиштириш йўли билан 27 та якка танловлар тайёрланди. А-3 (AVCU 1403) линия фақат оналик (партенокарпик) гулларидан иборат бўлгани учун чатиштириш ишлари олиб

борилмади. 74 та уруғлик мевалардан 16 тасидан оз миқдорда (5-25 донадан) уруғлар тайёрланди. Бу линия бодрингнинг партенокарпик F_1 дурагайларини яратиш учун қимматли селекцион материал ҳисобланади. Бунинг учун дастлаб гибереллин моддасини қўллаган ҳолда А-3 (AVCU 1403) линияда оталик гуллар ҳосил бўлишига эришилади ва натижада линиядан кўпроқ уруғлар олишга эришилади. Сўнгра А-2 (AVCU 1402) линиянинг чангчилари билан А-3 (AVCU 1403) линиянинг оналик гуллари чанглантирилади [8]. Натижада олинган F_1 дурагайлар ҳар-хил иқлим шароитида ҳам фақат оналик гулларидан иборат бўлади. Оналик гуллари кўп бўлган бодринг дурагайларида ўз-ўзидан ҳосилдорлик ҳам юқори бўлади. Бу линияларнинг яна бир қимматли жиҳати ун шудринг (*Erysiphe cichoracearum*) ва сохта ун шудринг (*Plasmopora cubensis*) касалликларига чидамлилигидир.

Хулоса

1. А-2 (AVCU 1402) линия эртапишар бўлиб, мевалари 42-43 кунда техник пишиб етилди. Меваси тўқ яшил, юзаси текис, узунлиги 16 см ва дегустацион баҳоси 4,5 балл бўлиб, янгилигича истеъмол қилиш учун мос.

2. А-3 (AVCU 1403) линия фақат оналик гуллардан иборат бўлиб, бу линия қимматли селекцион материал ҳисобланади.

3. Келгуси селекция жараёнида монойция жинсига мансуб А-2 (AVCU 1402) линиянинг оталик, гиноция жинсига мансуб А-3 (AVCU 1403) линиянинг оналик гуллари чатиштирилади ва турли иқлим шароитида ҳам фақат оналик гулларидан иборат бўлган партенокарпик F_1 дурагайлар яратишда фойдаланилади.

4. А-2 (AVCU 1402) ва А-3 (AVCU 1403) линиялар ун шудринг (*Erysiphe cichoracearum*) ва сохта ун шудринг (*Plasmopora cubensis*) касалликларига юқори даражада чидамли.

Адабиётлар

1. А.Аббасов, А.Тошкенбоев, Қ.Каримов. Бодринг навлари ва уни етиштириш технологияси. Истиқлол-Тошкент-2001 й.-Б.13.
2. Р.А.Хакимов, А.М.Аббосов. “Сабзавот ва полиз экинларини тавсия этиладиган навлари ва етиштириш технологияси” Тавсиянома. Тошкент-2006 й.-Б.20.
3. В.И.Пыженков, М.И.Малинина. Культурная флора тыквенные (огуруц, дыня) Москва-Колос-1994 г.-С.96.
4. Ш.Г.Бексеев. Раннее овощеводство Селекция возделывание семеноводство. Санкт-Петербург-“ПрофиКС”-2006 г.-СС.336-337, 341.
5. Методические указания по ускоренный селекции огурца на устойчивость к мучнистой росе и ложной мучнистой росе с использованием различных экологических условий. Москва-ВНИИССОК-1985 г.

6. Методические указания по селекции и семеноводству огурцов. Москва-ВНИИССОК-1976 г.-СС.1-73.
7. В.А.Бакулина, К.А.Белехова и.т.д. Руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов. Москва-Колос-1982 г. –С.76.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ АЙРИМ СИФАТЛАРИНИ ТАВСИФЛАШ

Махсудова М.Х.
АДПИ Жисмоний маданият кафедраси ўқитувчиси

Болаларнинг жисмоний ўсиши ва ривожланишини вақти–вақти билан кузатиш орқали уларни қанчалик даражада соғлом ўсиб ривожланаётганлиги ҳақида маълумотларга эга бўлинади. Ҳар йили ўтказиладиган мактаб ёшидаги болаларнинг профилактик кўрик натижалари шундан далолат бермоқдаки, жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланиш болаларнинг жисмоний ривожланиши ва саломатлигини мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда. Бу фикрнинг амалий тасдиғи сифатида ўтган даврда ўқувчилар ўртасида ўткир респиратор вирусли инфексиялар, пневмония, бронхит, сколиоз билан касалланиш ҳолатлари сезиларли даражада камайганини, мамлакатимизнинг барча ҳудудларида болалар саломатлиги яхшиланиши кузатилаётганини таъкидлаш мумкин. [1.32]

Болалар организми ўсиш ва ривожланиш давомида бир қатор морфологик, функционал ва биокимёвий ўзгаришларга учрайди. Бу ўзгаришлар барча функционал тизимларда бир вақтда содир бўлмайди. Айрим функциялар аввал, бошқалари кейин шаклланади. Бундай холат болаларда ўсиш ва ривожланиш жараёнлари нотекис шаклида ўтишини кўрсатади. Болаларни ўсиш ва ривожланиш жараёнларида критик ва сенсетив даврлар фарқланади.

Критик давр деганда организмнинг функционал кўрсаткичлари ирсият томонидан кучли назорат қилинади. Бу даврда жараёнларни бошқарувида сезиларли қайта қуришлар, алохида аъзо ва функционал тизимларни ривожланишида сифатий ва миқдорий сакрашлар кузатилади. Бундай сакрашлар организм билан ташқи мухит муносабатларини янги даражага кўтаради.

Сенсетив даврларда жисмоний ўсиш ва ривожланишга ирсиятни назорати сусаяди ва организмни ташқи мухит таъсирларига сезгирлиги ортади. Шу сабабли болалар организмига мухитнинг ижобий ва салбий таъсирларини қайси ёш даврларига тўғри келишини билиш ўқитувчилар ва ота-оналар учун муҳим хисобланади. [2.54]

Болаларни жисмоний ривожланиши уларнинг морфологик ва функционал кўрсаткичлари орқали баҳоланади, шу сабабли ўрнидан туриб икки оёқлари билан узунликка сакраш, 10 секунд давомида максимал ўтириб туриш ва “теппинг тест” кўрсаткичлари ўрганилди.

Кузатувлар Андижон вилояти Жалолқудуқ тумани халқ таълим бўлимига қарашли 37-38 умумтаълим мактабларининг биринчи ва иккинчи синфларида ўқиётган ўғил болаларда ўтказилди. Ҳар бир синфда 50 нафардан ўқувчи кузатилди.

Жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари ичида ўрнидан туриб икки оёқда узунликка сакраш мухум аҳамиятга эга. Бу кўрсаткич орқали асосан тўрт бошли мускулни максимал қисқариш кучи ҳақида маълумотга эга бўлиш мумкин. Биринчи синф ўқувчиларнинг ўрнидан туриб икки оёқ билан узунликка сакрашини ўртача кўрсаткичи 109,8±2,23 см тенг. Иккинчи синф ўқувчиларининг ўртача кўрсаткичлари 124,3±3,4 см тенг. Ўртадаги фарқ 14,5 см ташкил қилиб статистик жихатидан муққарардир ($P<0,05$).

Биринчи ва иккинчи синф ўқувчиларнинг 10 секунд давомида максимал ўтириб туриш кўрсаткичи ўрганилганда фарқ кузатилмади. Ўқувчиларнинг функционал кўрсаткичи сифатида қўл панжаларини ихтиёрий максимал қисқаришлар сони кузатилди. Бу усулни адабиётларда “теппинг тест” деб аталади. Биринчи синф ўқувчиларининг теппинг тест кўрсаткичи 55,3±3,0 тенг. Иккинчи синф ўқувчиларининг ўртача кўрсаткичи 65,7±2,1 тенг. Ўртадаги фарқ 6,4 тенг бўлиб статистик жихатдан муққарардир ($P<0,05$). [3.188]

Шундай қилиб, бизнинг кузатувларимизда биринчи ва иккинчи синф ўқувчиларининг жисмоний сифатларини айрим кўрсаткичларини ўртачаси адабиётларда келтирилган ўртача кўрсаткичлар даражасида эканлиги аниқланди. Ўқувчиларнинг мускул массасини бир йилда ортиши, функционал кўрсаткичини ортишни асосини ташкил қилади. Шу сабабли ўрнидан туриб икки оёқ билан узунликга сакраш, қўл бармоқларини ихтиёрий қисқариш сони ёки теппинг тест кўрсаткичлари тана оғирлигига мос холда ортганлиги аниқланди. Лекин ўқувчиларнинг 10 секунд давомида максимал ўтириб туриш сонида фарқ кузатилмади.

Бошланғич синфда ўқиётан ўғил болаларнинг жисмоний ривожланиш ва тайёргарлигини ўртача кўрсаткичларидан олинган натижалар жисмоний тарбия дарслари ва чиниқиш машғулотларини режалаштириш ва ўтказишда, амалий тиббиётда хамда болаларни кийимларини, мактаб мебеллари ва жихозларини катталикларини аниқлашда амалий аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. И.А.Каримов “Она юртимиз бахту-иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир” Т.: “Ўзбекистон”, 2015 й.
2. О.Т.Алявия ва бошқалар “Нормал физиология” Тошкент.- “Янги аср авлоди” нариёти,- 2007й.
3. Ш.Қурбонов А.Қурбонов “Жисмоний ривожланишнинг физиологик асослари” Тошкент.- 2003 й.

КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Махсудова М.Х
АДПИ Жисмоний маданият кафедраси ўқитувчиси.

Болаларнинг жисмоний ўсиши ва ривожланишини вақти–вақти билан кузатиш орқали уларни қанчалик даражада соғлом ўсиб ривожланаётганлиги ҳақида маълумотларга эга бўлинади. Шу ўринда ўқувчиларни жисмоний тайёргарлик ва ривожланиш кўрсаткичларини ўрганиш орқали уларни қанчалик даражада соғлом ўсиб ривожланаётганлиги ҳақидаги маълумотлар баркамол авлодни вояга етказишда муҳим аҳамиятга эга. Болалар организми ўсиш ва ривожланиш давомида бир қатор морфологик, функционал ва биокимёвий ўзгаришларга учрайди. Бу ўзгаришлар барча функционал тизимларда бир вақтда содир бўлмайди.

Ёшларнинг қанчалик соғлом ва ақлий баркамол ўсиши улардан келажакда етук мутахасислар тайёрлашнинг асоси ҳисобланади. Шу сабабли болаларни жисмоний ривожланиши ва тайёрлигини ўрганиш хозирги замоннинг энг долзарб муаммоси хисобланади. [1.24]

Болаларни ўсиш ва ривожланиш жараёнларида критик ва сенсетив даврлар фарқланади.

Критик давр деганда организмнинг функционал кўрсаткичлари ирсият томонидан кучли назорат қилинади. Бу даврда жараёнларни бошқарувида сезиларли қайта қуришлар, алохида аъзо ва функционал тизимларни ривожланишида сифатий ва миқдорий сакрашлар кузатилади. Бундай сакрашлар организм билан ташқи мухит муносабатларини янги даражага кўтаради.

Сенсетив даврларда жисмоний ўсиш ва ривожланишга ирсиятни назорати сусаяди ва организмни ташқи мухит таъсирларига сезгирлиги ортади. Шу сабабли болалар организмига мухитнинг ижобий ва салбий таъсирларини қайси ёш даврларига тўғри келишини билиш ўқитувчилар ва ота-оналар учун муҳим хисобланади. Болаларни жисмоний ривожланиши уларнинг морфологик ва функционал кўрсаткичлари орқали баҳоланади.

Жисмоний ривожланиш ва тайёрлик кўрсаткичлари Халқаро биологик дастур этироф этган усуллар ёрдамида кузатилди ва статистик тахлил қилинди. [2.54]

Қўл бармоқларини букувчи мускулларни ихтиёрий максимал букиш кучи, ўпканинг тириклик сиғими ва юрак уришлар сони ўрганилди. Кузатувлар Андижон вилояти Жалолқудуқ тумани халқ таълим бўлимига қарашли 37-38 умумтаълим мактабларининг биринчи ва иккинчи синфларида ўқиётган ўғил болаларда ўтказилди. Ҳар бир синфда 50 нафардан ўқувчи кузатилди.

Болаларни жисмоний ривожланиши ва тайёргарлигини бахолаганда қўл бармоқларини букувчи мускулларни ихтиёрий максимал букиш кучи, ўпканинг тириклик сиғими ва юрак уришлар сони алохида аҳамиятга эга. [3.184]

Қўл бармоқларини ихтиёрий максимал қисқариш кучини динамометр асбоби ёрдамида аниқланди. Биринчи синф ўқувчиларининг ўнг қўл бармоқларини букувчи мускулларини ихтиёрий максимал қисқариш кучи 6,6±0,25 кг/м тенг. Иккинчи синф ўқувчиларининг ўнг қўлининг қисқариш кучининг максимал кўрсаткичи 8,1±0,3 кг/м тенг. Кузатув гурухларининг ўртача кўрсаткичлари орасидаги фарқ 1,5 кг/м тенг. Бу фарқ статистик жихатдан муққарардир (P<0,01).

Чап қўл бармоқларининг букувчи мускулларининг ихтиёрий максимал қисқариш кучи биринчи синф ўғил болаларида 6,1±0,27 кг/м ташкил этди, иккинчи синф ўқувчиларининг ўртача курсаткичи 7,1±0,39 кг/м ташкил қилди. Ўртача кўрсаткичлар орасидаги фарқ 1,0 кг/м бўлиб, бу кўрсаткич статистик жихатдан муққарар (P<0,01).

Ўпканинг тириклик сиғими биринчи синф болаларида юқори кўрсаткич 1800,0 мл ни ташкил қилади, ўртача кўрсаткич 1517,7 ± 29,2 ни ташкил қилади, қуйи кўрсаткич 1200,0 мл ни ташкил қилади.

Иккинчи синф болаларида юқори кўрсаткич 2100,0 мл ни ташкил қилади, ўртача кўрсаткич 1661 ± 40,53 мл ни ташкил қилади, қуйи кўрсаткич 1400,0 мл ни ташкил қилади. Олинган натижалар ўртасидаги ўртача фарқлар ўзаро таққосланганда t=2,87 га тенг бўлиб, бу фарқ статистик жиҳатдан муқаррар (p<0,01)

Жисмоний кўрсаткич ва тайёргарликлар ичида юрак уришлар сони алоҳида аҳамият касб этади. Биринчи ва иккинчи синфда ўқиётган ўғил болаларнинг юрак уришлар сонида статистик фарқ кузатилмади.

Шундай қилиб, бизнинг кузатувларимизда биринчи ва иккинчи синф ўқувчиларининг функционал кўрсаткичларнинг ўртачаси адабиётларда

келтирилган ўртача кўрсаткичлар даражасида эканлиги аниқланди. Ўқувчилар ўпкасининг тиирклик сиғими, юрак уришлар сони ва қўл бармоқларини ихтиёрий максимал қисқариш кучини бир йилда ортиши, функционал кўрсаткичини ортишни асосини ташкил қилади. Шу сабабли қўл панжаларининг максимал кўрсаткич кучи, ўпканинг тириклик сиғими кўрсаткичлари тана оғирлигига мос холда ортганлиги аниқланди. Юрак урушлар сонида эса фарқ кузатилмади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. И.А.Каримов “Она юртимиз бахту-иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир” Т.: “Ўзбекистон”, 2015 й.
2. О.Т.Алявия ва бошқалар “Нормал физиология” Тошкент.- “Янги аср авлоди” нариёти,- 2007й.
3. Ш.Қурбонов А.Қурбонов “Жисмоний ривожланишнинг физиологик асослари” Тошкент.- 2003 й.

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЁНЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Маматов Зафар Мамаджанович.
Фарғона давлат университети мутахассиси.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 январдаги «Чорвачилик тармоғини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4576-сонли қарорида чорвачиликнинг бошқа тармоқлари қаторида қуёнчилик бўйича махсус комплексларни қуриш, чорва маҳсулотларини етиштириш ва қайта ишлаш бўйича лойиҳаларини амалга ошириш бўйича вазифалар белгиланган.

“Ўзбекистон қуёнчилик хўжаликлари“ ассоциацияси бошқаруви раиси Абдураззоқ Ибрагимов таъкидлашича қуёнчиликни ривожлантириш бўйича жаҳон тажрибасининг таҳлили шуни кўрсатадики, ушбу сектор қишлоқ хўжалигининг асосий иқтисодий ва самарали тармоқларидан бири.

Қуёнчилик жаҳон иқтисодиёти ва истеъмолида асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Жумладан, Хитой мўйнали ва тивитли қуён зотларини парваришлаш бўйича юқори улушга эга. Италия соҳада иккинчи ўринни эгаллаган бўлиб, йилига 300 минг тонна маҳсулот етиштирилади. Аҳоли бошига қуён гўшти истеъмол қилиш даражаси йилига 5,5-6 килограммдир. Мазкур кўрсаткич Германия, Франция ва Венгрияда 2,5-3 килограммни ташкил қилиб, ушбу мамлакатларда 65 фоиз маҳсулот кластер усулида ишлаб чиқарилмоқда.

Тўйимлилиги бўйича қуён гўштининг 1 килограмми энг яхши мол гўштининг 1,45 килограммига тенг, унинг гўшти холестерини камлиги бўйича қўй, мол ва бошқа жониворларникидан фарқ қилади. Таркибидаги оқсилнинг 90 фоизи инсон организми томонидан тўлиқ ўзлаштирилади. Жаҳон тажрибасини ўрганиш ва маҳаллий шароитда қуёнчилик тармоқларини такомиллаштириш масаласини ечиш билан бир вақтда соха пойдеворига илмий асос солиш лоззим.

Жахон тадқиқотлар натижаларидан фойдаланган ҳолда бизнинг иқлим шароитларида юқори сифатли қуён маҳсулотларини етиштириш муаммосини ечишнинг биринчи босқичларида қуён гўшти, тери-мўйналарининг кимёвий таркибини тадқиқ этиш ва ана шу таркибидаги фойдали компонентларини миқдорини ошириш омилларини ишлаб чиқиш зарур бўлади.

Бу борада Россиянинг Воронеж ўлкаси олимларининг изланишлари диққага сазовор[1]. Улар томонидан пробиотик қўшилмалари орқали микробиоценозни нормаллаштирувчи ва патоген микрофлорага бардошни оширувчи омиллар хамда гўштни ҳосилдорлигини оширувчи ва узоқ сақланишни таъминловчи омилларни ўрганиб чиқилган. Ҳусусан, топинамбур ва «Споротермин» номли пробиотик комплекнинг қуён гўштини ҳосидорлиги ортишига, ҳайвоннинг физиологик холатига зарасизлиги ва кимёвий таркиби қандай ўзгаришини тадқиқ этганлар. Бундай тадқиқотлар натижасида аҳоли томонидан қуён маҳсулотларини истъмол қилиши ортишини таминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. E E Kurchaeva, A V Vostroilov, E S Artemov and I V Maksimov. Improvement of rabbit productivity using probiotics and herbal supplements. Conference on Innovations in Agricultural and Rural development
2. IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 341 (2019) 012051
3. IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/341/1/012051.
4. Amaravadhi S Ch, Mallam M, Manthani Gn Pr, Komireddy K R 2012 Effect of dietary supplementation of probiotics and enzymes on the haematology of rabbits reared under twohousing systems Vet. World. 5(12) 748–753
5. Birolo M, Trocino A, Tazzoli M, Xiccato G 2017 Effect of feed restriction and feeding plans on performance, slaughter traits and body composition of growing rabbits World Rabbit Sci. 25, 113–122.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДИК ИЗУЧЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

М.Ф.Давлетмухаметова
Ташкентская область
Бостонликский район, 18-ИДУМ
Учитель русского языка

Потребность в расширении словарного запаса учащихся определяется разными причинами. Окружающая жизнь, учеба в школе, чтение книг, газет, журналов, слушание радио- и телепередач обогащают знания детей, вместе с которыми зачастую приходят незнакомые им слова. Усвоение знаний при этом предполагает запоминание новых слов. Владение большим запасом слов обеспечивает учащемуся лучшее понимание читаемого, свободное, без затруднений общение в разных коллективах людей. Стремление детей пополнять свой словарный запас должно поддерживаться школой.

Слова по-разному используются в функционально-стилистических разновидностях языка, что связано с особенностями их основных и дополнительных лексических значений. Понимание детьми этой связи - основа обучения школьников умению употреблять известные и новые слова в собственных высказываниях, стилистически дифференцированных.

Цели обогащения словарного запаса школьников. Перечисленные факторы определяют следующие цели обогащения словарного запаса учащихся:

- 1) количественное увеличение слов и качественное совершенствование имеющегося запаса слов;
- 2) обучение умению пользоваться известными и вновь усвоенными словами.

Количественное расширение запаса слов у учащихся выражается в постепенном прибавлении к имеющимся словам новых слов (уровень пополнения лексем). Качественное совершенствование словарного запасазаключается, во-первых, в уточнении лексического значения и сферы употребления известных детям слов, во-вторых, в замене нелитературных слов в словаре детей литературными (уровень совершенствования лексем). Наконец, особую сторону количественно-качественного совершенствования словарного запаса детей составляет работа над ознакомлением с неизвестными учащимся лексическими значениями уже имеющихся в их словаре многозначных слов (уровень пополнения сем).

Количественно-качественное совершенствование словаря учащихся определяет парадигматическое направлениев методике обогащения их словарного запаса, т.е. работу над словом и его семантическими полями, готовит условия для обучения школьников умению использовать известные и

новые слова в своей речи - их выбору для выражения определенных речевых задач. Она выражается в показе сфер употребления слов, в раскрытии их сочетаемости с другими словами. Реализация второй цели обогащения словарного запаса учащихся составляет синтагматическое направление в методике обогащения их словарного запаса, т.е. работу над контекстным употреблением слов - над точностью и целесообразностью употребления слов в зависимости от цели, темы, ситуации и стиля создаваемого текста.

Каждый человек - взрослый и ребенок - владеет незначительной частью лексики своего национального языка, которая является еголичным словарным запасом. В психологии и в методике преподавания языка (родного и неродного) в словарном запасе носителя языка выделяются две части: активная и пассивная. Есть ряд причин, в силу которых личный словарный запас учащегося делится на активный и пассивный: социальные, психологические и методические. Социальными являются табу, запрет на употребление отдельных слов. Он касается вульгаризмов, жаргонных слов, хотя в ситуациях общения друг с другом школьники довольно активно ими пользуются. К психологическим причинам относятся стеснительность детей употреблять те или иные хорошо знакомые слова (особенно слова с качественно-оценочным значением) и подсознательное стремление к экономии языковых усилий. Методическими причинами являются необученность школьников сочетаемости слов, выбору слов в зависимости от сферы коммуникации. Все эти причины в той или иной мере либо увеличивают, либо снижают вероятность употребления слов в речи учащихся.

Отличие активной части личного словарного запаса школьника от пассивной его части заключается в уровне владения словом. Владеть словом - это значит соотносить его с реалией или понятием, знать его семантику, сочетаемость и сферу употребления. Если в сознании ученика слово обладает всеми указанными признаками, то оно входит в активную часть его личного словарного запаса. Если слово в его сознании соотносится с реалией или понятием и он понимает его хотя бы в самом общем виде (знает родовую характеристику реалии или понятия), то такое слово входит в пассивную часть его личного словарного запаса. Вероятность употребления его в речи школьника невелика. Функция этих слов в личном словарном запасе - обеспечение понимания читаемого или слышимого.

В детском возрасте границы между пассивной и активной частями личного словарного запаса школьника довольно подвижны: активный словарь увеличивается за счет как новых слов, так и за счет перехода слов из

пассивной в активную часть личного словарного запаса. Задача учителя русского языка - помочь учащимся овладеть сочетаемостью и сферой применения пассивных слов, чтобы перевести их в активный словарный запас учащегося, т.е. решить обе задачи обогащения словарного запаса детей.

Перечисленные источники (или пути) пополнения словаря детей в зависимости от того, как они воспринимаются детьми - зрительно или на слух, - составляют следующие группы: воспринимаемые зрительно (чтение книг, учебников, газет и журналов); воспринимаемые на слух (речь учителя, сверстников, взрослых, слушание радио, просмотр телепередач, кинофильмов, театральных представлений); воспринимаемые одновременно зрительно и на слух (просмотр диафильмов, специальных кинофрагментов с титрами, посещение музеев, выставок).

Каждой группе источников (или путей) свойственны определенные преимущества, но имеются и отдельные недостатки. При зрительном восприятии ученик имеет возможность остановиться, задуматься, вновь вернуться к ранее прочитанному, запомнить прочитанное, выписать новые слова в собственный словарик.

Список литературы

1. Капитонова Т. И. Методы и технологии обучения русскому языку как иностранному / Т. И. Капитонова, Л. В. Московкин, А. Н. Щукин. Москва: Русский язык, 2008. 308 с. Текст: непосредственный.
2. Китайгородская Г. А. Методика интенсивного обучения иностранным языкам / Г. А. Китайгородская. Киев, 1988. URL: https://cyberpedia.su/4x1a46.html. Текст: электронный.
3. Лексический минимум по русскому языку как иностранному. Первый сертификационный уровень. Общее владение / Н. П. Андрюшина и др. Москва; Санкт-Петербург: Златоуст, 2005. 200 с. Текст: непосредственный.
4. Ходякова Л. А. Принцип соизучения языка и культуры в курсе методики преподавания русского языка / Л. А. Ходякова. Текст: непосредственный // Актуальные проблемы методики преподавания русского языка на современном этапе российского среднего и высшего образования / сост. А. Д. Дейкина, Л. А. Ходякова. Москва, 2004. С. 57–66.

ARXEOLOGIYANING BUGUNGI KUNDAGI VAZIFASI VA ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNI O`RGANISH

Matyakupov Maftunbek G'ofurjonovich
Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani
8-sonli umumta'lim maktabi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arxeologiyaning bugungi kundagi vazifasi va arxeologik yodgorliklarni o`rganish haqida so`z yuritilgan. Insonlar qadimgi tarixni o'rganishda qimmatli arxeologik manbalarga e'tibor berishlari lozim. Jahonda tekshirilgan barcha turdagi arxeologik yodgorliklar va ularda topilgan moddiy manbalar, insoniyat toshdan yasagan oddiy qo'pol cho'qmordan boshlab, uzluksiz mehnat natijasida yuksak madaniyat darajasiga yetib kelishining asosiy qonuniyatlarini ochib beradilar. Maqola yozishdan maqsad- tariximizning muhim voqealarini o'rganishda arxeologik manbalarni ahamiyatini ko'satish, jahon, jumladan O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekiston hududida yashab o'tgan ibtidoiy odamlar, qadimgi qabilalar va xalqlarning tarixini va madaniy taraqqiyotidagi o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ko'rsatib berishdir.

Kalit so`zlar: arxeologiya, arxeologik yodgorliklar, tarix, arxeologik manba, ibtidoiy odamlar, qadimgi qabilalar, xalqlarning tarixi, madaniy taraqqiyot.

Абстракт. В данной статье говорится о роли археологии на сегодняшний день и изучении археологических памятников. При изучении древней истории следует обращать внимание на ценные археологические источники. Все виды обнаруженных в мире археологических памятников и материальных ресурсов, которые были исследованы, раскрывают основные закономерности того, как человечество достигло высокого уровня культуры в результате непрерывного труда, начиная с простой грубой глины, сделанной из камня. Цель написания статьи - показать значение археологических источников в изучении важных событий нашей истории, уникальных аспектов истории и культурного развития первобытных людей, древних племен и народов, проживавших на территории мира, включая Среднюю Азию, а так же Узбекистан.и показать особенности.

Ключевые слова: археология, археологические памятники, история, археологический источник, первобытные люди, древние племена, история народов, культурное развитие.

Abstract. This article talks about the role of archeology today and the study of archaeological monuments. People should pay attention to valuable archeological sources when studying ancient history. All types of archaeological monuments and material resources found in the world, which have been examined, reveal the main laws of how mankind reached a high level of culture as a result of continuous work, starting from a simple rough clay made of stone. The purpose of writing the article is to show the importance of archaeological sources in the study

of the important events of our history, the unique aspects of the history and cultural development of primitive people, ancient tribes and peoples who lived in the territory of the world, including Central Asia, as well as Uzbekistan. and to show the features.

Key words: archeology, archaeological monuments, history, archaeological source, primitive people, ancient tribes, history of peoples, cultural development.

Tarixni yoritishda va o'rganishda arxeologlar olib borgan tadqiqot ishlarining ahamiyati juda kattadir. So'nggi yillar ichida jahonning, jumladan O'rta Osiyoning turli hududlarida ko'plab arxeologik kashfiyotlar qilinib, muhim ma'lumotlar to'plandi. Olimlar tomonidan topib tekshirilgan bu yangi ashyolar eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Mazkur manba va ashyolar jahon tarixining qadimgi davr siyosiyiqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari haqida to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. Jahonda ibtidoiy odamlar tarqalishi jarayonidan boshlab, xalqlarning tarixida turli xil murakkab voqealar sodir bo'lgan. Ular ibtidoiy to'da davri, ibtidoiy xo'jaliklari va mehnat qurollari, urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, xo'jalikning ishlab chiqarish shakllariga o'tilishi, binokorlik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi, antik davri, o'rta asrlar me'morchiligi va moddiy madaniyatining rivojlanishi bilan birga boshqa ko'pdan-ko'p voqealar bilan bog'liq.

XX asr davomida butun O`rta Osiyo hududida barcha davrlarga taalluqli arxeologik yodgorliklar, qadimgi kanallar, suv o‘zanlari o‘rganildi. 2001-yil 24 - oktabrda Termiz Arxeologiya muzeyi Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan (2 aprel 2002 yil) tashkil etildi. Ushbu muzey O‘rta Osiyodagi yagona mutaxassislashtirilgan muzey hisoblanadi. M.Y.Massonning ta‘rificha arxeologiya – tarixning bir sohasi bo‘lib, kishilik jamiyati o‘tmishi va faoliyatini xilma xil izlariga, aksariyat hollarda moddiy yodgorliklarga, imkoniyat bo‘lgan joyda esa, yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, tuproqshunoslik, antropologiya, zoologiya, botanika va boshqa fanlar yutuqlariga tayanuvchi fandir. Bizga ma‘lumki, tarix fani moddiy manbalarni o‘z ichiga oladi.O‘tmish tarixni tiklashda qazish natijasida topilgan moddiy manbalar alohida o‘rin tutadi. Moddiy manbalar madaniy qatlamlarda saqlanadi. Moddiy manbalar yozma manbalardan qadimiy bo‘lib, tarixning ulkan qismini moddiy manbalar, ya‘ni arxeologik topilmalar orqaligina tiklash mumkin. Moddiy manbalarning ko‘pi yer qa‘rida saqlanadi. Bular – tosh qurollari, har xil mehnat qurollari, suyaklar va hakozalar. Moddiy manbalar yordamida o‘tmish tarixiy jarayonlari – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealari o‘rganiladi.

Arxeologik manbalarni shartli ravishda 2 turga bo‘lish mumkin:

1. Tabiiy manbalar inson va hayvon suyaklari, o‘simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo‘lib, ularni asosan zoologlar va botaniklar o‘rganadi.

2. Sun‘iy yoki inson tomonidan yaratilgan manbalar. Ular mehnat qurollari, yarog‘- aslahalar, sopol idishlari, san‘at va zeb-ziynat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozuv hamda uning manbalari va hakozolar. Arxeologiya insoniyatning o‘tmish tarixini o‘rganishda arxeologik ekspeditsiyalar natijasida topilgan ibtidoiy makonlar, qishloqlar, shaharlar, mudofaa va suv inshootlari, qoyatosh rasmlari hamda boshqa buyumlarga suyanib ko‘radi.

Arxeologik ekspeditsiyalar deyilganda viloyat, shahar, tuman, qishloq va boshqa joylarda moddiy madaniyat yodgorliklarini dala tadqiqot yo‘li bilan o‘rganish usuli tushuniladi. Joylarda arxeologik ekspeditsiyalarni maxsus ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o‘quv yurtlarining arxeologiya kafedralari, san‘atshunoslik institutlari, muzeylar, shuningdek o‘lkani o‘rganish to‘garaklari tashkil etadi. Arxeologik ekspeditsiya va otryadlarning ish uslubi uch bosqichli bo‘lib, arxeologik qidiruv, sinov va qazish ishlarini amalga oshirishdan iboratdir, uning vazifasi yodgorliklarning paydo bo‘lgan davri, qancha yashaganligi, inqirozga yuz tutishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar arxeologik qidiruv va sinov natijasida qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlarga tayanib, mazkur joyda yodgorlikni to‘liq qazib ochishdan va yodgorlik haqida xulosalar chiqarishdan iborat bo‘ladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, arxeologik yodgorliklarning bir qismi yer ostida va boshqa xillari yer ustidadir. Arxeolog u yoki bu yodgorliklarni qazir ekan, shubhasiz madaniy qatlamlarga duch keladi. Madaniy qatlam deyilganda insoniyatning turmushi, xo‘jaligi va g‘oyaviy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Chunonchi, g‘or-makon, ochiq manzilgoh, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarning jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq holda joylanishi madaniy qatlamni ifodalaydi. Bu qatlam yillar, asrlar va ming yillar osha astasekin vujudga keladi. Arxeologik yodgorliklar bir yoki bir necha o‘n madaniy qatlamdan iborat bo‘lib.

Shunday qilib, arxeologiya fan sifatida yosh bo‘lsa-da, atama ancha qadimiydir. Turli davrlarda uni turlicha ishlatilgan. Arxeologik qazishmalar ham juda qadim zamonlardan buyon o‘tkazilib kelinmoqda va ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Xulosa qilib arxeologiya fanining ochilmagan jihatlari, o‘rganilmagan qirralarini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlash mumkin.

Adabiyotlar

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.

3. Авдусин Д.А. Полевая археология СССР. 2-е изд. – М., 1980.
4. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
5. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
6. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.
7. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
8. Мартынов А.И., Чер Я.А. Методика археологического исследования. – Л., 1989.
9. Методика полевых археологических исследований. – М., Наука, 1983.
10. Методические проблемы реконструкций в археологии и палеоэкологии. – Новосибирск, 1989.
11. Новые методы в археологических исследованиях. – М., 1963.

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Toxirova Mahbubaxon Shuhrat qizi
Andijon viloyati Jalaquduq tumani
4- umumta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim sharoitida pedagogik hamkorlikni rivojlantirishning afzalliklari haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** pedagogika, innovatsiya, ta`lim, tarbiya, texnologiya, metod.

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi tendentsiyalariga eng mos keladigan ta'lim faoliyati uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni qandaydir yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. jamiyatning.

Ta'limdagi innovatsion faoliyat ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va usullari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo‘lishi mumkin.

Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar

yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Innovatsiyalar ta'lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O'quv jarayonida talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirish amalga oshiriladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi qurilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeligiga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi vakolatlardir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.

2. O'qitishda zamonaviy, innovatsion usullarni qo'llash. Bunday usullar bo`lajak mutaxassisning kompetensiyalarini shakllantirishga, o`quvchilarni faol o`quv va amaliy faoliyatga jalb etishga, o`quv jarayonida tashabbus ko`rsatishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak. O'quv dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U ta'limning yangi shakllari va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o'qitishda muayyan yondashuvlarni qo'llash asosida qo'llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan talablar va maqsadlarni o'z ichiga olgan tamoyillar.

Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak.

Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:

1. Fan ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog'liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta'lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni o'rganishga qaratilgan yangi fanlarni o'z ichiga oladi. Professor-o'qituvchilar va talabalarning axborot

madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o'quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda;

2. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni ta'lim va tarbiyada ustuvor o'ringa qo'yishga qaratilgan. Butun ta'lim jarayoni shaxsning o'ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. O'quv jarayonini axborot-tahliliy ta'minlash. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o'quvchi, sinf, parallel, ta'lim muassasasining rivojlanishini o'rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan;

4. Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, individual o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman ta’lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan;

5. Ta'lim texnologiyalari. O'quv jarayonini ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda;

6. Didaktik texnologiyalar. Ular ta’lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Власова, Е.А. История становления проблемы процесса саморазвития. - М.: Фолио, 2007
2. Власова Е. А. Профессиональное саморазвитие будущих социальных педагогов. - Балашов: Арья, 2009г.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии - СПб.: Питер. 2007 г.
4. Столин В. В Самосознание личности - М.: Изд-во МГУ, 1983 г.

TEXNIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH VA DARS JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

G'oibova Nargiza Ziyoxonovna
Namangan Muhandislik Texnologiya Instituti
goibova_nargiza82@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimini doimo isloh qilib borish, mavjud parametrlar va standartlarni qayta baholash zaruratini keltiriib chiqari sh sabablari o’rganiladi. Mehnat bozori talablariga mos keladigan malakali

mutaxassislarni tayyorlashni to’liq darajada ta’minlash uchun oliy ta’limni tizimini kundan kunga xalqaro mehnat bozori talablariga mos ravishda takomillashtirib borish kerakligi keltirib o’tilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются причины, которые приводят к необходимости постоянного реформирования системы образования, переоценки существующих параметров и стандартов. Для того чтобы в полной мере обеспечить подготовку квалифицированных специалистов, отвечающих требованиям рынка труда, необходимо изо дня в день совершенствовать систему высшего образования в соответствии с требованиями международного рынка труда.

Annotation. This article discusses the reasons that lead to the need for constant reform of the education system, reassessment of existing parameters and standards. In order to fully ensure the training of qualified specialists who meet the requirements of the labor market, it is necessary to improve the system of higher education day by day in accordance with the requirements of the international labor market.

Kalit so’zlar: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ijodkorlik qobiliyatlari, kasbiy vazifalarni o’zlashtirish, innovatsion pedagogik usullar, vertual laboratoriyalardan unumli foydalanish, kichik guruhlar bilan loyihalar ishlab chiqish

Oliy ta’limning texnika va energetika mutaxassislarini tayyorlashda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda tayanch fan fizika fani, fizika darslari esa uning vositasi hisoblanadi. Bo’lajak kadrlarning dunyoqarashi, tabiat haqidagi tushunchalari fizika fani qonunlarini o’rganish jarayonida amalga oshirilsa, ikkinchidan, bu jarayonda ularga bilim berishda texnik va ijodkorlik qobiliyatlarini hosil qilish davomida amalga oshiriladi. Ushbu sabablarga ko’ra ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etiladi. Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlanishi raqobatbardosh bo’lishining hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan paytda aholining yuqori ta’lim darajasi mamlakatning “oliy” jamiyatga taalluqlilikni his etish imkonini beradigan nufuzlilik belgisi emas, balki yashovchanlik omili va iqtisodiy taraqqiyoti, va bindan tashqari uning mustaqillik garovidir. Ko’pincha ish beruvchilar oliy ma’lumotga kasbiy vazifalarni o’zlashtirish uchun dastlabki bosqich sifatida qaraydilar. Bu ta’lim tizimini doimo isloh qilib borish, mavjud parametrlar va standartlarni qayta baholash zaruratini keltiribi chiqaradi. Mehnat bozori talablariga mos keladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashni to’liq darajada ta’minlash uchun oliy ta’limni tizimini kundan kunga xalqaro mehnat bozori talablariga mos ravishda takomillashtirib borish shart. Buning uchun tizimli ilmiy izlanishlar o’rganilishi, olib borilishi,

takomillashtirilishi va samaradorligi yuqoriligi jamiyat hayotiga qo'llanilishi lozim. Bugungi kundagi yurtimizda qator oliy ta'lim muassasalarida qabul qilingan Kredi tizimi ham ayni vazifani taqozo etadi. O'qitiladigan fanlar salmog'ini va unda mavzilarga berilgan soatlar miqdorini tahlil qiladigan bo'lsak , ayni vaqtda sohalar bo'yicha o'qitishda talabaning mutaxassislik fanlaridan tashqari o'qitiladigan bir qator fanlardagi mavzular deyarli hamma mutaxassisliklar uchun bir xil miqdorda olingan.

Texnik fikrlashni rivojlantiruvchi innovatsion pedagogik usullardan shularni tavsiya qilishimiz mumkin.

1)Amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish

2)Talabalarning mustaqil ish faoliyatini yanada takomillashtirish

3)Turli didaktik o'yinlardan foydalangan holda texnik ijodkorlikka talabalarni yo'naltirish

4)talabaning loyihalashtirish ishlarini takomillashtirish, qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish

Shularni bajarishdan keyin uning ilmiy ahamiyati quyidagicha:

-talabaning o'z ustida ishlay olishini ta'minlash ;

-talabada muammoli vaziyatda muhim qarorlar qabul qila olish qobiliyatini shakllantirish;

-har tomondan samarali loyihalar haqida tushuncha hosil qilish va ularni ishlab chiqara olish ko'nikmasini shakllantirish;

-zamonaviy jihozlar bilan ishlay olish va ularni takomillashtira olish qobiliyatini shakllantirish;

-vaziyatga to'g'ri baho berish va sifat masalasi tushunchasida juda keng tasavvurga ega bo'lish qobiliyatini shakllantirish.

Talabaning texnik qobiliyatini takomillashtirish va rivojlantirish avvalo talabaning o'zini, so'ngra kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Kadrlar sifatining va salohiyatining oshishi jamiyatimiizda yig'ilib qolgan qator muammolar yechimini ta'minlovchi kadrlar yetishib chiqishi va jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

-interfaol metodlar talabalarning darsga qiziqishini yanada orttiradi;

-loyihalarni rag'batlantirish usuli talabalardagi ijodkorlikka turtki bo'lib uning rivojlanishiga sabab bo'ladi;

-laboratoriyalarga ko'proq ahamiyat qaratilishi talabada nazariy bilimlarni amalda tadbiq etish qobiliyatini yanada takomillashtiradi;

-vertual laboratoriyalardan unumli foydalanish talabaning o'z ustida mustaqil ishlashiga yordam beradi;

-kichik guruhlar bilan loyihalar ishlab chiqish kelajakdagi ilmiy izlanishlarga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyayev. "Qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanish to'g'risida qonun". Toshkent sh., 2019-yil 21-may, O'RQ-539-son
2. Sh. Mirziyayev. "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi qonun". Toshkent sh., 2021-yil 19-mart, PQ-07/21/5032/0226-son *(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)*
3. Jo'rayev M. "Fizika o'qitishda statistik g'oyalar" Metodik qo'llanma-T.: O'qituvchi, 1996
4. Я. С. Уманский. Рентгенография металлов и полупроводников, М.
5. Металлургия, 1968. 13-27 ст.
6. M. Born."Atom fizikasi " Mir. M 1970. 318-322-betlar.
7. А.Н. Матвеев. Атомная физика. Высшая школа.М.1989. 13-27 ст.
8. E.N. Rasulov "Kvant fizikasi" Toshkent 2009
9. Sodiqova SH.M ., To'raxonov F . Fizikani o'qitish metodikasida dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi // Uslubiy qo'llanma. –Toshkent, TDTU. 2012. − 60 b.
10. Sodiqova Sh.M., To'raxonov F. Fizikani o'qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi// Uslubiy qo'llanma. –Toshkent, TDTU, 2012. − 60 b.

ОПТИМАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ДЛЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ МАСЛА КУНЖУТА

К.Дж.Шомақсудова

Н.З.Файзуллаева

Ш.Э.АсанбАев

Д.П.Рахимов
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Toshkent Turizim kasb-hunar kolleji

Кунжутное семя (Кунжутное семя) - тропическая хозяйственная культура с высоким выходом масла. Было проведено исследование для установления степени влияния содержания влаги, продолжительности и температуры обжарки на выделение масла из этой культуры с использованием масло пресс. Влияние этих параметров было использовано

для разработки модельных уравнений, оптимизации выхода и качества масла. Для эксперимента использовались 4 уровня влажности, продолжительности обжарки и температуры, каждый из которых давал в общей сложности 32 образца. Отжимный масло регистрировалось как выход, в то время как свободные жирные кислоты, масляные примеси и цвет были критериями, используемыми при определении качества масла. Данные были проанализированы с использованием метода множественной регрессии для создания математических моделей. Выход масла был максимальным при отсутствии в масле жирных кислот; цвет и примеси сохранялись на приемлемом уровне. Средний выход масла, свободных жирных кислот, примесей и цвета составил 34,78 %, 2,57%, 0,22% и 6,7 % соответственно продолжительность жаровня и температура жаровня составляли, 4,6 % по влажной основе (вб), 13,0 мин. и 124,2 °C. Эти комбинации давали выход масла 50,4 %, свободной жирной кислоты 1,1 %, примесей масла 0,1 % и 6,2 ЛУ. Ошибка в прогнозировании не является значимой при $P > 0,05$. Отжим семян кунжута при полученных оптимальных параметрах гарантирует высокий выход и хорошее качество масла первого отжима.

Пищевые масла получают из животных и растений. Растительные масла классифицируются как растительное масло. Крупнейшими источниками растительных масел являются однолетние растения, к которым относятся соевые бобы, кукуруза, хлопковое семя, арахис, подсолнечник, рапс, дыня и кунжутное семя [1]. Другими источниками являются масличные многолетние растения, такие как оливковое масло, кокос, срез, кешью и пальма. Кунжутное семя богато масличностью: около 53% качественного пищевого масла, 42 % жмыха и 5 % влаги семян [2]. Отчет также показал, что содержание масла варьируется в зависимости от генетических факторов и факторов окружающей среды. Кунжутное масло - это натуральное салатное масло, практически не требующее утепления и являющееся одним из немногих растительных масел, которые можно использовать непосредственно без рафинирования. Жмых из семян является хорошим источником белковой добавки в комбикормовой промышленности. Семена кунжута грушевидные, яйцевидные, мелкие (около 2,5-3 мм в длину, 1,5 мм в ширину), слегка приплюснутые и более тонкие у сердцевины. Масса 1000 семян составляет примерно 3 г. Цвет варьируется; он бывает либо белым, либо желтым, либо красновато-коричневым, либо черным. Светлые семена дают масло лучшего качества, чем темные, но с меньшим содержанием масла [3]. Приложенное давление, температура нагрева, продолжительность нагрева, содержание влаги, размер частиц, обработка и хранение являются

факторами, влияющими на выход и качество растительного масла. Степень влияния варьируется в зависимости от вида масличных культур и способа отжима масла. Было исследовано влияние некоторых из этих параметров на выход и качество масла, отжатого из кунжута с использованием экспеллера. Были изучены содержание влаги, продолжительность термической обработки и температура предварительного нагрева. Модельные уравнения были разработаны для оптимизации маслоотдачи с использованием линейного программирования. Изучены образцы семян кунжута Ташкентским химико технологическом институте на кафедре зерновых культур. Семена были очищены вручную для удаления посторонних веществ. В тесте использовалась факторная экспериментальная схема, дающая в общей сложности 32 образца. Начальное содержание влаги в образце определяли с использованием стандарта (ASAE) 1998 для масличных семян. по 3 кг каждого кунжута кондиционировали до желаемых уровней влажности 5,3, 7,3, 12,1 и 16,7%, все на влажной основе, используя уравнение 1. = А + Б + Ц- - ()() 100 б, где а - начальная масса образца; а - начальное содержание влаги в образце, % от влажной основы (ВБ) б - конечное (желаемое) содержание влаги в образце, % ВБ м - масса добавляемой воды, кг. Их также нагревали при 70, 90, 110 и 130 °C в течение 5, 10, 15 и 20 минут обжарки. Термическая обработка была достигнута по методу А.Б.Йулчиеву. разработанный в ТашХТИ. Производительность экспеллера составляет 15 кг/час, он приводится в действие 3-фазным электродвигателем мощностью 7,5 кВт со встроенным редуктором скорости. Он был запущен со скоростью 45 оборотов в минуту. Сжатый масло собирали и оставляли отстаиваться в течение 96 часов, после чего измеряли объем. Зарегистрированные объемы масел были умножены на плотность кунжутного масла при 30°C (918 кг/м^3), для перевода в вес. Процентный выход масла рассчитывали путем деления массы масла на массу отжатого кунжута, т.е. 3 кг. Процентное содержание свободных жирных кислот (ffa) в каждом образце кунжутного масла рассчитывали как олеиновую кислоту с использованием метода AOCS для ffa Ca 5a-40. Выход масла был максимальным при содержании свободных жирных кислот; примеси масла и цвет сохранялись на приемлемом уровне. Чтобы подтвердить оптимальные параметры, эксперимент был повторен при этих условиях. Полученные результаты были сопоставлены с прогнозируемыми значениями. Зарегистрированный выход масла варьировался от 12,85 до 51,86 % от исходного сырья, содержание свободных жирных кислот (СЖК) варьировалось от 1,05 до 4,54 %, летучие примеси масла при 105 ОС варьировались от 0,10 до 0,40 %, а интенсивность окраски

масла варьировалась от 5,8 до 8,3 ед. цвета желтого ловибонда. Средний выход масла, свободных жирных кислот, примесей и цвета составил 34,78 %, 2,57 %, 0,22 % и 6,7 %.

Список Используемый литературы

1. O' Brien R.D. 1998. Fats and oils, formulating and processing for applications. Technical Publishing, Company Inc. Lancaster USA.
2. Akinoso R. , J.C.Igbeka, T.M.A. Olayanju. Process Optimization of Oil Expression from Sesame Seed. https://core.ac.uk/download/pdf/162155636.
3. Olayanju T.M.A., R. Akinoso and M.O.Oresanya 2006. Effect of wormshaft speed, moisture content and variety on oil recovery from expelled beniseed. Agricultural Engineering International: the CIGR Ejournal. Manuscript FP 06 008. Vol. VIII. July, 2006.

ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РЕАЛ СЕКТОР КОРХОНАЛАРИНИНГ ЎРНИ

Шарипов Сабриддин Саҳат ўғли
"Ўзбекистон темир йўллари" АЖ бошқармаси бош муҳандиси Банк-Молия академиясининг магистранти

Аннотация. Мақолада инновацион жараёнларнинг назарий асослари, реал сектор корхоналари фаолиятида инновацион ривожланишнинг истиқболли йўналишлари ёритилган. Шунингдек реал сектор корхоналарида инновацион инфратузилмани ривожлантириш билан боғлиқ бўлган муаммолар аниқланган ва уларни ҳал қилишга қаратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы инновационных процессов, описываются перспективы инновационного развития в деятельности предприятий реального сектора. А также на основе всестороннего анализа имеющихся подходов выявлены некоторые проблемы формирования инновационной инфраструктуры и разработаны предложения по развитию и совершенствованию инновационных систем предприятий.

Abstract. The article examines the issues of sustainable development of real sector enterprises based on the implementation of innovative technologies. In particular, the statistical indicators of the achieved results in this area are analyzed, the definitions of innovation activity and its specificity are given. The article also identifies problems in the sphere of innovative development and gives some recommendations for the rational organization of them in real sector.

Калит сўзлар: реал сектор, инновация, инновацион технология, инновацион инфратузилма.

Ўзбекистонда иқтисодиётнинг реал сектори тармоқларини, шу жумладан қишлоқ хўжалигини ислоҳ қилишга қаратилган чора-тадбирлар натижасида соҳада етиштирилаётган маҳсулотларни янада кўпайтиришга, қишлоқ хўжалиги хомашёсини чуқурроқ қайта ишлашга, айрим маҳсулот турларини четдан келтиришдаги қарамликни бартараф қилишга эришилди.

Ўзбекистон иқтисодиётининг реал секторини инвестицион ривожлантиришда барқарор иқтисодий ўсиш, сиёсий барқарорлик, ислоҳотларнинг кетма-кетлиги, таркибий ўзгаришларни амалга оширилиши, давлат инвестиция дастурларининг жозибадорлиги каби омиллар ижобий таъсир кўрсатган. Иқтисодий ўсиш суръатларининг ошиб бориши бевосита инвестицион фаолиятни фаоллаштириш жараёнини жадаллаштиради.

Аммо таҳлиллар натижаси шуни кўрсатадики, ҳозирда реал сектор корхоналари олдида бир қанча муаммолар кўндаланг турмоқда:

-инновацион салоҳиятнинг пастлиги;

-ушбу фаолиятни кенгайтириш учун корхоналар ички маблағларининг етишмаслиги;

-иқтисодий рискларнинг юқорилиги ва қопланиш муддатларининг узоқлиги;

-ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг узоқ муддатли йўналишларини кўра олмаслик.

Мамлакат иқтисодиёти ва корхоналарда инновацион жараёнларни тизимли шакллантиришга тааллуқли муаммоларни ҳал этишга уринган олимларнинг илмий ишларини ўрганиш шуни кўрсатадики, инновацион фаолиятнинг самарадорлиги, биринчи навбатда, молиявий ресурслар билан таъминланганлик даражасига боғлиқ. Инновацион фаолият негизида ётган иқтисодий муаммоларни ҳал этиш учун эса ишлаб чиқариш жараёнининг барча иштирокчилари: ишлаб чиқарувчи кучлар, илмий-тадқиқот олиб борувчи муассасалар ва молия институтлари ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ривожланишини талаб этади.

Хорижий инвесторларни миллий иқтисодиётнинг реал сектори субъектларининг инновацион ривожланишидаги иштирокининг мураккаблигига қарамасдан, улар мамлакатнинг хусусийлаштирилган корхоналарининг капиталини мустаҳкамлаш ва уларда юқори корпоратив маданиятни киритиш жараёнини жадаллаштириш имконига эга бўлган асосий гуруҳ ҳисобланади. Шунингдек, жаҳон молиявий инқирози оқибатларини бартараф этиш шароитида Ўзбекистон иқтисодиётининг реал секторига спекулятив эмас, балки узоқ муддатли инвестиция инструментларини жалб этиш талаби

ошиб бормоқда. Талаб этилаётган инвестициялар стратегик инвесторларнинг тўғридан-тўғри ва портфель инвестициялари орқали таъминланадилар.

Миллий иқтисодиёт амалиётида қатор йиллардан буён корхоналарнинг инвестиция фаоллигини ошириш, хорижий инвестицияларни жалб этиш ва самарали фойдаланиш мақсадида Ўзбекистон Рсспубликасининг Давлат инвестиция дастури амалга ошириб келинмоқда. Ушбу дастур ишлаб чиқариш корхоналарини техникавий жиҳатдан қайта қуроллантириш, иқтисодиётни модернизациялаш дастурларини амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш учун хизмат қилади. Макроиқтисодий кўрсаткичларни комплекслашда таҳлил қилиш ва прогнозлашга имкон берувчи амалий воситалар орасида эконометрик моделлар ажратилади. Бозор муносабатларига ўтиш шароитида эконометрик моделларни қўллаш долзарб бўлиб қолмоқда, чунки таҳлилда қўлланувчи восита объекти бозор иқтисодиётига тўғри келади.

Таҳлилчилар ва прогнозчиларнинг асосий эътибори иқтисоднинг реал сектори ва инвестицион жараёнлар ривожланишини баҳолашга, молиявий, минтақавий ва ижтимоий муаммоларни ечишга қаратилган. Жамият ишлаб чиқаришининг фаолият юритиш жараёнида хўжаликни бошқаришнинг етакчи дастуруламали ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастуридир. Ишлаб чиқариш тармоқлари ва бутун халқ хўжалиги самарадорлиги ва ривожланиши кўп жиҳатдан айнан шу дастурнинг қанчалик асосланганлигига боғлиқ. Унинг дастлабки муҳим асосини тармоқлар иқтисодий прогнозлари ташкил қилади. Улар тармоқларнинг ривожланиш йўналишини ва келажадаги истиқболини тавсифлайди.

Тармоқнинг иқтисодий прогнозланиши ишлаб чиқариш муаммолари кўламида тармоқ ва тармоқлараро кўриб чиқилади. Улар бир-биридан ҳам тадқиқот объекти, ҳам ишлаб чиқаришни бошқариш мақсади бўйича фарқ қилади. Тармоқ кўламида тармоқ унга кирадиган ишлаб чиқариш бирлашмалари ва корхоналарининг мажмуаси сифатида кўриб чиқилади. Бу ерда прогнознинг вазифаси тармоқ фаолиятининг турли йўналишлари бўйича ривожланиш йўналишларини аниқлаш ва олинган натижаларни тармоқнинг кейинги ривожланиш дастурини ишлаб чиқиш, ундан фойдаланиш ва тизимни ҳамда уни бошқариш тузилмасини мукаммаллаштириш бўлади.

Шундай экан, миллий иқтисодиётни ривожлантиришда инвестицион салоҳиятни юксалтириш мамлакатнинг жаҳон бозоридаги рақобатдошлигини ошириш, экспорт салоҳиятини ошириш, юксак технологияларга асосланган замонавий тармоқларни жадал ривожлантириш, барқарор иқтисодий ўсишга

эришиш ва аҳолини турмуш даражасини ошишига олиб келувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

Шарипов Сабриддин Саҳат ўғли
“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ бошқармаси бош муҳандиси,
Банк-Молия академиясининг магистранти

Маълумки, мустақиллик йилларида мамлакатимиз иқтисодиёти ва етакчи тармоқларида изчил ўсиш суръатларига эришилди, макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш, биринчи навбатдаги чора-тадбирлар ва тармоқларни модернизациялашга оид дастурлар амалга оширилгани аҳоли фаровонлигини янада юксалтириш имконини берди.

Айниқса, жойларда транспорт ва муҳандислик-коммуникация инфратузилмасининг жадал ривожлантирилиши, қишлоқларда намунавий лойиҳалар асосида уй-жойлар қурилишига оид дастурлар, аҳоли бандлигини таъминлашга қаратилган лойиҳаларга бюджет маблағларининг самарали йўналтирилгани энг чекка ҳудудларни ривожлантиришда ҳам муҳим омил бўлди. Ана шундай улкан ўзгариш ва янгиланишлар, ўз навбатида, давлат маблағларининг аниқ мақсадларга йўналтирилиши бўйича изчил назорат ўрнатилишини ҳам тақозо этади.

Республикада сўнгги йилларда мамлакатни модернизация қилиш туфайли жиддий иқтисодий ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Бу асосий макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш бўйича устувор вазифани амалга ошириш – иқтисодиётнинг мавжуд молиявий салоҳиятини ички инвестицияларга кўчириш сифат жиҳатдан янги ўсиш омилларини фаоллаштиришни, аввало, таркибий ва институционал ўзгаришларни чуқурлаштиришни ҳал этишни, ислоҳотларни тезлаштиришни, иқтисодиётнинг реал сектори жалб этувчанлигини оширишни, капиталнинг тармоқлараро кўчиб ўтиш жараёнларини фаоллаштиришни талаб қилади. Бироқ фойда олишга йўналтирилган йирик ишлаб чиқариш бирлашмаларини бошқариш тажрибаларисиз, акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштиришсиз миллий ишлаб чиқарувчилар учун инвестициялаш муаммоли бўлади. Республика корхоналарида корпоратив бошқарув, биринчи навбатда, бутун ташкилотни модернизациялашдир. Институционал жараён қатнашчилари ўртасида ўзаро ишбилармонлик муносабатларига ўтиш ишлаб чиқариш бирликларининг иқтисодий ўсиш имкониятларини жиддий оширади.

Республикада ўтказилаётган иқтисодий ислоҳотлар натижасида эркин бозорни фаолият кўрсатиши учун шарт-шароитлар яратилаётганлиги хорижий инвесторларда қизиқиш уйғотмокда. Бу қизиқишлар инвестиция муҳитига таъсир этувчи омилларни ўрганишга олиб келади, омиллар икки хил бўлади:

1. Инвестиция муҳитига таъсир этувчи ижобий омиллар;

- сиёсий ва макроиқтисодий барқарорлик;
- инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари;
- ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш учун зарур инфратузилмаларнинг мавжудлиги;
- хомашё базаси ва улардан фойдаланиш имкониятларининг мавжудлиги;
- инвесторлар иштирокидаги корхоналар фаолияти билан боғлиқ қўшимча талаб ва чекловлар ўрнатилиши қатъиян таъқиқланганлиги;
- давлат мулкини хорижий инвестицияларга сотишда тендер (танлов) савдоларини ўтказиш бўйича имтиёзларнинг мавжудлиги.

2. Инвестиция муҳитига таъсир этувчи салбий омиллар: - инвесторлар учун яратилаётган имтиёз ва қулайликлардан фойдаланиш жараёнида учрайдиган тўсиқлар;

- молиявий операцияларни амалга оширишдаги (солиқ, божхона) муаммолар;
- инвесторларга ер бериш (ажратиш) жараёни билан боғлиқ бўлган муаммолар;
- республикадаги электр энергияси ва бошқа коммунал хўжаликларидан фойдаланиш жараёнида учрайдиган муаммолар;
- назорат қилувчи органларнинг ҳаддан ташқари текширув жараёнининг кўплиги (талабнинг кўп қўйилганлиги);
- бозорларда маркетинг тадқиқоти ўтказишда учрайдиган муаммолар;
- маҳаллий ҳокимликлар томонидан ҳал этилиши лозим бўлган масалалар бўйича қабул қилинган қарорларнинг ўз вақтида бажарилмаслиги, бажариш учун ҳалигача тўсиқларнинг мавжудлиги.

Иқтисодиётнинг макроиқтисодий даражада ривожланишини таъминлаш фақат ривожланган, давр талабига жавоб бера оладиган, юқори даражада маданийлашган бошқарувга асосланган корпоратив муносабатлар шаклланишига боғлиқ.

Шунингдек, миллий менталитетга асосланган, маданийлашган корпоратив муносабатларни шакллантириш собиқ тоталитар, марказлаштирилган бюрократик бошқарув тизимини тубдан ўзгартириш ва

ишлаб чиқариш фаолиятларида қатнашаётган меҳнат ресурсларини, меҳнат қилиш даражаларини, уларнинг ихтисослиги даражаларини эътиборга олган ҳолда ижтимоий ҳимоя қилишни амалга оширилиши билан ҳам боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, турли мамлакатларда макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш, иқтисодиётда хусусий секторнинг роли ва аҳамиятини ошириш, капитал қурилиш, қишлоқ хўжалиги ва иқтисодиётнинг бошқа тармоқларида таркибий ислоҳотларни чуқурлаштиришга қаратилган чоратадбирлар билан бир қаторда ташқи савдони либераллаштириш жараёни ЯИМнинг ўсиш тенденциясини сақлашни таъминлаб келмоқда. Ҳар қандай давлатнинг ташқи савдо сиёсати ҳукуматнинг умумиқтисодий йўналишининг муҳим таркибий қисми саналади, янада торроқ маънода эса экспорт-импорт товар оқимлари ҳажми, товар таркиби ва географик йўналишини тартибга солиш билан боғлиқ бюджет-солиқ фаолияти соҳаларидан биридир.

FITOVAK STIMULYATORINING HAMDA KARBAMID O`G`ITI ASOSIDA TAYYORLANGAN SUSPENZIYANING PAXTA HOSILIGA TA’SIRI

Zuhriddin Zokirovich. Zayliddinov
ToshDAU O‘simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasi magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya va fitovak stimulatorlarining g‘o‘zaning hosiliga ta’siri, yuqori hosildorlikga erishish hamda qo‘llashning eng maqbul me’yorlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: karbamid, fitovak stimulatori, qo‘llash me’yorlari, hosildorlik, ko‘chat, barg, ko‘sak

Аннотация. В данной статье рассказывается о влиянии суспензии карбамидных удобрений и стимуляторов фитовака на урожайность хлопчатника, достижении высоких урожаев, оптимальных нормах внесения.

Ключевые слова: мочевина, фитостимулятор, нормы внесения, продуктивность, рассада, лист, почка

Annotation. This article describes the effect of a suspension of urea fertilizers and phytovac stimulants on cotton yields, achieving high yields, and optimal application rates.

Key words*:* urea, phytostimulant, application rates, productivity, seedlings, leaf, bud.

Tajribada g‘o‘zaning 3-4 chin barg, shonalash va gullash davrlarida Karbamid va Fitovak stimulyator (suspenziyalshtirilgan) o`g`itlar bilan ishlov berilganda paxta hosiliga ta’siri. Tajriba dalasidagig‘o‘zaning ko‘chat qalinligi hamda bir

ko‘sakdagi paxta vazni tahlil qilinganda quyidagilar aniqlangan. Bir ko‘sakdagi paxta vazni nazorat variantda 5,3 g ni tashkil etgan bo‘lsa, Fitovak stimulyatori qo‘llanilgan variantda bir ko‘sak vazni 5,5 g, Karbamid-Fitovak bilan turli me’yorlarda majmuiy ishlov berilganda ko‘saklar vazni 5,4-5,7 g ni tashkil etgan va nazoratga nisbatan 0,2 g ni tashkil qilgan bo‘lsa, Karbamid-Fitovak qo‘llangan variantda nazorat variantga nisbatan 0,1-0,4 gr og‘irroq bo‘lganligi kuzatildi.

Tajriba variantlarida g‘o‘zaning ko‘chat qalinliklari hisoblanganda, o‘rtacha 66,4-67,8 ming/ga tupni tashkil etgani aniqlangan.

Tajriba dalasida etishtirilgan paxta hosili ikki terimda yig‘ishtirib olindi. Shundan birinchi terim salmog‘i nazorat variantida 25,9 s/ga, Fitovak 29,3 s/ga, Karbamid- Fitovak qo‘llanilgan variantlarda 26,6-30,6 s/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi terimda nazoratda 8,2 s/ga, Fitovak 7,2 s/ga, Karbamid va Fitovak (suspenziyalshtirilgan) o`g`itlar qo`llanilganda 7,7-9,3 s/ga paxta hosili terib olingan.

Tajriba dalasidan olingan paxta hosili nazorat variantida 34,1 s/ga, Fitovak stimulyatori qo’llanilgan variantda 36,5 s/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, Karbamid-Fitovak qo‘llanilgan variantda 39,7 s/ga hosil yig‘ishtirib olingan va nazoratga nisbatan qo‘shimcha hosil miqdori Fitovak stimulyatori qo’llanilgan variantda 2,4 s/ga, Karbamid-Fitovak qo‘llanilgan variantlarda 0,5-5,6 s/ga ni tashkil etgan.

Tajribada eng yuqori paxta hosili Fitovak stimulyatori, hamda, karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya turli me’yorlarda va g‘o‘zaning turli rivojlanish davrlarida qo‘llanilgan variantlarda olinib 38,2-39,7 s/ga ni tashkil etgan holda nazorat variantiga nisbatan 4,1-5,6 s/ga yoki 12,0-16,4% yuqori hosil olingani aniqlangan. .

Fitovak stimulyatori, hamda karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya qo‘llashning g‘o‘zadagi samaradorligini o‘rganish uchun vegetatsiya davrida uning o‘sishi, rivojlanishi, hosil to‘plash jarayoni va hosildorligiga ta’siri aniqlandi. Tajribada ushbu Fitovak stimulyatori hamda karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya bilan g‘o‘zaning shonalash, gullash davrlarida qo‘llanilganda g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan.

Fitovak stimulyatori turli me’yor va muddatlarda va g‘o‘zaning turli rivojlanish davrlarida qo‘llanilgan variantlarda olinib 38,2-39,7 s/ga ni tashkil etgan holda nazorat variantiga nisbatan 4,1-5,6 s/ga yoki 12,0-16,4% yuqori hosil olingani aniqlangan.

Suspenziya va fitovak stimulyatorini qo‘llashning paxta hosiliga ta’siri, Buxoro-102

№	Tajriba variantlari	G‘o‘zani 3-4 barg,	Bir ko‘sa	Ko‘chat	Terimlar bo‘yicha	Paxta hosili,	Nazoratdan

		shonalash va gullash davrida qo‘llash me’yori	k vazni, g	qalinli-gi, ming tup/ga	1	2	s/ga	farqi, s/ga
1	Nazorat (suv bilan)	-	5,2	93,2	25,9	6,2	32,1	-
2	Karbamid	0,7-0,9 kg/ga, 600 l suv	5,9	96,2	29,3	7,2	36,5	4,4
3	Fitovak	0,4 l, 600 l suv	6,1	96,9	28,4	7,6	36,0	3,9
4	Karbamid+ Fitovak	5 kg, 600 l suv, 0,4 600 l suv	6,3	99,8	29,9	7,9	37,8	5,7

Xulosa qilish mumkinki, Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproq roqlari sharoitida g‘o‘zaning 3-4 chin barg, shonalash va gullash davrlarida Fitovak stimulyatori, hamda, karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya qilinib ishlov berilganda g‘o‘zadan 0,5-5,6 s/ga yuqori paxta hosili olishga erishilgan va ushbu Karbamid va Fitovak (suspenziyalshtirilgan) stimulyatori qo‘llanilganda g‘o‘za yetishtirishda yuqori samara berishi qayd etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdualimov SH.X. G‘o‘za unib chiqishi o‘sishi va rivojlanishini faollashtiruvchi Oksigumat dorisini ko‘llash natijalari. // Paxtachilik va dehkochilikni rivojlantirishningi muammolari xalkaro ilmiy amaliy kanfrensiya maruzalari asosida makolalar to‘plami. T-2004 112-115b.
2. Abdualimov SH.X. Kuzgi bug‘doyda Fitovak stimulyatorini ko‘llash.//Fermer xo‘jaliklarida paxtachilik va g‘allachilikni rivojlantirishning ilmiy asoslari xalkaro ilmiy-amaliy kanfrensiya ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. – Toshkent. 2006. –B. 275-278.
3. Abdualimov SH.X. Toshkent viloyati sharoitida Rostbisol stimulyatorining g‘o‘zadagi samaradorligi.// Paxtachilikdagi dolzarb masalalar va uni rivojlantirish masalalari mavzusidagi xalkaro ilmiy-amaliy kanfrensiya maruzalari asosidagi maqolalar to‘plami T-2009 264-268b.
4. Abdualimov SH.X. Biostimulyatorlar bilan ishlov berilib chigit ekish me’yorini kamaytirish.//Fermer xo‘jaliklarida paxtachilik va g‘allachilikni

rivojlantirishning ilmiy asoslari xalkaro ilmiy-amaliy kanfrensiya maruzalari asosidagi makolalar to‘plami.T-2006 286-290b.

III. Internet saytlari.

5. http://www.google.uz
6. http:// www.ref.uz
7. http://www.agro.uz
8. http://www.1rb-shor.ru
9. https//pochva.com

KARBAMID O‘G‘ITI ASOSIDA TAYYORLANGAN SUSPENZIYA VA FITOVAK STIMULYATORLARINING G’O’ZANING QURUQ MASSASIGA TA’SIRI

Zuhriddin Zokirovich. Zayliddinov

ToshDAU O‘simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasi magistri,

Annotatsiya. Ushbu maqolada karbamid o‘g‘iti asosida tayyorlangan suspenziya va fitovak stimulatorlarining g‘o‘zaning quruq massasiga ta’siri hamda qo‘llashning eng maqbul me’yorlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: karbamid, fitovak, stimulator, qo‘llash me’yorlari, ozuqa tarkibi, quruq massa, tajriba varianati, gumimaks.

Аннотация. В данной статье рассмотрено влияние суспензии карбамидных удобрений и фитостимуляторов на сухую массу хлопчатника и оптимальные нормы внесения.

Ключевые слова: мочевина, фитовак, стимулятор, нормы внесения, состав корма, сухая масса, опытный вариант, гумимакс.

Annotation. This article discusses the effect of a suspension of carbamide fertilizers and phytostimulants on the dry weight of cotton and optimal application rates.

Key words: urea, fitovak, stimulant, application rates, feed composition, dry weight, experimental variant, humimaks.

Olimlarning tajribalariga ko‘ra tajriba variantlarida yetishtirilgan paxta hosili 30-33,9 s/ga ni tashkil qilib, Gumimaks bu ko‘rsatkichga ijobiy ta’sir qilgani kuzatildi Gumimaks stimulyatorini chigitga 0,6-1,0 l/t ishlov ishlov berilganda 1-2 kun erta unib chiqadi va dala unuvchanligi 5,7-6% oshadi, g‘o‘za o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilib, bo‘yi 0,8-8,9 sm hosil shoxlari 0,5-1,4 dona ko‘saklari 0,3-1,8 dona nazorat variantga nisbata ortgan. Fitovak chigitga ekish oldidan 0,8-1 l/t va g‘o‘za shonalash va gullash davrlarida 0,3 l/t me’yorda ishlov berilganda 32,8-33,9 s/ga hosil yetishtirilib qo‘shimcha 2,8-3,9 s/ga yoki 9,3-13% yuqori hosil olindi va iqtisodiy samaradorlik ortgan.

G‘o‘zaning barg yuzasi va quruq massasiga turli omillarning ta’siri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

F.Abdullayevning ilmiy manbalarida keltirilishicha Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida Gumimaks stimulyatori Navro‘z g‘o‘za navi chigitiga va vegetatsiya davrida o‘simlikka qo‘llanilganda, o‘simlikning quruq massasi ortib, tola chiqishi, 1000 dona chigit vazni, tolaning uzilish kuchi va nisbiy uzilish kuchi yaxshilangan.

Ma’lumki, dunyodagi barcha o‘simliklar tomonidan to‘planadigan organik massa milliardlab tonnani tashkil etadi. G‘o‘za ham faol fotosintez qiluvchi o‘simliklardan biridir, chunki turli nav va tuplarda transpiratsiya koeffitsienti 300-650, hatto undan ham ortiqligi adabiyotlardan ma’lum. Fotosintez jadalligi bargdagi og‘izchalar soni, bargning ishlash xarakteri, yorug‘lik darajasi va tashqi omil deb yuritiladigan tuproq, namlik, oziqa moddalar hamda boshqa agroiqlim va texnologik jarayonlar darajasiga bog‘liq. Bitta o‘simlik organi “ishi” ikkinchi o‘simlik organi “ishi” ga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi mumkin, bu jarayonni g‘o‘za organlarining o‘zaro aloqadorligi deb ataladi. Bu aloqadorlikda ildizning ish faoliyati bilan bargning rivojlanishi katta ahamiyatga egadir. Bu aloqa bir-biriga mos kelsa, modda almashinuvi yaxshi boradi, mos kelmasa buziladi, natijada mevalari to‘kilib, vegetativ o‘sish birinchi o‘ringa chiqadi. O‘sishni tezlashtiruvchi omillar rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

G‘o‘zaning rivojlanish davrlarida maqbul o‘sishi va rivojlanishi juda muhim hisoblanadi, chunki o‘simlikning vegetativ va generativ organlari maqbul shakllanishi tufayli yuqori va sifatli hosil yetishtiriladi. Shu sababli tajribada yangi stimulyatorlarning g‘o‘zaning shonalash, gullash-hosil tugish va o‘suv davri oxirida quruq massasiga ta’siri o‘rganildi.

Tadqiq etilgan Fitovak stimulyatorlari g‘o‘zaning quruq biomassa to‘plash jarayoniga o‘ziga xos samarali ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlash lozim. G‘o‘zaning shonalash davrida olib borilgan tahlillarda uning ildiz, poya, barg va shona kabi qismlarga ajratilib hisoblandi. Shundan tajriba variantlari bo‘yicha ildizining quruq massasi nazorat variantda 0,7 g, bargi 2,5 g poyasi 1,6 g, va shonasi 0,3g bo‘lib, bir tup g‘o‘zani umumiy quruq vazni 5,1 g ni tashkil etgan bo‘lsa, Fitovak stimulyatori qo‘llanilgan variantda esa ildizining quruq massasi 0,7 g, bargi 3,1 g poyasi 1,8 g, va shonasi 0,5 g bo‘lib, bir tup g‘o‘zani umumiy quruq vazni 6,1 g ni tashkil etganligi kuzatildi.

Karbamid-Fitovak stimulyatori bilan ishlov berilgan variantda bir ildizining quruq massasi 0,7 g, bargi 2,6 g poyasi 1,9 g, va shonasi 0,5 g bo‘lib, bir tup g‘o‘zani umumiy quruq vazni 5,7 g ni tashkil etganligi kuzatildi.

Nazorat variantga nisbatan bir ildizining quruq massasi 0,1 g ga, bargi 0,4-0,6 g ga, poyasi 0,2-0,3 g ga, shonasi 0,1-0,2 g ga va g‘o‘zaning bir tup 0,6-1,0 g ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Shuni aytib o‘tish joizki, o‘simlikning dastlabki o‘suv davrida stimulyatorlar qo‘llanilganda fiziologik jarayonlarga ijobiy ta’siri oqibatida fotosintez mahsuldorligining ijobiy tomonga o‘zgarishi natijasida ildiz va poyaning jadal o‘sishi ta’minlangan va o‘simlikning quruq massa to‘plashi ortgan deb izohlash mumkin.

Karbamid va Fitovak (suspenziyalshtirilgan) o‘g‘itlar bilan g‘o‘zaning shonalash davrida ishlov berilgandan so‘ng quruq massaning ortishi yanada yaqqolroq namayon bo‘ldi.

Bu jarayon g‘o‘zaning gullash, hosil tugish davrlarida ham davom etib, ildizning quruq massasi ortib borganligi kuzatildi. Bu esa g‘o‘zaning ildiz tizimi shakllanishiga stimulyatorlar ijobiy ta’sir etganini bildiradi.

Tadqiq etilgan Karbamid va Fitovak (suspenziyalshtirilgan) o‘g‘itlar bilan g‘o‘zaning quruq biomassa to‘plash jarayoniga o‘ziga xos samarali ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlash lozim. G‘o‘zaning gullash-hosil tugish davrida olib borilgan tahlillarda uning barg, poya, shona guli, chanoq va paxta quruq massasi aniqlandi. Shundan tajriba variantlari bo‘yicha g‘o‘za ildizi, bargi va quruq massasi nazorat variantda 10,7 g, poya 9,0 g, shona 3,0 g, chanoq 1,9 g va paxta 1,1 g umumiy o‘simlikning quruq massasi esa 25,7 g ni tashkil etgan bo‘lsa, Fitovak stimulyatori qo‘llanilgan variantda esa g’o’zaning quruq massasi 13,8 g, poyasi 11,8 g, shonasi 3,9 g, chanoq 1,8 g, paxta 1,2 g va o‘simlikning umumiy quruq massasi esa 32,5 g ni tashkil etganligi kuzatildi.

Karbamid-Fitovak bilan ishlov berilgan variantda bir bargning quruq massasi 17,0 g, poyasi 13,0 g, shonasi 3,8 g, chanoq 3,6 g va paxta 2,7 g ni va o‘simlikning umumiy quruq massasi esa 40,1 g ni tashkil etganligi kuzatildi.

3.4-jadval

Suspenziya va fitovak stimulyatorini qo‘llashning g‘o‘zani quruq massasiga ta’siri

№	Tajriba variantlari	G‘o‘zani 4-5 barg, shonalash va gullash davrida qo‘llash me’yori	Shonalash davrida, 18.06.2021	Gullash-hosil tugish davri, 13.07.2021	Jami o‘simlik							
			ildiz	barg	poya	shona	Jami o‘sim	barg	poya	shona, gul	Chanoq	paxta	
1	Nazorat (suv bilan)	-	0,7	2,5	1,6	0,3	5,1	10,7	9,0	3,0	1,9	1,1	25,7
2	Karbamid	7,0 kg, 600 l suv	0,7	3,3	1,7	0,5	6,3	12,4	10,2	3,0	2,8	1,1	31,3
3	Fitovak	0,4 l, 600 l suv	0,7	3,1	1,8	0,5	6,1	13,8	11,8	3,9	2,0	1,2	32,5
4	Karbamid+Fitovak	7,0-9,0 kg, 600 l suv, 0,4 l 600 l suv	0,7	2,6	1,9	0,6	6,7	17,0	13,0	3,8	3,6	2,7	40,1

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki tajriba variantlarida g‘o‘zaning gullash-hosil tugish davridagi bir tup o‘simlikning jami quruq massasi nazorat variantda va nazorat variantga nisbatan bir bargning quruq massasi 4,0-6,3 g ga, poya 3,7-4,0 g ga, shonasi 0,7-0,8 g ga, chanoq 1,4-1,7 g ga, paxta 1,5-1,6 g ga va o‘simlikning umumiy quruq massasi esa 9,9-14,4 g ga yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdualimov Sh.X. G‘o‘zada Entojean retardantini turli me’yor va muddatlarda ko‘llashning hosil elementlariga ta’siri. O‘zbekiston paxtachilikni rivojlantirish istikbollari nomli respublika ilmiy to‘plami T-2014 2-kism. 122-126b.
2. Abdualimov Sh. Unum stimulyatorini chigit unuvchanligiga tasiri. // G‘o‘za va g‘o‘za majmuidagi ekinlarni parvarishlash agrotexnalogiyalarni takomillashtirish mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani va maruzalari asosidagi makolalar to‘plami. T-2013 113-116b.
3. Abdualimov Sh. G‘o‘za o‘sib rivojlanishida stimulyatorlarning tasiri. // Tuprok umdorligini oshirish, g‘o‘za va g‘o‘za majmuidagi ekinlarni parvarishlashda manba tejovchi agrotexnalogiyalarni amaliyotga joriy etishning axamiyati mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maruzalari to‘plami T-2012 213-214 b.
4. Abdualimov Sh. O‘zbekiston paxtachiligida o‘sishni sozlovchi moddalarni qo‘llashning ahamiyati. // G‘o‘za va g‘o‘za majmuidagi ekinlarni parvarishlash agrotexnalogiyalarni takomillashtirish mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani va ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. T-2013 105-112b.

III. Internet saytlari.

5. http://www.google.uz
6. http:// www.ref.uz
7. http://www.agro.uz
8. http://www.1rb-shor.ru
9. https//pochva.com

INGLIZ TILIDA BAXTLILIK KONSEPTINING SLENGLAR ORQALI IFODALANISHI

Raxmonova Zebunisso Anvarjon qizi
(NamDU, tayanch doktorant)

Annotatsiya. Ushbu maqola Baxt konseptining ingliz tilidagi sleng so'zlar orqali verballashuvi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, maqola baxtni o'g'zaki nutqda ifodalash jarayonida ingliz tilining britaniya variantidagi hamda amerika variantidagi sleng so'zlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: konsept, sleng so'zlar, verballashuv jarayoni, ingliz tilining britaniya varianti, ingliz tilining amerika varianti.

Lisonning inson hayotidagi o'rni beqiyos. Lisonsiz insonlar bir-birini tushunish, voqelikni, tirik dunyoni o'zlashtirish, o'zaro fikrlashish qobiliyatiga ega bo'lmas edi.[51] U bir vaqtning o'zida inson madaniyatining buyuk mahsuli va rivojlanish imkoniyati hamdir. [52] Til muloqotning eng samarali usuli hisoblanib, u orqali biz hohish va istaklarimizni, maqsad va vazifalarimizni osonlik bilan tinglovchiga yetkazib bera olamiz.

Og'zaki nutqda eng ko'p uchraydigan lisoniy birlik sifatida slenglar o'ziga hos paradigmatic-sintagmatik hususiyatlarga ega bo'lib, ular ham boshqa til birliklari qatorida tadqiqotimiz obyekti hisoblanmish baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasini verballashuv jarayonida ham faol qo'llaniladi. Ma'lumki, slenglar ham argo va jargonlar kabi stilistik cheklangan va, asosan, og'zaki nutqga hos bo'lgan leksik birliklar hisoblanib, tilning jamiyatdagi ijtimoiy baxosini aniqlashda eng muhim omil hisoblanadi. Takidlash joizki, bugungi kunga kelib sleng kirib bormagan, undan foydalanilmaydigan sohalar soni judayam kam miqdorda bo'lib, biz yoritmoqchi bo'lgan, insonning emotsional holati hisoblanmish baxtlilik konsepti ham slenglar orqali og'zaki nutqda faol ifodalanadi.

Slenglar nafaqat tilni xorijiy til sifatida o'rganuvchilar, balki ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlar orasida ham alohida e'tibor bilan o'rganilishni talab qiladigan noadabiy leksikaning bir turi hisoblanib, uning biror bir konseptni ingliz

[51] Sh.Safarov. Kognitiv Tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti. Jizzax 2016 3-b (92 bb)
[52] M.E.UMARXO'JAEV UMUMIY TILShUNOSLIK (o'quv qo'llanma) ANDIJON- 2010 4-b 76-bb

tilining amerika variantida ifodalashi Buyuk Britaniya variantida ifodalanishidan keskin farq qiladi. Quyida baxtlilik konseptining slenglar orqali amerika va britaniya variantlaridagi reprezentatsiyasini ko'rib chiqamiz.

"Baxtlilik" konseptini ifodalovchi ingliz tilining amerika variantidagi slenglar:

- **warm fuzzies** *(The movie gave her the warm fuzzies.)*[53]
- **high, wide, and handsome** (*Johnny's in a bit of a bad mood, but just give him a new toy to play with and he'll be high, wide, and handsome again in no time.)*[54]
- **Up** *(I'm up today. Let's celebrate.*[55]*)*
- **walk on sunshine** (*I'm in love and I'm walking on sunshine*[56]*)*
- **tickled (pink).** *(I am tickled pink you could come this evening)*[57]
- **grooved** *(I am so grooved. I'll just kick back and meditate. You sure look grooved. What's been happening in your life?)*[58]
- **bliss so out** *(This kind of sunny weather just blisses me out.)*[59]
- **on cloud seven** (1956), **on cloud nine**(19590 *(The prime minister was on cloud nine,'said a member of the British team.)*
- **buzzkill** *(Oh, Willy! You're such a buzzkill!*[60]*)*

"Baxtlilik" konseptini ifodalovchi ingliz tilining britaniya variantidagi slenglar

5. **be floating on air** (*When he got his exam results he was floating on air.)*[61]
6. **be full of the joys of spring** (*He bounced into the office, full of the joys of spring.)*[62]
7. **thrilled to bits** (*She was thrilled to bits with her present.*)
8. **chipper** (*You seem mighty chipper this morning - what's up?*)

[53] https://www.britannica.com/dictionary/warm-fuzzies#:~:text=%2F%2D%CB%88f%CA%8Cziz%2F-,noun,feelings%20of%20happiness%20and%20affection

[54] https://idioms.thefreedictionary.com/high+wide+and+handsome

[55] A. Richard. Spears "NTC's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions" third edition. Copyright © 2000by The McGraw-Hill Companies. 449p

[56] A. Richard. Spears "NTC's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions" third edition. Copyright © 2000by The McGraw-Hill Companies. 456p

[57] A. Richard. Spears "NTC's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions" third edition. Copyright © 2000by The McGraw-Hill Companies. 433p

[58] A. Richard. Spears "NTC's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions" third edition. Copyright © 2000by The McGraw-Hill Companies. 183p

[59] McGraw-Hill's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions. Copyright © 2006 by The McGraw-Hill Companies 33p (576pp)

[60] McGraw-Hill's Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions. Copyright © 2006 by The McGraw-Hill Companies 56p (576pp)

[61] https://dictionary.cambridge.org

[62] https://dictionary.cambridge.org

9. **Gruntled** (*Although he wasn't actually disgruntled, he was far from being gruntled.)*

10. **Jaunty** *(a jaunty grin/step When he came back his hat was at a jaunty angle and he was smiling.)*

11. **Chipper** (*You seem mighty chipper this morning - what's up?)*

12. **Chirpy** (*She seemed quite chirpy this morning.)*[63]

So'ngi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki slenglar asosan yoshlar tomonidan eng ko'p ishlatiladigan til birligi hisoblansa, boshqa bir tadqiqotdan olingan xulosalarga[64] ko'ra slenglar asosan baxtli emotsiyani ifodalash uchun ishlatilishi ma'lum bo'ldi. Maqolamizda keltirilgan slenglar esa hozirgi kunda ingliz tilining britabiya va amerika variantlarida baxtlilik konseptini ifodalash og'zaki nutqda ko'p qo'llanib kelinayotgan leksik birliklar hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Safarov. Kognitiv Tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti. Jizzax 2016 (92 bb)
2. M.E.Umarxo'jaev umumiy tilshunoslik (o'quv qo'llanma) andijon- 2010 76-bb
3. https://www.britannica.com/dictionary/warm-fuzzies#:~:text=%2F%2D%CB%88f%CA%8Cziz%2F-,noun,feelings%20of%20happiness%20and%20affection

A. Richard. Spears "NTC's dictionary of american slang and colloquial expressions" third edition. copyright © 2000by the mcgraw-hill companies. 449p

4. McGraw-Hill's dictionary of american slang and colloquial expressions. copyright © 2006 by the mcgraw-hill companies (576pp)
5. https://dictionary.cambridge.org
6. Slang usage analysison students' daily communication (a descriptive research at the eleventh grade of sma negeri 7soppeng) english education department faculty of teacher training and education muhammadiyah makassar of university 2017

[63] https://dictionary.cambridge.org

[64] Slang usage analysis on students' daily communication (a descriptive research at the eleventh grade of sma negeri soppeng) english education department faculty of teacher training and education muhammadiyah makassar of university 2017cvv

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI - O’ZBEK TILIDIR

Yulamanova Shaxinabonu Nodirovna
Buxoro Viloyati Buxoro shahri Buxoro Viloyat
Yuridik Texnikumining S.H.F 1/22 Guruh O’quvchisi
Shahinayulamanova@gmail.com
t.me/shahinayulamanova

Annotatsiya. Til millatning ko’zgusidir. Til millatning urf-odatlarini an’analari qadriyatlarini farqlab beradi. Til insonlarning, shaxslarning bir-biri bilan muloqot qilish, bir-birini anglash vazifasini bajaradi. Har bir davlat va millatning o’zining tili bor va u til tufayli insonlar bir-biri bilan muloqot qilib, bir-birini tushunishadi. O’zbekiston ham o’zining o’zbek tiliga erishishi oson bo’lmagan bunga jadidchilarning harakati-yu, mehnati katta o’rin tutadi. Shukr qilib, bemalol ayta olishimiz kerakki, bizning millatimizning,davlatimizning o’zining o’zbek tili, davlat tili mavjud va taraqqiyot rivojlanishi bilan bizning tilimiz ham ancha rivojlanib kelmoqda. Muhtaram prezidentimiz M.SH.Mironovich tomidan tiligimizga katta e’tibor berilmoqda, xususan o’zbek tiliga butunlay o’tish rejasi ham amalga oshirilmoqda. Shuning uchun biz yoshlar o’zbek tilimizni asrab-avaylab uni yanada rivojlanishi uchun harakat qilishimiz kerak.

Kalit so’zlar: delegatsiya, jadidlar, olim, davlat, prezident, Xitoy, millat, yunesko, qonun, respublika, taraqqiyot, Sovet Sotsialistik Respublika, konstitutsiya, mustaqil, muttafakir.

Kirish. O’zbek tiliga O’zbekiston Respublikasi davlat tili maqomi berilganiga ham 33 yil bo’ldi.1989 yil 21 oktyabr ,,Davlat tili haqida’’ gi Qonun qabul qilinib,o’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.O’zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgust mustaqil respublika bo’ldi.Mustaqil respublika bo’lganidan so’ng,o’zining konstitutsiyasi, bayrog’i,gerbi va madhiyasiga ega bo’ldi va shu qatorda o’zining davlat tiliga ega bo’ldi. Muhtaram 1- prezidentimiz I.A.Karimovning sa’y-harakatlari tufayli O’zbekiston mustaqil bo’ldi.O’zbekiston o’zbek,o’ziga xon,o’ziga bek bo’ldi

. O’zbekiston respublikasining 4-moddasi da ,,O’zbekiston respublikasining davlat tili o’zbek tilidir.O’zbekiston respublikasi o’z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari,urf-odatlari va an’analari hurmat qilinadini ta’minlaydi va ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi’’ deb ham konstitutsiyada belgilab qo’yilgan.Ya’ni faqatgina O’zbekiston respublikasining tiligina emas,balki boshqa millat va elatlarning tili dini millatidan qat’iy nazar ularning rivojlanishi uchun O’zbekiston respublikasi shart-sharoit yaratib beradi.

O’zbekiston respublikasi mustaqil bo’lganidan so’ng, asta-sekin rivojlana boshladi.Hech kimga sir emas-ki, har bir sohaning rivojlanashi va o’sishi uchun

ma’lum bur vaqt talab etiladi. Anashu 33 yil davomi o’zbek tili ancha rivojlandi. Bunga misol qilib, ajdodlarimizdan qolgan noyob va nodir kitoblarimizni bizgacha o’zimizning o’zbek tilimizga qayta o’girilib yozilganligini bemalol ayta olishimiz mumkin. Hammamizga ma’lumki biz SSR ya’ni Sovet Sotsialistik Respublika davrida ajdodlarimiz buyuk muttafakir, shoir yozuvchilariz ancha qiynalishti,bunga misol qilib Abdurauf Fitrat, Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy,Mahmudxo’ja Behbudiylar bular ancha faoliyati davomida qiynalishti va ancha kuch va ta’ziyqlarga uchrashdi.

Xususan Turkiston jadidlari birlashtirishda ,,O’rta Osiyo jadidlarining otasi’’ deb tan olingan Mahmudxo’ja Behbudiyningning ham xizmati katta. Xususan avval Samarqandda so’ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib imom xatib, qozi, keyin muftiy darajasigacha ko’tarildi. Behbudiy O’rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo’lboshchisi edi. Behbudiyning tashabbusi bilan o’z otasi sharafiga ,,Behbudiya kutubxonasi’’ deb atalgan katta kutubxona tashkil qilindi. Behbudiyning o’zi ham ancha ta’ziyqlarga uchradi. Mahmudxo’ja Behbudiy o’z yurti uchun juda qayg’urar va doimo bo’layotga voqealarni yozib borishga harakat qilardi.Mahmudxo’ja Behbudiy yosh avlodlarning ta’lim va tarbiyasi uchun juda qayg’urar edi, Mahmudxo’ja Behbudiy yoshlarning ilm olishi uchun katta amaldorlarga vaziyatni tushuntirganlar ularga yoshlarning bilm olishi muhimligini va bu ularga xavf yetqizmasligini ta’kidlaganlar.

Lekin qancha sa’y-harakat bo’lmasin bularga erisha olmaganlar.Mahmudxo’ja Behbudiy o’sha oxirgi suhbatdan so’ng ko’rinish bermagan ya’ni u haqda to’liq ma’lumot yo’q.Mahmudxo’ja Behbudiyning safarga chiqganligi haqida ma’lumotlar bor-u, lekin safardan qaytganligi haqida hech qanday ma’lumot yo’q.

Ammo bir necha taxminlar mavjud, masalan uni ya’ni Mahmudxo’ja Behbudiyni zindonga tashlanganligiligi haqida bir necha taxminlar mavjud.Bu ajdodimizning biz yoshlar qolaversa yurtining ravnaqi uning kelajagi va o’ziga xon-u o’ziga bekligi ilm sohasiyu taraqqiyoti uchun juda ko’p harakat va islohotlar qilganlar.

Shu o’rinda XX asr boshida olti tili-o’zbek, arab, fors, hind,turk var us tillarida lug’at tuzgan Is’hoqhon Ibratning ,,Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar,lekin avval o’z ona tilini ko’zlariga to’tiyo qilib,ehtirom ko’rsatsinlar.Zero,o’z tiliga sadoqat-bu vataniy ishdir’’ degan purma’no so’zlariga ortiqcha izohning hojati yo’q.O’zbek tili dunyodagi eng boy va chuqur tarixiy ildizlariga ega bo’lgan buyuk tillardan.Bu jihatdan Alisher Navoiy ijodi va faoliyati barcha avlodlarga yuksak namuna.Buyuk mutafakkir ,,Muhokomat ul-lug’atayn’’ asarida bu muhim muammo xususida shunday yozadi

„xalq orasidan chiqqan iste'dod ahli salohiyati va qobilliyatlarini o'z tillarini turganda o'zga til bilan zohir qilmasalar va ishga solmasalar edi.Agar ikkala tilda ijod etish qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillarida ko'proq yozsalar edi''. Shu o'rinda Muhammad Yusufning ushbu she'rlarini aytsak bo'ladi:

Navoiy haqiqiy millatparvar shoir sifatida o'zbek tili va adabiyotimizning nachog'lik boy, rang-barangligi va cheksiz imkoniyatlarini butun ijodi va serqirra faoliyati bilan isbotlab,uning nufuzini jahon miqyosiga olib chiqdi. Shuning uchun ham oldin,avvalo,o'z ona tilimni chuqur o'rganishga bel bog'laganman. Chunki har birimiz davlat tiliga chuqur ehtirom bilan munosabatda bo'lishimiz kerak.Negaki, ona tilimiz onamiz,Vatanimiz,tug'ilgan joyimiz kabi aziz va mo'tabardir.

Ulug' shoir aytganidek..

Tug'ilgan yurt menga Vatan,
Ona tilim jonimdir,
Tilu yurtdan ayrilsam gar,
Shu kun o'lgan onimdir.

Darhaqiqat,insonu tilu millatsiz,Vatansiz yashay olmaydi.Baliqqa suv kerak bo'lganidek,insonga ham til suv kerak bo'lganidek zarur.Bejizga til-millat ruhi, deyilmaydi.Jahonda neki ulug'zotlar, shoir va allomalar borki, o'z ona tilini ulug'langan, u haqida asarlar bitgan, o'z ona tili nomini ona tilini ulug'lagan, u haqida asarlar bitgan, o'z ona tilini ulug'langan, u haqida asarlar bitgan, o'z ona tili nomini ona, Vatan nomlari bilan yonma-yon qo'ygan.

Navoiy bobomiz „tilga e'tiborni elga e'tibor'' deya baholaganlar.Rostdan ham, ona tilimizga e'tibor-bu xalqimizga e'tibordir.Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tilining nufuzi va maqomini oshirish bo'yicha ezgu sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.Vaqtli matbuotda olimlar,shoirlar,adiblar,madaniyat sohasi vakillarining davlat tiliga oid mazmunli chiqishlarning guvohi bo'lyapmiz.

Til,adabiyot va ma'naviyatiga e'tibor-bularning hammasi davlatimiz va xalqimizning faqat va faqat yuksalish mezonlarini belgilaydigan jihat hisoblanadi.Masalan,bugungi kunda bunyod etilgan Adiblar xiyobonidagi ulug' adib va shoirlarning siymolari ham xalqimizning yuksak ma'naviyatidan darak beradi.

Xiyobonni kezarkanmiz,ulug' adib va shoirlarimiz biz yosh avlodni ezgu maqsadlaar sari ruhlantirayotgandek tasavvur.Ustozlardan beixtiyor ta'sirlanamiz,o'zimizda kuch va ilhom sezamiz.Ular ham huddi bizga o'zbek tilida, ya'ni ona tilimizda she'r,g'azal aytib turgandek bo'ladilar goyo….

Bugungi kunda yurtimizga ona tiliga mehr-muhabbat,davlat tiliga e'tibor haqida ko'p va ho'p gapirilmoqda.Bulardan maqsad,albatta ona tilimizning nufuzi va mavqyeni oshirishdir.Men ham shu yurtning farzandi sifatida ona tilimning nufuzini oshirishga qo'limdan kelgancha harakat qilishga va'da beraman.Hudo hoxlasa,kelgusida tanlaydigan kasbim ham ona tili va adabiyot bila bog'liq,albatta. Bugungi klunda ona tilini rivojlantirish, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish,xalqaro nufuzini yanada oshirish borasida tarixiy ishlar amalga oshirilayotgan davrda yashayapmiz.Bu kabi sa'y-harakatlarda faollik ko'rsatish,davlat tiliga kuyunchaklik bilan munusabatda bo'lish har birimizning muqaddas burchimiz sanaladi.

Hozirda vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalarida faoliyat yuritayotgan maslahatchilar o'z sohalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish,davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlab,o'zbek tilini rivojlantirish,davlat tilida ish yuritishni tashkil etib kelinmoqda.

Yosh avlod vakillarining nutqini adabiy til me'yorlari talablari asosida shakllantirish uchun kuyib-pishib harakat qilmasak,tilimizga hurmatsizlik qilgandek bo'lamiz go'yo.Aslida ma'lum tilga oid so'zni o'zga til tarkibiga aralash-quralash, shaklida ishlatish nohurmatsizlik-ku.

Shunday ekan, O' zbekiston farzandi,fuqarosi ekanmiz,davlat tilini hurmat qilishimiz,uning takomilliga hissa qo'shishimiz zarur.

Buning uchun esa har doim una tilimizni sevishimiz,ardoqlashimiz,uni targ'ib etishda faollik ko'rsatishimiz,ishda,oila ushbu vazifaga vijdon ishi sifatida qarashimiz,farzandlarimizni ona tiliga yuksak hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Til-millatning ma'naviy boyligidir.Til nafaqat muammola vositasi-balki xalqning madaniyati,urf-odati,uning turmush tarsi,tarixidir.Turli xalqlarning tillariga xurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni,muloqotlarga imkoniyat yaratadi.Tillarni saqlab qolinishi uchun esa bu tillarni qo'llab-quvvatlash zarurdir.Aynan til tufayli insoniyuat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi.Barcha tillarni tan olish va xurmat qilish tinchlikning birdan bir kafolatidir. Shu sababli ham xar bir xalq o'z tilini saqlab qolishi uchun harakat qiladi. XXI asr o'rtalariga borib, Xitoy tili asosiy til bo'lib olishi mumkin. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyodagi atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250 taning Ichida ekani quvonarli, albatta.

Til- millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham buyuk va bebaho asarlar va g'azallar yozib dunyoni

lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimizyutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

Biz o'zimiz ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. „Til yashasa, millat yashaydi'' . Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligi ni dunyoga tarannum etsak,millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek „Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib boorish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi'' degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Biz ona tilimizni qancha maqtasak, uni qancha e'zoslasak shuncha kam.Chunki aynan til tufayli insoniyat u yoki bu millatga mansub ekanligini, bilib, faxrlanib yashaydi.

Til-millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining milliy rasmiy tiliga ega deb aytolmaysiz. Chunki bu xalqning milliy mustaqilligi bilan bog'liq. Muttaxasislarning so'zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yo'qolib bormoqda. Bu o'z navbatida o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning yo'qolishini anglatadi. YUNESKO vakillarining so'zlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingta 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud bo'lib, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu asosan svilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan behahradir. Masalan, Afrika tillarida so'zlovchi aholining 80 foizi xamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q. Internetdan foydalana olmaydiganlarni-ku aytmasa ham bo'ladi.

Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bugun internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri, avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muammolada bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng yo'q bo'lib , ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jaddal ravishda yo'q bo'lib ketishi tarixda kuzatilmagan. Yo'qolib ketish xavfida bo'lgan tillarning saqlab qolish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi ham madaniyatlar va tillar xilma-xilligini ta'minlashdan iboratdir. Chunki aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib, qoladi sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Til millatning ko'zgusidir. Fikrimni ushbu she'r bilan yakunlayman:

Foydalanilgan adabiyotlar to’plami:

1. Abdulla Oripov she’riy to’plami,
2. O’zbekiston respublikasining konstitutsiyasi, Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch asar, Til to’g’risidagi qonun.

DAVLAT QARZI VA IQTISODIY O’SISH TAHLILI

Fayzullokh Sattoriy
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti “Moliya” kafedrasi katta o’qituvchisi
sattoriy.fayz97@gmail.com

Annotatsiya. Deyarli barcha mamlakatlarda davlat qarzi mavjud bo‘lib, tashqi davlat qarzi iqtisodiy rivojlanishni belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Davlat qarzi universal hodisa bo'lib, barcha mamlakatlarda uchraydi va qisqa va uzoq muddatda iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada davlat qarzi va iqtisodiy o’sish o’rtasidagi bog’liqlik tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: davlat ichki qarzi, davlat tashqi qarzi, iqtisodiy o’sish, byudjet taqchilligi

Kirish. Davlat qarzi, ayniqsa, O’zbekiston kabi bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan mamlakatlar uchun hukumatning moliyalashtirishdagi tafovutni bartaraf etishning muhim vositasidir. Shunga qaramay, davlat qarzini ikki qirrali qilich sifatida ko'rish mumkin. Masalan, davlat qarzidan samarali va samarali foydalanish iqtisodiy o'sishni oshirishi va hukumatning ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlariga erishishiga yordam berishi mumkin. Nazariy jihatdan, rivojlanish bilan bog'liq loyihalarni qarz orqali moliyalashtirish mamlakatga ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga va iqtisodiy o'sishni osonlashtirishga yordam beradi. Yana bir dalil shundan iboratki, tashqi manbalardan qarz olish mamlakatga nafaqat ichki jamg'armalarni jalb qilish, balki chet el kapitalining ortiqcha qismidan foydalanish orqali kapital shakllanishini moliyalashtirish imkonini beradi. Boshqa tomondan, davlat qarziga haddan tashqari tayanish va davlat qarzini noto'g'ri boshqarish va strategiyalar makroiqtisodiy risklarni oshirishi va iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilishi mumkin. Imtiyozli kreditlar oqimida ham, yuqori davlat qarzi qarzga xizmat ko'rsatish uchun daromadlarni ko'paytirishni talab qiladi va bu, albatta, keng soliq tushumlari bazasi mavjud bo'lmaganda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. Natijada, hukumat iqtisodiy o'sishga ijobiy tashqi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa davlat xarajatlari uchun ajratmalarni qisqartirishdan boshqa muqobil yo'l qolmaydi.

Asosiy qism. adabiyotlar tahlili. Bir qator rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlar umumiy qarz majburiyatlarida nafaqat davlat qarzining, balki tijorat banklari va korporativ sektorning qarzlari keskin oshib

ketishi iqtisodiyotda jiddiy muammolarni keltirib chiqarganligi jahon moliyaviy inqirozi avj olgan paytida Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya kabi mamlakatlari misolida kuzatildi. Ushbu mamlakatlar tajribasi qarzdorlik darajasini doimiy nazorat qilish, qarzlarning noo‘rin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, tashqi qarzlarni samarali boshqarishda har bir davlat o‘zining milliy strategiyasiga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida tashqi qarzning kritik darajasi yuqorilab borayotganligi nafaqat mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi, balki dunyo iqtisodiyoti barqarorligi nuqtayi nazaridan ham xavf-xatarlar keltirib chiqarayotganligi bor haqiqat. Lekin adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, davlat qarzining iqtisodiy o’sishga ta’siri ham ijobiy ham salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Sulaiman va Azeez 2012 yilda Nigeriyada tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha tadqiqot o'tkazdilar. 1970-2010 yillarni qamrab olgan yillik vaqt oralig’i ma'lumotlaridan foydalanildi. Oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) yordamida olib borilgan empirik tahlil tashqi qarz va iqtisodiy o'sish o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar mavjudligini ko'rsatdi hamda xatolarni tuzatish modelidan olingan natijalar tashqi qarz Nigeriya iqtisodiyotining iqtisodiy o'sishiga ijobiy hissa qo'shishini ko'rsatdi. Ushbu ishning topilmalari Keyns fikrini qo'llab-quvvatladi: unda qarzning mutlaq hajmi muhim emas, lekin eng muhimi, qarz bo'yicha foiz to'lovlaridir. Xorijiy mablag'lar iqtisodiy o'sishni kuchaytirish uchun ichki jamg'armalarni to'ldirishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot Nigeriya iqtisodiyoti qarzni samarali boshqarishni ta'minlash uchun siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo’yicha tavsiyalar beradi (Sulaiman va Azeez, 2012).

Shah va Pervinlar 2012 yilda 1974 yildan 2010 yilgacha Bangladeshda tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini xatolarni tuzatish modelini qo'llash orqali tahlil qildi. Qarzning oshib ketishi va tashqi davlat qarzining siqib chiqaruvchi ta'sirini aniqlash uchun qarz yuki ikki qismga bo'lingan - tashqi qarz zaxirasi va tashqi qarzga xizmat ko'rsatish. Tadqiqot tashqi davlat qarziga xizmat ko‘rsatishning sezilarli salbiy ta’sirini va uzoq muddatda tashqi davlat qarzi zaxirasining YaIMga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Qisqa muddatda tashqi davlat qarzi salbiy ta'sir ko'rsatadi, qarz zaxirasi esa YaIMga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi (Shah va Pervin, 2012).

2015-yilda Vu va Kumar 1970-2007 yillar mobaynida rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar guruhlari uchun yuqori davlat qarzining iqtisodiy o'sishga uzoq muddatli ta'sirini o'rganib chiqdi. Tadqiqot dastlabki qarz va keyingi o'sish o'rtasida teskari bog'liqlikni aniqladi. Qarzning yalpi ichki mahsulotga nisbati o‘n foizga oshishi bilan aholi jon boshiga real YaIMning yillik o‘sishi

yiliga 0,2 foiz punktga kamaydi. Shuningdek, natijalar rivojlangan mamlakatlarda ta'sir ancha past ekanligini ko'rsatdi. YaIMning 90 foizidan yuqori bo'lgan yuqori darajadagi qarzlargina iqtisodiy o'sishga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Patillo va boshqalar 2011 yilda tashqi qarzning sof joriy qiymatining iqtisodiy o'sishga marjinal ta'siri YaIMning 5 dan 50 foizigacha bo'lgan qarz nisbatlari uchun salbiy bo'lishini ko'rsatdi (Kumar va Vu, 2015).

Hadhek va Fatma 2014 yilda qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini va 1990 yildan 2011 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan rivojlanayotgan 19 ta davlatning iqtisodiy o'sishiga qarzlarning ta'sirini dinamik panel ma'lumotlar usullarini qo'llashni o'rganib chiqdi. Tadqiqot ikkita o'lchovning salbiy ta'sirini ya'ni, umumiy tashqi qarzning yalpi ichki mahsulotga nisbatan va tashqi qarzning YaIM nisbatan foiz ko'rinishida taxmin qildi. Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tashqi qarz iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu mamlakatlarda tashqi qarz va iqtisodiy o'sish o'rtasida salbiy bog'lanish bor (Hadhek va Fatma, 2014).

Xulosa. Xulosa o`rnida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining bir-biriga bog`liqligi ortib borayotgan bir sharoitda O`zbekiston iqtisodiyotining ochiqligini ta`minlash jarayonida davlat qarzi masalasi paydo bo'laveradi. Sababi, iqtisodiy-ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish, zamonaviy loyihalarni amalga oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish qo`shimcha investisiyalar jalb qilishni talab etadi. Ushbu sharoitda O`zbekiston uchun tashqi qarz manbalari bilan birgalikda ichki manbalarni ko`proq yo`naltirishning zamonaviy mexanizmlarini ko`zda tutuvchi ichki qarz bozorini rivojlantirish davlat qarzini boshqarish bo`yicha ishlab chiqiladigan strategiyaning asosiy masalalari sifatida qaralishi lozim. Chunki davlat qarzi, ayniqsa, tashqi qarz risklar bilan bog`liq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ajayi, L. B., & Oke, M. O. (2012). Effect of external debt on economic growth and development of Nigeria. *International journal of business and social science*, *3*(12), 297-304.
2. Clements, B., Bhattacharya, R., & Nguyen, T. Q. (2003). External debt, public investment, and growth in low-income countries.
3. Kumar, M. and Woo, J., (2015). Public debt and growth. *Economica*, *82*(328), 705-739.
4. Reinhart, C.M. and K.S. Rogoff (2010). "Growth in a Time of Debt", American Economic Review, 100, 2, 573-578.
5. Shah, M., & Pervin, S. (2012). External public debt and economic growth: empirical

YENGIL ATLETIKA DARSLARINI TASHKIL QILISHDA XARAKATLI O`YINLARNI AHAMIYATI

Ibragimova Nazokatxon Qaxramonjon qizi
Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat yo`nalishi
Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi kafedrasi o`qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yengil atletika darslarini tashkil qilishda xarakatli o`yinlarni ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** sport, yengil atletika, xarakatli o`yinlar, sog‘lom turmush tarzi, mashg‘ulot, sakrash, uzunlik, balandlik, uch hatlab sakrash, langarcho‘pga tayanib sakrash, uloqtirishlar.

O’zbekiston Respublikasi barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlanishiga ham katta e`tibor qaratmoqda. Har qanday davlatning ertangi kuni, uning yanada gullab yashnashi va rivojlanib kelayotgan davlatlar qatoridan o’rin egallab borishi ko’p jihatdan o’sib kelayotgan yosh avlodlarning jismonan sog’lom va aqlan yetuk bo’lishiga bog’liq. SHunday ekan, yurtimizda yoshlarni nafaqat ruhiy barkamol avlod qilib tarbiyalashga, balki jismonan sog’lom bo’lib o’sishiga ham alohida e`tibor qaratilmoqda.

SHu o’rinda mamlakatimizda sport-sog’lomlashtirish ustuvor masala sifatida etirof etilib,qisqa fursat ichida uning huquqiy asosi yaratildi.

Mustaqilik yillarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sport soxalariga yetarlicha shart-sharoitlar yaratish borasida qaror, farmoish va qonunlar qabul qilindi. Hozirgi kunga kelib jismoniy tarbiya va sport sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasi tomonidan mingdan ortiq sport majmualari barpo etildi.

Hozirgi zamon taraqqiyoti, bir tomondan, insoniyat turmushini yaxshilamoqda, ikkinchi tomondan esa, insonni tabiatdan yiroqlashtirmoqda. Insonning harakat faolligi susaydi, bu esa noqulay ekologik vaziyat tufayli inson organizmiga katta zarar keltirmoqda. Harakat faolligining pasayishi — bu insonning sermahsul faoliyat yuritishi uchun to‘siq bo‘luvchi ko‘pgína salbiy omillardan biridir. Yengil atletika insonning har tomonlama rivojlanishiga yordam beruvchi eng ommaviy sport turidir, chunki u hayotiy muhim va keng tarqalgan harakatlarni (yurish, yugurish, sakrashlar, uloqtirishlarni) birlashtiradi. Yengil atletika bilan muntazam shug‘ullanish kuch, tezkorlik, chidamlilik va inson uchun kundalik turmushda zarur bo‘ladigan boshqa sifatlarni rivojlantiradi.

Hozirgi vaqtda o‘zbek xalqining o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi avj olganligi, milliy va madaniy qadriyatlar tiklanayotganligi, aholining ko‘p tabaqasi tom onidan urf-odatlar va marosimlar amalga oshirilishi munosabati bilan jismoniy tarbiyaga, xususan, yengil atletika mashg‘ulotlariga zamon talabi va milliy

an’analar ruhida yondashish zarur. Jismonan va ma’naviy sog‘lom yosh avlodni voyaga yetkazishni, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va sportga intilishni kuchaytirishni, bu ishlarning g‘oyat muhim sharti sifatida bolalar ommaviy sportini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bunda yengil atletikaning ulushi juda ulkandir.

Yengil atletika yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko‘pkurashni o‘ziga biriktiruvchi asosiy sport turlaridan hisoblanadi. Yengil atletika bo‘yicha mashg‘ulotlar imkon qadar ochiq havoda o‘tkazilishi lozim. Ular organizmning hamma tizimlariga yaxshi ta’sir ko'rsatib, sog`liqni mustahkamlaydi, kuch, tezkorlik, chidamlilik, moslashuvchanlik egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantiradi, yugurish, sakrash va uloqtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarni mustahkamlydi. Yugurish, sakrash va uloqtirishlarning ayrim turlari yengil atletika hamda boshqa ko'pgina sport turlarida mashqlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Yugurishlar: tekis yugirish, g‘ovlar osha, to`siqlar o`sha, stadion yo‘lkalarida va joylarda yugurish (kross)lar, estafetali hamda sog‘lomlashtirish turlariga bo`linadi. Sakrashlar (uzunlikka, balandlikka, uch hatlab sakrash va langarcho‘pga tayanib sakrash), uloqtirishlar (bosqon, granata, nayza va yadro) tezlik-kuch, chaqqonlik, egiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi, ko‘pkurash (yugurish, uloqtirish va sakrash bo yicha yengil atletika mashqlari) har tomonlama jismoniy sifatlarning o‘sishini ta’minlaydi hamda keng ko`lamdagi malakalarni egallashni talab etadi. Yengil atletikada dars (mashg‘ulot) mashg'ulotning asosiy mazmunini tashkil etadi. Yengil atletika mashg‘ulotlari joylarda, manejlarda, sport zallarida va stadionlarda o‘tkaziladi. Hamma holatlarda ham xavfsizlik qoidalariga amal qilish shart (asosan uloqtirish va sakrash mashg‘ulotlarida). Yengil atletikachining kiyimi mayka, trusik va mashg‘ulot kostyumidan iborat bo‘lishi shart. Sovuq vaqtda ochiq havoda o`tkaziladigan mashg‘ulotlarpaytida issiq mashg‘ulot kostyumini kiyish kerak. Yengil atletikachilaming maxsus oyoq kiyimi — tishli sport poyabzali kiyiladi. Yugurish, sakrash va uloqtirishlar maxsus mo‘ljallangan sektorlarda o‘tkaziladi.

Yengil atletika bo’yicha musobaqalar quyidagi guruxlarga bo’linadi.

1.Shaxsiy birinchiliklar. 2.Jamoaviy. 3.Shaxsiy va jamoaviy.

Shaxsiy birinchilik musobaqalarida g’oliblar olgan o’rinlari bo’yicha aniqlanadi. Jamoaviy musobaqalarda esa jamoalar o’rtasida o’rni aniqlanadi. Shaxsiy va jamoaviy musobaqalarda esa xam shaxsiy o’rinlar xam jamoaviy o’rinlar aniqlanadi.

Musobaqalar quyidagi turlarga bo’linadi: kubok musobaqalari, birinchiliklar va chepionatlarga. Kubok musobaqalarida g’oliblarga ko’chma kubok topshiriladi bu musobaqalar xar yili yoki ikki yilda bir marotaba o’tkaziladi. Birinchiliklar esa xar yili 1-2-3 chi va xakozo o’rinlarni aniqlash uchun o’tkaziladi. CHepionatlarda

esa faqatgina g'oliblar aniqlanmay chempion unvoni berish uchun xar yili yoki ikki yilda bir marotaba musobaqalar o'tkaziladi. CHempion unvonini xar bir sport turida olish uchun taqvim rejaga kiritilgan musobaqlarda ishtirok etish kerak. Yengil atletika musobaqa maqomlarini 4 darajaga ajratish mumkin: Oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Goyxman "Maktabda yengil atletika" Moskva FiS. 1972.
2. "Yengil atletika" M. "Prosveyeshhniye" 1987 g.
3. Normurodov A.N. Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi. T.,2011 y.
4. Ozolin N.G tahriri ostida Yengil atletika. T., 1971y
5. Kudratov R.K. Yengil atletika. O'quv qo'llanma. 2012y

GIMNASTIKA MASHG`ULOTLARIDA SPORTCHILARGA BERILADIGAN UMUMIY YUKLAMALAR

Ibragimova Nazokatxon Qaxramonjon qizi
Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat yo`nalishi
Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi kafedrasi o`qituvchi

Gimnastika mashg`ulotlarida nihoyatda xilma-xil mashqlar, shu jumladan, turmush va mehnat tajribasida kamdan-kam uchraydigan mashqlar ham qo`laniladi. Ular murakkab harakat faoliyatidan iborat bo`lib, ularni ijro etish esa o`ziga xos sharoitlar bilan bog`liq, bu sharoitlarni belgilaydigan omilardan eng muhimi quyidagilardir:

1. Snaryadlarda, maxsus qurilmalarda ijro etiladigan shaklan va mazmunan xilma-xil bo`lgan ko`p miqdordagi harakatlarni mavjudligi.
2. Gavdaning fazodagi holati doimo o`zgarib turiladigan aylanma harakatning ko`pligi.
3. Uchib tushayotganda va yerga tushish chog`ida harakatlarni boshqara bilish.

Gimnastika mashg`ulotlarida shikastlanishga yo`l qo`ymaslik uchun xavfsizlik texnikasiga rioya qilishga qaratilgan butun choralar ko`rilishi kerak.

Quyidagi shikastlanishning asosiy sabablari bo`lishi mumkin.

1. Mashg`ulot tashkil qilish qoidalariga va mashg`ulot uslubiyatiga rioya qilmaslik.
2. Jihozlar va inventarlarni vaqtida tekshirib turmaslik.
3. Sanitariya-gigiena shartlarini buzish.
4. Varaya nazorati yo`qligi yoki muntazam ravishda o`tkazilib turmasligi.

5. Shug`ullanuvchilar o`rtasida tarbiyaviy ishlarning yetarli olib borilmasligi.

Shikastlanishning oldini olish maqsadida mashg`ulotda va musobaqalar o`tkazishdan ilgari quyidagilar amalga oshirilishi kerak.

1. O`quv hujjatlarni (rejalar va hokazolar) tayyorlab qo`yish.
2. Mashg`ulot joylarining sanitariya-gigiena talablariga qanchalar mosligini, shuningdek jiho va inventarlar buzuq emasligini shug`ullanuvchilardan har birining sport kiyimi va poyabzali xavfsizlik va gigiena talablariga qanchalik muvofiqligini tekshirib ko`rish.
3. Gimnastikachining sog`ligi yomonlashishi oqibatida yoki biror boshqa sabablar bilan sodir bo`ladigan oradagi o`zilishdan keyin mashg`ulotga, shuningdek musobaqalarda qatnashishga ruxsat berilgani haqida vrachning ruxsatnomasi bor-yo`qligini tekshirib ko`rish.

Mashg`ulot o`tkaziladigan vaqtida quyidagilar bajarilishi kerak:

1. Mashg`ulot uyushtirishning vrach qoidalariga rioya qilish.
2. Mashg`ulot oldidan shar-bir snaryadning mashkamlanadigan joylarni mustashkamligi, tushaklarning snaryadlar oldiga qanday qo`yilganligini, magneziya va kanifolning sifatini tekshirish.
3. Zamonaviy usullardan foydalanish, mohirlik bilan ko`maklashishi va shimoya qilish.

Yuqorida qayd etilganidek, mashg`ulotlarning yomon tashkil etilishi shikastlanishga asosiy sabablardan shisoblanadi. Shu jishatdan o`qituvchi va murabbiyga quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Har bir jadvalning mashg`ulot rejasiga qat`iy rioya qilish.
2. Shug`ullanuvchilarda ongli intizomliylikni tarbiyalash ulardan hamma ko`rsatmalar bajarilishini talab qilish.
3. Har bir shug`ullanuvchining xatti-sharakatlarini muntazam nazorat qilishni ta`minlash, ularga ko`p kurashning bir turidan ikkinchisiga o`zbilarmonlik bilan o`tishga ruxsat bermaslik.
4. Shug`ullanuvchilarning snaryadlar, depsinish va yerga turish joylarni yaxshi ko`rinib turadigan joylarga quyish, snaryadlarni shug`ullanuvchilar bir-biriga tegib ketmaydigan qilib o`rnatish.

Gimnastika mashg`ulotlarida himoya qilish va yordam ko`rsatish gimnastika mashqlarni texnikasini bilib olish vazifasini muvaffaqiyatli hal etishgagina emas, balki shikastlanish ro`y berishga ham yo`l qo`ymaslik imkonini beradi.

Mashq bajaruvchi, mashq bajarayotib muvaffaqiyatsizlikka uchraganda o`qituvchi yoki gimnastikachi unga vaqtida yordam berishga tayyor turishini himoya qilish deb tushunish kerak.

Himoya qilishdan yordam ko`rsatishning farqi shundaki, yordam ko`rsatganda qo`llab yuborish turtki berib qo`yish, shug`illanuvchi bajarilayotgan harakat, ketma-ketligi bo`ylab «surib borish» nazarda tutiladi.

Himoya qilish va yordam ko`rsatish ayniqsa qaltisroq harakatlar bajarayotganda anchagina psixologik ahamiyatga ega bo`ladi.

Turli gimnastika mashqlarini texnikasini o`zlashtirayotganda jismoniy yordam ko`rsatishning shug`illanuvchilarda aniq harakat tasavvurining shakllanishiga ko`maklashadi.

Quyidagilar jismoniy yordam ko`rsatishning asosiy turlariga kiradi.

a) harakat bo`ylab «surib borish».

b) harakatning eng qiyin qismida ozgina ko`maklashib yuborish.

v) shug`ullanuvchining statik holatlarda qo`llab qo`vvatlash «surib borish» sharakatini bir butun holda o`rganib olishni osonlashtiradi. «surib borish» foydalanilganda o`qituvchi o`quvchining faoliyatini bug`maydigan darajada jismoniy kuch sarflab yordam berishi lozim. Ozgina yordamlashib (turtki berib) yuborish harakatning alohida fazalari bajarilayotganda qo`llaniladi, xalos.

Shug`illanuvchi dastlabki, oraliq va pirovard sholatlarda bo`lganida, ayniqsa gimnastikachi kuchini hali yetarlicha to`g`ri sarflay olmaydigan vaqtlarda murabbiy uni qo`llab-quvvatlab turadi.

Qo`llab-quvvatlash paytida gimnastikachining gavdasi snaryadga nisbatan to`g`ri holatda (masalan, osilish, tayanish) bo`lishiga ko`maklashadi yoki kerakli vaqtda qo`llarni ko`chirib turishga imkon yaratib beriladi. Chunonchi, oldinga siltanib turib orqaga aylanishni (bruslarda) o`rganayotganda o`qituvchi shug`illanuvchini oldinga siltanishdan eng yuqori nuqtasida tutib turadi. aylanishdan keyin u qo`llarini yog`ochlarga o`z vaqtida to`g`ri qo`yib olishga yordam beradi.

Jismoniy yordamning turli xillaridan foydalanish natijasida gimnastikachida to`g`ri sharakat tasavvurlari shakllanadiki, bu tasavvurlar mashqlarni bajarish jarayonida mushim rol o`ynaydi. Mashqlarni ijro etish texnikasi takomillasha borgan sari o`quvchilarga yordamlashishdan sarflanadigan kuch darajasi kamaya borib, keyinchalik mutlaqo to`xtaydi.

Belgilarga kiradi: ayrim shollarda shug`ullanuvchilarni vrachga yuborish zarur:

1) diqqat-e`tiborining kamayishi, lanjlik loqaydlik;
2) mashqlarni bajarish sifatining yomonlashishi;
3) harakatlar muskullarining buzilishi;
4) rang uchishi, oyoq-qo`l titrashi va shokazolar:

Qattiq charchashning oldini olish uchun quyidagilarni bajarish zarur:

1. Mashg`ulotlarda yuklamalarni to`g`ri tartibga solib borish.
2. Bir xildagi harakatlari bor qaltis mashqlarni (aylanish, dumbaloq oshish, dumalanish, qattiq joyga tushadigan harakatlar, sakrashlar va hokazolarni) bajaravermaslik.
3. Mashqlar ijro etilishini yengillashtiradigan shart-sharoitlardan (yordam ko`rsatish himoya qilish, texnika vositalar, yordamchi mashqlar va hokazolardan) foydalanish.
4. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalaridan oqilona foydalanib, jismoniy qobiliyatni muntazam ravishda takomillashtirib berish.

Foydalangan adabiyotlar

1. Goyxman "Maktabda yengil atletika" Moskva FiS. 1972.
2. Normurodov A.N. Yengil atletika va uni o’qitish metodikasi. T.,2011 y.
3. Ozolin N.G tahriri ostida Yengil atletika. T., 1971y
4. Kudratov R.K. Yengil atletika. O’quv qo’llanma. 2012y

О ПОСЕЩЕНИИ МУХ-ЖУРЧАЛОК (DIPTERA, SYRPHIDAE) ЦВЕТКОВЫХ РАСТЕНИЙ В ЗАРАФШАНСКОМ ХРЕБТЕ

Шодмонов Ф.А.

Сирфиды или журчалки (Diptera, Syrphidae) - одно из самых крупных семейств короткоусых круглошовных двукрылых (Cyclorhapha Brauer, 1863) и данное время известно свыше 6100 видов [34 с. 229–278] из 225 родов (Кузнецов, 2002), которые населяют разнообразные экосистемы, во всех материках кроме Антарктиды. Взрослые особи журчалок питаются пыльцой и нектаром. Они играют важную роль в опылении, тем самым влияют на семенную продукцию кормового растения который может быть культурным. Журчалки относятся к высокоорганизованным и эффективным опылителям цветковых растений [7]. В биотопах с меньшим количеством перепончатокрылых, в комплексе антофилов журчалки являются доминирующей группой. На фоне сокращении численности опылителей во всем мире [2], увеличивается важность диких опылителей.

Роль мух-журчалок в опылении культурных растений изучается достаточно давно. Деятельность сирфид, как опылителей, изучена на многих культурных и лекарственных растениях. Л.В. Пэк отмечает посещение 6 видов сирфид культурного опийного мака в условиях Иссык-Кульской котловины [4].

Достаточно большое количество работ выполнено по влиянию диких цветущих растений на численность мух-журчалок в агроценозах, а также на эффективность опыления ими различных культур. Наличие цветочных полос

в агроценозах не только поднимает эффективность опыления, но ещё способствует к уменьшению количества тлей в культурах. [5].

В условиях Астраханского природного биосферного заповедника выявлено преобладание сирфид (*Mesembrius peregrinus* и виды из рода *Eristalis* Latreille, 1804) среди антофильного комплекса кендыря сарматского (*Trachomitum sarmatiense* Woodson, 1930). Они составляли 51% двукрылых, а те свою очередь составляли основную группу среди всех опылителей (47%) [3].

Многие мухи-журчалки трофически связаны с цветковыми растениями, имаго питаются пыльцой и нектаром цветов. Отдельные виды сирфид избирательны в посещении цветков тех или иных видов растений. Нами сирфиды были отловлены на цветках 66 видов растений из 26 семейств. От видового состава цветущих растений в биотопе зависит и число видов мух-журчалок. Мухи больше предпочитают цветы растений из семейств: зонтичные (Apiaceae), сложноцветные (Asteraceae) и крестоцветные (Brassicaceae). Если рассматривать отдельные виды растений, то нужно отметить, что максимальное количество видов мух отмечено на феруле кухистанской (*Ferula kuhistanica* Korovin). Это многолетнее, монокарпное растение цветет с конца марта (урочище Етти Уйлисой, высота 1000 м.) до конца июня (перевал Саридукон высота 2400), на нём нами было выловлено 36 видов сирфид. Сирфиды очень часто посещают цветы зонтичных, кроме ферулы можно отметит дикую морковь (*Daucus carota* L.) и борщевика Лемана (*Heracleum lehmannianum* Bunge). На цветах этих растений мы выловили соответственно 13 и 11 видов мух-журчалок.

Самое малое количество видов сирфид отмечено в семействе маковые (Papaveraceae), лишь несколько раз мы наблюдали посещение одного вида сирфид (*Eupeodes corollae*) мака павлинного (*Papaver pavonium* L.). Среди кустарников сирфидов, можно часто встретить на цветах у хультемии персидской (*Hultemia persica* Bornm) и у разных видов шиповника особенно у розы кокандской (*Rosa kokanica* Regel).

Весенней и раннелетней флоре тугаев, оазисов, агроценозов и пустырей особое место занимает растения из рода клоповник (*Lepidium*). Отмечено посещение 20 видов мух-журчалок растений этого рода в тугаях разных рек и каналов. В белых соцветиях этих растений питаются кроме обычных видов *Chrysotoxum vernale, Eupeodes asiaticus, Scaeva latimaculata, S. pyrastri, Sphaerophoria rueppellii, Syrphus rectus, Ceriana sartorum, Anasimyia subtransfugus.*

Другим распространенным травянистым растением тугаев является гулявник Лёзелья (*Sisymbrium loeselii*). Растение имеет ярко-желтые соцветия что выглядит очень привлекательно для опылителей [6]. Мы отметили 14 видов мух-журчалок на цветах гулявника в Экоцентре «Джейран», Зеравшанском национальном природном парке, в тугаях мелких рек бассейна Шероддарьи и Кашкадарьи. Среди малочисленных видов посещающих гулявника следует отметить *Eristalinus aeneus, E. sepulchralis* и *Helophilus turanicus.*

Ива является одним из самых многочисленных среди древесных растений тугаев. На иве весь год можно найти тлей, которые привлекают сирфид-афидофагов. Кроме того, многие взрослые особи питаются медяной росой тлей, этого особенно часто можно наблюдать поздней осенью, когда цветов уже мало, а большинство фруктов и плодов уже убрано. На иве мы отметили 18 видов мух-журчалок.

Сами мухи-журчалки тоже имеют разный спектр пищевых растений: многочисленные виды (*Eristalis tenax, E. arbustorum, Sphaerophoria scripta, Paragus tibialis*) встречаются в цветах практически во всех изученных растений, тогда как *Cheilosia grossa* нами была выловлена только на веронике полевом (*Veronica arvensis* L.).

Литература

1. Courtney G.W., Pape T., Skevington J.H. & Sinclair B.J. Biodiversity of Diptera. In: Foottit R. & Adler P. (Eds). Insect biodiversity: Science and society. 2. Blackwell Sci. 2017. Publ.:229–278. https://doi.org/10.1002/9781118945568.ch9
2. Wagner, D. L. Insect Declines in the Anthropocene. Annual Review of Entomology, 2019. 65(1). https://doi.org/10.1146/annurev-ento-011019-025151
3. Бережнова О.Н., Буева А. Е. Антофильный комплекс лекарственного растения кендыря сарматского Trachomitum Sarmatiense Woodson, 1930 (Magnoliopsida: Apocynaceae) // Труды Ставропольского отделения Русского Энтомологического Общества. Выпуск 15 Ставрополь 2019 с 82-85
4. Пэк Л. В. 1959. Энтомофауна опийного мака в Киргизии//Автореф. канд.дисс. Фрунзе. 16 с
5. Пэк Л.В. 1971. Журчалки (Diptera, Syrphidae) - хищники тлей на плодовых деревьях в Киргизии // Мат-лы по членистоногим энтомофагам Киргизии (АП КиргССР. Кирг. отд. Весе, энтомол. о-ва). Фрунзе: Илим. С. 69-74.

6. Рахимов М.Р., Шодиева Г.Ф. Мухи-журчалки (Diptera, Syrphidae) тугаев центральной и южной части Узбекистана. Научный вестник НамГУ 2022, вып 7. С. 136-140
7. Фенгри К., ванн дер Пейл Л. Основы экологии опыления. М.: Мир, 1982. с. 323

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ДОРОЖНЫХ СМЕСЕЙ НА ОСНОВЕ СЕРОБИТУМНЫХ ВЯЖУЩИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ

Раупов Б.К.,

Мавланов Б.А.,

Фозилов С.Ф.

Бухарский инженерно-технологический институт

Перспективным направлением повышения качества дорожных битумов является использование серы для их модификации. Техническая сера является недорогим и многотоннажным побочным продуктом промышленности. Накопление технической серы как побочного продукта нефте- и газоперерабатывающих, нефтехимических производств постоянно увеличивается. Имеется достаточный мировой опыт использования серы в дорожном строительстве, указывающий на более высокие физико-механические и реологические свойства серобитумных вяжущих (СБВ) и смесей на их основе по сравнению с обычными битумами и асфальтобетонами. Применение технической серы для модификации битумов экономически целесообразно и позволяет также решать экологические проблемы во многих регионах.

Серобитумные вяжущие получали при температуре 135 °С в коллоидной мельнице. Изучение реологических свойства битума и СБВ показало, что добавка серы в количестве 5,0-15 % эквивалентна введению пластификатора. При увеличении количества серы в СБВ она выступает в качестве структурирующей добавки, но пластифицирующее действие серы на битум сохраняется до 30–50 % ее содержания в СБВ и зависит от определяемого показателя.

При хранении эффект пластифицирующего действия серы на свойства битума

Таблица 1

Сцепление битума и СБВ с поверхностью минеральных материалов

Минеральный материал	Содержание серы в вяжущем, мас. %									
	0	5	10	15	20	25	30	35	40	50
Базальт	90	90	90	100	100	100	95	90	85	85
Доломит	85	85	85	90	95	100	90	85	80	80
Кварцит	60	60	60	75	85	90	80	70	55	50

Установлено особенности влияния добавок серы на структурно-реологические свойства асфальтобетона. Показано, что понижение устойчивости и деформативности асфальтобетона по Маршаллу при содержании серы до 15 %, а затем ее повышение при содержании серы 30 и 40 % (рис. 1.4) тесно связаны с влиянием серы на вязкость и физико-механические свойства СБВ.

Введение в СБВ добавки серы в количестве до 15 % хотя и приводит к понижению прочности при сжатии и устойчивости по Маршаллу, но эти характеристики превышают требования стандартов. Увеличение содержания серы до 30 % вызывает резкий рост механических характеристик. Асфальтобетоны на СБВ при содержании серы в количестве 30 % имеют наиболее высокую морозостойкость, что объясняется лучшими адгезионными свойствами СБВ по сравнению с битумом (табл. 1.).

Модули упругости асфальтобетонов на битуме и СБВ при температуре 0 °С равны, а при отрицательных температурах асфальтобетон на СБВ имеет меньшие модули упругости, что указывает на его повышенную деформативность. Кроме того, добавка серы до 15 % в асфальтобетон вызывает повышение прочности при изгибе во всем диапазоне температур, понижение ползучести и повышение трещиностойкости.



Содержание серы, мас. %



Содержание серы, мас. %

Рис. 1. Зависимость устойчивости (а) и деформативности (б) по Маршаллу асфальтобетонов от содержания серы в СБВ. Асфальтобетон на неактивированном (1) и активированном (2) минеральном порошке.

В смесях целесообразно применение минерального порошка, активированного жидким битумом. Битумная пленка на поверхности частиц минерального порошка переводит серу в «капсулированное» состояние и препятствует образованию и росту кристаллов серы на их поверхности при остывании асфальтобетона. Это особенно важно при повышенном содержании серы (30 % и более). Активированный минеральный порошок способствует сохранению серы в переохлажденном состоянии, позволяет повысить уплотняемость смесей и физико-механические свойства асфальтобетонов. Кроме того, применение СБВ, содержащего 30 % серы, в асфальтобетоне в сочетании с активированным минеральным.

Таблица 2

Содержание СБВ и битума в асфальтобетоне

Количество серы в СБВ, мас. %	Оптимальное содержание серобитумного вяжущего		Расход битума, мас. %	Экономия битума, мас. %
	мас. %	об. %		
0	7,5	16,1	7,5	-
10	8,0	16,1	7,2	4
25	8,6	16,2	6,3	16
40	9,4	16,1	5,4	28
50	9,8	16,1	4,9	45

Влияние содержания серы в битуме марки БН 90/130 на свойства асфальтобетона было изучено на песчаном асфальтобетоне типа Д. Вяжущее получали путем перемешивания расплавленной серы и битума при 140 ºС. Затем СБВ вводили в мешалку с минеральными материалами, нагретыми до такой же температуры. Смесь перемешивали до однородного состояния. Оптимальное содержание СБВ устанавливалось по кривым зависимости прочности асфальтобетона от содержания в нем вяжущего. Как следует из данных табл. 2, при увеличении количества серы в вяжущем от 0 до 50 % его оптимальное содержание увеличилось с 7,5 до 9,8 масс. %, экономия битума составила от 4,0 до 45 %. Независимо от состава вяжущего оптимальное количество СБВ по объему остается постоянным.

ЖОМБОЙ ТУМАНИ СУҒОРИЛАДИГАН ЎТЛОҚИ АЛЛЮВИАЛ ТУПРОҚЛАРИНИНГ МЕХАНИК ВА МИКРОАГРЕГАТ ТАРКИБИ

Қўчқаров Бахтиёр Рўзмухамад ўғли

тадқиқотчи-изланувчи

Долзарблиги. Республикамизда тарқалган ўтлоқи-аллювиал тупроқлар эволюцияси, генетик қатламларнинг шаклланиши бевосита механик таркибнинг шаклланиши билан боғлиқ ҳолда боради. Дарҳақиқат, дарё сувларининг ҳаракатини ўзгариши ўз навбатида мазкур тупроқлар литологиясини тез-тез ўзгаришига сабаб бўлади ва ниҳоят бу тупроқлар горизонтал ва вертикал тузилиши механик таркиб бўйича хилма-хил бўладилар.

Ўтлоқи-аллювиал тупроқларнинг механик таркибини айрим тадқиқотчиларнинг маълумотларини (Фелициант, 1962; Турсунов, 1981; Турсунов, Абдуллаев, 1987 ва бошдалар) чуқур тахлил қилиш хамда *буз* тупроқлар минтақасидаги аллювиал тупроқлар туғрисида олинган янги маълумотларни тахлил қилиш натижасида бу тупроқлар учун 6 та гуруҳдаги механик таркибни ажратиш мумкин: 1) бутун вертикал профил бўйича қумли ва енгил қумок; 2) бутун профил бўйича ўрта қумоқ; 3) бутун профил бўйича оғир қумоқ; 4) профилда пастга томон енгиллашиб борувчи; 5) профилда пастки томон оғирлашиб борувчи; 6) қат-қат (тез ўзгарувчан) механик таркибнинг бўлишидир.

Олинган натижалар. Ўрганилган ўтлоқи аллювиал тупроқларнинг механик ва микроагрегат таркиби тўғрисидаги маълумотлар 1-жадвалда ўз ифодасини топади. Келтирилган маълумотларнинг кўрсатишича, ўтлоқи-аллювиал тупроқлар механик таркибида механик заррачаларнинг профил буйича тарқалишида бир хил қонуният хукм сурмайди. Бунинг асосий сабаби, бизнинг фикримизча, аллювий ётқизиқларининг генезиси билан боғлиқ бўлса, иккинчидан, дарёда суғориш учун олинган сувларнинг лойқаланиш даражасига боғлиқ бўлади. Шунинг учун бўлса керак, қум заррачалари (1-0,05 мм) профилда 10-40 %, чанг заррачалари (0,005-0,001 мм) 20-70, ил (<0,001 мм) 5-25 % ўртасида тебраниб туради. Шуни қайд қилиш керакки, ўтлоқланиш жараёнларида тупроқ профилининг ўрта қисмида тез-тез ва узок муддатда қайтарилиб турувчи намланиш-қуриш хамда оксидланиш-қайтарилиш жараёнлари туфайли дағал менирал қисмларни (жумладан, йирик ва ўрта қумларни) нуралиши (парчаланиши) туфайли заррачалари миқдори кўпайиши кузатилади. Бинобарин заррачаларининг вертикал профилнинг ўрта қисмида кўпайиши - бу ўтлоқи аллювиал тупроқлар учун хос бўлган хусусий морфологик-генетик белгидир.Ўтлоқи-аллювиал тупроқлар бўз тупроқларга нисбатан сергумусли бўлганликлари муносабати билан юқори микроагрегатли хисобланади. 1-жадвалда келтирилган маълумотлар кўрсатишича, сувга чидамли

микроагрегатлар миқдори ўрганилган тупроқларнинг деярли 1 метрли қатламида 26-46 % ўртасида тебраниб туради.

Одатда гумусли ҳайдалма қатламда микроагрегатлар 34-40, чимли қатламда эса 27 % ни ташкил қилади ва унча катта бўлмаган миқдорда кейинги қатламларда камая боради. Лекин айрим холатларда, жумладан, 3 ФН 75-98 см да микроагрегат кўрсатгичи 46, қурик ўтлоқи-аллювиал тупроқларнинг 18-55 см 36,82 % гача кўтарилади. Микроагрегатларнинг бу қатламларда кўтарилишига, бизнинг фикримизча 2 та сабаб бор; биринчиси, механик таркибни оғирлашуви, иккинчиси, бу қатламларда рўй бераётган намланиш-қуриш, оксидланиш-кайтарилиш жараёнларининг даврий равишда ифодаланиши бўлса керак, деган хулосага келиш мумкин. Бу ўринда шуни алоҳида кўрсатиш лозимки, ўрганилган тупроқлардаги сувга чидамли микроагрегатлар асосан > 0,01 мм дан катта агрегатлардан ташкил топган.

1-жадвал

Механик ва микроагрегат таркиблари

(абс. қуруқ тупроқ вазнига нисбатан % ҳисобида)

Жомбой тумани Жомбой массиви ўтлоқи аллювиал тупроқ, 2018 йил										
кесма	**Қатлам см**	**Механик заррачалар катталиги, мм**							**Физик лойқа, %**	
		>0,25	**0,25-0,1**	**0,1-0,05**	**0,05-0,01**	**0,01-0,005**	**0,005-0,001**	**<0,001**		
1	0-23	0,4	5,7	14,4	29,4	16,7	15,1	18,3	50,1	Оғир қумоқ
	23-38	0,5	6,3	15,4	27,8	16,8	15,1	18,2	50,1	Оғир қумоқ
	38-87	0,9	64,1	12,7	18,3	1,6	1,1	1,3	4,0	Сочилган қум
	87-130	67,3	15,3	5,5	8,0	1,5	1,3	1,2	4,0	Сочилган қум
	130 шағал									
Жомбой тумани Жомбой массиви ўтлоқи аллювиал тупроқ, 2010 йил										
2	0-30	4,65 2,1 2,51	10,15 7,15 3,00	18,46 13,84 4,62	56,63 32,59 24,04	5,78 16,68 -	2,86 16,59 -	1,47 11,01 -	- 44,28 -	Ўрта қумлоқ
	30-45	5,32 1,83 3,49	9,75 4,09 5,66	17,78 12,41 5,37	54,37 36,17 18,20	6,18 14,66 -	4,45 11,60 -	2,15 13,24 -	- 45,50 -	Оғир қумоқ
	45-75	6,38 2,48 4,10	11,75 8,28 3,47	14,83 10,52 4,31	52,85 37,75 15,10	8,53 11,37 -	2,18 12,74 -	3,48 16,86 -	- 40,97 -	Ўрта қумлоқ
	75-98	4,13 1,36 2,77	10,85 1,62 9,23	16,48 7,49 8,19	58,42 32,89 25,93	4,75 18,65 -	3,89 17,93 -	1,48 20,06 -	- 56,64 -	Оғир қумоқ

	98-120	1,85	5,48	11,56	30,12	17,21	15,39	18,39	50,99	Оғир қумоқ
	120-135	2,43	4,28	10,12	39,70	15,68	10,83	19,81	43,47	Ўрта қумлоқ
	135-150	3,05	1,56	6,39	39,79	16,89	13,36	16,96	49,21	Оғир қумоқ
	150-200	18,13	20,46	12,43	29,86	7,11	8,16	3,85	19,12	Қумоқ

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедов А.У, Аманов О. С., Парпиев Ғ.Т., Бобоев М. Ф. Зарафшон водийси тупроқларининг ҳозирги мелиоратив ҳолати ,// Тупроқ унумдорлигини оширишнинг илмий ва амалий асослари. Халқаро илмий-амалий конфереция маърузалари асосидаги мақолалар тўплами. I-қисм. –Т: 2007. –Б . 115-119
2. Қурвантаев Р., Қўзибоев О., Жапақов Н., Усманова Г. Влияние орошения на агрофизичиские свойства такырнолуговых почв Каршинской степи. (Ўзбекистон тупроқшунослари ва агрокимёгарлари жамиятининг V-қурултойи материаллари. Тошкент 2010. 16-17 сентябрь Б-106
3. Узоқов П., Абдуллаев Б. Н., Садинов А. С. Зарафшон водийси шўрланган тупроқлари ва улардан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш // Ўзбекистон тупроқшунослар ва агрокимёгарлар (2005) жамиятнинг 4-қурултойи материаллари. Тошкент, 2005-йил, Б. 167-168
4. Хошимов Ф. Х., Ортиқов Т. Қ., Тошкенбоев О. Зарафшон водийсининг қисми тупроқлари агрокимёвий тавсифи // Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида қишлоқ хўжалик ишлаб чиқаришида самарадорликни ошириш омиллари. Профессор-ўқитувчилар ва аспирантларнинг 55-илмий хисобот конференцияси маърузалари мазмун. –Самарқанд, 1997. –Б. 9.
5. Холиқулов Ш. Т., Ортиқов Т. Қ. Зарафшон воҳаси тупроқларининг ҳозирги ҳолати ва уни яхшилаш чоралари // Ўзбекистон тупроқшунослар ва агрокимёгарлар жамиятининг 5-қурултойи материаллари. Тошкент, 2010 йил 16-17 сентябрь. Б. 29-31.
6. Хошимов Ф., Ортиқов . Зарафшон воҳаси тупроқларнинг гумус ҳолати ва унга турли омилларнинг таьсири. (Ўзбекистон тупроқшунослари ва агрокимёгарлари жамиятининг V-қурултоёи материаллари. Тошкент 2010. 16-17 сентябрь. Б-163.

БУЮК МУТАФФАККИР СИЙМОСИ РАССОМ НИГОҲИДА

Султанов Х.Э.

Чирчиқ давлат педагогика университети
“Тасвирий санъат”кафедраси доценти,

Аннотация. Мақолада рассом М. Набиев томонидан Абу Райҳон Беруний портретининг яратилиш тарихи, композицион ечимини топишда мусаввирнинг маҳорати бадиий таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Малик Набиев, портрет, Абу Райҳон Беруний, тасвирий санъат, композиция.

Аннотация. В статье рассмотренқ историии создания портрета Абу Райхона Беруни художником М. Набиевом, анализируется умение художника находить композиционное решение.

Ключевые слова: Малик Набиев, портрет, Абу Райхон Беруни, изобразительное искусство, композиция.

Юртимиздан етишиб чиққан улуғ алломалар ва мутафаккирларининг кашфиётлари замонавий илм-фан ва тараққиёт пойдевори ҳисобланади.

Агар Европа Уйғониш даврининг натижалари сифатида адабиёт ва санъат асарлари, архитектура дурдоналари, тиббиёт ва инсонни англаш борасида янги кашфиётлар юзага келган бўлса, Шарқ Уйғониш даврининг ўзига хос хусусияти, аввало, математика, астрономия, физика, химия, геодезия, фармакология, тиббиёт каби аниқ ва табиий фанларнинг, шунингдек, тарих, фалсафа ва адабиётнинг ривожланишида намоён бўлади.

Миллий тарихимизнинг яна бир ёрқин юлдузи Абу Райҳон Беруний фаолиятига ҳаққоний баҳо берар экан, америкалик фан тарихчиси Сартон XI асрни «Беруний асри» деб таърифлайди. Бундай юксак ва ҳақли баҳо аввало қомусий тафаккур соҳиби бўлмиш буюк ватандошимизнинг илм-фан тараққиётига қўшган беқиёс ҳиссаси билан изоҳланади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Беруний илмий масалаларда ҳам, тарихий воқеа-ҳодисаларга, ўз замондошларига баҳо беришда ҳам ўта холислик ва ҳаққонийлик билан фикр юритган. Шу боис ҳам у ҳаётда кўп азиятлар чеккан, ҳатто умрининг охирида турмуш қийинчиликларига дучор бўлган, аммо ҳар қандай оғир шароитга қарамасдан, эътиқодидан қайтмагани унинг ўз маънавий идеалларига нақадар содиқ бўлганидан далолат беради.

Буни яхши тушунган Ўзбекистон халқ рассоми, профессор, Республика Бадиий Академиянинг фахрий академиги Малик Набиев «Беруний портрети»ни маҳорат билан яратганлигини кўришимиз муикин.

Мусаввир 1973 йилдаги Абу Райҳон Берунийнинг 1000 йиллигини ўтказишга бағишланган катта танловда ушбу асари билан муваффақиятли иштирок этди. Асарларнинг жигаррангга мойил бўёқларда акс этиши рамзий

жиҳатдан мақсадга мувофиқ бўлиб, бу сиймо тарихий шахс эканлигидан далолат берар эди. Ишлатилган ранглардан ташқари ташқи қиёфа, кийим-кечакларга атроф-муҳит тасвирига алоҳида эътибор берилиши ҳам тарихий муҳитни томошабинга ифодали қилиб кўрсатишга имкон туғдирган.

Рассом Малик Набиев бир неча йиллик изланишлари, узоқ вақг давомида машаққатли ижодий меҳнат қилиши, аллома яшаган даврни ўрганиши, у яшаган жойларда бўлиб, портретнинг бир қанча эскизлари ва ранглавҳаларини ишлаши натижасида мугафаккир инсон Беруний образи яратилди. Бу портрет устида изланиш 1949 йилдан бошланиб 1973 йилгача давом этади.

“Портретда илм муаммоларини ечишга чоғланган, вазмин нигоҳи эса олисга назар ташлаётган аллома сиймоси ифода этилган. Рассом асарда илм сирларини ечиш учун бутун вужуди билан киришган тарихий шахс, инсонпарвар олим Абу Райҳон Берунийнинг бутун салобатини, нуфузини гавдалантиради. Картинанинг кейинги планларидаги китоблар, тиббиётда, илм, фанга боғлиқ бўлган буюмлар Берунийнинг қомусий олим ва мутафаккир инсон эканини янада бўрттириб кўрсатилишига хизмат қилган.

Рангтасвирда инсон характери, умуман бутун борлиғини ёрқин намоён этадиган ифодани топиш жуда қийин масала ҳисобланади. Ушбу композициядаги тўғри топилган пластик ечими портретнинг характери, руҳий ҳолати, психологиясини, шунингдек, унинг билим йўлидаги шижоатини ҳам аниқ очиб беришга ёрдам берган.

Томошабин асарга тикилар экан унинг асосий диққати портретдаги олимнинг юзи, тафаккур ёғилиб турган сиймосига қаратилади. Портретда энг муҳими ҳисобланган юз ифодаси буюк мутаффакирнинг ички руҳий дунёси чуқур акс эттирилган. Бошқа деталлар эса уни тўлдириб, ғоявий аҳамиятини кучайтиришга хизмат қилган десак бўлади. Кўзларидаги ўзига бўлган ишонч, қатъият, маҳкам қисилган лаблар орқали мусаввир теран фикрловчи, юксак мақсадларни ўз олдига қўйган улуғ бобомизнинг улуғвор сиймосини яратишга эришган. Олим ёзишдаги қисқа танаффус пайтида фикрини бир жойга йиғишга интилган, чуқур ўйга тўлган ҳолда буюк вазифалар ечимини топишга аҳд қилган ҳолати ифодаланган. Портретдаги қўлларнинг ҳолати ҳам ўзининг чиройли ечимини топган. Асардаги портретга алоҳида қаралган тақдирда ҳам қаҳрамонимизнинг касби, характери, хатто бажарадиган ишини ҳам аниқ тасаввур қилиш мумкин.

Шунингдек портретни яратишда аллома сиймоси учун кийим танланиши ҳам муҳим аҳамият касб этган. Кийимдан ҳам буюк олимнинг касби, келиб

чиқиши ички руҳий ҳолатини очиб беришга кўмаклашувчи восита сифатида унумли фойдаланилган.

Портретда фондаги юмшоқ ранглар гўёки олимнинг кенг дунёқарашини ифодалаётгандек бўлади, гўё. Орқадаги китоблар, олим қўлини қўйиб турган миллий нақшлар билан безатилган декоратив стол улуғ мутаффакирнинг қанчалик мураккаб вазифаларни ечишга қодир буюк инсон шахсияти эканлигига ишора десак бўлади.

Портрет санъатида ўхшашликни топиш ўта муҳим. Ўхшашликсиз портрет, портрет ҳисобланмайди. Инсон ташқи қиёфасини ички қиёфаси билан мос келтириш портретга хос хусусиятдир.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, рассом бу асарида Абу Райҳон Берунийнинг ҳаққоний, ишончли сиймосини ярата олган. Портретга тикилар экансиз, беихтиёр буюк мутаффаккур бобомизнинг ишлаш жараёнига гувоҳ бўлаётгандек, қоғознинг шитирлаши, тинимсиз ҳаракатланаётган перонинг қитир-қитир овозини эшитгандек бўласиз. Ўша даврни тасаввур қилиб, ижодий муҳитни ҳис қиласиз.

Портретни ишлаш усули, дадил харакатлар билан ранг ва тус муносабатларини моҳирона уйғунлаштирганлиги рассом Малик Набиевнинг улкан ютуғи ҳисобланади.



М.Набиев. «Абу Райҳон Беруний»

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ахмедов М. Малик Набиев ҳаёти ва ижоди /Т.: Ғ. Ғулом номли Адабиёт ва санъат нашри// 200. –Б. -32.

2. Байметов, Б. Б., Султанов, Х. Э., Муратов, Х. Х., & Сабиров, С. Т. (2018). Научно-теоретические аспекты формирования композиционных способностей у студентов на занятиях по живописи. InСовременная научная мысль (pp. 83-94).;
3. Sultanov Kh.Э., Bekmurodova Sh. Art of Uzbekistan, its results, achievements and prospects / YOUNG SCIENTIST scientific journal // №4 - 2016: -P. 1241-1243;
4. Султанов Х.Э. Развитие живописи Узбекистана в период независимости /МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ научный журнал// №4 -2016: -С. 874-876;

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГИК НЕОНОЛОГИЯ

Махбуба Зияева
Жиззах политехника институти.

Аннотация. Мақолада педагогик неология ва унинг ривожланиши, олий талим тизимида тутган роли хақида сўз боради.

Калит сўзлар: неология, ижтимоий онг, IT- технология, олий талим.

Педагогик нуқтаи назардан қараганда, таълим соҳасида киритилаётган янгиликлар билан боғлиқликда неонологик ёндашув асосида талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш устувор аҳамият касб этади. Айниқса, талабаларнинг мустақил илмий дунёқараши ва эркин тафаккурини, прогрессив ижтимоий онгини шакллантириш бутун жаҳон Интернет ахборот тармоғи, мультимедиа тизимлари, илғор педагогика, ахборот коммуникация ва иннавацион IT- технологияларни эгаллаш, уларни таълим-тарбиявий, ҳаётий фаолиятлари жараёнига татбиқ этишнинг вариатив ва узвийлик тамойилларини ишлаб чиқиш педагогика олдида турган муҳим вазифалардандир.

Биз олиб борган тадқиқотнинг мақсади ҳам педагогик неонология асосида талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш самарадорлигини ошириш мазмуни, шакл ва методларини аниқлаш, тажриба-синов ишлари орқали уларни амалиётга кенг татбиқ этишдан иборатдир. Жумладан, биз тадқиқотлар жараёнида педагогик неонология асосида талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштиришнинг методологик асоси бўлиб хизмат қиладиган манбаларни қуйидагича туркумлаштиришга муваффақ бўлдик:

- талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш– жамият ҳаётида объектив мавжуд бўлиб, изчил такрорланиб турадиган воқеа-ҳодисалар ёки тарихий жараён босқичлари ўртасидаги тараққиётни акс эттирадиган барқарор алоқадорликка боғлиқ жараён эканлиги;

- Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг (ижтимоий фаоллик) шахс онгу тафаккури, маънавий-маърифий оламини жамиятнинг мақсад ва вазифаларига уйғун ҳамда ҳамоҳанг равишда шакллантириш ва ривожлантириш жараёни ҳақидаги педагогик қарашлари;

- талаба ёшларни ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий, педагогик, психологик ва тиббий билимларини оширишга қаратилган тадбирларни амалга ошириш;

- Олий таълим тизимида талаба ёшларга таъсирчан, сифатли, услубий ва консультатив ёрдам кўрсатиш механизмларини ишлаб чиқиш;

- талабаларни ижтимоий - иқтисодий ва маданий ҳаётда фаол иштирок эттиришга даъват этадиган маънавий - маърифий ишларга аниқ мазмун бахш этиш, улар ўртасида дўстона ва аҳиллик муҳитини яратиш,.

Мазкур методологик ғоялар асоси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида ПФ-5847-сонли Фармонида “... халқаро стандартлар ва миллий анъаналар уйғунлигида юқори малакали, замонавий билим ва кўникмаларга эга, мустақил фикрлайдиган, ватанпарвар, талаба ёшларни тарбиялаш” масалаларига алоҳида урғу бериб ўтилган. Шунингдек, концепциясининг 2019 йилда амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси”нинг 14 банди 2 қисмида “....Талаба-қизларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш, уларни амалий касб эгаси сифатида тайёрлаш ишларини ташкил қилиш ва тизимли равишда олиб бориш”[1] долзарб вазифа этиб белгиланган.

Мазкур концепциянинг мазмун моҳиятини чуқур таҳлил қилиб айтишимиз мумкинки, хорижий мамлакатлар тажрибасидан келиб чиқиб, талаба-ёшларнинг академик фаолияти, муаммолари ва турмуш тарзи, ўқув жараёни ҳамда маънавий-маърифий фаолиятларини неонологик ёндашув асосида ташкил қилишга қаратилган лойиҳалар ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Фикримизни қуйидаги тарзда ифодалаймиз. Биламизки “ижтимоий фаоллик” тушунчаси кенг қамровли тушунча бўлиб, бирор ҳаракатда, жараёнда жадаллик, жонбозлик кўрсатиш, ишчанлик, таъсирчанлик терминлари билан ифодаланади. Ҳар жабҳада фаол (ўқув-билув фаолиятида, спорт, маънавий тадбирлар, илмий ижодий иш.....) теран фикрлайдиган, мустақил тафаккур ва илмий дунёқарашга эга талаба ёшларни тарбиялаш бугунги кун талабидир. Демак, педагогик неонология асосида талабаларнинг ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш негизида, олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида кўрсатиб ўтилган:

-халқаро эътироф этилган ташкилотлар (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education ёки Academic Ranking of World Universities) олий таълим муассасалари билан ҳамкорлик қилиш салоҳиятига эга ёшларни тарбиялашга;

-халқаро SciVal ахборот-таҳлил тизими ёрдамида жаҳондаги илмий-тадқиқот натижаларини таҳлил қилиб бориш асосида илм-фаннинг илғор ютуқлари билан уйғун ривожланишини таъминлашга;

-нуфузли халқаро илмий журналларда мақолалар чоп этиш фаолиятини қўллаб-қувватлаш механизмларини жорий этишга;

-олий таълим муассасалари илмий журналларининг Scopus, ScienceDirect ва бошқа халқаро илмий-техник журналларга мақолалар билан иштирок этиб, илмий дунёқарашларини ривожлантиришга;

-«Study in Uzbekistan» («Ўзбекистонда таҳсил ол») лойиҳасини амалга ошириш, мамлакат таълим жозибадорлигини тарғиб қилувчи махсус веб-портал яратишга ўз ҳиссаларини қўшишга;

-таълим жараёнларини рақамли технологиялар асосида индивидуаллаштириш, масофавий таълим хизматларини ривожлантириш, вебинар, онлайн, «blended learning», «flipped classroom» технологияларини амалиётга кенг жорий этишдаги иштирокларини таъминлашга;

-маъруза ва амалий машғулотлар, семинарларни онлайн кузатиш ва ўзлаштириш имконини берувчи, шунингдек уларни электрон ахборот сақловчиларга юкловчи «E-MINBAR» платформасини амалиётга жорий этиш, таълим жараёнларида «булутли технологиялар»дан фойдаланиш базасини янгилашга;

-масофадан туриб фойдаланиш имконини берувчи электрон кутубхона тизимини кенг жорий этиш, талабаларнинг олий таълим муассасасида ўқишни тамомлаганларидан кейин касбий малакасини узлуксиз ошириб бориш имкониятларини кенгайтириш масъулиятини оширишга хизмат қилиши шубҳасиз. Алоҳида қайд этиб ўтиш лозимки, юқорида қайд этиб ўтилган талаблар Олий таълим тизимида фаолият юритаётган профессор ўқитувчиларгагина тааллуқли эмас, балки модерницазия талабидан келиб чиқиб бугун Олий таълим тизимида таҳсил олаётган талаба таълимдаги янгиликларни лойиҳалаштириш ва прогнозлаштириш ишларига ижтимоий фаол, илмий-назарий жиҳатдан “чиниққан” бўлиши лозим. Талаба ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишга бўлган эҳтиёж баркамол шахсни ривожлантиришнинг муҳим шарти бўлиши билан бирга зарурий белгиси ҳамдир.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида ПФ-5847-сонли Фармони. https://lex.uz/docs/4545884
2. Мажидов Н.М.,Азизова Ш.В. “Ижтимоий фаоллик шаклланишида амалиётнинг ўрни.” Замонавий таълим / современное образование 2015.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Есемуратов Бахыт Айтжанович
преподаватель
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

Аннотация. В статье рассматривается особенности и стадии развития интереса студентов на основе мобильных данных на уроках английского языка.

Ключевые слова: образовательный процесс, электронные платформы, мобильными приложениями, информационные и коммуникационные технологии.

Современный этап развития отечественной системы образования характеризуется процессом ее интенсивной информатизации. Информатизация образования представляется как «целенаправленно организованный процесс обеспечения сферы образования методологией, технологией и практикой создания и оптимального использования научно-педагогических, учебно-методических разработок, ориентированных на реализацию возможностей средств информационных и коммуникационных технологий (ИКТ), применяемых в комфортных и здоровье сберегающих условиях» [3:106]. В результате в научной литературе появился ряд фундаментальных исследований, посвященных использованию новых информационных и коммуникационных технологий в образовательном процессе [4:140], большинство вузов РФ стали внедрять в образовательный процесс электронные платформы E-learning и MOODLE для организации учебного процесса по всем формам обучения (очной, заочной).

Мобильные технологии являются одними из новых инновационных средств обучения иностранному языку. Под мобильными технологиями следует понимать портативные устройства с мобильными приложениями и выходом в Интернет, позволяющие обучающимся в любое время в любом месте получить доступ к учебным и информационно-справочным материалам, а также организовывать сетевое общение между участниками

образовательного процесса (студентами и преподавателем) с целью формирования аспектов иноязычной коммуникативной компетенции.

Степень разработанности проблемы. Необходимо отметить, что уже сложилась внушительная база работ для рассмотрения проблемы обучения иностранному языку на основе мобильных технологий. Анализ научных работ показал, что в центре внимания большинства исследователей находились следующие вопросы:

- теоретические основы компетентностного подхода [1:446];
- теоретические основы использования информационных и коммуникационных технологий в образовании;
- теоретические основы использования информационных и коммуникационных технологий в лингвистическом образовании;
- использование современных информационных и коммуникационных технологий в обучении иностранному языку.

Однако, несмотря на существующие исследования, посвященные использованию информационных и коммуникационных технологий в обучении иностранному языку, приходится констатировать, что существует ряд еще не разработанных и недостаточно изученных проблем, а именно:

1) *не дано* определение мобильного обучения применительно к методике обучения иностранному языку и культуре;

2) *не определены* дидактические свойства, дидактические функции и методические функции мобильных технологий применительно к методике обучения иностранному языку;

3) *не определена* номенклатура речевых умений и языковых навыков речи студентов нелингвистических направлений подготовки, развиваемых и формируемых на основе мобильных технологий;

4) *не выявлены* психолого-педагогические условия обучения иностранному языку на основе мобильных технологий;

5) *не разработана* методическая система обучения иностранному языку на основе мобильных технологий;

6) *не разработана* технология обучения иностранному языку на основе мобильных технологий.

В этой связи возникают **противоречия** между декларируемой интеграцией современных информационных и коммуникационных технологий в учебный процесс и их практическим применением в преподавании иностранного языка в высших учебных заведениях; между потребностью в условиях информатизации образования, включая и языковое образование, и отсутствием методик обучения иностранному языку и

культуре страны изучаемого языка на основе мобильных технологий.

Объектом исследования является педагогический процесс обучения иностранному языку студентов нелингвистических направлений подготовки.

Предметом исследования выступает методика обучения иностранному языку студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий.

Цель диссертационной работы состоит в разработке научно обоснованной

и экспериментально проверенной методики обучения иностранному языку

студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий.

Для достижения поставленной цели и проверки гипотезы необходимо было решить следующие **задачи**:

1) *выявить* дидактические свойства, дидактические функции и методические функции мобильных технологий;

2) *определить* номенклатуру речевых умений и языковых навыков речи студентов нелингвистических направлений подготовки, формируемых на основе мобильных технологий;

3) *выявить и обосновать* психолого-педагогические условия обучения иностранному языку студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий;

4) *разработать* методическую систему обучения иностранному языку студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий;

5) *разработать* алгоритмы развития речевых умений студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий (блог-технологии и мобильных подкастов) и серию заданий, направленных на формирование языковых навыков речи студентов на основе мобильных технологий; *провести* проверку эффективности методики обучения иностранному языку студентов на основе мобильных технологий в экспериментальном обучении; *описать* его количественные и качественные результаты.

Гипотезой исследования является предположение о том, что обучение иностранному языку студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий будет успешным, если оно осуществляется на основе разработки и внедрения такой методической системы, при которой:

- используется номенклатура речевых умений и языковых навыков,

формируемых на основе мобильных технологий;

- учитываются психолого-педагогические условия, необходимые для успешного обучения иностранному языку студентов нелингвистических направлений подготовки на основе мобильных технологий: а) мотивация студентов к использованию мобильных технологии в качестве вспомогательных средств обучения; б) готовность преподавателей осуществлять обучение на основе мобильных технологий; в) ИКТ компетентность студентов; г) ИКТ компетентность преподавателя иностранного языка; д) организация обучения иностранному языку на основе личностно-деятель-ностного подхода;

- организация обучения осуществляется в три этапа (подготовительный, процессуальный и оценочный), включая пять шагов (блог-технология) и восемь шагов (мобильные подкасты), а также с использованием серии заданий на формирование языковых навыков речи студентов.

Для решения поставленных задач и проверки эффективности гипотезы в работе применялись следующие **методы** исследования:

- анализ и обобщение результатов исследований по теме диссертационного исследования;

- моделирование педагогического процесса обучения иностранному языку на основе мобильных технологий;

- экспериментальное обучение;

- анализ и описание количественных и качественных результатов экспериментального обучения.

Таким образом, имеются все основания считать **проблему** обучения студентов нелингвистических направлений подготовки иностранному языку и культуре на основе мобильных технологий нерешенной и требующей специального исследования.

Список использованной литературы

1. Алмазова Н.И. Когнитивные аспекты формирования межкультурной компетентности при обучении иностранному языку в неязыковом вузе: Дис… докт. пед. наук. СПб, 2003. 446 с.
2. Роберт И.В. Основные направления информатизации образования в отечественной школе // Вестник московского городского университета. Серия: Информатика и информатизация образования. 2005. № 5. С. 106-114.
3. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании:

дидактические проблемы; перспективы использования. М.: ИИО РАО, 2010. 140 с.

ТАЛАБАЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Махбуба Зияева
Жиззах политехника институти

Аннотация. Мақолада талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш хақида сўз боради.

Калит сўзлар: ижтимоий фаоллик, кузатиш, олий талим, педагог, “Google scholar”, “Youtube”, “Twitter”, “Instagramm”, “Facebook”, “Телеграмм”, “Одноклассники”.

Талабалар ижтимоий фаоллигини такомиллаштириш педагог, тьюторларнинг касбий маҳорати ва билимдонлиги, креатив ёндашувига бевосита боғлиқдир. Бунинг учун педагог шахсга йўналтирилган таълим олдига қўйиладиган талабларни, иш режа ва дастурларни чуқур ва атрофлича билиши керак. Худди шу талаблар асосида талабалар ижтимоий фаоллигини ошириш жараёни мақсади ва вазифалари белгиланади.

Кузатиш ва тажрибаларимиз шуни кўрсатадики, Олий таълим тизимида талабаларнинг 90 фоизи асосий ахборот манбаи сифатида Интернетга мурожаат қилиб асосан “Google scholar”, “Youtube”, “Twitter”, “Instagramm”, “Facebook”, “Телеграмм”, “Одноклассники” каби ижтимоий тармоқлар ва видео, аудио порталларларда бўш вақтларини сарфлайдилар. Айтиш ўринлики, талабалар машғул бўлаётган Интернет маълумотларининг маълум бир қисмигина зарарли таъсир этмайдиган, илмий, маданий ва маърифий сайтлардан иборат эканлиги ҳеч кимга сир эмас.

Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутати Р. Кушербаев интернет мақоласида, Интернет тармоғида ўз жонига қасд қилишнинг осон йўлларини тарғиб қилувчи 9 минг, шаҳвоний мазмундаги 4 мингдан зиёд сайтлар мавжуд бўлса, 49 фоиз компьютер ўйинлари зўравонлик ва ёвузликни тарғиб қилади. Айни вақтда 42 фоиз болалар ва ўсмирлар, талаба ёшлар онлайн тарзида тарқатиладиган порнография таъсирига бутунлай тобе бўлиб қолган. Халқаро экспертлар дунё миқёсида 38 фоиз бола зўравонлик руҳидаги сайтларга, 26 фоизи миллатчилик характеридаги вебсаҳифаларга мунтазам киришини тасдиқлашмоқда. Қайд этиб ўтилган масалалар бевосита ҳар бир ёшнинг мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётида ўз ўрнини эгаллаши, фуқаролик позициясини шакллантириш йўлидаги муаммолар қаторида турибди.

Биз Р.Кушербаевнинг фикрларини мантиқий давом эттириб, айни вақтда Олий таълим тизимида педагогик неонология асосида талабалар ижтимоий

фаоллигини такомиллаштириш долзарб педагогик муаммо эканлигини эътироф этиб ўтишни лозим топдик.

Фикримизча, талаба ёшларда ижтимоий фаолликни такомиллаштиришнингг муҳим компонентларидан бири уларда ижтимоий онгни тарбиялаш ҳисобланади. Биламизки, ижтимоий онг ─ шахсни ижтимоийлашув жараёнида жамият тараққиёти учун (жамиятнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий-маърифий, ғоявий-мафкуравий ривожланиши) онгли равишда фаолиятга, талаба томонидан қабул қилинаётган реал ҳаёт образи, жумладан, боланинг ташқи муҳитни тўғри қабул қилиш даражаси, болани жамият тараққиётига ўзи улушини қўшишга тайёрлаш жараёнидир. Демак, ижтимоий ўзгаришлар билан бир қаторда ижтимоий онг ҳам ўзгариб ривожланиб бораверади. Шундан келиб чиқиб педагогик неонология асосида талабалар ижтимоий фаоллигини ошириш, уларда онгли интизомни, тафаккур ва дунёқарашни, миллий ва умуминсоний маданиятни таркиб топтириш негизида такомиллаштирилади.

Иккинчи муҳим компонент талабалар ўртасида миллий ва умуминсоний маданиятни таркиб топтириш жараёнининг таъсирчан, креатив ва инновацион услубларини ишлаб чиқишдан иборат. Шиддат билан ўзгараётган дунёда талабаларни муваффақиятли ижтимоий ҳаётга тайёрлашда миллий ва умуминсоний маданиятни таркиб топтириш уларда масъулият, мажбурият, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият, теран дунёқараш, соғлом эътиқодлилик, маърифатлилик, диний ва миллий бағрикенглик, маънавий, фуқаровий, маданиятлараро, ижтимоий мослашувчанлик каби фазилатларни шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Шу нуқтаи назардан қараганда Олий таълим тизимида таълим-тарбия сифатини таъминлаш масалаларини халқаро стандартлар ва талаблар асосида ташкил этиш давлатимиз раҳбарининг диққат марказида бўлиб, соҳадаги 4 та устувор вазифа: “...ўқув жараёнини бозор талабларига мослаштириб, ишлаб чиқариш билан узвийлигини таъминлаш ва талабанинг ўз устида ишлаши учун муҳит яратиш” лозимлигини таъкидлаб ўтдилар. Демак, узлуксиз таълим тизимини “рақамли технологиялар” асосида ташкил этишнинг стратегик йўналишлари, таъсирчан, креатив ва инновацион услубларини ишлаб чиқиш, хорижий фуқароларни мамлакатимизда таълим олишга кенг жалб қилиш борасидаги тарғибот ишлари, жумладан PR-лойиҳалар (Ўзбекистон олий таълим муассасалари кунларини ташкил қилиш, тақдимотлар ўтказиш ва бошқалар) интерактив виртуал платформа яратиш учун талабалардан фаол ижтимоийлашув жараёнига мослашишни талаб қилади.

Шу маънода ижтимоийлашув ташқи муҳит билан ўзаро фаол алоқа муҳитида, таълим-тарбия ҳамда ўз-ўзини тарбиялаш жараёнида, инсон ўз мақсадларини мустақил аниқлаб уларга эришиш йўлларини белгилай олганида, ўз қадр қимматини англаб етганида, жамиятдаги ўз ўрнига муносиб баҳо берганида амалга ошади ва оптимал даражада ривожланади. Бунинг учун биз талаба ёшларимизда масъулият ҳиссини тарбиялаш масаласига алоҳида эътибор қаратишимиз лозим.

Адабиётлар рўйхати

1. Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси мақолалар тўплами – Тошкент: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. – 296 б. - 15 б
2. Рахимов А.А Бўлажак ўқитувчиларни маънавий-маърифий фаолиятга тайёрлашнинг иннавацион технологиялари. П.ф.б.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Самарқанд 2020

OLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

M.I.Quvondiqova
Andijon davlat pedagogika instituti

Hammaga ma’lumki, bugungi kunda mutaxassisning texnologik tayyorligidan tashqari, shaxsning mustaqillik, muhim yechimlar qabul qila olish, har bir ishga ijodiy yondoshish, doimiy o‘qib – o‘rgana olish, kirishuvchanlik, hamkorlik qila olish va kasbiy javobgarlikni his qila olish kabi qator fazilatlarga ega bo‘lishi muhim o‘rin tutmoqda. Barcha bosqichlarda ta’limning – shaxsga yo‘naltirilishigina, yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarni bo‘lg’usi mutaxassislarda shakllantirish imkonini beradi. Shaxsning kasbiy muvofiqlashgan fazilatlari butun uni hayoti davomida ilmiy faoliyatini ta’minlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim insonni o‘z – o‘zini kasbiy imkoniyatini amalga oshirishini va uni keyinchalik ijodiy rivojini qo‘llab quvvatlashini ta’minlaydi. Shunday qilib, ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifa insonni to‘la qonli fuqaro bo‘lishini ta’minlovchi har tomonlama ilm berishdangina iborat emas, balki unda o‘rab turgan tabiatni ijodiy tasavvur qilish imkonini beruvchi mustaqil fikrlashni ham rivojlantirishi zarur. Hozirda zamonaviy davlat faoliyatida ilmning nihoyatda katta ahamiyati borligi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham, biz yuqorida aytib o‘tilgan fazilatlarga ega bo‘lgan yosh olimlarni o‘qitish va tarbiyalash alohida ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir. Axborot ob‘ektlar, hodisalar, jarayonlardagi xabarlar to’plamidir. Olingan

axborotlar belgili, matnli va grafikali ko’rinishda ifodalanadi. Belgili ko’rinishdagi axborot asosan harflar, raqamlar, belgilar va shu kabi belgilar ko’rinishidan iborat bo’ladi. Undan turli hodisalar murakkab bo’lmagan signallarni uzatish uchun foydalaniladi. Masalan, ko’chadagi svetoforning yashil chiroqi transport va odamlarning harakatlanishini bildirsa, qizil chiroq esa, aksincha, harakatlanishni ta‘qiqlaydi. Sariq chiroq esa ko’cha harakatining almashinishi xabar beradi. Matnli ko’rinish axborotni tasvirlashning deyarli murakkab ko’rinishidir. Bunda ham yuqorida keltirilganidek harflar, raqamlar, matematik belgilardan foydalaniladi. Lekin, axborotni tasvirlashda nafaqat mazkur belgilardan foydalanamiz, balki ularning tutgan o’rni ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan, "nok" va "kon" so’zlari bir xil harflardan iborat bo’lsada, lekin turli xil axborotni bildiradi. Matnli belgilardan amalda juda keng foydalaniladi. Jahonda juda ko’plab kitoblar, oynomalar, kundalik ro’znomalar va boshqalar matnli ko’rinishda chop etilmoqda. Axborot texnologiyasi - ob‘ekt, jarayon yoki hodisaning holati yangi sifat axboroti olish uchun ma‘lumotlar yig’ish, ishlov berish va uzatishning vosita va uslublarining jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir. Telekommunikatsiya-kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma‘lumotlarni masofadan uzatishdir.

G.I. Muhammedov va D.M. Maxmudovalarning ishlarida Oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish haqida so‘z boradi. Matematikaning “muommoli masalalar” ni axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida muommoli vaziyatlarni yaratish va yechish usullari bayon qilingan. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rag’batlantirishga imkon beradi. N.N.Yadgarovaning ishlarida Oliy ta’lim muassasalari matematika darslarida “Maple” dasturidan foydalanish imkoniyatlari va uslublariga bag'ishlangan. Differensial tenglamalarni maple paketi yordamida yechish usullarining xususiyatlari Oliy ta’lim talabalariga AD dan foydalangan holda matematika darslarida differensial tenglamalarni maple paketi yordamida yechishga o'rgatish metodikasi keltirilgan. X.U.Chuyanov hozirgi paytda murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtirishda matematik paketlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va roli haqida maqolasida to‘xtalgan. Matematik paketlardan o‘quv jarayonida foydalanish matematik va texnik ta’limning fundamentalligini oshirishni taminlashi, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash mahoratlarini oshirishi bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмудова Д.М. Муаммоли таълим технологиялари асосида талабаларнинг креатив фаолиятини ривожлантириш методикаси. Т.: «Bookmany print» нашриёти, 2022, - 160 б.

2. Maxmudova D.M. Muammoli o‘qitish va uning o‘ziga xos xususiyatlari // Elektron ta’lim. 2022. volume 6, №1, – Б. 23-30.
3. Махмудова Д. М. Информатика дарсларида талабалар креатив фаолиятини ривожлантиришда муаммоли масалаларнинг аҳамияти // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. БухДУ. – Бухоро, 2022. – № 3. – Б. 246-249

MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

M.I.Quvondiqova
Andijon davlat pedagogika instituti

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash ta’limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta’minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishga zarurat mavjud. Hozirgi vaqtda agrar soha mutaxassislarini tayyorlashda ta’limning zamonaviy texnologiyalarini izchil joriy etish hayotiy zarurat bo‘lib qolmoqda. “Agrar sektorda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, ustuvor qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini jiddiy oshirish va qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkonini beruvchi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etadi”.[65]

Yaqin vaqtgacha ishlatilayotgan tizimlarning aksariyati o‘qituvchiga yo‘naltirilgan edi. Hozirgi kunda odatdagi talaba o‘qishni vaqtida tugatishda duch keladigan to‘siqlarga ko‘proq e’tibor berish tendensiyasi mavjud. O‘quvchilarning ish yuki hal qiluvchi omil deb tan olinadi va o‘qituvchilar ma’lum vaqt ichida talaba nimani o‘rganishi va nimaga qodir bo‘lishi o‘rtasida ziddiyat borligini tan

[65] “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 30-noyabr, PQ-3416-sonli qarori.

olishadi.[66] Xususan, ma’lum bir o‘quv natijalari to‘plami va daraja dasturining spetsifikatsiyalari uchun talab qilinadigan kreditlar sonini aniqlashda, universitetga kirishdan oldin olingan turli xil bilim, ko‘nikma va malakalar uchun imtiyozlar berilishi kerak. O‘rta maktab ta’limi me’morchiligidagi farqlar tufayli turli mamlakatlarda ushbu oldingi omillar to‘g‘risida har xil taxminlar mavjud. Mustaqil ta’lim, o‘qitish usullari va o‘quv natijalari bir-biri bilan aniq bog‘liqdir. Biroq, boshqa tegishli elementlar mavjud. O‘qishning kerakli natijalariga erishishda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab omillar muhim rol o‘ynaydi. Bular talabalar ish vaqti, ish hajmi va yorqinligi bilan cheklanmaydi. Shuningdek, o‘qitish va o‘qitish usullarini hisobga olish kerak. O‘qitish katta guruhlarda alohida-alohida tashkil etiladi, ya’ni talabalarning ko‘pchiligi ma’ruzalar yoki seminarlar, mashg‘ulotlar va amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, ishchi guruhdagi talabalar soni o‘qitish natijalariga ta’sir qilishi mumkin, chunki o‘quv tizimidan foydalanish ehtimoldan yiroq emas. Shuningdek, tashkilotning sifati va kompyuterlar kabi zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligi. Bundan tashqari, milliy va mintaqaviy an’analarni hisobga olish kerak. Masalan, ba’zi mamlakatlarda aksariyat talabalar uyda yashaydilar va sayohat qilish uchun vaqt talab qiladilar, boshqalarda esa yolg‘iz yashaydilar va o‘zlariga qarashlari kerak. Boshqa yana bir guruhlar talabalar shaharchalarida joylashadilar. Bu omillarning barchasi ma’lum darajada vaqt (kreditlar bo‘yicha) va samaradorlik (yutuqlar darajasi bo‘yicha) bilan o‘lchanadigan o‘qitish/o‘rganish tajribasining natijalariga ta’sir qiladi. Ideal vaziyatda belgilangan maqsadlar va vazifalarga shartli o‘rganish vaqtida to‘liq erishiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, shartli o‘rganish vaqti har qanday ma’lum bir o‘quvchi o‘quv natijalariga erishish uchun sarf qilishi kerak bo‘lgan haqiqiy vaqt emas. Haqiqiy vaqt talabalardan talabalarga farq qiladi. Ko‘p hollarda ideal vaziyat bo‘lmaydi.[67]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ichki va tashqi sharoit va sharoitlarni hisobga olgan holda, har bir o‘quv dasturi uchun vaqt muvozanati bo‘lgan yuqorida aytib o‘tilgan omillar bo‘yicha to‘g‘ri muvozanatni topish kerak. Bu esahar bir muassasa va har bir mamlakatda farq qiladi. Shunday qilib, turli xil yo‘llar taqqoslanadigan ta’lim yuqori natijalariga olib kelishi mumkinligi ayon bo‘ladi. Shu tarzda Yevropada mavjud bo‘lgan xilma-xillikni to‘liq saqlab qolish mumkin. O‘quv dasturlari doimiy monitoring, sozlash va baholashni talab qiladi.

[66] Argunova T.G. Kasbiy usulni o‘rta maxsus o‘quv yurtida qo‘llash / T.G. Argunova, I.P. Pastuxova, V.A., Podvoiskiy. - M.: "O‘zR DPI" jurnali kutubxonasi, 2009 yil.

[67] Argunova T.G. O‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish / Argunova T.G. - M .: "Professional-F" DMQ, 2009 yil.

Bu shartlar va yoki sharoitlar, ya’ni bir yoki bir nechtasi aytib o‘tilgan omillar o‘zgarganda, talab qilinadigan ta’lim natijalarini olish mumkinligiga kafolat beradi. Monitoring, sozlash va baholash juda muhim ichki jarayon bo‘lib, ular uchun xodimlar va talabalar bir xil darajada javobgardirlar. Amaldagi kredittizimining idealligini tekshirishning eng muhim tashqi usuli muntazam sifat kafolati va akkreditatsiyadan iborat.[68] Biz bu masalaga alohida qog‘ozda qaytamiz. Bu yerda aytish mumkin bo‘lgan narsa shundaki, sifatni baholash sxemalari o‘quvning haqiqiy natijalari mo‘ljallangan darajaga to‘g‘ri kelishini va dastur mazmuni bilan haqiqatan ham mos kelishini tekshirish uchun ishlab chiqilgan. Hozirda ular, asosan, milliy darajada tashkil etilgan, ammo yaqin kelajakda sifatni kafolatlash va akkreditatsiya xalqaro miqyosda o‘tkazilishini kutish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 30-noyabr, PQ-3416-sonli qarori.
2. Argunova T.G. Kasbiy usulni o‘rta maxsus o‘quv yurtida qo‘llash / T.G. Argunova, I.P. Pastuxova, V.A., Podvoiskiy. - M.: "O‘zR DPI" jurnali kutubxonasi, 2009 yil.
3. Argunova T.G. O‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish / Argunova T.G. - M .: "Professional-F" DMQ, 2009 yil.
4. Gubaydulina R. X., Logvinova N. L. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish. / R. X. Gubaydulina, N. L. Logvinova // Zamonaviy yuqori texnologiyalar - 2006. 7-son 71-bet.

“ҚУТАДҒУ БИЛИГ” АСАРИДА МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Асрор Мухамедов
Андижон давлат университети эркин изланувчиси

Аннотация. Инсон маънавий юксалишида бир қатор омиллар муҳим роль ўйнади. Юсуф Хос Ҳожиб фалсафий меросидаги бу каби муҳим масалалар таҳлили ушбу тезисдан жой олган.

Калит сўзлар: Юсуф Хос Ҳожиб, маънавий юксалиш, жамият, инсон қадри, доно олимлар, табиблар.

Юсуф Хос Ҳожиб фалсафий меросида ижтимоий муаммолар ва уларни оқилона ҳал қилишга қаратилган қатор фикрлар мавжуд. Аллома ўз

[68] Gubaydulina R. X., Logvinova N. L. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish. / R. X. Gubaydulina, N. L. Logvinova // Zamonaviy yuqori texnologiyalar - 2006. 7-son 71-bet.

давридаги мавжуд воқеликка теран нигоҳ билан қарайди ва маълум бир маънодаги ўзининг концепциясини ишлаб чиқади. Юсуф Хос Ҳожибнинг ижтимоий фалсафий концепциясида уйғунлик ва муроса ётади. XX аср инсоният тарихидаги мислсиз тараққиёт билан бирга аёвсиз қарама-қаршиликлар даври ҳам бўлди. Жуда кўп ғоялар ва мафкуралар майдонга чиқди, улар ҳақида қатор-қатор фалсафий асарлар яратилди. XXI асрга ўтиб эса инсоният ҳаётидаги энг асосий парадигма ўзаро уйғунлик – табиат ва жамият, худо ва инсон, Шарқ ва Ғарб, бойлар ва камбағаллар ўртасидаги ўзаро муроса ва уйғунликкина ер юзида одам боласи ҳаётининг кафолати экани тобора аниқ бўлиб бормоқда. Тўғри, ҳанузгача ўзаро низолар якун топгани йўқ, лекин тараққийпарвар инсоният энди урушлардаги иккиюзламачиликнинг моҳиятни тўлиқ тушуниб етди. Буюк шиорлар остида миллионлаб одамларни ўлимга тик боришга мажбур қилиш кундан-кунга қийин вазифага айланиб бормоқда. Эндиликда миллатчилик, маҳаллийчилик ва гуруҳбозлик ҳолатлари тобора хунук бир ҳол сифатида намоён бўлмоқда. Шу контекстда оладиган бўлсак, Юсуф Хос Ҳожибнинг бундан минг йил аввал яратган муроса концепцияси ғоят долзарб аҳамиятга эга фалсафий бойликдир. Аллома ижтимоий табақаларнинг мавжудлигини азалдан деб билади. Фақат улар орасидаги муносабатларга тўхталади ва ҳар кимни қилиши лозим бўлган ишларни тушунтиради.

Унинг ҳозирги замон файласуфларига ҳам, адибларига ҳам, табибларига ҳам, олим ва фозилларига ҳам, чорвадорларига ҳам, деҳқонлари-ю ҳунармандларига ҳам, муаллиму мураббийларига ҳам, астроному математикларига ҳам, хуллас, барча-барчага айтадиган гапи бор. Файласуф олим Абдуқодир Зоҳидий ижтимоий борлиқнинг уйғунлаштириб турувчи, барча элементларни бирлаштириб турган субстрат масаласида шундай ёзади: “Борлиқнинг бирдан-бир масъули, қудратли субъекти, субстрати – одам, жамият, давлат бўлиб, уларнинг олий мужассами ҳоқон – элигдир. Элиг дунёни, одамлар, жамият, давлатни тузувчи, қурувчи, қонун берувчи, эзгу, юксак мақсадлар, нишонларга, бахт-саодат, фаровонликка йўналтирувчи куч-қудрат соҳибидир”[69]. Юсуф Хос Ҳожибнинг ўз даври учун анча прогрессив бўлган фикрлар – инсон қадри масаласининг устувор қўйилгани ва ушбу қадриятнинг детерминантлиги масаласи бўйича концептуал фикрлар илгари сурилгани билан ҳам ҳозирги кунда қадрлидир. Замонавий фалсафий, сиёсий ва ҳуқуқий концепцияларда инсон ҳуқуқ ва эркинликлари масаласи тобора чуқурлашиб бормоқда. Ўзбекистонда ҳам инсон қадри миллий ғоя

[69] А.Зоҳидий. Юсуф Хос Ҳожиб давлатчилик фалсафий таълимотининг негизлари.// Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу Билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020 йил. – Б. 154.

даражасига кўтарилиб, бутун давлат бошқаруви тизими инсон манфаатлари учун йўналтирилмоқда. Жумладан, мазкур масалага тўхталган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев шундай деган эди: “Албатта, инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас. Инсон қадри деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашни назарда тутамиз”.

Инсон қадри деганда, биз ҳар бир фуқаро учун муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилма ташкил этишни, малакали тиббий хизмат кўрсатиш, сифатли таълим, ижтимоий ҳимоя тизими, соғлом экологик муҳит яратиб беришни тушунамиз. Бу мақсадга эришиш учун эса дунёдаги ноёб демократик тузилма бўлган маҳалла институтининг катта имкониятларидан самарали фойдаланиш, унинг ваколатларини янада кенгайтириш, пировард натижада маҳаллани жамиятимизнинг ҳал қилувчи бўғинига айлантириш вазифасини ўз олдимизга қўймоқдамиз”.[70]

Давлатимиз раҳбари томонидан ишлаб чиқилган концептуал ёндашув бундан минг йиллар авлод-аждодларимиз томонидан ижод қилинган инсон қадрини улуғлаш ғояларига ҳамоҳангдир. Бу эса Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг чуқур фалсафий моҳияти, буюк алломаларимизнинг маънавий меросига таянишини кўрсатиб беради. Шу билан биргаликда бугун янгилик сифатида майдонга чиқаётган ғоя ва ёндашувлар аслида буюк бобокалонларимиз томонидан яратилган асарларда қайд этилгани, бу эса миллий маънавий меросимизни чуқур ўрганиш орқали ижтимоий тараққиётга ижобий таъсир кўрсатишимиз мумкинлигини намоён қилмоқда.

У ўз даврининг етук файласуфи, олими, фозили, давлат арбоби, фан ва маданият ҳомийси, ҳаётнинг энг майда икир-чикирларидан тортиб осмон жисмларининг сирларигача тушуниб етган баркамол киши эди. Албатта, унинг дунёқараши, фаннинг турли соҳаларидаги тушунчаси, ҳаётни билиши ўша давр ижтимоий тузум шарт-шароитлари билан чегараланган эди.

Мутафаккирнинг гносеологик назарияси объектив идеализмга асосланган бўлиб, билим зеҳннинг маҳсули сифатида талқин қилинади, ақл, идрок бирламчи, билим эса унга боғлиқ, иккиламчи ҳодиса сифатида қаралади. Шунинг учун ҳам инсон билимсиз туғилади, сўнг ўрганади. Зеҳн эса табиатга қўшилиб яратилади, уни инсон ўрганмайди, у азалдан инсон табиатига сингдирилган бўлади, билиш, ўрганиш қобилиятининг туб

[70] https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident - «Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас» — Президент

илоҳий асоси саналади[71]. Дунё миқёсида маънавий ҳаёт ҳам барча жабҳалар каби турли қарама-қаршиликлар генерация ва дегенерация даврларини бошдан ўтказади. Маълум бир босқичда маънавий ҳаётда умуман янги ғоялар кириб келиб эскиларини яксон қилса, маълум бир даврда ана шу эски мафкуралар тикланади. Мустақиллик шарофати билан Ўзбекистонда миллий ва диний қадриятлар қайта тикланиши кузатилди. Айниқса, диний идентификация қилиш жараёни шиддат билан амалга ошди. Ўтган қисқа давр ичида ҳам диний соҳадаги ривожланиш турғунлик даврлари билан кечган бўлса-да, ўтган йиллар давомидаги ўзгаришларнинг энг ёркини диний ўзликни англаш билан боғлиқ равишда намоён бўлмоқда. Юсуф Хос Ҳожиб диний қарашлари бугунги шароитда ижтимоий тараққиёт ва диний ўзликни англашни уйғунлаштириши мумкин. Унинг объектив идеализмининг концепцияси моҳиятан дунёнинг асосини инсон онгидан ташқарида ва унга боғлиқ бўлмаган ҳолда ғайритабиий руҳий ибтидо (Аллоҳ) бошқаради, деб ҳисоблайди. Фалсафий фанлар тараққиёти давомида Афлотун, Платон, Прокл, кейинчалик Лейбниц, Шеллинг ва Гегеллар объектив идеализм концепциясини такомиллаштириб бордилар. Гегелнинг фикрича: “Фалсафанинг мундарижаси, унинг истаклари ва қизиқишлари дин билан айнандир, сўнгисининг предмети абадий ҳақиқат, худо ва унинг моҳиятидир. Фалсафа қачонки диннинг моҳиятини тушуна олгандагина, ўзининг моҳиятини тушуна олади. Шу билан бирга фалсафий жиҳатдан ўз-ўзини тушуниш, динни тушуниш ҳамдир”[72]. Шу билан биргаликда ижтимоий муносабатларда давлатнинг ўрни ҳам мавжуддир. Чунки “Давлат инсонларнинг ҳуқуқий мажбуриятларини белгиласа, дин уларнинг ички дунёси қоидаларини белгилайди. Ўз-ўзидан кўриниб турибдики, дин ҳукмронлик қилиши керак эмас”[73]. Шу билан биргаликда ҳар бир сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий жараён ва ҳодисаларни илоҳийлаштириш, улардан қандайдир диний атрибутлар излаш, жамият ҳаётидаги объектив тараққиёт қонунларини рад этишга уриниш мамлакат тараққиётининг кушандасидир.

Ўзбекистоннинг маънавий ривожланиш босқичида диний асосларга кўра қарама-қаршилик келтириб чиқариш ҳолатлари учраб турибди. Жумладан, диндорлар томонидан бошқа дин вакиллари, айниқса диний эътиқодга эга бўлмаган жамият аъзоларини қистовга олиш ҳолатлари учраб турибди. Бу каби салбий ҳолатларнинг олди олинмаса келгусида катта ижтимоий ларзалар юзага келиши мумкин. Шу сабабли ҳам диний

[71] Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Т., 1976.
[72] Hegel G. W. F. Sämtliche Werke. Hrsg. von G. Lasson. Leipzig, 1911 ff. 29.
[73] М.Ф.Овсянников. Гегель. “Мысл”. – Москва. 1971. – С. 193-194

масалаларга ҳам дунёвий илм нуқтаи назаридан ёндашув зарур бўлиб қолмоқда.

Аллома ўз ижодида динга маънавий юксалишнинг воситаси деб қарайди. Юсуф Хос Ҳожиб ёзади:

Назар солиб динимнинг ноқислигини кўрдим,
Бу ерда мен учун афзаллик кўринди.
Шу сабабдан энди туриб бу ерга келдим,
Токи танҳоликда худога тоат-ибодатини қилсам.

Яъни агар диним (бу ўринда имоним) ноқислигини сезсам, ўзимдаги бу камчиликни тўғрилашга уринаман. Якка-ёлғиз ибодат қилиш орқали ўз нуқсонларимни тўғрилайман деб қайд этиб ўтади.

Бу орқали илм аҳли томонидан баён қилинган фикрлар аксарият ҳолларда маълум бир қонуниятларга бўйсуниб айтилган, хулосалар эса мантиқий жиҳатдан асосланганига эътибор қаратилади.[74]

Ислом дини ўзининг мазмун моҳиятига кўра инсонни баркамоллаштиришга қаратилган диндир. Маънавиятшунос олим Абдураҳим Эркаев ёзади: “Мотуридий таълимоти Қуръон ва Сунна ақидаларини, талаб ва меъёрларини кўр-кўрона эмас, балки ақлан ва чуқур идрок этиб ўзлаштиришни, уларни ғайримантиқий, нооқилона қабул қилмасликни ўргатади. Уларни ғаразли, ноилмий, ўзбошимчалик билан талқин қилишни инкор қилади. Ушбу муносабат билан Мотуридийнинг инсонда эркин танлаш имкони борлиги, у нима иш қилмасин ўз ихтиёри билан қилажаги, бинобарин, у ҳар бир яхши ва ёмон иши, ҳаракати, нияти учун масъуллиги тўғрисидаги фикри жуда қимматлидир”[75]. Олим таъкидлаганидек, инсон эркинлиги ва танлаш имконияти унинг ҳаётий фаолиятида бош мезон бўлиши зарур. Акс ҳолда дин ниқобидаги турли деструктив ғоялар ва қарашлар, экстремизм ва радикализм, шунингдек террорчилик каби ваҳшиёна хатти-ҳаракатлар ижтимоий борлиқни яксон қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. А.Зоҳидий. Юсуф Хос Ҳожиб давлатчилик фалсафий таълимотининг негизлари.// Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу Билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020 йил. – Б. 154.
2. https://xs.uz/uzkr/post/inson-qadri-biz-uchun-qandajdir-mavhum-balandparvoz-tushuncha-emas-prezident - «Инсон қадри биз учун

[74] Муҳамедов Асрор (2022). ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ ИЖТИМОИЙ СТРАТИФИКАЦИЯ КОНЦЕПЦИЯСИ. Ta’lim fidoyilari, 13-09 , 28-32.

[75] А.Эркаев. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 140.

қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас» — Президент
3. Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Т., 1976.
4. Hegel G. W. F. Sämtliche Werke. Hrsg. von G. Lasson. Leipzig, 1911 ff. 29.
5. М.Ф.Овсянников. Гегель. “Мысл”. – Москва. 1971. – С. 193-194
6. Муҳамедов Асрор (2022). ЮСУФ ХОС ҲОЖИБНИНГ ИЖТИМОИЙ СТРАТИФИКАЦИЯ КОНЦЕПЦИЯСИ. Ta’lim fidoyilari, 13-09 , 28-32.
7. А.Эркаев. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 140.